

**Jiyanmuratova G.**

# **SOTSILOGIYA TARIXI**



UDK: 373.6  
BBK: 74.200.526  
J 95

**Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna**  
**Sotsiologiya tarixi /darslik/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”,**  
**2020, 466 b.**

*Ushbu darslik “Sotsiologiya tarixi” fani namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq asosida yaratilgan. U talabalarning sotsiologiya fanining tarixi, uning shakllanishi omillari, rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlari, sotsiolog olimlarning konsepsiyalari haqida tizimli bilimlarni egallashi, shuningdek, ulardan hayotiy va kasbiy faoliyatida foydalana olishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.*

*Darslikda har bir mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan savol va topshiriqlar, shuningdek asosiy tushuncha va atamalarning qisqacha mazmuni berib o‘tilgan.*

#### **Taqrizchilar:**

*A.B. Yunusov – sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent*  
*K.K. Kalanov – sotsiologiya fanlari nomzodi, professor*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI TOMONIDAN NASHRGA TAVSIYA ETILGAN.

ISBN 978-9943-6433-1-4


© Jiyanmuratova G., 2020.  
© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.

#### **KIRISH**

*Sotsiologiya tarixi bo‘lajak sotsiolog-mutaxassislarni yetishtirib chiqarishda muhim o‘rin tutuvchi umumkasbiy fanlardan biri bo‘lib, talabaning sotsiologiya fani bilan tanishuvi u bilan bevosita bog‘liq holda amalga oshadi. Albatta, talabalarga sotsiologiya fanining tarixini o‘rganish birmuncha qiyinchilik tug‘diradi, chunki biz fanning tarixini to‘liq o‘zlashtirish uchun uni nafaqat davriy jihatdan, balki tarkibiy jihatdan va mazmunan ham tahlil etishimiz lozim bo‘ladi. Bu borada biz uning predmeti va vazifalarini turli davrlarda turlicha talqin etgan maktablar, oqimlar, yo‘nalishlar, shuningdek, dunyoga tanilgan mumtoz sotsiolog-olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar, nazariyalar, konsepsiyalarni bevosita mualliflarning birlamchi manbalariga asoslanib o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Shuningdek, sotsiologiya tarixi bilan uzoq yillar davomida shug‘ullanib kelayotgan taniqli olimlarning ishlariga ham murojaat etish zarur. Ushbu manbalarga murojaat sotsiologiya fani tarixini uning namoyandalarining konsepsiyalarini to‘g‘ri tahlil qilish orqali mustahkam o‘zlashtirilishi hamda buning natijasida kerakli ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi.*

*Ushbu darslikning birinchi bo‘limi sotsiologiya fanining mustaqil fan sifatida shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiy va g‘oyaviy-nazariy shart-sharoitlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan mavzudan boshlanib, mantiqan uning shakllanishiga va rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shgan mumtoz olimlarning sotsiologik konsepsiyalariga bag‘ishlangan mavzular bilan davom etadi.*

*Jumladan, sotsiologiya faniga asos solgan buyuk olim Ogyust Kont, shuningdek, sotsiologiya fanining dunyo bo‘ylab tanilishida muhim o‘rin tutgan olim, “organik” sotsiologiya asoschisi – Gerbert Spenser, sotsiologiyada tarixidagi pozitivistik-naturalistik maktablar, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida psixologik sotsiologiya, psixoanalitik sotsiologiya asoschisi Zigmund Freyd,*



Germaniyada sotsiologiya fanining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan Ferdinand Tyonnis va Georg Zimmellarning sotsiologik nazariyalari tahlil etilgan.

Sotsiologiyaning ikki yirik namoyandasi, bir so'z bilan aytganda gigantlari hisoblanmish Emil Dyurkgeym va Maks Veberning qarashlari fanning keyingi taraqqiyoti uchun o'ta muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Italiyada sotsiologiya fanining tanilishida Vilfredo Paretoning faoliyati alohida e'tiborga molikdir. U o'zining elita nazariyasi bilan tanilgan edi.

Darslikning ikkinchi bo'limi sotsiologiyaning rivojlanishida muhim o'rin tutgan bosqich – AQSHda empirizmning vujudga kelishi hamda sotsiologiyada tarmoq yo'nalishlarning paydo bo'lishi davriga bag'ishlangan mavzudan boshlanadi. Bunda sotsiologiya tarixidagi eng yirik va taniqli maktab bo'lmish Chikago maktabi, shuningdek, keyinchalik uning vakillari tomonidan tamal toshi qo'yilgan ramziy interaksionizm yo'nalishiga bag'ishlangan mavzular xronologik ketma-ketlikda beriladi.

AQSH va umuman dunyo sotsiologiyasida o'zining integral sotsiologiyasi bilan Pitirim Sorokinning muhim o'rin tutadi. Sorokin bilan bir davrda Garvard universitetida faoliyat yuritgan yana bir yirik olim Talkott Parsonsning va uning shogirdi bo'lmish Robert Mertonning strukturaviy funksionalistik qarashlari mavzularga yakun yasaydi.

Taqdim etilgan darslik muallifning 10 yildan ortiq muddatda "Sotsiologiya tarixi" fanidan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari olib borishi mobaynida to'plagan tajribasiga asoslanib yozilgan. O'ylaymizki, ushbu darslik talabalarga, va umuman sotsiologiya bilan qiziquvchi kitobxonlarga uning tarixini o'zlashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

## I BO'LIM. SOTSILOGIYA FANI SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTINING MUMTOZ BOSQICHI

G'arb sotsiologiyasi vujudga kelishining g'oyaviy-nazariy va ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari

Reja:

1. Sotsiologiya tarixi fani predmeti tushunchasi
2. Sotsiologiya fani shakllanishi va rivojlanishi omillari
3. Sotsiologiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari
4. Sotsiologiya fanining institutsionallashuvi
5. O'zbekistonda sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi

1. Fanlar xilma-xil bo'lganligi bois ularning tarixi ham turlicha, qisqa yoki uzun bo'lishi, osuda yoki o'ta shiddatli darajada kechishi mumkin. Bu tarix faqatgina tor doiradagi mutaxassislarga ma'lum yoki keng jamoatchilik e'tiborini tortishi mumkin. U butun dunyoga boshlang'ich maktabdanoq taniqli nomlarni berishi yoki hatto fanning nomi ham keng xalq ommasiga ma'lum bo'lmasligi mumkin.

Xo'sh, sotsiologiyaning tarixi qanday? Albatta, sotsiologiyaning tarixi jamiyat to'g'risidagi qarashlarning tarixi bilan barobardir. Sotsiologiya tarixi sotsiologiya fanining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Unda sotsiologiyaning fan sifatida vujudga kelishi, shakllanishi, funksionallashuvi, rivojlanishi o'rganiladi. Har qanday fan singari sotsiologiya fanining tarixi ham o'zining yo'nalishlari, oqim va maktablari, soha va tarmoqlari, paradigma va modellari shakllanishi va rivojlanishini o'z ichiga oladi.

Sotsiologiya tarixi fani ushbu fanning paydo bo'lishi, shakllanishi, unda turli oqimlar, maktablar, yo'nalishlar paydo bo'lishi, o'zgarishi, rivojlanishi va bugungi kungacha yetib kelgan mavjud nazariyalar haqida tizimli bilim berishga mo'ljallangan.

Sotsiologiya fanining bahs-munozarali mavzusi – bu uning tarixini bosqichlarga bo'lish, davrlar chegaralarini aniqlash bilan bog'liq masala hisoblanadi. Albatta, fan tarixining yuqori chegarasi borasida muammo yo'q – har bir olim oxirgi davrni o'z davri bilan hozirgi kungacha olib qaraydi. Quyi chegaralarini aniqlashda



birmuncha muammolar vujudga keladiki, bu masalaga har qaysi olim o'z nuqtai nazaridan yondoshadi.

Ayrim olimlar sotsiologiyaning tarixini antik davrga, ilk jamiyat to'g'risidagi qarashlar shakllanishi davriga borib taqas, boshqalar "sotsiologiya" terminini ilmiy muomalaga kiritilishi bilan bog'laydi.

Masalan, E.A.Kapitonov fanning tarixini antik davr bilan bog'lab, shuningdek, O'rta asrlar mutafakkirlarining qarashlarini sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan manbalar sifatida qayd etilishi lozim, deb hisoblaydi.<sup>1</sup>

Boshqa bir tadqiqotchilar, xususan, R.Aron o'zining "Sotsiologik fikrning rivojlanish bosqichlari" nomli monografiyasida Sh.L.Monteskeni sotsiologiya fani asoschisi sifatida tan olgan<sup>2</sup>. Sotsiologiya tarixi bo'yicha birinchi ruscha darslik muallifi N.I.Kareyev ham aynan Sh.L.Monteskega «sotsiologiya xali mavjud bo'lmagan davrdagi sotsiolog nomiga da'vogarlik huquqi»ni beradi<sup>3</sup>. Bunga u aynan Monteske o'zining «Qonunlar ruhi haqida» asarida (1748) tarixni qonuniyatga asoslangan jarayon sifatida olib qarash va bir qarashda tasodifiy deb hisoblangan voqea-hodisalarda umumiy sababiy bog'liqliklarni topish g'oyasini berganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, sotsiologiyadagi «geografik determinizm» yo'nalishining shakllanishi ham uning nomi bilan bog'liqligini qayd etadi. Demak, Monteske kelajakda jamiyat to'g'risidagi fanni oldindan ko'ra bilgan, lekin uning zarurligini anglab yetmagan, deyish mumkin.

G.D.Mitchelning hamda K.Kalxoun boshchiligidagi bir qator mualliflar jamoasining sotsiologiya tarixiga oid kitoblarida sotsiologik nazariyalar tarixi A. de Tokvillning sotsiologik qarashlari tahlili bilan boshlanadi<sup>4</sup>.

A.Svinglud, X.Moss, X.Yoas, V.Knyobl, L.A.Kozer, J.Ritser, G.V.Osipov, V.G.Zdravomislov, S.S.Novikova, G.Y.Zborovskiy, I.S.Bondarenko kabi ko'pchilik mutaxassislar sotsiologiya fanining shakllanishi tarixini O.Kont nomi bilan bog'laydilar. G.Y.Zborovskiy ham shunday fikr tarafdorlaridan biri bo'lsada, mabodo Kontgacha bo'lgan sotsiologiyaning asoschisi haqida gap ketadigan bo'lsa, unda yana bir fransuz mutafakkiri K.A. de Sen-Simonni munosib, deb

<sup>1</sup> Qarang: Капитонов Э.А. История и теория социологии. – М., 2000. – С. 19-136.

<sup>2</sup> Qarang: Арон П. Эволюция развития социологической мысли. – М., 1993. – С. 33-85.

<sup>3</sup> Qarang: Кареев Н. Введение в изучение социологии. – СПб., 1992. – С. 7.

<sup>4</sup> Qarang: Mitchell G.D. A hundred years of sociology. – New Jersey, 2009, Classical sociological theory / edited by Craig Calhoun. Wiley Blackwell, 2012.

bilishini ta'kidlab o'tgan<sup>1</sup>. Bunga u A.Sen-Simonning qarashlari 1817-1824-yillarda uning shaxsiy kotibi sifatida faoliyat yuritgan O.Kontning fikrlari shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatganligini asos qilib oladi. Sen-Simonning «Inson haqidagi fan ocherki» kitobining (1813) nashr etilishi ma'lum ma'noda sotsiologiya fani to'g'risidagi fikrlar rivojlanishida katta o'rin tutgan. Unda Sen-Simon kuzatish usuliga asoslangan inson haqidagi fanni yaratish lozimligi haqidagi fikrlarini bayon etgan. Sen-Simon ta'kidlashicha, inson haqidagi fan pozitiv bo'lishi, kuzatishga asoslanishi va boshqa bir qator fizikaviy usullarga tayanishi lozim edi.

J.Ritser o'zining "Sotsiologik nazariyalar" kitobida ushbu fanning shakllanishi aniq muddatini aniqlash qiyinligini ta'kidlaydi va quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: «Ilk davrlardan ijtimoiy hayot haqida fikr yuritganlar va nazariyalar ishlab chiqqanlar. Lekin biz qadimgi va o'rta asrlar haqida bosh qotirmaymiz. Biz hatto XVII asrga ham bormaymiz, vaholanki, Olson sotsiologik an'analarni 1600-yillar o'rtalaridan izlagan va Jeyms Xarringtonning iqtisod va davlat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ishigacha yetib borgan. Bu o'sha davrlarda sotsiologiyaga oid fikrlarning bo'lmaganligini emas, balki bizning tadqiqotlarimiz ahamiyatli natijalar olib kelmasligi mumkinligi bilan tushuntiriladi. Zamonaviy sotsiologiyaga mos keladigan bir nechtagina g'oya uchun vaqt ketgazish kerak bo'lardi. Shuni unutmash kerakki, bu davrlardagi birorta mutafakkir o'zini sotsiolog deb hisoblamagan. Ularning ko'pchiligini hozirgi kunda "sotsiolog" deb ataydilar (Munozara uchun Ibn-Xoldunning hayotini ko'rib chiqing). Faqatgina 1800-yillarda qat'iy ishonch bilan *sotsiolog* deb atash mumkin bo'lgan mutafakkirlar paydo bo'ldi»<sup>2</sup>.

Jamiyat hayotidagi muammolar barcha davrlarda hammani xavotirga solganligi barchamizga ma'lum, buni hech kim rad eta olmaydi. Inson paydo bo'libdiki, u o'zi va o'zini o'rab turgan muhit muammolari bilan yashaydi. Demak, antik davrlarda jamiyat, davlat, siyosat haqidagi qarashlarning mavjud bo'lganligini bevosita sotsiologiya fani tarixi bilan bog'lab o'rganish no'rin hisoblanadi, chunki bu qarashlar barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning umumiy

<sup>1</sup> Qarang: Зборовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – СПб.: ИТМО СПбГУ, 2014. – С. 10.

<sup>2</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 2-4.

tarixi hisoblanadi. Agarda biz har bir tarixini antik davr bilan bog'liqlikda o'rganadigan bo'lsak, bu fanlarning mavzularida takrorlanishlar ko'payib ketishiga, vaqtning behudaga sarflanishi, asosiy mavzularga ajratiladigan vaqtning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun biz sotsiologiya fanining tarixini jamiyat to'g'risidagi qarashlar tarixi bilan emas, balki dolzarb ijtimoiy muammolar va ularning yechimini topish masalasi tarixi bilan bog'lab o'rganishimiz lozim. Bunda biz albatta, har bir oldingi fan o'zidan keyingi fanning shakllanishiga ma'lum bir ma'noda ta'sir o'tkazishini inobatga olishimiz ham zarur. Bu borada biz sotsiologiyaning yosh fan ekanligi hamda juda ko'plab jamiyat to'g'risidagi fanlar bilan (falsafa, tarix, iqtisod va h.k.), va ayniqsa, ijtimoiy falsafa bilan aloqadorligi, ularning har birining sotsiologiya tarixida o'ziga xos ahamiyatga egaligini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q.

Shuningdek, sotsiologiya fanining tarixini uning konkret fan sifatidagi maqomi, aniq obyekt va predmeti, metodologiyasi belgilanib olinishi davridan olib qarashimiz lozim.

Bu borada hammaga ma'lumki «sotsiologiya» tushunchasi jamiyat haqidagi fandan ko'ra ancha yosh. Sotsiologik fanning elementlari ham umumiy fanlar tarkibiga ya'ni davlat nazariyasi, huquqshunoslik, falsafa, tarix kiradi. Bularning har birini jamiyat haqidagi fanning kelib chiqishida o'rni juda katta.

Bu ma'noda «sotsiologiya» termini jamiyat to'g'risidagi fanga (aniqrog'i fanlarga – tarix, falsafa, iqtisod va h.k.) nisbatan ancha yoshroq. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, sotsiologik bilim bir qator ijtimoiy fanlar doirasida asta-sekinlik bilan shakllangan, ular qatoriga quyidagilar kiradi: davlat nazariyasi, huquqshunoslik, tarix falsafasi va h.k. Ularning har biri jamiyat to'g'risidagi yangi fan – sotsiologiya shakllanishida o'ziga xos muhim rol o'ynagan.

Yangi fanning shakllanishida falsafaning, xususan ijtimoiy falsafaning (ayrimlar uni tarix falsafasi, deb ataydi) ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Aron behuda Ogyust Kontni sotsiologiyadagi faylasuf, falsafadagi sotsiolog, deb aytmagan. Sotsiologiya va ijtimoiy falsafa fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi ulardan birinchisining butun tarixi davomida iz qoldirib, ikkinchisining esa rivojlanishiga ma'lum bir ma'noda chek qo'yadi.

«Jamiyatni qayta tashkil etish uchun zarur ijtimoiy ishlar rejasi»ni tuzish asnosida (1822) Sen-Simon va O.Kontning «tabiatshunoslik fanlaridagi kabi obyektiv kuzatishlar» asoslangan jamiyat to'g'risidagi o'ziga xos fanni yaratish g'oyasi tug'ildi. A.Sen-Simon uni «sotsial fiziologiya», O.Kont esa «sotsial fizika» deb nomlash taklifi bilan chiqdilar. O.Kont o'zining 6 jildlik «Pozitiv falsafa kursi» (1830-1842) asarining birinchi uch jildida «jamiyat to'g'risidagi haqiqiy fanni» «sotsial fizika» atamasi bilan qayd etdi. Lekin 1835-yilda belgiyalik astronom va statist Adolf Kettlening «Sotsial fizika yoki inson qobiliyatlarining rivoji haqidagi tadqiqotlar tajribasi»<sup>1</sup> nomli ikki jildlik asarida ijtimoiy hayotni faqatgina statistik usullarga asoslanuvchi empirik tadqiqotlar orqali o'rganish mumkinligi haqidagi fikrlar bayon etildi. Ogyust Kont jamiyat to'g'risidagi fan qayd etish bilan shug'ullanishi emas, balki nazariy bo'lishi lozim, deb hisoblar edi. Shuning uchun u «Pozitiv falsafa kursi» asarining 1839-yilda nashr etilgan 4-jildida, 47-ma'ruzada yangi termin – «sotsiologiya» terminini ishlatdi<sup>2</sup>.

Kont bu yangi fanga nom berdi va uning asosiy chegaralarini belgiladi. «Sotsiologiya» termini unga tegishli bo'lib, (lotincha *societas* – jamiyat, yunoncha *logos* – fan) jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. 1830-yillarda ijtimoiy hayot muammolari alohida fan doirasida o'rganilmagan, dunyoqarashning umumiy manzarasini tashkil etgan bo'lsa, XIX asrning o'rtalariga kelib sotsiologiya alohida fan sifatida tan olindi.

O.Kontning asosiy maqsadi sotsiologiyani tabiatshunoslik fanlari kabi aniq va mahsuldor, oqilona va samarali bo'lgan, o'zining ahamiyati va foydaliligini isbotlab bergan kuzatish, tajriba, taqqoslash va boshqa shu kabi usullardan foydalanuvchi fanga aylantirishdan iborat edi. Gap ijobiy natija bera oladigan, pozitivistik yo'nalishdagi bilimlarga asoslangan bilim haqida bormoqda. Jamiyat va inson to'g'risidagi fan uchun bunday yondoshuv o'z davri uchun inqilobiy hisoblangan. Bu sotsiologiya tarixining quyi chegaralarini aniqlashda

<sup>1</sup> Qiziq: Комиссаров И.И. Механистические общественные модели А. Кетле и Г.Ч. Кюпе: сравнительный анализ // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Философия. 2015. № 4 (18). – С. 144-149.

<sup>2</sup> Qiziq: История статистики: учебник и практикум для академического бакалавриата / А.В. Воронцов, М.Е. Галкин, Н.А. Громова; под общ. ред. М.Е. Галкина. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2017. – С. 36.

pozitivizmni tan olishni, O.Kontni esa uning ilk namoyandasi va ifodalovchisi sifatida tan olinishini isbotlaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O.Kont tomonidan taqdim etilgan pozitivizmni birinchi qo'llab-quvvatlagan olimlardan biri Jon Styuart Mill (1806-1873) hisoblanadi. U – angliyalik faylasuf, iqtisodchi va jamoat arbobi. J.S.Mill O.Kont bilan bevosita tanish bo'lgan, u bilan va unga atalgan ilk kitobni nashr ettirgan – «Ogyust Kont va pozitivizm» (1859). J.S.Mill Kont pozitivizmini qo'llab-quvvatlab, uning pozitiv fanlar klassifikatsiyasini siyosiy iqtisod, psixologiya va etika («etologiya») fanlari bilan boyitgan.

2. Endi sotsiologiyani fan sifatida yuzaga kelishiga sabab bo'lgan bir qator omillarni qarab o'tsak. Bu masala ham olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Masalan, bir qator olimlar sotsiologiya fani shakllanishi shart-sharoitlarini quyidagi ko'rinishdagi uchta guruhga ajratib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar: jumladan – ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ilmiiy va g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar.<sup>1</sup>

Ulardan birinchisini qarab o'tamiz. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan, sotsiologiya fanining paydo bo'lishini belgilab beruvchi shart-sharoitlarni bevosita XIX asrning birinchi choragida kapitalizm tuzumi bilan bog'liq rivojlanish belgilab beradi va bu davrda ijtimoiy munosabatlar, inson va jamiyatning o'zaro aloqadorligining ijtimoiy bilimlar markazini egallashi qayd qilinadi. Yangi sharoitlarda insonlarning hayoti rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda, birinchi navbatda, Angliya va Fransiyada ijtimoiy qarashlar va g'oyalarda qarama-qarshiliklar yuzaga kelishiga olib kelgan, aynan ushbu mamlakatlarda sotsiologiya fanining dastlabki yirik vakillari – ya'ni, mumtoz sotsiolog olimlar – O.Kont va G.Spenser yashaganligi va faoliyat olib borganligi tasodifiy holat hisoblanmaydi. Bu mamlakatlarda bir tomondan – oldingi rivojlanish davrlariga nisbatan solishtirilganda, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan sezilarli darajada taraqqiyot yuz bergan, boshqa tomondan esa – aholining ma'lum bir qatlamlarining boshqa toifalar tomonidan ezilishi, inqiroz holati, ishchilar mehnatining mislsiz mashaqqatli tus olishi, bolalar va ayollar mehnatidan foydalanish kuchayishi, ish haftasi vaqtining

<sup>1</sup> Qiziq. Жероковский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. – СПб.: ИИО СПбГУ, 2014. – С. 15-17.

uzaytirilishi, ishlab chiqarish va shu bi' birgalikda, oddiy mehnatkashlarning maishiy turmush sharoitlarining qiyinlashishi holatlari qayd qilinadi.

Tabiiyki, bu ko'rinishdagi sharoitlarga qarshi javob reaksiyasining ko'rsatilishi turli xilda ifodalangan. Jumladan, mehnatkashlar sinfi asta-sekin yangicha va kuchli sinfiy qarshilik shakllarini tuzishga va ularning tarkibida birlashishga intila boshlashgan. Bu holat birinchi navbatda, Angliyada ludditlar harakatining (fabrikalarda ishchilarning asosiy dushmani sifatida ishlab chiqarish mashinalarining buzib tashlanishini amalga oshirgan yo'nalish) avj olishiga olib kelgan, keyin – chartistlar harakati, Fransiyada esa – Lionlik to'qimachilarning qo'zg'oloni, Germaniyada Silez norozilik harakatlari qayd qilingan.

XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy qarashlarda ushbu qaror topgan jarayonlarga nisbatan reaksiya ko'rsatishning bir nechta shakllari yuzaga kelishi kuzatilgan. Jumladan, hayoliiy farovon mamlakatni orzu qilishga asoslangan – utcpizm ham, marksizm ham, konservativizm hamda liberalizm va boshqa yo'nalishlar ham rivojlangan. Kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishining ma'lum bir shakllari bevosita jamiyat haqidagi yangi fan hisoblangan – sotsiologiyani paydo bo'lishini belgilab bergan, bu fan jamiyatning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga oydinlik kiritish va bu jarayonlarning nimalar bilan bog'liqligini tushuntirish lozim edi.

Shu bilan birgalikda, sotsiologiya fanining manbalarini nafaqat kapitalistik jamiyatning o'zidan, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi holatlaridan izlash talab qilinadi, balki ushbu jarayonlar haqidagi ob'ektiv bilimlar ham sotsiologiyani shakllanishini belgilab bergan. So'zsiz ravishda, sotsiologiya fanining tub ildizlari umumiiy sivilizatsion tabiatga ega holatlar bilan izohlanadi. Asta-sekin butunjahon bozori munosabatlarining shakllanishi, o'zaro o'xshash siyosiy tuzilmalarning paydo bo'lishi, turli xil madaniyatlar o'rtasida o'zaro aloqadorlik shakllangan. Boshqacha aytganda, sotsiologiya fanining paydo bo'lishini belgilab beruvchi shart-sharoitlarni bir butun ijtimoiy olamning harakatlanishi nuqtai nazaridan qarab chiqish maqsadga muvofiqdir. Albatta, uning o'rganilishi zaruriyati – jamiyat haqidagi yangi o'ziga xos fanga ehtiyojni yuzaga keltirdi.

Sotsiologiyani paydo bo'lishini ijtimoiy ehtiyojga o'ziga xos tarzda javob sifatida olib qarash mumkin. Shu sababli, Kont,

Spenser kabi sotsiolog olimlarning sotsiologik qarashlarida ijtimoiy masalalarga katta e'tibor qaratilganligi tasodifiy holat hisoblanmaydi (ulardan ayrimlarini biz hozirgi vaqtda global miqyosda ahamiyatga ega masalalar, deb hisoblaymiz). Sotsiologiyaning yangi fan sifatida o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqqan dastlabki sotsiolog olimlar tomonidan aynan jamiyat tushunchasining ta'riflanishi qayd qilinadi. Albatta, bu yo'nalishdagi qarashlar XIX asrning o'rtalarida qaror topgan g'oyalarda unchalik ko'zga tashlanmasada, keyingi davrda yaqqol kuzatiladi.

Shu sababli, sotsiologiya fanining shakllanishida ijtimoiy-sinfy jihatlarining tutgan o'rmini alohida bo'rttirib ko'rsatish kerak emas, bu holat yaqin davrlargacha ayrim sotsiologiyaga oid adabiyotlarda yaqqol kuzatilgan, ya'ni sotsiologiyaning yangi fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishida ishchi-mehnatkashlar sinfining tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega hisoblanishi ta'kidlanagan. Bundan tashqari, sotsiologiya asoschilari, jumladan birinchi navbatda – Kont o'z qarashlarida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratgan. Uning «Pozitiv siyosat tizimi» asarida sotsiologik pozitivizm va Fransiyada amalga oshirilgan inqilob o'rtasidagi aloqadorliklar, shuningdek ushbu harakatlarda manfaatdor bo'lgan aholi qatlamlari, sinflar, guruhlarning tavsiflari qarab chiqilgan.<sup>1</sup>

Sotsiologiya fanining alohida fan sifatida qaror topishi haqida mulohaza yuritganda, ayrim tadqiqotchilar tomonidan ushbu jarayonning asosini himoyaga qarati'gan vazifalar tashkil qilganligi ta'kidlab o'tiladi. Tafakkur ma'ntig'i quyidagicha kuzatiladi. Jumladan, burjuaziya sinfining rivojlanishi (XVIII asr) davri boshlarida shakllangan g'oyalarda asosan inqilobiy ruhiyat kuchli hisoblangan va shu bilan birgalikda bu ruhiyat yangi shart-sharoitlarga mos kelmagan. Kapitalistik tuzum ma'lum darajada mustahkamlangan va o'z taraqqiyotini inqilobiy nuqtai nazardan asoslashga hojat qolmagan. Aksincha, ijtimoiy jihatdan yangicha vazifalar shakllangan: jumladan – burjuaziya jamiyatini saqlab qolish qaroriga kelingan va bu sotsiologiyaning yuzaga kelishini belgilab bergan.

Sotsiologiya fanining paydo bo'lishini qisman belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy shart-sharoitlarni izohlab beruvchi dalil-isbotlarni hisobga olish bilan bir qatorda, shuni ham

<sup>1</sup> Qarang: Конт О. Справедливое общество // Энциклопедический словарь XIX века. Тезисы. – М., 1996. – С. 191-194.

qayd etish joiz-ki, ushbu jarayonning asosi faqat jamiyatning taraqqiyoti tashkil qilgan, balki fanning taraqqiyoti ham bunda muhim rol o'ynagan. Yangi bilim sohasining paydo bo'lishining asosiy sabablarini nafaqat undan tashqarida, balki uning o'zining ichidan ham izlash maqsadga muvofiqdir.

Tabiatshunoslik fanlari doirasida erishilgan yutuqlar muhim ahamiyatga ega, tabiiyki, sotsiologiya fanining shakllanishida tabiiy-ilmiiy shart-sharoitlarni qarab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu yerda gap birinchi navbatda XIX asrning o'rtalariga kelib matematika, astronomiya, fizika, mexanika (ushbu fan asosida jamiyatning «mexanistik» modeli tushunchasi shakllangan, ya'ni jamiyatni har bir tarixiy qismi o'z funksiyasini bajaradigan mexanizm sifatida qarab chiqish g'oyasi ilgari surilgan) fanlari rivojlanganligi haqida bormoqda. Shuningdek, biroz keyinroq biologiya fani rivojlangan (jumladan, nemis olimlari T.Shvann va Y.Shleyden tomonidan hujayra nazariyasining ishlab chiqilishi, keyin esa – Angliyalik tabiatshunos olim Ch.Darvin tomonidan evolyutsion nazariyaning ishlab chiqilishi amalga oshirilgan).

Bu fanlarda erishilgan yutuqlarsiz sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi haqida fikr yuritish qiyin masala bo'lib qoladi, ya'ni sotsiologiya fani dastlab tabiiy va aniq fanlar namunalari asosida shakllantirilgan, sotsiologiya fanining asosiy usullari tabiatshunoslik fanlarining asosiy usullari asosida ishlab chiqilgan (kuzatish, tajriba va h.k.). Bunda ushbu tadqiqot usullaridan olimlar tabiatshunoslik fanlarida yangi hamda aniq dalillar va isbotlarni olishda foydalanishgan, aynan ushbu usullar jamiyatni o'rganuvchi olimlar e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Jumladan, K.A.Sen-Simon tomonidan jamiyat va odam haqidagi pozitiv bilimlar g'oyasi ilgari surilishi davomida bilimlarning faqat o'xshash usullari yordamida qo'lga kiritilishi mumkinligi haqida fikr ta'kidlanishi ham tasodif emas. Keyinroq bu g'oya to'liq holatda O.Kont tomonidan ilgari surilgan fikrlarda o'z aksini topgan.

Usullar haqida aytib o'tilgan ushbu fikrlar jamiyatdagi qonuniyatlarga ham tegishli bo'lib, ularning tabiatshunoslik fanlarida kashf qilingan qonunlarga muvofiq kelishini taqozo etardi. Ob'ektivlik, ishonchlilik, isbotlilik, aniqlik – bularning barchasi tabiiy-ilmiiy qonuniyatlarning o'ziga xos tavsiflari hisoblanib, sotsiologiyada ham tadqiq etila boshlangan. Shuningdek, shunday

holat ham yuzaga keldiki, sotsiologik bilimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni «quvib o'tishi» kerak bo'lib qolgandek edi. Bunda sotsiologiya fani aynan tabiiy-ilmiy fanlar asosida o'z mavqeini mustahkamlashi talab qilindi va sotsiologiya tabiiy-ilmiy fanlar bilan bir qatorda turuvchi, ular bilan bir xil tadqiqot usullari asosida harakat qiladigan fan sifatida talqin etildi.

Sotsiologiyani shakllanishi va rivojlanishi shart-sharoitlari haqida gap yuritilar ekan, shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, uning paydo bo'lishi va rivojlanishini belgilab bergan ijtimoiy tafakkur ikki – konservativ va liberal yo'nalishni qamrab oldi. Ulardan har biri jamiyatning o'z tarkibidagi individlar bilan o'zaro aloqadorligi bo'yicha o'ziga xos ijtimoiy nuqta nazarlarga ega. Konservativ yo'nalishda (uning yorqin vakillaridan biri – Fransiyada yashab ijod qilgan D. de Mestr hisoblanadi) har bir alohida insonga faqat sezilarisiz darajada rol beriladi va jamiyat – bu uning tarkibidagi alohida individlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar emas, balki ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida qarab chiqiladi. Jamiyat – yakka tartibda olingan insonga nisbatan birmuncha yuqori darajada turuvchi tushuncha sifatida qayd qilinadi.

Liberal yo'nalish esa – (uning yorqin vakillari – bu Angliyalik I.Bentam, J.S.Mill hisoblanadi) inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda boshqacha tasavvurga ega. Garchi, liberal yo'nalish tarkibida ham jamiyat o'z mohiyatiga ko'ra alohida tarkibiy qismlardan tashkil topgan mexanik agregat sifatida qarab chiqilsada, biroq uning o'zgarishlarida insonning tutgan o'rniga alohida darajada katta ahamiyat qaratiladi. Bundan tashqari, yakka tartibdagi ongli faoliyat jamiyatning shart-sharoitlari yaxshilanishiga yo'naltirilgan holatdagina mazmunga ega bo'lishi, ya'ni o'ziga xos «su'niy tana» sifatida funktsiya bajarishi qayd qilinadi. Shuningdek, insonning alohida muhim hisoblangan jihatlaridan biriga asoslanuvchi – individualizm g'oyasi ham shakllantirilgan. Bu g'oyaning asosiy mazmun-mohiyati shundaki, inson uchun eng yaxshi hisoblangan holat, jamiyat uchun ham eng yaxshisi hisoblanadi. Umumiy holatda, keltirib o'tilgan har ikkala yo'nalish ham sotsiologiyani paydo bo'lishi va keyingi taraqqiyoti davomida ma'lum darajada rol o'ynagan, zero ularning tarkibida inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi markaziy o'rinda turadi.

Sotsiologiyani fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi shart-sharoitlarini qarab chiqishda utopik sotsializm va uning g'oyalari ta'sirini esdan chiqarish mumkin emas. Bu yo'nalishning yirik vakillaridan biri – fransiyalik faylasuf Sen-Simon hisoblanib, uning fikrlari Kont sotsiologiyasi uchun asos sifatida xizmat qiladi. Bunda markaziy yo'nalishlardan biri – bu nafaqat shaxsiy, balki g'oyaviy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lib, taraqqiyot tabiatning universal tavsifga ega qonuni sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy va shuningdek, ilmiy taraqqiyotning amalga oshish imkoniyatlarida ishonch va e'tiqod masalasi Fransiyada Uyg'onish davrida faoliyat olib borgan ko'pgina faylasuflar fikrlarida o'z ifodasini topadi, jumladan bu yo'nalishdagi qarashlar Sh.Monteske va J.Kondorse ilgari surgan g'oyalarda mujassamlashtirilgan. Bu g'oya sotsiologiyani fan sifatida qaror topishida sezilarli rol o'ynagan, bunda ushbu g'oyalarning asosini jamiyatning bosqichma-bosqich rivojlanishi va taraqqiyoti tashkil etadi.

Sotsiologiya fani shakllanishining g'oyaviy asoslari haqida fikr yuritganda, fransiyalik ma'rifatchi – Sh.Monteske qarashlari haqida to'xtalib o'tmasdan iloji yo'q. Yuqorida ta'kidlanganidek, sotsiologiya tarixi bo'yicha ajoyib mutaxassis hisoblangan, Rossiyalik sotsiolog olim N.I.Kareev quyidagi fikrlarni qayd qilib o'tgan: «Xali sotsiologiya fani shakllanmagan davrda o'zini sotsiolog sifatida da'vo qilishga haqli deb hisoblanuvchi kishi – bu albatta Monteske, deb tan olishga majburiy»<sup>1</sup>. Fransiyalik sotsiologiya fani asoschisi hisoblangan Sh.Monteske o'z qarashlarida jamiyatning rivojlanishini tavsiflashda unga turli xil tabiiy omillar – jumladan, geografik muhit, iqlim, aholi soni, hududning o'lchamlari va boshqa omillar orqali nazar solishni maqsadga muvofiq, deb hisoblagan. Ushbu nuqtayi nazardan u «geografik determinizm» deb nomlanuvchi bir butun sotsiologik yo'nalishning haqli ravishda asoschisi hisoblanadi. U ijtimoiy hayotning ko'p sonli siyosiy masalalariga diqqat-e'tibor qaratish orqali, ushbu masalalarning yechimini tabiiy omillar bilan bog'liqlikda qarab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Monteske tasodifiy hodisalar, konkret ijtimoiy hodisalar va faktlarda ularni keltirib chiqaruvchi yashirin ichki sabablarni aniqlashga harakat qilgan. Biroq u uni o'zi yashan jamiyatning bir butunligi haqida,

<sup>1</sup> Кареев Н.И. Введение в социологию – СПб., 1901 – С. 7.

sotsiologiyani markazini tashkil qiluvchi holatlar haqida aniq fikr bildirmagan. Asosiy diqqat-e'tiborini siyosiy jarayonlar, siyosiy tuzumni tavsiflashga qaratib, u jamiyatning tarixida yaxlit progressni ko'ra olmagan.

Shuningdek, sotsiologiya fanining bir qator nazariy-g'oyaviy asoslarini tarixiy va zamonaviy materiallarni tahlil qilgan ayrim faylasuflar tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy konsepsiyalar tarkibida ham ko'rish mumkin. Ushbu nuqtai nazardan, ijtimoiy tengsizlik va sinflar o'rtasidagi tafovutlar masalasi bo'yicha bildirilgan fikrlar muhim ahamiyatga egadir.

XVIII asrning oxirlariga kelib, keng tarqalgan «tabaqa» tushunchasi o'rniga «sinf» tushunchasining ishlatilishi ommalashgan. Keyinroq esa, Fransiyada sinfiy kurash tushunchasi O.Terri, F.Gizo, O.Mine qarashlarida o'z aksini topgan.

Shuningdek, sotsiologik fikrlar tarixida fuqarolik jamiyati, jumladan uning eng avvalo – demokratik ko'rinishdagi namoyon bo'lish shakli haqidagi tavsiflar muhim o'ringa ega. Buyuk nemis faylasufi – Gegel fuqarolik jamiyatini bir butun yaxlitlik (birorta individ yakka tartibda boshqalarisiz bir butunlikni tashkil eta olmaydi) sifatida ham, qarama-qarshi, ayrim holatlarda bir-biriga zid manfaatlarining birligi sifatida ham qarab o'tgan.

Nihoyat, xulosa o'rnida sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishini belgilab bergan g'oyaviy shart-sharoitlar qatorida italiyalik faylasuf – J.Viko (XVIII asrning oxirlari) tomonidan bildirilgan fikrlar, qarashlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, jumladan uning taraqqiyot haqidagi fikrlari obyektiv, siklik tavsifga ega bo'lgan va providensial, ya'ni Yaratganning xohish-istagining ro'yobga oshishi shaklida tavsiflanadi.

Sotsiologiya fanining shakllanishida sotsial statistika bilan bog'liq holdagi empirik sotsial tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga egadir. Bunda xo'jalik faoliyatiga oid qaydlar amalga oshirilgan, ommaviy statistik so'rovlar texnikasi ishlab chiqilgan, demografiya asoslari yaratilgan. Angliya va Fransiyada kapitalizmning jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda, shu mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlar olib borildi. Jon Siklning 21 jildidan iborat «Shotlandiyaning statistik tavsifi», Fridrix Engelsning «Angliyada ishchilar sinfining ahvoli», Charlz Butning «London kishilarining hayoti va mehnati», Andre Gerrining «Fransiya

ahloqiy statistikasi ocherklari», Frederik Le Plening 6 jildlik «evropa ishchilari» asarlari shular jumlasidandir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, XIX asr yirik statistlaridan Adolf Ketlning 1835-yilda chop etgan «Sotsial fizika yoki inson qobiliyatlarining rivoji haqidagi tadqiqotlar tajribasi» asari amaliy sotsiologik tadqiqot metodologiyasi va uslubiyo'tini ishlab chiqishda, umuman, sotsiologiyani fan sifatida vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, etnografik va antropologik yo'nalishda tadqiqotlar olib borish rivojlangan, o'z navbatida antropologiya fani o'z xususiyati va yo'nalishlarini o'zgartirgan. Agar XVIII asrning o'rtalarida antropologiya fani dastlab inson tanasini o'rganish bilan bog'liq fan bo'lgan bo'lsa, oradan bir asr o'tib bu fan tilshunoslik, madaniyatshunoslik kabi bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oluvchi inson to'g'risidagi fan sifatida qayd etilgan.

Shunday qilib, 1830-1850-yillar davomida yangi, sotsiologiya deb nomlanuvchi fan yuzaga kelishi uchun zaruriy – tabiiy-ilmiy va g'oyaviy-nazariy asoslar shakllangan. Jumladan, ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning mazmun-mohiyatini yangicha anglash zarurati tug'ilib, uni yangi fan, ya'ni sotsiologiya fani vositasida amalga oshirish mumkin bo'lib qoldi.

Shuningdek, sotsiologiya nazariyasi va tarixi bo'yicha yirik mutaxassis J.Ritser sotsiologiya fani shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni (kuchlar) quyidagicha tasniflaydi: siyosiy inqiloblar; sanoat to'ntarilishi va kapitalizmning yuksalishi; sotsializmning yuksalishi; feminizm; urbanizatsiya; dindagi o'zgarishlar; fan taraqqiyoti.<sup>1</sup>

*Siyosiy inqiloblar.* 1789-yildagi fransuz inqilobidan tortib to butun XIX asrni qamrab olgan bir qator siyosiy inqiloblar sotsiologik nazariyalarning rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Bu inqiloblarning jamiyatga ta'siri juda kuchli bo'lgan, buning natijasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilgan. Lekin nazariyotchilarning e'tiborini o'zgarishlarning ijobiy emas, balki salbiy jihatlari o'ziga jalb etdi. Hammadan ko'ra yozuvchilar ayniqsa Fransiyadagi tartibsizlik va xaosdan hayratga tushdilar. Ular jamiyatda tartibni o'rnatish uchun birlashdilar. Ularning ayrimlari o'ta keskin qarashlarni ilgari surib, o'rta asrlarning tinch va nisbatan tartibli

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory, Eighth Edition*. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 5-8.



kunlariga qaytishni talab qila boshladilar. Ilg'or mutafakkirlar jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar bunga qaytish mumkin emasligiga olib kelganligini tan oldilar. Shunga ko'ra, ular XIX va XX asrlar siyosiy inqiloblari natijasida larzaga kelgan jamiyatlarda barqarorlikning yangi asoslarini topishga harakat qildilar. Ijtimoiy tartibot masalasiga bu qiziqish sotsiologiyaning mumtoz nazariyotchilarining, asosan, Kont va Dyurkgeymning asosiy vazifasiga aylandi.<sup>1</sup>

*Sanoat to'ntarilishi va kapitalizmning yuksalishi.* Asosan XIX va XX asr boshlarida ko'plab G'arb mamlakatlarini qamrab olgan sanoat inqilobi siyosiy inqilob kabi sotsiologik nazariyalarning shakllanishiga muhim ta'sir o'tkazdi. Sanoat to'ntarilishi bir martalik hodisa emas, balki bir qator o'zaro bog'langan qayta shakllanishlarni o'z ichiga olgan edi, bularning avj nuqtasi G'arb dunyosining qishloq xo'jaligiga asoslangan (ko'p holatlarda) tizimdan sanoatlashgan tizimga o'tishiga olib keldi.

Sanoat to'ntarilishi, kapitalizm va ularga qarshi reaksiya sotsiologlarga katta ta'sir o'tkazgan holda G'arb jamiyati qurilishida juda katta to'ntarilishga olib keldi. Sotsiologik tafakkur rivojining ilk davrlarida Karl Marks, Maks Veber, Emil Dyurkgeym va Georg Zimmel kabi buyuk mutafakkirlar hamda nisbatan tanilmagan shaxslar bu o'zgarishlarni va ularning natijasida jamiyatda vujudga kelgan muammolarni faol o'rgandilar. Bu olimlar o'zlarining butun umri davomida sotsial muammolar bilan shug'ullandilar va ko'p holatlarda ularning yechimini topish uchun dasturlar ishlab chiqishga harakat qildilar.<sup>2</sup>

*Sotsializmning yuksalishi.* Sanoatlashgan tizim va kapitalizmning muammolarini yechishga qaratilgan bir qator o'zgarishlarni "sotsializmning yuksalishi" deya birlashtirish mumkin. Ayrim sotsiologlar sotsializmni sanoatlashish muammolarining yechimi sifatida ilgari surgan bo'lsada, ko'pchilik bunga ham insoniylik, ham ilmiy nuqtayi nazardan qarshilik ko'rsatdilar. Bir tomondan, Karl Marks kapitalistik tizimni ag'darish va uni sotsialistik tizim bilan almashtirishni qo'llab-quvvatlab faol chiqishlar qila boshladi. Uning o'zi sotsializm nazariyasini rivojlantirgan bo'lmasada, kapitalistik tizimning turli jihatlarini tanqid qilishga ko'p kuch sarfladi. Shu bilan

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. - P. 6.

<sup>2</sup> Qarang: O'sha joyda. - B. 5-6.

birga u siyosiy faoliyat bilan shug'ullana va bu sotsialistik jamiyatni shakllanishiga olib keladi, deb hisob

Nazariyalarning ilk rivojlanishi davri ...arks nazariyotchi-sotsiolog emas edi. Ilk sotsiologlardan ko'pchiligi, Veber va Dyurkgeym kabilar sotsializmga qarshi edi.<sup>1</sup>

*Feminizm.* Ma'lum ma'noda feminizmning paydo bo'lishi istiqboli har doim ham mavjud bo'lgan. Ayollar qaerda yoki qachon tobe holatda bo'lmasin, mavjud vaziyatga qarshi u yoki bu shaklda qarshilik ko'rsatganlar. Feministik harakat alomatlarini hatto 1630-yillardan ham topish mumkin. Ayollar faolligining eng yuqori darajasi va unga muvofiq asarlarning paydo bo'lishini zamonaviy G'arb tarixining cherkovning davlatdan ajralishi kurashi borgan davrida kuzatish mumkin. Feministik faollikning ilk ko'rinishlari 1780- va 1790-yillarga Amerika va Fransuz inqiloblari bilan hamohang bo'lgan bahslar bilan bir qatorda yuzaga kelgan; nisbatan yaxshi tashkillashtirilgan harakat 1850-yillarda qayd etilgan bu qullikka qarshilar va o'rta sinfnng siyosiy huquqlari uchun kurashuvchilarning birlashuvi davri bo'lgan: bu ayollarning umumiy saylov huquqi va XX asr boshlarida asosan AQShdagi «Progressiv era»da<sup>2</sup> fuqaroviy va sanoat qonunchiligi islohotlari uchun o'ziga xos ommaviy safarbarlik edi. Bularning hammasi sotsiologiyaning taraqqiyotiga, asosan, ayollarning bu yoki chegaradosh fanlarda faoliyat ko'rsatishiga ta'sir ko'rsatdi: Xarriet Martino, Sharlott Perkins Gilman, Jeyn Adame, Florens Kelli, Anna Djuliy Kuper, Ida Uells-Barnett, Mariann Veber i Beatris Potter Veb, faqat ayrimlarini eslab o'tish joiz bo'lsa. Lekin ularning asarlari vaqt o'tishi bilan chetga surilib boshqa nazariyalarning tarkibiy qismiga aylandi yoki umuman e'tiborga olinmadi, sotsiologiyani siyosiy homiy vositasi sifatida shakllanishi sarchashmalarida turgan erkak sotsiologlar tomonidan nashrlar ro'yxatidan o'chirib tashlangan.

Feminizm faqatgina radikal nazariyotchi erkaklar va ayollarning ekstremal nazariyotchilari ishlarida sotsiologiyaning bir chetiga chiqib qoldi. Sotsiologiyada markaziy o'rin egallaganlar – Spenser, Veber va Dyurkgeymdan tortib boshqalargacha – paydo bo'layotgan feministik bahslarga, jins masalasini sotsiologiyaning fan sifatidagi bilim

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. - P. 6.

<sup>2</sup> «Progressiv era» - 1900-1917 yillarda prezidentlar T. Ruzvelt va V. Vilson olib borgan islohotlar siyosati davri.

sohasiga mansub bo'lmagan mavzusi sifatida asosan konservativ javob qaytarganlar. Bunday munosabat, hatto ayollarning sotsiologik nazariyalarni ishlab chiqishda faol ishtiroki paytida ham saqlanib qolgan. Faqatgina hozir rivojlanishi tarixi bizga erkaklarning feministlar talablariga javobi o'zgarishi to'g'risidagi tasavvurlarni beradigan gender siyosati (jins sohasidagi siyosat) sotsiologiyada tan olindi.<sup>1</sup>

*Urbanizatsiya.* XIX va XX asrlarda sanoat to'ntarilishi natijasida ko'plab insonlar o'z qishloqlaridagi uzoq yashagan joylaridan ildizlari bilan qo'porib olinib shaharlarga joylashdilar. Bunday ommaviy migratsiya shahar rayonlarida sanoat korxonalarida ish joylarining yaratilishi bilan bog'liq edi. Lekin shahar sharoitiga o'rganish bir qancha muammolarni keltirib chiqardi.

Shuningdek, shaharlarning ko'payishi ko'plab muammolarni keltirib chiqardi: aholining zich joylashuvi, atrof-muhitning ifloslanishi, shovqin va h.k. Shahar hayotining mohiyati va uning muammolari ilk sotsiologlarning ko'pchiligining, asosan Maks Veber va Georg Zimmellarning e'tiborini tortdi. Ilk Amerika sotsiologiya maktabi – Chikago maktabi – ma'lum darajada shahar hayotiga qiziqishi va Chikagodan urbanizatsiya va uning muammolarini o'rganish uchun laboratoriya sifatida foydalanganligi natijasida tanildi.<sup>2</sup>

*Dindagi o'zgarishlar.* Siyosiy inqiloblar, sanoat to'ntarilishi va urbanizatsiya natijasida kelib chiqqan o'zgarishlar aholining e'tiqodiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ko'plab ilk sotsiologlar diniy e'tiqod malakasiga ega edi va faol, ayrim hollarda hatto professional darajada dinga jalb qilingan edilar. Ular sotsiologiyaga o'zlarining diniy hayotlarida mavjud bo'lgan maqsadlarni olib kirdilar. Ular insonlar hayotini yaxshilashni istardilar. Ayrimlari, masalan Kont uchun sotsiologiya dinga aylandi. Boshqalarning sotsiologik nazariyalarida diniy alomatlarini ko'rish mumkin edi. Dyurkgeym o'zining asosiy asarlaridan birini din bo'yicha yozdi. Veber asarlarining ahamiyatli qismi dunyo dinlariga bag'ishlangan edi. Marks ham din muammolari bilan ularga faqatgina tanqidiy nuqtai nazardan yondashish uchun qiziqqan edi.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 6-7.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 7.

<sup>3</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 7.

*Fan taraqqiyoti.* Sotsiologiya rivojlanayotgan bir davrda, fanning roli na faqat kollej yoki universitetlarda, balki umuman jamiyatda ham o'sib borayotgan edi. Ilmiy texnologik ishlanmalar mahsuli jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi, bu bilan fanning mavqeyi ortdi. Fanning nisbatan muvaffaqiyatli sohalarida band bo'lganlar (fizika, biologiya va ximiya) jamiyatda obro'-e'tiborga ega bo'ldilar. Sotsiologlar (ayniqsa Kont va Dyurkgeym) fan bilan qiziqib sotsiologiyani fizika va biologiya kabi modellashtirishni istardilar. Tez orada ilmiy modelni yoqlovchilar va Veber singari ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy modelga ko'r-k'rona ergashish mumkin emasligini ilgari surganlar o'rtasida bahs-munozaralar boshlanib ketdi. Sotsiologiya va qat'iy fanning o'zaro munosabatlari bahs-munozarasi xali-hanuz ham davom etmoqda, shunday bo'lsada, ilg'or jurnallarni birrov ko'rib chiqsak, sotsiologiyani akademik fan sifatida tan oluvchilar ko'pchilikni tashkil etishini ko'rish mumkin bo'ladi.<sup>1</sup>

Shuningdek, J.Ritser sotsiologiya fani taraqqiyotida sotsial omillar o'ta muhim bo'lsada, sotsiologik nazariyalarning shakllanishida markaziy rol o'ynagan intellektual kuchlarga alohida bobni bag'ishlaydi va real olamda intellektual kuchlarni sotsial kuchlardan ajratib olish mumkin emasligini ham ta'kidlab o'tadi.<sup>2</sup>

3. Sotsiologiya fanining tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida gap ketganda shuni ta'kidlab o'tish joizki, ko'pchilik sotsiologlar uni ikki bosqichga: mumtoz va zamonaviy bosqichlarga bo'lib o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Shunday bo'lsada, sotsiologiya tarixi bo'yicha ayrim mutaxassislar sotsiologiya tarixini o'rganish uchun uni bir necha mezonlarga ko'ra davr va bosqichlarga ajratib o'rganish ma'qul, deb hisoblaydilar.

Masalan, G.ye.Zborovskiy fikriga ko'ra, sotsiologiya fanining shakllanish, rivojlanish va amal qilishi davrlarini ajratishda uchta asosiy mezonni ko'rsatish mumkin. Bular: davriy, makonga oid, tarkibiy.<sup>3</sup>

Birinchi mezonga ko'ra, sotsiologiya fanining XIX-XX asrlarda yuzaga kelishi, tan olinishi va rivojlanishi bosqichlari ajratiladi.

<sup>1</sup> O'sha joyda. – B. 8.

<sup>2</sup> Qarang: O'sha joyda. – B. 8-11.

<sup>3</sup> Qarang: Зборовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. М.: ИД РАН, 2014. – С. 11-14.

Ikkinchi mezon ko'ra, uning fan sifatida u yoki bu tarixiy davrlardagi faol taraqqiyotini belgilagan davlatlarni (kontinentlar) ajratadi. Tarkibiy mezonlar esa turli xil yo'nalishlar, maktablar, oqimlar, paradigmalari va ularning yorqin vakillarini ajratib oladi.

Sotsiologiya tarixini davrlarga ajratishda bu mezonlar kamdankam holatlarda yaxlitlikda hisobga olingan, ayrim ilmiy ishlarda esa hech qanday mezonlar ajratilmagan.

Asosan sotsiologiya tarixi haqidagi ishlarda faqatgina mezonlardan biriga, asosan zamon yoki tarkib mezoniga ahamiyat qaratilgan. Fransuz olimlari Sh.A.Kyuen va F.Gresl "Sotsiologiya tarixi"<sup>1</sup> ilmiy ishida sotsiologiya fanining 5 ta rivojlanish bosqichini ajratganlar:

1. 1917- yilgacha.
2. 1918- dan 1945- yilgacha.
3. 1945- yildan 1968- yilgacha.
4. 1969 -yildan 1990- yilning boshlarigacha.
5. 1990- yilning boshlari.

Ko'rinib turibdiki, bu bosqichlarga ajratish asosiga tarkibiy mezonlar emas, balki jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan yirik siyosiy voqea: inqiloblar, urushlar, ommaviy-siyosiy harakat va chiqishlar qo'yilgan. Masalan, 1968-1969-yillardagi Yevropa va AQSHdagi talabalar chiqishlari (ayrim mualliflar uni talabalar inqilobi, deb ataydi).

Albatta, sotsiologiya fanining rivojlanishi radikal ommaviy-siyosiy transformatsiyalar bilan bog'liq, lekin ularni asosiy mezon darajasida ko'rishga sabab bo'ladigan bog'liqlik darajasida emas.

Sotsiologiya tarixini davrlarga ajratishda fanning ichki rivojlanish tahlili, uning tarkibidagi o'zgarishlar va sotsiologik bilim taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata olgan uning asosiy muammolariga asoslanish to'g'ri hisoblanadi. Ularning tarkibiga jamiyatni, uning sotsial guruhlar va shaxslar bilan o'zaro munosabatini talqin etish, sotsiologiya fanining predmeti muammosi va boshqalarni kiritish mumkin. Shuning uchun eng dolzarb muammolardan biri nazariy va empirik sotsiologiyani o'zaro munosabati masalasi hisoblanadi.

Ko'pchilik mualliflar sotsiologiyani, asosan, ikkita rivojlanish bosqichini ajratadilar (masalan: Ritsler J., Dillon M., Zborovskiy G.Y.,

<sup>1</sup> Coim Ch., Grande F. Histoire de la sociologie. - P., 1992.

Kravchenko A.I.)<sup>1</sup>. Birinchisi – mumtoz, ikkinchisi esa zamonaviy bosqich deb nomlangan.

Bizningcha, sotsiologiya fanining uchta asosiy rivojlanishi bosqichini ajratish mumkin. Birinchisi: sotsiologiya fani shakllanishi va taraqqiyotining mumtoz bosqichi, ikkinchisi XX asr boshi va o'rtalarida sotsiologiyani rivojlanishini, uchunchi bosqich esa XX asr oxiridan to bugungi kungacha bo'lgan davrni to'liq qamrab oladi. Agar birinchisi nazariy (mumtoz sotsiologiyani yuzaga kelishi va rivojlanishi bosqichi) sotsiologiyani yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi esa empirik (zamonaviy sotsiologiyani rivojlanishi bosqichi) sotsiologiyani shakllanishi bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichda nazariy sotsiologiyani rivojlanishi empirik sotsiologiyani shakllanishi bilan bir vaqtda amalga oshadi. Zamonaviy bosqichda nazariy va empirik sotsiologiyani o'zaro aloqadorligi (hatto qarama-qarshilik shaklida ham) kuzatiladi.

Albatta sotsiologiyani zamonaviy rivojlanish bosqichi (1920-yillardan to bugungi kungacha) haqida gapirganda, biroz noqulaylik, tushunmovchilik paydo bo'ladi, chunki biz XXI asrda turib, XX asr boshlaridagi fikrlarni zamonaviy, deb baholashga majbur bo'lamiz.

Sotsiologiyani mumtoz va zamonaviy rivojlanish bosqichlari haqida gap ketganda, sotsiologlar ularning chegarasini belgilashga turlicha yondoshadilar. V.P.Kultigin fikricha, zamonaviy bosqich Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr va eng yangi sotsiologiyani o'z ichiga oladi. Bu ikki davr chegarasini 1960-yillarga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi. Mumtoz bosqich XIX asr o'rtalarida sotsiologiyani shakllanishidan to Ikkinchi jahon urushiga kelib taqaladigan erta va kechki davrlarni ajratadi. Ularning oralig'iga Birinchi jahon urushi va Rossiyadagi oktyabr inqilobini chegara qilib qo'yadi.<sup>2</sup>

Muhokama qilinayotgan masala yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish uchun G.Y.Zborovskiy yana bitta dalilni keltiradi: sotsiologiyani mumtoz va zamonaviy rivojlanish bosqichlari

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer, Sociological Theory, Eighth Edition, Mc Graw-Hill, 2010; Michele Dillon, Introduction to Sociological Theory, Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century, 2-Ed, Blackwell Publishing, 2014; Зборовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: ИНО СУрГУТУ, 2014; Каран: Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: ИНО СУрГУТУ, 2015; Кравченко А.И. Социология в 2 тт. Классические теории через призму социологического воображения. – М.: Юрайт, 2014; Кравченко А.И. Социология в 2 тт. Новые и развивающиеся социологические теории через призму социологического воображения. – М.: Юрайт, 2014.

<sup>2</sup> Qarang: Kultigin V.P. Специфика социологического знания: преемственность, традиции и новаторство // Социол. 2008. – № 8. – С. 5-7.

oralig'idagi davr – Ikkinchi jahon urushi emas, balki aynan Birinchi jahon urushining tugallanishi davridan boshlanadi. Ya'ni, aniqroq aytganda 1920-yillarning boshlariga kelib, jamiyatning yangicha holatga o'tish davri kuzatiladi, bunda jamiyatning an'anaviy sotsiologiyada qaror topgan nazariyalar yordamida emas, balki sotsiologik bilishning boshqacha vositalari yordamida, birinchi navbatda aniq empirik tadqiqot uslubida tavsiflash zaruriyati yuzaga kelgan. Bunda o'rganilayotgan masalaning o'zining ham tavsiflari va o'rganilish doirasi sezilarli darajada o'zgarishi qayd qilinadi. Bu masalaning ijtimoiy guruhlarning, jumladan kichik ijtimoiy guruhlarning o'rganilishi tomonga yo'nalishda siljishi, shuningdek shahar hayoti, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayot, etnik o'zaro munosabatlar va boshqa masalalar bilan uyg'unlikda qarab chiqilishi amalga oshirilgan. Bu ko'rinishdagi tadqiqotlarning olib borilishi natijasida sotsiologik bilimlarning o'ziga xos yo'nalishlar sohalari (masalan – mehnat, shahar, ta'lim, sanoat sotsiologiyasi va boshqalar) shakllangan. Sotsiologiyaning rivojlanishining yangi bosqichining yana bitta o'ziga xos «belgisi» – bu ushbu yo'nalishning subyektiv tavsifga ega hodisalarning ularga ijtimoiy jarayonlarning ta'siri nuqtai nazaridan kengroq o'rganilishi va uning ijtimoiy tabiatiga aniqlik kiritish sohasida tadqiqotlar kuchayishi bilan bog'liq hisoblanadi. Aynan, ushbu davrda (ya'ni 1920-yillarning boshlarida) sotsiologiya fani sohasida an'anaviy nazariyalarning rivojlantirilishi bilan birgalikda, uning tavsiflari, tarkibi va yo'nalishlarida sezilarli darajada o'zgarishlar amalga oshganligi qayd etilgan, bu o'zgarishlar o'z navbatida, sotsiologiyaning ushbu davrdagi oxirgi yuz yillik davomida taraqqiyoti qiyofasini belgilab bergan, bu davrni biz – sotsiologiyaning yangi rivojlanish bosqichi deb nomlaymiz, deb qayd etadi G.Y.Zborovskiy

Sotsiologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichining mazmun-mohiyati ushbu o'rinda sotsiologiyaning butun XX asr davomida rivojlanishining o'ziga xos jarayonlarining tavsiflari haqida umumiy tasavvurlarga ega bo'lishni talab etadi. Bu holat sotsiologiyaning mumtoz tavsifdagi rivojlanish bosqichi chegaralarida qanday o'ziga xos jihatlarga egaligini tushuna olish imkonini beradi.

Sotsiologiyaning zamonaviy rivojlanish bosqichi birinchidan, empirik sotsiologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq

hisoblanadi, ikkinchidan, sotsiologik fan sohalarning tarmoqlarga ajralishi bilan belgilanadi, uchinchidan, XIX asrdagi rivojlanish davriga nisbatan solishtirilganda, sotsiologiyada yangi maktablar, yo'nalishlar, nazariyalar va paradigmalarning ishlab chiqilishi bilan bog'liq hisoblanadi, shuningdek to'rtinchidan esa – bu davrda ma'lum darajada nazariy va empirik sotsiologiyaning o'zaro birlashtirishga urinishlar amalga oshirilganligi qayd etiladi, beshinchidan – mumtoz nazariyalardan «postmumtoz» yo'nalish tomonga o'tish yo'llarining qidirilishi bilan farqlanadi.

G.Y.Zborovskiy tomonidan taqdim etilgan davrlashtirish 3 ta mezonlar asosida, ya'ni: davriy, makonga oid va tarkibiy mezonlar bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, unda sotsiologiyaning u yoki bu rivojlanish bosqichlarining (davrlarning) yuzaga kelishidagi ijtimoiy (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy) zaruriyat va talablarga oydinlik kiritish imkoniyati, uning boshlang'ich tarkibi, jamiyatga (alohida odamlar guruhlari) yoki aksincha, jamiyatning unga ta'siriga aniqlik kiritish imkoniyati yuzaga keladi. Navbatdagi bosqichda, ko'rsatib o'tilgan yondoshuv asosida sotsiologiyada mavjud bo'lgan aloqadorliklarga aniqlik kiritish bilan birgalikda, bevosita, to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy (iqtisodiy, siyosiy, sinflarga oid, guruhlariga oid va boshqa) ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan tavsifda, ushbu fanning rivojlanishida o'ziga xos ichki mantiqni tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Sotsiologiya tarixida davrlashtirishning keltirib o'tilgan uchta mezonini bir butun yagonalikda qarab chiqish – ushbu fan uchun asosiy masalalar hisoblangan (yo'nalishlar, oqimlar yoki paradigmalardan qat'i nazar) holatlarni belgilab olish imkonin beradi: ya'ni, jamiyat, ijtimoiy tuzilma, shaxs, madaniyat, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy dinamika va boshqa ko'plab masalalarga oydinlik kiritiladi. Bu sotsiologiya fani va uning o'z rivojlanish tarixi davomida o'zgarishlari haqida bir butun tasavvurlarni hosil qilish imkonini yuzaga keltiradi<sup>1</sup>.

Shuningdek, sotsiologiya tarixiga oid boshqa adabiyotlarda uning O.Kontdan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishi tarixini 3 ta asosiy bosqichga ajratilganini ham ko'rishimiz mumkin:

<sup>1</sup> Qizil: Zborovskiy G.Y. *История социологии: классический этап: учебник для вузов*. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и др.: РИО СурГУ, 2014. – С. 14; Zborovskiy G.Y. *История социологии: современный этап: учебник для вузов*. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и др.: РИО СурГУ, 2015. – С. 19-20.

1) institutsionallashuv bosqichi (1880-yy. – 1920-yy.) – sotsiologiyaning mustaqil nazariy va empirik fan maqomiga ega bo'lishi;

2) reviziya bosqichi (1920-yy. – 1960-yy. o'rtalari) – ilgarigi sotsiologik nazariyalarni qayta ko'rib chiqish va empirik sotsiologiyaning ustuvor rivojlanishi;

3) inqiroz bosqichi (1960-yy. o'rtalaridan to hozirgi kungacha) – ko'p paradigmali sotsiologik konsepsiyalarning tarqalishi.<sup>1</sup>

Sotsiologiyaning fan sifatidagi tarixini ikki xil nuqtai-nazardan olib qarash mumkin: birinchisi – sotsiologiyaning institutsionallashuvi tarixi, ikkinchisi – nazariy (fundamental va sohaviy) hamda amaliy (empirik) sotsiologiyaning rivojlanishi. Ko'plab adabiyotlarda mualliflar nazariy va amaliy sotsiologiyaning rivojlanishi tarixiga asosiy e'tiborni qaratib, fanning institutsionallashuvi tarixiga jiddiy to'xtalmaydilar.

4. Sotsiologiya fanining institutsionallashuvi masalasi V.I.Dobrenkov va A.I.Kravchenkoning 15 jildlik "Fundamental sotsiologiya" asarining 1-jildida qarab o'tilgan<sup>2</sup>. Unda mualliflar institutsionallashuv masalasining asosiy jihatlariga to'xtalib o'tadilar: oliy ta'lim tizimida sotsiologiya kafedralari va fakultetining ochilishi, ilmiy-tadqiqot markazlari tizimining yaratilishi, malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, davriy nashrlar, ilmiy monografiyalar va to'plamlar chiqarishni yo'lga qo'yish, konferensiya va seminarlar o'tkazish.

Sotsiologiyaning institutsionallashuvi – sotsiologiyani ilmiy bilimning o'ziga xos bir sohasi sifatida tan olinishi tarixiy jarayoni hisoblanib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- "sotsiologiya" terminining ilmiy leksikonga kiritilishi;
- sotsiologik muammolar yuzasidan ilmiy ishlar va davriy nashrlar chiqarish;
- ilmiy sotsiologik forumlar o'tkazish;
- sotsiologik assotsiatsiyalar tuzish;
- sotsiologik ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish;
- umumiy va kasbiy sotsiologik ta'limni targ'ib qilish;

<sup>1</sup> Qiziq: История социологии: учебник для бакалавров / М.Б.Гаврилов, А.В.Воропанов, Н.А.Громов, отв. ред. А.В.Воропанов. – М.: Издательство Юрайт, 2013.

<sup>2</sup> Qiziq: Добренко В.И., Кравченко А.И. Фундаментальная социология. В 15 тт. Т.1. – М., 2003.

- sotsiologlarning davlat tomonidan rasional olim va amaliyotchilar sifatida tan olinishi;

- sotsiologiya bo'yicha ilmiy daraja va unvonlarni ta'sis etish.<sup>1</sup>

Sotsiologiyaning institutsionallashuvi har bir davlatda o'ziga xos tarzda amalga oshgan. Bu jarayon tabiiyki G'arbiy yevropa va AQShda XIX asrning 2-yarmida boshlangan. Nomida «sotsiologiya» atamasi ishlatilgan monografiyalar ilk marotaba AQSh va Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan. Sotsiologiya bo'yicha birinchi ish 1854-yilda G.Xyuz tomonidan nashr etilgan "Sotsiologiya bo'yicha traktat" hisoblanadi. Buyuk Britaniyada esa 1873-oyilda G.Spenser o'zining «Sotsiologiya o'rganish vositasi sifatida» asarini nashr ettirdi, 1876-1896-yillarda esa uch jildlik «Sotsiologiya asoslari» dunyo yuzini ko'rdi. 1886-yilda Bryusselda ye. de Greefning «Sotsiologiyaga kirish» nomli asari nashrdan chiqdi, unda muallif universitetlarda sotsiologiya kafedralarini ochishga chaqirgan. 1888-yilda u Yangi Bryussel universitetida sotsiologiya kafedrasining mudiri bo'ldi va u yerga yevropalik olimlar bilan bir qatorda M.M.Kovalevskiy va ye.V. de Roberti kabi rus sotsiologlarini ham taklif etdi.

1893-yilda Rene Vorns (1869-1926) tomonidan Parijda tashkil etilgan Sotsiologiya xalqaro instituti dunyoning barcha yetakchi sotsiologlarini birlashtirgan va mutaxassislar ichida nufuzli ilk sotsiologiya hamjamiyati sifatida e'tirof etildi. R.Vornsning tashabbusi bilan shu yilning o'zidayoq «Sotsiologiya xalqaro jurnali» («Revue Internationale de Sociologie») nomli jurnal nashr ettirila boshladi. 1894-yilda Parijda Sotsiologiya xalqaro institutining birinchi butunjahon kongressi bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 16 davlatidan jami 58 nafar olimlar qatnashdi. 1895-yilda R.Vorns «Sotsiologiya xalqaro instituti annallari» jurnali muharriri etib tayinlanadi. U shuningdek, universitet strukturasi o'zida 11 ta kafedrani jamlagan hamda o'z o'quv rejasi va dasturlariga ega sotsiologiya fakulteti loyihasini ham ishlab chiqadi.

Sotsiologiya fanining yevropadagi institutsionallashuvi jarayoniga Emil Dyurkgeym juda katta hissa qo'shgan. Uning quyidagi asarlari sotsiologiyani mustaqil fan sifatida e'tirof etilishida muhim o'rin tutgan: «Sotsiologiya elementlari» (1889), «Sotsiologik metod qoidalari» (1895) va «O'z joniga qasd qilish. Sotsiologik etyud»

<sup>1</sup> Qiziq: История социологии: учебник для бакалавров / М.Б.Гаврилов, А.В.Воропанов, Н.А.Громов, отв. ред. А.В.Воропанов. – М.: Издательство Юрайт, 2013.

(1897). 1896-yil 22-iyundagi dekret bilan Bordo shahri universitetida E.Dyurkgeym boshchiligidagi sotsiologiya kafedrasida ish boshlaydi. 1902-yildan boshlab u Sorbonnada rasmiy jihatdan sotsiologiya o'quv kursidan ma'ruzalar o'qiy boshlaydi. Shuningdek, E.Dyurkgeym 1896-1913-yillar oralig'ida nashr etilgan «Sotsiologik yilnoma» jurnalining asoschisi va noshiri bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sotsiologiya bir qator yevropa universitetlarida, jumladan: Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Fransiya, Shvetsiyada o'qitila boshlangan, Berlin, Vena, London, Parij va Rimda sotsiologiya jamiyatlari tashkil etilgan.

AQSH sotsiologiya fanining institutsionalizatsiyasi jarayonida juda muhim o'rin tutgan davlat hisoblanadi, chunki aynan bu davlatda sotsiolog mutaxassislarni yetishtirib chiqarish siyosiy va ishbilarmon doiralardan to'liq qo'llab-quvvatlangan va empirik tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Birinchi rasmiy qayd etilgan sotsiologiya o'quv kursi 1876-yilda Yelsk universiteti professori Uilyam Samner (1840-1910) tomonidan o'qilgan. AQSHdagi ilk sotsiologiya kafedrasida 1892-yilda Chikago universitetida ochilgan. Bir yil o'tib doktorlik darajasini berish huquqiga ega dunyodagi birinchi sotsiologiya fakulteti ham shu yerda tashkil etilgan. Ushbu fakultetni Albion Smoll (1854-1926) boshqargan. Shuningdek, Smoll bugungi kungacha Amerika sotsiologlarining yetakchi professional uyushmasi bo'lgan Amerika sotsiologiya jamiyatining (1905) asoschisi (Amerika Sotsiologiya Jamiyati abbreviaturasi – *ASJ* 1959-yilda Amerika Sotsiologiya Assotsiatsiyasiga o'zgartirilgan – *ASA*) va "Amerika sotsiologik jurnali"ning (1895) noshiri ham hisoblanadi.<sup>1</sup> J.Vinsent bilan hammualliflikda A.Smoll «Jamiyatni o'rganishga kirish» nomli ilk sotsiologiya bo'yicha Amerika darsligini nashr ettirgan (1894).

1894-yilda Katolik va Kolumbiya universitetlarida ham sotsiologiya fakultetlari tashkil etilgan, u yerda sotsiologiya fanlar bo'yicha birinchi «to'liq» professor Franklin Giddings (1855-1961) dars bergan. U «Sotsiologiya tamoyillari» (1896) darsligi muallifi, 1908-yildan boshlab Amerika sotsiologiya jamiyatining raisi sifatida faoliyat yuritgan. 1895-yilda Xartford shahrida (Konnektikut shtati) 3 yillik ta'lim beruvchi Sotsiologiya kolleji tashkil etilgan. 1890-yillar

o'rtalariga kelib AQSHning 29 ta, 1901-yilga kelib 160 ta, 1909-yilga kelib esa 400 ta o'quv muassasalarida sotsiologiya fani o'qitilgan. 1916-yilga kelib sotsiologiya bo'yicha 30 ga yaqin darslik nashr etilgan.

Birinchi jahon urushidan keyin AQSHda sotsiologiya va sotsial psixologiya bo'yicha ilmiy markazlar tashkil etila boshlandi. Xususan, Kolumbiya universiteti qoshidagi amaliy sotsiologik tadqiqotlar byurosi, Michigan universiteti qoshidagi sotsial tadqiqotlar instituti, Chikago universiteti qoshidagi jamoatchilik fikrini o'rganish milliy instituti shular jumlasidandir.

G'arbiy Yevropa va AQSHda sotsiologiya fanining institutsionallasuvi yakuni isboti sifatida sotsiologik tadqiqotlar koordinatsiyasi markazlari ko'rinishidagi milliy sotsiologik assotsiatsiyalarning, sotsiologik forumlar va sotsiologik nashrlarning tashkil etilishini olish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, XXI asrning salkam 18 yili o'tib borayotgan bugungi kunda biz sotsiologiya fani tarixini davr va bosqichlarga ajratish mezonlarini qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Zero XXI asrning qisqa muddati o'tgan bo'lsada, XX asr uchun zamonaviy deb olingan nazariyalar bugungi axborotlashuv va globallashtirish asrida sotsiologik tafakkur doirasida ro'y bergan juda ko'plab jiddiy va keskin o'zgarishlar rakursida birmuncha eskirgan va tubdan o'zgarishini ham ko'rishimiz mumkin.

5. O'zbekistonda sotsiologiya fanining shakllanishi va taraqqiy etishi tarixi haqida gap bo'lganda uni sobiq ittifoq tarixidan ayri holda tushuntirishning iloji yo'q. AQSH va G'arbiy Yevropa sotsiologik tadqiqot nazariyalari va metodologiyasi sovet marksistik sotsiologiyasida yetarlicha qadrlanmadi. Ular burjua nazariyalari sifatida tanqid qilindi va butunlay inkor etildi. Kommunistik mafkuraga asoslangan sovet marksistik sotsiologiya fani tobora o'zining fan sifatidagi mohiyatini yo'qota bordi. Boshqa ijtimoiy va gumanitar fanlar qatori hukmron siyosiy mafkuraga bo'ysundirildi, uning ojiz xizmatkoriga aylantirildi. Natijada sotsiologiya mavjud ijtimoiy reallikni bir tomonlama soxta ifodalovchi totalitar davlat buyurtmasini bajaruvchisi bo'lib qoldi.

Sobiq ittifoqning dastlabki yillaridayoq, ya'ni 1918-1919-yillarda Petrograd va Yaroslavl universitetlarida sotsiologiya kafedralari ochildi. Sotsiologiya mutaxassisligi bo'yicha ilmiy daraja joriy qilindi.

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer, *Sociological Theory*. Eighth Edition, Mc Graw-Hill, 2010. – P. 189.

1919-yilda esa sotsiologiya instituti tashkil etildi. 1922-yilda esa VKP (b) MK qarori bilan rus ziyolilarining katta guruhi Rossiyadan chet elga badarg'a qilindi. Ular ichida yirik sotsiolog P.A.Sorokin ham bor edi. U AQSHda yashadi va o'z ilmiy faoliyatini davom ettirib dunyoviy mashhurlikka erishdi.

XX asrning 20-yillarida sotsiologiya bo'yicha qator asarlar nashr etildi. Misol uchun, 1922-yilda P.A.Sorokinning «Sotsiologiya asoslari», 1928-yilda V.M.Xvostovning «Sotsiologiya asoslari», «Ijtimoiy progress qonuniyatlari to'g'risidagi ta'limot», 1922-yilda N.A.Buxarinning «Tarixiy materializm nazariyasi. Marksistik sotsiologiyaning ommabop dasrsligi», 1923-yilda esa M.S.Solinskiyning «Kishilarning ijtimoiy hayoti. Marksistik sotsiologiyaga kirish» kabi bir qator kitoblar nashr etildi. Ularda asosan sotsiologiyaning nazariy masalalari ishlab chiqilgan edi.

XX asrning 50-yillarida sotsiologiya to'la falsafiy fan sifatida e'lon qilindi. Tarixiy materializm marksizm sotsiologiyasi sifatida qaralib, empirik aniq sotsiologik tadqiqotlar falsafiy nazariyaning predmeti bo'lmasligi uchun sotsiologiyadan surib chiqarildi. Shu davrdan boshlab sotsiologiya sobiq ittifoqda o'zining fan sifatidagi mazmunini yo'qotdi.

XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillari boshlaridan sotsiologiya fani rivojida birmuncha ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Empirik sotsiologik tadqiqotlar o'tkazila boshlandi. 60-yillar o'rtalarida birinchi sotsiologik muassasa – SSSR FA falsafa instituti qoshida sotsiologik tadqiqotlar bo'limi tashkil qilindi. Leningrad universitetida sotsiologik tadqiqot laboratoriyasi ochildi. 1962-yilda Sovet sotsiologik assotsiatsiyasi, 1964-yilda esa MDU falsafa fakultetida konkret sotsiologik tadqiqotlar kafedrasini tashkil qilindi. 1969-yilga kelib SSSR FA ittifoqdosh respublikalarda o'z bo'limlariga ega bo'lgan konkret sotsiologik tadqiqot instituti tashkil qilindi. 1974-yildan boshlab Moskvada, Sverdlovsk, Leningrad, Novosibirsk kabi yirik ilmiy markazlarda «Sotsiologik tadqiqotlar» jurnali chiqarib boshlandi. 1988-yilga kelib Moskva, Leningrad, Sverdlovsk, Kiev universitetlarida sotsiologiya fakultetlari ochildi.

O'zbekistonda sotsial fikrlar rivojida 20-30-yillardagi jadidchilik harakati g'oyalari muhim rol o'ynadi. Ma'rifatparvar jadidlar shartli ravishda 3 ta guruhga bo'lingan holda (ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma'naviy, diniy-ma'rifiy) milliy mafkurani yaratish, yangicha ta'limni

joriy etish milliy madaniyatni rivojlantirish ...y va mahalliy urf-odatlarini keng yoyishning ijtimoiy ma'naviy jihatlari bilan bir qatorda sotsial jihatlari ham atroflicha tahlil qilganlar. Ularning bu g'oyalari respublikamizda keyingi davrlarda sotsial qarashlar rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi bag'rida bo'lishiga qaramasdan O'zbekistonda o'tgan asrning 60-90- yillarida sotsiologiya fanining bir qancha sohalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Masalan, 1971-yilda O'zSSR FA ning Kibernetika Ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi qoshida "Sotsiologik jarayonlarni modellashtirish", keyinchalik esa "Sotsial-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish" laboratoriyalari ochildi<sup>1</sup>. Demak, sotsiologiyaning rivojlanishi O'zbekistonda 1960-yillar oxiri 1970-yillar boshlariga to'g'ri keladi, deyishga asos bor. O'zbekistonda bu davr sotsiologiyasi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, asosan iqtisod va siyosat fanlari kesimida shakllangan, deyish mumkin. Bunda akademik V.Q.Qobulov, R.A.Ubaydullaeva, professor N.S.Aliqoriyevlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muhim o'rin tutgan.

Shuningdek, O'z SSR FA Falsafa va huquq institutida ham sotsiologiya sektori faoliyat yuritgan. Bu sektorga uzoq yillar davomida T.R.Abdushukurov rahbarlik qilgan.

Sobiq ittifoq davrida tarixni materialistik tushunishga sinfiy va partiyaviy yondashishni absolyutlashtirish oqibatida umumsotsiologik qonuniyat mohiyatiga putur yetkazildi. Jamiyat taraqqiyotni bir tomonlama bo'rtirib tushuntirish oqibati sub'ektivizmga, volyuntarizmga olib keldi. Sotsiologiya falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar singari siyosatga bo'ysundirilib, uning xizmatkoriga aylantirildi. Sotsiologiyaning asosiy ijtimoiy vazifasi muayyan andozaga solingan, oldindan qat'iy belgilangan siyosiy buyurtmani bajarishdan iborat bo'lib qoldi. Mavjud mafkura doirasidan chiqish qat'iy ta'qiqlandi.

Shunday qilib, o'sha davr ijtimoiy fanlar uchun metodologik asos qilib olingan tarixni materialistik tushunishdan chetlashildi. Ijtimoiy ong ijtimoiy hayotni emas, balki ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni

<sup>1</sup> Qarang: Aliqoriyev N.S. O'zbekistonda sotsiologik tadqiqotlar va ularning ma'naviy / Mustaqillik davrida O'zbekistonda sotsiologik taraqqiyotning dolzarb muammasi. – Toshkent, 2010. – S. 11-12.

belgilaydi, degan materialistik mohiyatga ega bo'lgan umumsotsiologik qonuniyatga xilof ravishda ish yuritildi.

Sobiq ittifoq davrida sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishi uchun to'la imkoniyat bo'lmadi. Buning asosiy sababi demokratiyaning yo'qligi, ijtimoiy munosabatlarga faqat sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazardan qaralganligi bo'ldi. Sotsiologiya esa faqat to'la qonli demokratiya bo'lgandagina fan darajasida amal qiladi. Chunki, sotsiologiya mohiyat e'tibori bilan jamiyat hayotining o'zaro bog'liq bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy turmush sohalarini rivojlanish va funksional qonunlarini ob'ektiv jihatdan umumiy tahlil qiladi.

Binobarin, empirik tadqiqot darajasida olingan ma'lumotlar o'rganilayotganda obyektning salbiy jihatlarini ham ifodalash mumkin.

Kishilarning davlat siyosatiga, mavjud siyosiy rejimga munosabatini, moddiy turmush darajasini, kayfiyati, intilishlari va shu kabi munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish orqali mavjud ijtimoiy-siyosiy holat yuzaga chiqariladi. Zero, to'laqonli demokratik tuzumdagina mavjud siyosiy kuchlarning fikrlar xilma-xilligiga yo'l qo'yiladi.

Sotsiologiyada tadqiqot natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ilmiy asoslangan va ob'ektiv xarakterda bo'lishi talab qilinadi. Agar davlat demokratik asosda boshqarilmasa, hokimiyat tepasidagi siyosiy kuchlar manfaatiga xizmat qilmaydigan har qanday ilmiy sotsiologik tadqiqotdan voz kechiladi va u ta'qiqlanadi. Siyosiy mafkuraga bo'ysundirilgan sotsiologiya o'zining ilmiyligini yo'qotib subyektiv, sun'iy va soxta xususiyatga ega bo'lib qoladi.

1989-yilda Moskvada tashkil qilingan jamoatchilik fikrini o'rganish butunittifoq markazining (VSIOM) O'zbekiston bo'limi ish boshladi. Bo'lim sotsiologlari respublikamiz viloyatlari va tumanlarida xilma-xil mavzular bo'yicha sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib, ular asosida kishilarning ruhiyati va kayfiyatidagi o'zgarishlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Ma'lum ma'noda, bu holat respublikamizda milliy ongning o'sishiga va shuning natijasida milliy mustaqillikka erishishni tezlashuviga turtki bo'ldi.

O'zbekistonda sotsiologiya fanining institutsionallashtirishini dastlab 1989-yilda Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU) Falsafa fakulteti tarkibida sotsiologiya bo'limi va kafedrasini tashkil

etilishi bilan bog'lab tushuntirish lozim bo'ladi. Bu davr sotsiologiya fanining tom ma'noda o'quv fani sifatida namoyon bo'lishini belgilab berdi, shuningdek sotsiolog-mutaxassislar tayyorlana boshlandi va 1994-yili 40 mutaxassis bitirib chiqdi. 1995-yilda 30 ta, 1996 yilda 21 talaba, 1997-yilda-12 ta talaba sotsiolog mutaxassisligiga ega bo'ldilar.

Keyinchalik Samarqand, Farg'ona va Buxoro universitetlarida ham sotsiologlarni yetishtirib chiqarish yo'lga qo'yildi. Masalan, Farg'ona Davlat Universitetida dastlab 1990-yilda sotsiologiya kafedrasini tashkil etildi. 1992-yilda esa shu kafedra asosida "Umumiy sotsiologiya" va "Amaliy sotsiologiya" kafedralari tashkil etildi. "Amaliy sotsiologiya" kafedrasini ilmiy tadqiqot yo'nalishi - yoshlar faoliyatida mehnat omilini faollashtirish yo'llari bo'lib, bu borada aniq tadqiqotlar olib borilmoqda. 1991-yilda sotsiologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash bo'limi ochilib, unga qabul qilingan dastlabki talabalardan 17 kishi, 1996-yilda sotsiologiya bo'yicha mutaxassis sifatida bitirib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 18-iyul 1994-yil 87-01-242-sonli buyrug'i bilan 1995-1996-o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha oliy o'quv yurtlarida 1-blok fanlari qatorida sotsiologiya fanining o'qitilishi joriy qilinishi mamlakatimizda bu fanning mustahkam o'rin egallashida muhim qadam bo'ldi.

1992-yilda Mehnat Vazirligi qoshida sotsiologik tadqiqotlar markazi tashkil qilinib, bu markaz tomonidan respublikamizda keng suratda tadqiqotlar o'tkazilib, unda aholining iqtisodiy islohotlarga, demokratlashtirish jarayonlariga bo'lgan munosabatlari atroflicha o'rganila boshlandi.

Mamlakatimizda 1997-yildan boshlab «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida sotsiologik tadqiqot markazlari va xizmatlarini muvofiqlashtirish imkoniyatini tug'dirdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda sotsiologiya sohasida yetarli ilmiy potensial shakllangan, deyish mumkin. Mamlakatimizda o'z ilmiy yo'nalishlari va ilmiy maktablari bilan tanilgan bir qator professor-olimlar bu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: M.Bekmurodov, A.Xolbekov, N.S.Aliqoriyev, A.Umarov, M.X.Ganiyeva va h.k.

O'zbekistonda sotsiologiya fanini rivojlantirishda Birinchi Prezident I.A.Karimovning roli beqiyosdir. Chunki I.A.Karimov tomonidan iqtisodiy islohotlarning besh tamoyili, shu jumladan iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, uni har qanday mafkuradan ozod qilish lozimligi uqtirildi. "Iqtisodiyot o'z qoidalariga asoslanib rivoj topishi kerak", degan qoidaga ko'ra iqtisodiyotni asosiy ijtimoiy tizim sifatida sotsiologiya fani doirasida o'rganish jamiyatning boshqa jihatlarini o'rganishga asos bo'ladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda yigirmadan ortiq jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari faoliyat ko'rsatayotganligi, jamoatchilik fikri faol o'rganilayotganligi nafaqat jamiyatning demokratlashuvidan, balki jamiyat oddiy odamlar fikrini ham inobatga ola boshlaganidan dalolat beradi. Jamiyatda umuman aholining, jumladan, uning ijtimoiy-siyosiy sohadagi fikrini o'rganishning yangi uslubiyoti va usullari shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi.

Shuningdek, kirib kelayotgan yilga nom berish an'anasiga muvofiq joriy 2017-yilning Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini" yili deb atalishining negizida ham mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan siyosat olib borilayotganligi, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida hamda inson huquq va manfaatlarini ta'minlashda sotsiologiya fani imkoniyatlaridan samarali foydalanilayotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sotsiologiya tarixi fanining predmeti nimadan iborat?
2. Sotsiologiya tarixining qanday rivojlanish bosqichlarini bilasiz?
3. Sotsiologiya tarixini davrlarga ajratishda qaysi mezonlarni hisobga olish zarur deb hisoblaysiz?
4. Sotsiologiya fani shakllanishi va taraqqiy etishida qaysi omillarni ajratish mumkin?
5. Sotsiologiya shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini birma-bir sanab o'ting.
6. Sotsiologiya vujudga kelishida tabiiy-ilmiy omillarning o'rini izohlang.

7. Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishining g'oyaviy-nazariy asoslari nimalardan iborat?

8. Sotsiologiya fanining institutsionallashuvi davrlarini so'zlab bering.

9. O'zbekistonda sotsiologiya fani vujudga kelishi tarixini izohlang.

#### GLOSSARIY

**Empirik tadqiqotlar** – эмпирические исследования – **empirical research** – sotsiologiyaning har bir sohasida o'tkaziladigan faktologik tadqiqotlar.

**Funksiya** – функция – **function** – faoliyat, ba'zi sistemalar doirasidagi obyektning unga mansubligi va roli; obyektlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishi bo'lib birining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi obyekt dastlabkisining funksiyasi deyiladi.

**Islohot** – реформа – **reform** – mavjud ijtimoiy tuzum asoslariga putur yetkazmasdan ijtimoiy hayotning biron-bir sohasini o'zgartirish, har qanday yangilikni joriy etish.

**Institutsionallashuv** – институционализация – **institutionalization** – 1) sotsial institutning tashkil topishi; 2) shakllangan xulq-atvor namunalarning odatda huquqiy maqomga erishishi.

**Jamiyat** – общество – **society** – muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o'zlarini boshqa qo'shni guruhlardan farqlaydigan odamlar guruhi.

**Kolumbiya maktabi** – Колумбийская школа – **Columbian school** – sotsiologiyada miqdoriy va sifatiy metodlarni ilgari surgan neopozitivizm maktabi.

**Metodologiya** – методология – **methodology** – 1) faning umumiy tamoyillari tizimi; usul haqidagi fan; 2) fan usullarini qurish nazariyasi.

**Obyekt** – объект – **object** – sub'ektning bilish va amaliy faoliyatida unga qarama-qarshi turadigan narsa.

**Obyektiv voqeylik** – объективная реальность – **objective reality** – inson ongiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqaridagi moddiy olam.

**Predmet – предмет – article – item** – inson faoliyati va bilish jarayonida ob'ektlar dunyosidan ajratib qaralgan ma'lum bir yaxlitlikni ifodalovchi tushuncha.

**Sotsiologiya – социология – sociology** – jamiyatning strukturasi, uning elementlari va mavjud bo'lishi shart-sharoitlarini, shuningdek ushbu strukturada amalga oshadigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan.

**Struktura – структура – structure** – sistemaning tuzilishi va ichki formasi, mazkur sistema elementlari o'rtasidagi barqaror o'zaro aloqalarning birligini ifodalovchi tushuncha.

**Subyekt – субъект – subject** – amaliy faoliyat va bilim bilan bog'liq bo'lgan, ob'ektni bilishga qaratilgan faollik manbai.

**Tizim – система – system** – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'p qismlar majmui.

**Chikago maktabi – Чикагская школа – Chicago school** – U.Tomas tomonidan asos solingan, sotsiologiyaning vazifasini keng qamrovli muammolarni tabiiy fanlar metodlari asosida o'rganishdan iborat degan g'oyani ilgari suruvchi neopozitivizm maktabi.

## O. KONT VA POZITIV SOTSILOGIYANING PAYDO BO'LISHI

Reja:

1. Ogyust Kontning hayoti va ijodi
2. Sotsiologiyada pozitivizm tushunchasi
3. Sotsiologiya va uning fanlar klassifikatsiyasidagi o'rni
4. Sotsial statika va sotsial dinamika
5. Sotsiologiya fani metodlari
6. Pozitiv siyosat
7. Kont ijodida ta'lim va tarbiya masalalari
8. Kont sotsiologik nazariyasining ahamiyati

Ogyust Kont (1798-1857) pozitiv-ilmiy metodni qamrab olgan sotsiologiyaga asos solgan va uni kishilik jamiyatini tadqiq etishga moslashtirgan olim, fransuz faylasufi. U jamiyat to'g'risidagi fanning nafaqat mavjud bo'lishi mumkinligiga, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun juda muhimligiga ishongan.<sup>1</sup>

Ogyust Kont (to'liq ismi – Isidor Ogyust Mariya Fransua Ksavye Kont) 1798-yilda Fransiyaning Monpele shahrida moliyachi amaldor oilasida dunyoga kelgan. 1807-1814-yillarda shu shahardagi maktablitseyda ta'lim olgan. O'qishning so'nggi yillarida yosh bo'lishiga qaramay liberal va inqilob g'oyalari bilan qiziq boshlagan. 1814-yilda u Parijga keladi va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, u yerdagi nufuzli Oliy politexnika maktabiga o'qishga kiradi. Bu yerda u tabiiy fanlar sohasida bilim oladi. Shu bilan birga falsafa, iqtisod va sotsial muammolarga bag'ishlangan yirik asarlar bilan tanishadi. 1816-yilda o'quvchilar va rahbariyat o'rtasida yuzaga kelgan nizo tufayli ta'lim muassasasi hukumat tomonidan vaqtincha yopiladi va Kont o'z fikrlarini erkin bayon etganligi uchun bir necha oyga Monpelega politsiya nazorati ostida qaytariladi. Maktab qayta ochilsada, Kontning o'qishga qayta tiklanmagani uning keyingi siyosiy qarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kont Monpeledagi universitetda tibbiyot va fiziologiya fanlaridan ta'lim oladi. Keyin yana Parijga qaytib kelib matematika fanidan dars berib tirikchiligi

<sup>1</sup> Michèle Dillon. Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014. – P. 17.

uchun pul topa boshlaydi. 1817-yilning avgust oyidan boshlab Kont taniqli fransuz mutafakkiri Klod Anri de Ruvrua Sen-Simonning (1760-1825) kotibi bo'lib ishga joylashadi.<sup>1</sup>

Kontning 1817-1824-yillar davomidagi o'zidan 40 yoshga katta bo'lgan Sen-Simon bilan ishlagan davri uning hayotidagi muhim davr hisoblanadi, chunki Kontning pozitivistik qarashlari shakllanishida Sen-Simonning hissasi beqiyos, hatto ayrim faktlarga ko'ra fanlar klassifikatsiyasi g'oyasi ham Sen-Simonga tegishli bo'lgan. Kont A.Sen-Simonning nafaqat kotibi, balki uning yaqin do'sti ham edi. Bu davrda Kont sotsial muammolarga bag'ishlangan bir necha maqolalarini chop ettiradi. Ulardan biri – "Jamiyatni qayta tashkillashtirish uchun zarur ilmiy ishlar rejasi" asarida Sen-Simonning kuchli ta'siri seziladi. Bu maqola asosida Kont o'zining birinchi yirik asari – "Pozitiv falsafa tizimi" asarini yozadi. Bu asarning birinchi jildining birinchi qismi Sen-Simon tomonidan muallifi ko'rsatilmagan holda "Sanoatchilar katexizisi" nomli seriyada 1824-yili nashr etiladi. Bu holat Kont bilan Sen-Simon o'rtasida nizoga sabab bo'ladi va oxir-oqibat Kont ishdan ketishga majbur bo'ladi. Bundan keyin u muntazam maosh to'lanadigan ishda ishlamagan.

1832-1851-yillarda O.Kont Politehnika maktabida tahlil va mexanika bo'yicha repetitlik qiladi. 1831-yildan to 1847-1848-yillargacha u Parijning Uchinchi okrugida astronomiya bo'yicha tekin kurslarni o'qiydi. O.Kont 1845-yildan boshlab asosan J.S.Mill va bir necha angliyalik boylar, 1848-yildan esa E.Littre va 100 ga yaqin izdosh va shogirdlari tomonidan to'langan yordam puli hisobiga yashaydi.<sup>2</sup>

O.Kontning shaxsiy hayotida ham ko'plab muammolarni ko'rish mumkin. Xaylbron (Heilbron, 1995) Kontni past bo'yli (taxminan 5 fut, 2 dyuym), sal g'ilayroq va muloqotda, ayniqsa ayollar bilan, o'ta qat'iyatsiz deya ta'riflagan.<sup>3</sup> 1825-yilda Karolin Massen ismli yengiltabiat ayolga uylanadi, lekin bu nikoh unga baxt keltirmaydi, keyinchalik Kont buni hayotidagi eng katta xato sifatida baholaydi (ularning nikohi 1825-yildan 1842-yilgacha davom etgan). Karolin uni

<sup>1</sup> Qarang: Арон П. Этими ранними социологическим мыслям. Пер. с фр. / Общ. ред. и предисл. П.С.Гуревича. – М.: Издательская группа «Прогресс»-«Политгиз», 1992. – С. 130-131.

<sup>2</sup> Qarang: O'sha joyda. – B. 131-132.

<sup>3</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 16.

bir necha marotaba tashlab ketadi, bu Kontga qattiq zarba beradi. Keyinchalik eng yaqin do'sti va shogirdi E.Littre bilan ham kelishmovchiliklar yuzaga keladi.

Kont o'zining kuchli xotirasi bilan tanilgan edi. Tasviriy xotiraga ega bo'lib, u qachonlardir o'qigan har qaysi sahifasidan sitatalar keltira olardi. Uning diqqatini jamlay olish qobiliyati shunda ediki, u qog'ozga qo'lini tekkazmay turib, butun bir kitobni xomaki yozib chiqishi mumkin edi. U matnlarsiz ma'ruzalar o'qir edi. Kitob yozish uchun o'tirganda, u hammasini xotirasidan olib yozardi<sup>1</sup>.

1826-yilda Kont o'z kvartirasida o'z falsafiy g'oyalari asosida 72 ta jamoat oldidagi ma'ruzadan iborat seriyani o'tkazishmoqchi bo'ldi. Kurs o'ziga katta auditoriyani jalb etdi, lekin Kontning asablari buzilishi natijasida uchta ma'ruzadan keyin to'xtatildi. U asab kasalligidan qiynalardi va 1827-yilda Sena daryosiga tashlab o'z joniga (muvaffaqiyatsiz) qasd qildi.<sup>2</sup> Shuni ham alohida qayd etish lozimki, shogirdlari O.Kontni o'ziga bino qo'ygan, xarakteri og'ir inson sifatida eslaydi.

1838-yilda Kont hayotidagi eng og'ir zarbaga duch keladi, aynan shunda u endi hych kim uning umuman fan va qisman sotsiologiya to'g'risidagi asarlarini qabul qilmasligiga jiddiy tarzda amin bo'ldi. Bu davrda u o'z hayotida «aql-idrok gigienasi»ni e'lon qildi. Kont boshqa mualliflarning asarlarini o'qishdan bosh tortdi, natijada u oxirgi intellektual yutuqlar bilan aloqani umidsizlik bilan yo'qotdi. 1838-yildan keyin Kont «Pozitiv siyosat tizimi»da aks ettirilgan jamiyatni isloh qilish haqidagi g'alati g'oyalarini ilgari sura boshladi. Shungacha yetib keldiki, Kont o'zini insoniyatning yangi dinining katta ruhoniysi sifatida tasavvur qila boshladi, u oxir-oqibat sotsiolog-ruhoniylar rahbarlik qiladigan dunyo yaralishiga ishonardi. (Kontga uning katolik kelib chiqishi katta ta'sir o'tkazdi.) Shunisi qiziqki, o'zining sharmandali g'oyalariga qaramay, Kontning, oxir-oqibat, nafaqat Fransiyada, balki boshqa bir qator davlatlarda ham izdoshlari soni ortib bordi.<sup>3</sup>

1829-1842-yillarda Kont o'zining asosiy asari – olti jildlik "Pozitiv falsafa kursi" asarini yozadi. Bu asar uning 72 ta ma'ruzasi asosiga quriladi. Uning birinchi jildi 1830-yilda nashr etiladi. Qolgan

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 16.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 17.

<sup>3</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 17.

jildlar mos ravishda 1835, 1838, 1839, 1841-va 1842-yillardan nashr etiladi. Bu kitobda u fanlar klassifikatsiyasi, pozitiv falsafa va sotsiologiya tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu kitobning oxirgi uch jildida Kont sotsial fizika, ya'ni sotsiologiyaning asoslarini bayon etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, asarning to'rtinchi jildi 47-ma'ruzasi, 245-sahifasida ilk marotaba "sotsiologiya" atamasini ishlatadi. To'rtinchi jildda sotsiologik qonunlarni o'rganish zaruriyati haqida gap borsa, beshinchi va oltinchi jildlarda Kont o'zining asosiy qonuni – uch bosqich qonunini shakllantiradi. Bungacha u pozitiv fanga nisbatan "sotsial fizika" atamasini qo'llagan edi. Shuni eslatib o'tish joizki, "sotsial fizika" g'oyasi XVII asrdayoq shakllangan bo'lib, XIX asr boshlarida A.Sen-Simon tomonidan targ'ib qilingan, 1835-yilda belgiyalik statistik A.Kettle tomonidan qo'llanilgan bo'lsada, O.Kontgacha hech kim bu g'oyani to'liq, asosli va tizimli tarzda rivojlantirmagan. Kont fikriga ko'ra, pozitiv falsafaning asosiy xususiyati Bekon tushuntirganidek, kuzatiluvchi faktlarga asoslangan real bilimlar hisoblanadi. Jamiyatdagi jarayonlarni tabiiy qonunlar asosida tushuntirish asosiy vazifa hisoblanadi. Teolog va metafiziklardan farqli ravishda pozitiv falsafa "hayotning tabiati to'g'risida" fikr yuritmaydi, bugun inson ongi ham osmon (astronomiya), ham yer (fizika, ximiya va fiziologiya) fizikasini anglab yetgan bir paytda ularning kuzatuvlarini umumlashtiruvchi bir fanga – ijtimoiy fizikaga ehtiyoj sezilmoqda.<sup>1</sup>

O.Kont 1844-yilda "Pozitiv falsafa ruhi haqida mushohada", "Mashhur astronomiya bo'yicha falsafiy traktat", 1848-1851-yillarda "Umuman pozitivizm haqida mushohada", 1851-(1852) yilda "Pozitivistik katexizis", 1851-1854-yillarda 4 jildlik "Pozitiv siyosat tizimi, yoki Insoniyat dinini o'rnatuvchi sotsiologiya to'g'risidagi Traktat", 1855-yilda "Konservatorlarga chorlov", 1856-yilda esa "Sub'ektiv sintez" asarlarini nashr ettiradi. Vafotidan keyin esa 4 jildlik "O.Kont vasiyati" nomli asar nashrdan chiqadi. Ko'plab asarlar muallifi bo'lishiga qaramay, O.Kont Fransiya ilmiy doiralarida to'liq tan olinmagan edi, hatto dushmanlari ko'pligi sababli kafedra ochish bo'yicha bir necha marotaba qilingan murojaatlari ham rad etilgan.

1848-yilda Kont "Pozitivistik jamiyat" tuzadi. Bu jamiyatning maqsadi xalqqa pozitivistik dunyoqarash ruhida bilimlarni berish va

<sup>1</sup> Michele Dilkes. Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014. – P. 18.

tarbiyalashdan iborat edi. Hayotining so'nggi yillarini Kont ishchilar ommasiga ma'ruzalar o'qish bilan o'tkazadi, unda Parij proletariyatlarining inqilobiy harakatlarini qoralaydi. Kont 1857-yil 5 sentyabrda Parijda Mese-le-Prens ko'chasidagi uyda o'quvchilarining qurshovida rak kasalligidan vafot etadi.

2. XIX asr sotsiologiyasidagi ilk yo'nalish pozitivizm (lot. positivus – ijobiy) hisoblanadi. Uning mazmun-mohiyati tabiatshunoslik fanlarining qonun va usullaridan foydalanish asosida jamiyat to'g'risidagi yangi bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat edi. Pozitivizm spekulativ mavhum nazariyalarga qarama-qarshi qo'yilgan. Shunga mos ravishda u jamiyat haqida abstrakt fikrlardan voz kechish va tabiiy-ilmiy nazariyalarning barcha mezonlariga javob bera oldaigan ijobiy sotsial nazariya yaratish maqsadida paydo bo'lgan. Pozitivistik nuqtai nazardan sotsiologiyaning asosiy vazifasi sotsial voqea-hodisalarni faktlarga asoslanib. Empirik va tahliliy yo'l bilan tadqiq etishdan iborat. Faqat shu holdagani u tom ma'noda "pozitiv" bo'la oladi, jamiyat hayotidagi muamolarni ijobiy va muvaffaqatli hal eta oladi.

Pozitivizmning asoschilari (avvalambor, O.Kont) jamiyat haqidagi bilim tabiatshunoslik fanlari beradigan tabiat haqidagi bilimlar singari qat'iy va aniq, asosli va ishonarli, real va foydali bo'lishi lozim. Kont o'zining ishlari "Pozitiv falsafa ruhi" asarida "pozitiv" atamasining bir necha xil talqinini beradi. Ular quyidagilar:

- hayoliydan farqli voqeyiy; yaroqsizdan farqli foydali; shubhalilikdan farqli ishonchli; noaniqlikdan farqli aniq; salbiydan farqli ijobiy.<sup>1</sup>

Jamiyatning funkcionallashuvi va taraqqiyoti qonunlari tabiiy qonunlarning davomi sifatida olib qaralganligi uchun, ularning o'zgarmasligi, barcha davrlar uchun xosligi ta'kidlangan. Shuning uchun ham sotsial hodisalarning tub mohiyatini va sababiy shartlanganligini anglab bo'lmaydi. Va nihoyat, jamiyat qonunlarini tabiat qonunlarning davomi sifatida qabul qilish pozitivizm tarafdorlarini jamiyatni avvalo statik holda, ya'ni barqaror tizim sifatida, keyinchalik esa dinamikada o'rganishiga olib keldi.

Jamiyat haqidagi bilimlar obyektivlik, reallik, ilmiylik, ishonchlilik, aniqlik, foydalilik talablariga javob berishi uchun

<sup>1</sup> Kont O. Дух позитивной философии // Западно-европейская социология XIX века: Тексты. – М., 1996. – С. 39-40.

pozitivizm nuqtai nazaridan u tabiiy fanlar metodlariga tayanishi lozim edi. Ulardan asosiylari – bu kuzatish, tajriba, qiyosiy, tarixiy va u yoki bu darajadagi matematik usullar edi. Jonatan Terner fikriga ko'ra, Kont pozitivizmi «sotsial olam abstrakt qonunlar taraqqiyotiga ularni ma'lumotlarni to'plash orqali tekshirishga javobgardir» va «bu abstrakt qonunlar bizga sotsial olamning asosiy va umumiy xususiyatlarini ko'rsatadi, va ularning "tabiiy aloqalari"ni aniqlaydi». Ayrim klassiklar (ayniqsa Spenser va Dyurkgeym) Kontning sotsial hayot qonunlarini ochishga intilishini qo'llab-quvvatlagan. Zamonaviy sotsiologiyaning muhim ahamiyatini saqlab qolib, pozitivizm bir vaqtning o'zida bir necha tomonlama ta'ziyqa duch keldi.<sup>1</sup>

Pozitivizm XIX asr sotsiologiyasining paradigmasi sifatida konkret yo'nalishlarda: naturalizm, organitsizm, evolyutsionizm, sotsial darvinizm, mexanitsizm, geografik determinizm, irqiy-atropologik kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ldi. Bu yo'nalish va oqimlarning barchasi bir-biridan yagona umumiy tamoyil – sotsiologik reduksionizmga ko'ra farqlanadi. Uning mazmun-mohiyati shundaki, ular ijtimoiy hayotning asosiy hodisalarini yagona omil hisobiga tushuntirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham ular sotsiologiya tarixida "bir omil maktablari" deb nomlangan.

3. Kont fikriga ko'ra, sotsiologiya – sotsial fizika – barcha boshqa fanlarning progressiv avansi bo'lishi kerak. Har bir avlod o'zidan oldingi avlodga nisbatan aqlliroq, erkinroq bo'lgani kabi insoniyat to'g'risidagi qarashlar ham borgan sayin aniqroq bo'ladi. Bu Marks va Dyurkgeymning jamiyat va ijtimoiy tashkilot shakllari to'g'risidagi qarashlarida ham namoyon bo'lgan. Bu progressiv ijtimoiy o'zgarishning rivojlanuvchi ko'rinishi sifatida baholangan: jamiyatda sodir bo'layotgan har bir o'zgarish oddiy o'zgarish emas, balki oldingisidan ko'ra yaxshiroq bo'lgan o'zgarishdir.

Bu evolyutsion-progressiv qarash Kontning sotsiologiya borasidagi qarashlarini belgilab berdi. Kontga ko'ra, sotsiologiya eng oliy fan bo'lishi kerak; u eng so'nggi evolyutsion qarashlarni ilgari surib ilmiy fanlardagi mavjud ilmiy metodlarni o'zida aks ettirishi va mukammallashtirishi lozim.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 18-19.

<sup>2</sup> Michele Dillon. *Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century*. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014. – P. 18-19.

Kont o'zining oldiga muhim nazariy vazifalardan biri sifatida barcha bilim sohalari qamrab oluvchi fanlar klassifikatsiyasini yaratish vazifasini qo'ydi. U o'zining maxsus "klassifikatsiya qonuni"ni ham ishlab chiqdi. Unga oltita asosiy fanlarni kiritdi:

- matematika;
- astronomiya;
- fizika;
- ximiya;
- biologiya;
- sotsiologiya.<sup>1</sup>

Bu klassifikatsiyani u ikki shart-sharoit bilan asosladi. Kontning fikriga ko'ra, bunday ketma-ketlikning sababi: birinchidan, ulardan har biri o'zidan oldingi fanga tayanadi, keyingisi uchun esa tayanch bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan esa, bu fanlar o'zining shakllanishi tarixiga ko'ra joylashtirilgan, ya'ni nisbatan qadimgisidan to nisbatan yangisigacha.

Zamonaviy til bilan aytganda biz bu omillarni tarixiy (u yoki bu fanning paydo bo'lishi vaqti va ketma-ketligi, biridan ikkinchisiga o'tish mobaynida tadqiqot predmeti murakkabligining ortishi) va mantiqiy (abstraktlikdan konkretlikka qarab borish) omillar deya nomlagan bo'lardik. Bundan tashqari, Kont bu ketma-ketlikni fanlarning amaliyot bilan bog'liqligi darajasi bilan ham tushuntiradi, ya'ni fanning mavhum bo'lishi uning amaliyot bilan unchalik uzviy aloqada emasligini ko'rsatadi. Bundan kelib chiqib, sotsiologiya eng yangi, murakkab, aniq va amaliy fan sifatida namoyon bo'ladi.

Kont sotsiologiyaning alohida rolini ta'kidlaydi, uni boshqa fanlarning "gumanitar" maqsadini belgilab beruvchi, ular ustidan "hukmronlik" qiladigan o'ringa loyiq, deb biladi. Sotsiologiya jamiyatni yaxlit holda o'rganar ekan, unga sotsial organizm sifatida yondoshadi. Sotsial, Kontning ta'kidlashicha, ijtimoiy, jamoaviy.

Bundan kelib chiqadiki, individ bilan har qanday narsa sotsiologiya fani doirasidan chetga chiqib biologiyaning ob'ektiga aylanadi. Shunday qilib, Kontning sotsiologiyasida sotsial harakat subyekt, ijtimoiy faollikning real manbasi sifatida individ e'tibordan chetda qoladi. Umuman olganda, Kont jamiyatdan alohida individ masalasini umuman tadqiqot predmeti sifatida umuman hisobga

<sup>1</sup> Qarang: Kont O. *Дух позитивной философии // Западно-европейская социология XIX века: Тексты*. – М., 1996. – С. 85.

olmagan. Aniqrog'i, Kontning sotsiologiyasi antiindividualistik ruhda bo'lgan deb aytish mumkin.

Kont o'zi yashayotgan davr jamiyatini inqirozli holatda, deb baholagan. Inqirozni u kompleks tarzda – sotsial, ma'naviy, intellektual nuqtai nazarlarda qarab o'tgan. Inqirozning sababini Kont bir necha sabablarda ko'rgan, lekin asosiy sabab sifatida eski sotsial institut, me'yor va aloqalarning parchalanishi, yangilarining esa xali shakllanmaganligini oladi. Inqirozdan chiqishning asosiy vositasi sifatida Kont jamiyat to'g'risidagi yangi "pozitiv" fanni yaratish va uni targ'ib qilishni oladi. Buni u sotsiologiyaning realligi va to'qima gaplardan xoli ekanligida deb biladi (oxirgisi 1830-yillargacha ko'plab jamiyat nazariyalariga xos edi). Yangi fanni Kont avvaliga sotsial fizika, keyinchalik (1839-yil) sotsiologiya deb nomlaydi. Buning sababi, jamiyatning fundamental qonunlarini ajratib oladigan va tushuntira oladigan maxsus fanni yaratish zaruriyati bilan bog'laydi.

Kont yangi pozitiv fan yordamida jamiyatni o'zgartirish mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, ijtimoiy tuzum va uning faoliyati jamoatchilik fikriga asoslanadi. Buni uning «Pozitivizmning umumiy ko'rinishi» kitobidagi ayrim boblarining nomlanishida ko'rish mumkin: «Jamoatchilik fikridagi tub o'zgarishlarning ma'naviy va siyosiy kuchi», «Jamoatchilik fikrini tashkil etish», «Jamoatchilik fikrining falsafiy idoralari», «Jamoatchilik fikri uch elementining zaruriy birikmasi: ta'limot, kuch-qudrat va idora». Ko'rinib turganidek, Kont ongni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy vositasi darajasiga olib chiqadi. Olamni va jamiyatni o'rganishda asosiy metodologik tamoyil sifatida Kont yaxlitlik va tizimli yondoshuvdan foydalanadi. Jamiyat elementlari o'ziga xos funksiyani bajaruvchi va uning talablariga xizmat qiluvchi organizm, sotsial tizim sifatida namoyon bo'ladi. Sotsiologiya esa ushbu tizimning funkcionallashuvi va rivojlanishi qonunlarini ochishga xizmat qiladi. Qonunlar haqida fikr yuritib, Kont jamiyatning aqliy, ma'naviy, axloqiy taraqqiyoti qonunlarini nazarda tutadi, iqtisodiy, mehnat, ishlab chiqarish, kasbiy strukturasi bilan bog'liq holatlarini e'tiborga olmaydi. Kont umuman mehnat masalasiga e'tibor qaratmaydi, desak, xato bo'ladi. U mehnat taqsimoti haqida fikr yuritib, uni iqtisodiy munosabatlar (jamiyat barqarorligini belgilashda ularning rolini rad etadi) taraqqiyoti bilan emas, balki sinflar, sotsial guruhlar va hatto oilalarning birdamligi

mustahkamlanishi bilan tushuntiradi. Yarim asr o'tib ijtimoiy mehnat taqsimoti orqali jamiyatdagi sotsial birdamlikni mustahkamlash g'oyasi jahon sotsiologiyasining yana bir mumtoz vakili – E.Dyurkgeym tomonidan ilgari suriladi.

4. Sotsiologiya O.Kontning fikriga ko'ra, oxir-oqibat yagona asosiy fanga aylanishi nazarda tutilgan, u ham sotsial statika (mavjud sotsial strukturalar), ham sotsial dinamika (sotsial o'zgarishlar) bilan shug'ullanishi lozim edi (fizikadagi statika va dinamikaga mos ravishda). Sotsial statika jamiyatni uning barcha sotsial elementlarini barqaror muvozanat holatida o'rganadi. Sotsial dinamika esa jamiyatning taraqqiyoti tahliliga murojaat qiladi. Ularning har ikkisi ham sotsial hayot qonunlarini topish bilan shug'ullansada, Kont sotsial dinamikani sotsial statikaga nisbatan muhimroq deb hisoblagan. O'zgarishlarga ko'proq e'tibor qaratishi uning sotsial islohotlarga nisbatan, qisman Fransuz inqilobi va Ma'rifatchilik natijasida amalga oshirilgan islohotga qiziqishini aks ettirardi. Kont inqilobiy yo'l bilan o'zgarishlar qilish tarafdori emas edi, chunki u jamiyatning tabiiy evolyutsiyasi ijobiy natijalarga olib keladi, deb hisoblar edi. Islohotlar esa bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchungina amalga oshirilishi lozim<sup>1</sup>.

Sotsial uyg'unlik qonuni Kont tomonidan sotsial statikaning asosiy qonuni sifatida e'tirof etiladi. U sinflar uyg'unligini ijtimoiy tuzumning tabiiy holati sifatida ta'minlashi zarur hisoblanadi. Kont sotsial statika tahlilini oiladan boshlaydi, uni sotsial organizmning asosiy hujayrasi sifatida olib qaraydi. Oila jamiyat va inson o'rtasida turadi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Kont fikriga ko'ra, faqatgina oilaviy majburiyatlar tufayli inson o'zidagi egoistik xususiyatlarni yengib o'tib, ijtimoiylik darajasiga ko'tarila oladi.<sup>2</sup>

Oilaning parchalanishi jamiyatning parchalanishiga olib keladi. Kont fikricha oila jamiyatdagi bir qator muhim vazifalarni bajaradi: madaniy merosni saqlaydi, insonlar o'rtasidagi emotsional va axloqiy aloqani o'rnatadi, turli avlodlar maqsadlarini muvofiqlashtiradi. Oila – hissiyotlar, ularning kuchi asosida yaratiladigan birlamchi birlik

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 15.

<sup>2</sup> Коэн О. Сакральный институт инстинкта // Западноевропейская цивилизация XIX века: Тексты. – М., 1996. – С. 220.

hisoblanganligi sababli, aynan undan kishilik, birlashmalarining boshqa shakllari – qabila, xalqlar va h.k.lar kelib chiqadi.

Qizig'i shundaki, Kont oilaning u yashagan davr uchun muhim ahamiyat kasb etgan iqtisodiy rolini qarab o'tmagan. Yuqorida Kontning iqtisodiy masalalarga umuman e'tibor qaratmaganligi haqida to'xtalib o'tganimizdek, buning hayron qacarli joyi yo'q. Kont oila masalasida ham asosan axloqiy masalalarga doir muammolar bilan qiziqqan. Kontning oila va asosan ayoi to'g'risidagi qarashlari arxaik va konservativ ko'rinishda bo'lgan. U ayollar va erkaklar tengsizligini oqlaydi, ayollarning erkaklarga nisbatan aqliy jihatdan o'zroq ekanligini isbotlaydi, shu bilan birga uni muhabbatning kuch-qudrati sifatida baholab, ongdan ko'ra ustuvorroq ekanligini tan oladi. Kont ilgari surgan formula ajoyib: "Har qanday harakat va fikrdan to'yish, bezish mumkin, muhabbatdan esa to'yib bo'lmaydi"<sup>1</sup>.

Sotsial dinamika fikr, ruh va jamiyatning uch bir-birini to'ldiruvchi ketma-ketlikdagi fazalarda (bosqich, holat) rivojlanishini ifodalaydi. Kont o'zining "Pozitiv falsafa ruhi" kitobining birinchi bobini «Insoniyat intellektual evolyutsiyasi qonuni, yoki Uch bosqich qonuni» deb nomlaydi va uni quyidagi mazmundagi so'zlar bilan boshlaydi: "Mening asosiy ta'limotimga ko'ra bizning barcha ham individual, ham avloddan-avlodga o'tuvchi mulohazalarimiz ketma-ketlikda 3 xil nazariy bosqichlarni bosib o'tishi shart. Bu bosqichlar:

- teologik; metafizik; pozitiv"<sup>2</sup>.

Kontning aytishi bo'yicha, bu bosqichlar o'z rivojida quyidan yuqoriga qarab, ham individual inson ongi, ham umuminsoniyat (tarix va madaniyat nazarda tutilmoqda) ongi orqali o'tadi.

Birinchi – teologik – diniy-mifologik ongning hukmronligini namoyon etadi, ikkinchisi – metafizik – mavhumlikning hukmronligi va uning reallikdan xoliligi sababli buzg'unchi, salbiy, inqirozli va o'tkinchi sifatida tavsiflanadi. Faqatgina uchinchi – pozitiv (ilmiy) bosqich tabiat va jamiyatga yangicha qarashni butunlay va to'liq tasdiqlanishini nazarda tutadi. Uchchala bosqichni (Kontga ko'ra – fazis) insoniyatning tarixan bir-birini almashtiradigan sotsial tashkil topishi sifatida namoyon bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, sotsial

<sup>1</sup> Зборовский Г. Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – СПб.: СПбГУ, 2014. – С. 22.

<sup>2</sup> Kont O. Dux intellektual filozofiyasi // G'arbiy- sharqiy sotsiologiya XIX asri. Tezislari. – M., 1996. – S. 7-8.

statikada ham, sotsial dinamikada ham ma'naviy omil ustunlik qiladi. Ikkalasida ham ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Har bir bosqichni alohida qarab o'tamiz. Ong taraqqiyotidagi teologik bosqich (1300-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi) jamiyatdagi barcha hodisalarni g'ayritabiiy kuchlar harakati natijasi sifatida olib qarashga tayanadi va mos holda – qadimgi va o'rta asrlarning boshlarini qamrab oladi. Bu bosqichning o'zi yana uchta davrni o'z ichiga oladi – fetishizm, politeizm, monoteizm. Fetishizm bosqichida insonlar narsalarga, butlarga sig'inib, ularning sehrli kuchlariga ishongan, ularda xudolarni ko'rgan. Politeizm (ko'pxudolik) bosqichi Qadimgi Yunoniston va Rimda yorqin namoyon bo'lgan, shoirona dunyoqarash, badiiy ijodiyotning taraqqiyoti bilan bog'liq. Shuning uchun ham, Kont Qadimgi dunyoda moddiy madaniyat juda sekin rivojlangan, deb hisoblaydi. Monoteizm bosqichiga keladigan bo'lsak, u jamiyatda yakka xudoli dinlarning hukmronlik qilishi bilan tavsiflanadi.

Metafizik bosqich (taxminan 1300-yillardan dan tortib to 1800-yillargacha bo'lgan davrni qamrab oladi) Reformatsiya, Ma'rifatparvarlik, inqiloblar, urushlar va h.k.larga, O'rta asrlarda ijtimoiy tartibot asosini tashkil etgan eski e'tiqodlarning buzilishiga yo'nalgan. Hokimiyat, din, hukmron sinflar – o'z davrining barcha avtoritetlari tanazzulga yuz tutadi. Pozitiv bosqichga (1800-yildan boshlab) keladigan bo'lsak, bunda jamiyat xususiyatlarini belgilab beruvchi tafakkur yo'nalishlari tubdan o'zgaradi. Harbiy va teologik holatga qarshi industrial (sanoatlashgan) tuzum vujudga keladi. Pozitiv bosqichning o'ziga xos xususiyati moddiy madaniyatning (nisbatan yengil va yoqimli hayotni ta'minlovchi) shiddat bilan rivojlanishi, sotsial hissiyotlar, birdamlik, adolat va tinchlikning o'sishi bilan tavsiflanadi. Inson tafakkuri endi barcha narsalarni hodisalar o'rtasidagi kuzatilishi mumkin bo'lgan tarzda namoyon bo'luvchi kashf etiladigan qonunlar bilan tushuntirishga intiladi, bir so'z bilan aytganda, insonlar absolyut sabablarni (Xudo yoki tabiat) qidirishdan o'zlarini to'xtatib, endi buning o'rniga sotsial va moddiy olamni kuzatishga e'tiborini jamladi va ularni boshqaruvchi qonunlarni izlashga tushdi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 16-18

Sotsial statika va sotsial dinamika haqida gapira turib, sotsiologiyani ikki bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalarani unutmazlik lozim, bular: tartib va taraqqiyot. Bularning ikkisi ijtimoiy yaxlitlikni namoyon etuvchi tushunchalar hisoblanadi. Biri sotsial statikaga, ikkinchisi sotsial dinamikaga xos. Umuman olganda, Kont o'zining dunyoviy nazariyasida intellektual omillarga alohida e'tibor qaratdi. Haqiqatan ham, u sotsial tartibsizliklarning sababi – intellektual tartibsizlik ekanligini ta'kidladi. Bu tartibsizliklarning manbai pozitiv tizimda ham mavjud bo'lgan ilk davrlar g'oyaviy tizimlarida (teologik va metafizik) ekan. Qachonki pozitivizm umumiy nazoratni qo'lga olsagina, sotsial to'ntarilishlar va inqiloblar yakun topadi. Bu evolyutsion jarayon bo'lganligi bois, sotsial to'ntarilishi va inqiloblarga ehtiyoj sezilmaydi. Lekin pozitivizm bosqichi, balki, ayrimlar istaganidek, tezda amalga oshmasligi mumkin. Bu yerda Kontning sotsial reformizmi va sotsiologiyasi bir-biriga mos keladi. Sotsiologiya pozitivizmni tezlashtirishi, va shundan kelib chiqib, sotsial olamni tartibga keltirishi mumkin. Avvalambor, Kont inqilob tarafdori emasligini ko'rsatishga urindi. Uning fikriga ko'ra, dunyoda tartibsizliklar yetib ortadi. Har qanday vaziyatda ham, Kont fikriga ko'ra, intellektual o'zgarishlar zarur bo'lib kelgan, demak, sotsial va siyosiy inqiloblar uchun bahonalar kam bo'lgan<sup>1</sup>.

Tartib va taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi masalasiga Kont o'zining "Pozitiv siyosat tizimi" asarida alohida e'tibor qaratadi. Avvalambor, u pozitivizmning shiorini shakllantiradi: tartib va taraqqiyot. Kont tomonidan taraqqiyot tartibning rivojlanishi sifatida baholanadi. U taraqqiyotning to'rt xil ko'rinishini farqlaydi va ularni tahlil qiluvchi nazariyaga asos soladi. Bular:

- moddiy (hayotning tashqi sharoitlarini yaxshilash);
- jismoniy (inson tabiatining mukammallashuvi);
- intellektual (intellekt rivoji, teologik va metafizik dunyoqarashdan pozitiv dunyoqarashga o'tish);
- axloqiy (guruhiy birlik va ahloqiy munosabatlarning rivojlanishi).

Oxirgisi tartibotni ushlab turishga yordam beradi, jamiyat va insonni mukammallashtiradi. Inson takomillashuvi tizimi taraqqiyot ko'rinishlariga mos ravishdagi to'rt bosqichni bosib o'tadi. Avvaliga

<sup>1</sup> Qarang: O'sha joyda.

moddiy, keyin jismoniy, intellektual va oxir-oqibat axloqiy (ma'anaviy) takomillashuv. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy taraqqiyot va inson takomillashuvi ko'rinishlari ierarxiyasi saf tortadi<sup>1</sup>.

5. Kont o'zi ilgari surgan pozitivizm ta'limotining aniq faktlar va ularni tekshirishga asoslangan o'ziga xosligidan kelib chiqib sotsiologiya fanining metodlari masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Sotsiologik bilim aniq, jiddiy, obyektiv, ilmiy bo'lishi uchun, avvalambor bunday bilimni hosil qiluvchi vositlar, ya'ni metodlar shu talablarga javob berishi lozim. Kont sotsiologiyani to'rtta asosiy metodini farqlaydi: kuzatish; tajriba; qiyoslash; tarixiy.

Kont sotsial faktlarni kuzatish metodini sotsiologiyani asosiy metodi sifatida olib qaragan. Bunda u insonlarning jismoniy xulq-atvorini kuzatishni nazarda tutgan. Tahlil etilayotgan materialni kuzatish sotsiologiyani fan sifatida xuddi fizika fani bilan bo'lgani kabi ob'ektivlik xususiyatini ta'minlaydi. Shuni ham yana bir marotaba eslatib o'tish joizki, Kont sotsiologiyani tabiiy-ilmiy metodlarga asoslanuvchi sotsial fizika deb bilgan. Lekin, ko'pchilik sotsiologlarning fikriga ko'ra, u sotsiologiyada bilim olishning tabiiy-ilmiy usullarini tadbiiq eta olmagan. Bu ayrim mualliflar tomonidan Kont sotsiologiyasining paradoksi sifatida qayd etilgan.<sup>2</sup>

Aniq bilimlarni beruvchi manbaga aylanishi uchun sotsiologiya tugallangan nazariyaga (pozitiv falsafa) tayanishi lozim. Bu kuzatish usulini qo'llashning birinchi talabi edi. Ikkinchi talab kuzatiladigan ob'ekt va sub'ektni aniq ajratib olishni taqozo etadi. Kont bu borada chetdan kuzatishni nazarda tutadi. XX asr empirik sotsiologiyasining metodlaridan biri bo'lgan ichkaridan, qo'shib kuzatish turi Kontga ma'lum emas edi. Ammo olim urf-odatlar, an'analarni yoritishda bilvosita kuzatish turining muhim ahamiyatini yoritgan. Kuzatish usulining samaradorligini belgilab beruvchi uchinchi talab uni oson amalga oshadi, degan illyuziyadan qochish hisoblanadi, tadqiqotchining o'zi ham hodisalar ishtirokchisiga aylanadi. Kont fikriga ko'ra, tadqiqotchi bunda ham shaxsiy, ham guruhiy manfaatdorlikdan qochishi, yolg'on tasavvurlardan xoli bo'lishi lozim.

<sup>1</sup> Qarang: Kont O. Система энциклопедической социологии // Западно-европейская социология XIX века. Тезисы. – М., 1996. – С. 230-233.

<sup>2</sup> Qarang: Громов И. А., Митченко А. Ю., Селезнева В. А. Западная теоретическая социология. – М., 1996. – С. 27.

Sotsiologiyada ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi usul, Kont fikriga ko'ra, maxsus yaratilgan shart-sharoitlar ta'sirida hodisalar o'zgarishini kuzatish, ya'ni tajriba (eksperiment) usulidir.

U bevosita va bilvosita eksperimentni farqlaydi. Uning fikricha, ko'pincha bilvosita turi qo'llaniladi. U o'zgarishlar, inqirozlar, jamiyatdagi patologik chetga og'ishlar va nihoyat keskin sotsial talofatlarni kuzatish sifatida namoyon bo'ladi. Bunday kuzatish (bilvosita tajriba) jamiyatning normal holatini tushunishga yordam beradi. Bevosita tajribaning esa sotsial omillarni nazoratga olish va sun'iy tarzda o'zgartirish murakkabligi nuqtai nazaridan imkoniyati cheklangan. Sotsiologiyadagi uchinchi usul xalqlar hayoti va davlatlar faoliyatini taqqoslashga asoslangan qiyoslash usulidir. Kont taqqoslashning uchta asosiy turi haqida gapiradi:

a) jamiyat, xalq va davlat hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi axloqiy va intellektual omillarni taqqoslash;

b) sinxron tarzda bir vaqtda mavjud bo'lgan, biroq bir-biriga ta'sir o'tkazmaydigan turli jamiyatlarni taqqoslash, bu turli xalqlar rivojlanishidagi umumiy jihatni aniqlash imkonini yaratadi;

d) aynan bir jamiyatni turli holatlarini, turli sinf va guruhlar sotsial holatini taqqoslash, bu shu jamiyat rivojlanishining aniq bosqichlarini ajratish imkonini beradi.

Bu Kontning yana bir usulga qiziqishini belgilab bergan, ya'ni – tarixiy usul. Aynan shu usul sotsiologiyani pozitiv fan darajasiga olib chiqishga qodir. Bu usulning vazifasi jamiyat holatini o'tgan, hozirgi va kelajak zamondagi tadrijiy holatlarini taqqoslashdan iborat. Bu usul jamiyat taraqqiyoti tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Sotsiologiyadagi usullar tahlili sotsial faktlarni aniq empirik tekshirish talabini Kont ta'limotining muhim holatiga aylantirdi. Sotsiolog, uning fikriga ko'ra, 3 ta asosiy tamoyilga rioya qilishi kerak:

- empirizm; pozitivizm; fizikalizm.<sup>1</sup>

Empirizmga ko'ra, dunyo haqidagi haqiqiy fanning yagona manbai tajriba hisoblanadi. Pozitivizm uning predmeti faqatgina faktlardan iborat bo'lishi lozimligini belgilaydi. Fizikalizm esa barcha mukammal tushunchalarni fizika yaratganligi, demak hamma ilmiy ko'rsatkichlar unga mos kelishi lozimligini ifodalaydi.

<sup>1</sup> *Российская социология*. – СПб., 1910. – С. 214.

6. Kontning o'z sotsiologiyasida ilmiy bilishni isloh qilishga urinishi uning jamiyatni pozitiv ruhda takomillashtirish maqsadi bilan mos tushgan. Uning pozitiv siyosat tizimini yaratishga da'vogarlik qilishi bejis emas, u shu nomli asarni yozadi, bunda jamoatchilik ongini qayta shakllantirish bo'yicha faol amaliy faoliyatni olib boradi. "Pozitiv siyosat" sohasidagi ham amaliy, ham nazariy faoliyat Kont hayotining oxirgi yillariga to'g'ri keladi (1840-yy. oxiri – 1850-yy.). Bu davr qilingan ishlar va insoniyat manfaati yo'lida yana nimalar qilishga ulgurish borasida xulosa chiqarish davri bo'ldi. Kont sotsial siyosat ichiga kirib boradi va uni o'zgartirish uchun pozitiv programma yaratishga intiladi, u esa o'z navbatida nafaqat Fransiya, balki butun insoniyat darajasida jamiyat hayotini yaxshilashga yordam beradi, deb hisoblaydi.

Buning ma'nosi – jamiyatda xususiy mulkni saqlagan holda barcha sinflar o'rtasida garmoniyani yaratish, ularni konseksusga erishishini ta'minlash. Sinflar konsensusini Kont altruistik sotsial hissiyotlar asosidagi oila a'zolari o'rtasidagi konsensusga o'xshatadi. Aynan mana shu hissiyotlar oila a'zolarini ham, sinflarni ham bo'linishiga olib keluvchi egoistik hissiyotlarga zid qo'yiladi. Altruistik hissiyotlar ijtimoiy birdamlikning mustahkamlanishiga olib keladi, deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Pozitivistik ta'limot va uning asosiga qurilgan pozitiv siyosatning mazmun-mohiyati altruizmning egoizm ustidan g'alabasi, ijtimoiy manfaatlarining shaxsiy manfaatlardan ustuvorligiga erishishdan iborat edi.

Faqat shunday tartibgina sotsial progressga olib kelishi mumkin. Kont har qanday turdagi inqiloblarga qarshi chiqadi va u jamiyatning yangilanishi uning har bir a'zosining axloqiy va manaviy yangilanishi yo'li bilan amalga oshishi kerak, deb hisoblaydi.

U proletariyatga alohida e'tibor qaratadi, uni "ma'naviy hokimiyat uchun tayanch bo'lishga" qodir, chunki "boshqa sinflardan ko'ra jamiyatning manaviy asosini mukammal tizimga aylantira olmasada, ularni sezish va tushunishga qodir" sinf, deb biladi.<sup>2</sup> Bu maqsadga erishish uchun proletariyatni ma'naviy hokimiyat uchun tayanchga aylantirish – qayta shakllangan jamoatchilik fikrining axloqiy va siyosiy kuchini harakatga keltirish lozim, deb biladi. U o'zining ijobiy

<sup>2</sup> Kont altruizm tushunchasini ikk marta qo'llagan o'limlar qatoriga kiradi.

<sup>2</sup> Qarang: Kont O. *Общай обзор политическаго // Энциклопедическая социология XIX века*. Ташкент. – М., 1996. – С. 127.

ta'siri bilan axloqqa tayanch bo'la oladi, shuningdek, har bir insonning boshqalar oldida ochiq yashashi, natijada esa jamiyat har bir insonning faoliyatini nazorat qila oladi, deb biladi.

Biz bu yerda Kont sotsiologiyasidagi ziddiyatga duch kelamiz. Bir tomondan, u jamiyatning quyi qatlamlari, xususan proletariatning moddiy va axloqiy jihatdan manfaatini ilgari sursa, ikkinchi tomondan esa uning qarashlaridagi avtoritarizm, hatto totalitarizmni ko'rish mumkin holatlar mavjud. Masalan, u insonning fuqarolik huquq va erkinliklarini rad etgan holda jamiyatning har bir a'zosini ochiq nazoratga olish, hokimiyatning fuqarolarning nafaqat ijtimoiy, balki shaxsiy hayotiga aralashishi lozimligi g'oyasini ilgari suradi.

Kontning pozitiv siyosati yo'nalishlaridan biri uning "pozitiv din" yaratish g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan (shuni eslatib o'tish joizki, Kontning pozitiv siyosat to'g'risidagi asarining to'liq ko'rinishda «Pozitiv siyosat tizimi, yoki Insoniyat dinini o'rnatuvchi sotsiologiya to'g'risidagi Traktat» deb nomlangan). Jamiyatning qayta qurishda ma'rifatchilik faoliyatidan qoniqmagan Kont yangi "dunyoviy din"ni – Insoniyat dinini yaratishga harakat qiladi, uning asosida esa doimgidek pozitivizm tamoyillarini qo'yadi. Bu dinda xudo yo'q, uning o'rnini "yuksak mavjudot" deb tan olinishi lozim bo'lgan jamiyat egallaydi, chunki inson hayotidagi barcha narsalar aynan shu mavjudotga bog'liq.

Kont, hattoki pozitiv cherkovlarni yaratish masalasini ham ilgari surgan, u yerda ruhoniylar o'rnini olim va aktyorlar egallaydi. Bu cherkovda Kont ishlab chiqqan rasm-rusumlar ham amalga oshirilishi zarur edi. Ularning maqsadi – inson bilan uning butun umri davomida yonma-yon turish. Kont bu rasm-rusumlar mazmun-mohiyatini amalda ko'rsatish maqsadida, o'z shogirdlarini chuqintirdi va nikohladi.

Albatta pozitivik sotsiologiyani dinning ma'lum shakliga («diniy pozitivizm») aylantirish jamiyatni utopik tarzda isloh qilish usuli edi. Utopizm Kontning boshqa harakatlariga ham xos edi, masalan Parijda shtab kvartirasiga ega bo'lgan xalqlar pozitivistik federatsiyasini yaratishga urinish, bunda uning vazifasi butun dunyoda abadiy tinchlikni ta'minlash va turli millat va elatlar vakillarini birlashtirishdan iborat edi.

Kont pozitiv siyosatini uning sotsiologiyasining eng konservativ va utopik xususiyatga ega qismi sifatida olib qarash mumkin. Bundan

tashqari, faqatgina unda ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv qonunlarini "sub'ektiv omillarga" aylantirishga intilish yotadi. A.B.Gofman fikriga ko'ra, Kontning "sub'ektiv sotsiologiya" sidda jamiyat taraqqiyotining tabiiy qonun va tendensiyalari ijtimoiy manfaatlarini o'ziga xos tarzda tushunuvchi va bayon etuvchi kishilar guruhining maqsadli yo'naltirilgan faoliyatlari bilan almashtiriladi. Tabiiy qonunlar boshqariladigan qonunlarga aylantiriladi, ularni anglab yetgan inson esa ilohga aylanadi. "Sub'ektiv" omil birinchi o'ringa chiqib, bunda fan voqyelikni emas, balki ideal, komillikni loyihalashtirishga aylanadi. Shunday qilib, Kont sotsiologiyasining fandan utopiyaga aylanishi yuz beradi».<sup>1</sup>

O'z sotsiologik nazariyasi maktabini yaratishi uchun Kontga kuchli akademik baza yetmagan bo'lmasa ham, u sotsiologik nazariyaning muhim yo'nalishi taraqqiyotiga asos soldi. Lekin uning avlodlar uchun roli fransuz sotsiologiyasidagi shogirdi va g'oyalari davomchisi Emil Dyurkgeym tomonidan kamaytirib yuborilgan.<sup>2</sup>

7. Kontning pozitiv siyosati muammolari bilan ta'lim va tarbiya xarakteristikasi cheklangan tarzda bog'langan hisoblanadi. Ulardan tashqarida pozitivizm prinsiplarini amalga oshirish mumkin emas. U asosan xalq ta'limi haqida gapiradi, u olim tomonidan proletariat ta'limiga borib taqaladi. "Pozitivizmning umumiy obzori" kitobining boblarining birini olim "Sotsial muammolarni yechishda yangi ta'lim tizimining zarurligi" deb nomlaydi. Olim ta'limdagi islohotni ta'lim va tarbiyaning katolik tizimidan voz kechishdan iborat, bu ta'lim faqat O'rta asrga xos, deb biladi. Kont O'rta asrlar tizimini unda tarbiya ta'limdan ustun qo'yilganligi sababli tanqid ostiga oladi.

Yangi ta'lim (uni oliy xalq ta'limi, deb ataydi), birinchi navbatda, umumiy va hammaning qurbi yetadigan bo'lishi kerak. O'zining "Pozitiv falsafa ruhi" asarida olim ta'lim masalalariga to'xtalib, uning asosiy vazifasi umumiy tarbiya bo'lib, u har qanday zararli tendensiyaga qaramay, xususiyati va yo'nalishini o'zgartirishi zarur deya ta'kidlaydi.

Birinchi navbatda, keng ommaga real bilimlarni tarqatish zarur. Bunday keng, umumiy, xalq ta'limi asosida proletarlar va faylasuflar o'rtasida ittifoq o'rnatish mumkin bo'ladi, va nihoyat, pozitiv jamiyat qurishga erishiladi. Bunda proletarlar ta'limi darajasini pozitiv jamiyat

<sup>1</sup> Qarang: Гoffman A.B. Смысл жизни по версии социологов. – М., 2001. – С. 85.

<sup>2</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 14-19.

vazifa va muammolarini anglab yetish darajasigacha olib chiqish lozim.

Olim tomonidan insonning ta'lim olishi (Kont uni tug'ilgandan to voyaga yetgungacha olinadi, deb hisoblaydi) ikki qismga bo'linadi. Birinchisi, oiladagi ta'lim va ijtimoiylashuv bilan bog'liq, estetik did rivojlanishi, ma'lum bir kasbga o'rgatishdan boshlanadi va jinsiy yetuklik boshlanishi bilan tugallanadi. Ikkinchisi esa, uydagi emas, balki maktab ta'limini nazarda tutadi, bunda ota-onalar faqat ikkilamchi darajada ishtirok eta oladilar. Biroq bunda bolani oilaviy hayotdan uzoqlatish mumkin emas, chunki insonning axloqiy evolyutsiyasi oilada kechadi. Kont fikriga ko'ra, ta'limni oshirishga sayohatlar ham katta yordam beradi, ularning foydasi juda katta.

Ta'limning ikkinchi qismi mazmun-mohiyati eng avvalo Kont yaratgan fanlar klassifikatsiyasidagi oltita fanni o'rganishni taqozo etadi. "Pozitivizmning umumiy obzori" kitobida Kont proletarlar ta'limi uchun juda muhim yana bir fanga – tarixga katta e'tibor qaratadi. Ta'lim berish biror bir rasmiy mafkura va hokimiyat ta'siridan yiroq bo'lishi kerak. Proletariat teologiyaga ishonchmasligi sababli, ular ta'limi tizimida din o'qitilishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

Kont fikricha, ta'limni rivojlantirish va tarqatishda davlat muhim rol o'ynaydi, chunki bu yerda gap faqatgina proletariat ta'limi haqida ketmoqda. Jamiyatning boshqa sinf va qatlamlari ta'limi haqidagi Kont fikr bildirmaydi.

8. Kont ta'limoti haqida gapirar ekanmiz, amerikalik sotsiolog A. Boskovning Kont haqidagi fikrlarini eslab o'tish joiz. Uning fikriga ko'ra, avvalambor, biz uning bu fanga nom berganligi va uning o'ziga xos dasturini yaratganligini unutmaslik lozim. Shularning o'zi uni sotsiologiyaning asoschisi va dunyo sotsiologiyasining mumtoz vakillaridan biri sifatida tan olishga yetarlicha asos bo'la oladi. Sotsiologiyadagi birinchi yo'nalish – pozitivizm Kont tomonidan ham falsafiy, sotsiologik, etik, siyosiy kesimlarda belgilangan edi. XIX asr va qisman XX asr sotsiologik ilmining rivojlanishi pozitivizm kuchli ta'siri ostida kechgan. Bu ta'sirning asosiy natijasi sotsiologiyani tabiiy ilmiy bilimlar yo'lidan rivojlantirishga urinish bo'ldi. Bu ma'noda, Kont g'oyalari rolini va uning hissasini inkor etish mumkin emas.

Fransuz sotsiologi ijtimoiy voqeyelikni anglashda sotsial faktlarni qat'iy tanlash g'oyasiga asos soldi va o'zi ham shunga intildi. Kont jamiyatni unga nisbatan spekulativ yondashuvni yengib o'tib, uni organik yaxlitlik sifatida tahlil qilish lozirligini ko'rsatdi. Shuningdek, Kont jamiyatni funksional tahlil qilish, sotsial integratsiya, barqarorlik, organizmga xos taraqqiyot g'oyasini isbotlagan.

Kont sotsiologik konsepsiyasining ahamiyati, uning ijtimoiy tartibot va sotsial progress mezonlarini jamiyatning o'zidan topishga urinishlari bilan belgilanadi. Keyinchalik dunyo sotsiologiyasi bir qator ikkilanishlar va jamiyatning rivojlanishi kalitini undan tashqarida topishga intilishlardan keyin oxir-oqibat Kont taklif etgan yo'lni tanladi.

Bir qator muhim muvafaqqiyatlar bilan bir qatorda Kont nazariyasining konservativ, ziddiyatli va utopik xususiyatlarining ham XIX asrda, ham XX asrdagi sotsiologik tafakkur taraqqiyotiga ta'sirini kuzatish mumkin. Kont ijtimoiy ideali xuddi shunday xususiyatga ega edi, u hayotning oxirgi yillarida sotsiologning diniy izlanishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan edi. U tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv qonunlari bilan ularni fanga "subyektiv omil"ni kiritish hisobiga "kuchaytirish"ga intilish o'rtasidagi ziddiyat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kont sotsiologiyasining cheklanganligiga boshqa asoslar ham izlab topish mumkin. Biroq uning ijodini tahlil qilish maqsadi, eng avvalo, "pozitivlik"ni, ya'ni jamiyatni yaxlitlik sifatida o'rganishda ham, uning konkret quyi tizimlarini o'rganishda ham sotsiologlar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ijobiylikni ko'rishga intilishni namoyon etadi.

Bir so'z bilan aytganda, Kont sotsiologiyani dunyoga keltirdi va unga nom berdi. Garchi uni oyoqqa turg'izib, yurishni o'rgatmagan bo'lsada, u yaratgan fan hamon tirik va kishilik jamiyati barqarorligi yo'lida xizmat qilmoqda.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sotsiologiyada pozitivizm tushunchasining mamun-mohiyatini ochib bering.

2. O.Kontning fanlar klassifikatsiyasida sotsiologiyaning tutgan o'rnini izohlang.

3. O.Kont sotsiologiyaning predmetini qanday izohlagan?

4. O.Kont sotsial statika va sotsial dinamikasining asosiy qonunlari nimalardan iborat?

5. O.Kont sotsiologiyaning qanday metodlarini ajratgan?

6. O.Kont pozitiv siyosatining asosiy g'oyalari nimalardan iborat?

7. O.Kontning ta'lim va tarbiya borasidagi asosiy fikrlari nimalardan iborat?

8. O.Kontning sotsiologiya tarixiga qo'shgan hissasini uning asosiy g'oyalari asosida izohlang.

#### GLOSSARIY

**Fanlar klassifikatsiyasi** – классификация наук – classification of sciences – O.Kont tomonidan taqdim etilgan, shakllanishi va murakkabligi ortishi ketma-ketligiga asoslangan fanlar tizimi.

**Fetishizm** – фетишизм – fetishism – narsalarga, butlarga sig'inib, ularning sehrli kuchlariga ishonish, ularda xudolarni ko'rish.

**Metafizika** – метафизика – metaphysics – O.Kontga ko'ra, ong taraqqiyotidagi ikkinchi bosqich bo'lib, abstrakt kuchlar, «tabiat» barcha narsalarni tushuntira olishiga e'tiqod qilish xos hisoblanadi.

**Monoteizm** – монотеизм – monotheism – yagona Xudoga ishonish.

**Pozitiv usul** – позитивный метод – positive method – O.Kontga ko'ra, ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usuli yordamida to'plangan empirik ma'lumotlarni tahlil qilish.

**Pozitivizm** – позитивизм – positivism – Sotsiologiyada ijobiy bilimlarni alohida mavjud bo'lgan maxsus fanlarning natijasi va ularning uzviy birlashmasi natijasi sifatida qarovchi yo'nalish.

**Politeizm** – политеизм – polytheism – ikki yoki undan ortiq Xudolarga ishonish.

**Sotsial dinamika** – социальная динамика – social dynamics – O.Kontga ko'ra, sotsiologiyaning ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi qismi.

**Sotsial statika** – социальная статика – social statics – O.Kontga ko'ra, sotsiologiyaning ijtimoiy tizimlarning shart-sharoiti va funksional qonuniyatlarini o'rganuvchi qismi.

**Sotsial qonunlar** – социальные законы – social laws – sotsial hodisa va jarayonlar o'rtasidagi xususiyat va jamiyat taraqqiyotining umumiy yo'nalishini belgilab beruvchi mavjud takrorlanib turuvchi va barqaror o'zaro aloqadorliklar.

**Sotsial progress** – социальный прогресс – social progress – ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishi, bunda jamiyatning ijtimoiy hayotning oddiy va quyi shakllaridan nisbatan murakkab va yuqorilariga bosqichma-bosqich harakat qilishi ro'y beradi, jamiyatning sotsial tuzilishi takomillashadi va inson hayotining shart-sharoitlari yaxshilanadi.

**Teologiya** – теология – theology – O.Kontga ko'ra, ong taraqqiyotidagi birinchi bosqich bo'lib, jamiyatdagi barcha hodisalarni g'ayritabiiy kuchlar harakati natijasi sifatida olib qarashga tayanadi.

**Uch bosqich qonuni** – закон трёх стадий – the law of three stages – O.Kont sotsiologiyasida ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni bo'lib, unga ko'ra, inson ongi rivojlanishining uch bosqichi tarixiy taraqqiyotning uch bosqichini belgilab beradi: teologik, metafizik, pozitiv.

## G. SPENSER VA UNING TARIXIY EVOLYUTSION SOTSIOLOGIK SISTEMASI

### Reja:

1. Gerbert Spenserning hayoti va ijodi
2. Spenser va Kont sotsiologik qarashlari qiyosiy tahlili
3. Jamiyat sotsial organizm sifatida
4. Jamiyat strukturasi va uning sotsial turlari
5. Evolyutsionizm – Spenser ta'limotining asosiy g'oyasi
6. Spenserning sotsial institutlar to'g'risidagi ta'limoti

1. Ingliz olimi Gerbert Spenser sotsiologiya rivojlanishi mumtoz bosqichining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U 1820-yil 27-aprelda Angliya janubidagi Derbi shahrida maktab o'qituvchisi oilasida dunyoga kelgan. Sog'lig'i yomonligi tufayli maktab darslariga borolmagan va uy sharoitida 13 yoshgacha otasi va tog'asi qo'l ostida, keyin esa mustaqil holda ta'lim olgan. Bo'lajak mumtoz sotsiolog faqatgina maktab emas balki universitet ta'limini ham olmagan. 1833-yilda uni amakisi o'z tarbiyasiga oladi va u Kembrij universitetida o'qishni boshlaydi, ammo uch yildan so'ng uyiga qaytib ketadi va o'z ustida ishlashni boshlaydi. Keyinchalik Spenser mustaqil o'qish ba'zida oddiy maktab va oliy ta'limdan ham ancha muhimroq ekanini isbotlab, hayotidagi bu hol bilan ancha g'ururlangan.

Spenser 17 yoshida ishlashiga to'g'ri kelgan, 4 yil mobaynida temir yo'lda texnik bo'lib, keyinchalik muhandis-nazoratchi bo'lib ishlagan, shu bilan bir vaqtda tabiatshunoslik va matematika sohalarida bilimlarni egallagan. U lokomotivlar tezligini o'lchaydigan asbob ixtiro qiladi. Tanlagan kasbi uni moddiy va ma'naviy tomondan qoniqtirmaydi. 1841-yildan boshlab ikki yil davomida o'z ustida ishlashni boshlaydi, 1842-yilda amakisinikiga ko'chib o'tadi, 1843-yil muhandislik byurosi boshlig'i bo'ladi. Shu yili noyabr oyida o'zining ilk "Hukumat faoliyatining haqiqiy tomoni" kitobini nashr ettiradi, uning birinchi urinishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.

1846-yil Spenser o'zi yaratgan asbob uchun patent oladi, lekin temir yo'ldagi 10 yillik xizmatini 1846-yilda mashhur "Iqtisodchi" jurnalidagi (hozir ham shunday) jurnalistik ishiga almashtiradi. 1848-yilda Spenser "Iqtisodchi" jurnalining muharriri o'rinbosari etib

tayinlanadi, uning intellektual g'oyalari qotib boradi. 1850-yilda u o'zining ilk asosiy asari "Sotsial statika"ni yozib tugatadi. Bu ishni yozish davomida Spenser uyqusizlik kasaliga uchraydi, yillar o'tib uning aqliy va jismoniy muammolari kuchayadi. U hayotining keyingi davrida dam olishi uchun bir qator asab buzilishlarini boshidan kechiradi.

1853-yilda Spenser merosga ega bo'ladi, ishini tashlab jentelmen olim sifatida yashay boshlaydi. Izolyasiyalangan, jismoniy va aqliy muammolari bo'lsada, Spenserdan yuksak olim chiqdi. Oxir-oqibat, Spenser nafaqat Angliyada, balki xalqaro darajada shon-shuhratga ega bo'ldi. Richard Xofshtedter yozganidek: «Fuqarolar urushidan keyin uch o'n yillikdan so'ng hyech bir intellektual sohada Spenserni o'rganmasdan turib faol ishlash mumkin emas edi»<sup>1</sup>. Endryu Karnegi uning tarafdorlaridan biri edi, u Spenserga uning og'ir kasalligi paytida 1903-yilda quyidagi xatni yozadi:

Hurmatli, janob Ustoz!.. Siz har kuni mening hayollarimga kelasiz, va mening hayollarimga «nima uchun» degan doimiy savolini kiritasiz. – Nima uchun u yotibdi? Nima uchun men yurishim kerak?.. Dunyo o'zining eng buyuk aql-zakovatini anglamagan holda harakat qilmoqda... Lekin dunyo qachonlardir uning ta'limotiga murojaat qiladi, va Spenser o'zining buyuklar qatoridan o'rmini egallaydi. Spenserni boshqa narsa kutmoqda edi.<sup>2</sup> Spenserning jurnaldagi muharrirlik faoliyati hamda umuman xizmat faoliyati 1853-yilda tugagan. Yaxshi yashash uchun zarur narsalar hamda amakisining vafotidan keyin qolgan merosni olib, Spenser o'zining haqiqiy sevimli mashg'uloti – kitob yozish va ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniga ega bo'lgan. Hayotining keyingi 50 yilini shu mashg'ulotlarga bag'ishlagan.

Spenser yolg'iz odamovi inson bo'lgan, deyarli hyech qaerga bormagan, butun umr nevroz va uyqusizlikdan aziyat chekkan. Hattoki uni do'stlari uylanishga majbur qilib, bir ayol bilan tanishtirishganda ham, u ayolning "o'ta rivojlanganligini" bahona qilib, rad etadi.<sup>3</sup> Kabinet olimiga aylanib ulgurgan Spenser fan bilan shug'ullanish uchun yetarli moliyaviy vositalarga ega bo'lib,

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 38.

<sup>2</sup> Qarang: O'sha joyda.

<sup>3</sup> История социологии (XIX – первая половина XX века) Учебник / Под общей редакцией профессора В. И. Добремыкина. – М.: ИНИФРА-М, 2004. – С. 164.

akademik va rasmiy mansablarni egallashni xohlamay o'zining uzoq ijodiy hayotida olamshumul mashhurlik va sotsiologiya klassikasida obro' olib kelgan ancha katta ishlarni yozgan. Ular orasida: "Sotsiologiya asoslari" (3 jildlik, 1876-1896) – uning asosiy sotsiologik asari, "Sotsial statika" (1850), "Asosiy ibtidolar" (1862), "Sotsiologiya tadqiqot vositasi sifatida" (1873). Shuningdek, uning 10 jildlik "Sintetik falsafa tizimlari" (1862-1896), "Sotsiologiyani o'rganish. Aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya" (1873) «Etika asoslari» (1893) kabi asarlari ham bor. Spenser o'zining asosiy sotsiologik asarlarida jamiyatni sotsial organizm va birinchi bo'lib fanga "sotsial tizim", "sotsial struktura", "sotsial funktsiya", "sotsial institut" tushunchalarini kiritgan.

Olimning asosiy maqsadi ko'p jildlik «Sintetik falsafa», ya'ni barcha ilmiy bilimlar tizimini yaratish va uni kitob qilib chop etish edi. 1857-yilda kitobni yozishga ahd qiladi. Olim maqsadiga yetadi. Do'stlari uning kitobiga oldindan obuna bo'lib, uni qo'llab-quvvatlaydilar, ammo nashrni to'xtatishga to'g'ri keldi. Bunga Spenserning xaddan tashqari toliqishi va asarga kitobxonlarning qiziqishi yo'qligi sabab bo'ldi. Olim deyarli qashshoqlik darajasiga tushib qolgan edi.

Amerikalik noshir bilan tanishuvi va asarlarining AQSHda nashrdan chiqqan boshlashi unga kulib boqqan omad bo'ldi. AQSHda Spenserning ishlari Angliyadan avvalroq mashhurlikka erishdi. Sekin-astalik bilan uning kitoblariga bo'lgan talab ortib, 1875-yil olim yo'qotishlarini butkul qopladi va daromad ola boshladi. Bu paytda uning «Biologiya prinsiplari» (1864-1867), «Psixologiya asoslari» (1855, 1870-1872) va «Sotsiologiya asoslari» (1876-1896) nomli bir necha jildlardan iborat kitoblari dunyoning ko'plab mamlakatlarida nashrdan chiqdi.

J.Ritser o'z kitobida Spenser haqida qiziqarli ma'lumotlarni keltiradi: Spenserga xos uning intellektual jihatdan o'zini qayta tiklashiga sabab bo'lgan qiziq xususiyatlaridan biri boshqalarning ishlarini o'qimaslik odati edi. Bu borada uning o'zidan oldingi sotsiologiya giganti, «aql gigienasi» amaliyotini o'tagan O.Kont bilan o'xshashligi bor edi. Spenser boshqalarning asarlarini o'qish zarurati haqida shunday deydi: «Butun hayotim davomida men o'quvchi emas, balki mutafakkir bo'lganman, va Gobbs bilan birga "men ham boshqalar singari ko'p o'qiganimda edi, shunchalik kam narsani

bilgan bo'lar edim"». Do'sti Spenserdan uning qaysidir kitob to'g'risidagi fikrini so'radi va «u aytdiki, kitobni ko'rib turib, uning asosiy qarashlari xato ekanligini ko'rdi va uni o'qish shart emasligini tushundi, deb javob berdi». Bir muallif shunday yozadi, Spenser «xuddi terisi bilan bilimlarni o'ziga singdirib olgan ediki... u hech nima o'qimagandek tuyuladi»<sup>1</sup>.

Agar u olimlarning asarlarini o'qimagan bo'lsa, Spenserning g'oyalari qaerdan kelib chiqqan? Spenserga ko'ra, ular tasodifan va intuitiv tarzda uning ongidan kelib chiqqan. U aytdiki, uning g'oyalari «asta-sekin, o'rtamiyona yo'llar bilan hyech qanday ongli maqsadlarsiz yoki sezilarli kuchlanishlarsiz paydo bo'lgan». Spenser bunday intuitsiyani chuqur izlanish va tafakkurdan ko'ra g'oyatda samarali deb hisoblar edi: «Yuqorida qayd etilgan yo'l bilan kelingan qaror tafakkurni egadigan aniq bir harakatlardan ko'ra to'g'ri chiqishi ehtimoli katta»<sup>2</sup>.

Spenser o'zining boshqalarning asarlarini o'qimaslik odatidan qiynalgan. U o'zining asarlarini shaxsiy, mustaqil tarzda yaratilgan g'oyalarini tasdig'ini topish uchungina o'qigan. U o'z fikriga mos kelmagan fikrlarini e'tiborga olmasdi. Spenserning zamondoshi Charlz Darvin u haqida shunday deydi: «Agar u katta e'tiborlilikka hatto ... tafakkur kuchini yo'qotish hisobiga bo'lsa ham o'rganganda edi, u juda yaxshi inson bo'lgan bo'lardi»<sup>3</sup>.

Spenser olam evolyutsiyasi haqida olimlik darajasiga noloyiq g'oyalar va isbotsiz da'volarni keltiradi. Shu fikrlarga asoslanib yigirmanchi yuz yillik sotsiologlari Spenserning ijodini rad etadi va kuchli ilmiy yondoshuv va empirik tadqiqotlar bilan almashtiradilar.<sup>4</sup>

Boshqa bir mualliflar asarlarida Spenserning sotsiologik fikrlariga huquqshunos olim J.Bentam, T.Gobbs, faylasuf J.Lokk, tabiatshunos olim Ch.Darvin, faylasuf J.S.Mill, iqtisodchi olim A.Smit, J.B.Lamark, demograf va iqtisodchi T.Maltuslarning tabiiy-ilmiy va falsafiy asarlari katta ta'sir o'tkazganligi haqida yozilgan. Spenserning evolyutsion-organistik konsepsiyasi Ch.Darvinning yashash uchun kurash qonuni va biologik evolyutsiya nazariyalarining to'laqonli ta'siri ostida qurilgan deyish mumkin.

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory. Eighth Edition*. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 39.

<sup>2</sup> O'nda joyda.

<sup>3</sup> Qarang: O'nda joyda.

<sup>4</sup> George Ritzer. *Sociological Theory. Eighth Edition*. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 39.

E.Eliot, J.Lyuis, T.Geksli, J.S.Mill va J.Tindal bilan, hayotining oxirgi yillari B.Vebb (Britaniyalik jamoat arbobi, sotsiolog, iqtisodchi, sotsial reformator) bilan yaqin tanish bo'lgan, 1856-yilda Fransiyaga borganda O.Kont bilan tanishgani uning dunyoqarashini yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik esa 1864-(1866)- yilda "O.Kont bilan ziddiyatli qarashlarim sabablari" nomli maqolani nashr ettirgan.<sup>1</sup>

Uning ilmiy faoliyatiga ta'sir qilgan olimlar ro'yxatida nemis olimlarining nomi yo'qligining eng oddiy sababi shundaki, Spenser nemis tilini bilmagan. Chunki, XIX asrning birinchi choragi davomida nemis mumtoz falsafasi asarlari (Kant, Gegel, Fixte, Shelling va boshq.) Angliyada umuman ma'lum bo'lmagan. Keyinroq Spenser Kolrij va Kant vositachiligida tarjima yo'li bilan Shelling bilan tanishgan. Buning natijasida nemis falsafasining unga ta'siri bevosita bo'lmagan.

Biroq, shunga qaramay, uning qarashlari o'z davrida shunchalik yorqin va ilg'or bo'lgan-ki, u sotsiologiyani yangi ilmiy fan sifatida shakllantirgan birinchi darajali asoschilar qatoridan joy olgan. U pozitiv sotsiologiyaga asos solganlardan biri, sotsiologiyaning asosiy qoidalarini yaratgan mumtoz olim sifatida tarixda qoldi.

Asosiy asarlari:

1. «Sotsial statika» (1851).
2. «Sintetik falsafa tizimi» (10 jild, 1862-96).
3. «Asosiy boshlang'ichlar» (1862).
4. «Sotsiologiya asoslari» (1874-1896).
5. «Aqliy, axloqiy va jisomniy tarbiya» (1861).
6. «Etika ma'lumotlari» (1879).
7. «Adolat» (1891).

Gerbert Spenser 1903-yil 8-dekabrda Braytonda vafot etgan. Uning vafotidan keyin nashr etilgan "Avtobiografiya"si bir vaqtning o'zida bir necha asosiy yevropa tillariga tarjima qilinadi. Spenser zamondoshlaridan birining qayd etishicha, avtobiografiya nashr etilgunga qadar u haqida ko'p gapirildi va yozildi, ko'pchilik oldindan nashriyotlarga buyurtma berib qo'ydi. Va nihoyat, u chiqqan birinchi

<sup>1</sup> Новаков С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. — Москва — Воронеж, 2000.

kunning o'zidayoq narxining ancha qimmatligiga qaramay sotilib ketdi.<sup>1</sup> Bu G.Spenser e'tirofining isboti edi.

2. Spenserni ko'pincha sotsiologiya fani taraqqiyoti uchun qo'shgan hissasi nuqtai nazaridan Kont kirgan sotsiologlar kategoriyasiga kiritiladi, lekin bu mutafakkirlarning g'oyalari o'rtasida ahamiyatli tafovutlar mavjud. Masalan, Spenserni konservator sifatida tan olish qiyin. Spenser yoshligida ko'proq siyosiy liberal edi va hayoti davomida ham liberalizm elementlarini saqlab qoldi. Lekin shuni ham tan olish kerakki, vaqt o'tishi bilan Spenser o'z qarashlarida nisbatan konservativ bo'lib bordi, va uning sotsiologiyaga asosiy ta'siri Kontniki singari konservativ bo'lgan.

Konservatizm bilan hamohang mavjud bo'lgan liberal tamoyillardan biri, uning *laissez-faire*<sup>2</sup> doktrinasini qabul qilishida edi: u davlat faqatgina fuqarolarni himoya qilish uchun passiv funksiyani amalga oshirishi zarur bo'lib qoladigan vaziyatdan tashqari boshqa hollarda individlarning ishlariga aralashmasligi lozim, deb hisoblardi. Bu Spenserni, Kontdan farqli ravishda, sotsial islohotlarni yoqlamasligini anglatardi; u sotsial hayot hyech qanday tashqi nazoratsiz mustaqil rivojlanishini istardi.

Bunday tafovut Spenserni sotsial darvinist sifatida tavsiflaydi. U dunyo vaqt o'tishi bilan shundoq ham yaxshilanadi, uni tinch qo'yish lozimligini ilgari suruvchi evolyutsion qarashga yondoshar edi; tashqi aralashuv faqatgina vaziyatning yomonlashuviga olib kelishi mumkin, deb hisoblar edi. U sotsial institutlar, o'simliklar va hayvonlar singari, asta-sekinlik bilan o'zining sotsial muhitiga ijobiy moslashib borishi fikriga qo'shildirdi. U shuningdek darvinistik yondoshuvni o'zlashtirdi va «ko'proq moslashganlarning yashab qolishi», ya'ni tabiiy tanlov jarayoni sotsial olamda ham ro'y beradi, deb hisoblar edi. (Shunisi qiziqki, aynan Spenser Charlz Darvinning tabiiy tanlovga bag'ishlangan asarining paydo bo'lishidan bir necha yillar avval «kuchlilarning yashab qolishi» iborasini o'ylab topgan). Shunday qilib, agarda tashqi aralashuv kabi to'siqlarsiz «eng kuchli» insonlar yashab qoladi va muvaffaqiyatga erishadi, qachonki «zaiflar» oxir-oqibat nobud bo'ladi. Boshqa bir tafovut sifatida yana Spenserning

<sup>1</sup> История социологии (XIX — первая половина XX века) Учебник / Под общей редакцией профессора В.Н. Добрезова. — М.: ЮФРА-М, 2004. — С. 166.

<sup>2</sup> *Laissez-faire* (фр.) — «(инсонларга) ўз ишлари билан шуғулланиш имконини беринг, (инсонларга) ўз ишлари билан ишга оид имконини беринг» — давлатнинг иштирокида аралашмаслиги ва муштараклик йўли.

shaxsga urg'u berganligini olish kerak bo'ladi, Kont esa o'z e'tiborini oila kabi nisbatan kattaroq bo'lgan birliklarga qaratadi.

Kont va Spenser Dyurkgeym va boshqalar bilan hamohang tarzda ilk nazariyotchilar uchun o'ta jozibali istiqbol sifatida namoyon bo'lgan ilmiy sotsiologiyaga moyillikni ilgari surgan. Spenser ijodining uni Kont va Dyurkgeym bilan hamohang qilgan boshqa bir ta'siri jamiyatni organizm sifatida olib qarashga moyilligi edi. Bu ma'noda Spenser o'zining qarashlari va tushunchalarini biologiyadan oldi. Uni jamiyatning butun bir strukturasi, jamiyatning qismlarining o'zaro munosabatlari va qismlarning bir-biriga nisbatan va jamiyatga nisbatan funksiyalari qiziqtirar edi.

Eng asosiysi shuki, Spenser, Kont singari tarixiy taraqqiyotning evolyutsion konsepsiyasini ilgari surardi. Lekin Spenser Kontning evolyutsion nazariyasini bir necha asoslar bilan tanqid qilgan. Xususan, u Kontning uch bosqich qonunini rad etgan. Spenser Kont faqatgina g'oyalar dunyosida evolyutsiyani intellektual taraqqiyot nuqtai nazaridan tadqiq etish bilan shug'ullangan deb hisoblagan. Lekin, Spenser, evolyutsion nazariyani real, moddiy olamga nisbatan ishlab chiqishga harakat qilgan.

Spenser o'zi ham Kont bilan qarashlaridagi o'xshashliklarni tan olgan, lekin o'zining qarashlariga Kontning ta'siri bo'lmaganligini aytib o'tgan. Faqatgina Kontning "altruizm" va "sotsiologiya" terminlari uni o'z ijodiga boshqacha nazar tashlashga yordam berganligini va o'z fikrlarida qat'iyatlik oshishiga sabab bo'lganini qayd etadi<sup>1</sup>.

Spenser sotsiologiyaga o'z ichiga etnografiyani ham, antropologiyani ham va tarixiy rivojlanishning umumiy nazariyasini ham oluvchi keng ko'lamlı fan sifatida yondashgan. Kontdan farqli o'laroq Spenser jamiyat haqidagi yangi fanni u haqidagi fikrlar, tushunchalar, bilimlar rivoji bilan bog'lagan. Jamiyatdagi sotsial hodisalar va jarayonlarni tavsiflovchi konkret ob'ektiv voqyelik sotsiologiya fanining predmeti bo'lish kerak, deb hisoblaydi. "Avtobiografiya"sida u o'zi bilan Kont ta'limoti o'rtasidagi farqlarni quyidagicha ifodalaydi: "Kont ilgari surgan maqsad nimadan iborat? Insoniyat konsepsiyalari taraqqiyotining umumqamrovli tavsifini berish. Mening maqsadim qanday? Insoniyat taraqqiyotining

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory. Eighth Edition.* Mc Graw-Hill. 2010. – P. 39.

umumqamrovli tavsifini berish. Kont g'oyalarning zarur va real filiatziyasini (rivojlanish, vorisiylik) ta'riflashni taklif qilyapti. Men esa narsalarning zarur va real filiatziyasini ta'riflashni taklif qilaman. Kont bizning tabiat haqidagi bilimlarimiz genezisini tushuntirishga da'vo qilyapti. Mening maqsadim – tabiatni tashkil etuvchi hodisalar genezisini tushuntirish. Biri subyektiv, boshqasi obyektiv".<sup>1</sup>

Kont tomonidan rivojlantirilgan fanning obyektiv xususiyatini ta'kidlagan holda, u tabiatshunoslik va sotsial bilimlarning organik aloqasidan kelib chiqadi, bunda sotsial bilimlar tabiiy bilimlarning davomi sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiy fanlar qonunlarini ijtimoiy hodisa va jarayonlar tahlili sohasiga o'tkazishga, ya'ni transformatsiyalashga urinish Spenser Kont bilan yaqinlashtiradi. Spenser fikriga ko'ra, sotsiologiya tabiat, evolyutsiya qonunlari g'oyasiga amal qilgandagina sof, haqiqiy fanga aylanadi. XIX asrning ikkinchi yarmining ilg'or tabiatshunoslik fani sifatida Spenser biologiyani olib qaragan. Shuning uchun u sotsiologiyani biologik qonunlarni ijtimoiy taraqqiyot materiallarida ishlab chiquvchi va shu asnosida ularni sotsiologik qonunlarga aylantiruvchi fan sifatida olib qaragan.

Sotsiologiyaning asosiy vazifasi jamiyatning nima ekanligini tushuntirishdan iborat, deb bilgan Spenser birinchi navbatda, shu savolga javob berishga harakat qiladi. U jamiyatni ma'lum bir miqdordagi individlarni ifodalash uchun ishlatiladigan umumiy nom deb topishga urinishni rad etadi. Uning fikricha, jamiyat alohida birliklardan tashkil topgan bo'lsada, ularning oddiygina yig'indisini ifodalamaydi, balki o'ziga xos borliqdir. Bu yerda eng muhimi – jamiyat qismlari o'rtasidagi munosabatlarning doimiyliigi<sup>2</sup>.

Spenser fikriga ko'ra, sotsiologiyaning predmeti – alohida shaxslarning o'zaro harakatlari natijasi bo'lmish jamiyatning "o'sishi, rivojlanishi, tuzilishi va funksiyalari" hisoblanadi. Bunda sotsiologiyaning asosiy vazifasi – jamiyat strukturasi va uning evolyutsiyasi qonunlarini izlab topishdan iborat. Spenser bu qonunlarni 3 sinfga ajratadi:

1) jamiyatning barcha tarixiy tiplariga xos bo'lgan "eng umumiy qonunlar";

<sup>1</sup> Зборовский Г.Е. *История социологии: классический текст: учебник для вузов.* 2-е изд. испр. и доп. – СПб.: РИО СурГУ, 2014. – С. 30.

<sup>2</sup> Qarang: Спенсер Г. *Социологическая философия.* – Киев: Ника-Центр, 1997. – С. 286.

2) bir tipga mansub yoki bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo'lgan jamiyatlarga xos "umumiy qonunlar";

3) aniq bir jamiyatga xos "xususiy qonunlar".<sup>1</sup>

Jamiyat haqidagi shaxsiy tasavvurini ifodalash uchun, Spenser doimo jamiyatni "ijtimoiy agregat", ba'zan "noorganik agregatlar sinfi", ba'zan "organik agregatlar sinfi" deya nomlab qiyoslashga harakat qiladi. Birinchisiga misol sifatida uy va uning tarkibiy qismlari – g'ishtlar, toshlar, daraxt bo'laklari va boshqalardan foydalanadi, ikkinchisiga har qanday tirik mavjudotni oladi, doimo uning tarkibiy qismlariga katta e'tibor qaratadi.

Spenser sotsiologiyani o'ziga xos xususiyati borasida mushohada yuritarkan, ijtimoiy bilishning ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklarini ajratadi. Sotsial faktlarni asboblar yordamida o'lchab bo'lmaganidek, mikroskop yordami kuzatib ham bo'lmaydi. Ularni faqat bivosita, ko'plab ma'lumotlarni qiyoslash orqali belgilash mumkin.

Spenserga ko'ra, sotsial faktlar – bu shunday hodisalarki, ularda evolyutsion jarayonlar namoyon bo'ladi, jumladan tuzilma va funksiyalar differentsiatsiyasi, siyosiy tashkilotlarning murakkablashuvi va h.k.

Spenserning fikriga ko'ra, tarix sotsial guruhlar yoki alohida shaxslarning ongli ijod mahsuli hisoblanmaydi, bil'aks, faoliyatning o'zi, uning maqsad va niyatlari ijtimoiy evolyutsiya qonunlarida tabiiy asoslanishga ega bo'lishi kerak. Tarixiy voqea-hodisalarning noyobligi va betakrorligiga dalillar insonlarning kundalik harakatlarining tabiiy statistik muntazamligi bilan inkor etiladi, boz ustiga olamda mutlaq takrorlanishning o'zi umuman yo'q.

Spenserning fikriga ko'ra, sotsiologiyani vazifasi – alohida shaxslarning erkidan, ularning individual xususiyatlari va sub'ektiv niyatlaridan qat'iy nazar sodir bo'ladigan jarayonlar, evolyutsiya umumiy qonunlari harakatlarini ochib beruvchi sotsial faktlarni, oddiy ommaviy hodisalarni o'rganishdan iborat. Sotsiologiya ushbu jihatlari bilan aniq dalillar bilan qiziquvchi tarixdan farq qiladi.

3. Oxir-oqibat, Spenser jamiyat noorganik agregatlarga qaraganda tirik jonzoqlar bilan ancha ko'proq umumiylikka ega organizm, degan xulosaga keladi. Kamida uning ikkita jihati bu haqida dalolat beradi.

<sup>1</sup> Qiziq: Spenser G. *Sotsiologiya va predmet izucheniya // Zapadno-evropeyskaya sotsiologiya XIX veka*. Teksty. – M., 1996. – S. 331.

Birinchisi, ijtimoiy rivojlanish tirik organizm rivojlanishi kabi u yo bu jamiyatning boshqa jamiyatga singishigacha, yohud ikki yoki bir nechta boshqa jamiyatlarga parchalanishigacha davom etadi. "Jamiyatning ham, tirik mavjudotlarining ham boshqa o'ziga xos jihati shundaki, o'lchamlarining oshishi bilan birgalikda ular tuzilishida murakkablikning oshishi ham kuzatiladi".<sup>1</sup>

Shuningdek, Spenser jamiyat va tirik organizm o'rtasidagi yaxlit hamda ularning konkret strukturalari doirasidagi o'xshashliklarni ko'rsatadi. Spenser ta'kidlashicha, jamiyat va organizm o'rtasidagi analogiya har bir sezilarli hajmdagi tirik organizmni jamiyat ekanligini, shuningdek, ikkala holda ham agregat hayoti kutilmaganda qandaydir zo'ravonlik bilan to'xtatilgandan so'ng ham birliklar hayoti bir necha vaqt davom etishini bilganimizda, yanada oydinlashadi. Biroq Spenser tirik organizm va jamiyat o'rtasidagi nafaqat umumiylik, balki ularni bir-biridan farqlovchi jihatlarni ham ko'radi.

Spenser tomonidan ilgari surilgan biologik va sotsial organizmlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni umumiy jihatda quyidagicha ifodalash mumkin. O'xshashlik haqida gapirib, ular orasida asosiylariga to'xtab o'tamiz:

1) jamiyat ham biologik organizmdek hayotining katta qismi davomida o'sadi, hajm jihatdan kattalashadi;

2) jamiyatning o'sishi davomida uning strukturasi xuddi organizmning biologik evolyutsiya jarayonidagi strukturasi singari murakkablashadi;

3) biologik hamda sotsial organizmda elementlar strukturasi differentsiatsiyasi ular funksiyasining analogik differentsiatsiyasini keltirib chiqaradi.<sup>2</sup>

Biologik va sotsial organizmlar o'rtasidagi farqlarga kelsak, ularning asosiylari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) Biologik organizmda elementlar yaxlitlik uchun yashaydi, jamiyatda esa aksincha;

2) His qilish va fikrlash tirik organizmning faqat ma'lum qismlarida mujassamlashgan, ijtimoiy ong esa butun "agregat" bo'ylab "yoyilgan".<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Spenser G. *Sotsiologiya va predmet izucheniya // Zapadno-evropeyskaya sotsiologiya XIX veka*. Teksty. – M., 1996. – S. 281.

<sup>2</sup> Жорданский Г.И. *История социологии: классический этап: учебник для вузов*. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: РИО СУрГУТУ, 2014. – С. 31.

<sup>3</sup> O'zida joyda.

Spenserning jamiyatga bo'lgan yuqorida bayon etilgan yondashuvi tizimli-tarkibiy yondashuvga urinishni namoyon etadi, keyinchalik bunga funksional tahlil ham qo'shiladi, chunki u doim tirik organizmlarning ham, ijtimoiy agregatlarning ham alohida elementlarining funksiyalarini aniqlashga harakat qiladi.

Shunday qilib, Spenserning sotsiologik nazariyasi jamiyat to'g'risidagi qarashlari borasida, avvalambor, Darvinning tirik organizmlar to'g'risidagi ta'limotiga asoslanganligini ko'rish mumkin. Uning fikricha, jamiyat tabiatdan nusxa ko'chiradi va uni qayta ishlab chiqaradi, demak, bundan unga biologik qonunlar xos ekanligi kelib chiqadi. Biologik qonunlar Spenser tomonidan jamiyatga muvofiq moslashtiriladi. Darvinning biologik muhit uchun ishlab chiqilgan yashash uchun kurash qonuni Spenser tomonidan sotsial kontekstda sinflar kurashi qonuni sifatida olib qaraladi.

Jamiyatni biologik organizm bilan aynanlashtirish Spenser tomonidan sotsial tizim strukturasi tashkil etuvchi elementlar funksiyalarini o'ziga xos tarzda ta'riflanishiga olib keldi. Dehqonchilik va sanoat, uning fikricha, oziqlanish funksiyasini bajaradi, savdo-sotiq instituti – qon aylanishi funksiyasi, armiya – o'ziga xos teri qoplami, transport – tomirlar tizimi va h.k.. Shuningdek, jamiyatda ham tirik organizmdagidek mehnat taqsimoti mavjud bo'lib, Spenser ularning ijtimoiy hamda organik "agregat"lar darajasidagi tahliliga katta e'tibor qaratadi.

Aytib o'tish kerakki, biz bu tahlilda Spenser tomonidan kamdankam hollarda tan olinadigan ijtimoiy, aniqrog'i iqtisodiy fanning biologik fandan ustuvorligi holatini uchratamiz. Uning fikricha, ilk marotaba iqtisodchilar tomonidan ijtimoiy hodisa sifatida ilgari surilgan, keyinchalik biologlar tomonidan organik hayot hodisasi sifatida tan olingan va "fiziologik mehnat taqsimoti" deb nomlangan mehnat taqsimoti jamiyatning ham, hayvonot olamining ham tirikligini ta'minlaydi.

Jamiyatni ta'riflab turib, Spenser ta'kidlaydi, u a'zolarining manfaati uchun mavjud, aksincha emas. Ularning ehtiyojlarini qondirishga, birinchi navbatda jamiyatning siyosiy tashkiloti xizmat qilish kerak. Uni Spenser "siyosiy agregat" deb nomlaydi. Siyosiy agregatlarining farovonligiga qanchalik tirishilmasin, bu siyosiy agregatning barcha talablari o'z holicha hech qanday ma'noga ega emas, faqatgina bu agregat birliklarini tashkil qiluvchilarning

talablarini o'zida mujassamlashtirgandagina qandaydir ma'noga ega bo'ladi.<sup>1</sup>

4. G.Spenser o'z e'tiborini ko'proq jamiyat strukturasi qurilmasiga qaratadi,<sup>2</sup> uni ham tarixiy, ham mantiqiy tahlil etadi. Ijtimoiy o'sish muammolarini ko'rib chiqib, Spenser jamiyat strukturasi bosqichma-bosqich tuzilishi murakkablashuvi haqida gapirib, uni "eng kichik guruhlardan kattaroq guruhlarga, oddiy guruhlardan murakkab guruhlarga, murakkablaridan ikki karra murakkabroq guruhlarga" o'tish bilan bog'liq holda tushuntiradi. Jamiyatning bu turlari haqida Spenser aniq ma'lumot qoldirmagan, lekin yuqoridagi holatdan ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini ijtimoiy tuzilishning murakkablashuvi bilan bog'liq holda klassifikatsiyalash to'g'risida so'z borayotganligini fahmlash mumkin. Katta tarixiy va etnografik materiallarga asoslanib (materiallarga eskimoslar, avstraliyaliklar, bushmenlar, kayyaguaslar – Janubiy Amerika o'rmonlarida yashovchi hindular, o'rta asrlardagi hunarmandchilik va yevropadagi, avvalambor Angliyadagi zamonaviy fabrika sanoatini o'rganish materiallari va ma'lumotlari) Spenser ijro etuvchi hokimiyatda differentsiatsiya qanday sodir bo'lishi, aholining o'sishi bilan bog'liq ravishda unda yangi strukturaning yuzaga kelishi, qabilalar birlashuvi, "ijtimoiy ittifoqlar"ning qanday paydo bo'lishi, tashkilotlar taraqqiyotiga erishish qanday sodir bo'lishini ko'rsatadi. Oddiy jamiyatlarni ko'rib chiqib, ular orasidan doimiy sardorlarga ega bo'lmagan, o'zgarib turuvchi (vaqti-vaqti bilan paydo bo'luvchi) va stabil rahbarlarga ega jamiyatlarni ajratib ko'rsatgan. Spenser yana bir mezon – yashash sharoiti turg'unligiga ko'ra ham jamiyatlarni turlarga ajratadi. Bular: ko'chmanchi, chrim ko'chmanchi va turg'un.

Bu tahlillarning barchasi biologik organizm bilan ijtimoiy organizmning bir xilligi tamoyiliga asoslanadi. Spenser individual va ijtimoiy organizm o'rtasidagi aynanlikka doimo misollar keltiradi. "Faktlarni e'tibor bilan ko'rib chiqish, - yozadi Spenser, - jamiyat va organizm tuzilmasida yana bir hayratlanarli aynanlikni ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Spenser G. Сопрология как предмет изучения // Этнографическое обозрение XIX века. Труды. – М., 1996 – С. 294

<sup>2</sup> Spenser "Sotsiologiya asoslari" asarining bir bobini "Ijtimoiy tuzilma" deb nomlaydi.

Hayvon organlari va jamiyat organlarining ichki tuzilishiga ko'ra aynan bir tamoyil asosida qurilganligini ko'rish mumkin".<sup>1</sup>

Bu tamoyillar Spenser organizmda (ijtimoiy agregatda) asosiy va yordamchi elementlarning ularning umumiy strukturadagi o'rinlari nuqtai nazaridan ham, asosiy va yordamchi funksiyalarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham bir-biriga mutanosibligidir. Shuningdek, ular bir-birlarini to'ldiradi, chunki busiz jamiyat (tirik organizm) mavjud bo'lishi amri mahol. Bu yerda gap nafaqat mehnat taqsimoti haqida, balki u yoki bu struktura bajaradigan funksiyalar haqida ham bomoqda. Spenser ta'kidlashicha, tuzilishdagi o'zgarish funksiyadaga o'zgarishsiz amalga oshishi mumkin emas, shuningdek, ijtimoiy tuzilishdagi ko'plab o'zgarishlar ko'proq funksiyadagi o'zgarishlar ko'rinishida sodir bo'ladi.

Ma'lum bir jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichini aniqlashda Spenser ikki mezondan foydalanadi – evolyutsiya murakkablik darajasi va u jamiyatni ma'lum murkkablikdagi, ya'ni oddiy, murakkab, ikki marotaba murakkab, uch marotaba murakkab tizimiga kirituvchi strukturaviy-funksional tizimlarning keng ko'lamligi.

Spenser jamiyat strukturasi uni sotsial turlarga ajratish orqali tahlil qilib, ular orasida eng asosiylari sifatida – harbiy va sanoatlashgan (industrial) jamiyat turlarini farqlaydi. Ularning bir-biriga zid xususiyatlarga egaligini ta'kidlaydi. Harbiy jamiyatda (Spenser tomonidan ko'rib chiqilgan mumtoz namuna – qadimiy Sparta) jamoaviy maqsadlar individual maqsadlardan ustun turadi. Unda qat'iy tashkilot, boshqaruv ierarxiyasi, majburlov tizimi, qat'iy tartibot, nasldan-naslga o'tuvchi hokimiyat va boshqalar mavjud. Harbiy jamiyatdagi hayot majburiy hamkorlik evaziga ta'minlanadi. Buni ham Spenser biologik organizm bilan aynanlikda ko'rsatadi, ya'ni inson organizmining tashqi organlari markaziy asab tizimiga tobe bo'lganidek. harbiy jamiyatda ham insonlar xulq-atvori yuqori hukumat tomonidan belgilanadi. Bunday jamiyat o'ta konservativ bo'lib, evolyutsion o'zgarishlarga yomon moslashadi.

Sanoatlashgan (industrial) jamiyatga keladigan bo'lsak (tipik misol – XIX asrda Angliya), unda funkcionallashuv asosiga majburiy emas, balki ixtiyoriy hamkorlik qo'yiladi. Bunday turdagi jamiyatga individual erkinlik, o'z xohishiga ko'ra savdo-sotiq bitimlarini amalga

<sup>1</sup> Спенсер Г. Основания социологии // Западно-европейская социология XIX века: Тексты. – М., 1996 – С. 308.

oshirish imkoniyati, aholini salmoqli qismining faolligi, markazlashmagan ijro etuvchi hokimiyat va boshqalar xos. Sanoatlashgan jamiyatning muhim xususiyatlaridan biri (lekin Spenser fikriga ko'ra, xali to'liq o'lchamda amalga oshirilmagan) o'rnatilgan ijtimoiy tartibotga hukumat va davlat aralashuvidan erkinligidan iborat (iborat bo'lishi shart) ekanligi hisoblanadi. Davlatning asosiy vazifasi – individlarning huquqlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoyalash, ularning erkin tashabbuslarini ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoitlarni yaratishdan iborat.

Spenser sanoatlashgan, ya'ni u uchun zamonaviy bo'lgan jamiyat haqidagi qarashlari O.Kontning qarashlariga zid bo'lgan holda aniq ifodalangan antijamoaviy xususiyatga ega edi. Kont insonlar ijtimoiy hayotda jamoaviy tarzda harakat qilishlari kerak, jamiyat esa bu jarayonni boshqarishi va yo'naltirishi lozim, deb hisoblagan bo'lsa, Spenser insonlarning jamoaviy intilishlari ularning harakatlariga hych qanday aralashuvlarsiz, faqatgina o'zaro kelishuvlar asosida amalga oshirilishi lozim, deb biladi.

Shunday qilib, Spenser fikriga ko'ra, harbiy jamiyat insonni davlatga bo'ysunishi bilan ajralib tursa, sanoatlashgan jamiyat esa aksincha, davlat inson va uning erkinligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Sanoatlashgan jamiyatning harbiy jamiyatdan asosiy farq qiluvchi xususiyati – unda har tomonlama va turli erkinliklar (individ, savdo-sotiq, xususiy tashkilotlar, sanoatga oid mashg'ulotlar erkinligi va h.k.) mavjudligidir (Qarang: jadval)<sup>1</sup>.

Bu yerda jamiyatning bunday tahlilining sotsiologiya fanining keyinchalik rivojlanishi uchun ahamiyati haqida to'xtalib o'tish lozim. Zamonaviy sotsiologiyada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jamiyatlarni industrialgacha va industrial (keyinchalik postindustrial) turlarga ajratish fikri ijtimoiy taraqqiyot jarayoni tipologiyasida (yoki klassifikatsiyasida) eng ko'p tarqalganlaridan biriga aylandi.

Spenser ijodidagi jamiyatning har xil turlarini tavsiflanishi u tomonidan qiyosiy-tarixiy usuldan keng foydalanilganini ko'rsatadi. Bu usuldan Kont ham keng foydalangan. Lekin Spenserda bu usul uning ijodining o'ziga xos xususiyati – evolyutsiya nazariyasi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ldi. Shuningdek, qiyosiy metodning qo'llanilishi nafaqat tirik organizm va jamiyat o'rtasidagi

<sup>1</sup> Qarang: Грозов Н. А., Мизакин А. Ю., Семенин В. А. Западная теоретическая социология. – М., 1996. – С. 19-20.

aynanliklarni isbotlashga, balki o'zgarish va rivojlanish holatidagi jamiyatni izohlashga ham yo'naltirilgan.

Tasnif	Harbiy jamiyat	Industrial jamiyat
Dominant funktsiya yoki faoliyat	Hududini saqlab qolish va kengaytirish yo'lida mudofaa va bosib olish bo'yicha birgalikdagi faoliyat	Tinchlik; o'zaro individual faoliyatlarga yo'l ochib berish
Sotsial koordinatsiya tamoyili	Majburlovchi kooperatsiya; hokimiyat tazyiqi bilan amalga oshadi	Erkin kooperatsiya; shartnoma va adolat tamoyillari bilan amalga oshadi
Individ va davlat o'rtasidagi munosabatlar	Individ davlat uchun; erkinlik, mulkchilik va mobillikni cheklash	Davlat inson uchun; erkinlik; Gosudarstvo dlya cheloveka; svoboda; mulkchilik va mobillikni qisman cheklash
Davlat va boshqa tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar	Xususiy tashkilotlar yo'q	Xususiy tashkilotlar qo'llab-quvvatlanadi
Davlat tuzilishi	Markazlashgan	Markazlashmagan
Sotsial stratifikatsiya tuzilishi	Maqom, mashg'ulot turi, turar joyning fiksatizatsiyalanishi; maqomning vorisiyligi	Maqom, kasb, turar joyning egiluvchanligi; maqomning o'zgaruvchanligi
Iqtisodiyot turi	Iqtisodiyotning avtonomligi va o'zini o'zi ta'minlashi; kichik tashqi savdo-sotiq; proteksionizm	Iqtisodiy avtonomiyani yo'qotish; savdo-sotiq vositasida o'zaro bog'liqlik; erkin savdo-sotiq
Qadrlanuvchi sotsial va shaxsiy xususiyatlar	Vatanparvarlik; jasurlik; hurmat; sodiqlik; itoatkorlik; hukumatga ishonish; intizom	Mustaqillik; o'zgalarni hurmat qilish; zo'ravonlikka qarshilik; individual tashabbuskorlik; haqo'ylik; mehr-oqibat

5. Spenserning sotsiologik nazariyasi jamiyatni organizm sifatida talqin etish tamoyiliga asoslangani barchamizga ma'lum. Uning ta'limotining ikkinchi asosiy tamoyili evolyutsionizm bo'lgan. Bu ikkala tamoyil ham Ch.Darvinning odam kelib chiqishining evolyutsion nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Spenser o'zining fundamental qarashlarini mexanikaning: modda, harakat, kuch kabi

atamalarida shakllantiradi. Ushbu mutlaqo umumiy holatdan (modda va kuchning doimiylik qonuni) evolyutsionizm qonuni kelib chiqadi. Umumiy evolyutsiya g'oyasi – Spenser dunyoqarashining markaziy nuqtasi hisoblanadi. Uning barcha urinishlari ushbu g'oyani asoslashga qaratilgan.

Har qanday ob'ekt evolyutsiya aloqasizlikdan aloqadorlikka, bir xillikdan turli xillikka, noma'lumlikdan ma'lumlikka o'tish bilan tasniflanadi. Spenser o'z falsafiy tizimi markaziy tushunchasining quyidagi tavsifini taklif qiladi: «Evolutsiya – bu moddalar integratsiyalashuvi bo'lib, harakatning tarqalishi bilan kuzatiladi va bu paytda modda noma'lum, bog'lanishsiz bir xil holatdan ma'lum bog'langan xilma-xillik holatiga o'tadi, harakat esa saqlangan modda bilan shunga o'xshash aylanishga yuz tutadi»<sup>1</sup>.

Evolutsiya o'ta olmaydigan chegara – tizimning muvozanatidir. Muvozanat buzilgan holda inqirozga yuz tutish (parchalanish) boshlanadi, bunda vaqti kelib yangi evolyutsiya jarayoniga o'tiladi. Barcha mavjud narsalar ushbu rivojlanish va parchalanish davridan o'tadi.

Spenser noorganik, organik tabiat va kishilik jamiyatiga mos ravishdagi uch turdagi evolyutsiyani ajratadi – noorganik, organik hamda organikdan ustun (anorganik). Evolyutsiyaning bu sohalarining barchasida amal qiluvchi umumiy qonunlari bilan bir qatorda, ularning har biriga xos bo'lgan qonunlar ham mavjud. Spenserning ta'kidlashicha, yuqori sohalarida amal qiladigan qonunlar quyi sohalar qonunlariga mos kelmaydi, chunki birinchilarida ikkinchilariga xos bo'lmagan voqeya-hodisa va jarayonlar kechadi.

Evolutsiya bir sotsial tizim doirasida bir holatdan ikkinchi, ya'ni mukammalroq holatga o'tish sifatida olib qaraladi. Inson ilk jamoaviy hamjamiyatlardan sotsial tizimlarga o'tishda uzoq muddatli evolyutsiya jarayonida sotsial mavjudotga aylanadi. Spenser inson ijtimoiylashuvining o'zagi hisoblangan mehnat ko'nikmalari, intellekt, sotsial hissiyotlarning tabiiy evolyutsiyasi haqida yozadi. Spenserning fikricha, sotsiologiya sotsial faktlarni, jarayonlarni, ommaviy tipik hodisalarni o'rganishda evolyutsiyaning umumiy qonunlarini ochishi kerak. Bu ma'noda sotsiologiya fani kamdan-kam uchraydigan, tasodifiy va individual hodisalarni rad etish kerak.

<sup>1</sup> Гросс Н. А., Мидденлоп А. Ю., Спасский В. А. Эволюционная социология. – М., 1996. – С. 17.

Evolyutsiyaning asosiy – bir chiziqli yoki ko'pchiziqli turlari haqida gapirib, Spenser insoniyat taraqqiyotining boshlang'ich pog'onasiga birinchisini qo'yadi. Uning qarashlariga muvofiq, ijtimoiy evolyutsion jarayoni oldindan belgilab qo'yilgan, uning bosqichlari esa xuddi inson hayotidagi bolalikdan o'smirlikka, undan balog'atga, keyingisidan keksalikka o'tish kabi qat'iylik bilan amalga oshadi. Spenser fikriga ko'ra, ijtimoiy organizm individual organizm kabi o'z atrof-muhiti bilan o'zaro ta'sirlashuvga bog'liq holda evolyutsion o'zgarishlarni boshidan o'tkazadi.

Lekin jamiyatning evolyutsion taraqqiyoti uning aniq bosqichlar doirasida ma'lum darajada tashqi tabiiy va sotsial sharoitlarga bog'liqligini ta'kidlash bilan bir qatorda, Spenser ijtimoiy progressning ko'p chiziqchiligi ham e'tibor qaratadi. Buni yuzaga kelgan sotsial tiplarning yaxlit bir qator hosil qilmasligi, balki bir-biridan farqlanuvchi va yoyiluvchi guruhlariga bo'linib ketishi bilan tushuntiradi.

Spenser umumiy evolyutsiya bilan bir qatorda sotsial evolyutsiya tahliliga ham e'tibor qaratadi. Umumiy evolyutsiyani u materiya integratsiyasi sifatida uni bir holatdan (bog'lanmagan bir xillik) ikkinchi holatga (bog'langan turfa xillik) o'tishi sifatida, tom ma'noda esa – noorganik tabiatdan organik, tirik tabiat orqali jamiyatga o'tish sifatida tushuntirgan. Sotsial evolyutsiyaga kelsak, u Spenserning ijtimoiy progress haqidagi fikrlariga "mos keladi". Yuqorida uning mezoni to'g'risida to'xtalib o'tilganidek, sanoatlashgan jamiyatda erkinlikning ortishi yuqori taraqqiyot bosqichiga chiqish imkonini beradi, aynan unda shaxs jamiyatga bo'ysunmaydi, aksincha jamiyat individlarga xizmat qiladi (yoki hech bo'lmaganda, xizmat qilish kerak), ularning manfaatlarini qondiradi.

Spenser va yana bir mutafakkir J.S.Mill davridan boshlab ingliz sotsiologiyasi individualizm tamoyiliga yo'nalganlik xususiyatini aks ettira boshlaydi. Bu Spenserning konsepsiyasida jamiyatning asosiy turlari – harbiy va sanoatlashgan – va birinchidan ikkinchiga yo'nalgan evolyutsiya jarayonini ko'rib chiqish sifatida joylashdi. Jamiyat turlarining evolyutsiyasi "yuqori"dan (harbiy jamiyat) majburiy tarzda birlashishga asoslangan bir turdan ikkinchi, "quyi"dan o'z xohishiga ko'ra birlashishga asoslangan turga o'tish sifatida talqin etiladi.

Bu sotsial evolyutsiya jarayonini Spenser tabiiy, ob'ektiv, insonlarning xohish va manfaatiga bog'liq emas, deb tushuntiradi. Ular xohlaydimi, xohlamaydimi, sotsial evolyutsiya bor va u keyin ham bo'ladi. o'lyapti U aynan nimada namoyon bo'ladi? Bu yerda sotsial faktlarning "o'lchami", uning aniqligi, umuman sotsial fakt nima, degan savol yuzaga keladi. Sotsiologiyaning bu markaziy tushunchalaridan birini Spenser sotsial evolyutsiya jarayonini belgilovchi hodisalar bilan bog'laydi. Ular qatoriga quyidagilarni kiritadi: siyosiy tuzumning o'zgarishi, jamiyatni siyosiy tashkil etish xarakteri o'zgarishi va h.k. Sotsial faktlarni asboblardan yordamida o'lchab bo'lmaydi, bu ularni o'rganishning murakkabligini ko'rsatishini Spenser ham tushungan. Lekin u tomonidan eng umumiy tarzda tushunilgan sotsial bilishning o'ziga xosligi ham shunda edi.

Spenserning evolyutsiya omillari to'g'risidagi qarashlarini ko'rib chiqmasdan turib uning evolyutsion nazariyasi haqida xulosa chiqarish mumkin emas. Evolyutsiyaning turli omillarini u birlamchi va ikkilamchi (hosila) guruhlariga ajratgan, keyin har bir guruhdan tashqi va ichki omillarni ajratib chiqqan.

Birlamchi ichki omillarga u insonning uning ilk paydo bo'lishi va rivojlanishi davridagi jismoniy va psixik (ruhiy) xususiyatlarini kiritadi. Bu davrlarda inson xali rivojlanmagan (yoki kam rivojlangan) bo'lganligi sababli, uning bu xususiyatlari quyidagicha tasvirlanadi: fikrlash faoliyatida zaiflik, o'ziga o'xshagan odamlar bilan uzoq hamkorlik qila olmaslik, yirtqichlarga xos xususiyatlar va h.k.

Birlamchi tashqi omillar sifatida ibtidoiy odam hayotini ifadolovchi iqlim, landshaft, tuproq kabi boshqa geografik va tabiiy xususiyatlar qarab o'tilgan.

Sotsial evolyutsiyaning ikkilamchi omillari uning o'zi tufayli "ishlay" boshlaydi. Birinchi navbatda, bu omillar sifatida Spenser sivilizatsiya davrida tabiiy va sotsial muhitlarning ta'siri ostida inson mohiyatining o'zgarishini tushunadi. Eng muhimi shuki, inson ijtimoiylashadi va bu holat evolyutsiyaning asosiy ikkilamchi omillaridan biriga aylanadi. Sotsial evolyutsiya jarayoniga sotsial institutlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi katta ta'sir o'tkazadi.

6. Sotsial institutlar to'g'risidagi ta'limot G.Spenser sotsiologik konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U jamiyatni talqin etish, shuningdek uning turlari, bosqichlari, evolyutsiya doirasida rivojlanishi haqida tizimli tasavvurlardan kelib chiqadi.

Sotsial institut deganda Spenser insonlarning birgalikdagi hayotini tashkil etish usuli va shaklini tushungan, lekin unga aniq ilmiy ta'rif berib o'tmagan. Sotsial institutga berilgan bu ta'rif zamonaviy talqin hisoblanib, Spenser tufayli sotsial institut atamasi ilmiy tarzda qo'llanila boshlagan va sotsiologiyada muhim ahamiyatga molik tushuncha sifatida qabul qilingan. Sotsial institut, Spenserga ko'ra, tashkilot, idora, majburlov tizimi va boshqa shu kabi xususiyatlar bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Sotsial institutlar yig'indisi, uning fikricha, jamiyatning strukturasi va tashkilotini tashkil etadi. Institutlar tahliliga Spenser o'zining asosiy sotsiologik asari – "Sotsiologiya asoslari"ning salmoqli qismini bag'ishlaydi.

U jamiyatda uning evolyutsiyasi darajasiga muvofiq holda faoliyati maqsadi butun sotsial organizmning normal ishlashini ta'minlashdan iborat bo'lgan sotsial institutlar soni ko'payib borishini isbotlaydi. Institutlar miqdori qanchalik ko'payib, ularning strukturalari murakkablashgani sari sotsiologiya, Spenser fikriga ko'ra, ularning o'zaro ta'sirlashuvining tengligini shunchalik ko'p o'rganishi kerak bo'ladi. Ijtimoiy progress bu jarayonning samaradorligiga bog'liq, va sotsiologiya fani bu holatni chetlab o'tishi mumkin emas.

Sotsial institutlar jamiyat funkcionallashuvining barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, Spenser fikriga ko'ra, yana bir muhim vazifani, insonning sotsial mavjudotga aylanishini ta'minlaydi, uni jamoaviylik xususiyatiga ega bo'lgan sotsial harakatlarga olib kiradi, boshqacha qilib aytganda, shaxs ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Aytib o'tish joizki, sotsial institutning bunday talqini ham bugungi kunda dolzarb hisoblanadi zamonaviy sotsiologiyada keng qo'llanilmoqda.

Spenser fikricha, sotsial institutlar doirasida uchta organlar (idoralar) tizimi amal qiladi:

- ishlab chiqaruvchi;
- taqsimlovchi;
- boshqaruvchi.<sup>1</sup>

Ular mos ravishda jamiyat taraqqiyotiga nisbatan differensial va integratsiyalovchi muhim funksiyalarni bajaradi. Sotsial institutlarni

<sup>1</sup> Qarang: Эберскафф Г.Е. История организации: классический текст учебника для вузов. 2-е изд. М.: СПб, 2001.  
– Суревт в [ар.]. ИИО СурТТИУ, 2014. – С. 33.

Spenser oltita asosiy turlarga ajratadi.<sup>1</sup> Bular: uy-ro'zg'or; rasm-rusumga oid; siyosiy; cherkovga oid; kasb-hunarga oid; sanoat.

Ularning har biri o'zgarish va rivojlanish holatida bo'ladi.

Uy-ro'zg'or institutlari odamlarning individlararo munosabatlarga bog'liq holda hayotning turli shakllariga kirishishi bilan ta'riflanadi. Ular turli jins vakillarining tartibsiz aloqalaridan tortib to zamonaviy monogamiyagacha evolyutsiyalashadi hamda oila va jamiyat turlari o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadi. Spenser oila, nikoh va tarbiya singari institutlarga alohida e'tibor qaratadi.

Rasm-rusumga oid institutlar insonlarning xulq-atvorini aholining ko'pchiligi tomonidan tasdiqlangan urf-odat, udum, axloq, moda, odat va h.k. orqali boshqaradi. Bu institutlardan ayrimlari ilgari ham va bugungi kunda ham ibodatga oid xususiyatini namoyon etadi (to'y, dafn, xalq bayramlari va h.k.) Rasm-rusumga oid institutlar kelib chiqishi bo'yicha siyosiy va cherkovga oid institutlardan ancha ulug'roq bo'lib, ular asosiy sotsial funksiyalarni amalga oshirishda davlat va dindan ko'ra ancha samaraliroq hisoblanadi.

Siyosiy institutlar (davlat, armiya, huquq, politsiya, sud va h.k.) tahliliga Spenser ko'proq e'tibor qaratadi, ular odamlar, guruhlar, sinflar o'rtasidagi siyosiy va huquqiy munosabatlarni o'rnatadi va boshqaradi. Bunday institutlarning shakllanishiga, Spenser fikriga ko'ra, ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat, urushlar, tartibni saqlashga intilish va jamiyatdagi barqarorlik, shuningdek, asosiy sotsial jarayonlarni boshqarish sabab bo'ladi. Siyosiy institutlarni ko'rib chiqishda Spenser ularning ahamiyati, taraqqiyoti imkoniyatlari va istiqboliga turlicha yondoshadi. Uning fikricha, zamonaviy davlatning roli uncha katta emas, chunki u tabiatiga ko'ra individual erkinlikni cheklashi lozim, huquq esa bu erkinlikning kafolati hisoblanib, uning o'sishini talab etadi.

Cherkovga oid institutlar siyosiy institutlar kabi turli aholi guruhlarining jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi, bu maqsadga erishishda boshqa vosita va mexanizimlardan foydalanadi. Spenser bu institutlarning funkcionallashuvida diniy ulamolarning rolini e'tirof etadi. Ularning timsoli sifatida koinlar, shomonlar, afsungarlar faoliyatini o'rganadi.

<sup>1</sup> Qarang: O'zida joyda. – B. 35.

Professional institutlar sotsial mehnat taqsimoti asosida yuzaga keladi va ishlab chiqarish hamda uning shakllari evolyutsiyasi bilan hamkorlikda rivojlanadi. Ularning tarkibiga Spenser hunarmandlar birlashmasi, sexlar va kasaba uyushmalarini kiritdi. Ularning asosiy funksiyasi bir xil professional faoliyat bilan shug'ulanadigan insonlarni integratsiyalarni yaqinlashtirish, integratsiyalash, himoyalashdan iborat.

Institutlarning oxirgi guruhi sanoat institutlari bo'lib, ular zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish turlari va ish faoliyatini tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Bu institutlar faqatgina sanoatlashgan jamiyatga xos. Ular ishlab chiqarish bilan bog'liq strukturaning funksionallashuvi va qatnashchilarining mehnat munosabatlarini boshqaruvini ta'minlaydi. Sanoat institutlarning rivojlanishi professional institutlari kabi mehnat taqsimotini kuchaytirish, ishlab chiqarish boshqaruvini takomillashtirishga asoslanadi.

Sotsiologik institutlar to'g'risidagi ta'limot Spenser tomonidan jamiyatni tizimli talqin etish doirasida ishlab chiqilgan. Bu institutlarning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir yaxlitlikni tashkil etadi. Ularning har biri ma'lum bir ijtimoiy ehtiyojni qondiradi, hech biri boshqasining o'rnini bosa olmaydi. Shuningdek, institutlar ham jamiyat singari insonlarning manfaati uchun yaratilgan, aksincha emas.

Spenserning sotsial institutlar to'g'risidagi talimotining ahamiyati shundaki, birinchidan, ular ilk marotaba jiddiy klassifikatsiya qilingan; ikkinchidan, evolyutsion nazariya orqali tahlil qilingan; uchunchidan, tarixiy-etnografik ma'lumotlar asosida qarab o'tilgan. U jamiyat va uning sotsial strukturasi muhim muammolarini institutsional tahlil qilish imkoniyatlarini ko'rsatib bera oldi.

Spenserning sotsiologik ta'limoti uning hayotligidayoq nafaqat Angliyada, balki Fransiya, Germaniya, AQSh, Rossiyada mashhur edi. Spenserning jamiyatni sotsial organizm sifatida tushuntirish an'anasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jahon sotsiologiyasida keng tarqaldi. Uning organitsistik qarashlari fransuz sotsiologi Rene Vormsning "Organizm va jamiyat" (1896) va rus sotsiologi P.F.Lilienfeldning "kelajak ijtimoiy fani to'g'risida fikrlar: Kishilik jamiyati real organizm sifatida" (1872) asarida o'z aksini topdi. XIX asrning 2-yarmida Spenser o'z mamlakatidan tashqarida asarlari eng ko'p nashr

etiladigan sotsiolog bo'ldi. AQShda uning sotsiologiyasi misli ko'rilmagan darajada mashhurlikka erishdi.

J.Ritser ta'kidlashicha, Britaniyada Spenserga qarshi reaksiya mavjud edi. Spenser shaxsga urg'u bergan bo'lsada, katta o'lchamli sotsial evolyutsiya nazariyasi muallifi sifatida tanilgan. Bu ma'noda u Britaniyada o'zigacha mavjud bo'lgan sotsiologiyaga qarama-qarshi turgan. Lekin Spenserga qarshi reaksiya ilk britaniyalik sotsiologlarning ko'pchiligiga xos ameliorizmga kuchlilarning yashab qolishi g'oyasi taqdim etgan tahdidga asoslangan edi. Spenser keyinchalik o'zining eng muzokarali g'oyalardan voz kechgan, u kuchlilarning yashab qolishi falsafasini ilgari surishda va hukumatning aralashuvi va sotsial islohotlarga qarshi chiqishda davom etgan. "Yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarish – eng katta shavqatsizlik. Bu ataydan kelgusi avlodlarga muammolar olib keladi. Avlodlar uchun ularni kaltafahm, takasaltang va jinoyatchi bo'lib o'sishidan boshqa kattaroq baxtsizlik yo'q... Tabiatning barcha harakatlari jamiyatni bunday vakillardan xalos etish, dunyoni ulardan tozalash va eng yaxshilarga makonni bo'shatishga qaratilgan... Agar ular yashash uchun unchalik mukammal bo'lmasalar, ular qilishi mumkin bo'lgan eng ma'qul ishni qiladilar, nobud bo'ladilar". Bunday kayfiyat britaniyalik islohotchi-sotsiologlarning ameliorativ yo'nalishlariga zid edi.<sup>1</sup>

Spenserning sotsiologik ijodi o'zining tarixiy evolyutsion ilmiy argumentlar keltirilgani bilan qiziq. Bunday tahlil asosida keng doirali XIX asr ikkinchi yarmi muttafakirlari bu jamiyatning aniq sotsial evolyutsiyasi fikriga va insoniyat yutug'lariga ishonch hosil qildilar. Jahon sotsiologiyasi usiz kelajakda rivojlana olmaydigan bir qancha yaratilgan tushunchalarga ega bo'ldi. Spenser sotsiologik fanida keng imkoniyatlarga ega bo'lgan va jamiyatni sotsial organizm sifatida o'rganadigan tarixiy-nisbiy metodlarni ko'rsatdi, Ingliz sotsiologi hozirda sotsiologlarga uning har bir tarkibini o'rganishda kerak bo'lgan jamiyat tipologiyasini yaratdi. U sotsiologiyaning yangi ilmiy faoliyat doirasiga aylanishida juda muhim va asosiy qadamni qo'ydi, deyish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni qayd etib o'tish joizki, ko'pchilik mualliflar sotsiologiya fanining asoschilari haqida gap ketganda, Spenserni Kont

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P.37-38.

bilan bir qatorga qo'yadilar. Chunki oldingi mavzuda ta'kidlaganimizdek, Kont sotsiologiyaning tamal toshini qo'ydi, unga nom berdi, Spenserning esa bu fanni "oyoqqa turg'azish", dunyo bo'ylab targ'ib qilishda hissasi beqiyos.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. G.Spenser sotsiologiyasini evolyutsion deb atalishining sababini tushuntiring.
2. G.Spenser va O.Kont sotsiologik qarashlarining umumiy va farqli jihatlarini ko'rsating.
3. G.Spenser biologik va sotsial organizmlar o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni nimalarda ko'rgan?
4. G.Spenser jamiyatning qanday turlarini ajratgan?
5. G.Spenser evolyutsiyaning qanday turlari va omillarini ajratgan?
6. G.Spenserning sotsial institutlar to'g'risidagi qarashlarini bayon eting.
7. G.Spenser sotsiologik ijodining ahamiyati nimadan iborat?

#### GLOSSARIY

**Differensiatsiya – дифференциация – differentiation** – organik tizim yoki jamiyatlarning ortib boruvchi murakkablashuvga tomon rivojlanishi.

**Ehtiyoj – потребность – need** – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

**Evolyutsionizm – эволюционизм – evolution** – sotsial taraqqiyotning tabiiy-tarixiy jarayon sifatidagi ob'ektiv xususiyatini tan oluvchi qarashlar tizimi.

**Evolyutsiya – эволюция – evolution** – biologik organizmlarning atrof-muhit shart-sharoitlariga moslashuvi asosidagi taraqqiyoti.

**Funksionalizm – функционализм – functionalism** – sotsial hodisalarni ularning funksiyalari, ya'ni ijtimoiy jarayonlarga ta'siri

nuqtai nazaridan tushuntirish g'oyasini ilgari suruvchi nazariy yo'nalish.

**Funksiya – функция – function** – faoliyat, ba'zi sistemalar doirasidagi ob'ektning unga mansubligi va roli; ob'ektlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishi bo'lib birining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishiga olib keladi, bunda ikkinchi ob'ekt dastlabkisining funksiyasi deyiladi.

**Integratsiya – интеграция – integration** – nisbatan mustaqil sotsial ob'ektlar o'rtasida optimal aloqalarning o'rnatilishi jarayoni.

**"Organik" sotsiologiya – органическая социология – organic sociology** – G.Spenser tomonidan asos solingan jamiyat va tabiatning aynanligiga asoslangan sotsiologik konsepsiya.

**Sotsial-darvinizm – социальный дарвинизм – social darwinism** – sotsial evolyutsiyaga guruhlar yoki jamiyatlar o'rtasidagi kurashning taraqqiyot asosi sifatida muhimligini ta'kidlovchi qarash.

**Sotsial differentsiatsiya – социальная дифференциация – social differentiation** – jamiyatning qismlarga bo'linishi, uning tarkibiy qismlarining ixtisoslashuvi, ularda yangi strukturalarning, maqomlar va funksiyalarning paydo bo'lishi jarayoni

**Tizim – система – system** – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'p qismlar majmui.

## SOTSILOGIYADA POZITIVISTIK-NATURALISTIK MAKTABLAR

### Reja:

1. Evolyutsionizm – naturalistik maktablarning negizi sifatida
2. Mexanistik maktab
3. Sotsial-darvinizm
4. Bioorganik maktab
5. Geografik maktab
6. Irqiy-antropologik maktab

1. Sotsiologiyaning XIX asr o'rtalari va ikkinchi yarmidagi rivojlanish bosqichida biz fanni talqin etishning ikki yo'nalishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bular: antipozitivizm (marksistik sotsiologiya va "tushunuvchi" sotsiologiyaga olib kelgan), "bir omil" pozitivistik-naturalistik maktablar (O.Kont va G.Spenser tomonidan ilgari surilgan pozitivistik an'ana davomchilari). G'arb ilmiy tafakkuri tabiiy fanlar muvaffaqiyati va pozitivistik-naturalistik dunyoqarashning gullab-yashnashiga erishdi. Biz bunda Ch.Darvin tomonidan ilgari surilgan turlarning evolyutsion nazariyasining kuchli ta'sirini sezamiz. Bu davrda vujudga kelgan evolyutsionistik nazariya ko'pgina olimlarning o'y-hayoliga kirib o'rnamshdi. Bizga ma'lumki, bu nazariya tabiat va jamiyat qonunlarini, tabiiy va ijtimoiy fanlar metodlarini umumiylikni keng targ'ib etgan.

Evolyutsionizm nazariyasi jamiyat va madaniyat genezis muammolarini hal etishda sotsiologiyani etnologiya bilan chambarchas bog'lashga kirishadi. Shu tufayli o'sha davr sotsiologiyasini ibtidoiy tarixga va imlosiz xalqlarning ijtimoiy institutlarini paydo bo'lishi va rivojining qiyosiy tadqiqotlariga qiziqishi juda baland edi.

Biologik-evolyutsion maktablarda sotsial evolyutsiya biologik evolyutsiyaning davomi yoki bo'lmasa tarkibiy qismi, deb talqin qilina boshladi. Bu maktablar vakillarining fikricha, organizmning o'sish qonuniyatlariga o'xshab ijtimoiy institutlarning qandaydir organik rivojlanish qonuni ham mavjuddir va u o'zgarishlarni bosqichma-bosqich hamda doimiy xarakterini belgilaydi. Bunda biz Ch.Darvinning kuchli ta'siri ostida G.Spenser tomonidan yaratilgan

differentiatsiya tamoyiliga asoslangan evolyutsionizm nazariyasi sotsiologik tafakkurda sotsial evolyutsiyaning chiziqli konsepsiyasining uzoq muddat mutlaqlashtirilishiga olib keldi. Shuningdek, naturalistik-evolyutsion sotsiologiya sotsial falsafadan tarixni «harakatlantiruvchi dastlabki kuch» metafizik muammosini meros qilib oldi.

Pozitivistik-naturalistik yo'nalishlar jamiyatni tabiatning bir qismi deb tan olib, bu tushunchani ma'lum bir ma'noda empirik holatga olib kelmoqchi bo'ldilar. Jamiyat rivojini ular tabiiy ob'ektiv kuchlar sifatida tushunuvchi, ma'lum bir determinatsiya qiluvchi omillar harakati bilan bog'lamoqchi bo'ldilar.

Ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy qonunlarini izlash va ob'ektiv ma'lumotlarni fanga taqdim etishining ijobiy ahamiyatiga qaramay naturalistik-pozitivistik evolyutsion sotsiologiyaning sust joyi – bu bir yoqlamalik naturalizm (asosan biologik) bo'lib, u tarixni insonning faollik jarayoni deb e'tirof etishga yo'l bermaydi.

U yoki bu tabiiy omillarni sotsial taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi sifatida birinchi pozitsiyaga ko'tarish, ayrim hollarda ma'lum bir tabiiy fanning metodologik namunasi naturalistik maktablarni tasniflashga asos bo'lib xizmat qildi.<sup>1</sup>

Sotsial taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch sifatida u yoki bu tabiiy omillarni ilgari surilishi pozitivistik-naturalistik maktablarni tasniflash imkonini yaratadi.

Masalan, bioorganik maktab asosiy e'tiborini sotsial yaxlitlik strukturasi, irqiy-antropologik maktab – inson biologik xususiyatlarning, asosan irqiy mansubligi va genotipining ijtimoiy hayotga ta'sirini, sotsial darvinizm – yashash uchun kurash va tabiiy tanlov, geografik maktab esa – geografik muhitning ta'sirini mutlaqlashtirdi va h.k.. Quyida biz ularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

2. Sotsiologiyadagi mumtoz tabiiy fan metodologiyasi obro'-e'tibori va undagi mexanistik dunyoqarash, vulgar-materialistik tendensiya xususiyatlarini mexanistik maktab faoliyatida yaqqol ko'rish mumkin.

Bu maktab ta'limoti boshqa ko'pgina naturalistik maktablar uchun yashirin g'oyaviy baza vazifasini o'tadi.

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crichton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 57-58.

Mexanistik maktabga shartli ravishda shunday sotsiologik konsepsiyalarni taalluqli hisoblash mumkin: ular sotsial jarayonlarni va voqealarni jismoniy jarayon va voqealar bilan tenglashtiradilar.

Shuningdek, sotsial olamni tushuntirish uchun keng ma'noda mexanika, fizika, energetika va hokazolarning tushunchalaridan foydalanadi. Mexanitsistlar jamiyatni statistik qismlardan tashkil topgan agregat degan tushunchani keng rivojlantirdilar. Jamiyatning «agregat» konsepsiyasi sotsiologiyada statistik metodni qo'llashga asosiy omil bo'ldi.

XIX asr sotsiologiyasida mexanistik nazariyani keng ishlab chiqqan olim – bu amerikalik iqtisodchi va sotsiolog Genri Charlz Keri (1793-1879). Uning mexanistik g'oyalar aks etgan asosiy asarlari quyidagilar: uch jildlik «Sotsial fan asoslari» (1858-1860), «Jismoniy, sotsial, psixik va axloqiy fanlar munosabatidagi qonun birligi» (1872). U o'zining bu asarlarida Spenserning mexanistik evolyutsiyasini yoqlab chiqadi.

Mexanikaning umumiy reduksionizm mantig'idan kelib chiqib, Keri materiyaning hamma shakllarini boshqaradigan umumiy oddiy qonunlarni izlaydi. Masalan, aholining assotsiatsiya va konsentratsiyasi sotsial shakllarini fizikaning tortishish va itarilish qonunlari bilan tushuntirishga harakat qiladi. Uning uchun inson – bu jamiyatning molekulasi, insonlar assotsiatsiyasi esa «buyuk molekulyar tortilish qonuni» ning bir ko'rinishidir. O'z qarashlarida G.Ch.Keri juda sodda umumlashma va analogiyalarni keltiradiki, unga ko'ra, ishlab chiqarish va iste'mol moddaning oddiy o'zgarishi, savdo-sotiq esa – moddaning makonda almashinuvi va h.k.

XX asr boshlarida tabiatshunoslik fanlaridag inqilob sotsiallikni miqdoriy-mexanistik tarzda tushuntirishga to'sqinlik qila olmadi. Sotsial voqyelikni miqdoriy-mexanistik ravishda tushuntirishga intilgan taniqli ximik olim – bu Vilgelm Fridrix Ostvald (1853-1932) hisoblanadi. O'zining «Madaniyat haqidagi fanlarning energetik asoslari» asarida shuni alohida ta'kidlaydiki, energetika ijtimoiy fanlar uchun evristik tamoyillarni ishlab chiqishga qodirdir. Energetik nuqtai nazardan madaniy jarayon – bu energiyani bog'langanlikka aylanishidir. Qanchalik ko'p miqdorda bog'langan, foydali energiya olinsa, shunchalik madaniyat taraqqiyoti salmoqli bo'ladi. Energiyaning yoyilishi qonuniga asoslangan bu universal mezon

nafaqat ijtimoiy taraqqiyotning ko'lamini o'lchaydi, balki, organizm yashovchanligining uzayishini ham kuzatib borish imkonini beradi.

V.F.Ostvald shu tariqa boshqa sotsiologik va iqtisodiy kategoriyalarni energetizm nuqtai-nazaridan tushuntirishga o'tadi, xususan, ijtimoiy tartib va davlatni energiyaning ijobiy almashinuvi shart-sharoiti sifatida olib qaraydi.

Matematik tabiatshunoslikning ustuvorligi XX asr boshlarida mexanistik tafakkurning keng yoyilishga sabab bo'ldi. Sotsial fizika g'oyalarini V.M.Bexterev, L.Vinyarskiy va A.Barselo, A.Lotka, V.Pareto va boshqalar u yoki bu tarzda rivojlantirdilar<sup>1</sup>.

O'zlarining bir qator jiddiy kamchiliklariga qaramay mexanitsistlarning ayrim xatti-harakatlari sotsiologiya fanining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, ular sotsiologiyada o'lchov va statistika nazariyasini tadbiiq etilishiga baholi qudrat o'z hissalarini qo'shdilar.

3. Darvinizm ta'limoti u yoki bu ko'rinishda sotsiologik ta'limotlar va fikrlarga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan, jumladan bu holat Gabriel Tard, Lester Uord, Franklin Giddings, Emil Dyurkgeym tomonidan bildirilgan nuqtai nazarlar va ilgari surilgan g'oyalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ushbu ko'rsatib o'tilgan mualliflar va boshqa bir qator sotsiologlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda darvinizm ta'limoti farazlarni ishlab chiqishda o'ziga xos turtki beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi yoki yordamchi uslubiy qurol sifatida foydalanilishi qayd qilinadi. Shunday tariqa tabiiy-ilmiy darvinizm sotsial-darvinizm ta'limotiga aylantirilishi kuzatiladi.

Ushbu o'rinda qayd qilib o'tish kerakki, Ch.Darvinning o'zi ham va shuningdek, darvinizm ta'limotining boshqa asoschilari, jumladan Alfred Uolles va Tomas Geksli kabi olimlar ham biologik tushunchalarni bevosita to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy fan sohalariga o'tkazilishiga qarshilik bildirishgan. Shu sababli, keyinchalik «sotsial darvinizm» deb nomlangan yo'nalishning asoschisi sifatida aynan, Ch.Darvinni ko'rsatib o'tish mumkin emas. Evolyutsiya nazariyalarining tamoyillarini tizimli tarzda ijtimoiy fan sohalariga tadbiiq etgan dastlabki vakillardan biri – bu G.Spenser hisoblanadi, u tomonidan tabiiy tanlov, hayot uchun kurash va yashab qolishga

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 59-61.

intilishda moslashish mexanizmlarini belgilab beruvchi qonuniyatlar nafaqat sifat jihatidan biologik mazmunga egaligi, balki ijtimoiy fenomenlar ham hisoblanishi ta'kidlab o'tiladi. Aynan, ushbu muallif tomonidan sotsial-darvinizm ta'limotining asl tamoyillari ishlab chiqilgan, deb hisoblanilsa xato bo'lmaydi.

Sotsial darvinizm mukammal ishlab chiqilgan sotsial oqim hisoblanmaydi. Biroq ushbu ta'limot tamoyillarining boshqa ijtimoiy fanlar sohalarida keng tarqalishi, shuningdek, publitsistika va badiiy adabiyotda aks etishi qayd qilinadi.

Odatda, sotsiologiya tarixiga oid adabiyot manbalarida o'z fikrlarini bildirib o'tgan ayrim sotsial darvinizm ta'limoti vakillari umuman olganda, evolyutsion nazariyaga mutlaqo qarshi fikr bildirishgan bo'lib, ular tomonidan ushbu tushunchadan deyarli foydalanmaslik qayd qilinadi, boshqa ayrim vakillar esa – faqat ushbu ta'limotning ayrim tamoyillarinigina o'zlari ishlab chiqqan konsepsiyalarga moslashtirishlari kuzatiladi. Sotsial darvinizm ta'limoti vakillari orasida o'z nuqtayi nazarlari va qarashlariga ko'ra, vulgar materialistlar va idelistlar ham mavjud bo'lib, shuningdek ijtimoiy «realistlar» yo'nalishida ijod qilgan vakillarda ijtimoiy bir butunlik uni tashkil qiluvchi individlardan tashqari holatda qarab chiqilishi kuzatiladi, «nominalistlar» esa – haqiqiy mavjudlik va mazmun – mohiyatni faqat individlar asosida yondoshish bo'yicha tahlil qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblashadi, bundan tashqari irqilar va antiirqilar, burjuaziya reformistlari (islohotchilar) va ijtimoiy rivojlanishda tartibsizlik tamoyillari tarafdorlari ham o'ziga xos farqlanishga ega fikrlar va g'oyalarni ilgari surishgan<sup>1</sup>.

Agar, sotsial darvinizm maktabining dastlabki yaqqol farqlanuvchi yo'nalishlaridan biri – bu bevosita ziddiyatlar konsepsiyasi asosida shakllangan yo'nalish bo'lib, biologik evolyutsiya nazariyalari asosidagi tamoyillar ishlab chiqilishga olib kelgan, shuningdek ikkinchi yo'nalish – bu bilvosita shakllangan yo'nalishlar yoki boshqa nazariyalarga asoslanuvchi yo'nalishlardan tashkil topadi. Aynan, sotsial darvinizm maktabining keltirib o'tilgan ikkinchi yo'nalishlarida faoliyat olib borgan sotsiologlarning ayrim fikrlariga nisbatan batafsil to'xtalib o'tamiz. Bular: Uolter Bejgot,

<sup>1</sup> Qiziq: Гофман А.Е. Семь лекций по истории социологии: Учебное пособие для вузов. – 3-е изд. – М.: Казанский дом «Университет», 2001. Лекция № 5.

Lyudvig Gumplovich, Gustav Ratsenxofer, Albion Smoll, Uilyam Grem Samner.

Uolter Bejgot (1826-1877) – Angliyalik publitsist, iqtisodchi va siyosatchi olim, o'zining «Fizika va siyosat» kitobida (1872) birinchilardan bo'lib, darvinizm nazariyalarini ijtimoiy fanlarga tadbiq etishga dastlabki urinishlarni amalga oshirgan. Bejgot tomonidan tabiiy tanlovning asosan, kishilik jamiyatining taraqqiyotining boshlang'ich davrlarida ulkan rol o'ynaganligi qayd qilib o'tiladi. Bejgot tomonidan quyidagi fikrlar keltiriladi: «Boshqa sohalarida «tabiiy tanlov qonuniyati»ning amal qilinishiga qarshi fikr bildirish mumkindir, biroq so'zsiz ravishda bu qonuniyat kishilik jamiyati tarixining boshlang'ich davrlarida yetakchi o'rin tutadi, ya'ni bu davrda kuchlilar kuchsizlarni kuchi yetgani darajasida o'ldirishlari kuzatilgan»<sup>1</sup>.

Bejgot tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, dunyoda odamlar o'rtasida yashash uchun kurash qonuniyati asosan individlar o'rtasida emas, balki individlar guruhlari o'rtasida amalga oshadi. Jumladan, birorta millatning boshqalari ustidan hukmronlik qilishga intilishi kuzatiladi, millat ichida esa – ayrim ijtimoiy guruhlarining boshqalari ustidan ustunlik qilishga intilishi qayd qilinadi, va bu holatni Bejgot asosiy ijtimoiy qonuniyatlardan biri sifatida ko'rsatib o'tadi.

Bejgot tomonidan guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlab o'tilishi bilan birgalikda, guruh ichida kuzatiluvchi, taqlid qilish asosida shakllangan jipslikka katta e'tibor qaratiladi. Jumladan, uning o'zi ham Tard g'oyalarining davomchisi sifatida maydonga chiqadi va o'zi ishlab chiqqan konsepsiyaning markaziy g'oyalarini «taqlid qilish» tamoyili asosida bayon qilib bergan.

Bejgot tomonidan taqlid qilish tendensiyalari bilan birgalikda, shuningdek qarama-qarshi mazmun-mohiyatga ega bo'lgan tendensiya ham mavjudligi ta'kidlanadi: ya'ni – odamlarning olg'a intilishlari ularning taqlid qilinuvchi oldingi ajdodlardan farqlanadi va bu holat o'z navbatida, taraqqiyot yuzaga kelishi ehtimolligini belgilab beradi. Bejgot tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, taraqqiyot uchun optimal shart-sharoitlar keltirib o'tilgan har ikkala tendensiyalar o'rtasida o'zaro turli nisbatlar saqlanuvchi jamiyatlarda shakllantiriladi: ya'ni,

<sup>1</sup> Qiziq: O'sha joyda.

bunda yangiliklarning yaratilishini belgilab beruvchi yo'llarning ochilishini ifodalovchi – o'zgaruvchanlik tendensiyalari va ijtimoiy jipslikni ta'minlovchi taqlid qilish tendensiyalari muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi.

Bejgot tomonidan bildirilgan fikrlardan farq qilib, Avstriyalik sotsiolog va huquqshunos olim – Lyudvig Gumplovich (1838-1909) tomonidan bevosita evolyutsion nazariyadan kelib chiqmaydigan konsepsiya ishlab chiqilgan. U biologik o'xshashlik nazariyasiga qarshi fikr bildiradi va Kont, Spenser, Sheffle, Lilienfeld kabi sotsiologlar tomonidan ta'kidlangan: «biologik o'xshashlik sotsiologiyada hech qanday ahamiyatga ega hisoblanmaydi va bu o'xshashliklar faqat bizga timsollarni solishtirish imkonini beradi, biroq hech qanday holatlarda ham ma'lum bir aniq bilimlarni ifodalamaydi...»<sup>1</sup> ko'rinishidagi tanqidiy izohlashlar tarafdori hisoblangan. Bundan tashqari, Gumplovich tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya sotsiologiya tarixida mutaxassislar tomonidan ko'pincha holatlarda sotsial-darvinizm sifatida tasniflanadi va bu holat, eng avvalo, Gumplovichning jamiyatga nisbatan o'zaro va hukmronlik qiluvchi guruhlarga nisbatan ayovsiz kurash olib boruvchi guruhlar birligi sifatida fikr bildirilishidan kelib chiqadi.

Naturalistik konsepsiya tarixida Gumplovich tomonidan «insoniyat – Koinot va tabiatning bir qismi hisoblanadi va unga tegishli bir butunlikni aks ettiruvchi abadiy qonuniyatlarga bo'ysunadi»<sup>2</sup> fikri ilgari surildi. U quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan: «Alfa va omega sotsiologiya, uning oliy mazmun-mohiyati va uning yakuniy so'zi (mahsuli) – bu tabiiy jarayon sifatidagi kishilik jamiyatining tarixi hisoblanadi».<sup>3</sup>

Gumplovich tomonidan keltirilgan sharhlashlarda individ o'zining erkinligi bilan birgalikda yolg'on voqelik (psevdo-realizm) sifatida yoki boshqacha aytganda, ikkinchi tartibdagi voqelik sifatida ahamiyatga ega hisoblanadi. Aksincha, jamiyat, ijtimoiy guruhlar – asl va oliy voqelik hisoblanib, individning determinatsion xulq-atvorini belgilab beradi. Ushbu holatda jamiyat nafaqat uni tashkil qiluvchi

<sup>1</sup> Qarang: Гумплович Л. Основания социологии // Западноевропейская социология XIX – начала XX веков: Тезисы. – М., 1996. – С. 30.

<sup>2</sup> Qarang: Гоффман А.Е. Семь лекций по истории социологии. Учебное пособие для вузов. – 5-е изд. – М.: Книжный дом «Университет», 2001. Лекция № 5.

<sup>3</sup> Qarang: A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 59.

tarkibiy qismlar – individlardan tashkil topgan umumiylik sifatida emas, balki ushbu tuzilish darajasidan yuqori tartibdagi holat sifatida qarab chiqiladi.

Gumplovich fikriga ko'ra, sotsiologiya – bu barcha sotsiologik fan sohalarni o'zaro bog'lovchi, ularning asosini tashkil qiluvchi falsafiy asos sifatida o'rin tutadi. Falsafa tarixidan (uning maqsadi – ko'plab dolzarb masalalarni hal qilishga yo'naltiriladi) farq qilib, uning asosiy vazifasi – insoniyat qayerdan kelib chiqqanligi va qaysi yo'nalishda harakatlanayotganligiga oydinlik kiritishdan iborat va sotsiologiya – ijtimoiy guruhlar va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan hisoblanadi.

U tomonidan ta'kidlanishicha, turli xil ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi uzluksiz va ayovsiz amalga oshuvchi kurash ijtimoiy hayotning asosiy omili hisoblanadi. Gumplovich asosiy ijtimoiy qonuniyat sifatida – «har bir ijtimoiy guruhning o'z yo'lida uchrovchi har bir boshqa ijtimoiy guruhlarni bo'ysindirishi va o'z faoliyatini kengaytirishga, hukmronlikka intilishi»ni ko'rsatib o'tadi.

Gumplovich tomonidan ta'kidlanishicha, tarixda qayd qilingan dastlabki ijtimoiy guruhlar – bu antropologik va etnik belgilarni o'z tarkibiga birlashtiruvchi o'rdalar hisoblanadi. Shuningdek, Gumplovich o'rdalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni izohlashda Samner tomonidan bildirilgan fikrlarga asoslanadi. U tomonidan Samner ishlab chiqqan «etnosentrizm» tushunchasidan foydalaniladi va ushbu tushunchani «har bir xalqning o'z ishonch-e'tiqodidan kelib chiqib, nafaqat zamonaviy xalqlar va millatlar orasida eng yuksak darajada o'rin tutishga intilishi, balki tarixda mavjud bo'lgan barcha xalq va millatlardan ham yuksalishga intilishini» izohlab beruvchi tushuncha sifatida qayd qilib o'tadi.

Gumplovich tomonidan o'rdalar o'rtasida uzluksiz ta'sir ko'rsatuvchi o'zaro qarama-qarshilik kurashlarining holatlari tavsiflab beriladi. Agar, dastlab ular o'rtasidagi o'zaro to'qnashuvlar natijasida mag'lubiyatga uchraganlarning jismoniy jihatdan yo'q qilib tashlanishi amalga oshirilsa, u holda g'olib chiqqanlarning kelajakda ijtimoiy evolyutsiya davomida g'oliblar sifatida faoliyati kengayishi amalga oshadi. Natijada, asta-sekin davlat tuzilmalari shakllanadi. Biroq, guruhlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar yo'q bo'lib ketmaydi. Tamoyil jihatidan guruhlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar yangi shaklda davom etadi: «...boshlang'ich davrlarda antropologik jihatdan turli xil

tavsifga ega bo'lgan o'rdalar o'rtasida kurash amalga oshgan bo'lsa... u holda biz erishgan rivojlanishning oliy darajasida ijtimoiy guruhlar, sinflar, harakatlar va siyosiy partiyalar o'rtasida kurash davom etadi».

Gumplovich tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya tarkibida ijtimoiy guruhlar nisbatan umumiy tavsifda va asosiy bo'lib chiqilishi – hukmronlik qiluvchi va ularga bo'ysinuvchi ijtimoiy guruhlar ko'rinishida ifodalanadi. Bunda keltirilgan har ikkala guruh ham hokimiyatga intilishi kuzatiladi, ya'ni «hukmronlik qiluvchi ijtimoiy guruhlarda bu intilish unga bo'ysinuvchi sinflarning jadal tarzda ekspluatatsiya qilinishi shaklida amalga oshirilsa, bo'ysinuvchi ijtimoiy guruhlarda esa – intilish jarayoni qarshilik ko'rsatish kuchining oshirilishi va o'zining tobelik darajasini kamaytirishga harakat qilish tarzida amalga oshiriladi». Nima uchun guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar antagonistik ziddiyatlar tavsifida amalga oshadi? Bu savolga javob topishda Gumplovich vulgar iqtisodiy materializm va naturalizm nuqtai nazaridan fikr bildiradi. Barcha ijtimoiy jarayonlar, jumladan har qanday ziddiyatlarning yakuniy holatdagi sababi – bu vulgar iqtisodiy materializm mazmunidan kelib chiqadi, bu holat odamning o'zining moddiy ehtiyojlarini to'liqroq qondirishga intilishidan kelib chiqadi. Ushbu holatga bog'liq ravishda, Gumplovich tomonidan quyidagi fikrlar bildiriladi: «har doim va barcha joyda iqtisodiy motivlar har qanday ijtimoiy harakatlarning sababini tashkil qiladi, o'z navbatida davlat va jamiyatning rivojlanishi, taraqqiyotining barcha shart-sharoitlarini belgilab beradi».

Gumplovich tomonidan qayd qilinishicha, ehtiyojlarning qondirilishi bir ijtimoiy guruhning boshqasi ustidan zug'um o'tkazishi, ularni majburlashi yo'li bilan amalga oshiriladi va boshqacha bo'lishi ham mumkin emas.

Ko'p holatlarda, Gumplovich «irq» tushunchasidan foydalanadi (ayniqsa, bu holat uning ijodining boshlang'ich davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi) va hatto, o'zining asosiy asarlaridan birini – «Irk va davlat» deb nomlaydi (1875), shuningdek «Irlar kurashi» (1883) asarini yozadi. Muallif tomonidan irq – bu biologik va shuningdek, ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ta'riflanadi. O'zining «Irlar kurashi» asarida Gumplovich irqlar kurashini – «bir jinsli tarkibiga ega bo'lmagan (geterogen) ijtimoiy va etnik birliklar, guruhlar va

jamoalarning o'zaro kurashi» sifatida keltiradi<sup>1</sup>. Muallif tomonidan biologik irsiyatning taraqqiyotda kam ahamiyatga ega hisoblanishi, bunda odamning xulq-atvori determinatsiyasida ijtimoiy shart-sharoitlar va muhitning muhim o'rin tutishi qayd qilinadi, jumladan hozirgi vaqtda sof holatdagi irqlar mavjud emasligi va shuningdek, irqlarning o'zaro aralashish jarayoni ijobiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Demak, bu holat uning ijtimoiy evolyutsiyada irqlar farqlanishlarining (jismoniy-antropologik nuqtai nazardan) ahamiyatini umuman tan olmaydimi? Bu savolga «yo'q» javobini berish mumkin. Jumladan, Gumplovich bu ko'rinishdagi farqlanishning jamiyat rivojlanishida boshlang'ich bosqichlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanishini ta'kidlaydi. Irqlarga bog'liq omil bu holatda ijtimoiy-ruhiy begonalashish omili sifatida o'rin tutadi va ijtimoiy rivojlanishning navbatdagi bosqichlari esa – boshqa sabablar asosida amalga oshadi.

Gumplovich tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada ko'pgina jihatlar bir-biriga zid keluvchi mazmunga ega hisoblanadi. Shunday qilib, u tomonidan ta'kidlanishicha, jamiyat rivojlanishining boshlang'ich bosqichlarida qayd qilinuvchi masalalar sotsiologiya fanining va boshqa sotsiologik fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblanmaydi. Shu bilan bir vaqtda, muallif tomonidan ushbu rivojlanishning boshlang'ich bosqichlariga katta e'tibor qaratish amalga oshiriladi, jumladan umumiy holatda Spenser tomonidan ilgari surilgan evolyutsionizm g'oyasi asosida murakkab tavsifga ega bo'lgan ijtimoiy tuzilmalar nisbatan odiy tuzilmalarning umumiy yig'indisi sifatida qarab chiqiladi.

Gumplovich tomonidan sotsiologiyaning tadqiqot ob'ekti (falsafa tarixidan farq qilib) – insoniyat emas, balki ijtimoiy guruhlar hisoblanishi qayd qilinadi va shu bilan birgalikda, «sotsiologiyaning xususiy predmeti, ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida insoniyat ko'rsatib o'tilishi mumkinligi» ta'kidlanadi.

Gumplovich tomonidan ishlab chiqilgan nazariyada asosiy ziddiyatli jihat – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarga egaligini qayd qilish va uning odamlarda individual va irqlarga oid jihatlarga bog'liq emasligi ta'kidlansa, boshqa tomondan

<sup>1</sup> Gumplovich B. A., *Сравнение Ю. А. Исследования социальной эволюции*. – СПб, 2002. – С. 224-225.

esa – ijtimoiy hodisalarning yakuniy asosi sifatida hamma joyda va har doim o'zgarimas tavsifga ega bo'lgan inson tabiati, uning o'z ehtiyojlarini qondirishga intilishga moyilligi, hokimiyatga intilishi va hokazo holatlar ko'rsatib o'tiladi.

Gumplovich tomonidan mavjud haqiqiy hodisalardan farqlanuvchi, ijtimoiy hodisalarning alohida tavsifga ega bo'lgan sinflari mavjudligi ta'kidlanadi, bu sinfga mansub ijtimoiy hodisalar deklarativ tavsifga egaligi qayd qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy jarayonlarning naturalizatsiyasi biopsixik reduksionizmga olib kelishi ta'kidlanadi.

Gumplovich tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada ijtimoiy guruhlarining funksiyasi va rivojlanishini ta'minlovchi ichki omillar to'liq baholanmagan. Gumplovich tomonidan ijtimoiy guruhlarining funksiyasi va rivojlanishini ta'minlovchi ichki omillar tizim sifatida o'rin tutishi qayd qilinadi va bir butunlik, shuningdek ma'lum darajada o'zini o'zi determinatsiyalovchi tavsifga ega hisoblanishi keltirib o'tiladi. Bu holatlar Gumplovich tomonidan bir qator sotsial jarayonlarni noto'g'ri baholanishiga olib keladi. Ziddiyatlar va zo'ravonlikning ijtimoiy hayotda asosiy omillar sifatida qarab chiqilishida Gumplovich hamjihatlik asosida jipslashish va hamkorlikning ahamiyatiga e'tibor qaratmagan.

Gumplovich tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya boshqa bir Avstriyalik sotsiolog – «Siyosatning mohiyati va maqsadi» (1893), «Ijtimoiy ong» (1898) va uning vafotidan keyin nashr qilingan «Sotsiologiya. Insoniy munosabatlar haqida pozitiv ta'limot» (1907) asarlarining muallifi hisoblangan Gustav Ratsenxofer (1842-1904) tomonidan ilgari surilgan konsepsiya bilan hamohangdir.

Ratsenxofer tomonidan ijtimoiy hayotning asosiy hodisalari va jarayonlari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: individlarning o'zini o'zi saqlab qolishi va ko'payishi, individual va ijtimoiy tiplarning o'zgarishlari, hayot uchun kurash, irqning mutloq raqiblik kurashlari, makon bo'ylab tarqalish va joylashish, irqarga oid ajralishlar, hukmronlik va tobelik, individualizatsiya va ijtimoiylashish strukturalarining ketma-ketlikda kelishi, manfaatlarining o'zgarishlari, davlat, global jamiyat.

Shunday qilib, Gumplovich singari Ratsenxofer ham o'z fikrlarini monizm tarafdori sifatida bildiradi, ya'ni – jamiyat ham tabiat kabi umumiy qonuniyatlar asosida faoliyat olib borishi ta'kidlanadi, ushbu

holatga bog'liq ravishda tabiat va ruhiy-ma'naviy olam haqidagi fanlarning o'zaro qarama-qarshi qo'yilishini rad etadi. Shuningdek, Ratsenxofer tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy qonuniyatlar kimyoviy qonuniyatlarga, ayniqsa biologik qonuniyatlarga juda yaqin tavsiflarga ega hisoblanadi. Sotsiologiya – bu falsafiy fan hisoblanib, barcha ijtimoiy fanlar va siyosatning asosini tashkil qilishi ta'kidlanadi.

Ratsenxofer ziddiyatlarni asosiy ijtimoiy jarayon sifatida qarab chiqish orqali, asosiy burchakka manfaatlar kategoriyasini qo'yadi. Manfaat – bu ijtimoiy jarayonlarni boshqaruvchi asosiy tamoyil hisoblanadi, shuningdek ijtimoiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi kalit vazifasini bajaradi. Ratsenxofer tomonidan sharhlanishiga ko'ra, sotsial hayot – bu turli xil manfaatlarning o'yini hisoblanadi. U manfaatlarning quyidagi ko'rinishdagi asosiy beshta turini ajratib ko'rsatadi:

- *prokreativ* (avlodni davom ettirishga turtki beruvchi);
- *fiziologik* (ovqatlanish bilan bog'liq);
- *individual* (o'zligini namoyon qilishga intilish bilan bog'liq);
- *sotsial* (qarindosh-urug'chilik va guruhviy aloqalar bilan bog'liq);
- *transsendent* (diniy e'tiqod bilan bog'liq) manfaatlar.<sup>1</sup>

Manfaatlar – bu yashash uchun kurashni belgilab beruvchi, tug'ma biologik ehtiyojlar va impulsarga nisbatan boshqacha mazmun-mohiyatga ega holat hisoblanadi. Ijtimoiy guruhlar individlarning ushbu yo'nalishdagi kurashlari asosida birlashishlari natijasida shakllanadi. Gumplovich fikrlaridan farq qilib, Ratsenxofer tomonidan ijtimoiy jarayonlar yakuniy holatda individlar o'rtasidagi va individlar o'rtasidagi munosabatlarning mahsuli sifatida guruhlar o'rtasidagi turlarga ajratilishi amalga oshiriladi.

Ratsenxofer tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya Amerikalik sotsiolog Albion Smoll (1854-1926) tomonidan ilgari surilgan fikrlar va g'oyalarga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ratsenxoferdan keyin, Smoll tomonidan manfaatlarning sotsiologik tadqiqotlarda asosiy birlik sifatida qarab chiqilishi amalga oshiriladi. Jumladan, uning fikriga ko'ra, manfaatlar – bu atomning fizikada tutgan o'rni kabi sotsiologiyada ham muhim ahamiyatga ega hisoblanishi ta'kidlanadi.

<sup>1</sup> Qarang: «Богословий Г.Е. Неропага композитив: аннотированный текст: учебник для студентов 2-го курса» [М.: МГУ, 2014].

- Сурьян и др. МГО СурТИУ, 2014. - С. 42.

Har qanday ijtimoiy hayot «rivojlanish jarayonida qayd qilinuvchi manfaatlarining moslashishi va qondirilishi»dan tashkil topadi<sup>1</sup>.

Smoll tomonidan «nomuvofiqlikdagi ro'yobga oshirilmagan shart-sharoitlardagi qondirilmagan qobiliyatlar va ko'rsatib o'tilgan shart-sharoitlar ro'yobga oshirilishida ushbu ko'rinishdagi harakatlarga yo'naltirilgan holatlar» kabi yetarlicha darajada batafsil holatda oydinlik kiritilmagan tavsiflashlar keltirilgan<sup>2</sup>.

Sinflar uchun nisbatan umumiy hisoblangan manfaatlar sifatida Smoll tomonidan quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: salomatlik, farovonlik, muloqotlar va munosabatlar, anglash, go'zallik, adolat. Jumladan, manfaatlar quyidagi shakldagi ikkita jihatga ega hisoblanadi: subyektiv, ya'ni xohish-istaklar va obyektiv, ya'ni ehtiyojning his qilinishi, «istalayotgan narsa». Umumiy holatda Smoll tomonidan ijtimoiy hodisa – bu quyida keltirilgan uchta asosiy omillarning o'zaro munosabatlari natijasi hisoblanadi:

- 1) tabiat;
- 2) individlar;
- 3) institutlar yoki individlar o'rtasidagi o'zaro assotsiatsiya usullari.<sup>3</sup>

Barcha mavjud bo'lgan sotsial-darvinizm nazariyalari orasida Smoll tomonidan ilgari surilgan sotsiologiya nazariyasi tarkibida nisbatan sotsial-darvinizmning o'ziga xos belgilari kamroq ko'zga tashlanadi va ko'proq darajada psixologizmga murojaat qilish amalga oshirilgan bo'lib, bu holat uning qarashlariga Uord g'oyalarining ta'siri katta bo'lganligi bilan izohlaniladi. Garchi, Smoll tomonidan ijtimoiy fanlarda ijtimoiy taraqqiyot tarixining ma'lum bir bosqichlarida biologik o'xshashlik holati mavjudligi qayd qilingan bo'lsada, biroq u sotsiologiyaning navbatdagi bosqichlarini biologik o'xshashlik holatlaridan bevosita haqiqiy mavjud ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga o'tish bilan bog'laydi.

Smoll tomonidan bildirilgan fikrlarda ziddiyatlar – bu ijtimoiy hayotning universal omili sifatida qarab chiqilmaydi. U tomonidan ziddiyatlar odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllaridan

<sup>1</sup> Qatag: O'sha joyda. – B. 43.

<sup>2</sup> Морозовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп.

– Сургут и [др.]: ИНО СУРГУТУ, 2014. – С. 43.

<sup>3</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 83.

biri sifatida tahlil qilinadi, bunda ziddiyatlar, asosan, tarixiy rivojlanishning boshlang'ich bosqichlarida asosiy omillardan biri hisoblanganligi ta'kidlanadi.

Smoll tomonidan ishlab chiqilgan konstruktsiya tarkibi konseptual jihatdan qat'iy tartibga ega emas: jumladan, bunda keng ko'lamdagi tushunchalar (assotsiatsiya, ijtimoiy jarayon, fizik muhit, ma'naviy olam, subyektiv muhit, ijtimoiy funksiyalar, ijtimoiy maqsadlar, ijtimoiy kuchlar, qadriyatlar, baholashlar) tahlil qilingan bo'lib, u ularni bitta tizimga solib chiqishga harakat qilmagan.

Smoll ilmiy tadqiqotning to'rtta bosqichini ajratadi: qayd etish, tahliliy, baholovchi va konstruktiv. Unga ko'ra, sotsiologiya baholovchi fikrlardan xoli bo'lishi kerak emas, aksincha, bu uning asosiy vazifasi hisoblanadi. Sotsiologiyadan, Smollga ko'ra, «jamiyatni amaliy jihatdan yaxshilashda vositalarni maqsadlarga» moslashtirishda amaliy foydalanish zarur. Bunda biz Smollning siyosiy reformizmni ko'rishimiz mumkin<sup>1</sup>.

Smoll konsepsiyasi Amerika sotsiologiyasi rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatgani yo'q, lekin uning institutsionallashtirishida katta rol o'ynadi. Yel universiteti professori Uilyam Grem Samner (1840-1910) Amerika sotsiologiyasining taniqli arboblardan biri edi. Samnerning sotsiologiyasining asosiy tamoyillari Spenserdan olingan. Ular birinchidan, sotsial evolyutsiyaning barqarorligi, ikkinchidan, tabiiy tanlovning hamda yashash uchun kurash muqarrarliligi va universalligidan iborat. Bu tamoyillar Samnerning turli, ba'zan hatto juda xususiy, iqtisodiy, siyosiy va axloqiy masalalardagi pozitsiyasini belgilagan.

Sotsial evolyutsiya g'oyasiga asoslanib, Samner ijtimoiy munosabatlarni isloh qilish, yoki inqilobiyashtirish harakatlarini rad etgan. Buni uning "Dunyoni o'zgartirishga bema'ni harakat" (1894) asarining nomidan ko'rish mumkin.

Samner ijtimoiy hayotning barcha shakllarini tartibga solishga aralashmaslik g'oyasini ilgari suradi. Samner "Evolyutsiya nima qilishni o'zi biladi" shiorini ilgari surgan, desak xato bo'lmaydi.

Samnerga ko'ra, evolyutsiya yashash uchun kurash orqali o'ziga yo'l ochib boradi. "Raqobatni gravitatsiya kabi yo'q qilish mumkin emas. Shu munosabat bilan Samner ijtimoiy tengsizlikni davlat va

<sup>1</sup> Qatag: Гоффман А.Б. Семь лекций по истории социологии: Учебник пособие для вузов. – 5-е изд. – М.: Классикай дом «Университет», 2001. Лекция № 5.

madaniyatni tabiiy rivojlantirish uchun zarur shart", deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Tabiiy tanlov g'oyasi uning talqinida ijtimoiy tanlovning tabiiyligi g'oyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Samnerning mafkuraviy qarashlari, Amerika burjuaziyasining o'rta qatlamlarining davlat monopoliya tendensiyalarini rivojlantirishda erkin raqobat uchun qulay shart-sharoitlarga bo'lgan talablari bilan umidlarini ifoda etdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, sotsial darvinizmning o'ziga xos xususiyatlari asosan Samnerning publitsistik chiqishlarida namoyon bo'ldi. Uning sotsiologik asarlariga kelsak, bu yerda ularning nisbati juda kichik. Samnerning asosiy asari – "Xalqlar urf-odatlari" (1906) katta etnografik materiallarni tahlilidan iborat. Urf-odatlar oxir-oqibat uning fikricha, xalqning asosiy biologik ehtiyojlari mahsuli hisoblanadi. O'z ehtiyojlarini qondirish uchun odamlar ma'lum bir faoliyat usullarini ishlab chiqadilar, ular urf-odatlar (guruh darajasida) va ko'nikmalar (shaxs darajasida).

Xalq urf-odatlarini Samner o'ta keng darajada talqin etadi va ularga xulq-atvorning barcha standart shakllarini kiritadi. Urf-odatlarining bevosita sabablari sifatida Samner ikki omilni hisobga oladi. Birinchisi, bu manfaatlar. Odamlar bir-biri bilan yoki atrofidagi flora va fauna bilan kurash olib borishadi. Urf-odatlar, u holda, yashash uchun kurash uchun muayyan turdagi mudofaa va hujum sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, Samner urf-odatlarini insonlar harakatining to'rtta asosiy sabablari mahsulidir (Uilyam Tomasning to'rt istak konsepsiyasiga xos). Bu ochlik, shahvoniy ehtiros, ehtiromga chanqoqlik va qo'rquv. Bu motivlar asosida manfaatlar turadi. Samner urf-odatlar insonning ongli irodasi natijasi emas, deb urg'u beradi.

Samnerning eng mashhur tushunchalari: «in-guruh» va «aut-guruh». Birinchisida guruhlararo ziddiyatlar kuchaygandagi birdamlik tursa, ikkinchisiga etnotsentrizm xos, ya'ni shaxs boshqa guruhlarni o'z shaxsiy guruhiga nisbatan baholaydi.

Samner "ibtidoiy" jamiyatlardagi guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning soddalashtirilgan holatini yaratadi. Darhaqiqat, urug' va qabilalar o'rtasidagi munosabatlarda nafaqat dushmanlik, balki hamkorlik va o'zaro yordam ham mavjud. Uning urf-odatlar

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 85.

konsepsiyasiga biologik reduksionizm xos bo'lib, agar odatlar insonlarning biologik ehtiyojlari natijasi bo'lsa, unda zararli urf-odatlarining kelib chiqishi va uzoq muddat amal qilishi sabablarini tushuntirish mumkin bo'lmay qoladi.

Samner konsepsiyasi shubhasiz afzalliklarga ega. Samner sotsial hayotning me'yoriy jihatlari bilan bog'liq muammolarni birinchilardan bo'lib ko'targan. Ayrim kamchiliklarini hisobga olmaganda, Samnerning etnotsentrizm, «in-guruh» va «aut-guruh» tushunchalari ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari uchun juda muhim hisoblanadi<sup>1</sup>. Lekin uning konsepsiyasining ijobiy jihatlari sezilarli darajada sotsial-darvinizm tamoyillari va hech qanday metodologik tamoyilga asoslanib, yig'ilmagan keng ko'lamlari etnografik materiallari bilan o'z qadr-qimmatini yo'qotadi. Bundan tashqari, Samner uchun metod muammosi mavjud emas. Samnerning sotsiologiya tarixida tutgan o'rnini baholab turib, shuni alohida qayd etish lozimki, agar uning konsepsiyasida biz ratsionalistik holatlarni uchratsak, ular nafaqat uning sotsial-darvinistik tamoyillari bilan bog'liq emas, balki ulardan ancha yiroq hisoblanadi.

4. Jamiyatga nisbatan «organizm» iborasining tadbiq etilishi qadim tarixga ega holat hisoblanadi. Biroq, bioorganik maktab uchun muhim hisoblangan holat sifatida Kont va Spenser tomonidan ishlab chiqilgan va ko'proq evolyutsion biologiya nuqtai nazaridan fikr bildirishga asoslangan – organizmga o'xshatish g'oyasi qayd qilinadi.

Sotsiologiya tarixini o'rganuvchi mutaxassislar tomonidan «jamiyat» tushunchasini organizm tushunchasiga qiyoslovchi, ya'ni oddiy tarkibiy qismlar – alohida individlardan (hujayralar) tashkil topgan organizm emas, balki organizmdan yuqori darajadagi bir butunlik sifatida qarab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblovchi vakillar bevosita bioorganik maktab tarkibiga kiritiladi. Jamiyat – bir butunlik sifatida yangi sifatlarga ega hisoblanishi qayd qilinadi va ushbu nuqtai nazardan, jamiyat uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning shunchaki yig'indisi sifatida qarab chiqilishiga nisbatan ko'proq mazmun-mohiyatga ega hisoblanadi. Bunda bir butunlik uni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlardan yuqori tuzilish darajasi hisoblanishi asosida mantiqiy fikr yuritiladi. Jumladan, bir butunlikni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarning funksiyalari bevosita ushbu

<sup>1</sup> Жорданский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сыктывч [и др.]: РИО СыктГУ, 2014. – С. 44.

tarkibiy qismlar tegishli bo'lgan bir butunlikning funksiyasi asosida qarab chiqiladi.

Bu maktab nazariyotchilari tomonidan ilgari suriluvchi fikrlar va g'oyalarga binoan, ijtimoiy tizimning biologik tizim bilan qiyosiy solishtirilishi ijtimoiy organizmning tuzilishini (ya'ni, anatomiyasi) va funksiyalarini (ya'ni, fiziologiyasini), uning organlarini (ya'ni, ijtimoiy institutlarni) va tarkibiy elementlarini (odatda, individlar yoki oilalarni) bir butunlikka nisbatan va shuningdek, ularning o'zaro bir-biriga nisbatan munosabatlari asosida mazmun-mohiyatini ochib berishi talab qilinadi. Bu ko'rinishdagi uslubiyatning asosini yakka tartibdagi organizmlarning ma'lum bir rivojlanish bosqichida birgalikda «oliy darajadagi organizmlar»ni tashkil qilishi, ya'ni odamlar jamiyati va hayvonlar jamoalarining shakllanishi va taraqqiyotida evolyutsiya jarayoni qonuniyatlarining yagonaligi haqidagi tasavvurlar tashkil qiladi.

Garchi, ushbu maktab vakillari tomonidan ilgari surilgan nazariyalarda tarixiy harakatlanishning o'ziga xos tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan ko'pincha holatlarda ehtiyotkorlik bilan yondoshishlar amalga oshirilishi qayd qilinsada, umumiy holatda ijtimoiy evolyutsiya ichki shart-sharoitlari bilan tavsiflanuvchi, bir tomonlama yo'nalishda rivojlanuvchi va qaytmas jarayonlar amalga oshuvchi evolyutsiya sifatida qarab chiqiladi.

Spenser tomonidan asoslab berilgan differentsiatsiya g'oyalarini va biogenetik qonuniyatni umumlashtirish asosida, bioorganik maktab vakillari tomonidan ijtimoiy jamiyat rivojlanishining kelajakdagi taraqqiyot bosqichlari oldindan aytib berilgan va shuningdek, uning tarixiy rivojlanish bosqichlarining qayta konstruksiyalanishi amalga oshirilgan. Odatda, eng yuqori darajada differentsiatsiyalangan va murakkab tavsifga ega bo'lgan ijtimoiy hodisalar va funksiyalar sifatida vaqt va davrlar nuqtai nazaridan eng kechki muddatlarda yuzaga keluvchi, shuningdek ijtimoiy tebraniylarga nisbatan sezgir hisoblangan va nozik tavsifga ega bo'lgan, o'zgaruvchanlikni namoyon qiluvchi hodisalar va funksiyalar ko'rsatib o'tiladi.

Organik uslubiyatning chegaraviy darajada foydalanilishi asli Germaniyalik hisoblangan, jumladan, o'z asarlarini nemis tilida yozgan va Rossiyada faoliyat olib borgan – Paul (Pol) Liliensfeld (1829-1903) fikrlari va nuqtayi nazarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Liliensfeld tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, kishilik jamiyati

tabiatda mavjud organizmlarga o'xshash tavsiflarga ega bo'lib, shuningdek haqiqiy holatda ular bilan bir butun yagonalikni tashkil qilishi qayd qilinadi.

Shuningdek, jamiyat organizmlardan integratsion xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasi nisbatan kichik qiymatga egaligi bilan farqlanadi. Biroq, ijtimoiy organizmda uni tashkil qiluvchi tarkibiy elementlarning (ya'ni individlar) yuqori darajada harakatchanlik xususiyatiga egaligi, uning faqat yuksak sinfga mansub organizm hisoblanishini anglatadi. Shuningdek, jamiyat tizimining tarkibi odamlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topganligi asosida, jamiyat ham organizmlar bilan bir xildagi funksiyalarni bajarishi qayd qilinadi, ya'ni – ko'payish, o'sish, differentsiatsiyalanish, kasalliklar, o'lim, qayta tiklanish, tarkibiy qismlarning o'zaro integratsiyasi va hakoza xossalar jamiyatda ham kuzatiladi. Sotsiologiya bevosita biologiyaga asoslanishi talab qilinadi va aynan, biologik qonuniyatlardan foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Organik maktabning ko'zga ko'ringan ilg'or vakillaridan yana biri – bu Germaniyalik iqtisodchi va sotsiolog olim Albert Sheffle (1831-1903) hisoblanadi. A.Sheffle o'zi mansub bo'lgan maktab vakillarining ijtimoiy hodisalarni tavsiflashga oid qarashlarida bir butunlik nuqtai nazaridan yondoshuvni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi va o'z navbatida, an'anaviy nemis idealizmini qo'llab-quvvatlaydi. U sotsiologiya fan sohasining tadqiqot predmeti sifatida – odamlar o'rtasidagi o'zaro ruhiy-ma'naviy munosabatlarni qayd qilib o'tadi, shuningdek o'zaro muloqotlarning ideal holatdagi va texnik shakllari va uslublarini ajratib ko'rsatadi. Bu holatlar uning jamiyatga nisbatan bergan ta'rifida o'z ifodasini topadi, ya'ni Sheffle tomonidan jamiyat – bu «organik individlarning sof holatdagi ruhiy aktlar zamirida yuzaga keluvchi, tarkibiy qismlarga ajratish qiyin bo'lgan, birgalikda yashash asosidagi ijtimoiy jamoasi hisoblanishi qayd qilinib, bunda g'oyalar va texnik harakatlarni ifodalovchi ramzlar insoniyat tomonidan ilgari suriluvchi fikrlar va g'oyalarning tashqi ob'ektlar sifatidagi yakuniy maxsulotlarda o'z aksini topuvchi tashqi holatlar bo'lib, foyda keltirish va moddiyatni shakllantirishga yo'naltiriladi»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии. Учебное пособие для вузов. – 5-е изд. – М.: Издательский дом «Университет», 2001. Лекция № 5.

Shuningdek, shaxslarning ijtimoiy nuqtai nazardan birgalikda yashashi biologik organizmlar tarkibida hujayralarning o'zaro organik tavsifida o'zaro bog'lanishlaridan farqlanadi. Ya'ni, ijtimoiy munosabatlarning mazmun-mohiyati fizik-kimyoviy va biologik o'zaro bog'lanishlardan farq qilib, individlarning ramzlarga oid va texnik harakatlarini («amaliy san'at» nuqtai nazaridan) ideal holatdagi (boshqacha aytganda, ruhiy) o'zaro aloqadorliklaridan tashkil topadi.

A.Sheffle tomonidan ijtimoiy-ruhiy o'zaro aloqadorlik holati sof ideal holat sifatida qayd qilinmaydi. Jamiyatning bur butunligi sharti bajarilishi holatida, uni tashkil qiluvchi alohida individlar o'rtasida ruhiy-ma'naviy faoliyatning taqsimlanishi bevosita, o'zaro aloqaga kirishi uchun vosita hisoblangan belgilarning (ramzlar) yaratilishi, aloqa vositalari va ularning funksiyasini ta'minlovchi maxsus yordamchi muassasalarning tashkil qilinishi zaruriyatini yuzaga keltiradi. Faqat ushbu holatdagina, o'zaro ruhiy-ma'naviy munosabatlar «ijtimoiy tana» faoliyatining haqiqiy boshqaruvchisi sifatida o'rin tutadi va uning bir butunligi, o'zar bir-biridan alohidalangan tarkibiy qismlari o'rtasidagi funksional bog'lanishlar ta'minlanadi.

Nisbatan mustaqil holatda mavjud bo'lgan, moddiy ramzlarning yuzaga keltirilishi ularning ehtimolligi mavjud to'planishini yuzaga keltiradi, o'z navbatida ularning uzatilishi, umumijtimoiylik va uzoq vaqt davomidagi barqarorlik (an'analar davomiyligi) ta'minlanishi qayd qilinadi. Shuningdek, jamiyatning taraqqiyoti o'lchovi hisoblangan – ijtimoiy xotira yuzaga kelishi qayd qilinadi. Ajdodlardan avlodlarga tomon yo'nalishda vorisiylik amalga oshirilishida ijtimoiy ongning shakllanishi – sotsiumning yana bitta o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu holat oddiy organik jamoalarda kuzatilmaydi.

A.Sheffle tomonidan barcha mavjud bo'lgan ijtimoiy shakllar va funksiyalarning o'rganilishi asosida, «ijtimoiy organlar va to'qimalar» tomon yo'nalishdagi ijtimoiy anatomiya, ijtimoiy morfologiya va ijtimoiy fiziologiya ajratib ko'rsatiladi, ya'ni bunda jamiyat tarkibidagi mavjud institutlar, tashkilotlar va boshqa ommaviy aholi birlashmalari va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik munosabatlari o'rganiladi, shuningdek tadqiqot predmeti jamiyatning ruhiy-ma'naviy hayoti hisoblangan ijtimoiy psixologiya yo'nalishi ajratib ko'rsatiladi.

A.Sheffle tomonidan bildirilgan fikrlar va nuqtai nazarlarda xususiy biologik o'xshashlikka kam e'tibor qaratilgan bo'lib, nisbatan ijtimoiy-ruhiy tasavvurlarga ko'proq qiziqish bildirilishi qayd qilinadi. Shuningdek, u tomonidan ishlab chiqilgan ta'limot tarkibida «ijtimoiy to'qimalar»ning organizm to'qimalariga o'xshash hisoblangan qismlardan tashkil topgan, beshta umumiy tiplari haqidagi fikrlar ko'proq darajada tanqidiy fikrlarni yuzaga keltirgan. Masalan, beshinchi tip sifatida – ruhiy-jismoniy to'qima qayd qilinadi va bu tip bevosita, jamiyatda ommaviy yoki xususiy nazorat orqali amalga oshiriluvchi, ruhiy-ma'naviy sferada ta'sirga ega hisoblangan institutlarning umumiy qiyofasini belgilab berishi ta'kidlanadi. Uning organik gomologikligi (o'xshashi) sifatida – asab to'qimasi ko'rsatib o'tiladi. Shunday ko'rinishda, A.Sheffle tomonidan boshqa qolgan «ijtimoiy to'qimalar» tiplari ham qarab chiqiladi. Biroq, ushbu «ijtimoiy to'qimalar» faol (amaliy hayot tajribalari to'planishini belgilab beruvchi odamlar) va nafaol tavsifga ega bo'lgan (moddiy boyliklar) tarkibiy elementlarning «ideal» holatdagi o'zaro birlashtirilishi yo'li bilan hosil qilinadi. «Ijtimoiy tana»ning umumiy tashkillanishi – ushbu ko'rsatib o'tilgan asosiy tarkibiy elementlardan tashkil topgan, nisbatan murakkab strukturadan iborat hisoblanadi. «Ijtimoiy tana» o'zining «fiziologik» hayot faoliyatini (funksiyalarini) faqat, o'zining faol tavsifga ega takribiy qismlari (individlar va aholi guruhlari) yordamida va faqat ular uchungina amalga oshirishi qayd qilinadi.

Boshqa organik maktab vakillari kabi, A.Shefflening o'zi ham organik o'xshashlikdan mutlaqo ijtimoiy tushunchalarning nisbatan timsollar asosida, batafsil va yaqqol tarzda oydinlashtirilishi maqsadlarida foydalanganligi doimiy ravishda ta'kidlanadi, ya'ni «ijtimoiy tana» – biologik nuqtai nazardan organizm hisoblanmaydi, hatto ijtimoiy aloqalarning biofiziologik elementi hisoblangan, ijtimoiy munosatlarda nikoh aloqalari ham nisbatan ko'proq darjada ruhiy-ma'naviy tavsifga ega hisoblanishi qayd qilinadi. A.Sheffle tanqidiy fikrlar ta'siri ostida, o'zining ikki jilddan tashkil topgan – «Ijtimoiy tananing tuzilishi va hayoti» asarining uchinchi marta nashr qilinishida (1896) asarning 1875-1878-yillarda nashr qilingan dastlabki to'rtta jildidan tashkil topgan nashriga nisbatan solishtirilganda, organik-biologik solishtirishlardan nisbatan o'rtacha darajada foydalanganligini ko'rish mumkin, shuningdek muallif

o'zining vafotidan oldin, ya'ni 1906-yilda nashr qilgan «Sotsiologiya asoslari» asarida umumiy bir butunlik asosida yondoshuv g'oyasini saqlab qolgan holda, yuqorida keltirilgan tavsifga ega solishtirishlardan deyarli foydalanmagan.

Ushbu ko'rinishdagi evolyutsiya deyarli organik maktabning barcha vakillarida kuzatiladi, jumladan «Xalqaro sotsiologik sharhlar» muharriri hisoblangan Rene Vorms (1869-1926) tomonidan bildirilgan fikrlar va nuqtai nazarlarda ham ushbu ko'rinishdagi o'zgarish ko'zga tashlanadi. U o'zining «Ijtimoiy organizm» asarida o'z fikrlarini organik maktabning vulgar qanoti yo'nalishining tipik vakili sifatida bildiradi. Bunda Vorms bevosita, Lilienfeld singari ijtimoiy to'lqinlarni tavsiflash uchun – «ijtimoiy patologiya» va «jamiyat kasalliklari» tushunchalaridan, shuningdek ijtimoiy islohotlarni tavsiflash uchun esa – «ijtimoiy gigiyena» va «tuzalish», mustamlakalarda kamsitishlarni ifodalash uchun – «jamiyatning ko'payishi» kabi atamalardan keng foydalangan<sup>1</sup>.

Vorms o'zining so'nggi asarlarida o'zining oldin bildirgan bir qator fikrlariga tanqidiy nazar solgan va organik nazariyaning faqat oddiy jamiyatlarni tavsiflash uchun yaroqli ekanligi haqida xulosaga kelgan, shuningdek jamiyatning taraqqiy etishi bilan uni tavsiflash uchun shartnoma nazariyalariga asoslanish yordamida tavsiflash maqsadga muvofiq hisoblangan yangi omillar kuchga kirishi qayd qilib o'tiladi. Ya'ni jamiyat uchun bu rivojlanish davrida asosiy ijtimoiy omil sifatida – odamlar o'rtasidagi o'zaro ruhiy-ma'naviy munosabatlar muhim o'rin tutishi qayd qilinadi.

Shunday qilib, Vorms tomonidan jamiyatning biologik bir butunligi nuqtai nazaridan jamiyatning bir butunligini tushuntirib berishda ruhiy-ijtimoiy nuqtai nazarlardan foydalanishga o'tish holati kuzatiladi.

Garchi, yuqorida keltirilgan maktab vakillari tomonidan jamiyat – tabiatning bir qismi sifatida qarab chiqilishi va uning oliy shakli sifatida tavsiflanishi va o'z navbatida, oliy shakl darajasida qonuniyatlar muhim ahamiyatga egaligi qayd qilinsada, biroq bioorganik maktab vakillarida jamiyatning rivojlanishida mavjudlik (yashash) uchun kurash haqidagi masalalarga sotsial darvinizm masalasiga nisbatan kamroq e'tibor qaratiladi. Masalan, raqobat

<sup>1</sup> Гофман А.Е. Семь лекций по истории социологии: Учебное пособие для вузов. – 5-е изд. – М.: Книжный дом «Университет», 2001. Лекция № 5.

shaklida qayd qilinuvchi jamiyatda yashash uchun kurash Vorms tomonidan biologik moslashish qonuni asosida tavsiflanadi. Shuningdek, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari umumiylikiga qaramasdan, bu qonuniyatlar tabiat va jamiyatda o'zaro farqlanuvchi tavsiflarga ega ko'rinishda namoyon bo'lishi qayd qilinadi. Jumladan, tabiiy tanlanish va hayot uchun kurash qonuniyati odamlar uchun nisbatan og'ir tarzda kechmaydi. Vorms tomonidan hisoblanishicha, «ziddiyatlar asosiy va zaruriy holat hisoblanmaydi, balki mehnat va ijod asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi, shuningdek hayot uchun kurash emas, balki hayotda olg'a intilish muhim o'ringa ega hisoblanadi».

Shuningdek, sotsial darvinizm g'oyalari va odamlarning organik jihatdan birdamligi, patsifizm g'oyalariga qarshi kurash mazmuniga ega ko'plab fikrlar Fransiyada yashab ijod qilgan sotsiolog – yozuvchi Yakov Novikov (1849-1912) asarlarida qayd qilinadi. Ushbu muallif uchun taraqqiyot – bu umumiy muvozanat qonuniyatining alohida o'ziga xos tarzdagi namoyon bo'lishi sifatida o'rin tutadi va «siyosiy nuqtai nazardan» olib qaralganda, «odamlar o'rtasidagi to'liq holatda fikrlar, nuqtai nazarlar birligi va o'zaro hamfikrlilikka erishish» hisoblanishi, ya'ni tafakkur nuqtai nazaridan muvozanat holati sifatida qayd qilinadi<sup>1</sup>.

Odatda, bioorganik maktab vakillari sifatida – Fransiyalik ekletika yo'nalishida faoliyat olib borgan faylasuf va sotsiolog olim – Alfred Fulye (1838-1912), shuningdek biolog va sotsiolog olim – Alfred Espinas (1844-1922) ko'rsatib o'tiladi.

Fulye tomonidan pozitivizm va idealizm g'oyalari birlashtirilishiga harakat qilingan bo'lib, determinizm tamoyillari esa – erkin iroda va personalizm g'oyalari bilan mujasammashtiriladi. U tomonidan jamoaviy, ma'naviy va ruhiy olamdan ijtimoiy olamga tomon yo'nalishda harakatlanish mumkin emasligi g'oyasi himoya qilingan. Fulye tomonidan jamiyat – bu ruhiy jihatdan «kelishilgan» (muvofiqlikdagi) organizm bo'lib, faqat erkin holatdagi shartnoma asosida, ijtimoiy determinizm qonuniyatlariga tayangan holatda, jamoaviy merosiylik bo'yicha individlar orqaligina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holat sifatida qayd qilinadi.

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 72.

Espinas zoopsixologiya va etologiya yo'nalishida faoliyat olib borgan dastlabki vakillardan biri sifatida qayd qilinadi. U tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, hayvonot olamining vakillari o'rtasidagi o'zaro assotsiatsiya holatini o'rganish orqali, ijtimoiy fanlarning yuzaga kelishiga sezilarli ta'sir ko'rsatilgan. Ushbu assotsiatsiyalar va jamiyat o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik hujayralar assotsiatsiyasi va jamiyat o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka nisbatan solishtirilganda chambarchas bog'liqlikka ega hisoblanishi qayd qilinadi.

Organik maktabning umumiy uslubiyati tarkibida sotsiologiya fani tarixida muhim ahamiyatga ega hisoblangan to'g'ri tamoyillar bilan birgalikda, rad etilgan – noto'g'ri tamoyillar ham ishlab chiqilganligi qayd qilinadi. Jumladan, ijtimoiy bir butunlikning tuzilishi va funksional bog'liqliklarning konseptualizatsiyasi ishlab chiqilishiga urinishlar qimmatli ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy bir butunlikning «organizm» sifatidagi umumlashtirilishi masalalari va evolyutsion-genetik tasavvurlar saqlanib qolgan bo'lib, keyinchalik o'zgartirilgan va takomillashtirilgan tarzda funksionalizm tarkibiga va sotsiologiyaning boshqa yo'nalishlari tarkibiga kiritilgan. Garchi, ushbu maktabning asosini tashkil qiluvchi manbalar sifatida evolyutsionizm ta'limoti o'rin tutgan bo'lsada, biroq uning organik uyg'unlik bilan birlashtirilishiga urinishlar muvafaqqiyatli amalga oshirilmagan. Natijada maktab vakillari tomonidan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyati ochib berilishi qoniqarli darajada amalga oshirilmaganligi qayd qilinadi.

Ushbu maktab tarkibida ijtimoiy va madaniy bir butunlikning ehtimolligi mavjud bo'lgan ko'p sondagi tiplari dastlab yagona namuna asosida birlashtirilgan – ya'ni, bunda aynan biologik organizmning bir butunligi tamoyili asosida yondoshishdan foydalanilgan. Biroq jamiyat shunchaki individlarning oddiy umumiy birligidan tashkil topmaganligi, balki ma'lum bir aniq tavsifga ega bo'lgan yagonalikni tashkil qilishidan kelib chiqib, umuman olganda uning bir butunlik xususiyati yakka mazmunga ega hisoblanishi yoki boshqacha aytganda, biologik organizmning bir butunligiga o'xshash tarzda qarab chiqilishi mumkin emasligi ta'kidlanadi, shuningdek ijtimoiy-madaniy jihatdan o'zaro aloqadorliklar biologik aloqadorliklarga o'xshash hisoblanadi. Turli xil obyektlarga nisbatan

ayrim umumiy tavsifga ega shakllarning tatbiq etilishi ularning boshqa munosabatlarda ham yakka mohiyatni tashkil qilishini anglatmaydi.

Shuningdek, ushbu organik maktab vakillarining fikrlarida jamiyat bir butunligining ontologizatsiyalanishi noto'g'ri tendensiya sifatida qayd qilinadi yoki boshqacha aytganda, ushbu bir butunlikning me'yor sifatida qayd qilinishi siyosiy mutaasiblik mazmuniga ega hisoblanishi ko'rsatib o'tiladi, ya'ni – har qanday inqilobiy harakatlar jamiyatda organik jihatdan bir butunlikning buzilishini belgilab berishi, me'yoriy holatlar buzilishi va patologiyalar tavsifiga egaligi qayd qilinadi.

«Ijtimoiy organizm» konsepsiyasining yolg'on pozitiv (pseudopozitiv) shaklining ochiq tavsifdagi metafizik shaklga (masalan, Gegel – romantik shaklga) o'rin almastirilishi orqali, shuningdek oldindan ko'ra olish va «ob'ektiv ruhiyat»ni belgilab beruvchi holatlar o'rniga tabiat qonuniyatlarini qo'yish bilan bioorganik maktab vakillari tomonidan ilgari surilgan nazariyalarda shaxs va yakka tartibda (individual) irodaning ahamiyatini to'liq ochib berish amalga oshirilishi kuzatilmaydi.

Bu maktab vakillari tomonidan odamlar jamiyati va hayvonlar jamoalarining evolyutsiya davomida kuzatiluvchi eng oddiy, elementar belgilarini solishtirish masalalarini muhim o'ringa olib chiqish orqali, ular tomonidan kishilik jamiyatining bebaho hisoblangan o'ziga xos tavsiflarining qimmati to'liq baholanmagan.

5. Jamiyat hayotida geografik muhitning u yoki bu shaklidagi roli masalasini deyarli barcha mutafakkirlar o'z tadqiqotlarining kun tartibiga qo'yganlar. Ijtimoiy-falsafiy tafakkur jamiyat va tabiatni bir-biriga qarshi qo'yib, muhitni (iqlim, relyef, tabiiy boyliklar va h.k.) alohida bir sotsial jarayon va hodisalarga (aholining o'sishi, ishlab chiqarish, siyosiy tuzum) ta'sirini keng miqyosda tahlil qilishga harakat qilib keldi.

Kishilik jamiyati uchun geografik muhitning ahamiyati haqidagi fikrlar ikki xil mantiqiy yo'nalishda vujudga keldi:

1. Mexanik geografik determinizm – shuni alohida ta'kidlaydiki, insonning butun faoliyati faqat tabiiy atrof muhit bilan belgilanadi.

2. Absolyut madaniy determinizm – shunday tavsifa beradiki, muhitni idrok qilish va uni inson uchun ahamiyatini madaniyat

belgilaydi va shuning uchun inson faoliyati faqat kulturologik xususiyatga ega bo'lishi kerak.<sup>1</sup>

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijtimoiy tafakkurdagi geografik yo'nalishni tor ma'nodani geografik determinizm bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Vaholanki, u faqat shu yo'nalishning bir qismigina xolos. Inson – tabiat, madaniyat – muhit degan qarama-qarshiliklar tufayli vujudga kelgan qiyinchiliklardan chiqish uchun tizimli tadqiqotlar XIX asrdayoq boshlanib ketdi, ya'ni inson, madaniyat, va muhitni yaxlit va geografik mintaqaning yagona xususiyati degan qarashlar quloq yoza boshladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ch.Darvinning «Tabiiy tanlov» nazariyasining kuchli ta'siri ostida geografik determinizm g'oyasi keng ma'nodagi mavqeyga erishdi. Sotsial geografiyaning e'tiboriga sotsiologiyadagi geografik yo'nalishlar ixtiyoridagi shunday tabiiy omillar – iqlim, tuproq, relyef, suv resurslarining taqsimoti, foydali qazilmalar, flora va fauna, geofizik va kosmik jarayonlar, yil fasllarining o'zgarishi va h.k.lar kirib keldi.

Yuqorida ko'rsatilgan omillarga bog'liq bo'lgan asosiy sotsial hodisalar sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. Aholining yer sharida joylashishi va zichligi, uni salomatligi va ko'payishi.
2. Tana tuzilishidagi, temperamentdagi, axloq shakllaridagi, iqtidorlilar tug'ilishi holatlari takroriyliigi va h.k.larda jismoniy va psixik irqiy tafovutlar.
3. Mashg'ulot va xo'jalik yuritish faoliyati turlari, uni tashkil etish, aholining farovonlik darajasi.
4. Sotsial-siyosiy tashkillashtirish, sotsial institutlar va nikoh turlari.
5. Madaniy aloqalar va o'zaro almashinuv imkoniyatlari, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tezligi.
6. Din, mifologiya, san'at, adabiyot kabi ijtimoiy hayotning barcha boshqa ko'rinishlari.<sup>2</sup>

Geografik determinizm tamoyilini klassik tabiatshunoslikka asoslanib, fransuz faylasufi Viktor Kuzen (1792-1867) shakllantirib

<sup>1</sup> Фурман Е.А., *История географии. Учебный курс*. – Томск, 2009. – С. 33-34.

<sup>2</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 59.

berdi. «Menga mamlakatning xaritasi, uning tuzilishi, iqlimi, suvi, havosini, uning tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosini bering va men bu mamlakat odami qanday ekanligi, tarixda bu mamlakat bir davrda emas, balki barcha davrlarda qanday rol o'ynashini, tasodifga asoslanib emas, balki qonuniyatga asoslanib, oldindin aytib berishga jur'at eta olaman», - deb yozgan Viktor Kuzen<sup>1</sup>.

Ingliz tarixchi-pozitivisti Genri Tomas Bokl (1821-1862) tarixiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlarini asoslash maqsadida ma'lum bir landshaft, iqlim, tuproqning unumdorligi, oziqlanishdagi farqlar xalqlar o'rtasida ong, gavda tuzilishi, boyliklarni to'plash, keyinchalik sotsial tashkillashtirish va nihoyat tarixiy taqdirini belgilab berganligi haqida ko'plab misollarni keltirgan. Lekin, u sotsiallikning eng yuqori rivojlanish bosqichlarida aql-zakovat omillari jismoniy omillardan ustuvorlikka erishishini ham e'tirof etadi.

Bokl iqtisodiy geografiya va sotsiologiyaning bir necha oqimlariga ta'sir ko'rsatdiki, natijada ularning ayrimlari u yoki bu jamiyatning ishlab chiqarish xususiyati va hajmi, asosiy iqtisodiy funksiyalari va h.k.larni aniqlash uchun go'yoki uning tabiiy boyliklari, energiya manbalari, tabiiy aloqa yo'llari haqida ma'lumotga ega bo'lishning o'zi kifoya, deb ta'kidlaganlar.

Geograflar ham, pozitivistik tarixshunoslikka xos xatolarni takrorlab, moddiy omillarning jamiyat taraqqiyotidagi rolini ochib berishga harakat qildilar.

Taniqli olim, nemis sotsiogeografi Karl Ritter (1779-1859), Aleksandr Gumbolt (1769-1859) bilan bir qatorda zamonaviy geografiya asoschisi hisoblanadi. Ritter uchun tabiat va madaniyatning o'zaro ta'sirlashuvi, konkret geografik muhitni tarixan shakllantiradigan barcha elementlarining o'zaro aloqadorligi g'oyasi yo'naltiruvchi metodologiya bo'lib xizmat qildi. yer bir-biri bilan ichki aloqador yaxlit regionlarga bo'linuvchi yagona «organizm» hisoblanadi. Bu regionlar chegaralarini to'g'ri aniqlab olish uchun ularning landshafti, iqlimi, o'isimlik dunyosi (ayniqsa madaniy), hayvonot dunyosi, hatto bu elementlar bilan insonning tarixiy o'zaro ta'sirlashuvi va h.k.larni har tomonlama to'liq va mukammal qayd etish lozim.

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 59.

Ritter ta'limotining ijtimoiy fanlar uchun ahamiyati shundaki, inson va tarix uning geografiyasida muhim o'rinni egallaydi. Geografiya, Ritterning fikriga ko'ra, inson qanday qilib o'zini o'rab turgan makonga ta'sir ko'rsatadi va o'zi qulay yoki og'ir sharoitlarda qanday qilib tarbiyalanadi, degan savollarga javob berishi kerak. U yoki bu sohaning gullab-gurkiragan davri Ritterning e'tiborini tortardi, chunki aynan shu davrda u tabiat va madaniyat garmoniyaning eng yuksak darajasiga erishgan bo'ladi, deb hisoblardi.

Ritter asarlarida keyinchalik geografiya va sotsiologiyaning turli sohalarida differensiyalashtirilgan bir qancha mavzular organik tarzda birlashtirilgan edi. Undan keyin geografiyani ikki qismga ajratish tendensiyasi paydo bo'ldi: jismoniy (moddiy) geografiya va sotsial, yoki antropogeografiya. Keyingisidan turli davr va turli davlatlarda iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, madaniy va statistik geografiyalar ajratilgan.

Antropogeografiyaning, shuningdek, siyosiy geografiyaning shakllanishida nemis zoologi, jurnalist-sayohatchisi, sotsiologi, hayotining ikkinchi yarmida esa Leypsig universitetining geografiya fanlari bo'yicha professori Fridrix Ratsel (1844-1904) juda katta rol o'ynagan.

Antropogeografiyaning predmetini Ratsel XIX asrga xos an'anaga ko'ra geografik muhitda o'zini qanday namoyon etishiga ko'ra inson irqini o'rganishdan iborat, deb belgilaydi. Ratsel ma'lumotiga ko'ra biolog sifatida naturalizm mafkurasiga mos ravishda biologiya, etnografiya va geografiya metodi va tushunchalarini birlashtirishga harakat qilgan. Antropogeografiya, uning fikriga ko'ra, umumiy biogeografiyaning bir qismi bo'lishi va siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotni o'rganishda oddiy ekologik va evolyutsion tushunchalardan foydalanishi kerak.

O'zining «Siyosiy geografiya» (1897) asarida Ratsel geografik determinizmga xos xatoga yo'l qo'yib, tabiiy muhit xususiyatlari bilan inson amaliyoti o'rtasida bevosita sabab-oqibat munosabatlari mavjudligini ta'kidlaydi.

Muhit ta'sirining barcha oqibatlarini u statik (asosan individlarning doimiy biopsixik xususiyatlarini belgilab beruvchi) va dinamik (sotsial-siyosiy tashkillashtirishning o'zgarib turuvchi tarixiy natijalari). Ming yillar davomida geografik omillarning, ayniqsa iqlim va makon joylashuvining bevosita ta'siri turli hududlarda yashovchi insonlar guruhlarini o'rtasidagi somatik va ruhiy tafovutlar sababi

hisoblanadi. Tog' hamda muhitning chegaralanganligi aholida an'anaviylik, boriga qanoat qilish, tor doiradagi millatchilik xususiyatlarini tarkib toptirsa, tekislik va dengiz – makonga nisbatan sog'inchli qayg'u, ekspansiya<sup>1</sup> ruhi va ilg'or tashabbuslarni keltirib chiqaradi. Tabiiy chegaralar (tog', dengiz), go'yoki yaxshi rivojlanmagan siyosiy hokimiyatga izolyasiya qilingan sotsial guruhlarning paydo bo'lishiga, tekisliklar esa – ko'chmanchilardan himoyalaniş maqsadida markazlashuv va kuchli rivojlangan hokimiyatga, keyinchalik esa katta ijtimoiy va madaniy jihatdan integratsiyalashgan davlat tashkiloti paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Til va madaniyatning yoyilishi ham xuddi shu qonunlarga bo'ysunadi. Davlatlar, xuddi tirik organizmlar singari tabiiy o'sish va pasayish jarayonlariga tobe holda yashaydi, shuning uchun qat'iy chegaralanmasligi lozim. Areal, makon (Raum) va joylashish (Lage) – davlatlarning shakllanishida juda muhim omillar. Millat yoki madaniyatlarni siqib chiqarish ularning ekspansiya va o'z geografik joylashuvini yaxshilay olish xususiyatiga bog'liq.

Aynan mana shundan biologik analogiyalarni siyosiy mafkuraga aylantirishga bir qadam qoldi. Bu qadamni Karl Xausofer (1869-1946) boshchiligidagi Germaniya geosiyosat maktabi qo'ydi. U go'yoki davlatlarning siyosiy taraqqiyoti va ekspansiyasi geografik determinantlanganligi tendensiyalari to'g'risidiga «ta'limot»ga asos soladi. Bu qayg'uli argumentlar oxir-oqibat Germaniyaning fashistik agressiyasini oqlash yo'lida xizmat qiladi. «Geosiyosat» termini muallifi, shved olimi Yuxan Rudolf Chellen (1864-1922) ham Ratsel ta'siri ostida bu tushunchani davlat – geografik organizm to'g'risidagi ta'limot sifatida talqin etgan, bunda geografik determinizm, sotsial darvinizm, biologik-organik va irqiy-antropologik nazariyalar tushunchalarini eklektik tarzda birlashtirgan.

XX asr boshlarida Amerika environmentalizmi (lot. environment muhit) ijtimoiy fanlardagi geografik yo'nalishining ko'pgina mavzulari va shu bilan birga xatolarini ham meros qilib oldi. Undagi nisbatan yangilik geografik determinizmning mashhur farazlarini statistik va boshqa «qat'iy» metodlarga tayangan holda tekshirishga moyilligi bo'ldi. Environmentalizm asoschisi Ellen Sempl, bevosita Ratsel targ'ibotchisi hisoblanib, ma'lum bir hududda inson hayotiy

<sup>1</sup> Yet husharlarni va bozorlarni egallab olish maqsadida boshqa mamlakatlarga siyosiy va iqtisodiy ta'sirini yoyish siyosati.

faoliyati ustidan moddiy makonning «nazorat qilishi» g'oyasini ilgari surgan.

Environmentalizmning taniqli vakillaridan biri amerikalik geograf, geolog Ellsuort Xantington (1876-1947) hisoblanadi. Statistika, paleobotanika, iqlimshunoslik, tarix, demografiya va boshqa fanlarning metodlari va ma'lumotlaridan (ko'pincha xato) foydalanib, u iqlim o'zgarishi («pulsatsiyasi») va sivilizatsiyaning o'sishi yoki so'nishi o'rtasida mustahkam korrelyasiyalar mavjudligini asoslashga harakat qilgan.

Asosiy aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: 1) iqlim aholining salomatligiga ta'sir ko'rsatadi; (bu ta'sirni baholash uchun Xantington bir oylik o'lim ko'rsatkichlari va temperaturani olgan, zamonaviy tajriba tadqiqotlariga tayangan va h.k.); 2) iqlim jismoniy va aqliy faollikka, mehnatning unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi, va bundan kelib chiqib jamiyatning biznes va iqtisodiy o'zgaruvchilari silkinishlarini keltirib chiqaradi; 3) sivilizatsiya millatning energiya va ishlab chiqarish funksiyasi hisoblanganligi bois, iqlimning ijobiy yoki salbiy silkinishlari uning o'sishi yoki so'nishini shartlab qo'yadi.<sup>1</sup>

Xantington va environmentalistlarning «abadiy qonunlari» faktlar bilan asosli tekshiruvdan o'ta olmadi, lekin ularning ayrim kuzatishlari va farazlari mutaxassislar (biolog, iqlimshunos, psixiatr va boshq.) tomonidan yanada tor doirada qo'llab-quvvatlandi. Adolf Kettle, keyinchalik esa Chezare Lombrozo ham o'z davrida jinoyatlarning «mavsumiy» silkinishi chastotalarini qayd etgan edi.

Zamonaviy Amerika sotsiogeografiyasida qat'iy determinizm va miqdoriy yondoshuvga intilish oldindan aytib berish ehtimoli yuqori bo'lgan cheklangan modellardagina saqlanib qolgan. Environmentalizm o'z muammosi doirasini global doirada emas, balki tor xususiy doirada o'rganmoqda.

XIX asr oxiridan boshlab AQSH environmentalizmiga reaksiya sifatida «madaniy geografiya» rivojlandi. U madaniyatning antropologik g'oyasini ilgari surdi (Alfred Kreber va boshq.). U o'zining asosiy e'tiborini o'z yashash muhitini o'zgartiruvchi inson faoliyatiga qaratdi. Yer yuzasi inson turmush tarzining, uning tarixiy o'tmishining izi sifatida, u yoki bu madaniyat yoyilishining guvohi sifatida olib qaraldi.

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. - P. 63.

Insonning tabiat bilan o'zaro ta'sirlashuvidagi faol roliga urg'u berish zamonaviy sotsial ekologiyaning asoschilaridan biri bo'lmish Frederik Le Ple (1806-1882) maktabidan boshlab fransuz sotsiogeografiyasiga xos hisoblanadi. U inson hayotini belgilab beruvchi omillarning uchtasi birda yaxlit bo'lgan formulasini ishlab chiqdi: yashash joyi, mehnat, oila.

Bu maktabning ilg'or vakillari Anri de Turvil (1843-1903) va Edmon Demolen (1852-1907) bo'lgan. Demolen o'zining «Xalqlarning buyuk yo'llari» (1901) nomli asosiy asarida katta tarixiy material asosida geografik determinizmga xos an'anaviy xatolarga yo'l qo'yib, geografik joylashuv va sotsial tashkillashtirishning turli xususiyatlari, mehnat shakllari, mulkchilik shakllari va h.k. o'rtasidagi aloqalarni ochib beradi. Demolenga ko'ra, tarixiy taraqqiyotning ilk davrlarida cho'lda yashash cho'ponchilik bilan shug'ullanishni belgilab bergan, chunki ko'chmanchi uchun yerga egalik qilishdan ko'ra cho'lda erkin harakatlanish imkoniyati muhimroq hisoblanadi.

Geografik psevdodeterminizmning dushmani sifatida fransuz «possibilizmni» (fran. possibilite imkoniyat) olish mumkin. Bu yo'nalish vakillari individlarning bir xil tabiiy sharoitlarga reaksiyasi xilma-xilligi va tug'ma xususiyatlaridan kelib chiqib, turli darajada rivojlangan madaniyatlar uchun hayotda bir xil muhit mavjud bo'lmaydi, deb hisoblaydilar. Possibilizm muhitning statik konsepsiyasini batamom yo'q qildi. Bu oqim ilgari surgan tarixiylik doimo savolni konkret qo'yish lozimligini taqazo etdi: muhit nima uchun va kim uchun, mazkur madaniyat uning qaysi imkoniyatlaridan foydalanadi.

Fransuz sotsiogeografiya maktabi asoschisi Pol Vidal de la Blash (1845-1918) geograf va tarixchi edi. Uning tadqiqotlarida muhitning u yoki bu turmush tarzini belgilab berishi emas, balki turmush tarzining almashishi natijasida muhit boshidan kechirishi mumkin bo'lgan muntazam tarixiy o'zgarishlar diqqat markazini egallaydi. Vidal uchun landshaft – voqea-hodisalarning tabiiy almashinuvi natijasi emas, balki kelajak avlod yashashi uchun yangi shart-sharoitlar yaratayotgan inson mehnati mahsulidir.

Vidalning asarlari XX asr yirik fransuz tarixchilaridan – Lyusen Fevr (1878-1956) va Mark Blok (1886-1944) qarashlariga ta'sir ko'rsatdi.

Fransuz sotsiogeografiyasining hissasi nemis geosiyosatining reaksiyon psevdodeterminizmini fosh etganligi bo'ldi.

Geografik yo'nalish xatoliklarga yo'l qo'ysada, uning muammolari doirasi bugungi kunda yo'q bo'lib ketgani yo'q. Bugungi kunda, insonning tabiatga ta'siri kuchayib borayotgan bir davrda uning inson hayoti uchun muhim ahamiyati va faoliyati bilan uzviy bog'liqligi ortib bormoqda. Shunisi aniqki, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish faqatgina uning tabiiy qonunlariga amal qilinganda va yaxlitlikning asosiy aloqalarini hisobga olgandagina muvaffaqiyatli kechishi mumkin, aks holda salbiy oqibatlar tabiatning bir bo'lagi sifatida insonning o'ziga ham ta'sir ko'rsatadi.

6. Sotsiologiyadagi naturalizmning g'oyaviy ma'nodagi eng reaksiyon ko'rinishi sifatida irqiy-antropologik yo'nalish namoyon bo'ladi. Rasizm (irqchilik) sotsial-psixologik fenomen sifatida o'zining uzoq tarixiga ega bo'lsada, fan va uning obro'-e'tiboriga tayanishini XIX asrdan boshlaydi.

O'zining xilma-xil konsepsiyalariga ega bo'lishiga qaramay, bu maktab vakillari qarashlari negizining umumiy postulatlar mavjud. Ular quyidagilar:

- 1) sotsial hayot va madaniyat irqiy-antropologik omillar hosilasidir;
- 2) irqlar bir-birlari bilan teng emasdir va bu o'z navbatida ularga xos madaniyatlarning teng bo'lmasligini shartlaydi;
- 3) insonlarning sotsial xulq-atvorlari to'laligicha yoki asosan biologik vorisilik bilan shartlangan;
- 4) irqlarni aralashtirish zararlidir.<sup>1</sup>

Ushbu tezislarning hammasini XIX asrda ilk marotabi kengaytirilgan shaklda fransuz faylasufi, yozuvchisi va diplomati Artyur de Gobino (1816-1882) o'zining to'rt jildlik «Inson irqining teng emasligi haqidagi tajriba» asarida bayon etgan. Gobino sotsial institutlar irqlarning hayot faoliyatini belgilamasligini, balki, aksincha, irq sotsial institutlarni belgilashini isbotlashga urindi.

Gobino aynan irq sohasida sivilizatsiyaning so'nishi yoki yo'q bo'lib ketishi muammosi yechimini topishga harakat qilgan.

<sup>1</sup> Qarang: Жероковский Г. И. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. выпр. и доп. - Сыктывкар [и др.]: ПНО СыктДИУ, 2014. - С. 44.

Pessimist sifatida, u barcha sivilizatsiyalarning, xususan, yevropa sivilizatsiyasining ham halokati muqarrar ekanligini qayd etgan. Irqlarning qo'shilishi («oq» irqning majburiy ishtirokida) ilk davrlarda sivilizatsiyani rivojlantirish omili bo'lgan bo'lsa, keyinchalik uning yo'q bo'lib ketishiga olib boradi. Bu yerda tavitologiyani kuzatish mumkin. Bundan Gobinoni sivilizatsiyaning «yashab qolishi» emas, balki irqning «yashab qolishi» qiziqirganligini ko'rish mumkin bo'ladi, chunki u aynan irqni sotsial-tarixiy jarayon subyekti sifatida olib qaragan.

Irqchilik Gobinoning elita nazariyasining davomidir. U sotsial tenglikning barcha shakllariga qarshi bo'lib, «haqiqiy» ierarxiya va bu ierarxiya ichidagi «haqiqiy» elitani kashf etmoqchi bo'ldi. Irqiy ierarxiyani Gobino uch pog'onali narvon sifatida ko'radi: yuqori pog'onada «oq» irq, o'rta pog'onada «sariq» irq, quyi pog'onada esa «qora» irq joylashgan bo'ladi.

Gobino «oq» irqning ustuvorligini ta'kidlab, bu irq go'yoki hamma sivilizatsiyani yaratish va rivojlantirishda bosh rolni o'ynashi kerak. Yana Gobino fikricha «oq» irqning ichida ham o'ziga xos ierarxiya bo'lib, uning cho'qqisida «oq suyak»lar joylashgan bo'ladi.

Boshqa bir irqiy ta'limotni ingliz olimi (kelib chiqishi nemis) Xauston Styuart Chamberlen (1855-1927) ishlab chiqqan. Uning asosiy asari – «XIX asr asoslari» (1899) bo'lib, u Germaniyada bir necha bor nashr etildi.

Chamberlenning fikricha, yevropa tarixining eng buyuk yutug'i – bu «Tevton» madaniyatining yaratilishi bo'lib, u mavjud madaniyatlarning eng yuqori cho'qqisidir. «Tevton» irqi «oq suyak» irqining merosxo'ridir.

Chamberlen german fashizmining g'ayriinsoniy afsonalarini yaratishga o'zining «ahamiyatli hissasi»ni qo'shdi. Natsizm nazariyotchilari unga «Xalq mutafakkiri» degan unvon berganliklari bekorga emas. Irqiy-antropologizmning yana bir ko'rinishi sifatida antroposotsiologiya deb ataluvchi yo'nalish mavjud bo'ldi. Bu yo'nalishning asosiy vakillari fransuz antropologi Jorj Vashe de Lyapuj (1854-1936) va nemis antropologi Otto Ammon (1842-1916) hisoblanadi.

Lyapuj Gobinoni irqiy antropologiyaning asoschisi deb hisoblab, Chamberlenni esa «karikaturist» sifatida ta'riflaydi. Lyapujning asarlari antropometrik ma'lumotlar, ayniqsa bosh ko'rsatkichlarining

qiyosiy statistik tahlilini\* sharhlashga asoslangan. Uningcha, antroposotsiologiyaning tadqiqot predmeti sifatida irq va sotsial muhitning o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Lyapunov sotsial darvinizm ta'siri ostida o'z ta'limotiga sotsial tanlov tushunchasini qo'llaydi. Sotsial tanlovning oltita asosiy shaklini ajratib ko'rsatadi: harbiy; siyosiy; diniy; axloqiy; huquqiy; iqtisodiy.<sup>1</sup>

Bu shakllarning barchasi ijtimoiy taraqqiyotga halokatli ta'sir ko'rsatib, uning natijasida «qimmatli» irqiy tur – oq-malla dolixotsefal (boshicho'ziqlik) kamayib ketayapti, hatto umuman yo'q bo'lib ketishi mumkin. Lyapunov fikriga ko'ra, tarixiy davrlardan buyon bosh ko'rsatkichi o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bu antropologda biz inson bosh miya ko'rsatkichi hajmi va uni sinfiy tabaqasi o'rtasidagi universal aloqa haqidagi «qonuni»ni ko'rishimiz mumkin. Boshqa bir «qonuni»da u inson bosh ko'rsatkichlari bilan uning sinfiy mansubligi o'rtasidagi universal aloqani topishga harakat qiladi.

Xuddi shunday tezisni antroposotsiologik maktabning yana bir vakili Otto Ammonda ham uchratish mumkin. Ammon rekrutlar va talabalar o'rtasida bir qator antropometrik tadqiqotlar o'tkazadi. O'zining «Ijtimoiy tartib va uning tabiiy asoslari» (1895) asarida u sotsial institutlarni tahlil qilishda sotsial darvinizm va irqchilik tamoyillarini birlashtirishga harakat qiladi.

Antroposotsiologlar ta'limotlarining soxtaligi ular o'zining mavjudligi bilan antroposotsiologiya «qonunlari»ni puchga chiqaruvchi buyuk insonlar – braxitsefallarni soxta braxitsefallarga kiritishga majbur bo'lganliklarida ayon bo'lib qoladi.

Lyudvig Voltman (1871-1907) asarlarida ham irqchilik va sotsial darvinizmni sintezlashgi urinishni ko'rish mumkin. Voltmanning ko'plab asarlarida qo'pol primitivizm va «nemis» irqi ustunligini isbotlashga yo'naltirilgan uydirmalarni ochiqchasiga fan sifatida parodiyalashtirishni ko'rish mumkin. Uning konsepsiyalari irqiy xurofotni ratsionalizatsiyalashtirish sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, irqiy-antropologik yo'nalish «Oliy» irq, «Tanlangan» xalqlar uchun nazariyot bo'lib xizmat

\* Antropologiyada bosh ko'rsatkichi sifatida boshning eng katta kengligining uning eng katta uzunligiga nisbati froyd o'lchadi. Bu tushuncha fanga shved anatomi A. Retzius tomonidan XIX asrning 40-yillarida kiritilgan.

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 69.

qilib, nafaqat sotsiologiyaning ichidagi reaksion ta'limot bo'ldi, balki mohiyatga ko'ra antisotsiologiya bo'lib, mazmun kasb etadi. Chunki, agarda biz sotsiologiyaning predmeti deb – jamiyatni e'tirof etsak, irqiy-antropologizm esa irqni ijtimoiy tarix, jarayon, harakatning bosh hamda asosiy subyekti deb talqin qildi. O'zining g'ayriinsoniy mazmuni tufayli bu reaksion ta'limot sotsiologiya tarixida salbiy ma'no kasb etdi va hych qanday istiqbolga ega bo'lmadi.<sup>1</sup>

Garchi XX asrning birinchi yarmida burjuaziya tizimida faoliyat olib borgan ko'plab sotsiologlarning fikrlari boshqacha bo'lsada, ushbu konsepsiyalar keskin tanqid qilingan, jumladan – ijtimoiy hodisalarning biologizatsiyalanishi yaqqol anaxronizm tavsifiga ega bo'lib, naturalistik maktab vakillari tomonidan sotsiologik fikrlar va g'oyalar tarixining boshi berk ko'chaga olib kiritilishi sifatida ta'riflanadi.

Biroq genetika, ekologiya va etologiya fan sohalarida qo'lga kiritilgan yangi yutuqlar bilan bog'liq holatda, ushbu yo'nalishdagi bahs-munozaralar yana qaytadan jonlantirilgan.

So'nggi yillarda horijda biologik va ijtimoiy fanlarning «yangicha sintezlanishi» sifatidagi – «ijtimoiy biologiya» sohasi haqida ko'p sonda maqolalar nashr qilinmoqda, bunda molekulyar va populyasion genetikadan tortib, xulq-atvor psixologiyasi va ergonomika fan sohalarigacha tahlillar amalga oshirilishi qayd qilinadi. Bu «yangicha sintez» eski biologik – evolyutsiya asosida shakllangan maktablar tomonidan to'plangan bilimlarda ijtimoiy va biologik bilimlar sohalarining integratsiyalanishiga urinishlar asosidagi muddatidan oldin amalga oshirilishgan sintezga qarama-qarshi qo'yiladi, ular tomonidan qayd qilingan ayrim konsepsiyalar spekulyasiya tavsifiga egaligi ta'kidlanadi. Biroq, masalalarning merosiyliigi va ularning qo'yilishi, hal qilish uslublarida ma'lum bir mutanosibliklar mavjud hisoblanadi. Jumladan, «superorganizm» g'oyasi yo'nalishidagi tadqiqotlar yana qaytadan boshlanishi kuzatilmoqda. Shuningdek, odamlarning ijtimoiy hayotdagi xulq-atvorlariga o'xshab ketadigan, hayvonlarning jamoaviy tavsifdagi xulq-atvori va o'zaro kommunikatsion munosabatlari tizimini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratish kuzatilmoqda. O'z-o'zidan bu ko'rinishdagi yo'nalishlarda amalga oshiriluvchi ilmiy tadqiqotlar sezilarli natijalarga olib kelishi

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 71-74.

mumkin va bu tadqiqotlarda ko'plab mamlakatlarning olimlari ishtirok etishmoqda.

Biroq, bunda ayrim naturalistik konsepsiyalarning ham yangidan ko'tarib chiqilishi holatlari kuzatilmoqda, masalan, kishilik jamiyatining tarixiy evolyutsiyasi va uning rivojlanish shakllarining ijtimoiy tashkilotlar nuqtai nazaridan uning genofondiga bog'liqligi, ya'ni bu genofondning go'yoki ijtimoiy xulq-atvorni belgilab berishi haqidagi g'oyalar ko'tarib chiqilishi qayd qilinmoqda.

Shuningdek, garchi ushbu urinishlar asosini tabiiy-ilmiy tavsiflashlar va nazariy konstruksiyalarni ishlab chiqishga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish tashkil qilsada, hayvonlarning xulq-atvorida kuzatiluvchi holatlarning odam xulq-atvoriga nisbatan mexanik tadbiq etilishiga urinishlar amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Ushbu holatga bog'liq ravishda, ijtimoiy biologizmning zamonaviy olamdagi tanqidiy tahlil qilinishi, yana qaytadan biologik-naturalistik va ijtimoiy-tarixiy asosdagi falsafiy denyoqarashning yana qaytadan muhokama qilinishiga olib kelmoqda, bunda inson masalasining ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan qarab chiqilishi, ushbu holatlardan kelib chiquvchi ehtimolligi mavjud tamoyillardan ijtimoiy yo'nalishdagi tadqiqotlar dasturlarida foydalanish masalalari nazarda tutilgan.

Sobiq ittifoq davrida faoliyat olib borgan olimlar tomonidan biologizatsiya va sotsiologizatsiya tipidagi ikkita reduksion tavsifga ega tendensiyalar tanqidiy tahlil qilingan. Jumladan, rus akademigi P.N.Fedoseev tomonidan ta'kidlanishicha: «Zamonaviy fan oldida murakkab tavsifga ega vazifa turibdi... ya'ni, biologik va ijtimoiy o'zaro munosabatlarning umumiy uslublarini yoki «mexanizm»larini oydinlashtirish talab qilinadi, bu tahlillar quyidagi holatlarni amalga oshirish imkonini beradi: 1) o'ziga xoslik; 2) merosiylik, kishilik jamiyatining tavsiflari va rivojlanishi sohalaridagi o'zaro aloqadorliklarni aniqlash amalga oshiriladi.

Ushbu masalaning dolzarbligi, nazariy va amaliy jihatdan ahamiyati yuqoriligi shu bilan belgilanadiki, ya'ni – «biologiya fanida qo'lga kiritilgan yangi yutuqlar, jumladan genetika sohasida erishilgan yutuqlar insoniyat va jamiyatning hayoti, rivojlanish jarayonlari, ko'p sondagi biologik va ijtimoiy o'zaro munosabatlarning aniq shakllarining o'rganilishi uchun qulay shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi... shuningdek, fan-texnika inqilobi sharoitida biosferada

amalga oshuvchi jarayonlar bilan jamiyatda kechayotgan ilmiy-texnik va ishlab chiqarishga oid jarayonlarni optimal darajada o'zaro muvofiqlikda qarab chiqishda yangicha yondoshuvlarning amalga oshirilishi imkonini beradi»<sup>1</sup>.

Keltirilgan oxirgi vazifa horijda «odam ekologiyasi» fan sohasining vujudga kelishiga olib kelgan bo'lib, bu fan sohasining boshlang'ich tushunchalari geografik maktab vakillari tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bunda ham odamning hayotiy munosabatlari tashqi yashash muhiti bilan aloqadorlikda qarab chiqilgan. Biroq, XIX asr va XX asrning boshlarida zamonaviy fan sohasida naturalistik sotsiologiyada ayrim masalalarning o'zaro muvofiqligi qayd qilinishiga qaramasdan, yangi tushunchalarni eski nazariyalar asosida tavsiflash mumkin emas.

#### Mavzuni mustabkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sotsiologiyada naturalistik yondoshuvning paydo bo'lishi nima bilan asoslanadi?
2. Evolyutsionizm g'oyasining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
3. Mexanistik maktab va uning asosiy vakillarining qarashlarini izohlang.
4. Geografik maktab va uning vakillarining asosiy g'oyalari nimalardan iborat?
5. Irqiy-antropologik maktabning asosiy vakillari va ularning qarashlarini izohlang. Ularni irqchilik mafkurasi vakillar deb atash mumkinmi? Javobingizni asoslang.
6. Bioorganik maktab va uning asosiy vakillari g'oyalarining ahamiyatini izohlang.
7. Sotsial darvinizmning vakillari va ularning asosiy g'oyalarini bayon eting.
8. Sotsiologiya tarixida naturalistik maktablarning tutgan o'rni izohlang.

<sup>1</sup> Гофман А.Б. Связь лекций по истории социологии. Учебное пособие для вузов. – 3-е изд. – М.: Книжный дом «Университет», 2001. Лекция № 5.

## GLOSSARIY

**Assimilyasiya** – **ассимиляция** – **assimilation** – ozchilikning ko'pchilik aholi ichiga singishib ketishi, bunda ozchilik aholi hukmron madaniyat me'yorlari va qadriyatlarini qabul qiladi.

**Bioorganik maktab** – **биоорганическая школа** – **bioorganic school** – jamiyatni alohida individlardan tashkil topgan organizm emas, balki organizmdan yuqori darajadagi bir butunlik sifatida qarab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblovchi naturalistik maktab.

**Evolutsionizm** – **эволюционизм** – **evolutionism** – ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy-tarixiy jarayon sifatidagi ob'ektiv xususiyatlarini ilgari suruvchi qarashlar tizimi.

**Geografik maktab** – **географическая школа** – **geographical school** – Jamiyat hayotida geografik muhitning hal qiluvchi rolini ilgari suruvchi "bir omil" pozitivistik-naturalistik maktablaridan biri.

**Irqiy-antropologik maktab** – **расово-антропологическая школа** – **race-anthropological school** – irqni ijtimoiy tarix, jarayon, harakatning bosh hamda asosiy sub'ekti deb talqin qiluvchi reaksiyon ta'limot.

**Mexanistik maktab** – **механическая школа** – **mechanical school** – jamiyatni statistik qismlardan tashkil topgan agregat sifatida mexanika, fizika, energetika va h.k. metodlar asosida o'rganish g'oyasini ilgari suruvchi "bir omil" pozitivistik-naturalistik maktablaridan biri.

**Sotsiologiyada naturalistik yo'nalish** – **натуралистическое направление в социологии** – **naturalist direction in sociology** – sotsiologiyada tabiiy fanlar metodlariga nazariy-metodologik yo'nalish.

**Sotsial darvinizm** – **социальный дарвинизм** – **social darwinism** – jamiyat qonunlarini tabiiy tanlov, ko'proq moslashganlarning yashab qolishi kabi biologik qonuniyatlar bilan aynanlashtirishga harakat qilgan naturalistik yo'nalishdagi maktab.

## PSIXOLOGIK (RUHIYAT) SOTSILOGIYA

### Reja:

1. XIX asr psixologiyasi va sotsiologiyasi
2. Psixologik evolyutsionizm
3. Instinktivizm
4. Xalqlar psixologiyasi
5. Guruhiy psixologiya va taqlid nazariyasi
6. Interaksionizmning paydo bo'lishi

1. XIX asr oxirida biologik-naturalistik nazariyalar jadal rivojlanib borayotgan, barcha yangi ilmiy kashfiyotlar va yutuqlarni o'ziga tezda singdirib, ularga javoban yangi yo'nalishlar, maktablar va paradigmalar vujudga kelishi bilan javob berayotgan sotsiologiyaning talablarini uzoq qoniqtira olmadi.

Natijada uning inqirozga yuz tutdi, bu holat sotsiologiyada psixologik oqimning kuchayishiga olib keldi. Aslida J.Lokk, D.Yum, shuningdek fransuz ma'rifatchilari, ingliz utilitaristlari ko'pdan beri mazkur g'oyani targ'ib qilishgan edi.

Mill ham Kont bilan ko'plab tortishuvlarda barcha sotsial qonunlar «insonning individual tabiati qonunlari»ga borib taqalishi kerak, degan fikrin ilgari surgan edi. Uning fikriga ko'ra insonlar jamiyatga birlashar ekan, boshqacha bir xususiyatlarga ega jonzo'tga aylanib qolmaydi, ijtimoiy hayotda ham xulq-atvori negizi uning tabiatiga borib taqaladi. Sotsiologiya «inson ommasi harakatlari hamda ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi turli hodisalar» haqidagi fan sifatida psixologik asosga ega. O'tgan mavzuda qarab o'tganimizdek, A.Smoll i U.Samner ham insonlarning sotsial o'zaro ta'sirlashuvi o'ziga xos jamoaviy ong – urf-odatlar, axloq, an'analarni shakllantirishiga e'tibor qaratgan. Tabiatshunoslik konsepsiyalari uchun ham biologiya faqatgina metodologik asos sifatida xizmat qilganini, aslida ularning mazmun-mohiyati «yashash» psixologiyasi negiziga qurilganini ko'rishimiz mumkin. Eksperimental psixologiyaning paydo bo'lishi va fan sifatida institutsiallasuvi uning fanlar orasidagi e'tiborini ko'tardi va psixologizmni boshqa fan sohalariga kirishini ta'minladi. XIX asrning 1-yarmida falsafaning oddiy konkretizatsiyasi sifatida talqin etilgan bo'lsa, eksperimental

psixologiya asoschisi Vilgelm Vundt (1832-1920) bunday munosabatga chek qo'yib, «sizning butun falsafangiz – bu zamonaviy psixologiya», deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

XIX asr oxiriga kelib psixologizmdan turli hodisalar va fanlar doirasidagi muammolarni tushuntirishda va ilmiy bilimni asoslashda keng qo'llanila boshlandi va u keng tarqaldi. Gnoseologiya (Ya.F.Fris, F.E.Beneke), mantiq (Yu.Liplo, K.Zigvart), estetika (G.T.Fexner, G.Allen, L.Uitmer, T.Lipps), lingvistika (G.Shteyntal, G.Paul, K.Burgman), tarix hamda adabiyotshunoslikni (I.A.Ten) boshqa fanlarni psixologik jihatdan asoslash urfga aylandi. Psixologizm – «ikkinchi pozitivizm»ga (maxizm, empiriokrititsizm) xos xususiyat hisoblanadi. Bu sotsiologiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

XIX asr boshidagi psixologiya, shubhasiz individ psixologiyasi bo'lib, u sotsial jarayonlarni inobatga olmasdi. XIX asrning uchinchi choragida esa vaziyat tubdan o'zgaradi. Bir tomondan, psixolog olimlar yuksak psixologik funksiyalarni faqatgina fiziologik jarayonlar bilan izohlab bo'lmashligini aniqlab yetdilar. Boshqa tomondan esa, primitiv biologik asoslardan qoniqmaganligi natijasida motivatsiya muammolari va sotsial xulq-atvorning psixologik mexanizmiga katta e'tibor qarata boshladilar. Bu ikki harakatning birikishi sotsiologiyada psixologik yo'nalishning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Ushbu davrda kuzatilgan boshqa fandagi g'oyaviy oqimlar singari psixologik sotsiologiya ham yaxlit holda shakllanmagan edi. Uni oqim sifatida birlashtiruvchi yagona xususiyati – garchi har doim ongli bo'lmashda sotsial xususiyatga ega bo'lgan hodisa va jarayonlarni psixologik hodisa va jarayon bilan aynanlashtirishdir. Ammo bu intilish va psixologiya turi hamma olimlarda ham bir xil aks etmagan. Ilgari surilayotgan muammo turi va uni tushuntirish kategoriyalari asosida mazkur oqimda bir nechta mustaqil yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin. Bular: psixologik evolyutsionizm; instinktivizm; etnografiya bilan uzviy bog'liq bo'lgan «xalqlar psixologiyasi»; guruhiy psixologiya; va shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni sotsiologik tadqiqotning birlamchi o'lchami sifatida olgan interaksionizm<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon) Progress Publishers. – P. 92.

<sup>2</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon) Progress Publishers. – P. 96-98.

Asosan psixologik terminlarni o'z ichiga olgan bunday nomlardan cho'chimasligimiz lozim, chunki gap ikkita fanning «birikmasida» hosil bo'lgan shunday yo'nalish (va uning turkumlari) haqida ketmokda, nomlanishdagi ustunlik esa albatta kuchli taraf, ya'ni psixologiyaga to'g'ri keldi. Lekin nom – bu xali hammasi degani emas.

2. Sotsial jarayonlarni psixologik tushuntirish biologik-evolyutsion maktab bilan darhol aloqalarni uzishni taqozo etmadi. Birlamchi maqsad evolyutsionistik sxemani jamiyat rivojlanishi va faoliyatining psixologik mexanizmlarini o'rganish orqali to'ldirishdan iborat bo'lgan. Hatto bu mexanizmlarning o'zi o'ta keng va mavhum talqin etilgan. Spenserdan keyin psixologik evolyutsionizm vakillari bo'lmish amerikalik sotsiologlar Lester Frank Uord (1841-1913) va Franklin Genri Giddings (1855-1931) jamiyat rivojlanishini fazoviy evolyutsiyaning bir bo'lagi deb bilishgan. Bunda keyingi rivojlanish bosqichi avvalgisining yutuqlari asosida paydo bo'ladi. Ammo, biologik konsepsiya tarafdorlari sotsial evolyutsiyaning bevosita organik evolyutsiyaning davomi va uning bir qismi deyishgan. Ular uning avtomatizm xususiyatini e'tirof etishgan. Psixoevolyutsionistlar esa jamiyat hayoti shakllarining murakkablashuvida ongning rivoji, ya'ni sotsial jarayonlarning ongli boshqaruvini ko'rgan.

Mazkur yo'nalishning yirik vakili - Lester Frank Uord boy bo'lmagan oila farzandi, AQSH fuqarolar urushi qatnashchisi bo'lgan. Uning asl kasbi geolog va paleobotanik edi, sotsiologiya bilan esa keyinchalik shug'ullangan. Asosiy asarlari: «Dinamik sotsiologiya» (1883), «Sivilizatsiyaning psixik omillari» (1893), «Sotsiologiya bo'yicha ocherklar» (1898), «Sof sotsiologiya» (1903), «Amaliy sotsiologiya» (1906) va Jeyms Kueyl Dili bilan hammualliflikda «Sotsiologiya darsligi» (1905). Uord Amerika sotsiologiya jamiyati, kechroq Amerika sotsiologik assotsiatsiyasining asoschisi va birinchi prezidenti bo'lgan (1906-1913).

Uordning qarashlari u qadar original emas edi. U Spenserning insoniyatning fazoviy evolyutsiyasi tamoyilini progress g'oyasi bilan to'ldirish tarafdori edi. Sotsial institutlarni u ko'proq psixologik kuchlar natijasi, deb bilgan. Shu asosda u sotsiologiyaning asosini biologiya emas, balki psixologiya tashkil etishi kerak, deb ta'kidlagan. Sotsiogeniya – evolyutsion zinapoyaning eng yuqori bosqichi, kosmo, bio va antropogenez davomida shakllangan barcha tabiiy kuchlar

sintezi. Bu yangi, sotsial voqeyelikning sifatidagi farq unda hissiyot va maqsadning borligida.

«Dinamik sotsiologiya» va boshqa asarlarida Uord birlamchi sotsial kuch sifatida xohish-istakni ko'rsatgan, jumladan, individ tirikligini ta'minlovchi ochlik va chanqoqlik hamda naslning davomini ta'minlovchi jinsiy ehtiyojlar. Mazkur birlamchi xohish-istaklar asosida nisbatan murakkab: intellektual, axloqiy va estetik istaklar paydo bo'ladi va ular jamiyat rivoji, ijtimoiy hayot yaxshilanishini ta'minlaydi.

Uord guruh maqsad va istaklar mavjudligini tan olib, bunga davlatni misol qilib keltiradi. Hozirgi kunda sotsial ong faoliyati jamiyat hayoti uchun salbiy bo'lgan kuchlarni xali bartaraf eta olmasligini ta'kidlab, Uord bularga xususiy monopoliyalarni misol qilib keltiradi va ular faoliyatini talonchilikka tenglashtiradi. Ammo keyinchalik raqobat va monopoliya ongli kooperatsiyalarga o'z o'rnini bo'shatib berishiga to'g'ri keladi. Demokratizm va Uordning antimonopolistik chiqishlari unga nisbatan reaksionerlarning salbiy kayfiyati va nafratini uyg'otgan. «Dinamik sotsiologiya»ning 1891-yildagi rus tilidagi nusxasi uni xavfli deb topgan chor hukumatining maxsus qaroriga ko'ra yoqib tashlangan. Aslida Uord kapitalizmga qarshi emas edi, balki sinfiy tengsizlikka tinchlik yo'li bilan asta-sekin barham berilishi va umumiy kelishuvga kelinishi tarafdori edi. Uning qarashlari eklektik bo'lganini sezish qiyin emas.

Franklin Genri Giddings ham Uord kabi eklektik qarashlarni ilgari surgan. U 1894-yil AQShning Kolumbiya universitetida birinchi sotsiologiya kafedrasiga asos soladi. Giddings «Sotsiologiya tamoyillari» (1896), «Sotsiologiya elementlari» (1898), «Induktiv sotsiologiya» (1901), «Insoniyat jamiyati nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar» (1922), «Kishilik jamiyatini ilmiy tadqiq etish» (1924) kabi bir qator asarlar muallifi.

U sotsiologiyani jamiyatni bir butun holatda o'rganib, fazoviy qonunlar va sabablar asosida tushuntirishga harakat qiladigan fan, deya ta'riflagan. Spenserning fikrlariga qo'shilgan holda, ularni jamiyatni nafaqat oddiy organizm, balki ko'pincha ongsiz evolyutsiya va ba'zan «ongli reja» asosida paydo bo'lgan tashkilot sifatida olib qarash g'oyasi bilan to'ldirgan. Giddings jamiyatni fizik jarayon bilan ifodalovchi psixik hodisa, deb atagan. Shuning uchun sotsiologiya o'zida ham sub'ektiv, ham ob'ektiv tushuntirishlarni mujassam etishi

kerak. Giddingsning o'zi ko'proq sub'ektiv, ya'ni psixologik tomonga e'tibor qaratadi.

U «urug' ongi»ni «birlamchi va elementar» sub'ektiv sotsial fakt sifatida baholaydi. Bu bir tirik jonzoatning boshqasini o'z urug'doshi sifatida tan olishini anglatadi. Giddings mazkur hodisani «sotsial ong» deb ataydi. U individlarning ruhiy birligini ta'minlagan holda o'zaro munosabatlarda ularning individual xususiyatlarini cheklamaydi. Mazkur ong natijasida jamoatchilik fikri, madaniy an'aanlar, jamoaviy kayfiyat va sotsial qadriyatlar shakllanadi, bunda gap guruh, jamoaviy ong haqida borayotganligini ko'rish mumkin.

Giddings jamiyatning sinfiy strukturasi tahlil qilib, «ijtimoiy sinflarni» ob'ektiv xususiyatlariga ko'ra emas, balki ularga mansub individlarning «urug' ongi», ya'ni birdamlik hissi rivojlanishi darajasiga ko'ra tasniflaydi. Ular:

- 1) «sotsial sinf», mavjud ijtimoiy tartibotni faol himoya qiluvchi insonlardan tarkib topadi;
- 2) «sotsial bo'lmagan sinf», tor individualizm tarafdori va jamoatchilik ishlariga ravnodushen bo'lgan insonlardan tarkib topadi;
- 3) «psevdosotsial sinf», jamiyat hisobiga yashashga intiluvchi kambag'allardan tarkib topadi;
- 4) «antisotsial sinf», urug' ongi umuman yo'qolib ketgan va jamiyat va uning institutlarini rad etadigan instinktiv yoki odatiy jinoyatchilardan tarkib topadi.<sup>1</sup>

Bu tipologiya hukmron sinfnin manfaatlarini himoya qilishini anglash qiyin emas.

Keyingi ishlarida Giddings o'z pozitsiyasiga boshqacha ko'z bilan qaray boshladi, shu davr uchun xos bo'lgan bixeviorizm bilan to'ldirishga harakat qilib miqdoriy usullarning ahamiyatiga urg'u berdi. Hattoki «Sotsiologiya – metodiga ko'ra statistik fan», g'oyani ilgari surdi<sup>2</sup>.

Bular Giddingsni Amerika sotsiologiyasida neopozitivizm asoschisi sifatida olib qarashga asos bo'ladi. Lekin uning Amerika sotsiologiyasiga ko'rsatgan ta'siri ko'proq ma'muriy imkoniyatlari bilan shartlangan edi. Hatto hamkasblari ham uning g'oyalarini emas,

<sup>1</sup> Гиддингс Ф. Основания социологии // Американская социологическая мысль: Тексты. – М., 1996. – С. 301.

<sup>2</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 96.

balki halovatsizligi, irqchilik, antisemitizmga moyilligini qayd etishgan.

3. Uord va Giddingsning psixologik evolyutsionizmi sotsiologik qarashlar tarixida muhim iz qoldirmadi. Instinktivizmning ta'siri esa nisbatan kuchliroq bo'ldi. XIX asrda «sotsial instinktlar» masalasi o'z-o'zidan yuzaga kelgani yo'q. Jamiyatni individning xususiyatlaridan kelib chiqib tushuntirishga harakat qilib, XIX asr psixologiyasi bir vaqtning o'zida ham individual, ham guruhviy xulq-atvorni tushuntira oladigan shaxsning ichki psixik determinanti yoki bir qator determinantlarini aniqlashga harakat qildi.

XIX asrning ikkinchi yarmi G'arb falsafasida inson harakatlarini irratsional va ongsiz asosga ko'ra tushuntiruvchi irratsionalizm oqimi kuchaydi. Biologiya hayvonlarning instinkt asosidagi faoliyati mexanizmlarini ochib berish bilan mazkur tendensiyaga tabiiy-ilmiiy asos yaratgandi. Inson psixikasini tadqiq etish natijasida unda kuchli anglanmaydigan jarayon va strukturalar mavjudligi aniqlandi. Teodyul Ribo emotsiyalarni eksperimental usulda o'rganishga asos soldi. Vyursburg maktabi psixologlari (Karl Marbe, Iogannes Ort) ongning noaniq va qiyin tadqiq etiladigan holatini ko'rsatib, u aqliy operatsiyalar saralanishi va dinamikasi, shuningdek, inson ta'sirlanishini nazorat qilishi aniqlandi. Gipnoz holati va psixopatologiyani tadqiq etish ham olimlarni ongsizlik muammosiga ro'baro qildi.

Buning natijasida XIX asr oxirida sotsial hodisalar ko'pincha ongsiz «instinktlar», «intilishlar» va «impuls» tushunchalari bilan talqin etila boshlandi. «Instinkt» tushunchasi esa keng ma'noda qo'llanilgan va organizmning biologik ehtiyojlari, nasliy xulq-atvor dasturi, va hatto istaklarni ham ifodalagan. Individ biologik instinktlari bilan bir qatorda guruhviy «sotsial» instinktlar ham qayd etila boshlangan. Masalan, Giddings, o'zining urug' ongi konsepsiyasini «instinkt nazariyasining rivojlangan shakli» qarash lozimligini uqtirgan.

Ingliz psixologi Uilyam Mak-Daugall (1871-1938) instinktivizmning yirik namoyondasi hisoblanadi, u 1921-yildan boshlab AQShda ishlagan. Mashhur «Sotsial psixologiyaga kirish» (1908) kitobining muallifi. Mak-Daugall fikriga ko'ra, barcha ijtimoiy fanlarning nazariy asosini «instinkt psixologiyasi» tashkil etishi kerak. U instinkt deganda «individni u yoki bu ob'ektlarni qabul qilishga yoki

ularga e'tibor qaratishga, ulardan o'ziga xos emotsional holatga tushib, shu obyektga nisbatan harakat qilishga yoki shunday harakatga impuls sezishga majburlovchi tug'ma yoki tabiiy psixofizik moyillikni» tushungan. Har qanday birlamchi instinktning asosida ma'lum emotsiya yotadi. Misol uchun qochish instinktiga qo'rquv emotsiyasi, qiziqish instinktiga hayratlanish emotsiyasi, urushish instinktiga g'azab emotsiyasi, ota-onalik instinktiga mehr berish emotsiyasi asos bo'ladi va h.k.

O'zining psixologik nazariyasini jamiyatga yo'naltirib, Mak-Daugall har bir ijtimoiy hodisani konkret instinkt yoki instinktlar guruhi bilan tushuntirishga harakat qiladi. Masalan, urushlarni insonlardagi urushishga moyillik, jamoaviy boylukni to'plashni xasislik bilan tushuntiradi. Dinning asosida qiziqish, qurbonlik va qochish kabi instinktlar kombinatsiyasining ota-onalikka xos emotsional reaksiyalar uyg'unligi yotadi. Mak-Daugall to'da instinktga alohida e'tibor qaratgan. Chunki aynan shu instinkt ko'pchilik jamiyat institutlarining asosida yotadi. Shaharlarning o'sishi, insonning jamoaviy dam olish xususiyati, ommaviy yig'inlar va h.k. to'da instinktning namoyon bo'lishidir.

Mak-Daugallning kitoblari bir necha marotaba qayta nashr etiladi, natijada uning izdoshlari ko'payib boradi. Ingliz jarrohi Uilfrid Trotter (1872-1939) o'z asarida barcha sotsial hodisalar oxir-oqibat «to'da instinkt» bilan izohlanishi lozimligini yozib, katta shuhrat qozonadi.

Ingliz sotsialisti Grem Uollas (1858-1932) esa psixologik tahlilni siyosat sohasiga kiritishga uringan va bunda loyallik instinktiga katta e'tibor qaratib, uning davlat hokimiyatining faoliyatini ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydi.

Avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd (1856-1939) esa inson xatti-harakatining universal determinanti sifatida jinsiy mayl – libidoni ko'rsatadi. Nevroz va individual psixikaning ichki nizolarini o'rganishdan boshlagan Freyd, keyinchalik «Totem va tabu» (1913) asaridan boshlab o'z nazariyasini madaniyat tarixiga ham yoyadi. Birinchi jahon urushi tajribasidan so'ng esa u inson psixologiyasining ikki asosi hisoblanmish: Eros – yashash, hayot instinkti va Tanatos – ongsiz ravishda o'limga intilish o'rtasidagi kurash haqida gapiradi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon) Progress Publishers. – P. 100-103.

Instinktivizm inson haqidagi fanga psixikaning ongsizlik komponentlariga e'tibor qaratganligi va bixeviorizmga qarshi turganligi bilan o'z hissasini qo'shdi. Lekin o'zining nazariy asoslari mustahkam emas edi. Instinktivizm sotsial-tarixiy qonuniyatlarni individual-psixologik qonuniyatlar bilan almashtiradi ularni biologik tarzda asoslaydi. «Asosiy instinktlar» soni ham tez-tez o'zgartiriladi. Masalan, Mak-Daugall avvaliga 11 ta, keyin 14 ta, oxir-oqibat esa, 18 ta asosiy instinktlarni sanab o'tadi, keyinchalik bixevioristlar tanqidi ostida ularni «moyillik» deb nomlaydi. Uilyam Jeyms ularni 38 ta desa, Freyd esa bor-yo'g'i 2 ta bilan qanoatlanadi. 1924-yilda Lister Bernard bu terminning ahamiyatini tahlil qilar ekan, adabiyotlarda 6 131tagacha bo'lgan mustaqil "mohiyatga" egalariga kengaytirilgan jami 15 789 ta alohida instinktlarni qayd etadi. «Instinkt» sifatida odatlar, ehtiyojlar, affekt holatlari, psixik jarayonlar ham olingan.

Sotsiologiya va psixologiyaning rivojlanishi bilan ularga instinktivizmning ta'siri kamayib bordi. Sotsiologiya tarixida faqatgina freydizmni istisnoli holda instinktivizm nazariyasining davomi sifatida olib qarash mumkin.

4. XIX asrda ijtimoiy ongni sub'ektiv-idealistik tarzda talqin etish bilan bir qatorda ob'ektiv-idealistik tarzda talqin etuvchi qarashlar ham bor ediki, ularning g'oyaviy ildizini Gegelning «ob'ektiv ruh» va nemis romantiklarining «xalq ruhi» konsepsiyalaridan izlash lozim bo'ladi. Bu konsepsiyalar psixologiyadan ko'ra til va adabiyot tarixiga, ayniqsa xalq og'zaki ijodiga e'tiborini qaratadi.

Tilshunoslik va etnografiya ma'lumotlarini Iogann Fridrix Gerbartning psixologik nazariyasi bilan sintezlab o'rgangan nemis olimlari Morits Latsarus (1824-1903) va Geyman Shteyntal (1823-1899) 1860 yilda yangi fan – «xalqlar psixologiyasi» yaratilganini e'lon qildilar. Shteyntalning e'tiroficha, kelib chiqishi bir va yagona yashash muhitiga ega bir xalq individlari «tanasi va ruhida o'sha xalq tabiatiga xos belgilarga ega bo'ladi». Tananing ruhga ta'siri ma'lum moyilliklar, istak-xohishlar, barcha individlarda bir xil bo'lgan ruh xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Natijada ularning barchasi bir xil xalq ruhi, ya'ni psixologiyasiga ega bo'lishadi. Shteyntal xalq ruhini bir millatga tegishli individlarning psixologik o'xshashligi va shu bilan birga o'zini anglashi deb tushunadi. Xalq ruhining tarkibi esa «tarixiy xalq psixologiyasi» va «psixologik etnologiya» doirasida

o'sha xalqning tili, afsonalari, axloq qoidalari va madaniyati orqali ochib beriladi.

Shteyntal va Latsarus o'z maqsadlarini amalga oshirib, mazkur sohada yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmagan bo'lishsada ularning g'oyasini Vilgelm Vundt davom ettirib, rivojlantirdi. Uning fikricha, yuqori psixologik jarayonlar, eng avvalo tafakkur insonlar jamiyatining tarixiy rivojlanishi natijasi va shuning uchun ular maxsus fan doirasida o'rganilishi zarur.

Shteyntal va Latsarus buni amalga oshira olmagan bo'lsada, ularning g'oyasi Vilgelm Vundt tomonidan o'zlashtirildi. Uning fikriga ko'ra, fiziologik psixologiya yetuk ongning real mohiyatini qamrab olishga qodir emas. Oliy psixik jarayonlar, avvalambor tafakkur, insonlar hamjamiyatining tarixiy taraqqiyoti natijasi hisoblanib, alohida fan doirasida o'rganilishi lozim. Vundt individual ongni to'g'ridan-to'g'ri xalq ongi bilan o'xshatishga qarshi chiqadi. Individ ongi sezgi va hissiyotning alohida elementlari emas, balki ularning ijodiy sinteziga borib taqalganligi sababli, xalq ongi ham individual onglarning ijodiy sintezidan tashkil topadi. Buning natijasida til, afsona va axloq vujudga keladi. Vundt ularni tadqiq etish uchun hayotining oxirgi 20 yilini baxsh etadi, natijalarni o'n jildlik «Xalqlar psixologiyasi» asarida jamlaydi.<sup>1</sup>

O'tmishdoshlari singari Vundt ham o'z oldiga qo'ygan dasturni amalga oshira olmadi. Asarlaridan birida Vundt shunday yozadi: «xalq psixologiyasida individual ong qonunlarida mujassam bo'lmagan qandaydir bir umumiy qonunlarning paydo bo'lishi avval boshdanoq istisno edi». Ijtimoiy ongning alohida shakllarini Vundt «sotsiologik» emas, balki «psixologik» hodisa sifatida olib qaraydi. Shunga ko'ra, til qonunlari u tomonidan tasavvurlar assotsiatsiyasi qonunlari, afsonalar – tasavvurlarni hissiyotlar bilan qayta ishlash natijasi sifatida talqin etiladi, axloq esa – ongning birlamchi elementlariga irodani qo'shish natijasi sifatida Vundt tomonidan tasavvurlar assotsiatsiyasi qonunlari bilan analogiya orqali ochiladi.

«Xalqlar psixologiyasi» psixologik, etnografik, lingvistik, tarixiy-filologik va antropologik tadqiqotlarni bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qildi, shuningdek tarixiy psixologiya, madaniy antropologiya, etnopsixologiya, sotsio- va psixolingvistika uchun asosli negiz bo'lib

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers – P. 103-105.

xizmat qila oldi, lekin unda sotsiologiya juda kam edi. Madaniyat va individul ongning o'zaro nisbati nazariy muammosi hal etilmay qoldi.

5. XIX asr oxirida na individ psixologiyasi va na mavhum «xalq ruhi» sotsial hodisalarni o'rganishda asosiy kalit bo'la olmasligi aniq bo'ldi. Bu, o'z navbatida guruhiiy va ommaviy xulq-atvorni o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirdi.

Sotsiolog olimlarning omma psixologiyasiga bo'lgan qiziqishi o'zining mafkuraviy asosiga ham ega bo'lgan. Aniqroq qilib aytganda 1789, 1830, 1848 va 1871-yillarda bo'lib o'tgan revolyutsiyalar xalq ommasining qudratli buzg'unchilik kuchga ega ekanligini ko'rsatdi. XIX asr boshlaridayoq mazkur xatti-harakat individning ijodkorligi va madaniyatga tahdid solishi ta'kidlangan edi. XIX asrning 2-yarmidayoq ommaning irratsionalligi to'g'risidagi g'oya ham pozitivistik (Ten, ayniqsa Fransuz inqilobi talqinida), ham antipozitivistik (Nitsche) falsafada keng yoyilib ulgurgan edi. Italiyalik kriminolog olim S.Sigele (1868-1913) «Jinoyatchi omma» (1891) va «Sektalar psixologiyasi» (1895) nomli asarlarida mazkur fikrni psixologik jihatdan asoslab bergan edi. U insonni tabiatan shafqatsiz va jinoyatga moyil, deb baholagan. Ommada mana shu moyillik yana ham yorqin namoyon bo'ladi. Chunki omma tarkibida insonning o'z xatti-harakatlarini ratsional jihatdan nazorat qilishi susayadi, bu instinktlar uning ta'sirchanligini oshiradi, atrofidagi har qanday yomonlikni yuqori darajada qabul qilishini ta'minlaydi.

XX asr arafasida fransuz adibi (ma'lumotiga ko'ra shifokor) Gyustav Lebonning (1841-1931) «Olomon psixologiyasi» (1895; ruscha tarj.: «Xalqlar va omma psixologiyasi» – 1896), «Xalqlar evolyutsiyasining psixologik qonunlari» (1894) kabi asarlari katta mashhurlikka erishdi. Lebonning fikricha, yevropa jamiyati rivojlanishning yangi bosqichi – «olomon asri»ga qadam qo'yimoqda<sup>1</sup>. Bunda shaxsning aqliy va tanqidiy fikrlash xususiyati irratsional omma ongi tomonidan bostiriladi. «Olomon» yoki «omma» – bu insonlar guruhi bo'lib, ular yagona makonga umumiy tuyg'ulardan ruhlangan holda yig'ilishgan va o'z yetakchisi ortidan istalgan joyga borishi mumkin.

<sup>1</sup> Qiziq: Lebon G. Psixologiya tarixi va mass // Tashkent-ekspozitsiya sotsiologiya XIX – boshla XX asrlar. Tashkent. – M., 1996. – S. 123.

Jumbushga kelgan ommaviy ongni hyech qanday ratsional kuch bo'ysundira olmaydi. Lebon ommadagi har bir insonning fikrlash tarzi uning (omma) umumiy kayfiyati asosida yo'naltirilishini ta'kidlagan. Shaxs ommaning ichida qanchalik ko'p qolsa, uning reallikni his qilish tuyg'usi shu qadar kamayib boradi va unga yetakchining ta'sir doirasi kuchayaveradi. Yetakchilar orasida psixologik og'ish xususiyatlari yorqin namoyon bo'lgan insonlar ko'p uchraydi. Shunga asosan, Lebon har qanday revolyutsion harakatni, ayniqsa, sotsializmni qattiq qoralagan. «Omna psixologiyasini bilish davlat kishisi qo'lidagi so'nggi qurol bo'lib qoldi. Bu qurol ommani boshqarish uchun emas, chunki ommani boshqarishning imkoni yo'q, balki ularga o'zlariga haddan tashqari ko'p erkinlik berib yubormasliklari uchundir».

Lebon ilgari surgan anonimlik, psixologik zararlanish va «olomon odami» ta'sirchanligining ortishi kabi nazariy muammolar keyingi muhim ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarga turtki bo'ldi. XIX – XX asr boshlari guruhiiy psixologiyasi nafaqat «olomon», balki diada va triada ko'rinishidagi guruhlar, hatto psixik zararlanish, ishontirish va taqlid kabi shaxslararo o'zaro ta'sirlashuv jarayonlarini ham tadqiq etdi.

Bu yo'nalish o'zida gipnozning eksperimental tadqiqotlari, bolalarning taqlid harakatlarini kuzatish, etnologik tadqiqotlar va moda yoki tahlika singari ommaviy psixologiya hodisalarini kuzatish kabilardan ruhlandi. Ayrim olimlar insonlarning sotsial xulq-atvoridagi umumiylik va ularning guruhlariga birlashuvda psixik zararlanishni (V.M.Bexterev, Gyustav Lebon) qo'ysa, ikkinchilari bunda ishontirishni, uchinchilari esa (Gabriel de Tard, J.Bolduin) taqlidga urg'u beradi. Ularning bir-biriga nisbati ham turlicha talqin etiladi. Masalan, A.Viguru va P.Jukele psixik zararlanishni taqlidning bir ko'rinishi sifatida ifodalasa, Lebon, aksincha, taqlidda psixik zararlanishning ayrim alomatlarini ko'rgan.

Fransuz yuristi va sotsiologi Gabriel de Tard (1843-1904) mazkur maktabning yirik namoyondasi bo'lib, «Qiyosiy kriminologiya» (1886), «Taqlid qonunlari» (1890), «Sotsial mantiq» (1895), «Sotsial qonunlar» (1898), «Sotsial psixologiya bo'yicha etyudlar» (1898), «Fikr va olomon» (1901), «Iqtisodiy psixologiya» (1902) kabi bir qator kitoblar muallifidir. Faylasuf va sotsiolog olimlardan Monteske, Kont, Spenser, Mill va Kurno, shuningdek, Italiya kriminalistika maktabi (Chezare Lombrozo, Rafael Garofalo, Enriko Ferri va

boshqalar) Tard fikrlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ammo jinoyatchilikni irqiy va geografik sharoitlar asosida izohlovchi Italiya kriminalistlaridan farqli ravishda Tard uning ijtimoiy va psixologik omillariga asosiy e'tiborni qaratgan.

Uzoq yillar davomida Tard o'zining yosh zamonadoshi va intellektual raqibi bo'lgan Emil Dyurkgeym bilan bahs olib borgan. Ularning ikkalovi ham bioorganik nazariyalar va utilitarizmdan yiroq, ikkalovi ham etnografik ma'lumotlar va qiyosiy metodlarga katta ahamiyat berardi, ikkalovi ham jamiyatni integratsiyalovchi kuch sifatidagi sotsial me'yorlar tabiati bilan qiziqardi. Lekin bu umumiy o'xshashliklar orqasida katta tafovutlar ham bor edi. Dyurkgeym uchun jamiyat – sotsial tizim, uning mahsuli esa alohida individlar hisoblanadi.

Tardning fikricha esa, jamiyat individlarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasi. Unga biologik organizm yoki mexanistik agregat sifatida qarash mumkin emas. Ong – mexanikaning postulati. Tard jamiyatning evolyutsionistik modelini ham rad etadi. Sotsiologiyaning kamchiligi uning «jamiyat qonunlari» va «tarix qonunlari»ni qo'shib yuborishidadir; birinchilari – hodisalarni qayta ishlab chiqaruvchi qonunlar bo'lsa, ikkinchilari – ularning taraqqiyot qonunlaridir. Bu qonunlar tamoman ikki xil bo'lib, ikkinchilari juda murakkab hisoblanadi va ular faqatgina birinchilari asosidagina shakllanishi mumkin.

Bundan evolyutsion yondoshuvning tahliliy yondoshuv bilan o'rin almashinuvi vujudga keladi. Sotsiologiya – bu «oddiy jamoaviy psixologiya», u quyidagi ikki savolga javob berishi lozim:

1) kashfiyotlar, muvaffaqiyatli tashabbuslar va biologik adaptatsiyalarga analogik ravishdagi sotsial adaptatsiyalarning sababi nima?

2) nega boshqasi emas, aynan mana shu tashabbuslar taqlidga sabab bo'ldi? Nima uchun taqlidga asos qilinmagan ko'plab namunalar ichidan aynan shular tanlab olindi? Boshqacha qilib aytganda, taqlid qonunlari qanday?

Tard asta-sekin «guruhiy ong» yoki «olomon ruhi» kabilarni mustayil ma'naviy mohiyat sifatida rad eta boshlaydi, lekin sotsiologiyani individualistik psixologiya bilan ham asoslay olmaydi. Agar turli xil «men»lar mutlaqo geterogen va bir-biri bilan umuman

aloqasi bo'lmasa, ular qanday qilib muloqotga kirishadi? Va ular o'rtasida qanday qilib umumiylik, «Biz» ongi paydo bo'ladi?

Tard fikriga ko'ra, elementar sotsial munosabatlar e'tiqod yoki xohish-istakni bironvga o'tkazish yoki o'tkazishga intilish hisoblanadi. Uning eng sodda ko'rinishi – gipnotik uyqu holati. «Jamiyat – bu taqlid, taqlid esa o'ziga xos gipnotizm».<sup>1</sup>

U har qanday yangilikni individual ijod mahsuli, deb biladi. Ijodning yagona manbasi – iqtidorli shaxs tasavvurining ijodiy akti. Yangilikning muvaffaqiyatli adaptatsiyasi «taqlid» ko'rinishini oladigan qaytarishlar to'liqini paydo qiladi. Tard yangiliklarning taqlid asosida tarqalishini sxematik tarzda tasvirlaydi. Sxema markazdan uzoqlashayotgan doiralardan tashkil topgan. Taqlid doirasi boshqa taqlid markazidan boshlangan qarama-qarshi to'lqinga uchragunga qadar to'xtovsiz kengayish xususiyatiga ega. To'qnashgan taqlid to'lqinlari o'rtasida kurash boshlanib, takrorlash taqlidga qarama-qarshi kuchga aylanadi va taqlidlarning « mantiqiy dueli » boshlanadi. Bahsdan tortib to urushgacha bo'lgan istalgan nizolar bunga misol bo'la oladi. Mantiqiy detallar turlicha natijalarga olib kelishi mumkin, shunday bo'lsa-da, qarama-qarshilik yangi adaptatsiyaga o'rnini beradi va sotsial jarayonlarning sikli qaytadan boshlanadi.

Adaptatsiya, takrorlash va qarama-qarshilikdan iborat uch asosiy sotsial jarayonni qamrab olgan sotsiologiyaning umumiy qonunlarini Tard mantiqiy va mantiqiy bo'lmagan turlarga ajratgan. Mantiqiy qonunlar sababli nima sababdan ba'zi yangiliklar tarqaladi, ayrimlari esa yo'q, mazkur yangilikka bo'lgan talab qanchalik yetilgan, u mavjud bilimlar va tasavvurlar bilan uyg'unlashganmi (mantiqiy birlashuv) yoki ular bilan ziddiyatga kiradimi (mantiqiy duel), kabi savollarni tushuntirib berishga intiladi. Mantiqiy bo'lmagan qonunlar esa taqlid jarayoni qay tarzda kechishini ko'rsatib beradi. Misol uchun, jarayon markazdan chetga tomon rivojlanishi, yuqoridan pastga tomon siljishi, maqsadlardan vositalarga o'tishi va h.k.

Tard o'z nazariyasi deduktiv deb baholasa-da, empirik tadqiqotlar metodlariga katta ahamiyat beradi. Sotsiologiya, uning fikriga ko'ra, ikki asosiy metodga tayanadi: arxeologik va statistik.

<sup>1</sup> Qisqartirib: A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Dxon). Progress Publishers. – P. 105.

Arxeologik metod konkret yangiliklar va namunalar tarqalishi davri va arealini o'rganishga xizmat qiladigan tarixiy hujjatlar tahliliga asoslanadi.

Statistik metoddan mavjud taqlid jarayonlari haqida ma'lumotlar to'plashda foydalaniladi. O'z joniga qasd qilish, jinoyatlar, savdotsotiq statistikasi tahlili yangilikning imitativ kuchining miqdoriy tavsifini topish, uni yoyilishining ijobiy yoki salbiy oqibatlarini aniqlash, va oxir-oqibat sotsial (taqlidga oid) jarayonlarni nazorat ostiga qo'yish imkonini beradi.

Jamiyatni tadqiq etishda «miqdor va o'lchov»lardan foydalanish sotsiologiya taraqqiyoti belgilab berishini ta'kidlaydi. Tardning sotsial-statistik tadqiqotlari (ayniqsa, jinoyat masalalaridagi) zamondoshlari tomonidan juda yaxshi baholangan.

Tard jamoatchilik fikri va «olomon psixologiyasi» sohasida ham o'z nazariy qoidalaridan foydalandi. O'z g'oyalari va tushunchalari doirasiga ko'ra, uning «Fikr va olomon» kitobi Lebonni eslatadi. Lekin Tard substansional «jamoaviy ruh» tushunchasini tanqid qiladi. XX asr «olomon asri», degan fikrga ham qo'shilmaydi.

«Olomon» va «jinoyatchi sekta»larni tushuntirishda Tard, o'tmishdoshlari singari, irratsionallik, taqlid, yetakchilarga ehtiyojga urg'u beradi. Lekin bu yerda asosiy e'tiborni jamoatchilik fikri differentsiatsiyasi va bu uning asosida jamoatning (publika) shakllanishiga qaratadi. Asosan jismoniy kontakt asosida paydo bo'ladigan olomondan farqli ravishda jamoat a'zolari bir-biri bilan ruhiy yakdillik asosida birlashadilar. Buni asosida emotsionaldan ko'ra fikrlar umumiyliigi turuvchi intellektual jamoaviylik, deyish haqiqatga yaqin bo'ladi. Uning fikri hozirgi kunda xuddi tana uchun ruh kerak bo'lgan kabi muhimdir.

Muammoga bir vaqtning o'zida ham tahliliy, ham tarixiy nuqtai nazardan yondashib, Tard jamoatning shakllanishi bosqichlarini ajratadi, uni yangi davr mahsuli deb hisoblaydi. Jamoatgacha bo'lgan eng yaqin tarix – bu XVIII asr salon va klublari bo'lib, uning haqiqiy tarixi gazetalarning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Olomonda shaxsiyat yo'qolib borsa, jamoatda, aksincha, o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun muloqot vositalarini takomillashtirish shaxsning murakkablashuvi va boyishiga olib keladi, zero, jamiyatda bir emas, balki bir necha jamoat turlarini ko'rish mumkin.

Tard shuningdek, ommaviy kommunikatsiya va shaxslararo muloqot shakllarining psixologik tahlil qiladi. Tardning kuzatishlari ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasi va muloqot psixologiyasi taraqqiyotiga hissa qo'shdi. Tardning faoliyatini baholab turib tan olish lozimki, u juda ko'plab muammolarni e'tibor qarata oldi va ularning tadqiq etilishini ta'minladi. Georg Zimmel bilan birga u ilmiy tadqiqotlar markaziga shaxslararo o'zaro ta'sirlashuv va uning sotsial-psixologik mexanizmlari muammosini taqdim etdi.

Tard sotsial psixologiyaning fan sifatidagi shakllanishi asoschilaridan biri sifatida tan olingan. Sotsiologiya tarixi uchun Tardning analitik yondoshuvi, evolyutsionizmni tanqidi, ekologiya va texnika masalalariga qiziqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tardning Fransiyada bevosita ta'siri kuchli bo'lmagan, lekin uning g'oyalari AQShda keng tarqalgan. Jeyms Mark Bolduin, Tarddan mustaqil holda genetik psixologiya sohasida faoliyat olib borib, xuddi shunday xulosalarga kelgan, va Tardni sotsiologiya va sotsial psixologiyaning o'z davridagi eng obro'li va buyuk mualliflardan biri sifatida ta'riflagan<sup>1</sup>. Uning «Taqlid qonunlari» kitobini Amerika antropologiyasining madaniy-tarixiy yo'nalishi yetakchisi Frans Boas (1858-1942) buyuk asar sifatida baholagan. AQShning yetakchi psixosotsiologlaridan biri Edvard Ross konsepsiyasining yaralishida Tardning ta'siri kuchli bo'lgan.

Tardning taqlid nazariyasi intrapsixik jarayonlar doirasidan chiqadi va sotsiologik tadqiqot predmet va birligi sifatida alohida individni emas, balki shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni ko'rsatadi. Lekin bu o'zaro ta'sirlashuvni u tashqi va mexanik tarzda tushunadi.

6. Interaksionizm<sup>2</sup> AQShda psixologizm va organitsizm qo'shilishi oqibatida paydo bo'lgan. Uning diqqat markatida individlarning o'zaro munosabatlari yotadi. Mazkur harakatning sub'ekti sifatida namoyon bo'luvchi shaxs ma'lum sotsial guruhga tegishli va ma'lum sotsial rollarni bajaruvchi sotsial mavjudot sifatida ko'riladi. Jamiyat va individni qarama-qarshi qo'yish g'oyasi ularni bir butun va bir-birining ichiga kirib ketishi fikri bilan almashadi.

XX asrning birinchi o'n yilligida O'zlik konsepsiyasini o'rganish psixologiyaning odatiy qismidan sotsiologiya sohasiga vaqtinchalik

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Oughton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 105-114.

<sup>2</sup> Interaksionizm – ing. interaction – o'zaro ta'sir.

o'tib ketdi. Men-konsepsiyasi (lot. conceptus – tushuncha) – insonning o'zi to'g'risidagi tasavvurlari tizimidir. Insondagi Men-konsepsiyasining shakllanishi hayotiy muammolarni yechish tajribasi va o'zgalarning, birinchi navbatda ota-onalarning, baholashidan kelib chiqadi. Men-konsepsiyasining asosiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. O'zini boshqalar bilan qiyoslash.
2. O'zgalardan tomonidan ta'rifi.
3. Faoliyat natijalarini baholash.
4. Ichki kechinmalar.
5. Tashqi qiyofasini anglash.

Interaksionizmning dastlabki asoschilari tomonidan individga yangicha qarash – ijtimoiy hamkorlik chegarasida ko'rib chiqish taklif etildi.

Amerikalik faylasuf va ruhshunos Uilyam Jeyms (1842-1910) birinchilardan bo'lib «Men» konsepsiyasining muammosini hal etishga o'zini bag'ishladi. U global, shaxsiy «Men»ga (Self) ikkilamchi birikma, tafakkurli «Men» (I) va ob'ektlilik (Me) sifatida qaragan. Bular doimo bir vaqtda mavjud bo'ladigan bir yaxlitning qismlaridir. Ularning biri sof tajriba (tafakkurli «Men») bo'lsa, ikkinchisi (ob'ekt sifatidagi «Men») – ushbu tajribaning mazmunidir. Bunday farqlanish tilda yaqqol namoyon bo'lgan, shuning uchun inson, bir tarafdin, ongga ega, ikkinchi tarafdin, o'zini haqiqatning bir elementi sifatida angelaydi, deyish – yaqqol haqiqatni tushuntirish qiyinligini anglatadi. Har bir refleksiv harakat «Men»i ob'ekt sifatida identifikatsiyalashni, va shu vaqtning o'zida, anglovchi va anglanadigan narsa o'rtasida uzilmas aloqani hosil qiladi: bunday holatda, birini ikkinchisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli, shaxsiy «Men» bu – bir vaqtda tafakkurli «Men» va ob'ektlilik «Men» yig'indisidir. Mazmunsiz ongni tasavvur qilish qiyin bo'lgani kabi, ruhiy jarayonlarni ongsiz ham tasavvur qilish mushkuldir. Inson ruhiy hayotining istalgan tajribasi biror voqeyani boshdan kechirishga tayanadi. Buni yaxshi tushungan Jeyms, yaxlit integral «Men»i, ya'ni shaxsni turli aspektlari sifatida anglovchi va anglanuvchini farqlash uchun tilda belgilangan tuzilmalardan foydalandi. Shu tarzda, Jeymsning taklifi shaxsiy «Men» tuzilmasining asosli (biroq gipotetik) modeli deb hisoblanadi. Jeymsning nazaricha, ob'ekt sifatidagi «Men» bu – inson o'zini, deyishi mumkin bo'lgan barcha narsalardir.

Jeyms (1842-1910) shaxs «Men»ning amaliy tarkibini aniqlab, unda uch elementni ko'rsatgan:

- 1) «moddiy Men», o'z ichiga tana, kiyim, oila va mulkni oladi;
- 2) «ijtimoiy Men», ya'ni individning atrofdagilar tomonidan e'tirof etilishi; bizni o'rab turgan muhit bir xil bo'lmagani uchun, inson uchun fikri qadri bo'lgan insonlar guruhlarini qancha bo'lsa, uning ijtimoiy «Men»i ham shuncha bo'ladi;
- 3) «ruhiy Men», ya'ni individning psixik xususiyatlari va moyilliklari yig'indisi.<sup>1</sup>

Quyidagi jadvalda shaxs «Men»ning uch elementi va ularga mos his-tuyg'ularni ko'rish mumkin:

	moddiy	ijtimoiy	ruhiy
<b>O'zi haqida qayg'urish va o'z hayotini saqlab qolish</b>	Jinsiy ehtiyoj va instinktlar. Kiyim-kechakka qiziqish, narsalar sotib olish, o'z atrofida muhit yaratish	Boshqalarga yoqishga intilish, e'tiborga tushish va h.k. Kirishimlilik, musobqa, hasad, muhabbat, hurmatga tashnalik va h.k.	Intellektual, axloqiy, diniy intilishlar, vijdonlilik.
<b>O'zini o'zi baholash</b>	Takabburlik, soddalik. Ta'minlanganlikni anglash, kambag'allikdan qo'rqish.	Ijtimoiy va oilaviy g'urur, takabburlik, modaning ketidan quvish; kamsitilish, uyat va h.k.	Axloqiy va aqliy ustuvorlik, poklik hissi va h.k.; aybdorlik hissi.

Rivojlangan jamiyatda har bir inson o'zi uchun maqsadlarni belgilash imkoniyatiga ega. Bir o'zimiz uchun bizning «Men»imizning turli jihatlariga xos maqsadlar belgilaymiz va ularga muvofiq hayotiy muvaffaqiyatlarni belgilaymiz. «Jeyms postulati» ham ana shundan kelib chiqadi: «O'zimizni o'zimiz baholashimiz, kim va dunyoda qanday mavqeyega ega bo'lishni xohlashimizga bog'liqdir, buni esa shaxsiy muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarni baholash negizi, deb hisoblaymiz». Deyarli barcha insonlarga imkon qadar o'zining «Men»ini rivojlantirishga intilish xos, ammo vaqt va muhitdagi chegaralarni inobatga olgan

<sup>1</sup> Фурманов В.А., Нурмухамедов У.Н. Социология личности. Уфе: Китап, 2009. – 5.

holda har bir inson real tasavvur qiladi – shaxsiy rivojlanishning ayrim jihatlarini tanlab, o‘sharga nisbatan yakuniy maqsadlar belgilaydi, ularga erishishni esa o‘zining hayotiy muvaffaqiyati, deb biladi. Tanlov amalga oshirilgach, bunday urinishlarga nisbatan inson o‘zini o‘zi baholaydi: urinishlar amalga ohsa – baho darajasi yuqori, amalga oshmasa – past bo‘ladi.

Masalan, o‘zini juda zo‘r tennischi deb bilgan inson ketma-ket qator uyinlarda yutqazaversa, uning oldida bir qancha imkoniyatlar yuzaga keladi:

A) ratsionalizatsiyadan foydalanib, muvaffaqiyatsizliklarni biror sabab bilan bog‘lash;

B) talablar hajmini qisqartirish;

D) katta muvaffaqiyat olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish.<sup>1</sup>

Natijada, biz o‘zimiz talablar belgilaymiz va ularni shaxsiy rivojlanishning muayyan darajalari bilan bog‘laymiz. Bir inson uchun so‘zsiz muvaffaqiyat, deb hisoblangan narsa, boshqa inson tomonidan muvaffaqiyatsizlik sifatida qabul qilinadi.

Bunday nazariy fikrlardan bir muammoli xulosaga kelish mumkin, ya‘ni biror sohada eng zo‘ri bo‘lish bunday individ uchun yuqori baholanadi. Biroq, jamiyatda unchalik yuqori baholanmaydigan kasblar ham mavjud. Masalan, o‘zini yuqori malakali axlat tashuvchi, deb hisoblaydigan shaxs, o‘zini baribir unchalik yuqori baholay olmaydi. Nima bo‘lmaganda ham, o‘zini anglash kontekstida qaraladigan shaxsiy «Men» bilan bog‘liq birinchi va to‘liq konsepsiya Jeymsga tegishlidir, u integral «Men»ning ikkilamchi tabiati haqida gipoteza yuritdi, «Men»ning deskriptiv, emotsional va baholi jihatlar haqida uning ko‘pgina tushuntirishlari «Men» konsepsiyasi to‘g‘risidagi keyinchalik rivojlangan tasavvurlarga asos yaratdi.

Zamonaviy genetik psixologiya asoschilaridan biri Jeyms Mark Bolduin (1861-1934) ham bu borada yangi bir qadam qo‘ydi. Uning asarlari: «Bola va irqning ma‘naviy rivojlanishi» (1895), «Ma‘naviy taraqqiyotning sotsial va axloqiy interpretatsiyasi» (1897).

<sup>1</sup> Давидов В. О некоторых аспектах у людей // Интеракционизм в американской социологии и социальной психологии первой половины XX века. Сб. переводов / РАН ИВОН. Центр социал. науки «Информ. исследования». Отд. социологии и социал. психологии. Сост. и переводчик В. Г. Николаев. Отв. ред. Д. В. Ефремов. – М., 2010. – Стр.: Теория и история социологии. – С. 10-28.

Bolduinning umumiy tamoyillari Tard nazariyasiga yaqin, lekin agarda sotsiolog sifatida Tard guruhij jarayonlardan individga tomon borsa, psixolog sifatida Bolduin shaxsdan jamiyatga tomon boradi. Psixologiya nuqtayi nazaridan, yozadi u, sotsial tashkilot inson shaxsi va uning o‘zini o‘zi anglashi tashkiloti bilan mos tushadi. Shaxs va uning o‘zini o‘zi anglashi strukturasi, Bolduin fikriga ko‘ra, nafaqat jamiyat tashkilotini «aks ettiradi», balki u bilan aynandir.

Michigan universiteti professori Charlz Xorton Kuli (1864-1929) mazkur masalani sotsiologik jihatdan tadqiq etadi. U o‘z yondashuvini «organik» deb nomlaydi, ammo bunda u biologik organitsizmni nazarda tutmaydi, balki bu uning avval boshdanoq jamiyat va shaxsning kelib chiqishi bir ekanligini tan olganligida edi. «Shaxs» va «jamiyat» ikki alohida mohiyat emas, balki insonlarning o‘zaro aloqasidan tashkil topgan tirik jarayonning ikki jihati hisoblanadi. Mazkur jarayonni yoki shaxs tomonidan, uning o‘zini anglashi, sotsial Menning dinamikasi, yoki ijtimoiy institutlar va muloqotning fiksatsiyalangan shakllari tomonidan o‘rganish mumkin.

«Jamiyatni individlarning oddiy yig‘indisidan ko‘ra oliyroq narsa deyish mumkinmi? Ma‘lum ma‘noda, ha. Sotsial butunlikda alohida individlarda ko‘rib bo‘lmaydigan hayotiy jarayonni tashkillashtirish mavjud. Ularni alohida o‘rganib, so‘ng umumlashtirgan holda jamiyatni bir butun holicha o‘rganish tadqiqotchini berk ko‘chaga olib kirib qo‘yadi. Kuli buni «individualizm» deb atagan.

O‘zining «Inson tabiati va sotsial tartibot» (1902) nomli birinchi kitobini Kuli «tirik sotsial jarayon»ning individual, shaxsga xos jihatlariga bag‘ishlagan. Ikkinchi – «Sotsial tashkilot» (1909) kitobida esa jamiyat sotsial yaxlitlik nuqtai nazaridan olib qaralgan. Unda ijtimoiy ong alohida individlarning ongiga borib taqalmasligi ta‘kidlanadi, lekin yondoshuv tamoyili o‘sha-o‘sha edi.

Individ haqiqiy sotsial mavjudot sifatida namoyon bo‘lishi uchun, Kulining fikriga ko‘ra, o‘zini guruhdan alohida ajrata olishi, o‘z Meni, o‘z shaxsini anglagan bo‘lishi zarur. Lekin o‘zini anglashning zarur sharti – boshqalar bilan muloqot qilish va ularning fikrini o‘zlashtirish. «Biz, yoki U, yoki Ularni his etmasdan turib Menni his qilish mumkin emas»<sup>1</sup>. Ongli harakat, Kuliga ko‘ra, bu doimo sotsial harakatdir. Sotsial harakat qilish esa – o‘zining harakatlarini boshqalar

<sup>1</sup> Купе Ч. Социальная сущность // Американская социологическая мысль. Тексты. – М., 1996. – С. 319.

tomonidan shakllantirilgan o'z Menini anglash orqali amalga oshirishdir. Bizning menimiz boshqalarda qoldirgan tassurotlarimiz bilan shakllanadi. «Ko'zgudagi Men» konsepsiyasiga muvofiq inson «Men»i birinchidan, «boshqa odamlarda qanday taassurot uyg'otaman», ikkinchidan, «mazkur inson mening obrazimni qanday baholaydi» va uchinchidan, yuqoridagi tasavvurlar oqibatida kelib chiqadigan g'urur yoki tahqirlanish hissini sezadi.

Kulining fikricha, sotsial ongning har qanday akti bir vaqtning o'zida o'zini anglash hamdir. Individ o'z shaxsining sotsial jihatlarini orqali jamiyatga baho beradi. Ammo individning sotsial ongi butun bir jamiyatning ongi bilan muvofiq kelmaydi. Chunki jamiyatning ongi insonning ichki dunyosidan tashqariga chiqadi. Bu nisbatan kengroq ong (larger mind) bo'lib, Kuli uni individual ongga qarshi holda «ijtimoiy ong» (public mind) tushunchasida ifodalagan. «Ijtimoiy ongning birligi uning o'xshashligida emas, balki tarkibiy elementlarining tashkillashtirilishi, o'zaro ta'siri va sababiy bog'liqligidadir». Sotsial tashkilotning asosi esa «birlamchi guruh» hisoblanadi.

Kuli birlamchi guruh sifatida bevosita aloqada bo'lgan individlar kooperatsiyasi va assotsiatsiyasini ko'rsatadi. Insonlarning kichik guruhi bo'lib, u o'zaro simpatiya va tushunishga asoslanadi. Birlamchi guruhga kiruvchi insonlar o'zlarini «Biz» deb atay oladi. Unga misol qilib oila, do'stlar, qo'shnichilik munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Aynan shu muhitda individ sotsial mansublik hissini sezadi va umumiy ideallarni o'zlashtiradi. Kuli birlamchi guruhning individuum sotsial tabiati va ideallari shakllanishida hal etuvchi rolini e'tirof etadi.<sup>1</sup>

Kulining falsafiy an'anaga muvofiq (Adam Smit o'zini anglash boshqalar bilan muloqot natijasi ekanligi g'oyasini ilgari surgan edi) holda rivojlantirilgan «Ko'zgudagi Men» nazariyasi Jordj Gerbert Midning asarlari va ramziy interaksionizm ta'limotida yanada kengroq rivojlantirildi. XX asrning 30-yillarida unutilgan birlamchi guruh tushunchasidan bugungi kunda ijtimoiylashuv va kichik guruhlar nazariyalarida keng qo'llanilmoqda. Lekin Kuli sotsiologiyasi ham psixologizmining turli ko'rinishlari singari xatolardan xoli emas.

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. - P. 114-118.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Psixologik evolyutsionizm yo'nalishining asosiy vakillari va ularning g'oyalarini tushuntiring.
2. Instinktivizmning sotsiologiya tarixida tutgan o'rini izohlang.
3. Xalqlar psixologiyasi vakillari va ularning qarashlarini bayon eting.
4. Guruhiy psixologiya vakillarining asosiy yondoshuvlari nimalardan iborat?
5. G.Tard taqlid nazariyasining sotsiologiya tarixida tutgan o'rini izohlang.
6. Interaksionizmning paydo bo'lishi tarixini tushuntiring.

### GLOSSARIY

**Instinkt** – **ИНСТИНКТ** – **instinct** – genetik darajada o'rnatilgan, har bir tur vakilida mavjud bo'ladigan belgi yoki xususiyat.

**Instinktivizm** – **ИНСТИНКТИВИЗМ** – **instinctivism** – Sotsial hayot voqea-hodisa va jarayonlarini instinktlar nazariyasi bilan tushuntiruvchi yo'nalish (U. Mak Dugall, G. Lebon).

**«Ko'zgudagi Men» nazariyasi** – **теория «зеркального Я» – theory "mirror I"** – Charlz Xorton Kulining fikriga ko'ra, inson Meni o'z ichiga birinchidan, «men boshqa odamga qanday ko'rinaman», ikkinchidan, «bu boshqa odam meni qanday baholaydi», uchinchidan, buning natijasida kelib chiqadigan o'ziga xos g'urur yoki tahqirlanish hissini oladi.

**Olomon harakatlari** – **действие толпы** – **crowd activity** – birgalikda olomon uyushgan individlarning faoliyati.

**Psixologik evolyutsionizm** – **психологический эволюционизм** – **psychological evolutionism** – jamiyat taraqqiyotini kosmik evolyutsiyaning bir bosqichi sifatida olib qarovchi yo'nalish, bunda har bir keyingi bosqich o'zidan oldingi bosqichning yutuqlarini o'zida aks ettiradi va ular asosida rivojlanadi; organik maktabning biologizatorlik tendensiyalaridan farqli ravishda jamiyat shakllari murakkablashuvida "ongli reja"ni ko'radi.

**Psixoanaliz** – **психоанализ** – **psychoanalysis** – Zigmund Freyd tomonidan o'ylab topilgan psixoterapiya usuli.

**Ramziy (simvolik) interaksionizm – символический интеракционизм – symbolic interaksionism** – sotsial xatti-harakatni faqatgina uni amalga oshiruvchi insonning nuqtai-nazaridan kelib chiqib o'rganish g'oyasini ilgari suruvchi yo'nalish.

**Taqlid – подражание – imitation** – namunaga amal qilish, ijtimoiylashuv mexanizmi.

**Taqlid nazariyasi – теория подражания – theory of the imitation** – G.Tard asos solgan, elementar sotsial munosabatlarni e'tiqod va hohishni bironvga o'tkazish jarayoni, deb hisoblashga asoslangan nazariya.

## Z. FREYD VA UNING PSIXOANALITIK (RUHIY TAHLIL) SOTSIOLOGIYASI

### Reja:

1. Zigmund Freydning hayoti va ijodi
2. Psixoanalizning mazmun-mohiyati
3. Erkin assotsiatsiyalar ususli va tushlar ta'biri
4. Ruhiiy tahlil yo'nalishidagi konservativ oqim
5. XX asr neofreydizmi

I. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Germaniya sotsiologiya ilmida yana bir yetakchi shaxslardan biri Zigmund Freyd o'zining ulkan ishlari bilan dunyoga tanildi. U sotsiolog bo'lmasada, ko'plab mashhur sotsiologlarning (masalan, Talkott Parsons va Norbert Elias) ijodiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan, va uning ijodi bugungi kunda ham sotsiologiya nazariyotchilari uchun dolzarbligini yo'qotmagan.

Zigmund Freyd 1856-yil 6-mayda Avstro-Vengriyaning Frayberg shahrida tavallud topgan.

Buyuk olimning to'liq ismi Sigizmund Shlomo Freyd. U Yakob Freyd va Amaliya Natanson oilasida dunyoga kelgan. «Mening hayotim va psixoanaliz» maqolasida Zigmund Freyd shunday yozgan: «Men 6-may 1856-yilda Freyburgda Moraviyada, hozirgi Chexoslovakiyadagi kichik shaharchada tug'ilganman. Mening otam yahudiy va mening o'zim ham yahudiyman. Otam tarafidan bo'lgan qarindoshlarim haqida shuni bilamanki, ular Reyn yerlari, ya'ni Kyolnda yashashgan. XIV yoki XV asrlarda yahudiylarning navbatdagi ta'qib qilinishi tufayli oila Sharqqa ko'chib o'tgan va XIX asr mobaynida Litvadan Galitsiya orqali nemis tilda so'zlashuvchilar yerlariga, Avstriyaga kelishgan»<sup>1</sup>.

Yakob Freyd 1815-yil Galitsiyadagi Tismenitsya shaharchasida tug'ilgan va u yerda hayotining ilk 25 yilini o'tkazgan. U o'sha yerda uylanib, Freydning ikki akasi – Emmanuel va Filipp tug'ilishgan. Amaliya Natanson esa Ukrainada Broda shahrida dunyoga kelgan, ammo Odessada yashagan.

<sup>1</sup> Фрейд З.А., Избранные У.Н. Сопровождение текста. Узбекский вариант. – Ташкент, 2009. – С. 51.

1859-yilda uning oila a'zolari Vena shahriga ko'chib ketishadi va 1873-yili Freyd Vena universiteti qoshidagi tibbiyot maktabiga o'qishga kiradi. Ammo Freydni tibbiyot sohasiga qaraganda ilm-fan ko'proq qiziqtirardi va u fiziologiya laboratoriyasida ishlay boshlaydi<sup>1</sup>.

1876-yil martida Freyd o'qishdagi muvaffaqiyati uchun stipendiyaga erishadi va bu unga Triestdagi laboratoriyada ishlash imkonini bergan. Mazkur laboratoriyani tashkil etgan professor Karl Klaus Freydgacha o'z tadqiqotlarida ishtirok etish imkonini beradi.

Universitetni bitirgach, 1882-yili laboratoriyada ishlashni ham yakunlaydi, kasalxonada ishlay boshlaydi, asab kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha xususiy tibbiy amaliyot bilan shug'ullana boshlaydi.

Avvaliga Freyd tutqanoq sifatida ma'lum bo'lgan nevroz ko'rinishlaridan birini o'rganishga harakat qilib, gipnoz usulidan foydalanadi. U buni 1885-yili Parijda Jan Martin Sharkodan o'rganadi. Keyinchalik o'z do'sti venalik vrach Yozef Breyer boshchiligidagi tutqanoq alomatlarini yo'qota olgan davolash yo'l-yo'riqlarini o'rganadi (bemor kasallikning ilk alomatlari paydo bo'la boshlagan vaziyatlarni suhbatda gapirib bergan). 1886-yil 13-sentyabrida Freyd Marta Berneyga uylanadi (ularning oltita farzandi bo'lgan).

1895-yilda Freyd Breyer bilan birgalikda tutqanoq singari nevroz kasalliklari sababi psixologik (u davrlarda fiziologik deb hisoblangan) xususiyatga ega; ularni davolashga kasallikning kelib chiqishi sabalari to'g'risidagi suhbat muolajasini ham kiritish lozimligi kabi inqilobiy xulosalar bergan kitob nashr qilishgan. Shunday qilib, psixoanalizning amaliy va nazariy sohalarini kashf etildi. Freyd nevrozlar asosida jinsiy omillar, yanada kengroq oladigan bo'lsak, libido turishi to'g'risidagi qarorga keladi va mustaqil yo'ldan ketadi. Keyingi bir necha yillar davomida Freyd o'zining terapevtik usullarini takomillashtirdi va o'zining yangi g'oyalari asoslangan juda ko'plab kitoblar yaratdi.

1902-yilga kelib, Freyd yoniga bir nechta shogirdlarini to'plab, har hafta uyida yig'inlar olib bordi. 1903-1904-yillarda boshqa olimlar (masalan, Karl Yung) Freydning g'oyalari o'zlarining psixiatriya

faoliyatlarida foydalana boshlashdi. 1908-yilda birinchi Psixoanalitik kongress tashkil etildi va bir yildan so'ng esa psixoanalitik bilimlarni targ'ib qilish uchun davriy jurnal tashkil etildi. U paydo bo'lgandan keyin qisqa vaqt ichida Freyd Yung va boshqa shogirdlarining ayrimlari bilan aloqalarini uzdi, va psixoanalizda yangi soha shakllandi. Bu olimlar o'z g'oyalarini rivojlantirish uchun ajralib chiqdilar va o'z guruhlarini tashkil etdilar. Birinchi Jahon urushi psixoanaliz bo'yicha mutaxassislar ishi taraqqiy etishiga birmuncha to'sqinlik qildi, ammo u XX asrning 20-yillariga kelib kengaydi va sezilarli darajada rivojlandi. Natsizm taraqqiy etgandan keyin psixoanaliz markazi Qo'shma Shtatlarga ko'chib o'tdi va ayni paytda ham o'sha yerda faoliyat ko'rsatmoqda. Freyd 1938-yilgacha natsizm hokimiyatni egallaguncha yahudiy bo'lishiga va natsistlar 1933-yildayoq uning kitoblarini yoqib tashlagan bo'lishiga qaramay Venani tark etmadi. 1938-yil 4-iyunda prezident Ruzvelt sa'y-harakati bilan badal to'lash evaziga Zigmund Freyd Venadan chiqib ketgan<sup>1</sup>.

Uning qizi Annani hibsga olishadi, Freydni esa gestapoda so'roq qilishadi. Germaniyani tark etish uchun 4000 dollar to'lashga majbur bo'lgan. Freydning ikki opasi esa konsentratsion lagerga jo'natilib, 1942-yil o'sha yerda vafot etishgan.

1923-yildan boshlab Freyd jag' saratonidan aziyat cheka boshlagan va 1939-yil 23-sentyabrda Londonda vafot etgan. Chekish oqibatida kelib saratondan aziyat chekkan olim davolovchi shifokori va do'sti Maks Shurdan evtanaziyani amalga oshirishni so'ragan. Evtanaziya, ya'ni bemorning hohishiga ko'ra uni og'riqlardan forig' qilish uchun abadiy uxlatish g'oyasi o'sha kezlarda juda mashhur bo'lgan. Freyd venasidan katta miqdordagi morfiy moddasining yuborilishi oqibatida olamdan ko'z yumgan<sup>2</sup>.

Zigmund Freydning asosiy asarlari:

1. «Tushlar ta'biri» (1900).
2. «Kundalik hayot psixopatologiyasi» (1901).
3. «Leonardo da Vinchining erta xotinalaridan biri» (1910).
4. «Totem va tabu» (1913).
5. «Psixoanalizning o'tkazilishi bo'yicha m'ruzalar» (1916-1917).
6. «Lazzatlanish tamoyilining boshqa bir tomoni» (1920);

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. - P. 33.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

7. «Omnia psixologiyasi va inson «Men»ining tahlili» (1921).
8. «Men va U» (1923).
9. «Bir illyuziya kelajagi» (1927).
10. «Madaniyatdagi behalovatlik» (1929).
11. «Moisey va monoteizm» (1939).

Freyd hayoti davomida juda ko'plab asarlar yozgan, uning tanlangan asarlari 24 jildidan iborat.

Jamoatchilik fikriga ko'ra Freyd Kopernik va Eynshteyn bilan bir qatorda turadi, dunyo ilm-fanida buyuk aql egalaridan biri, inqilobchi-olimdir. Uning nazariy pozitsiyasiga bo'lgan qiziqishlari doimo mavjud bo'lgan. Sobiq ittifoqda 1920-yillarda Freydga nisbatan munosabat yaxshi edi, chunki materialistik prinsippga tayangan, deb hisoblanar edi. Shu sababli uning asosiy ishlari rus tiliga tarjima qilingan. 1930-yillarga kelib esa Freydga bo'lgan munosabat o'zgardi. U irratsioanalizmga ayblandi, uning ishlari keng olamga yetkazilmaydigan taqiqlangan kitoblar indeksiga tushib qoldi.

U tibbiyot fanlari doktori, professor darajalariga erishgan. Klark universitetining faxriy doktori, London Qirolligi jamiyatining xorijiy a'zosi, Gyote mukofoti sovrindori, Amerika psixoanalitik assotsiatsiyasi a'zosi, Fransiya psixoanalitik jamiyati a'zosi Britaniya psixoanalitik jamiyati a'zosi bo'lgan. Nafaqat psixoanaliz, balki olimning o'zi haqida ham ko'plab biografik asarlar nashr ettirilgan. Har yili u haqida boshqa bir psixologlardan ko'ra ko'proq asarlar nashr etiladi.

2. XX asrning birinchi yarmi va o'rtasida, keyin uning ikkinchi yarmida jahon sotsiologiyasi taraqqiyotini fandagi muhim yo'nalish va usul – psixoanalizsiz tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, odamning nevroitik holatlarini tashhislash va izohlashning klinik usuli sifatida sotsiologlarni psixoanaliz unchalik ilhomlantirmaydi. Ammo bu haqda qisqacha so'zlab o'tish kerak. Bu yerda davolash uslubiyati haqida gap ketmoqda, unga ko'ra, bemor o'z hayoti tarixini, unda ro'y bergan ilk voqeyalar haqida erkin hikoya qilib beradi. Ruhiiy kasalliklar shifokori esa bu hikoyada bemor nevrozining kelib chiqishi sabablarini axtaradi.

Sotsiologlarga kelsak, ular psixoanalizni fanning odam xulq-atvori haqidagi yo'nalishi sifatida qabul qilishga intilishadi. Psixoanalizda biror shaxsning faoliyati, shaxs tuzilishi muammolari, ongillik va ongsizlik o'rtasidagi bog'lanish va hokazolalar, ya'ni,

sotsiologiya rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muammolar katta o'rin egallaydi. Albatta, psixoanaliz tamoyillari ijtimoiy falsafada, madaniyatshunoslikda, tarixda, boshqa ijtimoiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarda asta-sekin tarqalgan va qo'llanganligini ham nazarda tutish lozim.

Zigmund Freyd psixoanaliz asoschisi hisoblanadi. Ilk marotaba u «psixoanaliz» tushunchasini 30 mart 1896 yil «Nevrologiya jurnali»da chiqqan fransuz tilidagi nevrozlarning kelib chiqishi to'g'risidagi maqolasida ishlatgan.<sup>1</sup>

Ochig'ini aytganda, Freyd hеч qachon sotsiolog bo'lmagan. Biz u haqda sotsiologiya pozitsiyasidan shuning uchun ham gapirmoqdamizki, uning odamga, shaxsga, uning xatti-harakati, xulq-atvoriga bo'lgan qarashlarini bir qator omillar, shu jumladan, ongillik va ongsizlik tushunchalarini hisobga olgan holda izohlash mumkin (XX asrning birinchi yarmidagi sotsiologiya fani uchun esa bu eng muhim muammolardan biri edi).

Ongsizlik Freydda alohida ahamiyatga ega, negaki uning fikricha, odamning xulq-atvori ko'p jihatdan hayotning erta bosqichlarida shakllanadigan ongsiz mayllarga bog'liqdir. Shu bilan birga, bolalik tajribasining katta qismi shaxsning xotirasida yo'qolib ketadi, ammo shu tajribaning o'zi shaxsning ongi va o'zini anglashi shakllanadigan asosni tashkil etadi.

Freyd nazariyalariga xos bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy qoidalar quyidagicha. Sotsiologiyada psixoanaliz yo'nalishining bosh muammosi – shaxs va jamiyat o'rtasida ziddiyat hamda kelishmovchilik mavjudligidir. Bu shuning uchun yuz beradiki, derdi Freyd, shaxs erkinligini cheklab qo'yadigan ijtimoiy nazorat mavjud. Freydning o'zi va uning tarafdorlari fikricha, zamonaviy sivilizatsiya, uning ma'naviy me'yorlari, taqiqlari, qattiq nazorati inson mayllarini, birinchi navbatda jinsiy maylini tiyib turadi va begonalashuv, qoniqmaslik, xulq-atvorning o'zgarishiga, nevrozlarga va hokazolarga eltadi. Ammo bunday nazorat zarurligini Freyd to'la inkor eta olmasdi, chunki uning maqsadga muvofiqligini va insonning instinktlarini jilovlash borasidagi ahamiyatini tushunar edi. Bunday "ikki xil" sharoitda u eng yaxshi chora sifatida ruhiy davolashni – mavjud vaziyatga moslashish vositasini tan olardi.

<sup>1</sup> Фрейд З. А., Неврозы и психология. Ученый и человек. – Томск, 2009. – С.

Avstriyalik olimning asarlarida shaxs va jamiyat o'rtasidagi nizo chinakam fojiali mohiyatga ega bo'lib, yaqqol ifodalangan konservativ xususiyatga ega bo'lgan va jiddiy o'zgarishlarga uchrashi amrimahol bo'lgan inson tabiati bilan bog'liqdir. To'g'ri, Freyd taxminicha, ayrim vaziyatlarda psixoanaliz usuli qo'llansa va shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoni yaxshi tashkil etilsa, odam tabiatini o'zgartirish mumkin. Ammo bu kabi istiqbollar unchalik barqaror emas, va odamning jinsiy hamda tajovuzkorlik instinktlari aql-idrok ularni boshqaradigan darajada qoniqishi dargumon. Bu esa shuni anglatadiki, bunday instinktlarning ro'yobga chiqish xavfi ham odam uchun, ham jamiyat uchun doimo saqlanib qolaveradi.

Psixoanaliz ta'limotiga ko'ra, nafaqat tashqi, balki ichki kuchlar ham odamlar xulq-atvorini belgilaydi. Ichki kuchlar esa ongli va ongsiz bo'lishi mumkin. Bu qonuniyatda esa, XX asrning birinchi yarmi – o'rtasida sotsiologiya rivojida katta rol o'ynagan Freyd ta'limotining eng muhim tarkibiy qismi aks etgan. Avstriyalik olimning xizmati shundaki, u odamlarning ongsiz mayllariga katta e'tibor berib, xatti-harakatlarning ongsiz yuz beruvchi sabablari borligini asoslab berdi.

Psixoanalizning markaziy g'oyasi – inson hayotida asosan jinsiy tusdagi ongsiz impulslarning yetakchilik qilishi haqidagi taxminga asoslangan. Buning ustiga, Freydg ko'ra, jinsiy ziddiyatlarni hal etish muammosi nafaqat har bir odamning shaxsan kamol topishida, balki tarixiy taraqqiyotda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Freyd odamning xulq-atvorini boshqaruvchi ikki instinktning farqlagan: o'z jonini saqlash va jinsiy instinktlar (libido). Ongsizlikni u libido, ya'ni lazzatlanish tamoyilidan o'zga narsani bilmagan ko'r-ko'rona instinkt quvvati bilan to'lib tushgan doira, deb talqin qilgan. Bu quvvat portlab chiqqanida odam lazzatlanadi. Ammo bu borada Freyding ijtimoiy nuqtai nazari haddan tashqari qat'iy va shuning uchun ham cheklangan edi.

O'z jonini saqlash instinktiga kelsak, u Freyding ikki instinkt – hayot (EROS) va o'lim (TANATOS) ning qarshi kurashi haqidagi ta'limotida o'z ifodasini topdi. Bu kurash jamiyat tabiatini, faoliyatini, rivojlanishini, nizolarni belgilaydi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Жорданский Г. Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – СПб.: РИО СПбГУ, 2015. – С. 77.

Ongsizlik – ichki psixik jarayonlar bo'lib, ong nazoratidan xoli kechadi. Yosh bolalarda bu holat tashqi namoyon bo'ladi, keyin esa ijtimoiylashuv natijasida u ong ostiga o'tadi. Natijada ongsizlik psixikaning eng tubiga tushib qoladi va o'zining yashirin hayotini kechiradi. U inson hayotiy faoliyatining barcha ko'rinishlari va shakllariga kirib boradi, uning oddiy harakatlaridan tortib to ilmiy-badiiy ijodini ham qamrab oladi. Ongsizlik – inson ruhining mental, qadriyatli va me'yoriy strukturalarini shakllantiruvchi psixoantropologik asosdir. U nafaqat ijodda ilhom beruvchi, yoki oddiy tush ko'rinishida, balki atrof-muhitga xavfli asoslanmagan devyatsiya, jinoyat shaklida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu strukturalar qanchalik bir-biriga zid kelsada, ular bor, xuddi nihol yer tubidagi ildizning mavjudligi uchungina ko'karganidek. Agar sotsial xulq-atvor o'zida ongsizlikni his qilmaganida edi, har qanday harakatni ratsional tarzda tushunish, "inson-mashina"ning avtomatik xulq-atvorini bemalol bashorat qilish mumkin bo'lar edi. Ongsizlik inson xulqini murakkablashtiradi, uni oldindan aytib berish imkonini yo'qqa chiqaradi. Psixik hayotning onglilik va ongsizlikka bo'linishi – inson borlig'ining eng fojiali jihati hisoblanadi. Zero, u haqiqiy fojia va ofatlarga olib kelishi mumkin.

Ongsizlikning me'yoriy jihatda namoyon bo'lishini ko'rib chiqilsa, uning to'rtta turini farqlash mumkin:

1) axloqiy bo'lmagan, ya'ni axloqiy jihatdan baholash mumkin bo'lmagan;

2) axloqiy jihatdan baholash mumkin, lekin odob-axloq doirasidan chetga chiqmaydigan;

3) odob-axloq qoidalarini buzuvchi (nojo'ya ish, nuqson);

4) huquq me'yorlarini buzuvchi (jinoyat).<sup>1</sup>

Freyding psixoanalitik konsepsiyasi jinoyatning motivatsion negizlarini kriminologik-psixologik tahlil etish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Unga ko'ra:

1) normativ yoki anormativ, kriminal xulq-atvorning insonning o'ziga ham ayon bo'lgan motivlari negizida bundanda chuqur bo'lgan motivlar va yana, yana cheksizlikkacha bo'lgan motivlar mavjud bo'ladi;

<sup>1</sup> Бачинин В. А., Савицкий Ю. А. История западной социологии: Учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2002. – С. 252.

2) jinoyatga olib kelgan biz uchun aniq bo'lgan sabab uni amalga oshirishga majbur qilgan sabablardan ancha farq qiladi;

3) jinoyat jinoyatchi anglab yetmagan batamom ongsiz psixik ustanovkalar bilan shartlangan bo'lishi mumkin;

4) jinoyatchi o'zi mustaqil holda yoki psixoanalitik ko'magida o'zini jinoyatga majburlagan ongsiz ustanovkalarining mohiyati va mazmunini tushunib yetishi mumkin;

5) sotsial xulq-atvor motivlarini aniqlashda psixikaning ongsiz tubiga kirib borishning oxiri yo'q, ya'ni birlamchi "nuqta"ga yetib bo'lmaydi, chunki ongsizlikning tubsizligi transsendental<sup>1</sup> voqyelikning metafizik cheksizligiga o'tadi.<sup>1</sup>

3. Freyd ongsizlik bilan me'yoriylik o'rtasidagi ziddiyatlarni pasaytiruvchi ikkita asosiy vositani ko'rsatadi. Birinchisi – sublimatsiya, ya'ni qondirilmagan maylni nojinsiy maqsadlarga yo'naltirish. Mazkur konsepsiyaga muvofiq bostirilgan jinsiy istaklar tansformatsiyalashib adabiyot, san'at va boshqa sohalarga yo'naltirilishi mumkin. Ikkinchisi esa – maxsus ishlab chiqilgan psixoanaliz metodi.

Freydning 1920-yilgacha yozilgan asarlarida nevrozlar ongsiz ravishdagi «lazzatlanish tamoyili» va ongli holdagi o'zini himoyalash hissi o'rtasidagi ziddiyat tufayli kelib chiqadi deyilgan. «Men va U» asarida Freyd inson psixikasida uch tarkibiy komponentni ajratadi — U (Id), Men (Ego) va Oliy Men (Superego). «U» ongsiz mayl, qiziqish, mayllarni o'z ichiga oladi. «Men», aksincha voqyelik tamoyilidir. «Superego» esa insonning sotsial me'yorlarni o'zlashtirishi natijasida paydo bo'ladi. Mazkur sotsial me'yorlar ham inson psixikasida ongsiz darajaga o'tib, vijdon va aybdorlik kabi tuyg'ularning kelib chiqishiga olib keladi.<sup>2</sup>

Uning fikricha, ong u qadar muhim hisoblanmagan begona fikrlarni ular tadqiqotchining diqqat markaziga tushgunga qadar olib tashlaydi. Ammo tadqiqotchi uchun ruhiy jarayonni o'rganishda aynan shu fikrlar muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Freyd shuning uchun erkin assotsiatsiyalar usulidan foydalandi. Taxminan 10 000 ta

<sup>1</sup> Transsendental (lot. transcendere – ustunlik) falsafada barcha kategoriya va umumiy tushunchalardan ustunlik qiluvchi ma'noda qo'llaniladi.

<sup>2</sup> Ериксон В. А., Салернос Ю. А. История западной психологии: Учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2002. – С. 254.

<sup>3</sup> Фрейд З. А., Нуралова У. Н. Социология психики. Условный словарь. – Ташкент, 2009. – С. 54.

so'zdan iborat suhbat ko'rinishidagi psixoanalitik muolaja mijoz ichki hayotining alohida jihatlarini yoritib beradi, anglanganlik va anglanmaganlik holatlarini yuzaga chiqaradi. Bunda bemorlar o'zlarini bo'sh qo'yib, hayollariga nima kelsa, o'shani aytishlari kerak bo'lgan. Freyd fikricha birinchi, tasodifiy fikr tadqiqotchi uchun aynan kerak bo'lib, u xotiralarning yoddan ko'tarilgan davomi hisoblanadi. Ong ostiga haydalgan asosiy voqyea-hodisa ong ustiga chiqadi, natijada masala oydinlashadi, psixikaga og'riqli ta'sir kuchi ma'lum miqdorda pasayadi. Natijada uning destruktiv, patogen kuchini batamom yo'q qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Freyd insonlar o'zlaridagi asosan ikki asosiy mayl – jinsiy va tajovuzkorlik (agressiya) mayllarini bostirishga majbur bo'lishlaridan aziyat chekishlarini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, sotsial me'yorlar diktaturasi boshqa diktaturalar kabi og'ir psixologik jarohatlarga olib kelishi mumkin. Qondirilmagan jinsiy mayllar yoki nevrozga, yoki frustratsiyaga olib keladiki, bunda inson o'zi anglamagan holda tabiiy impulslarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan jamiyat despotizmi, huquqiy va axloqiy me'yorlarga nisbatan nafrat bilan qaray boshlaydi. Agressiv mayllarni so'ndirish esa ayb va qo'rquv hislariga olib keladi. Shuning uchun psixoanalizning vazifasi – mijozga xohish-istak bilan taqiq o'rtasidagi og'riqli ziddiyatni yechishga yordam berishdan iborat.

Freyd o'z amaliyotidagi tipik voqyeani keltiradi. Uning qabuliga kuchli nevroz alomatlariga ega qiz keladi. Davolash davomida ma'lum bir holat aniqlanadi. Ma'lum bo'ladiki, qiz o'z opasining eriga nisbatan aniq simpatiyani sezadi. Qiz qaergadir ketganida opasi vafot etadi, lekin qiz buni bilmaydi. Qaytib kelganidan so'ng bu hodisani eshitib u o'zida "endi u erkin va menga uylanishi mumkin", degan fikrga keladi. U darhol bu fikrni unutishga harakat qiladi. Uning mayli axloqiy me'yorlar ta'sirida siqib chiqariladi, lekin yo'q bo'lib ketmaydi. So'ndirilgan mayl onging tubida yashirilib yotadi, va o'zini nevroz orqali namoyon qiladi. O'z kasalligining sababini bilmagan qiz shifokorga murojaat qiladi. Psixoanalitik usul uni hammasini eslashga, o'z holatining asosiy sababini tushunishga majbur qiladi, natijada qiz kasallikdan forig' bo'ladi. Psixoanalizning ilmiyligi va amaliy ta'siri uning ongsizlik va insonning sotsial xulq-

atvori o'rtasida haqiqiy sababiy bog'liqliklarni aniqlash hususiyati bilan belgilanadi.<sup>1</sup>

O'z konsepsiyasida jinsiy maylga ko'proq urg'u bergan Freyd bu ehtiyojni inson bolaligidanoq his qilishini ta'kidlaydi. Avvaliga u tashqi ob'ektlarni qamrab olmaydi, ya'ni bolaning o'ziga yo'nalgan bo'ladi. Freyd buni "narsissizm" deb ataydi. Ikkinchi fazasida esa bolaning o'z ota-onasiga yo'naltiriladi. Bunda o'g'il farzand onasiga mayl his qilib, otasiga raqib sifatida qaray boshlaydi. Freyd buni "Edip kompleksi" deydi. Qizlarda esa xuddi shunga o'xshash holat, ya'ni otasiga bo'lgan mayl onaga raqib sifatida qarashga sabab bo'ladi, buni "Elektra kompleksi" deb ataydi. Bu barchada insonlarning ong ostida mavjud bo'ladi, uning taqdiriga ta'sir ko'rsatadi. Normal sharoitlarda ijtimoiylashgan o'g'il, odatda boshqa ayollarga e'tibor qarata boshlaydi, otaning xulq-atvoridan o'rnak olib, unga nisbatan raqiblik hissidan xalos bo'ladi.

Freydning sotsiologiya rivojiga ta'sir ko'rsatgan g'oyalari haqida so'zlay turib, odamning ongi (hatto ongsizligi) va nutqi o'rtasidagi aloqa masalasiga to'xtalmaslik mumkin emas. Olim ta'kidlashicha, nutqdagi ko'pgina xatoliklar, so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi yoki joylashuvi tasodifan bo'lmay, balki odamning g'ayrihuuridan, so'z va xatti-harakatlar o'rtasidagi ichki kelishmovchilikdan kelib chiqadi. Yanglish aytilgan so'zlar kulgili, qayg'uli, og'ir, ammo odatda tamomila kutilmagan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ko'pincha ularda inson ruhiyati tubida yashiringan his-tuyg'ular ifodalanadi. Mana Freyd keltirgan misollardan biri. Nemis ayoldan so'rashibdi: "O'g'lingiz qaysi polkda xizmat qiladi?". Ayol javoban debdi: "42-qotillar polkida". Aslida esa u "42-minomyotchilar polkida" demoqchi bo'lgan (nemischada minomyot – morser, qotil esa morder degani). Freyd ushbu usulni (erkin assotsiatsiyalar) odamning tiyilgan mayllari bilan bog'liq ba'zi xatti-harakatlarini o'rganish uchun qo'llashni taklif qilardi. Biz: freydcha yanglish so'z, Freydg'a ko'ra yanglish so'z aytish, deb gapirishimiz bejiz emas. Bunday nutq ko'rinishlari keyinchalik sotsiologlar tomonidan ramziy interaksionizm, etnometodologiya va boshqa konsepsiyalar doirasida

<sup>1</sup> Беттани В. А., Сазунов Ю. А. История западной социологии: Учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2002. – С. 249.

(masalan, E.Gofmanning "So'zlashuv shakllari" kitobida) faol tadqiq etila boshlandi.<sup>1</sup>

1900-yilda u o'zining ilk mustaqil asari «Tushlar ta'biri»ni chiqaradi. Mazkur asar bemorning tushlarini o'rganish orqali nevroz holatini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Freyd tushlar orqali jadal psixik hayot ochiladi, deb o'ylagan. Tushlar tahlili undagi har bir tushda mavjud bo'lgan yashirin ma'no va anglanmagan haqiqatni ochib berishdan iboratdir. U qanchalik chigal bo'lsa, u shunchalik ko'p ma'no anglatadi. Mazkur hodisa psixoanaliz tilida "qarshiliklar" deb ataladi. Qarshiliklar, ya'ni to'siqlar vositasida ongsizlik o'zini himoyalaydi. Qarshiliklar ongsizlikni tushunarsiz, xavotirli fikrlarni esa shaklan o'zgartirish (deformatsiya) orqali ongli dunyodan ajratadi. Tushlar yashirin istak va xohishlarni turli belgilar orqali namoyon qiladi. Bolalarning tushlarida uning haqiqiy va yashirin mohiyati o'rtasidagi farq deyarli bo'lmaydi.

Freydning «Tushlar ta'biri» asari tush inson hayotining davomi ekanini isbotlaydi. Uning mazkur asardagi bosh fikri quyidagidan iborat: tush tashqi tomondan tushunarsiz va undagi voqeyalar o'zaro bog'lanmagan bo'lgani uchun ko'pincha g'alati va hatto fantastik, deb baholanadi, ammo aslida u faqatgina psixoanaliz vositasida aniqlanadigan muhim ma'noga ega.

Freyd yaqinlari, do'stlari, bemorlari va o'zining tushlarini tadqiq etish natijasida tushlar ko'pincha, kun davomida inson boshdan o'tkazgan voqea va hodisalar asosida bo'ladi degan xulosaga kelgan. U tush elementlari inson tajribasi mahsuli bo'lib, uning ongsizligiga tushirilganini isbotlaydi. Mazkur elementlar orasida u Edip kompleksini bolalar hayotida muhim o'rin tutishini ko'rsatgan. Edip kompleksi bolalarning qarama-qarshi jins vakillariga intilishi va o'z jinsidagilardan qo'rqishi bilan xarakterlanadi. Hayotda u psixik ziddiyatlarda namoyon bo'ladi. U tushlarda bolaning o'z ota-onasiga o'lim tilashida ko'rinishi mumkin.<sup>2</sup>

4. Freydning psixoanaliz g'oyasiga qo'shilib, sotsiologiya rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan izdoshlari ko'p edi. Bu avstriyalik ruhshunos

<sup>1</sup> Зборовский Г.Е. История психологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – Самара (и др.): РИО СурГУ, 2015. – С. 77.

<sup>2</sup> Фрейд З.А., Нураллаева У.Н. Социология террак. Углубленный курс. – Ташкент, 2009. – С. 54-55.

A.Adler, shveytsariyalik psixoanalitik va sotsiolog K.Yung, Germaniya (keyin AQSh) fani vakilasi, shifokor va psixiolog K.Xorni, amerikalik ruhshunos G.Salliven, nemis-amerika faylasufi, psixoanalitik va sotsiolog E.Fromm va boshqalar<sup>1</sup>.

Sotsiologiyada psixoanaliz yo'nalishi vujudga kelib, u ikki oqimga bo'lindi: erkin-radikal va konservativ. Birinchi oqim asosida, insonning vital (ya'ni idealistik) mayllarini, ozod qilish, ijtimoiy va jinsiy inqilobni amalga oshirish uchun mavjud ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy me'yorlarni to'liq yo'q qilish g'oyasi yotadi.

Sotsiologiyada psixoanaliz yo'nalishidagi konservativ oqim vakillariga Alfred Adler, Karl Yung, Karen Xornilarni kiritish mumkin.

Alfred Adler (1870-1937), xuddi Freyd kabi, avstriyalik ruhshunos va ruhiy kasalliklar shifokori edi. Uning qarashlari XX asrning birinchi yarmi va o'rtasida sotsiologiya rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yevropada uzoq vaqt ishlagach, Adler keyinchalik AQShga ko'chib o'tdi. Uni "individual psixologiya" va "individual psixosotsiologiya" asoschilaridan biri, deb hisoblashadi. Bu ta'limotlar yevropada ham, AQShda ham keng tarqalib, tushunuvchan sotsiologiya, ramziy interaksionizm va umuman butun gumanistik paradigma (namuna) rivojini tezlashtirdi.

Dastavval Freyd qarashlariga rioya qilib, Adler keyinchalik psixoanalizni ijtimoiylashtirish yo'lidan bordi. U Freydning ongsizlik hukmronligi g'oyasini hamda odam xulq-atvorida jinsiy instinkt ustunligi haqidagi qoidasini rad etdi va uni keltirib chiqarishda ijtimoiy omillar asosiy o'rin tutadi, degan xulosaga keldi. Unda jinsiydan o'zgacha ustunlik – odamning hukmronlikka intilishi g'oyasi paydo bo'ldi. Ana shu hukmronlik asosida insonning xulq-atvori shakllanadi, oqibati esa nevrozlarga aylanadi. Odam hayotining bolalikdan boshlab barcha turmush tarzi uning xulq-atvoriga ta'sir qiladi, chunki bolalikda uning maqsad sari intilishlari shakllanadi. Bu intilishlarda o'zining hammadan a'lo ekanligiga da'vo qilish orqali o'zini namoyon etish ehtiyoji ustunlik qiladi. Bu ehtiyoj norasolik kompleksining o'rnini qoplash vositasining "yadrosi" rolini o'ynaydi.

Freyd bilan nazariy munozaraga kirishish uchun, Adler shaxs tuzilishini talqin qilishdan (unda Men, U, Oliy-Menni ajratishdan) voz kechdi hamda ijtimoiy omillar hukmronligi ta'sirida xatti-harakatlari

shakllanadigan shaxs birligi tamoyilini qabul qildi. Natijada Z.Freyd bilan orasi uzildi<sup>1</sup>.

"Norasolik kompleksi"ni yengishga qaratilgan va "kompensatsiya va o'ta kompensatsiya" rolini bajaruvchi ijtimoiy hissiyot (ijtimoiy mayl) esa, Adlerda individual psixosotsiologiyaning asosiy xususiyatiga aylandi. Barcha nevroz va psixozlarda, insonning barcha omadsizliklarida, fojialarida, deviant xulq ko'rinishlarida (jinoyatchilik, alkogolizm, o'z joniga qasd qilish, jinsiy buzuvchiliklar) u ijtimoiy hissiyot yetishmovchiligini ko'rardi.

"Inson tabiatini anglash" nomli asarida u shaxsga asosan ijtimoiy jihatdan qarardi, shaxsga avvalambor atrofidagi ijtimoiy munosabatlar ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblardi. Unga ko'ra, odamning xatti-harakatlarini u yashaydigan ijtimoiy muhitdan ayri holda baholab bo'lmaydi, chunki aynan ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sir chog'ida shaxsning biror bir xislatlari yuzaga chiqadi.

Shu tariqa, bir tomondan, olim inson norasoligining biologik va ruhiy xususiyatlarini tadqiq etadi, boshqa tomondan esa – ularni yengish, "ijtimoiy tuyg'u"ni ro'yobga chiqarish hisobiga o'rnini to'ldirish imkoniyatlariga diqqat qaratadi. Uning ijodini o'rganuvchilar qayd etishicha, uning ijodida ikki toifa asosiy hisoblangan: "norasolik kompleksi" va "kompensatsiya va oliy kompensatsiya tamoyili". Aynan kompensatsiya va oliy kompensatsiya mexanizmlarini Adler odam xatti-harakatlarining ustunlik qiluvchi sabablari, deb tushungan.

Agar kompensatsiya ustunlikka intilish bilan bog'liq ijtimoiy tuyg'u evaziga shaxsning norasolik kompleksini yengishga intilishini anglatasa, o'ta kompensatsiya shaxsning qandaydir haddan tashqari yomon xislati yoki qobiliyatining bir tomonlama rivojlanishi oqibatida bu kompleksni yengishga tayyorligini bildirgan. Bu borada odam shunday intilishni o'zi anglamasligi mumkin, chunki intilish ongsiz yuz beradi. Adlerning xizmati – ongsizlikni ijtimoiylashtirishda, uni shaxsning ichki kamoloti bilan bog'lashga intilishidir.

Shveytsariyalik tadqiqotchi Karl Yung (1875-1961) ham psixosotsiologik ta'limot doirasida, katta natijalarga erishdi. Xuddi Adler singari, Yung ham ma'lum vaqt Freydning ta'siriga tushib qolgan edi (u Freydning do'sti va xodimi edi), ammo keyinchalik

<sup>1</sup> Жордэвский Г.Е. История социологии: очерковый этап: учеб. для вузов. 3-е изд., испр. и доп. – Сургут [и др.]: РИО СУрГУТУ, 2013. – С. 78.

panseksualizm va nevrozlarning jinsiy kelib chiqishi g'oyalardan voz kechdi (bu esa Freyddan uzilishga va uning psixoanaliz konsepsiyasini rad etishiga olib keldi). Yung libidoning boshqacha talqinini taklif etib, uni insonning ruhiy quvvati sifatida izohladi. Bu quvvat ham shaxsning ruhiy hayotini, ham madaniyat va sivilizatsiya taraqqiyotining ruhiy-energetik asosini belgilab beradi.

Olim fikricha, odam ruhiyatida ongsiz sabablar buzilgan holda "o'ynaladi". Ammo Yung odam xatti-harakatlarida ongsizlikning hal qiluvchi o'rini inkor etmadi. Boz ustiga, u ongsizlik tuzilishini murakkablashtirib, unda individual ongsizlik va jamoaviy ongsizlikni ajratib ko'rsatdi. Bu ikki komponent, individual ong va jamoaviy ong bilan bir qatorda, birlashganda shaxsning o'ziga xos to'rt unsurlu tuzilmasini tashkil etadi. Yung jamoaviy ongsizlikka alohida ahamiyat berib, uni avloddan avlodga o'tadigan va odam xulq-atvorining muayyan arxetiplarini (tug'ma ruhiy tuzilishlar, obrazlarni) tashkil etadigan tushuncha sifatida baholadi.

Arxetiplar muammosi uning ijodida sezilarli o'rin egallaydi, chunki olim ular yordamida nafaqat afsona, din, san'at, tushlarni, balki falsafa, sotsiologiya, siyosat va boshqa fanlarning bir qator muammolarini izohlab berdi. Dyurkgeymning "jamoaviy tasavvurlari"ni eslatuvchi Yungning arxetiplari tafakkur, jamoaviy obrazlar va timsollarning ko'pgina shakllari asosi bo'lib, odam xulq-atvorining o'ziga xos kodlangan dasturlarini namoyon etgan. Barcha arxetiplar orasida shaxsning yashirin markazi bo'lmish "o'zlik" arxetipi asosiy o'rin egallagan.

Yung ko'pgina tarixiy va madaniy jarayonlarni ongsizlikning ta'siri bilan izohlagan. Shu bilan birga, tarixning o'zi va uning aniq ko'rinishlari "odam qalbining ongsiz faoliyati" ko'zgusi orqali ko'rilgan. Madaniyatga kelsak, Yung uning rivojini odamlarning instinktlarini tiyib turish jarayoni kabi sharhlagan. Aynan shuning oqibatida tabiat va madaniyat o'rtasida nevrozlarga olib keladigan ixtiloflar vujudga keladi. Bu jarayonda jamiyatning industrial rivojlanishi sezilarli o'rin egallaydi, chunki u odamni tabiatdan yiroqlashtiradi, irratsionalizmni kuchaytiradi va totalitarizm asosini tashkil etuvchi ommaviy psixozlar ko'payishiga olib keladi.

Yung shaxsning ikki asosiy qarama-qarshi tipini – ekstravert va introvert tiplarini ajratdi. Bunday tipologiya uchun shaxsning ijtimoiy muhitga munosabati asos qilib olindi. Introvert tipidagi shaxs butun

ruhiy quvvatini o'z ichiga qaratadi, ekstravert esa – tashqariga. Bu tipologiya shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro munosabatlarini o'rganishda muhim rol o'ynadi, u ham sotsiologiya, ham ijtimoiy ruhiyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

5. Sotsiologiyada freydizm neofreydizmga qadar yo'lni bosib o'tgan. Neofreydizm asosan AQSHda, ruhiy tahlilning amerikacha sotsiologiya bilan birlashuvi zahirida vujudga keldi, uning asosiy namoyandalari esa K.Xorni, E.Fromm, D.Rismen edi. Neofreydizm shaxs ruhiyatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar ahamiyati sezilarli kuchayadi. Freydda asosiy tushuncha hisoblangan va unda faqat biologik mexanizmlar bilan bog'liq bo'lgan ongsizlik neofreydizmga ijtimoiy va ruhiy tuzilmalar o'rtasida bog'lovchi bo'g'ingga (misol uchun, Frommda – "ijtimoiy ongsizlik"ka) aylandi.

Neofreydizm shaxslar o'rtasidagi munosabatlar (ruhiy jarayonlar o'rniga) asosiy e'tibor mavzui bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi neofreydizmga sotsial xarakter tiplari bilan bir qatorda, markaziy muammolardan biriga aylanadi, undan tashqarida esa bunday moslashuv xususiyatlari tushunarsiz bo'lib qoladi. "Yangi" ruhiy tahlil nuqtai nazaridan, bu usulning bosh vazifasi – insonning ijtimoiy aloqalari tizimida nuqsonlar va kelishmovchiliklarni izlash, bu esa uning mavjud turmush tarziga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Quyida neofreydizm vakillarining qarashlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Karen Xorni (1885-1952) neofreydizm sotsiologiyasining birinchi eng yirik nazariyotchisi va asoschisi hisoblanadi. Mashhur Berlin psixoanalitik institutida 1932-yilgacha ishlagan vaqtlarida, olima klassik psixoanaliz doirasida tadqiqotlar o'tkazgan edi. Fashizm hokimiyat tepasiga kelishi arafasida AQSHga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. 1941-yilda u AQSH psixoanalitik institutini tashkil etib, uni boshqaradi. Shuning uchun u nemis-amerika olimasi hisoblanadi. Asosiy asarlari: "Zamonamizning nevroitik shaxsi", "Psixoanalizda yangi yo'llar", "Nevrozlar va inson rivojlanishi".

Xorni uzoq vaqt davomida dastavval Freyd, so'ng Adler va Yung g'oyalari ta'sirida edi. Inson xulq-atvori ongsiz ruhiy jarayonlar ta'sirida shakllanishi haqida qoidani qabul qilgach, u sekin-asta Freydning ko'pgina g'oyalariga qarshi chiqdi. Masalan, Freydning instinktlar nazariyasini, libido konsepsiyasini, ruhiy holatlar

(avvalambor ongsiz ruhiy holatlar) biologik genezisining aksentuatsiyasini, Freyd tomonidan "madaniy omillar" ahamiyati inkor etilishini tanqid ostiga oldi. Xorni taxminicha, ongsiz impulslarda (instinktlar) aniq bir madaniyat o'z izini qoldiradi, chunki ular nafaqat biologik omillar, balki ijtimoiy muhit ta'sirida vujudga keladi. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit hatto biologik omillardan kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uning fikricha, ongsiz mayllar ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'langan va hatto moslashuv vazifasini o'tashi mumkin.

Ana shu nuqtai nazardan, tadqiqotchining shaxsning ichki nizolari va ularni hal etish usullarini ko'rib chiqishga yondashuvi kelib chiqqan. Bu nizolar ongsiz komplekslar, instinktlar, mayllar bilan bog'liq bo'lib, ma'lum ma'noda ruhiy darajada ijtimoiy ziddiyatlar va antagonizmlarni aks ettiradi.

Xorning shaxsning ichki nizolariga e'tibor qaratib, shaxs rivojlanishining ikki asosiy yo'lini o'rgangan: normal va nevrotik. Agar normal rivojlanishda odam iste'dodi va qobiliyatlari oddiygina ro'yobga chiqsa, nevrotik rivojlanish xulq-atvordagi patologik o'zgarishlarni aks ettiradi va o'z qobig'iga burkalib qolishga, depersonalizatsiyaga, shaxsiyat buzilishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun Xorni nevrozlarning sabablarini va davolash usullarini izlashga katta e'tibor bergan. Uning fikricha, nevrozlarga ham odamga "kasal jamiyat" ta'siri oqibati, ham ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar hosilasi, ham shaxslar o'rtasidagi munosabatlar buzilishi omili sifatida qarash kerak. Shu bilan birga, uning taxminicha, inson ruhiyatida o'zini namoyon etish bilan bog'liq ulkan salohiyat yashiringan. Aynan u shaxsga muayyan ijtimoiy muhit, madaniyat, shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar yetkazadigan shikastga qarshi kurashishi uchun imkon beradi. Bu maqsadga erishish uchun, odam o'zining "haqiqiy Men"ini ro'yobga chiqarishi kerak, bu esa unga ijtimoiy va madaniy muhitning yemiruvchi ta'siriga nisbatan individual mustaqilligini saqlab qolishiga imkon beradi.

Freydning ongsizlikning roli haqidagi g'oyasiga qo'shilib, Xorni jinsiy instinkt o'rni inson xulq-atvorining asosiy omili sifatida uning xavfsizlikka intilishini ko'rgan. Bu intilishni u odamning xavf sezish, tashvishlanish, begonalashuv hislari bilan bog'lagan.

Olimaning odamlar xulq-atvori modellarining tipologiyasi ana shundan kelib chiqqan:

1) birinchi tip xavfsizlikka erishishning asosiy vositasi sifatida insonning odamlar orasiga intilishi (ular bilan birga bo'lish, bir sotsial jamoaga mansublik) bilan belgilanadi;

2) ikkinchi tip odamlardan uzoqlashishga intilish sifatida izohlanadi (xavfsizlik – insonning o'z individual olamidagina mavjud, chunki ijtimoiy muhit begonalashuv omili hisoblanadi);

3) uchinchi tipga insonning odamlarga qarshi turishga intilishi kiradi (odamlar dunyosi qo'porib tashlash kerak bo'lgan dushman olami sifatida qabul qilinadi).<sup>1</sup>

Bu tasnifdan yana bir – nizoli, nevrotik shaxs tasnifi kelib chiqadi. Uning asosiy tiplari – xulq-atvorning asosiy tiplariga to'g'ri keluvchi barqaror, o'z qobig'iga burkangan, destruktiv tiplar.

Umuman Xorni ta'limotini o'z xususiyatiga ko'ra psixosotsiologik deb ta'riflash mumkin. Bu ta'limot yaqqol ijtimoiy yo'naltirilgandir. Biroq inson xulq-atvori va faoliyatini shartlab qo'yuvchi shaxsning ichki omillari va ijtimoiy omillar o'rtasidagi munosabatlarni izohlashdagi ziddiyatlarni olima yenga olmadi. Bu esa Xorning ijtimoiy va madaniy omillarga murojaat etmay va ularni inson manfaatlarini yo'lida o'zgartirmay turib, faqat shaxsning o'zidan resurslarni izlash orqali nevroz muammosini hal etish usullarida o'z aksini topdi.

Psixooanalizda erkin-radikal oqim vakillari: Erix Fromm, Devid Rismen hisoblanadi.

Freyddan keyingi ijtimoiy tafakkurda ruhiy tahlil muammolarini ko'zdan kechira turib, uning cho'qqisini ajratib ko'rsatmaslikning iloji yo'q. Ijtimoiy nuqtai nazardan bu cho'qqi – Fromm ta'limotidir. Uning ta'limoti tom ma'noda gumanistik ta'limotdir.

Erix Fromm (1900-1980) – nemis-amerika faylasufi, sotsiolog, psixooanalitik. Frommning ilmiy merosini qat'iy qandaydir bir fanga kiritib bo'lmaydi. Ammo uning butun ijodida bosh muammo – inson muammosi ekanini aytishimiz mumkin. U Frommning turli yillarda, ammo asosan Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi ishlarida markaziy o'rin egallaydi. Shaxs muammolari dolzarb ahamiyat kasb etishining sabablari – Frommning hayot qadri ni anglab yetishi (urush

<sup>1</sup> Морозовский Г.Е. История социологии: современная теория: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – СПб.: ИД РАН, 2015. – С. 80.

bu masalalarni o'z-o'zidan ko'ndalang qo'yadi), kapitalizmning yangi sharoitlarda rivojlanishi (bu esa insonning begonalashuvi va unga yemiruvchi kuchlarning ta'sir etishi muammolariga o'zgacha qarashga majbur qildi), va nihoyat, jahon ijtimoiy tafakkurida inson muammolariga umumiy qiziqishning keskin kuchayishi, radikal, ya'ni qat'iy insonparvarlikning paydo bo'lishi va taraqqiy etishidir.

Fromm ta'limotida bosh mavzu – inson xulq-atvorining ijtimoiy bog'liqligi. Olim shunday prinsipial qoidadan kelib chiqadiki, unga ko'ra, o'rtacha individ shaxsiyatining tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma bir-biriga chambarchas bog'liq. Ijtimoiy muhit shaxs uchun uning instinktlari, shu jumladan, jinsiy instinktsidan ko'ra ancha ahamiyatli. Olimning fikricha, odamlarga azaldan xos bo'lgan faqat biologik mexanizmlarni ochib berish orqali, inson tabiatini izohlab bo'lmaydi. Ammo xulq-atvorning asosiy sabablarini faqat ijtimoiy-madaniy omillardan izlash yaramaydi. Sotsiolog o'ylashicha, faqat biologik, faqat ruhiy yoki faqat ijtimoiy omillarni ayri holda tahlil qilishga yo'l qo'ymaslik lozim, negaki, noyob bir-butun mavjudot bo'lmish insonda hamma narsa o'zaro bog'langandir.

Fromm, inson shaxsiyatini o'rganishga asosiy yondashuv odamning dunyoga, boshqa odamlarga, tabiatga va o'ziga munosabatini anglashdan iborat bo'lishi kerakligini isbotladi. Inson tashqi muhit o'zgarishlariga o'zining o'zgarishi bilan javob beradi. O'z navbatida, ruhiy omillar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning yanada rivojlanishiga ko'maklashadi.

Olim yozishicha, inson o'zi haqida hamma narsalarni, o'tmishi, kelajagi, o'zini muqarrar o'lim kutayotganini, ojiz va faqir ekanligini biladi. Inson o'z ojizligi va umri qisqaligini tushunadi. Inson, deydi Fromm, o'z hayoti muammo bo'lib tuyuladigan yagona mavjudotdir. Inson bu muammoni hal etmog'i kerak va bundan qochib ketib bo'lmaydi.

Fromm fikricha, shaxs ziddiyati – unga ham obyektiv tabiiy jarayonlar (hayot va o'lim), ham iqtisodiy va siyosiy jarayonlar (fan-texnika inqilobi, sanoatlashuv, siyosiy hokimiyat va hokazo) ziddiyatli ta'sir ko'rsatgani sabablidir. Frommning borliq va egalik qilish haqidagi ta'limoti ana shundan kelib chiqqan. Uning mazmuni quyidagicha. Insoniyat boshlangan inqiroz oqibatida iqtisodiy va ruhiy falokatga yaqin turibdi. Tang vaziyatdan chiqish uchun faqat inson tabiatini o'zgartirish zarur. Hozir uning bosh maqsadi – egalik qilish,

kelgusi maqsadi – yashash. Gap iste'molchi jamiyatdan insonparvarlik hukmronligiga asoslangan sog'lom, normal jamiyatga o'tish haqida ketmoqda. Inson jamiyatini qutqarish va o'zgartirish bo'yicha Frommning strategik rejası xuddi shunday.

Olim nazarida, ikki tamoyil – egalik qilish va bortliq inson "qalbi" uchun kurash olib bormoqda. "Ega bo'lmoq" tamoyili pirovard-natijada biologik omildan, o'z jonini saqlashga intilishdan, "mavjud bo'lmoq" tamoyili esa – ijtimoiy omildan kuch to'playdi. U inson hayotining o'ziga xos sharoitlarida kuchga kiradi. Binobarin, odam manfaatparastlikka berilmay, nafsiga zo'r bermay, o'zligini saqlab qolishi, fazilatlarini kamol toptirishi kerak. Inson hayotining moduslari (ko'rinishlari) muammosi aynan shudir, u olim tomonidan hammaga ma'lum dixotomiya (ikkilanish) – egalik qilish yoki mavjud bo'lish ko'rinishida shakllantirildi.

Frommning shaxs haqidagi ta'limotida favqulodda muhim toifa – muhabbatdir. Sevgi deganda, u har bir insonning hayotiy ehtiyojini ham, odamlarni jipslashtiruvchi buyuk kuchni ham tushungan. Biroq zamonaviy G'arb jamiyati sevgining kamoloti uchun tegishli sharoitlar yaratmayapti; aksincha, birlashtiruvchi sevgi o'rniga ajratuvchi nafratga e'tibor berilmoqda. "Sevish san'ati" kitobida ham muhabbat nazariyasi, ham amaliyoti ko'rib chiqiladi. "Sevgi nazariyasi" bo'limida esa muhabbat butun tarix davomida inson hayoti muammosini hal etishi ko'rsatiladi.

Fromm muhabbatning turli ko'rinishlarini tahlil qilib, ota-ona va bolalar o'rtasidagi muhabbatni alohida ajratib ko'rsatadi. Muhabbat ob'ektlari singari mezon bo'yicha olim uning quyidagi turlarini sanab o'tadi: do'stona muhabbat, ona muhabbati, shahvoniy muhabbat, o'ziga muhabbat, Xudoga muhabbat. Asarning maxsus bo'limi shunday ataladi: "Zamonaviy G'arb jamiyatida muhabbat va uning tanazzuli". Boshqa tadqiqotlarida, xususan, "Inson qalbi" asarida Fromm "o'likka muhabbat" va "tirikka muhabbat" mavjudligini qayd etib, tirikka muhabbatni zo'ravonlikning turli shakllariga qarshi qo'yadi. Insonparvar olim sifatida u mazkur o'ta individual, ammo ayni damda ijtimoiy-axloqiy muammoni chetlab o'tolmasdi.

Inson muammosini o'rgana turib, Fromm uning muloqot qilishga, ijodga, bilim olishga, hayotini yo'lga qo'yishga, chuqur ildizlarini sezishga va hokazolarga intilishga bo'lgan ehtiyojlarini tahlil qiladi. Ammo, olim inson xulq-atvorining chuqur ko'rinishlarini o'rganishi

sababli, u shaxsning otining yemiruvchi shakllari tahlilidan chetlasha olmaydi. Fromm "inson destruktivligi anatomiyasi"ni tahlil qilib (mutafakkir asarlaridan biri xuddi shunday nomlangan), uning sabablarini ko'rsatadi. Bu o'z-o'zi bilan aloqalarni yo'qotish bo'lishi mumkin, buning oqibatida esa shaxsning buzilishi (destruktivlik) hodisasi vujudga keladi. Yana bir sabab sifatida, jamiyat va boshqa odamlar bilan aloqa va muloqotning yo'qolishi tahlil etiladi. Odam tomonidan yaratiladigan, ammo uni o'ziga tobe qilib qo'yadigan ijtimoiy va siyosiy vaziyatlar ham, shaxs "buzilishi"ga sabab bo'lishi mumkin. Fromm "Inson destruktivligi anatomiyasi" kitobida, tirik haqiqiy inson hayotining real sharoitlariga murojaat etganini yozadi.

Olim ta'kidlaydiki, har bir insonda ikki intilish – hayotga muhabbat (biofiliya) hamda o'limga muhabbat (nekrofiliya) xislatlari mavjud bo'ladi<sup>1</sup>. Odam biofil yoki nekrofilga aylanishi mumkin. Agar u hayotga intilishni bas qilsa, o'lim instinkti yutib chiqadi. Lug'atlarda nekrofiliya murdaga jinsiy mayl sifatida ta'riflangan. Frommda bu tushuncha ancha keng va boy. U umuman jinsiy asosga qurilmagan. Gap turli shakllarda qo'poruvchilikka intilish haqida ketmoqda.

Nekrofiliya holatlaridan birini Fromm "Adolf Gitler. Nekrofilyaning klinik holati" asarida muhokama etadi. Shunday nomli kitobda Frommning boshqa, mohiyatan o'xshash asari: "Genrix Gimmler: sadizmning klinik holati" keltiriladi. Frommda nekrofiliyaga yondashuv, uning insonparvarlik xislatlaridan yiroqlashayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida vujudga kelishini tahlil qilish bilan bog'langan. Olim nekrofiliani diktaturalar, terrorizmning yashirish tayanchi, deb hisoblaydi. "Nekrofilni qanday ajratish mumkin?" degan savolga u quyidagicha javob bergan: "unday odamni zulmat va tibsizlik o'z og'ushiga tortadi. Inson shafqatsizlik, his-tuyg'ular distrofiyasi bilan bog'liq nekrofil komplekslarini o'zi yaratadi".

Shaxs muammolarini keng qo'yish va ularni hal etish yo'llarini izlash orqali, Fromm sotsial xarakter nazariyasining muhim ahamiyati va uning muayyan turlarini aniqlash haqida xulosaga keldi.

Frommda sotsial xarakter – shaxs ruhiyati va jamiyatning ijtimoiy tuzilishi o'rtasidagi aloqa shaklidir. U jamiyat o'zagi hisoblangan sotsial xarakterni individual xarakterdan farqlaydi. Farqi shundaki,

<sup>1</sup> Жорданский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – Сургут [и др.]: ИНО СУрГУТУ, 2015. – С. 84.

individual xarakter bir madaniyat doirasidagi odamlarga xos, zero, sotsial xarakter bir madaniyatning boshqasidan farqlarini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Xarakter – bu inson ruhiy quvvatini kristallash shakli bo'lib, u ijtimoiy turmushda bu quvvatdan ishlab chiqarish kuchi sifatida foydalanishga imkon beradi. "Inson o'zi uchun" nomli asarida olim shunday yozadi: "Xarakterning tub asosi menga... shaxsning dunyo bilan o'ziga xos munosabatlarida ko'rinadi. Inson o'z umri davomida 1) narsalarga ega bo'lish va ularni assimilyasiya qilish orqali, 2) odamlar (va o'zi bilan) bilan muloqot qilish orqali, dunyo bilan munosabatga kirishadi. Birinchisini men assimilyasiya jarayoni; ikkinchisini – ijtimoiylashtirish jarayoni deb atayman".<sup>1</sup> Fromm fikricha, biror shaxs dunyo bilan aloqaga kirishadigan mo'ljal va rejalar uning xakteri mohiyatini belgilab beradi.

Xarakterni shaxs ruhiyati darajasida muhokama qila turib, Fromm keyin uning ijtimoiy tahliliga o'tadi. "Biror bir ijtimoiy sinf yoki madaniyatning ko'pchilik vakillari xarakterning o'xshash ahamiyatli unsurlariga ega bo'lishi, shuningdek, vakillarning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan xarakter mohiyatini namoyish etuvchi "sotsial xarakter" mavjudligi esa, ijtimoiy va madaniy modellar ham xarakterni shakllantirishda ishtirok etishini ko'rsatadi", deb yozadi u<sup>2</sup>.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichiga o'z sotsial xakteri xos. Fromm o'z zamonasidagi kapitalizm bosqichiga xos sotsial xarakter tiplarini muhokama etib, ularni samarali va samarasiz mo'ljal (orientatsiya, yo'nalganlik) bilan bog'laydi. Bu borada, samarasiz mo'ljal bilan bog'liq xarakter tiplariga asosiy e'tibor qaratadi. U o'zi yashagan kapitalistik jamiyatni salbiy qabul qilganini va uni bir qator asarlarida keskin tanqid qilganini hisobga olsak, bu o'z-o'zidan tushunarli. Samarasiz mo'ljalli sotsial xakterning asosiy tiplari quyidagilar:

- retseptiv (sust);
- ekspluatatorcha;
- tamagirlik;
- bozor tiplari.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Фромм Э. Человек для себя. – Минск, 1992. – С. 62.

<sup>2</sup> Жорданский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – Сургут [и др.]: ИНО СУрГУТУ, 2015. – С. 85.

<sup>3</sup> Қайсар: Крайченко А.Н. Крайченко А.Н. Социология в 2 т. Новые и новейшие социологические теории через призму социологического воображения. – М.: Юрайт, 2016. – С. 166-167.

Retseptiv (sus.) xarakter (yoki mo'ljal), odam biror narsani tashqaridan, ya'ni, tashqi manbadan olishga harakat qilishini anglatadi. Bunday xarakter tipiga ega bo'lgan odamlar nafaqat ularga bilim beruvchi va yordam ko'rsatuvchi nufuzli odamlarga, balki umuman biror yordam ko'rsatishga qodir bo'lgan odamlarga qaram bo'lishadi. Bunday odamlar muammo yechimi va javobgarlik mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir emas. Retseptiv mo'ljalni Fromm oluvchi, deb ataydi.

Ekspluatatorcha xarakter tipi retseptivga shunisi bilan yaqinki, bunday xislatli odamlar barcha narsalar manbaini tashqarida ko'rishadi. Ammo tafovut shundaki, ular boshqalardan biror narsani sovg'a tariqasida olishga umid qilmasdan, balki, ulardan narsalarni kuch yoki ayyorlik ishlatib tortib olishadi. Fromm yozadi: "Ular boshqalardan tortib oladigan narsalar bilangina qanoatlanishi tufayli, boshqalarga tegishli narsalarga ortiqcha baho berishga va o'z shaxsiy narsalariga kam baho berishga moyil bo'lishadi"<sup>1</sup>. Ekspluatatorcha mo'ljalni u egallab oluvchi, deb ataydi.

Tamagirlik xarakter tipi ilk ikki tipdan tamomila farq qiladi. Uning bosh jihati – xasislik, tejamkorlik, ziqnalik. Bu xarakter tipiga mansub odamlar nafaqat pul, moddiy buyumlarni, hatto muhabbatni ham imkon boricha kamroq berishga harakat qilishadi. Bunda muhimi – egalik qilish. Ta'magirlik xarakter tipi ba'zan bema'nilik darajasiga olib boriladigan maydakashligi, batartibli, ehtiyotkorligi bilan ajralib turadi. Fromm bunday tipni ehtiyot qiluvchi (tejamkor), deb ataydi.

Bozoriy xarakter tipini u eng batafsil ko'rib chiqadi. Agar ilk uch tip o'tmishda ham uchragan bo'lsa, bozor tipi faqat hozirgi zamonda ustunlik qila boshladi. Bu mo'ljalning modeli bozor va uning zamonaviy jamiyatdagi iqtisodiy vazifasi bilan belgilanadi. Zamonaviy bozorning o'ziga xos jihati – uchrashuv joyi emas, balki mavhum va shaxssiz talab mexanizmi bo'lganligi sababli, bozoriy xarakter tipi ham odamlarning istalgan qadriyatni, shu jumladan odamlar qimmatini ham ayirboshlash qiymati, deb qabul qilishlarini anglatadi. Bunday odamlar uchun ham shaxsiyat, ham tovar bozori baholari doim bir xildir. Shu munosabat bilan Fromm yozadi: "Inson o'z hayoti va baxti haqida emas, balki bozori chaqqon tovarga

<sup>1</sup> Фромм Э. Число для себя. – Минск, 1992. – С. 69.

aylanishi haqida qayg'uradi"<sup>1</sup>. Shuning uchun Fromm uni ayirboshlovchi deb ataydi.

Bozoriy xarakter tipini tahlil qilishda olimning tenglik haqidagi mulohazalari va shundan kelib chiqadigan xulosalari muhimdir. U shunday ta'kidlaydi: "Bugun tenglik o'zaro almashuvchanlik ekvivalenti bo'lib qoldi, bu esa individual xislatlarni ro'yirost inkor etish degani. Har bir insonning betakrorligini rivojlantirish o'rniga, tenglik individual xislatlar barham topishini, bozoriy mo'ljal uchun xos bo'lgan "o'zligidan voz kechish"ni anglatmoqda. Tenglik farqlanish bilan bog'lanar edi, ammo "befarqlik" muqobiliga aylandi; aslida ham, befarqlik zamonaviy odamning o'ziga va boshqalarga munosabatini ifodalaydi"<sup>2</sup>. Garchi Fromm bozoriy xarakter tipini samarasiz mo'ljallardan biriga kiritisa-da, bozoriy tip qolgan uchtasidan farq qilib, alohida o'rin egallaydi. Bu yerda individual xislatlar so'nggi o'ringa qo'yiladi, ayirboshlash buyumi bo'la oladigan narsalar esa birinchi o'ringa chiqadi.

Fromm ta'kidlashicha, xarakterning barcha to'rt tipi "inson hayotida o'z joyiga ega, biror o'ziga xos mo'ljalning ustunligi esa ko'p jihatdan shaxsni qurshab olgan madaniy muhitga bog'liq"<sup>3</sup>. Boshqalarni ekspluatatsiya qilish huquqi bir guruhga birlashtirilgan jamiyatlarda esa, retseptiv mo'ljalni ko'p uchratish mumkin (Fromm avvalambor quldorlik jamiyatini nazarda tutmoqda). "O'zimga kerakli narsalarni olaman" degan shiorni olg'a suruvchi ta'magirlik xakteri esa bizga qarochilar, feodallar, XIX asrning magnat-talotchilarini eslatib yuboradi. XVIII-XIX asrlarda ta'magirlik mo'ljallari ekspluatatorlik mo'ljallari bilan yonma-yon yashagan. Bozoriy mo'ljal ildizlarini bu asrlardan qidirish kerakmas. U zamonaviy mahsulotdir. O'ram, yorliq, firma belgisi faqat yaqindagina tovarlar uchun ham, odamlar uchun ham muhim bo'lib qoldi.

Samarasiz mo'ljalning sotsial xakteri tiplarini ko'rib chiqishga yakun yasay turib, Fromm shunday xulosaga keladi: "Shaxsning o'z qiyofasi, mazmunini va hayot ma'nosini yo'qotishi, avtomatlashuvi qoniqmaslik hissi kuchayishiga hamda shu mo'ljalga eltuvchi yanada munosib turmush tarzi va me'yorlarini izlashga majbur qiladi. Samarali mo'ljal esa... shunday xarakter tipini namoyish etadiki,

<sup>1</sup> Фромм Э. Число для себя. – Минск, 1992. – С. 73.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 77.

<sup>3</sup> O'sha joyda. – B. 80.

bunda insonning barcha imkoniyatlari o'sishi va rivojlanishi – qolgan barcha xatti-harakatlar bo'ysunadigan mo'ljal bo'lib qoladi"<sup>1</sup>.

Shunday qilib, samarali yo'nalganlik, yohud Fromm ataganidek, samarali xarakter inson taraqqiyoti mo'ljalini ko'zlaydi va insonparvar axloq namunasi hisoblanadi. Fromm "samaradorlik" tushunchasini tahlil qilishga ko'p e'tibor beradi. Uning nazdida, bu insonning o'z kuchlarini ishlatish va o'z tug'ma imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish qobiliyatidir. Boshqa yerda u samaradorlikni ijod, ayniqsa, badiiy ijod bilan bog'laydi. Samaradorlikka yana bir yondashuv, uni ruhan va ma'nan shikast yemagan har bir inson qodir bo'lgan ko'rsatma sifatida qabul qilish bilan bog'liq. Samaradorlik shuningdek faollik muqobili ham hisoblanadi. Pirovard natijada u odamning dunyoga munosabatining o'ziga xos usuli sifatida baholanadi. Fromm samarali xarakter yoxud samarali mo'ljalning uch tipini keltiradi: faol, sevuvchi, aqlli.

U sotsial xarakter tiplarini aniqlay turib, klassik kapitalizmga jamg'arish, individualizm, tajovuzkorlik singani sotsial xarakter qirralari xos, deb yozadi. Zamonaviy burjuaziya jamiyatiga kelsak, u boshqa jihatlarni sanab o'tadi: iste'molga intilish, qat'i'yatsizlik, yolg'izlik, zerikish hissi va hokazo. Sotsial xarakter toifasini ishchiga nisbatan tatbiq eta turib, Fromm uning puxtalik, intizom, birgalikda mehnat qilish qobiliyatini ko'rsatib o'tadi. Dehqonning sotsial xarakateri individualizm, qat'iylilik, uni o'zgartirishga urinishlarga qarshi turish bilan ajralib turadi.

Kapitalistik jamiyat tadqiqoti Fromm ijodida ancha sezilarli o'rin egallaydi. O'z xususiyatiga ko'ra bu qat'iy insonparvarning tahlili edi. U burjuaziya jamiyatining insonga qarshi qaratilgan ko'pgina salbiy tomonlarini ko'rardi. Uning hisobicha, kapitalizm insonga umuman qarshi turib, hammaning begonalashuviga olib keladi: ishlab chiqarish insondan, inson tabiatdan, inson o'z mehnati predmeti va mahsulidan va oxir-oqibat – inson insondan uzoqlashadi. Ammo asosiysi – bu shaxsning jamiyatdan begonalashuvi bo'lib, u ko'plab oraliq bo'g'inlar va mexanizmlarga ega. Fromm yozishicha, yotsirovchilar jamiyati insonni buyumga, qum zarrasi, g'ildirakchaga aylantiradi. Bu jarayon mo'ljali – nafaqat iqtisodiy (ekspluatatsiya, foyda ko'rish), balki, olim uchun muhimi – harbiy-siyosiydir. Gap shu haqda

<sup>1</sup> Фромм Э. Человек для себя. – Минск, 1992. – С. 84.

bormoqdaki, uning nuqtai nazariga ko'ra, shu tariqa "ulkan qurollanish mashinasini aylantirish" oson kechadi. Shubhasiz, bunday jamiyat alohida bir "destruktiv shaxs tipi"ni yaratadi, u naq insoniyat mavjudligiga tahdid soladi.

Frommning shaxsning jamiyatdan begonalashuviga yo'l qo'ymaslik haqidagi asosiy ijobiy g'oyalari quyidagicha:

- ishlab chiqarish iqtisodiyotga emas, insonga xizmat qilishi kerak;

- odam va tabiat o'rtasidagi munosabatlar ekspluatatsiya emas, hamkorlik asosiga qurilishi lozim;

- ziddiyatlar hamma yerda birdamlik munosabatlariga joy bo'shatishi kerak;

- iloji boricha ko'p emas, balki oqilona iste'mol qilish inson salomatligi va farovonligi uchun xizmat qiladi;

- har bir inson boshqa odamlar manfaati uchun ishchan faoliyat bilan shug'ullanishi zarur;

- barcha ijtimoiy tadbirlarning oliy mo'ljali – inson farovonligi va iqtisodiy iztiroblarning oldini olish bo'lishi kerak.<sup>1</sup>

Shu tariqa, Fromm iste'molchilik jamiyatiga qarshi chiqqan. 1960-1970-yillarda bunday jamiyatning mohiyati odamlarning iste'molga nisbatan faoliyatning bosh turi sifatida qiziqishi keskin ortishida namoyon bo'ldi. Olim bu jamiyatning cheklanganligi va xavfliligi, uning shaxsga qarshi qaratilganligi, bu jamiyat insonning samarali faoliyatiga tahdid solishi haqida ogohlantirdi. Fromm hisoblashicha, iste'molparastlik insonni ishchan ijtimoiy faoliyatdan "yulib olib", teskari tomondan begonalashuviga olib keladi.

Begonalashuv muammosiga erkinlik muammosi ham uzviy bog'liqdir, Fromm o'zining yirik asarlaridan birini uning tahliliga bag'ishladi ("Erkinlikdan qochish" kitobi). U "...dan erkinlik" bilan "... uchun erkinlik" o'rtasida ajratuvchi chiziq tortadi. Olim, erkinlikning aniq qiyofasini va uning mo'ljalini ko'rishga doim intilish kerak, deb isbotlaydi. Odamlar ko'pincha erkinlikning birinchi jihatiga urg'u beradilar, vaholanki, ikkinchi jihati ham katta ahamiyatga ega. Fromm uchun "...dan erkinlik" "... uchun erkinlik"ning sharti hisoblanadi. Instinktlardan, begonalashuvdan, totalitarizmdan erkinlik boshqa odamlar bilan birdamlik uchun,

<sup>1</sup> Морозовский Г.Е. История социализма: современная этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – СПб.: ИИЭ РАН, 2015. – С. 87.

muhabbat uchun, ishchan faoliyat uchun erkinlik asosiga aylanadi. Har bir jamiyat o'z tarixiy erkinlik tipini yaratadi.

Olim erkinlik muammosini nafaqat kapitalistik jamiyat sharoitida, balki insoniyat taraqqiyotining avvalgi bosqichlaridan kapitalizmga o'tish doirasida tahlil qiladi. Erkinlikning barcha asosiy turlari – "...dan" va "... uchun"ni inson jamiyati evolyutsiyasining barcha bosqichlarida ko'rib chiqib, itoatsizlik, tanqid erkinlik poydevoriga aylanishini isbotlaydi. Ammo bu to'liq erkinlik emas, uni amalga oshirish jamiyat, boshqa odamlar, nihoyat, o'z-o'zi bilan birdamlik orqali yakun topishi kerak. Agar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlar insonga dunyo bilan aloqa qilishga imkon bermasa, u holda inson erkinligi og'ir yukka aylanadi. Unda odamlar bunday erkinlikdan qochadi. Fromm fikricha, bunday vaziyat totalitar rejimli jamiyat uchun xosdir.

Umuman, olim jamiyatning bosqichma-bosqich rivojlanishiga, salbiy erkinlikdan (erksizlikdan) ijobiy erkinlikka (haqiqiy erkinlikka) harakatlanish sifatida baho bergan. Ammo jamiyat taraqqiyoti tarixi erkinlik va erksizlik, ularning o'zaro munosabatlarida jumboqlar yaratgan. Masalan, feodalizm kishanlaridan ozod bo'lgach va katta erkinlikka ega bo'lganidan so'ng, inson buning evaziga kapitalizmga birdamlik va dadillik hissini yo'qotishi bilan xun to'lagan. Boshqacha aytganda, erkinlikka erishish uni yo'qotishga olib kelgan.

Fromm kapitalistik jamiyatni insonparvarlik xislatlarini yo'qotuvchi va nosog'lom deb hisoblagan. Darvoqe, u sovet jamiyatiga ham shunday baho bergan. Uning nazarida, kapitalizm yoppasiga begonalashuv jamiyati sifatida ommaviy ravishda odamlarni emas, inson his-tuyg'ularidan mahrum bo'lgan yotsirovchi avtomatlarni ishlab chiqaradi. Industrial tizimning iqtisodiy va ruhiy ziddiyatlari sababli, kapitalizm jamiyat sifatida juda chuqur inqirozni boshdan kechirayotganiga Frommning ishonchi komil edi. Albatta, u mazkur jamiyatning fan, texnika, odamlarning moddiy farovonligi yo'lidagi ulkan yutuqlarini tan olardi. Ammo ko'p odamlarning cheksiz individual erkinlikka, moddiy farovonlikning umumiy va monesiz o'sishiga, tabiat ustidan hukmronlikka bog'lagan katta umidlari ushalmaligi ma'lum bo'ldi. Uning fikricha, sivilizatsiya o'z-o'zini halok etish yoqasida turibdi.

Inqirozdan qutulish yo'llari qanday? Olim o'ylashicha, bu yotsiramagan shaxsning ehtiyojlariga javob beruvchi yangi inson va

yangi jamiyatni yaratishdir. Fromm ishlab chiqqan dastur, inson tabiatini tubdan o'zgartirish orqali insoniyatni iqtisodiy va ruhiy falokatdan xalos etishni ko'zlagan edi. Bu o'zgartirish ustunlik qiluvchi maqsaddan yashash maqsadiga, me'yordan ortiqcha iste'mol o'rniga sog'lom iste'molga o'tishda, sanoat va siyosatni markazdan yiroqlatishda, siyosiy va industrial demokratlashuvda, qog'ozbozlikka asoslangan boshqaruv usulini insonparvar boshqaruv usuliga almashtirishda ifodalandi.

Frommning sotsiologligi nafaqat shu fanni, balki butun zamonaviy G'arb intellektual madaniyatini rivojlantirishga qudratli turki berdi. Nazariy ta'siri va ahamiyati bilan bir qatorda, u 1960-yillarning oxiridagi yoshlar harakatini faollashtirishda amaliy ta'sir ko'rsatib, yoshlarni ham shu avlodning, ham butun jamiyatning sotsial xarakterini o'zgartirish haqida o'ylashga majbur qildi.

E.Frommning nazariy g'oyalari, ayniqsa kapitalizm sharoitida sotsial xarakter va shaxsning begonalashuvi konsepsiyalari sohasidagi qarashlari o'z zamonasi ijtimoiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirni boshidan o'tkazgan tadqiqotchilardan biri – amerikalik sotsiolog, ijtimoiy ruhshunos, Amerika sotsiologiya maktabining ruhiy tahlil namoyandasi Devid Rismen (1909-2002) edi. Uning asosiy asarlari: "Tanho olomon: amerikacha tabiat o'zgarishi tadqiqoti" (1950, N.Gleyzer va R.Denni bilan hammualliflikda), "Olomondagi shaxslar" (1952). Rismen eng ommabop mualliflar va sotsial xarakter konsepsiyalari asoschilaridan (Fromm qatori) biri bo'ldi.

Rismen jamiyatning uch tipiga xos bo'lgan uch tipdagi xarakter haqida fikr yuritadi. Birinchi tip – urug'-aymoqlar, tabaqa, toifada urf bo'lgan xulq-atvor namunalari qaratilgan konservativ tipdir. U industrialashuvdan oldingi jamiyatga xos<sup>1</sup>.

Xarakterning ikkinchi tipini Rismen "o'zini o'ylaydigan shaxs" deb belgiladi. Bunday shaxs an'analari unutilayozgan, ommaviy axborot vositalari bo'lmagan yoki rivojlanmagan, birlamchi guruhlar tomonidan sust nazorat qilinuvchi ilk industrial jamiyatga xosdir. Bu tipdagi xarakter sohibi bo'lmish shaxs kuchli, sobitqadam, tadbirkor, yangiliklar va o'zgarishlarga moyildir. Shu bilan birga, bu yerda ham an'anaviy me'yorlar va qadriyatlar ahamiyati saqlanib qolgan.

<sup>1</sup> Эберовский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – Сургут (в др.): ФНО СУРГУТУ, 2015. – С. 89.

Uchinchi tipdagi xarakter iste'molchi, ya'ni rivojlangan industrial jamiyatga o'tish davrida tug'iladi va "tashqi muhitni o'ylaydigan shaxs" nomini oladi. Bunday xarakterga ega shaxsning xulq-atvori qog'ozbozlik, ommaviy axborot vositalari, moda, aloqa va munosabatlarning hukmron tizimi ta'sirida shakllanadi, ammo zinhor an'analar va tamoyillar, qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlar ta'sirida emas. "Tashqi muhitni o'ylaydigan shaxs"da kuchli mustaqil Men hissi bo'lmaydi. O'ta-Men hissini esa aytmasak ham bo'ladi. Bu bir qolipga solingan va qiyofasini yo'qotgan, ortdan turib boshqarish obyekti va begonalashuv hosilasi bo'lgan shaxsdir. Bunday tipdagi shaxs chin insoniy fazilatlariga (muhabbat, ehtiros, haqqoniylik, halollik va hokazolarga) intiladi, ammo butun tashqi ta'sir tizimi unga halal beradi.

Barcha aytib o'tilgan xarakter tiplari zamonaviy jamiyatda yonma-yon yashaydi, deb hisoblaydi Rismen. Ammo ulardan har birining salmog'i va ta'siri turlichadir, ular iqtisodiy, ijtimoiy, demografik omillarga, jamiyatning urbanizatsiya darajasiga bog'liq. So'nggi, uchinchi tip "olomonda yolg'izlik"ni ifodalaydi, ammo ayni damda chinakamiga ijobiy sotsial xarakter – aniq, oqilona maqsadlarga ega bo'lgan, iste'molparast jamiyatga va madaniy muhit ta'sirlariga qaram bo'lmagan "mustaqil shaxs"ga intilishni paydo qiladi.

Rismen sotsial xarakterlarga erkin tanqid nuqtayi nazaridan qaraydi, ba'zan juda qattiq tanqid qiladi. Bu tanqid qog'ozbozlikka, iste'molparast jamiyatga qarshi qaratilgan. U hayotning turli jabhalariga – mehnat, o'yinlar, ta'lim, hordiq, din, hokimiyat, erkinlik va hokazolarga taalluqli. Sotsiolog o'z tanqidida ba'zan klassik kapitalizm davrini birmuncha ideallashtirib yuboradi.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Psixoanalizga sotsiologik yondoshuvning mazmun-mohiyati namadan iborat?
2. Z.Freyd sotsiologiyada psixoanalitik yondoshuvning qaysi muammoalrini tahlil etgan?
3. A.Adler «individual psixosotsiologiya»sining asosiy jihatlari yoritib bering.
4. K. Yungning psixosotsiologik varashlari nimalardan iborat?

5. K.Xorni tomonidan taqdim etilgan shaxs xulq-atvori turlarini izohlang.

6. E.Fromm sotsiologik ta'limotining gumanizmi nimalarda ko'rinadi?

7. D.Rismenning sotsial xarakter to'g'risidagi qarashlarini to'liq yoritib bering.

#### GLOSSARIY

**Ehtiyoj** – **потребность** – **need** – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

**Erkin assotsiatsiyalar usuli** – **метод свободных ассоциаций** – **metod of available association** – Z.Freyd asos solgan. birinchi, tasodifiy fikrni tadqiqotchi uchun ahamiyatli deb qarovchi metod.

**Freydizm** – **фрейдизм** – **freudism** – jamiyatni tushuntirishda Z.Freydning psixologik ta'limotidan foydalanishga intiluvchi turli-tuman yo'nalishlarning umumiy nomi.

**Genotsid** – **геноцид** – **genocide** – ma'lum bir irq yoki millat vakillarini ommaviy tarzda yo'q qilishga qaratilgan siyosat va amaliyot.

**Instinkt** – **инстинкт** – **instinct** – har qaysi tur vakilida mavjud bo'ladigan, ganatik darajada o'rnatilgan o'ziga xos xulq-atvor usuli.

**Psixoanaliz (ruhiy tahlil)** – **психоанализ** – **psychoanalysis** – Zigmund Freyd tomonidan o'ylab topilgan psixoterapiya usuli. "Psixoanaliz" tushunchasidan asosan Freyd tomonidan yaratilgan psixologik nazariya intellektual tizimida foydalaniladi.

**Neofreydizm** – **неофрейдизм** – **neofreudism** – Z.Freydning psixoanalizi asosiga qurilgan, lekin undan farqli ravishda asosiy e'tiborni ongsizlik yoki psixik jarayonlardan ko'ra sotsiumdagi shaxs yoki shaxslararo munosabatlarga qaratgan yo'nalish.

**Psixoanalitik sotsiologiya** – **психоаналитическая социология** – **psychoanalytical sociology** – Z.Freyd asos solgan, insonning sotsial faoliyatida ongsiz impulsning hal qiluvchi rolini tan oluvchi yo'nalish.

**Sanksiya – санкция – sanction** – rag'batlantirish yoki jazolash turlari bo'lib, ular yordamida ijtimoiy maqbul bo'lgan xulq-atvor me'yorlari mustahkamlanadi.

**Totemiz – тотемизм – totemism** – ma'lum bir hayvon yoki o'simliklar turlariga ilohiy xususiyatlarni beruvchi diniy tasavvurlar tizimi.

**Shizofreniya – шизофрения – schizophrenia** – individ reallik hissini yo'qotadigan psixik kasallikning jiddiy shakli.

## F. TYONNIS – NEMIS MUMTOZ SOTSILOGIYASI VAKILI

### Reja:

1. Ferdinand Tyonnisning hayoti va ijodi
2. Nemis sotsiologiyasining vujudga kelishi
3. Tyonnis sotsiologiyasining falsafiy negizlari
4. Tyonnisning sotsiologik tizimi
5. Sotsial hayot shakllari
6. Sotsiologiya va siyosat
7. Tyonnis qarashlarining XX asr sotsiologiyasiga ta'siri

1. Tyonnis 1855-yil 26-iyun Shlezvig Gersogligining Oldenvorg shaharchasida, badavlat yer egasi xonadonida tug'ilgan. U 1872-yil Strasburgdagi universitetga o'qishga qabul qilinadi, shuningdek Yena, Bonn, Leypsig va Tyubingen universitetlarida o'qib, 1877-yilda Tyubingen universitetida mumtoz filologiya bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shuningdek, falsafa (asosan, Gobbs falsafasi), siyosiy iqtisodiyot, huquqshunoslik tarixi va etnologiya fan sohalari bilan shug'ullangan. Gobbs merosini o'rganish Tyonnisning tarix va huquq falsafasiga bo'lgan qiziqishini orttirdi. U o'zining mashhur – «Gemeinschaft und Gesellschaft (Jamo'a va jamiyat)» deb nomlangan asarining boshlang'ich variantini 1881-yilda doktorlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilgan va Kil universitetida falsafa dotsenti darajasiga erishgan. Biroq u bu lavozimda deyarli ishlamagan va kelajak hayoti moddiy jihatdan ta'minlangan kishi bo'lganligi uchun, mustaqil olim sifatida faoliyat olib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan. «Jamo'a va jamiyat» asari keyinchalik bir necha bor qayta to'ldirilib, "Madaniyat falsafasi teoremasi" sifatida nashr etilgan. Aynan u olim sotsiologik konsepsiyasining asosini tashkil etadi.

Keyinchalik uning qiziqishlari ortib, ko'plab ijtimoiy va ilmiy fanlar sohalarini qamrab oldi. 1880-1890-yillarda Tyonnis XVIII-XIX asr ijtimoiy falsafasini o'rgandi. Natijada 1896-yilda keyinchalik bir necha marotaba qayta nashr etilgan Gobbsga bag'ishlangan kitobini yozib tugatdi, shuningdek, Leybnits, Spinoza, Nitsshe, Spenser, Marks va boshqa olimlar to'g'risida bir qator maqolalar yozdi. Uning bu

izlanishlari keyinchalik ham davom etdi. Uning mahsuli bo'lmish «Marx. Leben und Lehre (Marks. Hayoti va ijodi)» asari 1921-yilda nashr etilgan.<sup>1</sup>

Tyonnis sotsial statistikaga ham qiziqqan, jumladan, jinoyatchilik, qashshoqlik, o'z joniga qasd qilish kabi muammolarni o'rgangan. O'zining empirik ishiga qo'shimcha ravishda sotsiologiya sohasida ham nazariy ishlar bilan shug'ullana boshlagan: «Axloq», «Jamoatchilik fikrining tanqidi», «Mulkchilik» va «Sotsiologiyaga kirish» kabi asarlar yozgan.

Keng nazariy, empirik va publitsistik faoliyatiga qaramay, Tyonnis akademik maqomga kech erishdi. U Skandinaviya mamlakatlari, Angliya va AQSh davlatlari ilmiy jamiyatlari bilan chambarchas bog'liqlikda faoliyat olib borgan. Tennis 1909-yildan 1916-yilgacha Kil universitetining iqtisodiyot va statistika yo'nalishi professori, 1921-yildan boshlab esa – ushbu universitetning sotsiologiya yo'nalishi bo'yicha faxriy professori sifatida faoliyat yuritgan. 1910-yil Frankfurtida nemis sotsiologik jamiyatini tuzish borasidagi yig'ilishda kirish so'zi bilan chiqdi. Bu yig'ilishda Maks Veber, Verner Zombart va Georg Zimmellar ham qatnashgan<sup>2</sup> 1921-yilda esa u nemis sotsiologik jamiyatining prezidenti etib saylanadi va 1933-yil natsistlar bu tashkilotni yopmaguncha uni boshqargan.

Sotsial-demokratik siyosat ruhida shakllangan Tyonnis Veymar respublikasi tarafdori bo'lgan. U natsional-sotsializm bilan kurashib, jamiyat a'zolarini «varvarlik girdobiga tushish» xavfidan ogohlantirish niyatida omma oldida chiqishlar qilgan va Natsistlar hujumiga mahkum bo'lgan. Natsistlar dunyoviy mashhurlikka ega olimga buyruq berish yoki cheklov qo'yish mumkin emasligini tushunib yetadilar va u universitetdan haydaladi. Natijada Tyonnis dengiz bo'yidagi kichik bir shaharchada (Xusum) umrining so'nggi 3 yilini o'tkazadi.

Tyonnis 1936-yil 11-aprelda Kil shahrida vafot etgan<sup>3</sup>.

Tennis o'z hayotining sezilarli qismini siyosiy jihatdan faol tarzda o'tkazgan va konservativ qarashlari ustuvorlik qilishiga qaramasdan, Kayzer Germaniyasida taraqqiyotga yo'naltirilgan harakatlar deb

<sup>1</sup> Фарфелс Б. А., Нуруллаева У.Н. Сосциология тарихи. Услубий кўламин. – Тошкент, 2009. – Б. 56.

<sup>2</sup> Меринский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сыртык и [др.]: РНО СырДТУ, 2014. – С. 81.

<sup>3</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 173-174.

hisoblangan kasaba uyushmalari faoliyatini qo'llab-quvvatlagan. U Finlyandiya va Irlandiyada mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarga nisbatan o'z fikrlarini bildirgan. Tennis birinchi jahon urushi davrida Nemis sotsiologiya jamiyatining boshqa ko'plab a'zolari singari, Germaniya hukumatining imperialistik siyosatini qo'llab-quvvatlagan. O'zining hayotining so'nggi davrlarida milliy-sotsializm yo'nalishiga qarshilik namoyishi sifatida u sotsial-demokratlar partiyasiga qo'shiladi va Gitlerning hokimiyat tepasiga kelishidan keyin o'z faoliyatidan ozod qilinadi.

Hozirgi kunda Tyonnis eng avvalo, o'zining asosiy asari hisoblangan – «Jamo va jamiyat» kitobi (1887) bilan taniqli hisoblanadi, shuningdek uning 800 dan ortiq boshqa ilmiy ishlari ham sotsiologiya yo'nalishida sezilarli ahamiyatga ega hisoblanadi. Birinchi jahon urushi tugashiga qadar, uzoq vaqt davomida uning «Jamo va jamiyat» kitobiga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Tyonnisning dastlabki asarlarida bevosita Tomas Gobbsning ilmiy qarashlari va asarlarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Shuningdek, Tyonnis empirik sotsiologik tadqiqotlar ham olib borgan, jumladan 1896-1897-yillarda amalga oshirilgan Gamburg norozilik namoyishini tadqiq qilgan, bundan tashqari shahar hududida va shahar atrofida mavjud muhitda yuz beruvchi jinoyatlarning statistik sotsiologik tavsiflarini o'rgangan. 1925-yildan 1929-yilga qadar uning uch jilddan tashkil topgan sotsiologiya yo'nalishidagi asarlari nashr qilingan, jumladan «Sotsiologiyaga kirish» va Tyonnisning falsafiy-tarixiy saylanma asarlari nashr qilingan.

Asosiy asarlari:

1. «Jamo va jamiyat» (1887).
2. «Jinoyat sotsial hodisa sifatida» (1909).
3. «Axloq» (1909).
4. «Jamoatchilik fikrining tanqidi» (1922).
5. «Mulkchilik» (1926).
6. «Progress va sotsial taraqqiyot» (1926).
7. «Sotsiologiyaga kirish» (1925-1929) va h.k.

2. Ikki asr oraliq chegarasida ijtimoiy hayotni izohlashda klassik pozitivizmning pozitsiyasi sezilarli darajada nazariy-uslubiy qiyinchiliklarni boshdan kechirganligi qayd qilinadi. Jumladan, ijtimoiy-tarixiy mavjud haqiqiy holatni bilishning tabiiy-ilmiy uslublarga xos bo'lgan naturalizm tamoyillarining rad etilishi

sharoitida falsafa ( mantiqiy-gnoseologik ) asoslarni keltirish tendensiyalarining asoslanilishi va qaror toptirilishiga borgan sari urinishlar kuchayib borishi, shuningdek ijtimoiy-gumanitar fanlarda bilishning o'ziga xos uslublarini qidirib topish jarayoni kuchayishi kuzatiladi.

Pozitivizmning ijtimoiy-gumanitar fanlarga tadbiq etilishi sifatida, sotsiologiya sohasida uning asl tadqiqot ob'ektini ( ijtimoiy hodisalarning o'ziga xos jihatlarini qayd qilish ) yo'qotib borayotganligi haqida jiddiy fikrlar bildirib o'tilgan. Qayd qilib o'tish mumkinki, ya'ni psixologik yo'nalishlar doirasida ta'kidlanganidek, ijtimoiy hodisalar sohasida biz tabiatga xos bo'lgan mexanik mazmunga ega bo'lgan sabablar bilan ish olib bormaymiz, balki insonning mavjudligi, hayoti bilan bog'liq qonuniyatlar, so'zsiz ravishda zaruriyat hisoblangan qat'iy holatlar bilan bog'liq bo'lmagan, teologik tavsifga ega masalalar ustida bosh qotiramiz. Shunday qilib, tabiat olami va ijtimoiy-madaniy borliq olami o'rtasidagi keskin chegaralardan boshlanuvchi, yangi gnoseologik paradigmalarning shakllanishi va tan olinishi qayd qilinadi, jamiyat esa – organizm sifatida emas, balki ruhiy tartibning tashkillanishi sifatida qarab chiqilishi boshlanadi.

«Antipozitivizm» ning keng ko'lamda falsafiy jihatdan izohlanishi tendensiyasi eng avvalo, Germaniyada amalga oshirilgan. Bu tendensiya xususiy falsafa doirasidan tashqariga chiqishi kuzatiladi va nemis sotsiologiya maktablarining va umuman olganda, sotsiologiya fan sohasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, nemis sotsiologiyasi uning ushbu fan tarixi tarkibida alohida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishini belgilab beruvchi o'ziga xos shart-sharoitlar va manbalarga ega hisoblanadi.

Agar Angliya, Fransiya, AQShda shakllangan va rivojlangan sotsiologik qarashlar va fikrlar pozitivistik uslubiyat bilan bog'liq bo'lsa, nemis sotsiologiyasi esa – asosan, gumanitar fanlarda ishlab chiqilgan bilish tamoyillari bilan chambarchas bog'liqlikda rivojlanganligini ko'rish mumkin. Uning tarkibida nemis klassik falasafasining gnoseologik an'analari sezilarli darajada o'ringa ega hisoblanadi. Bundan tashqari, sotsiologiya uzoq vaqt davomida umuman o'qitilmagan, bu davrlarda sotsiologik masalalar sifatida tan olingan masalalar ko'pincha holatlarda «milliy iqtisodiyot» yoki «falsafa» rukni ostida tahlil qilingan.

Hatto, Vilgelm Diltey (1833-1911) tomonidan sotsiologiyaning fan sifatida mavjud bo'lishi mumkin emasligini tasdiqlashga harakat qilingan, maxsus ilmiy asari mavjud. Diltey tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, tabiatshunoslik fanlari tabiat hodisalarining insonning hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi, biroq insonning erkin faoliyatini o'rganuvchi, ruhiyat haqidagi fanlar hisoblangan ijtimoiy-gumanitar fanlarda ma'lum bir aniq maqsadlar qanday o'rganilishi masalasiga oydinlik kiritish yuzasidan urinishlar amalga oshirilgan. Tabiatshunoslik fanlarida o'rganiluvchi fizik jismlar va hodisalar bizga bevosita, hodisalar sifatidagina ma'lum hisoblanadi. Aksincha, ruhiyat haqidagi fan ichki tajribadan kelib chiqqan holda, insonning o'z faoliyati ustida kuzatishlar olib borishi va shuningdek, boshqa insonlar faoliyatini o'rganishi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tadqiq qilishi asosida shakllantiriladi.

O'z navbatida, Diltey tomonidan qayd qilinishicha, ruhiyat haqidagi fanning birlamchi elementlari bevosita ichki hissiyotlar bilan bog'liq bo'lib, bunda tasavvurlar, sezgilar va xohish-iroda birgalikda qarab chiqiladi, ya'ni ular orqali inson bevosita o'zining olamda mavjudligini his qiladi. Bu ko'rinishdagi hissiyotlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, chuqur holatda individual tavsifga ega hisoblanadi.

Shu sababli, Diltey tomonidan sotsiologiyaning mavjudligi tamoyil jihatidan va huquqiy jihatdan mumkin emasligi ta'kidlanadi, jumladan tarixiy rivojlanishda sotsiologiyaning umumlashtiruvchi fan sifatidagi rolga e'tiroz bildiriladi. Diltey tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifa sifatida, insonning o'ziga xos ruhiy olamining saqlab qolinilishini ko'rsatib o'tadi. Diltey tomonidan keltirilgan fikrlarga ko'ra, tarixiy mavjudot sifatida inson tabiat kabi umumiy o'zaro munosabatlar tarkibiga kiritilishi orqali tushunilishi mumkin emas. Bu holat neokant Baden maktabining asosiy vakillari hisoblangan – V.Vindelband (1848-1915) va G.Rikkert (1863-1936) tomonidan tasdiqlangan.<sup>1</sup>

Rikkert qarashlarida qadriyatlar borliqda ob'ektiv mazmun-mohiyatga ega holat sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlardan farq qilib, garchi u bilan o'zaro mos tushmasda, mazmun-mohiyat haqiqiy mavjud bo'lgan ruhiy akt, ya'ni «muhokamalar» bilan bog'lanadi. Faqat mazmun-mohiyat namoyon bo'luvchi baholashlarga haqiqiy

<sup>1</sup> Хайнгер М. Исследовательская работа Вильгельма Дильтея и борьба за историческое мировоззрение в начале двадцатого столетия философии – 1995. – N. 11. – С. 126.

mavjud bo'lgan tabiiy akt sifatida qayd qilinadi, mazmun-mohiyat qadriyatlarini ko'rsatish orqali o'z-o'zidan ruhiy borliq chegaralaridan tashqariga chiqadi. Bunda u huddi borliq va qadriyatlar o'rtasida vositachi sifatida rol o'ynaydi va alohida «mazmun-mohiyat» olamini tashkil qiladi.<sup>1</sup>

Ushbu mantiqiy-uslubiy asosda ko'pgina holatlarda nemis sotsiologiyasining ilmiy poydevori tuzib chiqilgan. Shu bilan birgalikda, qayd qilib o'tish kerakki, Rikkertning o'zi ham sotsiologiyani rad etadi va «insonning ijtimoiy ruhiy hayotini sof holatda tabiiy-ilmiy izohlash» aynan, tarix faniga tegishli holat hisoblanishini ta'kidlaydi. Shunday qilib, paradoks sifatida aynan uning falsafa bo'yicha shogirdi M.Veber tomonidan sotsiologiyaning «universal tarixiy» fan sifatida o'rin tutishi ko'rinishida rivojlantirilishi dasturi ilgari suriladi. Aynan, Rikkert tomonidan «insonning tarix tarkibida» o'rganilishi bilan shug'ullanuvchi fanni mantiqiy jihatdan asoslash masalasining ushbu ko'rinishida, uslubiy jihatdan o'z-o'zini aniqlash tarzida qo'yilishi bevosita M.Veberning «universal-tushunuvchi sotsiologiya»sining shakllanishini belgilab bergan.

Agar, ushbu sotsiologik oqim yo'nalishini keyingi rivojlanishi bo'yicha qarab chiqilsa, u holda M.Veberning tushunuvchi sotsiologiyasi uning ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalari bilan birgalikda Amerika sotsiologiyasining rivojlanishida sezilarli darajada rol o'ynaganligini qayd qilib o'tmaslikning iloji yo'q, bu yo'nalish T.Parsons tomonidan keltirilgan mashhur qarashlar bilan tugallangan. Umuman olganda, Veberning tushunuvchi sotsiologiyasi orqali Rikkert tomonidan tarixiy fanlar uslubiyatining o'ziga xosligi haqidagi qo'yilgan masala davom ettirilgan va sotsiologik qarashlarning keyingi davrlarda rivojlanishiga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Positivizmning dastlabki bosqichlarida shakllantirilgan nazariy va uslubiy negizlarni qayta qarab chiqish turli xil yo'nalishlarda amalga oshirilgan. Borliqning sotsiologik nuqtai nazardan qayta qarab chiqilishini qayd qilib o'tish bilan birgalikda, ushbu qayta qarab chiqishlar ko'p jihatdan tabiiy-ilmiy tafakkurlashning o'zida yuz bergan inqiroz jarayoni bilan ham bog'liqligini qayd qilib o'tish

<sup>1</sup> Qarang: Риккерт Г. Наука и культура о культуре/Культурология. XX век. – М., 1995.

o'rinli hisoblanadi, shuningdek bunda o'sha davrda yevropada kuzatilgan ijtimoiy-madaniy vaziyatning o'zi ham sezilarli darajada o'zgarishi amalga oshgan.

3. Tyonnis sotsiologik fanlar asoschilaridan biri sifatida, o'z faoliyatini Germaniyada akademik sotsiologiya va shuningdek, sotsiologik bahs-munozaralar mavjud bo'lmagan davrda boshlagan. Jumladan, oldingi burjuaziya davrining boshlanish davriga oid boy tarkibga ega bo'lgan sotsiologik fikr va qarashlar – «tabiiy huquq» va «ijtimoiy shartnoma» nazariyalari, shuningdek individlar o'rtasidagi ratsional almashinuv tamoyiliga asoslangan jamiyat haqidagi tasavvurlar, Fransiyada faoliyat olib borgan qomusiy olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar va g'oyalar, Angliyalik klassik iqtisodchilar g'oyalari, Shotlandiyalik ma'naviyatga asoslanuvchi faylasuflar qarashlari, klassik nemis falasafasi, Marks asarlari Germaniyada akademik sotsiologiyaning qaror topishida sezilarsiz darajada ta'sir ko'rsatgan. Keltirib o'tilgan bu barcha an'analar, masalan Maks Veber asarlari deyarli muhim rol o'ynamagan yoki faqat maxsus tarixiy tadqiqotlardagina qarab chiqilgan. Ushbu nuqtai nazardan, Tyonnis tomonidan bildirilgan fikrlar mustasno qilinadi, ya'ni u o'zining boshlang'ich ilmiy faoliyati davri davomida «ijtimoiy shartnoma» nazariyasida bildirilgan g'oyalarga e'tibor qaratgan va shuningdek, klassik siyosiy iqtisod nazariyasi vakillaridan biri bo'lgan – Adam Fergyson fikrlarini tahlil qilib chiqqan, u o'zining «Jamo'a va jamiyat» kitobida Marks asarlariga ham murojaat qilganligini ko'rish mumkin.<sup>1</sup>

Tyonnis tomonidan «ijtimoiy shartnoma» nazariyasi Shopengauerning volyuntaristik falsafiy qarashlari bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni insonning xohish-irodasi ijtimoiy hayotning poydevori sifatida qarab chiqiladi, ijtimoiy aloqadorliklarning mavjudligi esa – sub'ektiv xohish-istaklar, intilishlar va insonlarning maqsadlari asosida izohlaniladi. Tyonnisning ilmiy faoliyati boshlang'ich davrlarida yaratilgan asarlariga e'tibor qaratish davomida uning ko'pgina fikrlari bevosita XIX asr sotsiologiyasining XX asr sotsiologiyasiga o'tish davriga oid xalqa sifatida o'rin tutishini qayd qilish mumkin. Tyonnisning sotsiologik nazariyalari o'ziga xos o'tish davri tavsifga ega hisoblanadi. Bu nazariyalar bevosita tabiiy huquq

<sup>1</sup> Qarang: Зборовский Г.Е. История социологии. – М.: Гардарики, 2004. – С. 120.

va siyosiy iqtisodiyot nazariyalarining davomi hisoblanmaydi, balki ko'proq ushbu nazariyalarning aks-sadosi sifatida o'rin tutadi, biroq bu nazariyalar zamonaviy sotsiologik tafakkurlashning tarkibiy qismiga ham aylanmagan, ya'ni ushbu zamonaviy nazariyalarning faqat boshlang'ich darakhilari sifatidagina ahamiyatga ega hisoblanadi.


Tyonnisning qarashlari shakllanishida volyuntaristik falsafa sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lib, bunda ijtimoiy aloqalar alohida individlarning xohish-istaklari asosida kelib chiqishi ta'kidlanadi. Masalaning bu ko'rinishda qo'yilishi nafaqat Tyonnis qarashlarida XIX asrda mavjud bo'lgan asosiy falsafiy yo'nalishlar, Shopengauer falsafasi va Nitsshening nigilistik falsafiy g'oyalari ta'sirining aksi hisoblanmasdan, balki «tabiiy huquq» va «ijtimoiy shartnoma» tamoyillariga oid an'analarning davomiy izlari sifatida ham qayd qilinadi. Tyonnis qarashlarida «xohish-iroda» – bu Shopengauer va Nitsshe falsafiy qarashlarida keltirilgan «hokimiyatga intilish» tarzidagi hayot va borliq haqidagi tushunchalarga qarama-qarshi mazmunga ega bo'lib, jamiyat a'zolarining bir butunligi g'oyasini izohlashda qo'llaniladi. Fuqarolarning bu ko'rinishda tinchlik asosida o'zaro birgalikda hayot kechirishi sharti haqidagi tasavvurlar Tyonnis qarashlarida XVII asrda faoliyat olib borgan Angliyalik materialistlar, ya'ni eng avvalo – Tomas Gobbs va Jon Lakk tomonidan bildirilgan fikrlarga muvofiq kelishini ko'rish mumkin. Sotsiologiya fan sohasida Tyonnisdan keyingi davrlarda faoliyat olib borgan olimlar tomonidan «xohish-iroda» tushunchasi jamiyatning konstitutiv omilini ifodalashda foydalanila boshlangan, bu holat turli xil falsafiy an'analar va tarixiy tasavvurlardan kelib chiquvchi tushunchalar mavjudligi sharoitida, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, Veber-Tyonnis qarashlari o'rtasida o'zaro ta'sirlashishlar natijasi sifatida «sub'ektiv mazmunga ega mavjudlik» asosida izohlaniladi. Bunda ushbu holatga bog'liq ravishda, zamonaviy sotsiologik nazariyalarda mavjud bo'lgan ijtimoiy faoliyat nazariyalari bilan solishtirilganda, «ijtimoiy sub'ekt» tushunchasining ko'p ma'noga egaligi kelib chiqadi.

Ijtimoiy munosabatlarning shartnoma asosida kelib chiqishi haqidagi tasavvurlar Tyonnis bilan birgalikda, o'sha davrda faoliyat olib borgan ko'plab sotsiolog olimlar qarashlarida ham o'z aksini topgan. Shunday qilib, masalan Emil Dyurkgeym tomonidan

jamiyatning me'yoriy va madaniy asoslarining yashirin jihatlarini o'zida aks ettiruvchi – «shartnomaning kelishuvga oid bo'lmagan tarkibiy elementlari» tushunchasiga mos kelmaydigan ushbu tushunchaning tahliliy tarkibiy qismlari to'ldirilgan. Tyonnis tomonidan amalga oshirilgan yondoshuvning o'ziga xos jihati shundaki, ya'ni bunda u tomonidan kapitalizm tuzumining qaror topishiga oid ob'ektiv mexanizmlar bilan jamoaning sub'ektiv tavsiflari birlashtirilishi amalga oshirishga harakat qilingan (keyinchalik bu yo'nalishda urinishlar Parsons tomonidan ham amalga oshirilgan). Bunda Tyonnis burjuaziya davrining boshlang'ich bosqichlariga oid falsafiy ta'limotlar va shartnoma nazariyasiga e'tibor qaratgan, jumladan XIX asrning ikkinchi yarmisida huquqshunoslik sohasida faoliyat olib borgan – Angliyalik Genri Men asarlariga tayangan holda ish yuritgan. G.Men asarlarida mavjud bo'lgan mavqe (status) va shartnoma tushunchalari Tyonnisning sotsiologik qarashlarida konseptual asos sifatida xizmat qiladi. Akademik sotsiologiyaning ko'plab asoslari singari (jumladan, Veber) Tyonnis tomonidan subyektiv yondoshuv tarkibiy qismlarga bo'lib chiqiladi, biroq boshqa tadqiqotchilardan farq qilib, garchi bu ko'rinishda yondoshuvda «xohish-iroda» tushunchasi zid mazmunga ega bo'lmasa-da, Tyonnis sotsiologiyaning rivojlanishini tavsiflashda ijtimoiy faoliyatning subyektiv mazmun-mohiyatini ta'riflashga asoslangan holda emas, balki jamoa va jamiyatning dixotomik kategoriyalar hisoblanishini tahlil qilishni amalga oshirgan, ya'ni bunda ijtimoiy munosabatlarning tahliliy tasniflanishini amalga oshirish imkonini beruvchi sotsiologik tushunchalarning qat'iy mantiqiy tizimini tuzib chiqish imkoniyatlari nazarda tutiladi. Keyingi davrlarda bu dixotomiya turli xil sotsiologik nazariyalar mualliflari tomonidan foydalanilgan bo'lib, belgilangan aniq tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib, tahlil qilingan. Tyonnis tomonidan ilgari surilgan g'oyalarni tushunib yetish uchun, aynan uning o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan g'oya va qarashlarning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish talab qilinadi.

4. Tyonnis tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologiya tizimi keyinchalik sotsiologiyaning umumiy va maxsus sotsiologiyaga bo'linishi, shuningdek maxsus sotsiologiyaning esa – sof, amaliy va

empirik sotsiologiya (sotsiografiya) bo'lib chiqilishi amalga oshirilishi belgilangan<sup>1</sup>.



Tyonnisning amaliy sotsiologiyasi sotsiologik atamalardan foydalangan holda sotsial evolyutsiyani qayta konstruksiyalanishiga yo'naltiriladi (ibtidoiydan zamonaviy jamiyatga tomon). Bunda gap falsafa tarixining sotsiologik jihatdan tizimga solinishi haqida boradi.

Bunday yondoshuv «Jamo» va jamiyat» asarining birinchi nashrida sotsiologik tafakkurning amaliyotga nisbatan me'yoriy, ijtimoiy-axloqiy va falsafiy munosabat mavjudligidan dalolat beradi. Bu asarda kommunizm va sotsializm bor yo'g'i «madaniyatning empirik shakllari» sifatida olingan. Tyonnisga ko'ra, amaliy sotsiologiyaning empirik sotsiologiyadan farqi – bu statistik tavsifga ega ma'lumotlarning to'planishi, masalan, zamonaviy jamiyatning demografik yoki iqtisodiy jihatdan tavsiflanishi, va «jamiyat kasalliklari»ning tavsiflanishi bilan ifodalaniadi.

Agar sof sotsiologiya sotsial hodisa, jarayonlarni tinch, ya'ni statik holatda tushunish va tasvirlash bilan shug'ullansa, amaliy sotsiologiya dinamik holat, ya'ni ularni harakatda tadqiq etadi. Tyonnis amaliy sotsiologiyaning usuli sifatida tushunchalar antinomiya tamoyilini ko'rsatgan. Sotsial munosabatlarning asosida yotuvchi iroda va aqlning dialektik aloqadorligida Tyonnis ko'proq aqlni birinchi o'ringa qo'yadi. Chunki jamiyat rivoji ratsionallikning o'sib borishi evaziga sodir bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanishning jamoadan jamiyatga tomon borishi shu bilan izohlanadi.

Tyonnis tomonidan «sof (nazariy) sotsiologiya» deb nomlangan sotsiologik fan sohasining tarkibiy qismi nisbatan muhim ahamiyatga

<sup>1</sup> Капитов Э. А. История и теория социологии. Учебное пособие для вузов. – М.: «Издательство ПРИОР», 2000. – С. 307.

ega bo'lib, bunda sotsiologik nazariyalar: «jamo» va «jamiyat» tushunchalaridan foydalanilgan holda sotsial strukturalarning klassifikatsiyalanishi amalga oshirilgan. Ushbu o'rinda biz aynan, ushbu tushunchalarga e'tibor qaratamiz, shuningdek qayd qilib o'tish kerakki, hozirgi kunda Tyonnis tomonidan amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar deyarli unutilgan.

«Jamo» deb nomlanuvchi hayotning sotsial shaklini ajratib ko'rsatishning asosiy mezon – bu insonlarning «birlashish» asosida yaxlitlikda, jamoada hayot kechirishi hisoblanadi, bu holatda insonlar jamoasining umumiy yashash joyi, yagona til va dinga ega bo'lishi qayd qilinadi: «...qon-qarindoshlik – bu mohiyat sifatida insonlarning bevosita umumiy joyga egaligi natijasida birgalikdagi uzoq turmushini namoyon etadi, bu esa, o'z navbatida oxir-oqibat bir xil ma'nodagi, bir xil yo'nalishdagi oddiy o'zaro ta'sirlashuv va o'zaro aloqalar sifatida jamo» ruhiyatini shakllantiradi»<sup>1</sup>.

Jamo» shakllari:

- 1) qon-qarindoshlik;
- 2) qo'ni-qo'shnichilik;
- 3) do'stlik.

«Jamiyat» deb nomlanuvchi hayotning sotsial shaklini ajratib ko'rsatishning asosiy mezon – bu insonlarning alohida yashashga, yolg'izlik hissi mavjud emasligi nuqtai nazaridan uzoq vaqt birgalikda hayot kechirishi hisoblanadi. Bu aloqalar asosini ratsional ayirboshlash va kelishuv munosabatlari tashkil etadi. «Shunday qilib, jamiyat – tabiiy va shartnoma agregati sifatida tabiiy va su'niy individlarning yig'indisini tashkil etadi. Bunda ularning irodasi va muhitlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bir vaqtning o'zida bir-biridan mustaqil, bir-biriga bog'lanmagan holatda mavjuddir. Bu yerda «fuqarolik jamiyati» yoki «ayirboshlash jamiyati»ning umumiy tavsifi berilganini ko'ramiz, uning tabiati va harakati bilan siyosiy iqtisod shug'ullanadi, Adam Smit ta'kidlaganidek: «har bir kishi o'ziga xos savdogardir»<sup>2</sup>.

Jamiyat tushunchasi siyosiy iqtisodiyotning kategoriyalari va nazariy tasavvuriga asoslanadi va tarixiy nuqtai nazardan fuqarolik jamiyati tushunchasiga muvofiq ishlab chiqiladi. Biroq, Tyonnis o'zining sotsiologik qarashlarida asosiy tushunchalarni ajratib

<sup>1</sup> Теннис Ф. Обязность и общность. – СПб., 2002. – С. 25.

<sup>2</sup> Теннис Ф. Обязность и общность. – СПб., 2002. – С. 63.

ko'rsatishda jamoa va jamiyatning tarixiy shakllari (tarixiy nuqtai nazardan izohlash) bo'yicha mo'ljal olmaydi va shuningdek, ushbu tushunchalarning asosini sotsial strukturalarning sifatga oid tavsiflari tashkil qilmaydi (strukturaviy izoh), balki Wesenwille (keyingi o'rinlarda mohiyat irodasi) va va Kurwille (tanlov irodasi) xohish-irodalariga ega sub'ekt tushunchasiga tayanadi (subyektiv izoh).

Tyonnis tomonidan insonning irodasi ikki xil mazmun-mohiyatga egaligi ta'kidlanadi: «O'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, insonga xos bo'lgan har qanday ruhij faoliyat tafakkur ishtirokida amalga oshganidek, o'z navbatida, men o'z tarkibiga tafakkurni qamrab olgan iroda va o'z tarkibiga irodani qamrab oluvchi tafakkurni o'zaro ajratib ko'rsataman... Ko'rsatib o'tilgan birinchi holatni voqeyelik va tabiiy holat sifatida tushunish mumkin, ikkinchi holatni esa – ideal yoki yaratilgan (gemachte – sun'iy) holat sifatida tavsiflash mumkin. Birinchisiga ko'ra inson irodasini mohiyat irodasi (Wesenwille) ikkinchisiga ko'ra esa tanlov irodasi (Kurwille) sifatida ifodalayman».<sup>1</sup>

Tyonnisga ko'ra, mohiyat irodasini simpatiya, odat, xotira kabilar tashkil qiladi, (jumladan shunga mos ravishda jamoaviylikning uch shakli: qon-qarindoshlik, qo'ni-qo'shnichilik, do'stlik), boshqacha aytganda inson yoki insonlar birligi tomonidan o'ziga bevosita bog'liq holda qabul qilinuvchi bo'lgan munosabatlarni qamrab oladi.

Tanlov irodasi o'z tarkibiga fikrlash, ixtiyoriylik/tanlov, tasavvur (tushuncha) kabi shakllarni qamrab oladi, va oldindan ko'ra bilish va anglash asosidagi ijtimoiy shakllarni ifodalaydi. Tanlov irodasi – bu «insonning kimligi va nimaga qodirligi hisoblanib, bu holat va ushbu holatning o'zgarishlari o'ziga xos tafakkur tarziga bog'liq holda belgilanadi».

Tanlov irodasi va mohiyat irodasi volyuntaristik nuqtai nazardan jamiyatlashuvning asoslarini yoritadi. Garchi, iroda va sotsial strukturalarni rasmiy ravishda uch tarkibiy qismga bo'lib chiqilishi zaruriyati munozarali bo'lib, bu holat nazariy bilish uchun emas, avvalambor tizimlashtirish va simmetriya uchun xizmat qilgandek tuyulsada, zamonaviy sotsiologiyada ham volyuntaristik yondoshuvdan keng foydalanilganligini tan olish lozim. Qisqa qilib

<sup>1</sup> Qarang: Тённис Ф. Обязанность и общество. – СПб., 2002. – С. 131.

aytganda, «jamoa – bu mohiyatga irodasiga oid munosabatlar sub'ekti, jamiyat esa – tanlov asosidagi iroda sub'ekti hisoblanadi».

Tyonnis tomonidan jamoa va jamiyat quyidagi keltirilgan «bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikdagi va o'zaro qarama-qarshi tushunchalar jadvali» orqali tavsiflanadi<sup>1</sup>.

Jamoa (Gemeinschaft)	Jamiyat (Gesellschaft)
Mohiyat irodasi (Wesenwille)	Tanlov irodasi (Kurwille)
O'zlik (Selbst)	Shaxs (Person)
Egalik qilish (Besitz)	Holat (Vermogen)
Yerga egalik (Grund und Boden)	Pul (Geld)
Oila huquqi (Familienrecht)	Majburiyat huquqi (Obligationenrecht)

Bu yerda ideal tiplar tavsifida feodal va burjuaziya tuzumlariga oid jamiyatlarning turli xildagi sotsial strukturalarining tarixiy nuqtai nazardan o'zaro farqlanishlari o'rin tutadi. Garchi, «jamoa» va «jamiyat» tushunchalari ushbu ijtimoiy shakllarni ifodalash uchun yaratilmagan bo'lsa-da, ularning tarixdagi asl nusxalarini ilg'ash qiyin emas.

Jamoa va jamiyat sotsial strukturalari turli ma'nolarda bir-biri bilan kesishishi ham mumkin. Ularni ideal tiplar sifatida tavsiflab, real hayotda har doim aralash ko'rinishda uchrashini qayd etib, Tyonnis ularni analitik jihatdan ajratgan. Jamoa va jamiyat hamda ularning asosini tashkil qiluvchi mohiyat va tanlov irodalarining ijtimoiy shakllari ayrim holatlarda tarixiy nuqtai nazardan qisman o'zaro mos keladi, ayrim holatda qisman birgalikda mavjudligi kuzatiladi va shuningdek, ayrim holatlarda birgalikda mavjud bo'ladi, ayrim holatlarda esa bir-biriga qarama-qarshi turishi kuzatiladi. Jamoa va jamiyat tushunchalari davrlarning ketma-ketlikda kelishi va yetakchilik qiluvchi tuzilmalarning o'rin almashinishlari va yakuniy holatda evolyutsion qarashlardan kelib chiqqan hoda keng ko'lamdagi tasavvurlar asosida shakllangan, ushbu tasavvurlar doirasida jamoa – bu hayotning boshlang'ich integratsiyalovchi shakli sifatida o'rin

<sup>1</sup> История социологии: В 3 т.: Учебник / Под ред. проф. В.И. Добренко. – Кн. 1: История социологии (XIX – первая половина XX в.). – М.: ИНИРАМ, 2004. – С. 30.

tutadi, jam' esa – uning nisbatan keyingi davrlardagi takomillashga kli hisoblanadi.

Tyonnisning «evolyutsion nuqtai nazari ushbu tadqiqot ishining yakuniy qismida batafsil holda keltiriladi. Tyonnis tomonidan jamiyatning rivojlanishi «hayotning ilk jamoaviy shaklidan kelib chiqqan»<sup>1</sup> holda, tushuntiriladi. Unga ko'ra, o'zgarishlar bilan bir vaqtda, ijtimoiy tartiblarning o'zgarishi va parallel tarzda huquqning asta-sekin taraqqiyotga tomon o'zgarishi amalga oshadi. Ushbu holatda shartnoma barcha tizimlar uchun asos sifatida o'rin tutadi va jamiyatning tanlov irodasi borgan sari davlatning ijro irodasi sifatida o'zini namoyon qilib boradi. Davlatning xohish-irodasi borgan sari o'zining eski belgilaridan, shuningdek o'zining an'analari va ishonch-e'tiqodini belgilab beruvchi eski holatdan ozod bo'lib boradi. Shunday qilib, huquq o'z shakliga ko'ra, urf-odatlar yoki odatlar huquqlari mahsulidan oxir-oqibat mutlaqo qonuniy huquq, siyosat mahsuli sifatida o'zgarishi qayd qilinadi. Bunda faqat davlat o'zining tizimlari bilan va nividlar saqlanib qoladi.

Tyonnisga ko'ra, jamiyat davri jamoa davridan keyin keladi. Bunda jamoa o'zaro kelishuv, ma'naviyat va dinga oid ijtimoiy irodani ifodalaydi, jamiyat esa konvensiya, siyosat va jamoatchilik fikriga oid ijtimoiy irodani aks ettiradi. Jamoa – bu oilaviy hayotda, qishloq va shahar hayotida kuzatiladi, jamiyat esa – shahar, milliy va kosmopolitik hayotda o'z ifodasini topadi.

Tyonnis uchun jamoa – oila, mehr-oqibat, an'anaviylik sinonimi hisoblansa, jamiyat, aksincha «begona», tijoratga asoslangan va kapitalistik hisob-kitob sinonimidir.

«Jamoa va jamiyat teoremasi» Tyonnisning sof (nazariy) sotsiologiyasining mazmun-mohiyatini tashkil qiladi. M.Veberning sotsiologiyaga oid bo'lmagan elementlardan tozalangan tushunuvchi sotsiologiyasini belgilab beruvchi asosiy tushunchalardan farq qilib, Tyonnisning asosiy tahliliy sotsiologik tushunchalari o'z tarkibiga tarixiy-falsafiy, evolyutsion va me'yoriy-qadriyatlariga oid jihatlarni qamrab oladi. Biroq, jamoa va jamiyat kategoriyalari, shuningdek Tyonnisning iroda tiplarini Veberning sotsial harakat shakllari bilan bog'lash mumkin, bu holatni Tyonnisning o'zi ham ko'rsatib o'tgan. Jamoa va mohiyat irodasi bilan bog'liq faoliyat shakli M.Veber

<sup>1</sup> История социологии. В 3 кн. Учебник / Под ред. проф. В.И. Добренькова. - Кн. 1: История социологии (XIX – первая половина XX в.). - М.: ИНИ РАН, 2004. - С. 304.

qarashlaridagi an'anaviy, affektiv yoki qadriyatlarli-ratsional harakat tushunchalariga, jamiyat va tanlov irodasi bilan bog'liq harakat esa uning maqsadli-ratsional harakat tipiga mos keladi.

5. Tyonniga tomonidan jamoa va jamiyat sotsial hayot shakllarini ajratish mezonlari sifatida olib qaraladi. sotsial hayot shakllarining o'zini esa uch tipga ajratgan:

- 1) sotsial munosabatlar;
- 2) guruhlar, birliklar;
- 3) korporatsiya uyushma yoki birlashmalar.<sup>1</sup>

Sotsial munosabat faqatgina munosabat ishtirokchilari tomonidan anglangan yoki his qilinganida emas, balki uning zaruriyat ekanligi tushunilib, oqibatda ishtirokchilarning o'zaro huquq va majburiyatlari aniqlanganida mavjud bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, sotsial munosabatlar – bu obyektiv xarakterga ega bo'lgan munosabatlar.

Ikkidan ortiq inson ishtirokidagi sotsial munosabatlar «sotsial davra»ni tashkil etadi. Sotsial davra munosabatlardan guruhga o'tish bosqichini tashkil etadi. Guruh uning a'zolari mazkur individlar birlashuvini ongli ravishda ma'lum maqsadga yetishish yo'lida zaruriy deb topganida tashkil topadi.

Keyinchalik mazkur guruhda ichki tashkillashtirish, ya'ni a'zolar funksiyalarining taqsimlanishi jarayoni kechib, mazkur sotsial shaklni korporatsiya yoki birlashma deb atash mumkin.

Munosabat, guruh va birlashmaga tasniflashda inson munosabatlarining «hukmronlik – birodarlik» mezonini qo'llangan. Shundan keyingina tasniflash natijasida olingan tiplar nisbatan yirik «jamoa» va «jamiyat»ga xoslik mezonlari bo'yicha ajratiladi.

Tyonnis sotsial me'yorlarni ham tasniflagan. Unga ko'ra, sotsial me'yorlar quyidagi turlarga ajraladi:

- 1) sotsial tartibot me'yorlari;
- 2) huquqiy me'yorlar;
- 3) axloqiy me'yorlar.<sup>2</sup>

Sotsial me'yorlar kelishuv va konvenitsiyaga asoslangan eng umumiy tartibdagi me'yorlardan tashkil topadi. Tartib me'yorlari faktlarning me'yortiv kuchiga tayanadi. Tyonnis huquqni odatlar yoki

<sup>1</sup> Эберовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: ИНО СУРГУТУ, 2014. – С. 83.

<sup>2</sup> Qizilov: Фарфояв Б.А., Нуруллоева У.Н. Социология тарихи. Усулбий ахлати. – Тошкент, 2009. – Б. 60.

rasmiy qonunchilik asosida tashkil topadi deydi. Axloq esa din yoki jamoatchilik fikri asosida paydo bo'ladi. Ko'rsatilgan barcha normativ me'yorlar o'z navbatida «jamoat» va «jamiyat»ga xos bo'lganlarga bo'linadi. Barcha turdagi me'yorlarning farqlari «ideal-tipik» yoki analitik xarakterga ega. Real hayotda ular sof holda uchramaydi. Barcha sotsial shakllarning normativ tizimlari me'yorlar, tartib, huquq va axloqdan tashkil topadi.

Doimiy ravishda ajratib ko'rsatilgan shakllar jamoa va jamiyatga xosligi jihatidan ajratilmaganida, yuqorida keltirib o'tilgan barcha tiplar notarixiy va mavhum xarakterga ega bo'lardi. Mazkur tamoyilning aniq sotsial hodisalar tahlili uchun qo'llanilishi tarixiy rivojlanish voqyealarini payqash va konseptual yoritish imkonini berdi. Yuqorida keltirilgan tasniflarning, jumladan, jamoa va jamiyat tushunchalarining amaliy ahamiyati ana shundan iborat edi.

6. Fanni pozitivistik jihatdan tushunish uning siyosatdan mustaqil bo'lishini taqazo etardi. Tyonnis o'z ijodida sotsiologiya va siyosat munosabatlariga keng e'tibor qaratgan. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni bekitish yoki ulardan qochish sotsial qadriyatlarini o'rganishdan bosh tortish degani emas. Tyonnis aynan ma'lumotlarning sotsiologik, ilmiy, ob'ektiv o'rganilishi siyosatga siyosiy faoliyatning ilmiy ishlab chiqilgan va asoslangan shaklini taqdim qiladi deb hisoblagan. «Inson ma'lum natijalarga erishishi uchun nima qilishi kerakligi ilmiy asosda ko'rsatib berilishi lozim. Bunday ta'limotlar mustaqil fan hisoblanmaydi. Ular aynan fan emas, balki hunar, texnologiyadir», deb yozadi Tyonnis<sup>1</sup>. Siyosat ana shunday hunarlardan biri. U boshqa fanlar olgan ma'lumotlarni o'z doirasida ishlatadi. Ularning farqi shundaki, fan qadriyatlarini o'rganish obyektiga aylantiradi, siyosat uchun esa qadriyatlar faoliyat asosi hisoblanadi. «Ilmiy nuqtayi nazardan qandaydir aniq maqsad qo'yilgani yoki qo'yilmagani u qadar muhim emas. Amaliyotchi esa aniq bir maqsadga yo'nalgan bo'ladi va unga yetishish mumkinligini, uning yo'llarini ilmiy asoslangan holda bilgisi keladi. Tadqiqotchi sabab va oqibatlar bilan ish ko'radi. Inson fanlarni faqatgina o'rganadi. Amaliyotdagi inson esa faoliyatda bo'lishni istaydi»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: Фадеев Е.А., Нурмухамедов У.Н. Социология тарихи. Усулвий аспектлари. – Тошкент, 2009. – Б. 61-62.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

Tyonnis fanni siyosatdan ajratishga intilgan bo'lsa-da, siyosatni fundan ajratmagan. U aksincha, siyosatni ilmiy asosga ega bo'lishi tarafdori edi. Tyonnisning siyosatchi sifatidagi faoliyati, tanlagan yo'nalishi, maqsad va ijtimoiy ish vositalari to'raligicha uning sotsiologik ta'limotiga asoslangan edi.

Amaliy sotsiologiya doirasida ifoda etilgan ijtimoiy rivojlanish natijasidagi tabiiy ravishda ratsionallikning ortishi demokratiya uchun va tabaqalar, feodal qarashlarga qarshi kurashni taqazo etgan. Tyonnis proletariatning ma'rifatli bo'lishini XVII-XVIII asrlarda bo'lib o'tgan burjua qatlamining ma'rifatlashuvining davomi sifatida qabul qilgan. Shuning uchun olim sotsial-demokratik va ishchilar harakatlarida faol ishtirok etgan, so'z erkinligi uchun kurashib, kasaba uyushmalari tashkil etishni qo'llab-quvvatlagan. 1896-1897-yillarda bo'lib o'tgan mashhur Kil shahridagi stachkada esa qo'zg'olonchilar tarafida kurashgan.<sup>1</sup>

7. Afsuski, sotsiologiya tarixi strukturasi Tyonnis falsafasi haqidagi fikrlar shu bilan chegaralanadi, ayrim tadqiqotchilar tomonidan uning o'zi esa – «ikkinchi eshalon tarkibidagi klassik» sifatida qayd qilinadi. Ushbu nuqtai nazardan, R.Shpakova tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, so'nggi o'n yilliklar davomida Germaniya sotsiologiyasida sotsiolog olimlarning F.Tyonnis merosiga bo'lgan qiziqishi ortib borish tendensiyasi qayd etiladi. Tyonnisning faoliyati va qarashlari ilmiy doiralarda keng ko'lamda muhokama qilinadi, uning nazariy konsepsiyalari, empirik ilmiy tadqiqotlari bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan ilmiy maqolalarning nashr qilinish soni ortib borishi kuzatiladi. Shuningdek, so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida sotsiologiya yo'nalishida o'tkazilgan yirik kongresslarning birortasida Tyonnis qarashlariga bag'ishlangan ma'ruzalarsiz o'tmagan va umumiy holatda, so'nggi yillarda Tyonnis ijodiga murojaat qilish sotsiologiyada yangi tendensiya sifatida qayd qilinadi<sup>2</sup>.

Shu bilan birgalikda, ushbu o'rinda yaqqol paradoks<sup>3</sup> kuzatiladi: ya'ni, bir tomondan Tyonnis ijodiga qiziqishning o'yg'onish davri sifatida so'zsiz ravishda ortib borishi va uning qarashlarining zamonaviy jarayonlarga tadbiiq etilishiga urinishlar kuzatilishi qayd

<sup>1</sup> A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Creighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. – P. 175-184.

<sup>2</sup> Qarang: Шпакова Р.И. Фигура Ф.Т. «Классика социологии» // Социс. – 1995. – № 12. – С. 139.

<sup>3</sup> Paradoks – me'yoriy qonuniyatlar bilan inobat qiyin bo'lgan holat.

qilinsa, boshqa tomondan esa – uning nazariy merosi oldingidek, sotsiologik bilimlar tarixi tarkibida batafsil oydinlik kiritilmagan, bo'yo'g'i ikki kategoriya orqali belgilanuvchi nazariya sifatida talqin etiladi. Shunisi qiziqarliki, bunday xulosalarni Tyonnisning o'zi ham rad etmagan. Shunday qilib, o'zining «Sotsiologiyaga kirish» deb nomlangan so'nggi kitobida quyidagi xulosalarni qayd etadi: «Hozirgacha mening sotsiologik qarashlarim sifatida – «jamoat» va «jamiyat» tushunchalari qabul qilinadi. Men bu tushunchalarni asosiy tushunchalar sifatida belgilaganman va hozir ham shunday deb hisoblayman»<sup>1</sup>.

Sotsiologiyada hozirgi kunga qadar Tyonnis tomonidan taklif qilingan jamoa va jamiyatning dixotomiyasi tushunchasining tarkibi va qo'llanilishi bo'yicha bahs-munozaralar davom etmoqda. Bu dixotomiya empirik tavsifga ega bo'lgan sotsiologik tadqiqotlarda shuningdek, nazariy sotsiologiyada, M. Veber, T. Parsons va boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlarda kuzatiladi. Tyonnis qarashlaridagi jamoa va jamiyatga oid sotsial munosabatlar dixotomiyasining evristik qadr-qimmatini yuqori darajada baholanadi. Garchi, ularni qat'iy tartibda kam qo'llanilgan bo'lsada, Tyonnis tomonidan ishlab chiqilgan sxema sotsiologik tafakkurlashga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Tyonnisning o'ziga xos madaniy qadriyatlar bo'yicha farqlanuvchi sotsial munosabatlar klassifikatsiyasini Parsons qarashlarida kuzatishimiz mumkin. Sotsial tizimlarning («The Social Systems», 1951) strukturaviy-funksional nazariyasini ishlab chiqishning o'rta bosqichida Parsons o'zining o'zgaruvchan tushunchalari tiplari sxemasini Tyonnis sxemasi bilan bog'lagan. Sotsiologiya fanining shakllanishining dastlabki davrlarida dixotomiyaga tegishli asosiy tushunchalar parallel tavsifda qo'llanilgan, jumladan – «jamoat-jamiyat» tushunchasi juftligi yoki «navqye-shartnoma» (Men), «organik-mexanik birdamlik» (Dyurkgeym), «an'anaviy-maqсадga yo'naltirilgan ratsional harakat» (Veber) va hokazo ko'rinishlar qayd qilingan. Ushbu sxemalar orqali hozirgi vaqtda «modernizatsiya» tushunchasi orqali ifodalovchi – «zamonaviy jamiyat»ga olib keluvchi rivojlanish va ratsionalizatsiya jarayonlarining ijtimoiy-evolyutsion refleksiya qarab chiqiladi.

<sup>1</sup> Шенников Р.П. Философия Тенниса. «Западный человек» // Человек. – 1995. – № 12. – С. 110.

Tyonnisning ko'rsatib o'tilgan asosiy asari nashr qilinganidan qariyb 100 yildan ortiq vaqt o'tganidan keyin ham, dixotomiya haqidagi qarashlarga nisbatan bahs-munozaralar to'xtagani yo'q. Jamoa tushunchasi hozirgi kunda siyosiy jihatdan qo'llash asosida qisman diskretlashtirilgan bo'lib, konservativ tafakkurning normativ tarkibiy elementi sifatida qarab chiqiladi, ya'ni bu tushunchani Tyonnis kabi bevosita sotsiologik nuqtai nazardan izohlash tavsiya qilinmaydi. Hozirgi kunda jamoa nafaqat utopiyaga yo'naltirilgan ideal tasavvur sifatida, balki kelajakka yo'naltirilgan inqilobiy ideal sifatida ham qarab chiqiladi. Erkin assotsiatsiya bir tomondan, erkin individlarning ratsional birlashishida ong va iroda asosida o'z munosabatlarini oqilona tarzda shakllantirish sifatida qarab chiqilsa, boshqa tomondan, erkin assotsiatsiya jamoa va jamiyat o'rtasidagi uzilishlarni yengib o'tishning utopik g'oyasi sifatida o'rin tutadi. Masala shundaki, ya'ni sezilarli darajada ahamiyatga ega bo'lmagan muqobil variantlarni tavsiflashda erkin assotsiatsiya yoki jamoa tushunchalaridan foydalanish kerakmi yoki yo'qmi, degan savolga javob topish talab qilinadi. Globalizatsiya asosi sifatida Sharqiy yevropaga oid sotsializmning inqirozga uchrashi va kapitalistik tizimga oid munosabatlarning qaror topishi ijtimoiy emansipatsiya masalasining nazariy va amaliy hihatdan mazmun-mohiyatini murakkablashtiradi. Qayd qilib o'tish kerakki, Tyonnisning zamonaviy davomchilari hisoblangan ko'pgina olimlar, burjuaziya tuzumida faoliyat olib borgan intellegensiya vakillari va sotsiologlar, jumladan Veber tomonidan sotsializm va kommunizm – ushbu muqobil variantlarning baholanishidan qat'iy nazar, bo'lg'usi burjuaziya jamiyatining qochib bo'lmas shakli hisoblanishi qayd etilgan.

Demak, Tyonnis o'zining dixotomiya haqidagi qarashlarini sotsiologlar uchun oydinlik kiritish talab qilinuvchi jumboqli holat sifatida meros qoldirgan, deyish mumkin. Sotsiologiya va Tyonnis tomonidan keltirilgan sharhlarda «jamoat» – bu sof holatdagi tahliliy tushuncha hisoblanmaydi va ko'p ma'noga ega bo'lgan, qandaydir noaniq tushuncha sifatida talqin etiladi. Keltirilgan bu har ikkala tushuncha Tyonnisning dastlabki falsafiy, sotsiologik tavsiflarga ega bo'lgan eski asarlarida ham yetarlicha darajada noaniqligicha qolib ketgan. Bir tomondan, bu tushunchalar sotsial voqeyelik strukturalarining o'zaro bir-biri bilan kesishishini ifodalovchi tahliliy

kategoriya sifatida o'rin tutadi. Boshqa tomondan esa – bu tushunchalar Tyonnis asarlarida jamoadan jamiyatga tomon amalga oshiriluvchi maqsadga yo'naltirilgan harakatning empirik qayd qilinuvchi fazalari sifatida talqin etiladi, bu holat tahliliy tafakkur yurituvchi sotsiologlar tomonidan haqli ravishda reifikatsiya (moddiylashtirish) sifatida tanqid qilingan. Tyonnisning tasavvurlarining umumiy o'zgarish vektori uning asosiy asarining quyidagi bobi nomlanishida o'z aksini topadi: ya'ni, asarning birini nashrida (1887) «Madaniyatning empirik shakllari (madaniyat falsafasi teoremasi)» bobi va shuningdek, 25 yildan keyin nashr qilingan asarida «Sof sotsiologiyaning asosiy tushunchalari» bobida o'z aksini topgan. Qayd qilib o'tish mumkinki, ushbu yillar davomida Tyonnis tomonidan falsafa tarixidan analitik sotsiologiya tomon yo'nalishda ilmiy yo'l bosib o'tilgan.

Biroq, Tyonnis tomonidan sof analitik sotsiologiya yaratilmagan. Uning «Jamo va jamiyat» asarida keltirilgan ko'pgina sharhlar shundan dalolat beradiki, Tyonnis qarashlarining tanqidga uchrashiga sabab bo'lgan jamoaga oid romantika haqiqatdan ham uning fikrlarida mavjud hisoblangan. G'oyalarning romantika darajasiga olib chiqilishi Tyonnis tomonidan xalqning umumiyliги tushunchasining milliy-sotsializm tarkibida siyosiy jihatdan kategoriya sifatida foydalanilishida o'z ifodasini topgan.

Tyonnis ijodi tufayli «jamo» va «jamiyat» tushunchalari nafaqat nemis sotsiologiyasiga, balki umumiy sotsiologiyaga asosiy tushunchalardan biri sifatida kirib kelgan. Muallifning hayotlik davridayoq uning asarlari Daniya, Italiya, Rossiya va Shimoliy Amerikada katta qiziqish o'yg'otgan. Shunday qilib, Amerika sotsiologlarining Chikago maktabi vakili hisoblangan olimlar (R.Park, L.Virt va boshqalar) tomonidan Tyonnisning «jamo» tushunchasi ijtimoiy aloqalarning (munosabatlar) makon bo'ylab joylashishini ifodalashda foydalanilgan. Boshqa sotsiologlar (masalan, Sorokin) tomonidan Tyonnisning ushbu tushunchasi hayotning qishloqqa xos-dehqonlarcha va shaharga xos-burjuaziya hayoti kabi shakllarini o'zaro farqlash maqsadida foydalanilgan.

Germaniyalik zamonaviy yirik sotsiologlardan biri hisoblangan – Rene Kyonig tomonidan qayd qilinishicha, 1920-yillarda «jamo» tushunchasi talabalar orasida gumanitar elitani ifodalovchi mo'jizakor tushuncha hisoblangan. U tomonidan qayd qilinishicha: «Sotsiologiya

to'laligicha «jamo» tushunchasini qo'llab-quvvatlab va «jamiyat» tushunchasiga qarshi tarzda izohlangan. Asosiy kategoriyalarni, madaniy-pessimistik tavsifga ega g'oyalarni ushbu ko'rinishda sharhlash Tyonnis qarashlaridan kelib chiqib, o'sha davrda Tyonnisning davlat mafkurasiga nisbatan ehtirosli munosabatlari mahsuli sifatida tanqid qilingan, garchi Tyonnis fashizmga zolim hukmronlik sifatida munosabat bildirgan va 1933-yilda fashizmning g'alaba qozonishi davrida Tyonnis bu holatni «aqlsizlik va cheklanganlik (majruhlik) g'alabasi» deb nomlagan.

Hozirgi kunda Tyonnisning faoliyati va uning asarlariga bo'lgan qiziqish darajasining ortib borishi bizning davrimizda ruhiy olam masalasining dolzarblashuvi bilan bog'liq hisoblanadi. Gap shundaki, ya'ni Tyonnis insonlarning ijtimoiy hayotining asosiy burchagiga «umumiy xohish-irodaga erishish uchun yaratilgan jamo» tushunchasini qo'yadi. Ushbu nuqtai nazardan, o'zaro ta'sirlashuvni o'rganuvchi sotsiologiya, Tyonnisga ko'ra, «umumiy falsafiy axloqning tarkibiy qismi» hisoblanadi, ushbu sotsiologiyaning markaziy kategoriyasi esa – «kelishuv» kategoriyasidan tashkil topadi.

Ushbu nuqtai nazardan Tyonnis birinchilardan bo'lib, sotsiologiyaning qismlarga ajratilgan tizimini ishlab chiqadi, uning tarkibiga nafaqat «kurash», «raqobat» tushunchalaridan tashkil topgan kategoriyalarni kiritmasdan, balki shuningdek asosiy kategoriya sifatida – M.Veber va K.Marks tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik tizimlarda mazmunga ega bo'lmagan kategoriyalarni, ya'ni «kelishuv», «ishonch», «do'stlik» va boshqa xulq-atvorning axloqqa oid me'yorlarini ifodalovchi kategoriyalarni ham kiritadi.

Sotsiolog olim F.Tyonnisning sotsiologik qarashlarini qisqacha muhokama qilishga xulosa yasash davomida qayd qilish mumkinki, u empirik sotsiolog olim sifatida keng ko'lamda mashhur hisoblanadi, shuningdek yirik sotsiologik tadqiqotlarni tashkilotchisi sifatida o'rin tutadi (ayrim tadqiqotchilar tomonidan Tyonnis sotsiologiyasi endi boshlanganligi ta'kidlanadi).

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Nemis mumtoz sotsiologiyasining o'ziga xos jihatlarini bayon eting.

2. «Formal siologiya» tushunchasining mazmun-mohiyatini izohlang.

3. F.Tyonnis sotsiologiyaning predmetini nimalardan iborat, deb bilgan?

4. F.Tyonnis sotsiologiya fanining qanday darajalarini ajratgan?

5. F.Tyonnis jamoa va jamiyatni qaysi belgilariga ko'ra ajratgan?

6. F.Tyonnisning sotsial hayot shakllari to'g'risidagi ta'limotining mazmun-mohiyatini izohlang.

7. F.Tyonnis sotsial me'yorlarning qanday turlarini farqlaydi?

8. F.Tyonnis sotsiologiya va siyosatning o'zaro aloqadorligini nimalarda ko'radi?

9. F.Tyonnis ijodining tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?

#### GLOSSARIY

**Jamiyat – общество – society** – muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o'zlarini boshqa qo'shni guruhlardan farqlaydigan insonlar guruhi.

**Jamoaviy harakat – коллективное действие – collective action** – muayyan joyda to'plangan ko'p miqdordagi insonlar tomonidan o'z-o'zidan kelib chiqib bajariladigan harakatlar.

**Jamoaviy munosabatlar – коллективные отношения – collective relations** – emotsiya, ruhiy yaqinlik, bog'liqlik kabilar asosiga qurilgan munosabatlar, faoliyat ongli va emotsiyalar ta'sirida ongsiz bo'lishi mumkin: urug'-g'aymoqchilik; qo'ni-qo'shnichilik; do'stlik munosabatlari.

**Ijtimoiy munosabatlar – общественные отношения – public relations** – jamiyat munosabatlari, asosini ratsionallik, bosh tamoyilini esa ratsional ayirboshlash tashkil etadi. Bu turdagi munosabatlar jamoa a'zolari o'rtasida kam bo'lishi mumkin. Ammo ular bir-biriga begona bo'lgan individlar, hatto dushmanlar o'rtasida ham bo'lishi mumkin. Jamiyat munosabatlari o'zaro manfaat mavjud bo'lganda bog'lanadi.

**Iroda – воля – will** – F.Tyonnis munosabatlarning asosini ikki turdagi iroda tashkil etadi, deb hisoblaydi. Ularni Wesenwille va Kurwille deb nomlagan. Birinchisi — bu mohiyat irodasi, ya'ni butunlik irodasi bo'lib, ijtimoiy hayotning istalgan jihatini aniqlab beradi. Ikkinchi irodada esa integratsiyalovchi omil o'zgacha

ko'rinishda bo'lib, ijtimoiy iroda nimjonlashadi va bir qancha alohida shaxsiy irodalarga bo'linib ketadi.

**Me'yorlar – нормы – rates** – muayyan ijtimoiy birlik doirasida qabul qilingan xulq-atvor qoidalari.

**Sotsial jamoa – социальная общность – social generality** – real mavjud, empirik jihatdan qayd etish mumkin bo'lgan, nisbatan yaxlitlik va tarixiy va sotsial harakat mustaqil sub'ekti sifatida namoyon bo'ladigan insonlar yig'indisi.

## G. ZIMMEL VA UNING FORMAL SOTSILOGIYASI

### Reja:

1. Georg Zimmelning hayoti va ijodi
2. Sotsiologiyaning predmeti, usul va vazifalari
3. Formal sotsiologiya
4. Falsafiy sotsiologiya va tushunish muammosi
5. Madaniyat sotsiologiyasi
6. Zimmel sotsiologik nazariyasining ahamiyati

1. Georg Zimmel XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijod etgan sotsiologiya mumtozlari ichida beqaror va bir-biriga zid g'oyalarni ilgari surgan olim sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodini ko'pchilik sotsiologlar turlicha talqin etadilar. Zimmel sotsiologiyasini baholashda tarixchi va nazariyotchilar bir-biriga zid: uning g'oyalarining ahamiyatini to'liq rad etishdan tortib to ularning bosqichma-bosqich rivojlanganligiga urg'u bergan holda sotsiologiya fanining rivojiga qo'shgan hissasini e'tirof etishgacha bo'lgan nuqtai nazardan yondoshgan.

Georg Zimmel Berlining qoq markazida 1858-yil 1-martda dunyoga kelgan. U Berlin universitetida juda ko'plab fanlar doirasini o'rgangan. Mazkur bilim dargohida mashhur tarixchi olimlar T.Mommzen, L.Droyzen va G. fon Treychke, psixologlar M.Latsarus, V. Vundt, Shteyntal va Bastian, faylasuflar A.Xarms va F.Seller dars berishgan. Ularni Zimmelning fikrlari shakllanishida ma'lum ma'noda hissalari bor.

Lekin uning dissertatsiya yozishga birinchi urinishi rad etilgan, uning o'qituvchilaridan biri esa qayd etgan: «Biz uning bu istak-xohishini qo'llab-quvvatlamasak, unga katta iltifot keltirgan bo'lamiz»<sup>1</sup>. Bunga qaramay, Zimmel qat'iylikni namoyon qildi va 1881-yilda falsafa doktori darajasini oldi. U universitetda 1885-yildan to 1900-yilgacha bor yo'g'i *privat dotsent* lavozimini egallagan bo'lsada, o'qituvchi sifatida to 1914-yilgacha qoldi. Zimmel ma'ruzalar o'qirdi, lekin uning mehnatiga haq to'lanmas edi, tirikchilik manbai esa talabalar tomonidan to'lovlar

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mac Graw-Hill, 2010. – P. 160.

hisobiga bo'lar edi. Qiyinchiliklarga qaramasdan, Zimmel bu lavozimda ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishdi, chunki u zo'r ma'ruzachi edi va ta'lim uchun to'lovlarni amalga oshiradigan ko'plab talabalarni jalb etardi. E.Blox, G.Lukach va K.Manngeym (Frankfurt maktabi vakillari) uning talabalar bo'lishgan. Uning uslubi shu darajada taniqli ediki, uning ma'ruzalari Berlin jamiyatining oliy ma'lumotli a'zolarining ham e'tiborini qozondi, uning har bir ma'ruzasi ijtimoiy ahamiyatga molik hodisaga aylandi.

Zimmelning o'ziga xosligi u haqidagi fikrlar bir-biriga zid va shu asosda, ko'pincha boshi berk ko'chaga olib kirib qoladigan vaziyatlar bo'lganligi faktlari bilan asoslanishini J.Ritser quyidagicha yozadi: «Agar biz qarindoshlari, do'stlari, talabalar tomonidan bildirilgan xususiyatlarini solishtirsak, Zimmel to'g'risidagi hatto bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Ayrimlar uni baland bo'yli va qotmadan kelgan, deb ta'rifladi, boshqalar – achinish hissini uyg'otadigan darajadagi past bo'yli odam sifatida ta'riflaydi. Aytishlaricha, uning tashqi ko'rinishi e'tiborni tortmaydigan, tipik yahudiy, lekin shu bilan birga juda o'qimishli va oliyhimmat edi. Ma'lumki, u juda mehnatsevar, shu bilan birga ajoyib va o'z fikrlarini aniq bayon eta oladigan ma'ruzachi bo'lgan. Nihoyat, biz bilamizki, u o'ta kuchli bilimdon, do'stsevar va iltifotli bo'lgan, lekin shunisi ham to'g'riki, u ichki mohiyatiga ko'ra noratsional, tund va yovvoyi ham bo'lgan»<sup>1</sup>.

Zimmel cheksiz miqdordagi maqolalar («Metropoliya va ruhiy hayot») va kitoblarni («Pul falsafasi») yozgan. U nemis akademik doiralarda o'ta mashhur bo'lgan va xorijda, asosan AQShda o'z izdoshlariga ega bo'lgan, bu yerda uning asarlari sotsiologiya rivoji uchun juda katta ahamiyat kasb etgan. Nihoyat, 1900 yilda Zimmel rasmiy jihatdan e'tirof etiladi va Berlin universitetida faxriy unvonga ega bo'ladi, lekin bu unga to'liq akademik maqom bermaydi. Zimmel ko'plab akademik lavozimlarni egallashga harakat qiladi, lekin Maks Veberdek olimlarning qo'llab-quvvatlashiga qaramasdan omadsizlikka uchraydi.

Uning omadsizligining sabablaridan biri uning yahudiy millatiga mansubligida edi, Germaniyada esa XIX asrda antisemitizm hukmronlik qilgan edi. Shunday qilib, Ta'lim vazirligida yozilgan

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mac Graw-Hill, 2010. – P. 160.

Zimmel to'g'risidagi dokladda u «tashqi ko'rinishiga, xulq-atvoriga va tafakkur tarziga ko'ra mukammal isroillik» sifatida tasvirlangan. Boshqa sabab — u bajargan ish turi. Ko'plab maqolalari gazeta va jurnallarda paydo bo'ldi; ular universitetnikidan ko'ra kengroq auditoriya uchun yozilgan edi. Bundan tashqari, universitetda doimiy ish o'rniga ega bo'lmaganligi sababli, u ommaviy ma'ruzalar bilan hayot kechirish uchun mablag' topishga majbur edi. Zimmelning auditoriyasini, uning o'quvchilarini ham, tinglovchilarini ham professional sotsiologlar emas, balki intellektual jamoa tashkil etgan, va bu uning professional hamkasblari tomonidan ko'pincha kulgiga olinar edi. Masalan, zamondoshlaridan biri Zimmelni uning «umumiy atmosferada namoyon bo'lgan va avvalo jurnalistikaning barcha oliy darajalariga ta'siri» uchun la'natlagan<sup>1</sup>. Zimmelning shaxsiy omadsizliklari yana shular bilan bog'liqki, o'sha davr nemis akademiklari sotsiologiyaga hech qanday hurmat-e'tibor ko'rsatmagan edi.

Zimmel 1914-yilda, nihoyat, ikkinchi darajali universitetda (Strasburgda) doimiy akademik lavozimni egallaydi, lekin u yerda ham o'zini begona his qiladi. Birinchidan, u Berlin intellektuallari auditoriyasini tark etganligi uchun afsusda bo'lgan. Uning xotini Maks Veberning xotiniga shunday yozadi: «Georg auditoriya bilan ajralishni og'ir qabul qildi... Talabalar uni juda yaxshi ko'rar edi va unga hamdard edi... Bu hayotning eng kuchga to'lgan pallasidagi vidolashuv edi»<sup>2</sup>. Ikkinchidan, Zimmel Strasburgdagi universitet hayotida faol ishtirok etmas edi. U Veberga shunday yozadi: «Biz haqimizda ma'lumot berishga arzigulik narsaning o'zi yo'q. Biz surgunda, yolg'iz, befarq, tashqi olamdan ajralgan holda yashamoqdamiz. Akademik faollik nolga teng, odamlar... begona va ichki muhit dushmanlarcha yo'g'rilgan»<sup>3</sup>.

U bu yerda mantiq, falsafa tarixi, metafizika, etika, din falsafasi, san'at falsafasi, sotsial psixologiya, sotsiologiya va Kant, Shopengauer, Darvin bo'yicha maxsus kurslarni o'qitgan.

Birinchi jahon urushi Zimmelning Strasburgda tayinlanishidan qisqa muddatdan keyin boshlangan: ma'ruza zallari harbiy gospitalarga aylantirilgan, talabalar esa urushga ketgan. Shunday

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. — P. 161.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> O'sha joyda.

qilib, Zimmelning shaxsi va uning asarlari 1918-yildagi o'limidan keyin nemis ilmiy doiralarda baholandi. U an'anaviy akademik martabaga erishmadi. Shunday bo'lsada, Zimmel ko'plab miqdordagi o'z izdoshlariga ega bo'ldi va uning shon-shuhrati yildan-yilga ortib borgan<sup>1</sup>.

Zimmel ijodini adekvat tushunishda uch narsa to'sqinlik qiladi. Bular olimning fikrlar evolyutsiyasining o'ta murakkabligi, qiziqishlarining kengligi va xilma-xilligi, ko'p asarlarini sistematik emas, balki esse shaklida bitilgani bilan izohlanishi mumkin. Esse janrida u Gyote, Dante, Rembrandt, Mikelanjelo haqida yozgan.

Zimmel nafaqat sotsiolog, madaniyat falsafasining yirik namoyondasi, san'at nazariyotchisi bo'lgan. U sotsial psixologiya, etika, siyosiy iqtisod, shahar, din va jins sotsiologiyasi kabi sohalarda ijod qilgan. Zimmel izlanishlar olib borgan har bir sohasida o'z sotsiologik qarashini to'ldirgan va aniqlashtirgan jihatlarni topgan. U o'z fikrlarini kamdan-kam tarzda sistemalashtirgan. Shuning uchun uning sotsiologik konsepsiyasi turli maqola, esse va asarlari bo'yicha yoyilgan desa ham bo'ladi.

Aslini olganda Zimmel ko'rib chiqqan barcha muammolar va uning qiziqishlari sotsiologiyaning predmeti, usuli va vazifalari borasidagi tasavvurlari orqali bir butunga birlashtirilgan.

Georg Zimmelning asosiy asarlari:

1. «Sotsial differentsiatsiya. Sotsiologik va psixologik tadqiqot» (1890)
2. «Tarix falsafasi muammolari» (1892-1893, 1905).
3. «Ahloqshunoslikka kirish» (1892-1893).
4. «Pul falsafasi» (1900).
5. «Din» (1906).
6. «Sotsiologiya. Sotsiatsiya shakllarini o'rganish» (1908).
7. «Madaniyat sotsiologiyasi» (1911).
8. «Gyote» (1913).
9. «Rembrandt» (1916).
10. «Sotsiologiyaning fundamental savollari (indivud va jamiyat)» (1917).
11. «Dunyoqarash» (1906).

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. — P. 161.

Zimmel falsafiy va sotsiologik ijodi turli-tuman yangi hamda eski g'oyalar va tendensiyalar chatishishi – “madaniyat krizisi” davrida yuzaga keldi. Xuddi shu krizisli va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan xususiyatlarning ifodalovchisi sifatida Zimmel sotsiologiya tarixiga kirib keldi. U qarama-qarshiliklarning ifodalovchisi edi, uni qandaydir bir nazariy doktrina yoki konsepsiyaga bo'ysundirish juda qiyin edi.

Zimmel ijodi “norasmiy Berlin madaniyati” doirasida boshlandi, va so'lib liberallar va sotsialistlarga yaqin bo'ldi, hattoki oylik sotsialistik nashrlarda ham maqolalari chop etildi, oxirida esa neoromantik harakat bilan uzviy bog'landi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi neoromantizm nemischa talqinda antiratsional oqim sifatida urbanizatsiya, ratsionalizm, pozitivizm, materializm va boshqa “zamonaviy sivilizatsiyaning kushandalari”ga qarshi edi. Bu oqim nemischa romantizmning boshlang'ich ruhini tiklashga harakat qilardi. Uning ayrim vakillari nemis dehqoni va hunarmandini maqtab, o'z davri va muhitini inkor etar, tanholikda hayot kechirar edi. Boshqalari esa o'rta asrdagi jamiyat tubidan kelib chiquvchi elitani, ierarxiyani, tartibni yoqlaganlar va o'zlarining tor doiralarda yashaganlar. Bularning hammasi madaniyat muammolarini sotsiologik tahlil qilishda, inqirozli holatlarni baholashda va madaniy taraqqiyotning fojialiligini tushinishda Zimmelning sotsiologiya va madaniyat falsafasi bo'yicha izlanishlarida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Tadqiqotchilar, shuningdek, Zimmel g'oyalari taraqqiyotining «neokantchilik» bosqichini ham ajratadilar va uning Zimmel sotsiologiyasiga muhim va samarali ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydilar. Sotsiologiya bo'yicha asarlardan eng avvalo Zimmel tomonidan qayta ishlangan va ikkinchi marotaba nashr etilgan “Tarix falsafasi muammolari” asarini ko'rsatish lozim. 1892 yildagi birinchi nashrida bu kitob pozitivizmni aniq namoyon etardi. Ikkinchi nashrida esa unga Zimmelning ma'naviy taraqqiyotining yangi davriga xos bo'lgan yangi g'oyalar kiritildi. Bu davrga shuningdek bir qator muhim sotsiologik asarlari to'g'ri keladi. Masalan: “Sotsiologiya. Sotsiatsiya shakllarini o'rganish” (1908) va “Pul falsafasi” (1900).

Bu ikki nashr uning asosiy sotsiologik g'oyalari, uning ikki asosiy qismini tashkil etadi. Bular: formal (yoki sof) sotsiologiya va madaniyat sotsiologiyasi. Bunda uning «Sotsiologiya...» asarini asosiy sotsiologiya kitobi sifatida qaralsa, “Pul falsafasig”ga esa

nomlanishidan kelib chiqib sotsiologlardan ko'ra faylasuf va iqtisodchilar e'tibor qaratdilar.

Bu davrda Zimmel bir qator falsafiy ishlarni chop etdi. Ular sotsiologik jihatdan ham qaralishi mumkin edi, chunki ularda uning asosiy sotsiologik tushunchalari interpretatsiya qilingan edi. Ular jumlasiga “Madaniyat falsafasi” (1911) deb umumiy nomlangan maqolalari to'plami ham kiradi. U moda tabiati, madaniyatda jins muammolari kabi dolzarb masalalar falsafiy-sotsiologik tahliliga bag'ishlangan edi.

Zimmel o'zi yashayotgan zamonaviy madaniyatdagi asosiy qarama-qarshiliklarni topishga harakat qildi, lekin bu bajarib bo'lmaydigan masala edi. Chunki bu davr to'liq ma'noda madaniyat va mafkurada “ikkilanish va parokandalik” davri edi. Biroq “madaniyat falsafasi” ocherklarini o'qish Zimmelning vaqt pulsini qanchalik sezgirlilik bilan his etganligini, sotsial psixologiyadagi yangiliklarni qanchalik tushunganligini va ularga hamnafas bo'lganligini ko'rish imkonini beradi. Bularning hammasi Zimmelni “omma erkatoyi” qilib qo'ydi, u esa davr muammolari bilan “kurashib” qiynalardi<sup>1</sup>.

Umrining oxirgi 10 yilida Zimmel sotsiologiya muammolari haqida hych narsa yozmadi, faqatgina istisnoli holda «Sotsiologiyaning fundamental savollari» qo'llanmasini hisobga olmaganda, lekin unda ham hych qanday yangilik yo'q edi.

Zimmelning ijodi taraqqiyotining oxirgi bosqichi haqida gapirib o'tmasa bo'lmaydi. Chunki usiz Zimmel g'oyalari evolyutsiyasining umumiy manzarasini ko'z oldimizga keltirish mumkin emas. Gap hayot falsafasi g'oyalarining ishlab chiqilishi haqida ketmoqda. Zimmel A.Shopengauer, F.Nitsshe, A.Bergson, V.Dilteylar asos solgan yo'ldan bordi. U hayotiy “energiya” oqimi tahlili bilan shug'ullandi. Uning fikricha, bu energiya u yoki bu davrga xos bo'lgan tafakkur va sotsial hayotning formal sturukturasiga xos bo'lgan mazmunni ifodalaydi.

O'zining oxirgi ishlarida, xususan “Dunyoqarash” kitobida (1918) Zimmel hayot “gimni”ni kuylaydi, deyish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, shu davrda u san'at falsafasiga, badiiy asarlarning “hayoti” masalalariga, rassomlar dunyoqarashi va faoliyat tarziga ko'proq

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 160.

e'tibor qaratadi. Masalan: Rembrandt, Gyote, Rilke, Roden va boshqar. U ijodning "hayotiy" mazmun-mohiyatini tahlil etish bilan shug'ullangan.

Zimmel ijodining so'nggi yillarida sotsial voqeyelikni estetik tarzda qabul qilish masalalari bilan shug'ullanib, bu qarashlarni sotsiologiya bilan bog'lashga harakat qildi. Voqeyelikka nisbatan estetik munosabat Zimmel uchun dunyoning butunligicha o'z qatlamiga o'ralgan obrazini berishga qodir.

Demak, Zimmel ijodining uch bosqichi – pozitivistik-naturalistik, kantchilik, falsafiy – haqida gapirish mumkin. Hayotining turli davrlaridagi nazariy pozitsiyalarining o'ziga xosligiga qaramay, u yerda uch xil Zimmelni ko'rmaymiz. Bu faqatgina bir muammoga uch bosqichda chuqurlashib boruvchi muammodir, ya'ni – jamiyat, inson va madaniyatning o'zaro munosabatlari mavzusidir. Jamiyat Zimmel tomonidan o'zaro ta'sirlashuv shakllari va tizimlari yig'indisidir; inson ijtimoiy "atom", madaniyat – inson ongining obyektlashtirilgan shakllari yig'indisi.

2. Zimmel ijodining sotsiologik jihatlari juda keng hisoblanadi. U sotsial psixologiya, individ va jamiyatning (hokimiyat va zo'rvonlikning) o'zaro munosabati, begonalashuvning yuzaga kelishi, bilish, shahar, nizolar, din, shuningdek madaniyat va san'at sotsiologiyasi va boshqa mavzularni o'z ichiga qamrab olgan.

Zimmelning ta'kidlashicha, sotsiologiya ijtimoiy fanlar uchun an'anaviy tarzda bugungi kunga qadar boshqa ijtimoiy fanlar o'rganmagan tadqiqot obyekti tanlamaydi, balki metod sifatida shakllanadi. Unga ko'ra, insonni ijtimoiy mavjudot va jamiyatni barcha tarixiy hodisalarning tashuvchisi sifatida e'tirof etsak, demak sotsiologiya biron-bir ijtimoiy fan tadqiq etmagan ob'ektni izlab topishi amri mahol. Lekin u barcha fanlar uchun yangi yo'l – fan usulini aniqlaydi. Bu yerda gap jamiyatga xos barcha muammolarni yechishda tadbiiq etilishi mumkin bo'lgan usul haqida bormoqda.

Zimmel o'z sotsiologik qarashlarini shakllantirishida eng avvalo uning predmetini aniqlashga harakat qiladi. Barcha ijtimoiy fanlar ijtimoiy hayotga turlicha nazar tashlab, unda o'z predmetini ajratib oladi. Sotsiologiya esa, aksincha mana shu fanlarning tahlil vositalari yordamida ochib bo'lmaydigan qonuniyatlarni aniqlash va anglab yetishni o'z oldiga vazifa qilib oladi.

Turli fanlarda qo'llaniladigan sotsiologik usulning tugal maqsadi ijtimoiy fanlarning umumiy predmetidan sotsiologiyaning predmetiga aylanadigan o'ziga xos omillar – «sotsiatsiyalarning sof shakli»<sup>1</sup>ni aniqlashdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, sotsiologiya xususiy ijtimoiy fanlarga nisbatan, xuddi geometriyaning fizikaviy-kimyoviy fanlarga nisbatidagidek o'ringa ega, ya'ni u jamiyatdagi hodisalar mazmunini emas, balki ular uchun umumiy bo'lgan sotsial shaklni o'rganadi.

Zimmelga ko'ra, xuddi grammatika tilning sof shakllarini mazmundan ajratib olgani kabi sotsiologik usul ham hodisalar tarkibidan sotsiatsiyani ajratib olishi zarur. Sotsiatsiyalarning sof shakli ajratib olingach, ularni tartibga solish va tizimga solish, psixologik asoslash va tarixan o'zgarishi hamda taraqqiy etishini tasvirlab berish lozim bo'ladi. Turli ijtimoiy fanlar doirasida sotsiologik usulning qo'llanilishi amaliyotini, ya'ni ularning an'anaviy predmeti doirasida o'ziga xos qonuniyatlarni aniqlashni Zimmel umumiy sotsiologiya deb atagan.

Sotsiatsiyalarning sof shaklini tasvirlash va tizimga solishni esa sof yoki formal sotsiologiya deb nomlagan. Sof sotsiologiya turli ijtimoiy fanlar tadqiqotchilariga o'z predmetlariga sotsiologik nuqtai nazardan yondashish, ya'ni muammolarni imkon qadar tezroq anglab yetish va ularning yechimini izlashda yo'nalish ko'rsatishi kerak edi. Sof sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan metodologik funksiyani bajarishi lozim va «alohida sotsial fanlarning bilish nazariyasi»ga aylanishi lozim. Sotsial bilish tizimi o'z ichiga yana ikki falsafiy sotsiologik fanni qamrab olgan. Ulardan birinchisi sotsiologik bilish nazariyasi bo'lib, u sotsiologik tadqiqotning shart-sharoitlari, negizlari va asosiy tushunchalarini qamrab oladi, ularni tadqiqotning o'zida aniqlash mumkin emas. Ikkinchisi esa sotsial «metafizika» bo'lib, unga nisbatan ehtiyoj alohida tadqiqot tajribaning ichida mavjud bo'lmagan va uning bevosita bilish predmetidan kelib chiqmaydigan masala va tushunchalar bilan to'qnash kelganda, umumiylikka borib taqalganda yuzaga keladi. Shunday qilib, Zimmel umumiy, formal va falsafiy sotsiologiyadan iborat uch bosqichli sotsial bilish konsepsiyasini yaratdi.

<sup>1</sup> «Vergesellschaftung» termini tarjimasida «muloqot» ma'nosini berada, ko'pchilik mualliflar (asosan AQSh sotsiologlari) tomonidan ingl. «socialization» terminiga analog sifatida olinadi. Shuningdek, ayrim adabiyotlarda o'zaro ta'sir, interaktsiya, hatto ijtimoiylashuv tushunchalari bilan ham ifodalanaadi.



Zimmelning ushbu dasturi o'z davri uchun yetarlicha progressiv xarakterga ega edi. Uning paydo bo'lish davri sotsiologiyaning institutsionallashuvi va kasb sifatida shakllanayotgan davriga to'g'ri keldi. Shuning uchun sotsiologiyaning predmeti sohasini ajratib olish dolzarb masala hisoblangan.

Ushbu masalani hal etishda ikki xil yondoshuv mavjud edi. Birinchisiga ko'ra, barcha sotsial xususiyatlarni individlarga nisbatan olish, bunda "jamiyat" real predmet sifatida mavjud bo'lmagan mavhum tushunchaga aylanib qoladi. Agar individlarni va ularning kechinmalarini tabiiy va tarixiy fanlar doirasida o'rganilsa, unda alohida o'ziga xos fan sifatida sotsiologiya o'z sohasiga ega bo'lmay qoladi. Bu yondoshuvning eng yorqin vakili Diltey bo'lgan.

Bunday tanqid nuqtai nazaridan jamiyat juda tor, bir fan doirasida o'rganish bilan cheklanganda esa u juda kengdir. Shu nuqtai nazardan, insonlar bilan ro'y beradigan har qanday hodisa jamiyat bilan shartlangandir va uning bir qismi hisoblanadi. Shunday ekan, inson to'g'risida har qanday fan jamiyat to'g'risidagi fan hisoblanadi. F.Tyornis ham shu pozitsiyadan turib "umumiy sotsiologiya" doirasida huquq va filologiya, siyosatshunoslik va san'atshunoslik, psixologiya, teologiya, va hatto antropologiya fanlarini birlashtirgan. Zimmelga ko'ra, barcha fanlar birlashib, birgina sotsiologiyani tashkil etadi.

Zimmelning fikricha, uning konsepsiyasi ijtimoiy fanlar va sotsiologiya o'rtasidagi fanlararo chegaralarni qat'iy belgilash imkonini bergan. Avvalo, sotsiologiyaning boshqa ijtimoiy fanlardan farqli tarzda sotsiatsiyaning sof shakli to'g'risidagi fan sifatida aniqlab olish imkonini berdi, ikkinchidan esa jamiyat haqidagi fanlar va tabiat haqidagi fanlar o'rtasida keskin chegara tortish imkonini ham berdi.

Shunday qilib, bu konsepsiya bir vaqtning o'zida sotsiologiyaning fan sifatida yaxlitligi va ijtimoiy fanlarning yaxlit taqdim etgan<sup>1</sup>.

3. Zimmelning "formal sotsiologiya" taqdim etilishi bilan bog'laydigan bir qator fikrlarini qayd etib o'tish lozim.

Forma (shakl) va u bilan chambarchas bog'liq mazmun Zimmelning sof, ya'ni formal sotsiologiyasining asosiy tushunchalari hisoblanadi. U o'zining nisbatan erda yozilgan asarlaridan birida jamiyat tarixini psixik hodisalar tarixi sifatida baholagan. Shu bilan birgalikda u har bir psixik hodisani ikki jihatdan ko'rib chiqqan: psixik akt sifatida (istak, xotirlash, tasdiq) va har bir akt nima bilan bog'liqligi, ya'ni nima eslanishi, tasdiqlanishi va hokazolar. Zimmelning fikricha, psixik aktning oxirgi jihati e'tiborga olinmasa, ongning obyektiv, ya'ni psixologik bo'lmagan mazmunini olish mumkin.

O'z navbatida shakl u bajaradigan vazifalarga ko'ra aniqlanadi. Zimmel shu o'rinda quyidagi vazifalarni ko'rsatgan:

1) shakl bir vaqtning o'zida bir necha mazmunni aks ettirib, ularni yaxlitlaydi;

2) bir shaklga kira turib bu mazmunlar o'zaro birikishi bilan boshqa mazmunlardan ajralib turadi;

3) shakllar bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikdagi mazmunlarni bir strukturaga keltiradi.<sup>2</sup>

Sotsiologiyada esa shakl va mazmun nisbatini «materiya»ning sotsial munosabatlar, ya'ni individning maqsadlari, intilishlari, ehtiyojlariga va o'zaro sotsial munosabatlar tuzilishi nisbatida qo'llanilgan. Zimmel shakl mazmundan ko'ra muhim ekanligiga urg'u berib, manfaatlar xilma-xil bo'lsada, umumlashmada ular bir xil shaklda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Formal sotsiologiyaning vazifasi yaxlit sotsial hodisani ikkiga ajratish emas, balki jamiyatni insonlararo, individlarni hodisa sifatida o'rganishdir. Boshqacha qilib aytganda, sotsiatsiya shakli qiyoslangan holda tarixiy jihatdan tarkibiy tasvirlash ob'ektiga aylanishi kerak edi.

Zimmelning maqsadi sotsial shakllarning umumiy tasnifini yaratish emasdi. Ammo u sotsial hayotning ko'p jihatlarini o'rganib,

<sup>1</sup> Kozlovskiy O. A. История и теория социологии. Учебное пособие для вузов. – М.: Издательство ПИРОП, 2003. – С. 291.

<sup>2</sup> Фурман Е.А., Нуруллоева У.Н. Социология тарихи. Усулбий кўлашма. – Тошкент, 2009. – Б.

ularni «real» hayotdan olingan shakllar sifatida ajratib ko'rsatdi: hukmronlik, buysunish, raqobat, mehnat taqsimoti, partiyalarning tashkil topishi kabilar shunga misol bo'ladi. Aytib o'tilgan barcha shakllar Zimmelning nazarida, o'ziga xos guruh va sotsial tashkilotlarda ishlab chiqiladi va o'ziga xos ma'no bilan yo'g'riladi. O'z navbatida sotsial tashkilot va guruhlar ham shakl sifatida talqin qilinishi mumkin. Davlat yoki diniy tashkilot, iqtisodiy uyushma, fitnachilar guruhi, oila va maktab kabilar bunga misol bo'ladi. Zimmel mazkur shakllarni o'rgangan holda olingan bilimlarni «Sotsiologiya...» nomli asariga birlashtirgan.

Zimmel fikriga ko'ra, har qanday jamiyatda shaklni mazmunlarga ajratish mumkin. Jamiyat esa o'z navbatida individlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topgan. O'zaro ta'sirlashuv esa doim ma'lum bir o'ziga xos intilishlar va ma'lum bir maqsadlarda amalga oshadi. Zimmel ta'kidlaganidek, erotik instinktlar, qiziqish, diniy impulsar, o'yin va boshqa bir qator motivlar insonni boshqa bir inson uchun, boshqa bir insonga qarshi faoliyat ko'rsatishga, ichki holatini uyg'unlashtirish va moslashtirishga, ya'ni o'zaro ta'sirlashuvga yo'naltiradi. O'zaro ta'sirlar natijasida individual qo'zg'aluvchi impulsar va maqsadlar asosida "jamiyat" deb ataluvchi yaxlitlik hosil bo'ladi.

Zimmelning fikriga ko'ra, individlarda (u tarixiy voqeyelikning aniq tashuvchilari sifatida ifodalaydigan) mavjud bo'lgan, istak, qiziqish, maqsad va hokazolar ko'rinishida mavjud, ya'ni boshqa odamlarga ta'sir shakllanuvchi narsalarni u mohiyat, ya'ni sotsiatsiya sifatida ta'riflaydi. Shu bilan birga hayot ijro etiluvchi mazkur materiya Zimmelning fikriga ko'ra, mohiyatiga ko'ra ijtimoiy emas. Uning yozishicha, ochlik, sevgi, mehnat, dindorlik, texnika va ong faoliyatining natijalari bevosita ijtimoiy emas. Bularning bari faqatgina individlarning alohida mavjudligini o'zaro munosabat, degan umumiy tushuncha ta'siriga tushib qoluvchi o'zaro hamkorlikdagi muayyan shakllarga aylantirganligi sababli shu holatga keladi (ijtimoiylashadi). Sotsiatsiya, demak, deya xulosa qiladi Zimmel, usullarning cheksiz miqdorida amalga oshuvchi shakl bo'lib, unda individlar turli sabablar va manfaatlar asosida alohida birlikni

yaratadi, ularning ichida mazkur sabablar va manfaatlar o'z tadbirini topadi<sup>1</sup>.

Shuningdek, muayyan hayotiy maqsad muvofiq bo'lgan, vujudga kelayotgan shakllar o'zlari chiqqan va o'zining mavjudligi bilan unga qarzdor bo'lgan real hayotdan ajratilib qolishi mumkin, bundan tashqari, Zimmelga ko'ra ular endilikda ular uchun faqatgina o'zlarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan materiyani egallagan va yaratgan holda o'z ichida va o'zi uchun "o'ynashi" mumkin.

"Masalan, deb yozadi Zimmel, har qanday bilish birinchi navbatda yashash uchun kurash vositasi hisoblanadi, chunki narsalarning haqiqiy holatini bilish hayotni saqlab qolish va rivojlantirish uchun o'ta muhim holatdir. Fanning vujudga kelishi esa, bilish amaliy maqsadlardan uzilib qolganligini, o'zidagi qadriyatga aylanganligini ko'rsatadi. Fan o'z predmetini mustaqil ravishda tanlar ekan, uni o'z ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartiradi va unga shaxsiy qoniqish hissini olib keluvchi masalalardan boshqasini o'ylamaydi"<sup>2</sup>. Zimmelga ko'ra xuquqning (san'at va ijtimoiy hayotning boshqa hodisalari kabi) mohiyatini ham shu kabi burilish belgilab beradi. Dastavval maqsadga muvofiqlik, individlar xulqining muayyan usullariga intilish sababli vujudga kelgan xuquq, keyinchalik o'z-o'zidan kelib chiqqan holda hayotiy materialni tashkillashtirishning usulini belgilab oladi.

Bu yerda, uning ta'kidlashicha, uning materiyasi hayot shakllarini ta'riflash bilan o'yin shakllari deb nomlagan, qadriyatlarni belgilab beruvchi darajaga qadar ko'tariluvchi hayot shakllari materiyasini ta'riflashga qadar 180 gradusga burilishi yaqqol nazarga tashlanmoqda. Shunday qilib, sof (yoki formal) sotsiologiya Zimmelga ko'ra, har qanday tarixiy ilg'or jamiyatlarda mavjud bo'lgan sotsiatsiya shakllarini, insonlararo o'zaro munosabatlarning nisbatan barqaror va takrorlanuvchi shakllarini o'rganadi.

Zimmel sotsial shakllarning hech bir tasnifini qoldirmagan. Biroq u ijtimoiy hayotning o'zi tomonidan "tirik" voqeyelikning shakllari sifatida ajratib olingan qator jihatlari va tomonlarini o'z

<sup>1</sup> Громова И.А., Мухоменов А.Ю., Семенов В.А. Западная теоретическая социология. - М., 1996. - С. 49.

<sup>2</sup> Громова И.А., Мухоменов А.Ю., Семенов В.А. Западная теоретическая социология. - М., 1996. - С. 49.

tadqiqotlari predmetiga aylantirdi: hukmronlik, bo'ysunish, raqobat, mehnat taqsimoti, partiyalarni tashkil qilish, birdamlik va hokazo. Nemis sotsiologining fikriga ko'ra mazkur shakllarning bari tegishli mazmunga to'ldirilgan holda davlat, diniy uyushma, oila, iqtisodiy birlashmalar kabi turli guruhlar va sotsial tashkilotlarga tadbiiq qiqilinadi. Mazkur va boshqa shu kabi shakllarni o'rganish misollarini Zimmel o'zining eng mashhur sotsiologik asarlaridan biri bo'lgan "Sotsiologiya. Sotsiatsiya shakllari haqidagi ocherk" asarida keltirib o'tgan (1908).

Kechroq ko'plab tadqiqotchilar Zimmel tomonidan ajratib ko'rsatilgan shakllarni tizimlashtirishga harakat qilganlar, biroq mazkur tasniflar mantiqiy asosga ega bo'lmagan va ixtiyoriy bo'lib ko'ringan. Zimmelning o'zi esa inson o'zaro munosabatlarining to'laqonli katalogini tuzishga intilmagan. Aksincha, u umuman sof formal tushunchalar cheklangan qadrga ega, formal sotsiologiya loyihasining o'zi esa faqatgina ijtimoiy hayotning ushbu sof shakllari tarixiy mohiyat bilan to'ldirilgandagina amalga oshirilishi mumkin deb hisoblagan. Ya'ni u yoki bu shakl qay tarzda vujudga kelgan, u qay tarzda rivojlangan, u mazkur shaklni to'ldirgan sotsial obyektlarga bog'liq ravishda qanday o'zgarishlarga duch kelganligi aniq bo'ladi. Shu bilan birga sotsial hayot shakllarini tasniflash va ularda quyidagilarni ajratib ko'rsatish imkoni mavjud: 1) sotsial jarayonlar; 2) sotsial tiplar; 3) rivojlanish modellari.



Sotsial jarayonlarga doimiy, ularning amalga oshirishning aniq vaziyatlariga bog'liq bo'lmagan hodisalar kiritiladi: bo'ysunish, hukmronlik, musobaqa, kelishuv, e'tiqod, nizo va boshqalar.

Sotsial hayot (sotsiatsiya) shakli sifatidagi sotsial jarayonga urf (moda) kabi universal hodisa misol bo'la olishi mumkin. Urf, Zimmelning fikriga ko'ra, bir vaqtning o'zida ham taqlidni, ham shaxsning individualizatsiyani taqozo qiladi. Chunki urfga ergashgan

inson bir vaqtning o'zida o'zini boshqalardan ajratib turadi hamda o'zining muayyan guruhga mansubligini tamoyish etadi.

Zimmel urfning individualizatsiyasiz mavjud bo'lmashligini primitiv jamiyatlar misolida isbotlaydi. Bunday jamiyatlarda maksimal darajada bir xillik kuzatilgan. Demak, o'zini boshqalar orasidan ajratib ko'rsatishga intilish bo'lmash ekan, urf ham mavjud bo'lmaydi.

Xuddi shunga monand ravishda nisbatan kichik guruh vakillari tomonidan boshqariladigan jamiyatlarda boshqaruvchi oligarxiya vakillari bir xil va odmi kiyimlar kiyishadi. Chunki o'zlarini omma oldida ko'z-ko'z qilishdan qochishadi. Urfning taqlid va guruhga tegishli bo'lish xususiyatini esa guruh me'yorlari inqirozga yuz tutgan jamiyatlarda modaning yo'qligi bilan isbotlangan. Misol uchun Florensiyada XIV asrda har bir odam o'zining kiyinish uslubiga ega bo'lgan. Chunki guruh bo'lib birlashishga intilishning yo'qligi, urfning vujudga kelishini taqazo etmagan<sup>1</sup>.

Zimmel urfning paradoksal xususiyatini, ya'ni aynan: qandaydir hodisa (kiyim-kechak, g'oyalar, o'zini tutish, narsalar va boshqalar) "urf"ga kirishi bilan u darhol "urf"dan chiqib boshlaydi, ya'ni urf bir vaqtning o'zida ham yangi, ham o'tib ketuvchi ekanligini o'ta noziklik bilan angelaydi.

Urfning keng tarqalishi sababini Zimmelga o'z zamonasida eski odatlar, an'analarining tanazzuli jarayoni bilan izohlagan. Natijada vaqtincha va o'tish davri shakllari ularning o'rmini bosayotganligini ta'kidlagan. Urfning san'at, fan, va hattoki axloqda ham hukmronligi shundan. Biroq u yoki bu aniq urfning o'tib ketuvchi tabiatiga qaramasdan u sotsial shakl sifatida, Zimmelga ko'ra qandaydir doimiylikka ham ega: urf u yoki bu ko'rinishda har doim mavjud bo'ladi.

Shuningdek, sir tutishni ham Zimmel sotsiatsiya shakli sifatida olib qaraydi. Bunda u dualistik ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'zaro ta'sirlashuvda ayrimlarning sir tutishi, boshqalarning sirni ochishga harakati bilan izohlanadi. O'zaro ta'sirlashuvchilar bir-biri haqida ma'lum darajada ma'lumotga ega bo'ladilar, lekin hiech qachon hamma ma'lumotga ega bo'lish mumkin emas. Sir tutish barchaga xos. Muloqot davomida insonlar ataylab o'zlari haqida ma'lumotlarni

<sup>1</sup> Qarang: A History of Classical Sociology. Translated by H. Campbell Crighton, M.A. (Oxon). Progress Publishers. - P. 186.

oshkor etadilar yoki aksincha o'zlari haqida ataylab yolg'on ma'lumot berishga harakat qiladilar. Zimmel sotsial distansiya (oralik masofa) tamoyilini qo'llab shuni ta'kidlaydiki, insonlar o'zlariga nisbatan uzoqroq bo'lgan insonlarning yolg'onini oson qabul qiladilar, aksincha yaqinlarining kichik yolg'onini ham og'riqli qabul qiladilar. Guruh a'zolari sonining ham sir tutishda alohida o'rin tutishiga urg'u berib, Zimmel guruh a'zolari soni ko'paygani sari unda maxfiylik ham otib borishini ta'kidlaydi.

Istisnoli tarzda sevishtanlar nikohini tahlil qilib, Zimmel ta'kidlaydiki, hatto ular ham bir-birlaridan sir tutmaslikka va'da bersalarda, o'rtalarida maxfiylik qolishi zarur. Chunki barcha narsa ayon bo'lib qolganda, juftlikni saqlab qolish imkoni yo'qoladi.

Sof sotsial shakllar toifalaridan ikkinchisi – bu sotsial tipdir. Zimmel, masalan, g'iybatchi, kambag'al, aristokrat, yengiltak ayol kabi sotsial tiplar va tabiatlarni o'rgangan holda ularning tabiatiga oid qarama-qarshiliklarini namoyon qilishga harakat qiladi. Zimmelga ko'ra, aristokrat sotsial tipi o'zaro bir-birini inkor qiluvchi ikki xususiyatni aks ettiradi: bir tomondan u butunligicha o'z guruhiga, sulolasi an'analariga bo'ysunadi. Chunki u mazkur sulolaning a'zosi va davomchisi hisoblanadi. Boshqa tomondan esa u mustaqillikka intiladi, chunki kuch, mustaqillik va shaxsiy mas'uliyat aristokratlar xos bo'lgan an'anaviy xususiyat hisoblanadi.

"Rivojlanish modeli", deb nomlangan uchinchi guruhga mansub bo'lgan sotsial shakllarga misol qilib, guruhni uning a'zolarining individualligini kuchaytirish yordamida kengaytirishning universal jarayonini ko'rsatish mumkin. Zimmelning ta'kidlashicha, guruh a'zolarining soni ortib borishi bilan uning a'zolari borgan sari bir-biridan farqi tobora ortib boradi. Va boshqa bir holat: guruhlar a'zolarining individualligining rivojlanishi uning birdamligi va hamfikrlikligining kamayishi bilan birga kechadi. Zimmelga ko'ra, tarixiy jarayon individlar tomonidan ularning o'ziga xos ijtimoiy xususiyatlarining yo'qotilishi hisobiga individuallikning kuchayishi tomonga rivojlanadi. Shu tarzda katta patriarxal oila mustaqil va to'liq xuquqqa ega bo'lgan nuklear oila bilan almashinadi; korxonalar va qon-qarindoshlik tashkilotlari o'ziga xos individual ma'suliyatga ega bo'lgan fuqarolik jamiyati bilan almashinadi. Mazkur muammoga Zimmel "Sotsial differentsiatsiya. Sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar" kitobining uchinchi bobini bag'ishlagan.

Keltirilgan tasnif sotsial shakllarni ajratib ko'rsatishning barcha variantlari va ehtimoliy variantlarini qamrab ololmaydi. Masalan, shakllarning bevosita hayot oqimidan uzoqlashganligi darajasiga ko'ra tasnifi mavjud va ahamiyatliroq, deb hisoblanadi. Shunday qilib, Zimmelga ko'ra betartib shakllar hayotga eng yaqin hisoblanadi: almashinuv, shaxsiy moyillik, taqlid qilish, olomonning o'zini tutishi bilan bog'liq bo'lgan shakllar va boshqalar. Davlat-xuquqiy tashkilotlarning iqtisodiy va boshqa shakllari kabi barqaror va mustaqil shakllari hayot oqimi, ijtimoiy mohiyatlardan birmuncha uzoqda bo'ladi.

Va nihoyat, Zimmel tomonidan ijtimoiy hayotdan uzoqlashib qolgan "o'yinga oid" deb nomlangan shakllar ham ilgari suriladi. O'yinga oid shakllar – bu nafaqat tafakkurga oid mavhumlikni, balki ijtimoiy hayotda haqiqatan ham uchraydigan shakllarni aks ettiruvchi sotsiatsiyaning sof shakllaridir. O'yinga oid shakllarga misollar: "eski tuzum", ya'ni o'z davrini yashab bo'lgan va unda ishtirok etayotgan individlarning talablarini qoniqtirmaydigan siyosiy shakl; "fan uchun fan", ya'ni insoniyat ehtiyojlaridan uzilib qolgan, "yashash uchun kurash quroli" bo'lmay qolgan bilimlar, "san'at uchun san'at" va h.k..

Roli va ahamiyatiga ko'ra istisnoli o'yin shakli sifatida erkin muloqot olinadi. Erkin muloqot – muloqot uchun muloqot bo'lib, u hech qanday maqsadni ko'zlamaydi, balki faqat muloqot qilish uchungina amalga oshiriladi. Muloqotning bu shakli mazmun-mohiyatdan xoli bo'lib, sotsiatsiyaning o'yin shakli yoki sotsial jarayonning mavhum modelini aks ettiradi. Bunday muloqotga individlar hech qanday mazmun-mohiyat kasb etuvchi xususiyatlarsiz (imkoniyat, boylik, mavqae, hokimiyat va h.k. kabi) kirishadilar, bu "tenglar" muloqotidir. Bu tenglikni me'yor hissi (takt) ta'minlaydi, chunki unda qatnashuvchilar intilish va impulslarni ko'rsatmasligi lozim. Masalan, ko'chada qatnashayotganlarning ish, mavhum muammolarni muhokama qilishi, o'zining aqli yoki boyligini namoyish qilishi me'yordan chiqish hisoblanadi. Demak, me'yor hissi sotsial me'yor shakli hisoblanadi. Aynan erkin muloqotni to'liq tahlil etish orqali Zimmel sof yoki formal sotsiologiya g'oyasini namoyon etishga muvaffaq bo'lgan deyish mumkin.

Zimmel o'zining turli asarlarida o'yin shakliga e'tibor qaratadi. Masalan, hukmronlik va bo'ysunish, yolg'izlik va erkinlik, sadoqat va axloq, hayot va o'lim, pul xo'jaligi, mehnat taqsimoti, nizo, go'zallik,

urf, o'zaro ta'sirda raqam tamoyili, sotsial doiralar kesishuvi va h.k. Shu bilan u o'yinga ramziy mohiyat kasb etib, bizning hayotimizdagi ehtiyoj va impulsimiz xulq-atvorimizda keltirib chiqargan shakllarni misol qilib keltiradi. Masalan: ov, tuzoq, raqobat tavakkal va h.k.

Zimmelning sotsiologik tasavvurida voqiyelikning sotsial mohiyati nisbiydir, bu ko'plab omillar va xususan, o'zgaruvchilarga borib taqaladi. J. Ritser ularning yig'indisini sotsial geometriya, deb ataydi<sup>1</sup>. Ular quyidagilar: sotsial maydon, distansiya (oraliq masofa), miqdor va vaqt.

Makon sotsial hodisalar tahlilida muhim o'rin tutadi, chunki ular ro'y bergan makondagi farqlanish ularning turlicha namoyon bo'lishiga olib keladi. Zimmel, shuningdek makonda chegaralarni ham aniqlab olish zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, «Chegara – sotsiologik ma'nodagi makon fakti emas, balki makon bilan rasmiylashtirilgan sotsiologik faktidir»<sup>2</sup>.

Distansiya qadriyat vositalarining sotsial makondagi joylashuviga nisbatini nazarda tutadi. Bunga ko'ra, biz o'zimizdan uzoqda bo'lgan narsani ko'proq qadrlaymiz, ya'ni o'zbekona qilib aytganda: "oldingdan oqqan suvning qadri yo'q". Katta kuch talab qilish evaziga erishiladigan qadriyatning qadri baland bo'ladi. Shu bilan birga, umuman yetib bo'lmaydigan qadriyat qadriyat bo'lmay qoladi. Masalan, kichik bir qishloqda yashovchi insonlar uchun O'rta yer dengizida dam olish qadriyat hisoblanmaydi, ular bu biz uchun emas, deb hisoblaydilar<sup>3</sup>.

Shuningdek, individlarning funksionallashuvi xarakteri ham sotsial distansiyaga bog'liq hisoblanadi. Masalan, bevositat a'lim bilan distansion ta'limni oladigan bo'lsak, birinchisida ma'naviy negiz bor, ikkinchisida esa yo'q, uning o'rnini kompyuter yoki internet egallaydi.

Miqdor, ya'ni guruhning hajmi ham o'zaro ta'sirlashuv sifatiga o'z ta'sirin ko'rsatadi. Zimmelga ko'ra, sotsiologik nuqtayi nazardan muhim bo'lgan hodisalarning ayrimlari ikki kishilik guruhning (diada) uchinchi tomonning jalb etilishi hisobiga triadaga aylanganida ro'y

<sup>1</sup> Ritser G. Classical Sociological Theory. McGraw Higher Education, 2000. – P. 268.

<sup>2</sup> История теоретической социологии. Т. 2. – М.: Канон, 1998.

<sup>3</sup> Кравченко А.И. Социология в 3 тт. Классические теории через призму социологического воображения.

– М.: Юрайт, 2014. – С. 304.

beradi. Diadada mavjud bo'la olmagan sotsial imkoniyatlar paydo bo'ladi. Masalan, triadada a'zolaridan biri qolgan ikkitasi o'rtasidagi tushunmovchiliklarda arbitr yoki vositachiga aylanadi. Va, shunisi muhimki, ikki a'zo birlashib, boshqasi ustidan hukmronlik qilishi mumkin. Bu kichik masshtabda individlardan ajralgan va ular ustidan hukmronlik qiladigan yirik strukturalarning paydo bo'lishi nimalarga olib kelishini ko'rsatadi.

Zimmel uchun vaqt sotsial borliqning muhim xususiyatlaridan biri. Sotsiolog uchun o'zaro ta'sirlashuv shakllari bir-biriga qay tarzda bog'langanligi (sinxron yoki diaxron), ularning tezligi, ular mavjudligi va taraqqiyotining konkret ritmlarini bilish muhim.

Sotsial ko'po'lchamlilikni ochish vositasi sifatida Zimmel dualizmni oladi. Dualizm tamoyili sotsial hodisalarni makon va zamon korrelyasiyasida o'rganishni taqazo etadi.

Zimmel sotsial hayotni faqat sotsiatsiya shakllari orqaligina tushuntirish mumkin emasligini tushungan va shuning uchun ham o'z sotsiologik konsepsiyasiga falsafiy sotsiologiyani kiritgan. U o'z navbatida, sof sotsiologiyaning nazariy-metodologik va sotsial-falsafiy dunyoqarash yo'nalishini belgilab bergan.

4. Zimmel konkret ilmiy tafakkur falsafaga o'tib ketadigan ikki chegara haqida gapiradi. Birinchisi, bilishning boshlang'ich nuqtasi haqida gap borganda namoyon bo'ladi. Konkret fanlar shartlanmagan bo'la olmaydi: ularning har bir qadami isbot talab etadi, ya'ni mohiyat va metodik xususiyat bilan asoslanadi. Aynan shu boshlang'ich nuqtalarni falsafa aniqlaydi va o'rganadi. Ikkinchi chegara pozitiv bilimning qismlil mohiyati dunyoning manzarasini shakllantirish va umuman hayot yaxlitligi bilan moslashish orqali o'zini to'ldirishiga harakat qilganda namoyon bo'ladi.

Sotsiologik muammolarni falsafiy asoslash muammosi Zimmel tomonidan bilishning sotsiologik nazariyasini ishlab chiqish va sotsial falsafani (Zimmelga ko'ra, sotsial metafizika) yaratish muammosi sifatida olib qaralgan.

Zimmel sotsiologik bilish muammolariga, ya'ni haqiqiy sotsiologik bilimni asoslash bilan bog'liq bo'lgan masalalarga katta e'tibor qaratgan. Zimmelda bilishning o'ziga xos nazariyasi sifatida tarixiy bilish nazariyasi ilgari surilgan. U Zimmel tomonidan "Tarix falsafasi muammolari" asarida bayon qilingan va sotsiologik tahlilda umumilmiy metodlarni (induksiya, tipologizatsiya va h.k. kabi)

qo'llash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan bilishning falsafiy metodologiyasi sifatida o'rganilgan. O'z mohiyatiga ko'ra, bu metodlar sotsial-tarixiy voqea-hodisalarning mohiyatini anglab yetishga imkon bermaydi. O'rganilayotgan hodisa tadqiqotchining o'zining yoki u o'rganayotgan sotsial guruhning manfaatlari bilan qay tarzda bog'langanligini aniqlash talab etiladi. Buning natijasida hodisa nafaqat fan tomonidan anglangan ob'ektlar qatoriga kiradi, balki sotsial voqyelik, hayot nuqtai nazaridan tushunib yetiladi. Shunday qilib, tushunish<sup>1</sup> tom ma'noda va faqatgina sotsial bilishni ifodalovchi usul sifatida namoyon bo'ladi. Zero, ahamiyatlikning rasmiy umumilmiy mezonlari o'rniga yangi, mazmun bilan boyitilgan, o'ziga xos mezon ilgari suriladi.

Qachonki psixik jarayonlar asosida qurilgan ma'lum bir anglangan sotsial harakat nafaqat harakat egasida, balki tadqiqotchida ham xuddi shu reaksiyani keltirib chiqargandagina, faoliyatning u yoki bu turini tushunarli yoki tushunib yetilgan deb hisoblash mumkin. Harakat qiluvchini emas, balki «obyektiv» harakatni bunday tushunish – jarayonning birinchi bosqichi hisoblanadi. Keyingi bosqich, harakat qiluvchining motiv va hissiyotlarini tushunishni nazarda tutadi. Bu yerda subyektiv ichki dunyoni emas, balki harakatni umumqabul qilingan qadriyatlar doirasida asoslashga harakat qilinadi. Bu yerda asosiysi shuki, tushunish natijasi sabab-oqibatga oid aloqalarni aniqlash emas, sabab va oqibatni ochib berish emas, balki ushbu harakatning inson tasavvurlari, talablari va ehtiyojlari bilan aloqasi mantig'idan iborat bo'lgan tarixiy harakatning ma'nosini ochib berish hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan tushunish nazariyasi o'sha davrda hukmronlik qilgan, tabiiy fanlar usullariga yo'naltirilgan pozitivistik metodologiyaga qarshi yo'naltirilgan. Zimmel ijtimoiy-tarixiy izohlarni tan olinishini va bilishdagi sub'ektiv komponentlarning rolini e'tiborga olishni talab qilgan. Tushunish nazariyasi bir vaqtning o'zida mazkur sub'ektiv tarkibiy qismlar ustidan nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi lozim, chunki qiziqishning ishtirokini, va shuningdek, sotsial bilishdagi qadriyatlarning tan olinishi ularning tadqiqot ob'ektlarin tanlashdagi, tushunchalarni shakllantirish va izohlashdagi rolini aniqlashni talab etgan.

<sup>1</sup> Tushunish nazariyasi Zimmel tomonidan «Tarix falsafai muammolari» asarining sotsial tildagi ikkinchi (qayta ishlangan va tubdan o'zgartirilgan) nashrida bosqichma-bosqich rivojlantirilgan.

Va nihoyat, tushunish sof (formal) sotsiologiya va sotsial falsafa o'rtasidagi bog'lovchi xalqa bo'lib xizmat qildi. U formal sotsiologiya tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarni tarixiy anglash vositasi bo'lgan.

Zimmelning sotsial falsafasining asosiy mavzusi – tarixiy rivojlanish jarayonida individuum va jamiyatning o'zaro munosabatlaridir. Mazkur mavzu o'zining turli variatsiyalarida (individualizatsiya va taqlid qilish, integratsiya va erkinlik va h.k.) barcha formal-sotsiologik tahlillarda, ularni aniq tarixiy mazmun bilan to'ldirgan holda ajralib turgan.

Individualizatsiya, inson erkinligining ortib borish jarayonini u hayotning intellektualizatsiyasi va pul xo'jaligi rivojlanishi natijasi sifatida ifodalagan. Bu yerda qanday mantiq mavjud? Zimmelga ko'ra guruhning o'lchami uning vakillarida individuallikning rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi avval ham ta'kidlab o'tilgan. Guruhning o'lchami uning a'zolari foydalanuvchi erkinlik darajasiga proporsional, unki guruhning kengayib borishi ijtimoiylashuv maydonining ham kengayishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida, mavhumlashtirish qobiliyatini ochib berishga, intellekt va tafakkurning o'sishiga olib keladi.

Zimmelga ko'ra, intellektning kelib chiqishi va rivojlanishi pul xo'jaligining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq. Tafakkurning paydo bo'lishi va aulning paydo bo'lishi jamiyatning o'zining "tarixiy" davriga kirishini belgilab beradi. Jamiyatning tarixi, Zimmelga ko'ra, bu sotsial hayotning o'sib boruvchi intellektualizatsiyasining va pul xo'jaligi tamoyillari ta'sirining chuqurlashishi tarixidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, intellektualizm va pul xo'jaligi Zimmel konsepsiyasining tarixiy-sotsiologik konsepsiyasining bosh tushunchasi bir vaqtning o'zida sotsiatsiya shakllaridan eng mavhumlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur shakllarning tahliliga u o'zining "Pul falsafasi" asarining, o'sha davrning kapitalistik turmush tarzining ta'rifini aks ettiruvchi oxirgi bobini bag'ishlagan.

Zamonaviy davrning o'ziga xos xususiyati bo'lgan intellektualizm haqida gapirar ekan u, intellektualizm avvalgi davrlarga xos bo'lgan sub'ektivizmni va dunyoni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita bilishni siqib chiqarayotganligini, va ularni mantiqiy uslubning ob'ektivligi bilan almashtirayotganligini ta'kidlab o'tgan.

Bularning bari ruhiyo kechinmalarning chuqurligi va to'liqligining yo'qolishiga va hayotning umumiy hissiy darajasining pasayishiga olib keladi. Pullar esa, shuningdek, odamlarning munosabatlariga "narsalarning qadriyatga oid munosabatlari"ning kirib borishiga imkoniyat yaratadi. Zimmel mazkur masala yuzasidan quyidagicha yozadi: "Pulli masalalarda barcha insonlar teng qadrga ega, biroq har biri qadrga ega bo'lgani uchun emas, balki ularning hech biri emas, balki faqatgina pul qadrga ega ekanligi uchun". Pullar muloqotda, boshqaruvda, ishlab chiqarish jarayonining o'zida va boshqalarda umumiy begonalashuvga olib keladi. Boshqa tomondan umumiy begonalashuv individual erkinlikning o'sishi bilan birga kuzatiladi. Zimmelga ko'ra begonalashuv va erkinlik, bitta medalning ikkita tomonidir. Shu sababli u muloqot jarayonining, odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarining o'zining mohiyatining aniq ta'rifini aytib beradi. Uning fikriga ko'ra, umumiy begonalashuv jarayonida odamlar shaxsiy o'zligining sifatini yo'qotadilar, "bir o'lchamlilikka" o'tadilar, afzal ko'ruvchi va afzal ko'rilmaydigan bo'lib qoladilar, Zimmelning fikriga ko'ra, inson munosabatlarining ramzi fohishabozlik bo'lib qoladi, chunki fohishabozlikning tabiati va pulning tabiati aynan o'xshashdir. Har bir yangi iste'molga yetkazib beriladigan befarqlik, - deb yozadi Zimmel, ular har bir sub'ektni tark etuvchi osonlik haqiqatda ularning hiech biri bilan bog'liq emas; har qanday yurakdan chiqqan harakatni yo'q qiluvchi, sof vositalar sifatida ularga xos bo'lgan dunyoviylik - bularning bari pullar va fohishabozlik o'rtasida o'xshashlikni mavjud ekanligini tasdiqlashga majbur qiladi.

Kant o'zining mashhur ma'naviy imperativini shakllantirar ekan, inson hiech qachon boshqa insonni vosita deb hisoblamasligi, balki uni maqsad deb hisoblab, shunga muvofiq ravishda harakat qilishi lozimligini ko'rsatib o'tgan. Bu tomonlama fohishabozlik - mazkur tamoyilga tamomila zid bo'lgan xulq. Inson bu yerda - vosita, vaholanki har ikki ishtirokchi tomon uchun ham. Va fohishabozlik pul xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan eng chuqur obraz bo'lib qolganligida Zimmel chuqur tarixiy ma'noni ko'radi.

Zimmel pullarning va mantiqiy tafakkurning hayotning barcha jabhalaridagi: o'z davridagi zamonaviy demokratiya, uning xuquqiy institutlari, mafkuralari, fanidagi, badiiy ta'b tendensiyalaridagi ijtimoiy vazifasini o'rganadi. Va u, shuningdek, o'zaro hamkorlikdagi

inson mavjudligining barcha sohalaridagi zamonaviy madaniyatning, tabiat tomonidan belgilab berilgan, uni boshqaruvchi mazkur ikki omilining "uslubiy" birligini o'rganadi. Mazkur uslubiy birlik sotsial hayotning fundamental shakllarining bo'shab qolganligida, ularning mohiyatining uzilishida, ularning o'z-o'zini boshqaruvchi o'yinga oid shakllariga aylanishida namoyon bo'ldi.

5. Zimmelning sotsiologik konsepsiyasining eng muhim elementi madaniyat sotsiologiyasidir. Zimmel o'zining sotsiologik tadqiqotlarida xo'jalik (iqtisodiyot) tizimining halokatli oqibatlarini va o'z zamonasidagi jiddiy qarama-qarshiliklari, ya'ni madaniyat sohasidagi kapitalistik sivilizatsiyasining ta'sirchan manzarasini chizib berdi. Ushbu jihatdan uning "Pul falsafasi" asari turli mualliflarning "kapitalizm ruhi"ning tahliliga bag'ishlangan: A.Zombartning "Zamonaviy kapitalizm"; M.Veberning "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi" kabi ko'plab asarlari orasida birinchisi bo'ldi. Zimmel ijodini o'rganuvchilar uning "Pul falsafasi" asari birinchi qatoridan boshlab to oxirgi qatorigacha kapitalizm ma'naviy tuzumi va umuman zamonaviy davrni "ayblovchi hukm sifatida yangraganini" ta'kidlab o'tganlari bejiz emas. Shuningdek, u o'zi tomonidan chizilgan "umidsizlik"dan chiqish yo'lini ko'ra olmaganligini va uning dunyoqarashi o'ta pessimistik bo'lganligini ham ta'kidlab o'tmaslikning iloji yo'q.

Aynan shu mavzu "Pul falsafasi"ning asosiga qo'yilgan. Zimmel zamonaviy jamiyatda individlardan ajralib qoladigan va ular ustidan hukmronlik qilishni boshlaydigan pul iqtisodiyotining paydo bo'lishi bilan qiziqqan. Bu mavzu, o'z navbatida, Zimmelning madaniyatning butun boshli individ ustidan hukmronligiga bag'ishlangan yanada yirik va mashhur asarining bir qismi edi. Zimmel fikriga ko'ra, zamonaviy dunyoda madaniyat va uning turli tarkibiy qismlari (pul iqtisodiyoti ham) o'ta kengayib bormoqda, va uning taraqqiy etishi davomida individning qadr-qimmatini pasayib bormoqda. Shunday qilib, masalan, zamonaviy iqtisodiyot bilan bog'liq sanoat texnologiyalari taraqqiy etsa va murakkablashsa, alohida mehnatkashning ko'nikma va imkoniyatlari o'zining ahamiyatini asta-sekinlik bilan yo'qotib boradi. Oxir-oqibat mehnatkash nari borsa ustidan ahamiyatsiz nazoratni amalga oshirishi mumkin bo'lgan sanoat mashinasi bilan to'qnash keladi. Umumiy ma'noda, Zimmel

zamonaviy dunyoda madaniyatning yana keyingi taraqqiyoti individ ahamiyatining pasayishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

Zimmel tomonidan madaniyatning tushunilishi hayot falsafasi tamoyillariga asoslangan. Hayot – bu boshlang'ich tushuncha va holat bo'lib, rivojlanar ekan u hayvoniy holatdan ustunlikka erishadi, va qaysidir ma'noda ma'naviylikka qadar ko'tariladi. Hayot irratsional, yetarli, obyektiv va o'z mavjudligining obyektivligida qadriyatdan tashqaridir. Masalan, mehnat, ijod kabi hayot faktlari faqatgina o'zlarining tabiiy mavjudligi doirasidan chiqsa, va muayyan ideallar nuqtayi nazaridan qaraganda, madaniy kontekstga kirib borsa, ya'ni "ruh, hayot o'zini o'zi bilish yo'li bilan madaniyatni hosil qilsagina qadriyat hisoblanadi. Madaniyat – bu "nozik, ong bilan to'ldirilgan hayot shaklidir, ma'naviy va amaliy faoliyat natijasidir". Madaniyat – ikkinchi anglangan, ratsionallashtirilgan "tabiatdir". Odamlarning moddiy va ma'naviy muhitda erishgan barcha yutuqlari, barcha mahsulotlar – bu inson munosabatlarini tartibga soluvchi xoh qurol, mashina, kitoblar, axloq, til, din, huquq, siyosat bo'lsin, – ularning bari o'zida tabiatda va hayotda ular sababli imkoniyatlar amalga oshirilgan g'oyalarni qamrab oladi. Va nihoyat, tabiatni va bevosita hayotimizni "madaniylashtirar ekanmiz", biz o'zimizni madaniylashtiramiz. Shunday qilib, Zimmelga ko'ra madaniyat, madaniy evolyutsiya tashqi kabi, bizning shaxsiy, insoniy tabiatimizni ham qamrab oluvchi va o'zaro bir-biri bilan bog'lovchi, hayotning qadriyatga oid o'sib borishining cheksiz jarayonidir.

O'z mantig'iga amal qilgan holda, Zimmel madaniyat hayotdan ustun bo'lgan holda o'zining shaxsiy, nisbatan avtonom qonuniyatlar va rivojlanish mantig'iga ega bo'ladi. Biroq bu yerda asosiysi shundan iboratki, uning fikriga ko'ra madaniyat hayot tartibidan ajralib chiqishi bilan tegishli ravishda hayot mohiyatidan ham mosuvo bo'ladi, va o'zida rivojlanayotgan hayot impulsini qamrab olish qobiliyatini yo'qotgan holda faqatgina "mantiqqa" aylanib qoladi. Zimmelning yozishicha, "ijod lahzasida" madaniy hodisalar "balki hayotga mos kelishi mumkin, biroq oxirgisining ochib berilishi bilan ular sekin-astalik bilan unga begonalashadi va hattoki uning "dushmaniga" aylanadi. Bunga misollar juda ko'p: yerga ishlov berish va dengizda suzish ehtiyojlariga xizmat qilgan astronomiya, "o'zi uchun" rivojlana boshlaydi; sotsial rollar o'zining amaliy mohiyatidan

mahrum bo'lgan holda teatr rollariga aylanib qoladi. Bularning barchasi – yuqorida gapirilgan "sof shakl"ga ma'naviy bo'la oladi.

Zimmel madaniyatni tahlil qila turib, o'z metodologiyani taqdim etadi. Subyektiv (individual) madaniyat va obyektiv madaniyatni bir-biridan farqlab, ular o'rtasidagi tafovutni o'ziga xos tarzda tushuntiradi.

Subyektiv madaniyat deganda, u individlarning moddiy va ma'naviy qadriyatlar yarata olish imkoniyatlarini tushunadi, obyektiv madaniyat deganda esa – narsalar, asboblar, ilmiy, diniy va badiiy g'oyalar, til, sog'lom fikr, huquqiy va axloqiy tizimlar. Insonlar tomonidan yaratilgan bu barcha madaniy elementlar o'zining mustaqil hayotiga, taraqqiyot mantig'iga ega. Bundan tashqari, obyektiv madaniyat o'z yaratuvchilari bilan ziddiyatga kirishadi, u insonlar uchun xavf-xatar va begonalashuvning yangidan-yangi shakllarini yaratadi, insonlarning hissiyoti va xohish-istaklariga, bu orqali esa sub'ektiv madaniyatga ta'sir ko'rsatadi.

Obyektiv madaniyat modernizatsiya jarayonida hajm jihatdan tez suratlarda o'sadi. Bunga Zimmel ilmiy bilimning misli ko'rilmagan tarzda o'sishini misol qilib keltiradi.

Shuningdek, madaniy ob'ektlar differentsiatsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Asosiysi, ta'kidlaydi Zimmel – obyektiv madaniyat o'z yaratuvchisi nazoratidan chetga chiqmoqda, o'z hokimiyatiga ega bo'lib, individlarga keng masshtablarda ta'sir ko'rsatmoqda. Bu subyektiv madaniyatga xavf-xatar tug'dirmoqda. Buni Zimmel «madaniyat fojiasi» deb ataydi. Uning mohiyati shundaki, «biror narsaning umumiy qadri oshgani sari uning individual tarkibi qadriyatlari shu darajada kamayadi»<sup>1</sup>. Haqiqatan ham, bugungi kunda obyektiv madaniyatning o'sib borishi sub'ektiv madaniyatning so'nishiga, individuallikning yo'qolishiga olib kelmoqda.

Agar xulosa qiladigan bo'lsak, u holda madaniyatning mavjud mantig'i hayotning mohiyatini hisobga olgan holda rivojlanayotgan hayotning o'zini namoyon qilish talablari bilan ziddiyatga keladi, ya'ni o'zida doimiylikni aks ettiruvchi madaniy shakl hayotning tabiiy o'suvchanligi bilan tortishuvlarga kirishadi. Natijada "hayot" oqimi eskirgan shaklni buzib yuboradi va uni yangisiga almashtiradi. Va bu holat cheksiz ravishda davom etadi. Shunday qilib, hayot va

<sup>1</sup> Zimmel G. *The Philosophy of Money*. – London: Routledge and Kegan Paul, 1978. – P. 199.

madaniyat qarama-qarshiligini yo'q qilish imkoni mavjud emas: hayot o'zini madaniyatdan tashqarida ifodalash imkoniga ega emas, madaniyat esa hayotga o'ziga o'xshash ifoda (shakl) berishga qodir emas. Zimmelga ko'ra, madaniyatning o'sish jarayoni – uning rivojlanish jarayoni emas, balki madaniy qadriyatlarining relyativizatsiya jarayonidir, ya'ni hayotga mos bo'lgan shakl mavjud emas ekan, u holda madaniyatning rivojlanish mezonini ham bo'lishi mumkin emas.

6. Zimmel ijodiga bag'ishlangan mavzuni yakunlar ekanmiz, uning merosi va sotsiologiya fani taraqqiyotidagi o'rni haqida to'xtalib o'tish zarur. Georg Zimmel Veberning zamondoshi hamda Nemis sotsiologiya jamiyatining asoschilaridan biri hisoblanadi.

Zimmel ilk Amerika sotsiolog-nazariyotchilariga o'zining o'zaro ta'sirlashuvga oid ishlari bilan tanildi. Marks va Veberda ko'rishimiz mumkin bo'lgan ko'p jildli asarlardan tashqari, Zimmel kambag'allik, fohishabozlik, xasislik va isrofgarchilik, begonalashuv kabi o'ta dolzarb mavzularda bir qator ocherklar ham yozgan. Bunday ocherklarning qisqaligi va materialga qiziqishning yuqori darajasi Zimmel g'oyalariining osongina tarqalishiga sabab bo'ldi. Afsuski, ocherklar Zimmelning sotsiologiya uchun nisbatan ahamiyatliroq bo'lgan boshqa yirik asarlarini to'sib qo'yib teskari samara ham berdi (masalan, «Pul falsafasi» 1978-yilda tarjima qilingan). Shunday bo'lsada, o'zining qisqa va mulohazali ocherklari bilan Zimmel ilk Amerika sotsiologik nazariyasiga Marks va Veberdan ko'ra kuchliroq ta'sir o'tkazdi<sup>1</sup>.

XX asrning 20-30-yillarida empirik tadqiqotlar kuchayib, nazariya inqirozga yuz tutgan bo'lsada, Zimmel nazariyasi unutildi, deyish mumkin emas. Germaniyada sotsial hodisalar shiddatli tus olgan bir paytda Zimmel g'oyalari va asarlari ikkinchi darajaga surib qo'yilgan bo'lsada, AQShda uning ijodiga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Zimmelning yaratgan ishlari Amerika sotsiologiyasining ilk markazlaridan biri – Chikago universiteti va uning asosiy nazariyasi – ramziy interaksionizm shakllanishiga sabab bo'ldi. Chikago maktabi va ramziy interaksionizm Amerika sotsiologiyasida 1920-1930-yillar boshlarida hukmronlik qildi. Zimmelning g'oyalari Chikagoda o'ta mashhur edi. Buni quyidagi fakt bilan asoslash mumkin, ilk

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 32.

davrlardayoq, Chikago maktabining asosiy va'illari – Albion Smoll va Robert Park – Berlinda 1800-yillar o'rtalarida Zimmelning nazariyasi bilan tanishganlar. Park 1899-1900-yillarda Zimmelning ma'ruzalarida ishtirok etgan.

1890-yillar davomida Smoll u bilan yozishmalar yozishgan. Ular Zimmelning g'oyalari Chikago fakulteti talabalariga tanitdilar, uning ba'zi ishlari tarjima qilib Amerika auditoriyasi e'tiboriga taqdim etdilar<sup>1</sup>.

Zimmel ijodini o'rgangan Fr.Tenbruk uni strukturaviy funksionalizm asoschisi sifatida ham ta'riflaydi.

Zimmel asarlari yetarlicha baholanmagan deyish mumkin. Buning sababi sifatida Zimmel ilmiy tilining murakkabligini olish mumkin, uni tushunish o'quvchidan juda katta mahorat talab etadi. Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda ko'plab sotsiologlar uning ijodiga qiziqish bilan murojaat etmoqdalar.

Zimmel g'oyalari ko'plab sotsiologik nazariyalarda qayta shakllantirilmoqda. Zimmel ijodi tarixini o'rganuvchilar soni kundankunga ortib borayotganligini unga bag'ishlangan monografiyalarning paydo bo'lishi bilan asoslash mumkin. L.Kozer iborasi bilan aytganda, Zimmel «Dyurkgeym va Veber singari kuchli tarzda sotsiologik tasavvurni rag'batlantirishda davom etmoqda»<sup>2</sup>.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. G.Zimmel sotsiologiyasining formal deb nomlanishi sababi nimada?
2. G.Zimmel sotsial o'zaro aloqalarning qanday shakllarini ajratgan?
3. G.Zimmel sotsiologiyaning obyekti va predmeti muammosini qanday hal etgan?
4. G.Zimmelning moda haqidagi qarashlarini izohlang.
5. G.Zimmelni konflikt sotsiologiyasining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etilishining sababi nimada?
6. G.Zimmel sotsiologik ijodining ahamiyati nimalardan iborat?

<sup>1</sup> O'sha joyda.

<sup>2</sup> Зборовский Г.Е. История социологии: классический текст: учебник для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – Сыктывкар [и др.]: ФГО СУПИТТУ, 2014. – С. 94.

## GLOSSARIY

**Metodologik relyativizm – методологический релятивизм – methodological relativism** – Zimmelga ko'ra, individlar va ijtimoiy tuzilmalar to'g'risidagi barcha bilimlarni nisbatan to'g'ri deb qarovchi yondoshuv.

**Moda – мода – fashion** – Zimmelga ko'ra, taqlid va individualizatsiya dualizmini ifoda etuvchi sotsial o'zaro ta'sirlashuv shakli.

**Muloqot / sotsiatsiya – общение / «социация» – association** – Zimmelga ko'ra, konkret mohiyatidan qat'i nazar shakllarda ifoda etiluvchi sotsial o'zaro ta'sirlashuv.

**Nisbiy deprivatsiya – относительная депривация – relative deprivation** – Zimmelga ko'ra, zamonaviy jamiyatda kambag'allikning nisbiyligi re'lef ko'rinishida namoyon bo'lmoqda: kambag'al jamiyatning quyi pog'onasida turgan emas, balki yordamga muhtoj insondir, bunda individning qaysi sotsial guruhga mansubligi va uning sotsial maqomi muhim emas.

**Ob'ektiv madaniyat – объективная культура – objective culture** – Zimmelga ko'ra, insonlar tomonidan yaratilgan, mustaqil holda mavjud bo'la olish xususiyatiga ega bo'lib borayotgan predmetlar, vositalar, ilmiy, diniy va badiiy g'oyalar, mantiqiy fikr, huquqiy va axloqiy tizimlar, o'z taraqqiyot mantig'iga ega, bu o'z navbatida, insonlar uchun xavf-xatar va begonalashuvning yangidan-yangi shakllarini qayta ishlab chiqarmoqda.

**Sotsial vaqt – время социальное – social time** – Zimmelga ko'ra, sotsial borliqqa xos xususiyat bo'lib, unda sotsial o'zaro ta'sirlashuv shakllari sinxron yoki diaxron tarzda bir-biriga qanday nisbatda bo'lishi, ularning tezligi, mavjudligi va taraqqiyotining konkret ritmlari qandayligi hisobga olinadi.

**Sotsial geometriya – социальная геометрия – social geometry** – Zimmel tomonidan formal sotsiologiyada qo'llanilgan yondoshuv. Unga ko'ra, sotsial munosabatlar va voqeyelik sotsial makon, oraliq, son va vaqt prizmasi orqali tadqiq etiladi.

**Sotsial differentsiatsiya – социальная дифференциация – social differentiation** – ijtimoiy taraqqiyot jarayonida sotsial butunlikning bo'linishi, sinflar va sotsial guruhlar, shuningdek, individlar o'rtasidagi farqlar.

**Sotsial makon – социальное пространство – social space** – Zimmelga ko'ra, konkret sotsial sub'ektlarning, ularga xos alohidalik va yaqinlik dialektikasini xarakterlovchi o'zaro ta'sirlashuvni amalga oshiradigan soha.

**Sotsial oraliq – социальная дистанция – social distance** – Zimmelga ko'ra, sotsial makondagi o'rniga mos ravishda predmet va hodisalar qadriyatlarining nisbiyligi.

**Sotsial o'zaro ta'sir – социальное взаимодействие – social interaction** – individning harakati bir vaqtning o'zida boshqa sotsial subyetlar amalga oshirgan aks harakatlarning sababi va oqibati hisoblanadigan o'zaro shartlangan sotsial ta'sirlashuvi tizimi.

**Sotsial hayot – социальная жизнь – social life** – insonlar o'zaro munosabatlari, sotsial institut va tashkilotlar funkcionallashuvining tartibga solingan tizimi.

**Subyektiv madaniyat – субъективная культура – subjective culture** – Zimmelga ko'ra, individlarning innovatsion mazmundagi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqara olish qobiliyati, bunga ob'ektiv madaniyat hukmronligining oshishi to'sqinlik qilishi mumkin.

## E. DYURKGEYM SOTSIOLOGIK SISTEMASI

### Reja:

1. Emil Dyurkgeymning hayoti va ijodi
2. Dyurkgeym sotsiologiyasining nazariy asoslari
3. «Sotsiologizm» ilmiy tadqiqot metodologiyasi sifatida
4. Dyurkgeymning sotsiologik qarashlari
5. Sotsial faktlarning asosiy turlari
6. Ijtimoiy birdamlik g'oyasi
7. O'z joniga qasd qilish muammosi

1. Emil Dyurkgeym Fransiyaning Epinal shahrida 1858-yil 15-aprelda tavallud topgan. U qadim yahudiy dini peshvosining avlodi hioblanadi va u bu an'anani davom ettirish uchun tahsil ola boshlaydi, ammo ma'lum bir vaqtga kelib, voyaga yetganda bu ajdodlar merosidan voz kechadi. Vaqtlar o'tib uning dinga bo'lgan qiziqishi diniy taraflama emas, ilmiy tomonlama ortib boradi. U nafaqat diniy mashg'ulotlardan, balki shuningdek u umumiy ta'lim va uning badiiy va estetik masalalariga e'tibor qaratishdan ham norozi bo'la boshlaydi. U ijtimoiy hayotda yo'l ko'rsatishda zarur bo'ladigan axloqiy prinsiplar va ilmiy metodlar doirasida tahsil olishga qiziqadi. U falsafadagi milliy nazariy ish faoliyatini rad etib, uning o'rniga jamiyatning axloqiy maslahat va ko'maklariga hissa qo'shishda yordam beradigan ilmiy mashg'ulotlarni o'rganishga kirishadi. E.Dyurkgeym Oliy normal maktabiga kirish uchun Buyuk Lyudovikning Parijdagi litseyida kursda imtihonga tayyorlandi va 1879-yilda maktabga qabul qilindi. Bu vaqtda Joffrs pansionida u fransuz sotsial partiyasining kelajakdagi rahbari, kolonializm, militarizm va urushga qarshi jo'shqin kurashchi J.Jores bilan tanishadi. U Fransiyaning eng kuchli o'quv maskanlaridan biri bo'lgan Oliy normal maktabida o'sha davrdagi mashhur olimlarning – tarixchi F. de Kulapj va falsafashunos E.Butruning ma'ruzalarini eshitadi. U 1882-yil o'qishni tugatib falsafa o'qituvchisi unvoniga imtihon topshirib, uch yillik muddatga Sape va Sen-Kantepga qishloq litseylarida falsafadan dars berish uchun ketadi. Shuningdek, Dyurkgeym, ilmiy sotsiologiyaga ham munosabati ijobiy edi, o'sha davrda xali sotsiologiyaning hych qanday sohasi vujudga kelmagan

edi, shu sababli u 1882-1887-yillarda Parij hududidagi maktablarning birida falsafadan saboq oladi.

Uning ilmga bo'lgan ishtiyoqi 1885-1890-yillari Germaniyada Vilgelm Vundt tomonidan rivojlantirilayotgan psixologiya bilan tanishganda uyg'onadi. Germaniyaga tashrifidan so'ng, u yerda olingan tajribalariga asoslangan taxsinga sazovor bir necha ishlari nashrdan chiqadi. Uning bu ilmiy ishlari 1887-yilda Bordo Universitetida falsafa sohasida o'z o'rnini egallashiga yordam beradi.

Keyingi yillar ham Dyurkgeym uchun muvaffaqiyatli bo'lgan. 1893-yilda u o'zining fransuz tilidagi, «Ijtimoiy mehnat taqsimoti» deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasini, shuningdek lotin tilidagi «Montesk'e» mavzusidagi dissertatsiyasini nashr ettiradi. Uning 1895-yilda dunyoga kelgan «Sotsiologik usul qoidalari» deb nomlangan asosiy metodologik ilmiy ishida o'zining mashhur sotsiologizm konsepsiyasini yoritadi. So'ngra esa tadqiqotlarida sotsiologik metodlardan empirik foydalanilgan «O'z joniga qasd qilish» (1897) asari nashr etiladi.

1896-yilga kelib, u Bordo universitetida to'liq professor unvoniga erishadi, Fransiya'dagi ilk «Ijtimoiy fanlar» kafedrasiga rahbarlik qiladi. Dyurkgeym bir qancha yirik maqolalar yozadi va shu maqolalarni «Falsafiy qarashlar»da va o'zi 1898-yilda asos solgan «Sotsiologik yilnoma» jurnalida nashr qiladi.

1902-yil Sorbonna universitetiga ishga kiradi va u yerda 1917-yilgacha ishlaydi. U yerda «Tarbiya haqida ilmlar» kafedrasiga rahbarlik qiladi. 1906-yilda pedagogika professori darajasiga ko'tariladi. Uni juda qiziqtirgan ta'lim va tarbiya masalalarining nafaqat nazariy, qolaversa pedagogning amaliyoti bilan bir qatorda, u tobora ko'proq diniy masalalar bilan shug'ullanadi. Diniy masalalar bilan ko'p yillik qiziqishi, oxir oqibat o'zining ifodasini yana bir mashhur – «Diniy hayotning elementar shakllari» deb nomlangan asari 1912-yilda nashrdan chiqadi. Ko'p mutaxassislar bu asarni sotsiologiya sohasidagi eng ahamiyatli asar, deb hisoblaydilar. 1913-yilda esa Dyurkgeym boshqarayotgan kafedra «Sotsiologiya» nomini oladi, va uning o'zi ham «Pedagogika va sotsiologiya professori» unvoniga erishadi.

Dyurkgeym ko'p vaqtini axloqiy ongning, ta'lim va tarbiyaning sotsiologik muammolariga bag'ishlaydi. Uning «Pedagogika va sotsiologiya» mavzusidagi ma'ruzasi alohida kitob sifatida chop

etiladi. Fransiya falsafa jamiyatida «Axloqiy faktning determinatsiyasi» ma'ruzasi, Kollej de Fransdagi «XVIII asrdan boshlab Fransiyadagi mashhur pedagogik ta'limotlar» ma'ruza kursi, Bolonyadagi falsafa kongressida «Voqelik haqidagi fikrlar va qadriyatli hukm» mavzusida ma'ruzasi shular jumlasidandir<sup>1</sup>.

1914-yilda boshlangan urush Dyurkgeymga g'am-tashvish va qiyinchiliklar olib keladi. 1916-yilda frontda uning kelajakka umid bog'lagan yosh sotsiolog, ishining davomchisi, sevimli va yolg'iz o'g'li vafot etadi. O'g'lining o'limi Dyurkgeymning kasalligini kuchaytiradi. Buning natijasida Emil Dyurkgeym 1917-yil 15-noyabr kuni Parijda 59 yoshida vafot etadi.

Fransiya intellektual diorolari qatorida Dyurkgeym juda mashhur edidi, ammo 20 yildan so'ng T.Parsonning «Sotsial harakat strukturasi» asari nashr etilishi bilan u Amerika sotsiologiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkaza oldi<sup>2</sup>.

Kasbiy faoliyat Dyurkgeym hayotida asosiy o'rinni egallagan. Lekin, bunga qaramasdan, u uzluksiz jamoat va uyushma harakatlarining turli jabhalarida faol ishtirok etgan. U ijtimoiy islohotlar tarafdori bo'lgan. Uning ko'pgina izdoshlari sotsial harakatlarda qatnashgan. Shu bilan birgalikda, Dyurkgeym inqilobiy sotsializmga qarshi bo'lgan. Uningcha, chuqur va uzoq sotsial o'zgarishlar ma'lum sotsial vaqt, evolyutsiya davomida amalga oshadi.

2. E.Dyurkgeymdan ancha oldin yashab o'tgan, lekin o'z qarashlari bilan uning shakllanishiga hissasini qo'shgan yurtdosh mutafakkirlardan R.Dekart, Sh.Monteske va J.J.Russolarni misol qilib keltirish mumkin. E.Dyurkgeym tom ma'nodagi ratsionalist edi, bu o'z navbatida Fransiyada ratsionalizmning milliy an'anasi ildizi R.Dekartga (1596-1650) borib taqalishi tabiiy. Bu ma'noda, E.Dyurkgeymning «Sotsiologik metod qoidalari» uning sotsiologik konsepsiyasining ifodasi sifatida Dekartning «Metod haqida mulohazalar» asari bilan hamohangdir. Ikkala muallifning ham o'z oldiga bu yerda bir xil, ya'ni umum qabul qilingan fikrlar va ijtimoiy xurofotdan qat'i nazar tadqiqotchiga haqiqatni topish uchun ratsional prinsip va usullarni topish maqsadi qo'yilganligi birlashtiradi. ni dan

<sup>1</sup> Жорисский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – СПб.: РИО СПбГУ, 2014. – С. 113.

<sup>2</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 86-87.

Dyurkgeym Sh.Monteskeni ilmiy sotsiologiyaning asosiy predshestvenniki sifatida olib qaraydi. Aynan Monteske ijtimoiy fanning mavjud bo'lishi ehtimolini, xususan sotsial hodisalar taraqqiyotining determinizm va ichki qonuniyatlari tamoyillari bilan bog'liq, shuningdek, voqrealarni qayd etish (empirik qayd) va ratsional (nazariy) tushuntirishning bir-biriga muvofiqligi g'oyalarini asoslab bergan. Dyurkgeym sotsiologiyaning fan sifatiga shakllanishiga bilvosita hissa qo'shgan olimlardan yana biri sifatida J.J.Russoni oladi, ayniqsa uning umumiy iroda va ijtimoiy shartnoma tushunchalarining ahamiyatini alohida qayd etadi.

Dyurkgeymning bevosita o'tmishdoshlari sifatida A.Sen-Simon va uning shogirdi O.Kontni alohida e'tirof etish lozim. Dyurkgeym O.Kontni sotsiologiyaning «otasi» sifatida tan oladi va uning g'oyalari bilan o'z g'oyalarida umumiylik va reemstvennyu aloqani ta'kidlaydi. Dyurkgeym O.Kont tomonidan shakllantirilgan pozitivizmga asoslanadi, sotsial fanning tabiiy fanlarga tayanishi lozimligi to'g'risidagi fikrini ma'qullaydi.

Kontning izdoshi bo'lsada, E.Dyurkgeym uning barcha fikrlariga qo'shilmagan. Masalan, Dyurkgeym Kontning uch bosqich qonunini tamomila rad etgan<sup>1</sup>. Bundan tashqari, ilmiy tushuntirishda sababiylikdan voz kechib, «nima uchun» savolini «qanday» bilan almashtirgan. Kontga zid holda u sotsial hodisalarning sabablarini qidirgan.

Dyurkgeym sotsiologiyasi biologik (shuningdek, psixologik ham) interpretatsiyalardan xoli bo'lsada, u bioorganik maktabning, ayniqsa G.Spenserning sotsiologiyaga ta'sirini tan olgan, hatto bu ta'sirga ikkilanish bilan qaragan bo'lsa ham. Bir tomondan, Dyurkgeym o'z qarashlarini G.Spenser qarashlariga zid qo'ygan holda asoslagan, demak bu yerda «salbiy» ta'sir haqida gapirish mumkin bo'ladi. Dyurkgeym Spenser nividualizmiga «jamoaviylikni» qo'yadi, bu yerda uning qarashlari O.Kont bilan hamohang. Boshqa tomondan esa, Dyurkgeym tadqiqotlarida Spenser g'oyalarining ijobiy ta'siri yaqqol seziladi. Bu yerda gap sotsiologiyaning strukturaviy-funksional jihatlari haqida bormoqda. Shuningdek, evolyutsionistik nazariyaga ko'ra rivojlangan ijtimoiy strukturalarni tushuntirishda «elementar shakllar»dan foydalanish tendensiyasi va uning

<sup>1</sup> Фурцева Е.А., Пурулланова У.Н. Социология теории. Углубленный курс. – Томск, 2009. – С. 71.

sotsiologiyasining etnografik jihatlarida Spenserning ta'siri yaqqol seziladi.

Shuningdek, marksizmning iqtisodiy reduksionizm g'oyasini qo'llab-quvvatlagan Dyurkgeym keyinchalik uning sinfiy kurash nazariyasi va sotsialistik inqilobning muqarrarligi g'oyasiga qarshi chiqadi, va iqtisodiy omilning jamiyat hayotidagi ustuvor roli sotsialistik harakat bilan umuman aloqador emasligini ta'kidlaydi. Tarixiy materializmdagi iqtisodiy omilni tarixdagi hal qiluvchi rolga zid ravishda Dyurkgeym bu rolning beradi. Zero aynan din kishilik jamiyati paydo bo'lishidagi eng qadimgi sotsial hodisa ekanligini, keyingi barcha intellektual faoliyat natijalari: huquq, axloq, san'at, fan va h.k.lar unga asoslanib yaratilganini e'tirof etadi.

Marksni tanqid eta turib, Dyurkgeymning o'zi sotsializmga qiziqish bilan qaray boshladi, do'st hamda taniqli fransuz sotsialisti bo'lmish J.Jores (1854-1914) bilan uning tarixini o'rgandi. 1895-1896-yillarda, Bordo universitetida sotsializm to'g'risida maxsus kursni o'qigan va bir qator ma'ruzalar kurslarini nashr ettirgan: «Sotsializm» (1928), «Sotsiologiya bo'yicha ma'ruzalar. Axloq va huquq fizikasi», tarbiya va pedagogika muammoalari bo'yicha ma'ruzalar. Bular Dyurkgeymning siyosiy qarashlari, jumladan sotsializmni talqin etishi borasida yetarlicha tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

Dyurkgeym marksizmga "noto'g'ri va sarqitda qolgan gipotezalar jamiyatmasi" deb nom berdi. Uningcha, sotsializm ilmiy axloqiy normalar bo'yicha boshqariladigan jamiyatning axloqiy rivojlanishida maqsad qilib olingan harakatni ifodalardi va u sotsializmning iqtisodiy qismlariga va siyosiy qisqa muddatli metodlariga qiziqmasdi. R.Aronning ta'kidlashicha, Dyurkgeym ma'lum bir ma'noda sotsialist hisoblansada, lekin u marksist emas<sup>1</sup>. Uning sotsialistik qarashlari Marks qarashlaridan tom ma'noda farq qilib, unda iqtisodiy jihat emas, balki axloqiy jihatga urg'u beriladi. Sinfiy kurashni jamiyatda siyosatni tashkillashtirishdagi xato sifatida olib qaraydi. Bir so'z bilan Dyurkgeym sotsializmi o'zining qarashlarini ikki so'z – tashkillashtirish va axloqiyashtirish – bilan ifodalagan O.Kontning "sotsializmi" deyish mumkin.

<sup>1</sup> Qiziq: Aron P. Этни развития социологической мысли. – М., 1993. – С. 373.

Shunday qilib, Dyurkgeym sotsializmni keng ma'noda talqin etgan va uni tushunish uchun uning barcha xillarini tadqiq etish lozim, deb hisoblaydi. Uning sotsializmga ta'rifi quyicha: Sotsializm – diffuz holatda turgan iqtisodiy funksiyalarni tashkillashtirilgan holatga tez yoki asta-sekinlik bilan o'tishi kondensiyasidir. Buni iqtisodiy kuchlarning nisbatan to'liq yoki qisman ijtimoiylashuvga intilishi deyish ham mumkin.

Dyurkgeym qarashlarini belgilab bergan negizlar qatorida I.Kant va kantchilikni ham eslab o'tish joiz. Bu yerda gap, avvalambor uning nazariyasining asosiy "qon tomiri" bo'lgan axloq konsepsiyasi, axloqiy burch haqida bormoqda.

Dyurkgeym sotsiologiyaning o'z o'tmishdoshlari (qisman Kont ham) tomonidan sotsiologiya to'liq fan sifatida shakllantirilmagan, ularda faqatgina shakllantirish negizlari taqdim etilgan, deb hisoblaydi, chunki ilmiy sotsiologiya buning uchun o'z tadqiqot predmetiga va o'ziga xos metodlarga ega bo'lishi lozim edi. Bu vazifani bajarishni u o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

3. Dyurkgeym sotsiologik nazariyasi va metodologiyasining asoiy tamoyillarini aks ettiruvchi umumlashtiruvchi tushuncha sifatida "sotsiologizm" olinadi, aslida esa bu tushuncha uning g'oyalarini ularning ko'p qirraligii bilan to'liq qamrab ololmaydi.

Dyurkgeymning sotsiologizmini tushunish uchun uning ikki jihatini ajrata olish lozim bo'ladi: birinchidan, ontologik, ikkinchidan, metodologik. Ontologik jihatdan "sotsiologizm"ning bir nechta nazariy yondoshuv yoki qoidalarini ajratib olish mumkin.

1. Dyurkgeymga ko'ra, sotsial voqyelik umumiy universal tabiiy tartibotga kirib ketadi, u ham boshqa voqyeliklar (biologik, psixologik, iqtisodiy) singari asoslanadi, shuning uchun ular kabi ma'lum bir qonunlarga muvofiq rivojlanadi.

2. Jamiyat o'ziga xos voqyelik bo'lib, uning boshqa turlariga o'xshash emas. Bu yerda Dyurkgeym ilmiy ijodining barcha jihatlarini qamrab olgan asosiy g'oya haqida gipirish mumkin bo'ladi.

Gap bu yerda avtonom sotsial voqyelik, ya'ni, avvalambor, alohida individlarning timsoli sifatidagi individual, biopsixologik voqyelik haqida bormoqda. Individ va jamiyat o'rtasidagi tafovutni Dyurkgeym dixotomik juftlik shaklida aks ettiradi. Bunga misol qilib uning sotsial faktlarni farqlashini olishimiz mumkin: "individual

tasavvurlar – jamoaviy tasavvurlar”, “individual ong – jamoaviy ong” va h.k.

Har qanday jamiyat nazarisi, sotsiologiya nazariyasida inson nazariyasi mavjuddir, ya'ni sotsiologiya nazarisi u yoki bu ma'noda falsafiy antropologiyaga asoslanadi. Bu ma'noda, Dyurkgeym insonni ikki mohiyatdan, ya'ni faqat birgagina mavjud bo'la oluvchi, bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashuvchi va bir-biriga qarma-qarshi turuvchi sotsial va individual mohiyatdan tashkil topganligini ta'kidlaydi.

Inson tabiatining bu ikki asosi ham Dyurkgeym tomonidan turlicha dixotomiyalarda aks ettiriladi, xususan:

- jamiyatga xos va inson tabiatiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi omillar;

- aynan shu jamiyat yoki guruh umumiy bo'lgan va bir yoki bir nechta individlarga xos omillar;

- bir tomondan, birlashgan individlarning, boshqa tomondan esa, alohida, ajralgan individlarning ongi va xulq-atvori va h.k.

Bu dixotomiya jiddiy metodologik va nazariy oqibat va sabablarga borib taqaladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Dyurkgeym “sotsiologizmi” (ontologik jihatdan) faqatgina avtonom sotsial voqyelikning mavjudligini isbotlashga qaratilmagan. U sotsial voqyelikning individualga nisbatan ustuvorligini, shuningdek uning inson ongi va xulq-atvorini determinantlashtirishdagi tom ma'nodagi ahamiyatini ta'kidlagan va asoslab bergan.

Shuning uchun yuqorida keltirilgan dixotomiyalarda sotsial voqyelikni aks ettiruvchi tomon individuallikni aks ettiruvchi tomon ustidan hukmronlik qiladi. Shunday qilib, jamoaviy ong – individual, muqaddas – dunyoviy ustidan va h.k. Dyurkgeymga ko'ra, jamiyat individualga qaraganda nisbatan boy va “real”roqdir. Jamiyat individdan ustuvor, uni yaratadi va uning qadriyatlari manbai hisoblanadi.

“Sotsiologizm”ga xos bu xususiyat sotsiologiya tarixida “sotsial realizm” nomini olgan. Bu pozitsiyani Dyurkgeym nazariy-metodologik jihatdan jamiyatni individlarning oddiy yig'indisi sifatida olib qarovchi “sotsial nominalizm”ga qarshi qo'yadi.

Bu ma'noda uning antipsixologizmi muhim ahamiyat kasb etgan. Psixologizm bu davrda metodologik individualizmning asosiy timsoli edi. Aynan unda Dyurkgeym sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishiga ochiqchasiga yoki yashirin tarzda qarshilik qiluvchi

to'siqni ko'rganligi bejiz emas. Bu masalada Dyurkgeym o'zining yurtdoshi G.Tard bilan doimo munozaraga borib, sotsiologik tamoyillari

Sotsial voqyelikni anglashning metodologik tamoyillari Dyurkgeym “sotsiologizmi”ning ontologik jihatidan belgilangan. Bu tamoyillar uning ontologik pozitsiyasiga asoslanib edi:

Dyurkgeymning birinchi va asosiy metodologik qoidasi jamiyatni tabiatning bir qismi sifatida olib qarashdan kelib chiqadi, modomiki sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi fan ekan, demak u metodologik jihatdan tabiat to'g'risidagi fanlarga o'xshaydi. Uning bilish maqsadini Dyurkgeym turg'un sabab-oqibat aloqalari va qonuniyatlarini tadqiq etishdan iborat, deb biladi. U tabiiy fanlar metodlariga o'xshash (analogik) sotsiologik bilish metodlarini qo'llashni talab etadi. Bu uning ilk ishlaridagi biologik va fizik analogiyalar va tushunchalardan ko'p foydalanilganligini tushunish imkonini beradi. Uning “sotsial faktlarni xuddi narsalar kabi ko'rib chiqish lozim”, degan fikrlari asosiy metodologik tamoyili sifatida namoyon bo'ladi. Shuni aniqlashtirish lozimki, Dyurkgeymning tezisi ontologik emas, balki metodologik (gnoseologik) ma'noga ega. Chunki u sotsial faktlarni narsalar ekanligini ta'kidlamaydi, balki ularni narsalar kabi o'rganish kerakligini isbotlaydi.

Dyurkgeymning metodologiyasi sotsiologiya taraqqiyotining keyingi rivojlanish bosqichlari, turli sotsiologik maktablarning, jumladan, nemis sotsiologik maktabining shakllanishini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dyurkgeymning metodologik monizmi, sotsial va tabiiy fanlarda ilmiy bilishning yaxlitligiga yo'nalganlik tabiiy va gumanitar fanlarda bilish metodlarini turli pozitsiyalarda olib qarovchi, va natijada ularni “tabiat to'g'risidagi” va “ruh to'g'risidagi” (madaniyat) fanlarga ajratuvchi dualistik qarashlarga zid edi (V.Diltey, V.Vindelband, G.Rikkert).

Dyurkgeymning asosiy tamoyiliga ko'ra, sotsial faktlar boshqa sotsial faktlar orqali tushuntirilishi kerak edi. Shu bilan birga u bu metodologik tamoyildan chetga ham chiqqan. Jamiyatni ustuvor sotsial voqyelik sifatida olib qarab, Dyurkgeym tushuntirishning sotsiologik usulini boshqa usullarni tamomila rad etuvchi yagona bilish usuli qilib qo'ydi. Ya'ni sotsiologiya nafaqat sotsial faktlar to'g'risidagi fan, balki fanlarning fani darajasiga ko'tarib qo'yildi. U endi bilimning barcha sohalarini: falsafa, etika, mantiq, tarix, iqtisod va h.k.larni sotsiologiyazatsiyalashtirishi lozim edi. Dyurkgeymning

"sotsiologizmi" endi falsafiy ta'limot sifatida namoyon bo'ldi. Dyurkgeymning falsafiy qarashlarini ikki xil ma'noda talqin etish mumkinligi ham shunda. Bir tomondan, u sotsiologiyani falsafadan ajratib olish, metafizik tizimlardan xoli qilishni talab etsa, boshqa tomonlama o'zi faylasuf sifatida fikr bildirgan. O'zining tan olishicha ham, u har doim faylasuflicha qolgan. Sotsiologiyani falsafadan ajratib olish talabi Dyurkgeymning ijtimoiy fanlardagi hayoliy, tajribaga asolanmagan quruq muhokamalarga salbiy munosabati bilan bog'liq bo'lgan. Sotsiologiya, uning fikriga ko'ra, empirik va ratsional asosga ega holda yaratilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida mavjud bo'lishi zarurati va imkoniyati Dyurkgeym tomonidan ham nazariy, ham metodologik jihatdan asoslab berilgan. Chunki u sotsiologiyaning predmeti mavjudligi va uni qanday o'rganish lozimligini ko'rsatib o'tgan.

Dyurkgeym sotsiologik ta'limotining bu qismini yakunlar ekanmiz, uning "sotsiologizm" konsepsiyasining sotsiologiyaning ushbu davrdagi tarixiy taraqqiyot bosqichi uchun bir qator foydali bo'lgan jihatlarga to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Ular quyidagilar:

- jamiyatni uni tashkil etuvchi individlarga nisbatan mustaqil ob'ektiv voqeyilik sifatida tan olinishi;

- sotsial muhitning individual ong va xulq-atvoriga ta'sirining ko'rib chiqilishi, shuningdek axloq, din va bilish jarayonining sotsial tabiatining asoslanishi.

4. Dyurkgeymga ko'ra, sotsiologiyaning predmeti – sotsial faktlardir. Dyurkgeymning «Sotsiologik usul qoidalarini» asarining birinchi bobi aynan shunday nomlanadi. Uning oxirida Dyurkgeym sotsial faktlarni ta'riflab, ularning quyidagi asosiy belgilarini sanab o'tadi. Dyurkgeymga ko'ra, sotsial faktlar quyidagi belgilarga ega bo'lishi lozim:

1) individdan tashqarida mavjud bo'lishi;

2) individga majburlovchi ta'sir o'tkaza olishi lozim<sup>1</sup>.

Sotsiologiyani mustaqil fan sifatida ajratish va o'rganish uchun, Dyurkgeym qarashi bo'yicha kamida ikkita shart bajarilishi kerak: a) u boshqa fan predmetlaridan farqli ajralib, o'zgacha predmetga ega

bo'lishi kerak; b) bu predmetni boshqa fanlar predmetlaridek, kuzatish va tushuntirish oson bo'lishi kerak.

Bu talablar o'z Dyurkgeymning ikki qoidasini eslatadi: sotsial faktlarni buyumdek o'rganish kerak. Bu faktlar individga majburlov ta'sirini o'tkaza oladigan o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadi.

Sotsial faktlar sifatida an'ana va qonunlarni, axloq qoidalarini, diniy e'tiqod va udumlar, til, pul tizimi va boshqalarni olish mumkin, chunki inson tug'ilganida ular tayyor holatda qabul qiladi va ular insondan mustaqil holda mavjud bo'ladi va amal qiladi. Bu sotsial faktlar insonga bosim o'tkazadi, biron-bir harakat yoki xulq-atvorni bajarishga majburlaydi. Bunday sotsial faktlarni Dyurkgeym ikki turga ajratadi: moddiy va ideal (nomoddiy).

Sotsial faktlar haqida gapirar ekan, Dyurkgeym ularni ikki guruxga ajratadi. Bir tomondan, ijtimoiy borliq shaklini ifoda etuvchi morfologik faktlar, boshqa tarafdin esa, u jamoaviy ong, ya'ni axloq, din, huquqning mohiyatini ifodalovchi jamoaviy tasavvurlar haqida gapiradi.

Falsafaning sotsiologiyadan ajratilishining eng muhim jihati sotsial faktlarga narsalar sifatida munosabatda bo'linishi va empirik tushuntirilishidir. Bu, biz sotsial faktlarni bizning miyamizdan tashqarida bo'lgan ma'lumotlarni kuzatuv va tajriba metodlari orqali egallab o'rganishimiz kerakligini anglatadi.

Dyurkgeym sotsial faktni quyidagicha ta'riflaydi: Individni tashqi majburlovga ta'sirchan qila oladigan har qanday turg'un (barqaror, chidamli) yoki turg'un bo'lmagan harakat tarzi, yoki bundan tashqari ushbu sotsial makon uchun umumiy bo'lgan, o'zining individualligiga tobe bo'lmagan holda mavjud bo'la oladigan harakat tarzi sotsial fakt hisoblanishi mumkin<sup>1</sup>.

Dyurkgeym sotsiologiyani psixologiyadan farqlash maqsadida sotsial faktni aniqlashning ikki yo'lini taqdim etgan. Birinchisi, sotsial fakt ichki boshqaruvga nisbatan tashqi majburlash sifatida boshdan o'tkaziladi: ikkinchidan, u konkret individ uchun emas, jamiyat uchun umumiydir.

Dyurkgeymga ko'ra, sotsial faktlar individuallarga qisqartirilishi mumkin emas, biroq o'zlarining shaxsiy haqiqati sifatida tushuntirilishi kerak.

<sup>1</sup> Дюркгейм, Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М.: Наука, 1991. – С.

<sup>1</sup> Qiziq: Дюркгейм, Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. – М.: Канон, 1995. – С.

Dyurkgeym sotsial faktlarni "sui generis", ya'ni "yagona" degan ma'noni anglatuvchi lotin terminida ifodalaydi<sup>1</sup>. U bu termindan sotsial faktlarni o'zining shaxsiy yagona xarakteriga ega ekanligini ko'rsatish uchun foydalangan. Sotsial faktlar individuallarga ishoralar orqali sotsiologiyani psixologiyaga qisqartirilishi bilan tushuntirilishi mumkin. Sotsial faktlar boshqa sotsial faktlar tomonidan tushuntirilishi mumkin<sup>2</sup>. Bu turdagi tushuntirishlarni Dyurkgeym o'z joniga qasd qilish darajasini individual istaklarga qaraganda boshqa sotsial faktlar bilan tushuntirishga harakat qilganligini misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sotsial faktlar empirik jihatdan tushuntirilishi mumkin, ular individuallikdan uzoq va boshqa sotsial faktlar tomonidan tushuntiriladi.

Dyurkgeym huquqiy qoidalar, axloqiy majburiyatlar va ijtimoiy urf-odatlarini o'z ichiga olgan, sotsial faktlarning ba'zi misollarini beradi. U shuningdek, tilga sotsial fakt sifatida qaraydi va u bir tushunarli misol bilan buni to'ldiradi. Birinchidan, tilni empirik jihatdan tushuntirilishi kerak bo'lgan "narsa" deydi<sup>3</sup>. Kishi tilning mantiqiy qoidalariga haqida oddiygina falsafiy yondoshib tushuntiradi. Shubhasiz, har bir til grammatika, talaffuzga oid mantiqiy qoidalariga ega; biroq, ba'zi tillar shu bilan birgalikda, mantiqiy qoidalariga oid muhim istisnolarga ham ega. Qaysi qoidalar orqama-ketin keladi va qaysi mustasno holatlar asl til foydalanilishini o'rganib, empirik tomondan kashf qilinishi kerak, ayniqsa vaqt o'tgan sari tilning qo'llanilishi o'zgarib boradi.

Ikkinchidan, til individga tashqi narsadir. Individlar tildan foydalanishiga qaramasdan, til individ tomonidan aniqlanmaydi yoki yaratilmaydi. Individlar tildan foydalanish paytida unga moslashadi va tilning individga tashqi narsa ekanligini ko'rsatadi shuningdek bu individual foydalanish vaqtida moslashish zaruriyatida ko'rinadi. Qo'shimchasiga, ba'zi faylasuflar bunaqa shaxsiy til bo'lmasligi haqida bahs olib borishgan. O'zining xususiy ma'nosiga ega so'zlar majmuasi til kabi imkonga ega emas chunki u tilning asosiy vazifasini tashkil etmaydi. Til bu, ta'rifan, ijtimoiy va shuningdek har qanday individga tashqi tushunchadir.

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 78.

<sup>2</sup> Дюркгейм, Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. – М.: Канон, 1995. – С. 126.

<sup>3</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 78.

Uchinchidan, til individga cheklangandir. Biz foydalanadigan til gapirish ba'zi narsalarni qiyin qiladi. Misol uchun, bir xil jinsdagi aloqalarga ega odamlar bir-biriga aloqador bo'lishi qiyin vaziyatlarni boshdan o'tkazadi. Ular "partnyor" deb buni atashadimi – odamlarni biznes sohasida o'ylashga undaydi – "yaqin insonlar", "sevishganlar", "er-xotinlar", "do'stlar"mi? Har biri o'zining noafzalliklariga ega tuyuladi. Til sotsial faktlar tizimining qismi bo'lib, hayotni bir xil jinslilik bilan qiyin qiladi, hattoki har bir individ bir xil jinsli aloqalarni qabul qilishi kerak.

Nihoyat, tildagi o'zgarishlar boshqa sotsial faktlar tomonidan tushuntirilishi mumkin. Hattoki, bunaqa qiyin holatlarda, tildagi o'zgarish individga borib taqaladi, o'zgarish uchun asliy tushuntirish sotsial faktlardir va jamiyatni bu o'zgarishga ochiq qiladi. Misol uchun, tilning eng o'zgaradigan qismi bu jargondir, u ahamiyati o'z ijtimoiy guruhda tashkil etiladi. Individ birinchi jargon terminini tashkil etadi deb biz taxmin qilishimiz mumkin. Ahamiyati o'z ijtimoiy guruh jargonining tarixini va vazifasini to'g'ri tushuntirishi faktir.

Ba'zi sotsiologlar Dyurkgeym "ekstremistik" pozitsiyani olgan deb o'ylaydi, sotsiologiyani cheklashda sotsial faktlar sohasiga tegishli pozitsiya deydi. Bu pozitsiya hozirgi kundagi sotsiologiyaning ba'zi sohalarini cheklagan. Bundan tashqari, Dyurkgeym sotsiologiyani qo'shni sohalardan ajratadi. Lemert aytganidek, "u sotsiologiyani o'zining faktlari bilan aniqlagani sababli, Dyurkgeym uni boshqa ilmiy fanlardan ajratadi"<sup>1</sup>. Shunga qaramay, uning ba'zi nuqsonlari bo'lsa ham, Dyurkgeymning sotsial faktlar haqidagi g'oyasi sotsiologiyani mustaqil fanning sohasi sifatida tashkil etadi va biz oldin qaror qilganimizdek u jamiyatni o'rganish uchun ishonchli bahslarni ta'minlaydi.

Keyinchalik esa bu qarashini rivojlantirib, Dyurkgeym "sotsial fakt" atamasini bundanda keng ma'noda talqin etadi va uni o'ziga xos tarzda "institut" termini bilan ifodalaydi va sotsiologiyani quyidagicha ta'riflaydi: Sotsiologiyani institutlar, ularning genezisi va funktsionallashuvi to'g'risidagi fan sifatida olib qarash mumkin<sup>2</sup>.

Dyurkgeym sotsiologiyasini uchta asosiy sohaga ajratgan:

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 77-79.

<sup>2</sup> Qarang: Дюркгейм Э. О развитии общественного труда. Метод социологии. – М., 1991. – С.

- sotsial morfologiya;
- sotsial fiziologiya;
- umumiy sotsiologiya<sup>1</sup>.

Ular Dyurkgeymning sotsial hayotning u yoki bu sohasiga qarashlarini aks ettiradi.

Sotsial morfologiya anatomiya kabi jamiyatning «substrat»ini, uning strukturasi, moddiy shaklini o'rganadi. Uning sohasiga xalqlarning geografik asoslarini sotsial tashkillashtirish bilan bog'liq holda, shuningdek xalq, uning hajmi, zichligi, hudud bo'ylab yoyilishi kiradi.

Sotsial fiziologiya jamiyatlarning «hayotiy namoyon bo'lish»larini tadqiq etib, bir qator xususiy fanlarni qamrab oladi. O'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) din sotsiologiyasi; 2) axloq sotsiologiyasi; 3) yuridik sotsiologiya; 4) iqtisodiy sotsiologiya; 5) lingvistik sotsiologiya; 6) estetik sotsiologiya.

Umumiy sotsiologiya umumiy biologiya, kabi nazariy sintezni amalga oshiradi va nisbatan umumiyroq qonunlarni o'rnatadi. Bu struktura Kontning sotsiologiya fani tuzilmasini eslatadi. Bu esa, o'z navbatida fransuz sotsiologiyasida uzoq vaqt vorisiylikni kuzatish mumkin bo'lganligini isbotlaydi.

5. Dyurkgeym umumiy faktlarni ikkiga ajratadi – moddiy va nomoddiy. Moddiy sotsial faktlar, ya'ni me'moriy uslublar, texnologiya shakllari va huquqiy kodekslar bevosita kuzatilganligi sababli tushunish osonroqdir. Bizga ravshanki, qonun kabi narsalar shaxslar ustidan majburiydir.

Eng asosiysi, ular ustidan majburiy choralarini qo'llashda, bunday moddiy sotsial faktlar axloqiy kuchlarni ancha kengroq va ancha kuchliroq ifoda etadi. Bular nomoddiy sotsial faktlar.

Dyurkgeymning tadqiqotlarining asosiy qismi, va uning sotsiologiyasining «yuragida» nomoddiy sotsial faktlarni o'rganish yotadi. Dyurkgeym aytadiki, «ong bilan erishilgan hamma narsa ham ... eksternalizatsiya va materializatsiya emas»<sup>2</sup>. Hozirgi kunda sotsiologlar atayotgan normalar va qadriyatlar, umumiyroq qilib aytganda madaniyat, Dyurkgeym nazarda tutgan nomoddiy sotsial faktlarga juda yaxshi misol bo'la oladi. Lekin bu go'yo muammoga sabab bo'lmoqda: Norma va qadriyatlarga o'xshash nomoddiy sotsial

<sup>1</sup> Мопозцад Г.Е. Несопаз соцаиологическис. – М.: Гапазпаз, 2004. – С. 168.

<sup>2</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 79.

faktlar qanday qilib aktorlarga eksternal bo'lishi mumkin? Aktorlarning ongidan tashqari qaealarda topiladi? Agar ular aktorlarning ongida bo'lsa, ular eksternalga qaraganda internalmi?

Dyurkgeym shuni tan oldiki, nomoddiy sotsial faktlar muayyan darajada shaxslar ongida topilgan. Uning ishonchi shunda ediki, qachonki odamlar murakkab yo'lda muloqotga kirishsa, ularning o'zaro munosabatda "o'zingizning xatti-harakatingizda qonunga itoat eting" bo'ladi. Shaxslarga hanuzgacha nomoddiy sotsial faktlar zarur, ularning ma'lum bir shakl va mazmuni murakkab faoliyatda aniqlanadi, shaxslar tomonidan emas. Demak, Dyurkgeym "Sotsial narsalar faqat inson orqali amalga oshiriladi: ular inson faoliyatining mahsulidir", "jamiyat shaxslarning oddiygina yig'indisi emas", deya yoza olgan. Jamiyat faqat insoniyat mavjudligidan va ahamiyatsiz "ma'naviy" moddalardan tashkil topgan bo'lishiga qaramay, buni shaxslarga qaraganda o'zaro munosabatni o'rganish orqali tushunish mumkin. O'zaro munosabatlar, hattoki nomoddiyatlarni ham borliqda o'z darajalri mavjud. Bular "o'zaro aloqadorlik realizmi", deb ataladi<sup>1</sup>.

Dyurkgeym sotsial faktlarni ahamiyatiligini ko'rdi. Sotsiologlar odatda nomoddiy sotsial faktlarni tushunish uchun, diqqat markazida bo'lgan moddiy sotsial faktlarni o'rganishdan boshlashadi. Eng ahamiyatli aholi kattaligi va zichligi, aloqa kanallari, va uy-joy kelishuvlar kabi narsalardir. Dyurkgeym bunday asoslarni "morfologik" deb ataydi, bular uning "Ijtimoiy mehnat taqsimoti" deb atalgan birinchi kitobida muhim rol o'ynaydi. Boshqa daraja tarkibiy qismlariga morfologik komponentlarga (bino, odamlar va aloqa ularni liniyalari zichligi) aralashib ketgan komponentlar strukturasi va nomoddiy sotsial faktlardir (masalan, byurokratik).

Dyurkgeym o'z tadqiqotlari uchun ahamiyatli hisoblangan, to'rt guruhga bo'lingan – axloq, jamoaviy vijdon, jamoaviy vakolatlar va ijtimoiy oqimlar kabi nomoddiy sotsial faktlarni ajratadi.

Dyurkgeym axloq so'ziga atroflicha yondashgan sotsiolog edi. Tadqiqotlarini o'rganar ekanmiz, axloq jamiyatning intizom kabi asosi ekanligini bizga eslatadi. Dyurkgeymning nuqtaiy nazari bo'yicha axloqning ikki jixati mavjud. Birinchisi, axloq ijtimoiy dalil, boshqacha qilib aytganda, axloqni emperik o'rgansa bo'ladi, va boshqa sotsial faktlar bilan izohlanadi, deb ishonch hosil qildi. Axloq

<sup>1</sup> Qarag: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 79-80.

nafaqat falsafiy balki empirik hodisa sifatida o'rganish kerak degan ma'noni anglatadi. Bu haqiqatdan ham to'g'ri, chunki axloq ijtimoiy tizim bilan uzviy bog'liq, biron-bir muayyan muassasa axloqini tushunish uchun, avvalambor o'sha muassasa qanday tuzilganligini, jamiyat tuzilishida umumiy o'rni, institutsional majburiyatlarining ijtimoiy bog'liqligi, uning hozirgi shaklini va hokazolarni birinchi o'rganishga to'g'ri keladi.

Ikkinchidan, Dyurkgeym axloq sotsiologi edi, chunki uning tadqiqotlar zamonaviy jamiyatning axloq "salomatligi" bilan aloqador. Dyurkgeym sotsiologiyasi axloqiy masalalar bilan bo'g'liqligini ko'rishimiz mumkin. Dyurkgeymning izdoshlaridan biri uning hayoti haqida maqola yozgan edi va o'z maqolasida shunday deydi "agar biz axloqni obekt sifatida qaramas ekanmiz biz, uning asarlarini tushunimizda qiyinchilik tug'ilishi mumkin"<sup>1</sup>.

Dyurkgeym dunyoqarashini tushunish uchun ikkinchi jihat ko'proq izohlash kerak bo'ladi. Dyurkgeym jamiyat xavf ostida qolishi yoki axloqsiz bo'lishini nazarda tutmagan. Dyurkgeym uchun axloq jamiyat bilan chambarchas bog'liq edi. Shunday ekan, jamiyat axloqsiz bo'lmaydi, agar jamoa qiziqishlari jamiyatga nisbatan pasaysa, axloqiy kuchini yo'qotishi aniq. Dyurkgeym jamiyat uchun kuchli umumiy axloq kerak, deb hisoblagan. Dyurkgeym axloq bilan bog'liq "erkinlik"ni izohlashga ham qiziqqan. Dyurkgeym qarashi bo'yicha odamlar patologik axloqiy munosabatlar xavfida. Bunday axloqiy munosabatlar Dyurkgeym uchun muhim edi, chunki ularsiz shaxs cheksiz ehtirosi tomonidan qulga aylanishi mumkin. Odamlar o'z ehtirosini qondirish uchun majbur bo'ladi, lekin har qanday yangi tug'ilgan va qondirilgan ehtiyoj ko'p va ko'prog'iga yetaklab boradi. Dyurkgeym fikri bo'yicha har qanday mavjudot "ko'prog'ini" xohlaydi. Albatta ular intihosiz va hammasini qondirish ilojsizdir. Dyurkgeym shaxsga axloq va tashqaridan nazorat kerak degan fikriga ega bo'ldi. Har bir insoning ta'riflab bo'lmaydigan istak-xohishlari Dyurkgeym sotsiologiyasi markazidadir.

Dyurkgeym umumiy axloqqa bo'lgan qiziqishini turli xil yo'llar va tushunchalar bilan izohlashga harakat qilgan. Uning ilk muvaffaqiyatlaridan biri jamoaviy vijdon g'oyasini rivojlantirganidir. Dyurkgeym jamoaviy vijdonni quyidagicha izohlaydi: E'tiqod va his-

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. - P. 80.

tuyg'ular bir xil jamiyat fuqarolari uchun o'ziga xos aniq bir tizimni belgilab beradi. Biz buni jamoaviy yoki umumiy vijdoniylik deb atashimiz mumkin<sup>1</sup>.

Bir necha fikrlar ushbu ta'rifni ta'kidlamoqda. Birinchidan ishaxs e'tiqodi va his-tuyg'ulari yaxlitligi haqida yozganida jamiyatda paydo bo'lgan jamoaviy vijdon haqida o'ylagan. Ikkinchidan, Dyurkgeym jamoaviy vijdoni mustaqil va boshqa sotsial faktlar bilan aniq tasvirlagan.

Jamoaviy vijdon, normalar va e'tiqodlar umumiy tuzilishini nazarda tutadi. Shuning uchun bu keng qamrovli tushuncha. Dyurkgeym jamoaviy vijdon tushunchasi zamonaviy jamiyatga qaraganda "ibtidoiy" jamiyatda ancha kuchliroq bo'lganini ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

6. Dyurkgeymning deyarli butun ijodida aks etgan asosiy ijtimoiy g'oya ijtimoiy birdamlik g'oyasi hisoblanadi. Ushbu muammo Dyurkgeym tomonidan "Ijtimoiy mehnat taqsimoti" asarida o'rganib chiqilgan (1893)<sup>3</sup>.

Bu mavzu O.Kontdan boshlab doimiy ravishda sotsiologiyaning diqqat markazida bo'lgan. Dyurkgeym mehnat taqsimotini "umumbiologik fakt" deb hisoblagan sotsiolog-organitsistlar an'anasiga tayangan. E.Dyurkgeym ham mehnat taqsimoti - bu tabiat qonuni degan fikrga qo'shilgan, biroq u bu jarayonni umuman emas, balki shaxs va jamiyatning o'zaro nisbati nuqtai nazaridan o'rgangan. U mehnat taqsimoti shaxs manfaatlari talablariga javob beradimi, u axloq doirasidami? Eng asosiysi, mehnat taqsimoti jamiyatdagi insonlar birdamligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Ushbu muammoni izohlashda Dyurkgeym jamiyatning XIX asr sotsiologiyasi uchun xos bo'lgan ikki turi g'oyasiga asoslanadi. Va shundan kelib chiqqan holda, u ijtimoiy birdamlikning ikki turini ajratib ko'rsatadi. Birinchidan, an'anaviy, arxaiik jamiyat uchun odatiy bo'lgan va jamiyat strukturasi rivojlanmaganligi va o'xshashligiga asoslangan mexanik birdamlik. Bu kabi jamiyatda individ o'ziga o'zi tegishli bo'lmaydi, jamoaviy tafakkur esa individual o'ziga xos xususiyatlarni deyarli to'liq yopib ketadi, ya'ni shaxsiy "Men" - "Men bu faqat "Biz". Ma'lumki, ijtimoiy majburlash

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. - P. 81.

<sup>2</sup> O'sha joyda. - B. 80-81.

<sup>3</sup> Qiziq. Дюргейм Г. О разделение общественного труда. Метод социологии. - М., 1991.

bunda jamoaviy o'zini tutish me'yorlaridan zarracha og'ish uchun ham qat'iy jazo ko'rinishida ifodalangan.

Ikkinchidan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan va o'xshashlikka emas, balki individlarning o'rtasidagi farqqa asoslangan organik birdamlik. Shuningdek, agar mexanik birdamlik individning jamoa tomonidan yutib yuborilishini talab etsa, organik birdamlik, aksincha, shaxsning rivojlanishini taqozo qiladi. Aynan mehnat taqsimoti tufayli individ o'zining, avvallari qat'iy jazo me'yorlari bilan tutib turilgan jamiyatdagi o'rmini anglab yetadi. E.Dyurkgeym ta'kidlab o'tganidek, "chunki mehnat taqsimoti ijtimoiy birdamlikning muhim omili bo'lib qolsa, bunda u (mehnat taqsimoti) axloqiy tartibning asosiga aylanib qoladi"<sup>1</sup>. Shu sababli mexanik birdamlikdan organik birdamlikka o'tishni u nafaqat tarixiy qonun deb hisoblaydi, balki taraqqiyotning asosiy ko'rsatkichi sifatida ham ifodalaydi.

Mehnat taqsimoti o'zgarishi jamiyat tuzilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Dyurkgeym ijtimoiy hamfikirlik vujudga keltiradigan, boshqacha qilib aytganda, o'zlarini birdam bo'ladigan va uning a'zolarini o'zlarini butun yaxlitlikning bir qismi, deb hisoblashga o'zgartirilgan jamiyatga ko'proq qiziqqan.

Chunki ko'p insonlar generalistlar bo'lganligi sababli jamiyat yagona bo'lgan mexanik birdamlik bilan karakterlanadi. Odamlar orasidagi aloqa bu ular bajaradigan ijtimoiy vazifalar bir xilligi ularning bir xil mashg'ulotlar bilan band bo'lishidadir. Organik birdamlik esa aksincha, odamlar orasidagi turlicha mashg'ulot va javobgarliklarning bahamjihatlikda bo'lishidir.

Chunki zamonaviy jamiyatda odamlar juda ham tor miqdordagi vazifalarni bajaradi. Ularga boshqa insonlar tirik qolish uchun zarur. Ibtidoiy jamoa tizimida oilada o'zlariga ishongan g'ayratli o'zlari ovchilik va boshqa ehtiyojlari uchun o'z kuchlari bilan harakat qiladigan ota-onalar tomonidan boshqarilar edi, lekin hozirgi zamonaviy jamiyatdagi oilalarga esa oziq-ovqat sotuvchisi, nonvoy, avtomexanik, o'qituvchi, politsiyachi va boshqa shunga o'xshash yordamchi kuchlar kerak. Bu odamlar, shuningdek, hayotda yashashlari uchun boshqalar ta'minlaydigan, bir qancha turdagi xizmatlar turlariga muhtojdirlar. Dyurkgeymning fikri bo'yicha

<sup>1</sup> Dyurkgeym Э. О разделении общественного труда. - М.: Канон, 1996. - С. 46.

"zamonaviy jamiyat bu odamlarning mutaxassisliklari tomonidan jamlanishi va ularning boshqalar xizmatlari uchun zarurligidir". Bu mutaxassisliklar nafaqat bu turdagi odamlarni balki guruh va institutlarni ham o'z ichiga oladi<sup>1</sup>.

Aniq tushunish uchun Dyurkgeymning mexanik va organik birdamlikni jamiyatlarning muayyan turlariga muvofiq ravishda qayd etilgan umumiy sxemasidan foydalanish mumkin<sup>2</sup>:

	<b>Mexanik birdamlik</b>	<b>Organik birdamlik</b>
1) Morfologik (strukturaviy) asos	O'xshashliklarga asoslangan (nisbatan rivojlanmagan jamiyatlarda ustunlikka ega) Bo'g'imli tur (avval urug'chilik, so'ngra esa hududiy asosda) Zaif o'zaro bog'liqlik (nisbatan zaif sotsial aloqalar) Aholining nisbatan kam miqdori. Nisbatan past moddiy va ma'naviy zichlik	Bo'linishga asoslangan (nisbatan rivojlangan jamiyatlarda ustunlikka ega) Tashkillashtirilgan tur (bozorlarning qo'shilishi va shaharlarning o'sishi) Yuqori darajadagi o'zaro bog'liqlik (nisbatan kuchli sotsial aloqalar) Aholining nisbatan ko'p miqdori Nisbatan yuqori moddiy va ma'naviy zichlik
2) me'yorlar turi (xuquqda aks etuvchi)	Repressiv sanksiya qoidalari Jinoiy xuquqning ustunligi	Restitutiv sanksiya qoidalari Kooperativ xuquqning ustunligi (fuqarolik, tijorat, protsessual, ma'muriy va konstitutsion)
3 a) jamoaviy ongning rasmiy belgilari	Katta hajm Yuqori sur'at Yuqori darajadagi aniqlik Guruh hukmronligi mutlaq	Kichik hajm Past sur'at Past darajadagi aniqlik Individual tashabbuskorlik va refleksiya uchun ulkan kenglik
3 b) jamoaviy ong tarkibi	Dindorlikning yuqori darajasi Transsendentlik (inson manfaatlaridan ustunlik va e'tirozsizlik) Jamiyat va uning yaxlitlik sifatidagi manfaatlariga oliy qadriyat sifatida qarash Aniqlik va mukammal tabiatga egalik	O'sib boruvchi dkiyoviylik Insonga yo'naltirilganlik (inson manfaatlariga aloqadorlik va muhokama uchun ochiqlik) Individ qadr-qimmat, imkoniyatlar tengligi, mehnat axloqi va ijtimoiy adolatga oliy qadriyat sifatida qarash Mavhumlik va umumiy tabiat

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. - P. 85.

<sup>2</sup> Qarang: Гофман А.Б. Социология Эммы Дюркгейма // Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. - М., 2008. - С. 327.

Birdamlikni eng oliy axloqiy prinsip, oliy universal qadriyat sifatida o'rganar ekan Dyurkgeym mehnat taqsimotini ham ma'naviy jihat, deb hisoblagan. Biroq organik birdamlik ustun bo'lgan jamiyat individualizmning gullab-yashnashiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, shaxs hurmat qilinadigan jamiyatda tabaqalarga ajralgan individlarning o'zaro tinch-totuv yashashini ta'minlash uchun umumiy qadriyatlar zarur va jamoaviy ongga yetarli darajada nufuz va yetarli darajada keng mazmun baxsh etish lozim. Biroq shunga qaramay, organik birdamlik ustun bo'lgan har qanday zamonaviy jamiyatning parchalanib ketish xavfi mavjud. Dyurkgeym, tabiiyki, ijtimoiy muammolar va nizolarning mavjudligini ko'rgan. Biroq u buni holatlarni oddiygina jamiyatning asosiy sinflari o'rtasidagi munosabatlarning yetarli darajada tartibga solinmaganligi sabab yuzaga kelgan me'yordan og'ish, deb hisoblagan<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan Dyurkgeym ijtimoiy birdamlikning yangi organlari sifatida professional korporatsiyalar yaratish g'oyasini rivojlantirgan. Uning fikriga ko'ra, ular sotsial funksiyalarning keng doirasini amalga oshirishlari zarur – sotsial funksiyalardan ma'naviy-madaniy funksiyalarga qadar, odamlar orasidagi munosabatlarni boshqaruvchi va shaxsning rivojlanishiga imkoniyat yaratuvchi yangi shakllarni ishlab chiqish va hayotga joriy qilish zarur.

Sotsial taraqqiyot masalasida hal etuvchi o'rinni Dyurkgeym ideallar va diniy e'tiqodlarga ("jamoaviy tasavvurlarga"), ularda axloq va dinning asosiy tarkibiy qismlarini ko'rgan holda ajratadi. Ahamiyatli darajada ijtimoiy-falsafiy tabiatga ega bo'lgan ushbu muammolarga uning oxirgi "Diniy hayotning elementar shakllari. Avstraliyada totemik tizim" (1912) asari bag'ishlangan<sup>2</sup>. Ushbu asarda u dinning tuzilmasi va sotsial funksiyalar haqidagi qator qiziqarli g'oyalar keltirilgan. Dyurkgeymning anglash jarayonining ijtimoiy tabiatini aniqlashga qilgan urinishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu bilan u anglash sotsiologiyasining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

"Jamoaviy ong" haqida ijtimoiy hayot va ijtimoiy rivojlanishning manbai va tartibga soluvchisi haqidagi izchil fikrlarni keltirar ekan, Dyurkgeym uni falsafiy toifalarning kelib chiqishiga ham tadbir

<sup>1</sup> Батуркина Т.В., Назва С.В. История социологии. Учебное пособие. – Кемерово, 2002. – С. 67.

<sup>2</sup> Батуркин В.А., Сахаров Ю.А. История западной социологии. – СПб, 2002. – С. 204-207.

qiladi. Uning fikricha, mantiqiy toifalar, ya'ni "jamoaviy tasavvurlar" jamoaning holatini yetkazib beradi, va ularning ommabopligi va barqarorligi aynan shundan iborat. Jamoaviy tasavvurlarni shakllantirish uchun ko'plab turli aql egalari o'z g'oyasini va hissiyotlarini birlashtirdilar, tahlil qildilar va o'zaro mutanosiblikka keltirdilar, "ko'plab avlodlar ularda o'z tajribalari va bilimlarini" mujassamlashtirdilar. Jamoaviy tasavvurlarda Dyurkgeym fikriga ko'ra, individning aqliy hayotidan ko'ra boyroq va murakkabroq bo'lgan, o'ziga xos aqliy hayot mujassamlashtirilgan. Jamoaviy tasavvurlar nuqtai nazaridan u dinning, diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi va vazifa bajarishini o'rganadi.

Dyurkgeym din mohiyatiga ko'ra ijtimoiy narsadir, deb yozadi. Diniy tasavvurlar – bu jamoaviy voqyeliklarni ifodalovchi jamoaviy tasavvurlardir, marosimlar esa – bu birgalikda to'plangan guruhlar qa'rida yuzaga kelgan va ushbu guruhlarining muayyan aqliy holatlarini qo'llab-quvvatlash yoki yangilashga qaratilgan axloq usullaridir. Dinni uning sotsial funksiyalari nuqtai nazaridan baholar ekan Dyurkgeym dinni mantiqiy-tushunchaga oid elementlarga yoki oddiygina g'oyalar majmuiga bog'lashga qarshi chiqadi. Uning ta'kilashicha, "dinning haqiqiy vazifasi bizni o'ylashga majbur qilish, bizning tafakkurimizni boyitishdan iborat emas, balki bizni harakatga undash, bizga yashashga yordam berishdan iborat... Har qanday dinning birinchi qoidasi – bu e'tiqod yordamida xalos bo'lishga e'tiqod qilishdir"<sup>1</sup>. Dyurkgeym fikriga ko'ra, bu cherkov deb nomlangan yagona diniy jamiyatga mansub bo'lgan, va shu e'tiqodga ishonganlarni birlashtiruvchi e'tiqodlar va marosimlarning birdam tizimidir. Dinning ijtimoiy tabiati va vazifalari haqidagi fikrni rivojlantirar ekan u dinning mantiqiy asoslarining xatoligini yoki uning haqiqiy dalillarga mos emasligini ko'rsatgan holda undan ajralish mumkin emas, deb hisoblagan holda diniy e'tiqodlar mohiyatining to'g'riligi haqidagi masalani inkor qiladi. Dyurkgeym u yoki bu e'tiqodlar yoki diniy tasavvurlar qanchalik tuturiqsiz tuyulmasin, ular chuqur ijtimoiy ildizlarga ega va ularni birinchi navbatda sotsiolog o'rganishi zarurligidan kelib chiqadi.

Avval ta'kidlab o'tilganidek, Dyurkgeym ijtimoiy hayotning asosiy kuchi ijtimoiy guruhning birdamligini ta'minlovchi jamoaviy

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 97-101.

tasavvurlardir, deb hisoblaydi. Va bunda Dyurkgeym turli ko'rinishdagi qadriyatlar va ideallarning tushunilishi bilan bog'liq bo'lgan qiziq burilish yasaydi. U jamiyat ularsiz rivojlanishi mumkin bo'lmagan ijtimoiy qadriyatlar va ideallarga bo'lgan har qanday munosabat – bu diniy munosabatlarning mohiyatidir, chunki bu e'tiqod masalasidir.

Klerikalizm (mamlakatning siyosiy va madaniy hayotida cherkov ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan reaksiya oqim)ga qarshi kurashar ekan, ayniqsa ta'lim sohasida, Dyurkgeym bir vaqtning o'zida fan va din o'rtasida murosasiz qarama-qarshiliklar mavjud emas, deb hisoblagan. Fan, uning fikriga ko'ra, dindan faqatgina dunyoni izohlash vazifasini tortib oladi, biroq e'tiqod vazifasini bajarishni o'z zimmasiga ola olmaydi, chunki "e'tiqod – bu avvalambor harakatga intilishdir". Fan esa, o'z tafakkurida har qancha chuqurlashib ketmasin, doimo harakatdan uzoqda qoladi. Bundan tashqari, u doimo ilgariga juda sekin siljiydi va hеч qachon oxiriga yetkazilmaydi, hayot esa kutib tura olmaydi. Shu sababli, Dyurkgeymning fikriga ko'ra, nazariyalar, ayniqsa hayotga ko'maklashishga qaratilgan, harakat qilishga undovchi ijtimoiy hayot muammolariga tegishli bo'lgan nazariyalar fandan oshib o'tishga va vaqtdan avval uni to'ldirishga majbur. Tabiiyki, ushbu nazariyalarda e'tiqod o'rni, demak, dinning o'rni ham saqlanib qoladi. Ko'plab sotsial nazariyalarda biz aynan shu jihatlarga duch kelamiz.

7. Ijtimoiy birdamlik muammosi E.Dyurkgeymning nazariyani aniq-sotsiologik tashkil etishni organik ravishda birlashtiruvchi "O'z joniga qasd qilish"<sup>1</sup> kabi yirik asarining markazida turadi. Dyurkgeym nima uchun tadqiqot sifatida aynan o'z joniga qasd qilish muammosini tanladi?

Birinchidan, ham nazariy, ham amaliy jihatdan ushbu muammo uning ijtimoiy birdamlik g'oyasini ochib berishga xizmat qildi, aniqrog'i, o'z joniga qasd qilish kabi ijtimoiy hodisa asosida jamiyatning birdamligi va o'zaro jipslashganligi muammosi tekshirildi. Ikkinchidan, hodisaning o'zini u yoki bu darajada miqdoriy ifodalash mumkin. Uchinchidan, ob'ektiv ma'lumotlardan foydalanish imkonini beruvchi rasmiy ishonchli statistika mavjud.

<sup>1</sup> Qarang: Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. Самостоятельное и Западноевропейская социология XIX – начала XX веков: Труды. – М., 1996.

Ushbu o'rinda sotsiologiyaga statistik metodlarni olib kirishda sotsial ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik usullari yaratuvchisi Adolf Kettle (1796-1874) ekanligi eslatib o'tamiz. O'z g'oyalarini u o'zining "Sotsial fizika yoki inson qobiliyatlarining rivoji haqidagi tadqiqotlar tajribasi" asari yozgan qilgan (1835). Kettle jamiyat haqidagi, faqatgina ma'lumotlar to'plash va ularni miqdoriy jihatdan tahlil qilish bilan cheklanmasdan, balki matematik ehtimollar tahlili yordamida statistik qonuniyatlarni aniqlash bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan yangi fanni yaratish g'oyasini ilgari surdi.

Shunday qilib, Kettle jinoyatlar turlari va jinoyatchining jinsi, kelib chiqishi, yoshi, yashash manzili o'rtasidagi barqaror miqdoriy o'zaro bog'liqliklarni ko'rsatuvchi statistik dalillar asosida, jinoyatlarning muayyan miqdori va muayyan turlari tabiat qonunining zarurati sifatida jamiyatda mavjud bo'ladi, degan xulosaga keldi. Ketlning 1831-yildagi ma'ruzasida yangragan "jamiyat jinoyatlarni tayyorlaydi, jinoyatchi esa faqatgina uning quolidir", degan fikri aforizmga aylangan. Ketlning fikriga ko'ra, jamiyatni umuman ta'riflash muayyan bir shaxsning emas, balki "o'rtacha insonning" xususiyatlari yordamida amalga oshiriladi. "O'rtacha inson" birligi ushbu millatning asosiy jismoniy va axloqiy xususiyatlarining o'rtacha statistik ko'rsatkichini anglatadi. Kettle metodikasi va u tomonidan to'plangan statistik ma'lumotlar ilmiy dunyoda juda yuqori baholanadi. Ketlning asari jamiyathunoslikda deterministik qarashlarning mustahkamlanishiga imkon yaratdi va statistik va aniq sotsiologik tadqiqot usullarining rivojlanishini barqarorlashtirdi. Shunday qilib, Dyurkgeymning "O'z joniga qasd qilish" asari muayyan nazariy-metodologik va empirik zaminga ega bo'lgan.

O'z joniga qasd qilish tushunchasini tahlil qilar ekan Dyurkgeym quyidagi ta'rifni keltiradi: "o'z joniga qasd qilish deb, jabrlanuvchi uni kutayotgan natijalar haqida xabardor bo'lgan holatda uning o'zi tomonidan amalga oshirilgan ijobiy yoki salbiy harakatning bevosita yoki bilvosita natijasi bo'lgan har bir o'lim holatiga aytiladi". Statistik ma'lumotlar asosida u, o'z joniga qasd qilishlar egri chizig'i tasodif emas, balki ma'lum qonuniyatga bo'ysunadi, degan xulosaga keladi. U quyidagicha yozgan: "Muayyan jamiyatni tashkil etuvchi individlar tarkibi yildan yilga o'zgarib boradi, o'z joniga qasd qilishlar soni esa,

jamiyatning o'zi o'zgarmagunga qadar o'zgarmsdan qolaveradi"<sup>1</sup>. Dyurkgeym yetarli darajada ishonchli ravishda o'z joniga qasd qilish dalillarini psixologik, biologik, geografik izohlarining bir tomonlama va to'liq emasligini ko'rsatib berdi va ularni jamiyat tuzilmasidagi o'zgarishlar va ijtimoiy sharoitlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda o'rganadi, jumladan:

- a) oilaviy;
- b) diniy;
- d) milliy va h.k.

O'z joniga qasd qilishlarning shaxsiy tipologiyasini Dyurkgeym individual sabablardan keltirib chiqarmagan, chunki u ular shunchalik turli-tuman va ko'pincha noma'lumki, ular sotsiologik qiymatga ega emas deb hisoblagan. Shu sababli u jamiyat tafakkurining individ va ijtimoiy guruhning o'zaro munosabatlari tabiatini ifodalovchi o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan.

U o'z joniga qasd qilishning to'rt turini ajratib ko'rsatgan: egoistik, altruistik, anomik, fatalistik.

O'z joniga qasd qilishning har bir turining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat va ular jamiyatning qanday ijtimoiy jarayonlari va holatlariga muvofiq keladi?

Dyurkgeymning fikriga ko'ra o'z joniga qasd qilishning birinchi turi individ va guruh o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarning uzilishi bilan bog'liq. Dyurkgeym insonlar o'zlari mansub bo'lgan guruh bilan birga bo'lsa va ular bilan mehr orqali bog'langan bo'lsa, ular umumiy maqsadga erishish yo'lida shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga harakat qiladilar va o'ta qit'iyat bilan yashash uchun harakat qiladilar, deb hisoblaydilar. Bundan tashqari, ular oldida turgan maqsadlarni aniq anglash ularni shaxsiy dardlari haqida unutishga majbur qiladi. Uning ta'kidlashicha, jamoada barcha va har bir kishi o'rtasida doimiy ravishda g'oyalar va hissiyotlar almashinuvi sodir bo'ladi, va shu sababli individ o'zining birgina kuchiga tayanib qolmaydi, balki jamoaviy energiyaning ishtirokchisiga aylanadi va o'zining zaif va yomon ahvolga tushgan holatlarida aynan unda madad topadi.

Shu nuqtai nazardan, individning o'zi mansub bo'lgan guruh bilan ichki bog'liqliklari qanchalik zaiflashib borsa, u shunchalik unga bog'liq bo'lmaydi va o'z shaxsiy manfaatlari va mulohazalariga quloq

<sup>1</sup> Michele Dillon. *Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century*. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014. - P. 99.

tuta boshlaydi. Va buning oqibati sifatida Dyurkgeym egoistik o'z joniga qasd qilishga ta'rif beradi: "Agar individning individual "Men"i o'zini ijtimoiy "Men"ga qarshi qo'ygan holatini egoistik, deb atashga kelishsak, deb yozadi muallif, u holda biz o'ta individuallashish natijasida yuzaga keluvchi o'z joniga qasd qilishning shaxsiy turini egoistlaracha, deb nomlashimiz mumkin"<sup>1</sup>. O'z fikrini davom ettirarkan, u o'ta yuqori individualizm nafaqat o'z joniga qasd qilishga sabab bo'luvchi sabablar faoliyatiga imkon yaratadi, balki o'zi ham shu kabi sabablardan biriga aylanishi mumkin deb ta'kidlaydi. U (individualizm) nafaqat insonlarni o'z joniga qasd qilishga intilishdan to'xtatib turuvchi to'siqlarni yo'q qiladi, balki uning o'zi ushbu intilishni yuzaga keltiradi va o'zida uning izlarini tutib turuvchi o'z joniga qasd qilishlarning maxsus turlarini keltirib chiqaradi. Bu bilan, Dyurkgeymga ko'ra, "biz unga bergan "egoistlaracha o'z joniga qasd qilish" nomi oqlanadi". Insonlar hayotini barqarorlashtirishda jamiyatning o'rnini ta'kidlab o'tar ekan muallif to'g'ridan to'g'ri, alohida individlar butun jamiyat hayoti bilan shunchalik bog'liqlik, oxirgisi ularga yuqtirmasdan turib kasal bo'la olmaydi, deb yozadi. Jamiyat dardlari, Dyurkgeymga ko'ra, muqarrar ravishda uning a'zolariga ham o'tadi. Bundan tashqari, jamiyat u tomonidan biz o'z hayotimizning eng qimmatli onlarini taqdim qilgan, va shu sababli undan ajralganda biz o'z faoliyatimiz ma'nosini yo'qotishimiz mumkin bo'lgan maqsad demakdir, deb ta'kidlab o'tilgan. Shunday qilib, individning barcha umidsizliklari jamiyat tushib qolgan parchalanish holatini ifodalaydi.

O'z joniga qasd qilishning ushbu turi haqidagi mulohazalariga yakun yasar ekan Dyurkgeym, egoistik yordamchi omil emas, balki zamin yaratuvchi sabab demakdir, degan xulosaga keladi. Insonni hayot bilan bog'lab turuvchi rishtalar uzilsa, bu faqatgina uning jamiyat bilan aloqalari zaiflashgani sababli yuzaga keladi. O'z joniga qasd qilishning bevosita va hal etuvchi sababi bo'lib ko'ringan shaxsiy hayot dalillariga kelsak, Dyurkgeymning fikriga ko'ra ular faqatgina tasodifiy deb tan olinishi mumkin. Chunki uning fikriga ko'ra, agar inson hayot vaziyatlari zarbalari ostida osonlikcha egilsa, bu u mansub bo'lgan jamiyat undan o'z joniga qasd qilishga tayyor

<sup>1</sup> Гофман А.Е. *Семь лекций по истории социологии: Учебное пособие для вузов*. - 5-е изд. - М.: Книжный дом «Университет», 2001. Лекция № 6.

bo'lgan o'lja tayyorlagini uchungina yuz beradi. Uning ushbu muammoga yo'naltirilgan tafakkurining mantig'i shundan iborat.

Altruistik o'z joniga qasd qilish Dyurkgeymda egoistikning teskari tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, agar o'ta yuqori darajadagi individualizm insonning o'z joniga qasd qilishiga olib kelsa, yetarli darajada rivojlanmagan individuallik ham aynan shu oqibatlariga olib kelishi mumkin. Yoki, boshqa so'zlar bilan aytganda, inson jamiyatdan ajralib qolsa, unda o'z joniga qasd qilish haqidagi fikr tez shakllanadi; jamiyat uning individualligini to'liq ravishda yutib yuborgan holatlarda ham aynan shu hodisa yuz beradi.

Dyurkgeymning izohlashicha, ushbu holatlarning barchasida inson o'zi hoxlagani uchun o'z jonidan kechmaydi, balki u shunga majbur bo'lganligi sababli shu ishni amalga oshiradi. Agar inson o'z burchini bajarishdan bosh tortsa, uni sharmandalik va ko'pincha diniy jazo kutadi. Agar jamiyat o'z joniga qasd qilishga majbur qila olsa, ko'rinib turibdiki, ushbu muhitda individual shaxs juda past baholanadi.

Boshqa bir jihat ham ma'lumki, individ jamoaviy hayotda bu kabi ahamiyatsiz o'ringa ega bo'lishi uchun uning shaxsi o'zi mansub bo'lgan guruh tomonidan to'liq yutib yuborilishi zarur. Vaholanki Dyurkgeym fikriga ko'ra guruh juda jipslashgan bo'lishi lozim, ya'ni bunda o'z joniga qasd qilishga sabab individualizmning yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Dyurkgeymning yozishicha: "Agar biz insonning "Men"i faqatgina o'z shaxsiy hayoti bilan yashasa va faqatgina o'z irodasiga bo'ysunsa, "altruizm" so'zi esa teskari holatni aniq ifodalaydi, ya'ni "Men" insonning o'ziga tegishli bo'lmaydi... va uning faoliyati markazi uning tub mohiyatidan tashqarida, individ mansub bo'lgan guruh ichida mavjud bo'ladi. shu sababli o'ta yuqori darajadagi altruizm natijasida yuzaga keladigan o'z joniga qasd qilishni biz altruistik deb ataymiz"<sup>1</sup>.

Xususan, Dyurkgeym izoh keltiradi: O'z joniga qasd qilishning ushbu turi uchun bu harakat burch yuzasidan amalga oshirilishi xos ekan, biz buni atamashunoslik jihatidan aks ettirishimiz lozim va biz uni o'z joniga qasd qilishning altruistik turi, deb ataymiz.

Bu juda muhim, chunki muallif ta'kidlab o'tganidek, har bir altruistik o'z joniga qasd qilish majburiy hisoblanmaydi. O'z joniga

<sup>1</sup> Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии. Учебное пособие для вузов. – 5-е изд. – М.: Книжный дом «Университет», 2001. – Ленин № 6.

qasd qilishlarning jamiyat qo'li yuqori darajada sezilmaydigan qatori mavjud va shu sababli o'z joniga qasd qilish majburiy tabiatga ega bo'lmaydi (u ixtiyoriy tabiatga ega bo'ladi). Umuman olganda, Dyurkgeym ta'kidlashicha, altruistik o'z joniga qasd qilish hukmronlik qilgan yerda inson doimo o'z hayotini qurbon qilishga tayyor turadi, biroq u, shuningdek, o'zining va boshqa kishilarning hayotini ham past baholaydi.

Va nihoyat, o'z joniga qasd qilishga anomiya, ijtimoiy tartibsizliklar sabab bo'ladi, buning natijasida odamlar odatiy turmush tarzini yo'qotadilar va yangi ijtimoiy sharoitlarga moslasha olmaydilar. Bu ayniqsa, inqirozlar va ijtimoiy to'ntarishlar natijasi qadriyatlarining shakllanib bo'lgan bosqichlari buzilgan davrlarga tegishli: ayrim kishilar birdaniga yuqori mansablarga ko'tarilib ketadilar, boshqalari esa o'z ijtimoiy mavqeyidan ayriladi, bu esa o'z navbatida umuman jamiyatning beqarorligiga va o'z joniga qasd qilishlar sonining ko'payishiga olib keladi<sup>1</sup>.

Fatalistik o'z joniga qasd qilish esa individning jamiyat tomonidan o'ta darajada nazorat qilinishi tufayli vujudga keladi. Mazkur to'rtinchi tur anomik turning simmetrik qarama-qarshiligi bo'lib, u qadar ko'p uchramaydi.

Dyurkgeym ta'kidlaganidek, ijtimoiy betartiblik davrida, - u xoh kasallik bilan bog'liq bo'lgan inqiroz tufayli yuzaga kelsin, yoki aksincha, yaxshi, biroq o'ta kutilmagan ijtimoiy o'zgarishlar natijasida sodir bo'lsin – jamiyat vaqtinchalik insonga tegishli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, va biz bunda o'z joniga qasd qilishning keskin egri chiziqlariga izoh topamiz. Vaholanki anomiya, Dyurkgeym fikriga ko'ra, bizning zamonaviy jamiyatlarimizda o'z joniga qasd qilishning boshqa barcha turlaridan farq qiluvchi izchil va o'ziga xos omili hisoblanadi. Dyurkgeymga ko'ra ularning farqi nimada? Egoistik o'z joniga qasd qilish insonlar hayotdan ma'no ko'rmaganligi sababli yuzaga keladi, altruistik o'z joniga qasd qilish – individ hayot ma'nosini o'zidan tashqarida ko'rishi bilan bog'liq bo'ladi, uchinchi (anomik) turi betartib, boshqarilmaydigan insoniy faoliyat va buning natijasida sodir bo'ladigan azoblar bilan belgilanadi. Shu bilan birga, o'z joniga qasd qilishning anomik va egoistik turlari o'rtasida qandaydir bog'liqlik mavjudligi ko'zga

<sup>1</sup> Qarang: Michele Dillin, Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014. – P. 102-105.

tashlanadi. Unisi ham bunisi ham o'z mohiyatiga ko'ra individning jamiyatdan begonalashib ketishi, yetarli darajada yaqin emasligi bilan belgilanadi, biroq "harakatsizlik sohasi", Dyurkgeym ta'kidlashicha bu holatlarda bir-biridan o'ta farq qiladi. O'z joniga qasd qilishning egoistik turida illat, ma'no va mazmundan mahrum bo'lgan jamoaviy faoliyatda namoyon bo'ladi. Anomik o'z joniga qasd qilishda esa aksincha, hal etuvchi o'rinda o'z yo'lida to'sib qoluvchi hych qanday omilga duch kelmagan individual omillar turadi. Shu sababli aytish mumkinki, o'z joniga qasd qilishning bu ikki turi, qator umumiy to'qnashuv nuqtalariga ega bo'lishlariga qaramasdan, bir biriga bog'liq emas. Vaholanki, Dyurkgeym fikriga ko'ra, egoistik va anomik o'z joniga qasd qilish o'z qurbonlarining ko'p qismini jamiyatning turli qatlamlari orasidan topadi. Birinchisi asosan ziyolilar orasida, aqliy mehnat sohasida mavjud bo'ladi, ikkinchisi esa asosan savdo-sodiq va sanoat soasida kuzatiladi.

Dyurkgeymning o'z joniga qasd qilish mavzusiga bag'ishlangan tadqiqoti ulkan ilmiy va amaliy aamiyatga ega. Bu muammo ijtimoiy hayotni sotsiologik anglashning umumiy tizimida eng asosiy muammolardan biriga aylanib qoldi. Keyingi tadqiqotlar Dyurkgeymning ko'plab xulosalarining to'g'riligini tasdiqladi. Masalan, erkaklarda o'z joniga qasd qilish holatlari ayollarga nisbatan ko'proq, shaharlarda esa qishloq joylaridagiga nisbatan yuqori; protestantlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish katoliklarga nisbatan yuqori. O'z joniga qasd qilish darajasi yolg'iz, beva va ajrashganlar o'rtasida turmush qurganlarga nisbatan yuqori, turmush qurganlar o'rtasida esa befarzandlar orasida yuqori.

Dyurkgeym statistik o'zaro bog'liqlik usulini jumladan, bilvosita ma'lumotlarning o'rnini aniqlashda muvaffaqiyatli qo'llagan. Biroq "ijtimoiy jipslashganlik" bevosita rasmiy statistikada aks ettirilmaydi. Bundan — uning bilvosita malumotlar asosida o'rganilishi kelib chiqadi: ajralishlar foizi, iqtisodiy va siyosiy inqirozlar va h.k.

Dyurkgeym o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni tahlil qilar ekan, o'z joniga qasd qilishlarning soni "taraqqiyot mohiyatidan emas, balki bizning davrimizda taraqqiyot amalga oshiriluvchi alohida sharoitlardan kelib chiqadi", deb yozgan. O'z joniga qasd qilishlarning oldini olish sifatida u individni har tomondan o'rab turuvchi gurularning ijtimoiy birdamligini mustahkamlash vazifasini qo'yadi. Biroq ushbu yangi ijtimoiy

mustahkamlovchi aloqalarni, ya'ni barcha a'zolarining birdamligiga imkon tug'diruvchi aloqalarni qaerdan izlash zarur? Shu nuqtai nazardan Dyurkgeym davlatga ham, cherkovga ham, oilaga ham tayanmaydi. Ijtimoiy birdamlikni, jamoaviylikni qayta tiklashning asosiy vositasini u professional uyushmalarni mustahkamlashda ko'radi va ularning zimmasiga avval aytib o'tganimizdek, "ehtiroslarni jilovlash", sinfiy nizolarni bartaraf qilish va adolatni belgilash vazifalarini yuklaydi. Dyurkgeym tomonidan qo'yilgan muammoning ushbu tomonini o'rganish jarayonida R.Aronning fikriga ko'ra, Dyurkgeym ta'limoti ayrim hollarda xotirada Kontning "Pozitiv siyosat tizimi" asarida insoniyat dinini yaratishga intilgan ilmiy yo'lining ikkinchi yarmini jonlantiradi, degan fikriga asoslanish mumkin.

R.Aronga ko'ra, ushbu ta'rif faqat qisman to'g'ri, chunki Dyurkgeymda uning ta'sirini kuchaytirish lozim, deb hisoblagan ijtimoiy shakl nafaqat individga o'zini erkin namoyon qilish imkonini beradi, balki ularning har birini sog'lom fikr qo'llashga va o'zining avtonomiyasini tasdiqlashga majbur qiladi. Dyurkgeym keyinchalik ta'kidlaganidek, oliy prinsipi shaxsni hurmat qilish va insonning mustaqilligidan iborat bo'lgan jamiyatni barqarorlashtirishni istaydi. Dyurkgeym g'oyasining markazida R.Aron oqilona, individualistik va liberal g'oya hozircha tarixiy rivojlanishning chegarasi kanligini isbotlashga urinishlarni aks ettirishini namoyon qiladi<sup>1</sup>.

Bu zamonaviy jamiyatlar tuzilmasiga muvofiq bo'lgan g'oya maktabi bo'lib, tan olinishi lozim, biroq bir vaqtning o'zida u jamiyatning parchalanishiga sabab bo'lishi mumkin. Dyurkgeymning asarlari va g'oyalari jahon va ayniqsa fransuz sotsiologiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. U tomonidan 1898-yilda tashkil etilgan "Sotsiologik yilnoma" jurnali atrofida jamlangan sotsiologlar Dyurkgeym tomonidan aytib o'tilgan holatlarni o'z o'qituvchilarining o'limidan so'ng ham rivojlantirib borganlar.

Xuddi shunday, J.Davi Dyurkgeymning xuquqning kelib chiqishiga tegishli ishlarini davom ettirdi, M.Moss esa (1872-1950) sotsiologiyaning etnografiya bilan yaqinlashtirilishi yo'nalishini davom ettirgan holda sotsiologiya va antropologiyaning nisbati aqidagi qator asarlarni chop etdi, shuningdek, ruhiyatiga ko'ra

<sup>1</sup> Арон Р. Этант развития социологической мысли. — М., 1993. — С. 396.

Dyurkgeymning avstraliya totemizmi tahliliga yaqin bo'lgan eskimoslar jamiyati haqida tadqiqotlar olib bordi.

L.Levi-Bryul (1857-1939), Dyurkgeymning "jamoaviy tasavvurlar" tushunchasidan kelib chiqqan holda o'zining "ibtidoiy tafakkur" nazariyasini yaratdi. M.Xalbvaks (1877-1945) Dyurkgeymning o'z joniga qasd qilish nazariyasini aniqlashtirdi, shuningdek uning g'oyalari ishchilar sinfi hayotiy darajasini o'rganishga tadbiiq qildi. Umuman olganda, Dyurkgeym qarashlariga sotsiologiyadagi mumtoz pozivitizm metodologiyasi va nazariyasini rivojlantirishning muayyan yakuni sifatida qarash mumkin.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. E.Dyurkgeym sotsiologiya fanining predmeti sifatida nimani olgan?
2. E.Dyurkgeym sotsiologik metodi qoidalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. «Sotsiologizm» tushunchasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
4. E.Dyurkgeym sotsiologiyasida sotsial birdamlik muammosining o'rtaga tashlanishining sababi nimada?
5. E.Dyurkgeymning axloq to'g'risidagi qarashlari nimalardan iborat?
6. E.Dyurkgeymning dinga bo'lgan munosabatini izohlang.
7. E.Dyurkgeym deviatsiyaning sabablarini nimalarda ko'rgan?
8. E.Dyurkgeymning ta'lim va tarbiyaga munosabatini izohlang.
9. E.Dyurkgeymning «O'z joniga qasd qilish» asarining mazmun-mohiyatini izohlang.
10. E.Dyurkgeym sotsiologik ijodining ahamiyati nimalardan iborat?

#### GLOSSARIY

**Аномия – аномия – anomie** – sotsiologiyaga ilk marotaba Dyurkgeym tomonidan kiritilgan. Sotsial me'yorlar endi individning xulq-atvorini belgilamaydigan vaziyat.

**Deviatsiya – девиация – deviance** – Dyurkgeymga ko'ra, anormal mehnat taqsimoti me'yoriy xulq-atvordan og'ishlarni namoyon etuvchi anomiyani keltirib chiqaradi.

**Individual ong – индивидуальное сознание – individual consciousness** – individning boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatlari xarakterini belgilab beruvchi o'ziga xos motiv, maqsad va manfaatlar yig'indisi.

**Jamoaviy ong – коллективное сознание – collective consciousness** – Dyurkgeymga ko'ra, ma'lum bir jamiyat a'zolari tomonidan umum qabul qilingan, individual ongga hal qiluvchi ta'sir o'tkazuvchi e'tiqod, va tasavvurlar yig'indisi.

**Механик birdamlik – механическая солидарность – mechanical solidarity** – Dyurkgeymga ko'ra, sotsial birdamlikning qarashlar, qadriyatlar mo'ljali bir xilligiga asoslangan turi; sodda mehnat taqsimoti va individualizm mavjud bo'lmagan an'anaviy jamiyatda ustuvor ahamiyat kasb etgan.

**Мехнат taqsimoti – разделение труда – division of labour** – Dyurkgeymga ko'ra, jamiyatlarni «ularning o'ziga bog'liq bo'lmagan» holda boshqaruvchi qonun, jamiyatdagi sotsial faktlar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari va qonuniyatlarini belgilovchi asosiy omil.

**Organik birdamlik – органическая солидарность – organic solidarity** – Dyurkgeymga ko'ra, mehnat taqsimotining yuqori darajasi, unda individual ong darajasi yuqori bo'lgan shaxslar farqlanadi, restitutiv huquq individ manfaatini himoya qiladi.

**Repressiv huquq – репрессивное право – repressive law** – Dyurkgeymga ko'ra, an'anaviy jamiyatga xos, o'ta qattiq jazo choralarini ko'zlovchi huquqiy tizim.

**Restitutiv huquq – реститутивное право – restitutive law** – Dyurkgeymga ko'ra, zamonaviy jamiyatga xos, shaxsning barcha huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi huquqiy tizim.

**Sotsial birdamlik – социальная солидарность – social solidarity** – mehnat taqsimotining ma'lum bir darajasiga ko'ra, shuningdek umumiy qadriyatlar asosida sotsial guruh vakillarning sotsial uyushqoqligi.

**Sotsial me'yor – социальная норма – social norm** – ijtimoiy xatti-harakatni umumiy boshqarib turuvchi qatori sifatida namoyon bo'luvchi qoida.

**Sotsial fakt – социальный факт – social fact** – Dyurkgeymga ko'ra, individdan mustaqil holda ob'ektiv mavjud bo'lgan va unga majburlovchi ta'sir ko'rsata oladigan o'ziga xos voqeyelik.

**Sotsiologizm – социологизм – sociologism** – Dyurkgeymning «sotsiallikni sotsiallik bilan» tushuntirishga asoslangan metodologik pozitsiyasi: insonlar ongidan tashqarida mavjud bo'lgan bir sotsial faktlar boshqa bir sotsial faktlarni keltirib chiqaradi.

## M. VEBER SOTSIOLOGIK TA'LIMOTI

### Reja:

1. Maks Vyeber hayoti va ijodi
2. Ideal tip tushunchasi
3. «Tushunuvchi» sotsiologiya va sotsial harakat tipologiyasi
4. Ratsionallik tamoyili va kapitalizm nazariyasi
5. Hukmronlik turlari
6. Din sotsiologiyasi
7. Veber ijodining ahamiyati

1. Maks Veber 1864-yil 21-aprelda Germaniyaning Erfurt shahrida o'rta cinfga xos oilada tug'ilgan. Ota-onasi o'rtasidagi muhim farq uning intellektual orientatsiyasi va psixologik ishlanmalariga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Uning otasi yurist bo'lib, kelib chiqishi jihatidan Vestfaliyalik savdogar va tijoratchilar oilasidan edi. Mazkur shaharda u keyinchalik hokimiyat lavozimiga saylangan. Maks 5 yoshligida uning oilasi Berlinga ko'chib o'tadi. Bu shahar uning hayotida muhim o'rin tutgan, chunki u keyinchalik bu yerda ijodiy intelligensiya vakillari – faylasuf, tarixchi, iqtisodchi, huquqshunoslar bilan tanishadi. Ular orasida Diltey, Mommzen, Treychke, Zibellar bo'lgan.

Siyosiy hokimiyat tarafdori bo'lgan to'ng'ich Veber hayot lazzatlaridan rohatlanuvchi kishilardan bo'lgan. Shuning uchun ham xotini bilan keskin farqlanib turardi. Maks Veberning onasi Ellen Fallenshteyn taqvodor bo'lgan. Ota-onasi o'rtasidagi chuqur tafovut oilaviy zo'riqishlarni keltirib chiqarardi, va ular Veberga katta ta'sir ko'rsatgan. Veberga farzand sifatida tanlov qabul qilishga to'g'ri keldi. Veber avvaliga, otasining yo'nalishini tanlagandek ko'rindi, lekin keyinchalik u onasining chizgan yo'lidan yurdi. Qanaday tanlov tanlamasin, bu Maksning ruhiyatiga yomon ta'sir qildi.

Veber 18 yoshida Geydelberg universitetining huquq fakultetiga o'qishga kiradi. Geydelberg universitetida huquq bilan birgalikda tarix, iqtisod, falsafa va dinshunoslik fanlarida saboq oladi, o'z intellektual salohiyatini namoyon etadi, lekin u ijtimoiy darajada rivojlanmaydi. Bu hol u otasining hayotiy yo'li tomon intilgani va otasini eski jamoasiga qo'shilganidan keyin tez o'zgardi. Norasmiy

guruhning ramziy belgisi bo'lgan chandiqlarni o'z tanasida aks ettirdi. Veber nafaqat hayot yo'lida, balki huquq sohasida kar'era qilishda ham o'z otasiga o'xshadi.

Uch semestrдан keyin Veber harbiy xizmat tufayli Geydelbergni tark etadi. Strasburgda, keyinchalik imperiya armiyasida xizmat o'taydi va bu bilan doim fahrlangan. 1884-yilda Berlinga otanasining uyiga qaytadi. Avvaliga Berlindagi, keyinchalik esa Gettingen universitetlarida o'qiydi hamda PhD darajasini olish uchun tadqiqotlarini yakunladi, 1886-yilda huquqshunoslik diplomini oladi.

Veberning qiziqishlari butun umri davomida iqtisod, tarix va sotsiologiyaga tomon o'zgarib bordi. Berlindagi hayoti davomida Veber o'z otasiga iqtisodiy tomonlama to'be edi. Shu vaqtning o'zida u onasiga nisbatan iliq munosabatda bo'la boshladi, va otasiga nisbatan antipatiyasi yanada kuchaydi. U askarlik hayot kechira boshladi va o'z ishiga chuqur sho'ng'ib ketdi. Masalan, bir semestr davomida talaba sifatida uning ishchi ko'nikmalar, quyidagicha aks ettirildi: "U qattiq ishchi xulqini davom ettirmoqda, o'z hayotini soatlarigacha nazoratga olgan, kundalik dasturlar turli fanlar uchun aniq seksiyalarga bo'lingan, kechqurun o'z xonasida bir funt xom mol go'shti va to'rta qovurilgan tuxum bilan, o'zini kechki ovqat bilan ta'minlashgacha taqsimlangan"<sup>1</sup>. Shunday qilib, Veber, o'z onasining izidan borib, asketik va tartibli, zo'r ishchi, zamonaviy til bilan aytganda mehnatsevarga aylandi.

1887-1888-yillarda Veber sotsial siyosat ittifoqiga a'zo bo'ladi va uning talabi bilan Sharqiy Prussiyada dexqonlarning ahvolini aniqlash maqsadida sotsiologik so'rov o'tkazadi. 1889-yil Berlinda "O'rta asrlar savdo jamoalari tarixiga oid" nomli birinchi ilmiy ishini yoqlaydi. Italiyan va Ispan tillarini qunt bilan o'rganishga kirishadi. Berlin advokatlik korpusiga a'zo bo'ladi. 1891-yil esa "Rim agrar tarixi va uning davlat va xususiy huquq uchun ahamiyati" nomli ikkinchi dissertatsiya ishini yoqlash paytida professor Mommen bilan bo'lib o'tgan suhbat Veberni Berlin universitetining huquq fakultetiga kafedra professori sifatida taklif etilishiga sabab bo'ldi.

Veber 1893-yil Marianna Shnitger bilan turmush quradi. Keyinchalik Shotlandiya va Irlandiyaga safar qiladi. Frayburg universitetining professori sifatida "Milliy davlatchilik va iqtisodiy

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. - P. 114.

siyosat" mavzusida kurs ma'ruzalarini o'qiydi. 1896-yil Geydelberg universitetida kafedra mudiri etib tayinlanadi. Lekin 1897-yilda Veberning universitetdagi kar'erasi gullab-yashnayotganda, uning otasi ular o'rtasidagi kuchli argumentlar izidan borib, o'lim yoqasiga kelib qoldi. Tez kunda Veber kuchli ruhiy zo'riqish natijasida kelib chiqadigan kasallik belgilarini seza boshladi. Bir yil o'tib esa asablarining toliqishi tufayli pedagogik faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ladi. Veber bu davr mobaynida Italiya, Korsika va Shveysariyaga sayohat uyushtiradi. Uyqusizlik kasalidan qiynalib Veber 6-7 yilni jar yoqasida o'tkazadi. Garchi Veber keyinchalik Geydelberg universitetiga qaytgan bo'lsada, oldingi faoliyatiga qayta olmagan.

U 1903-yilda Verner Zombard bilan birgalikda "Sotsial fan va sotsial siyosat arxivi" nomli jurnal joriy etadi. 1904-yilda U AQShga boradi, u yerda sotsial fanlar kongressida nutq so'zlaydi. Shu yili "Protestant axloqi va kapitalizm ruhi" asarining birinchi qismini chop ettiradi. Bu asarida Veber onasining e'tiqodi rolini universitet darajasiga ko'tardi. Veber o'zining ko'p vaqtini diniy tadqiq etishga bag'ishlagan bo'lsada, o'zi shaxsan e'tiqodli emas edi<sup>1</sup>. 1905-yil esa ikkinchi qismi chop etiladi.

1907-yil Veber katta meros egasiga aylandi. Bu unga butun vaqtini ijodga bag'ishlash imkonini berdi. 1909-yilda "Ho'jalik va jamiyat" asarini yoza boshlaydi. Nemis sotsiologlari assotsiatsiyasi kengashida ishtirok etib, 1910-yildayoq irqchilik g'oyalarini rad etuvchi pozitsiyada ekanligini aniq bayon etadi. 1913-yilda Veberning "Tushunuvchi sotsiologiyaning ayrim kategoriyalari haqida" asari nashr etiladi.

1914-yil urush boshlanishi bilan Veber xizmatga ketadi. 1915-yilga qadar Geydelberg xududidagi hospitalarning nazoratini olib borib, 1916-1917-yillarda Bryussel, Vena, Budapeshtda bir qator davlat buyruqlarini bajaradi. U urushning kengayishiga qarshi bo'lsada, Germaniyaning dunyo siyosatida asosiy o'rin tutishi kerakligini ta'kidlab, mazkur maydonda uning eng katta dushmani sifatida Rossiyani ko'rsatadi.

Urush yillarida din sotsiologiyasiga oid ishlarini nashr etadi: «Dunyo dinlarining ho'jalik axloqi» (1915), «Din sotsiologiyasining bir necha boblari» (1916). 1919-yil Veber Myunxen Universiteti

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. - P. 115.

kafedra mudiri bo'ladi. Bu paytda davlat tuzumida o'zgarishlardan u xursand emas edi. Veber Respublikani hayrixohligi bilan qabul qilmagan. U Veymar konstitutsiyasini tuzish komissiyasi a'zosi bo'lgan. Olim "Xo'jalik va jamiyat" asarini yozishda davom etgan. Mazkur asar oxiriga yetkazilmagan.

Veber 1920-yil 14-iyun kuni Myunxenda vafot etadi. Uning rafiqasi Marianna Veber "Xo'jalik va jamiyat" asarini oltinining vafotidan so'ng chop ettirgan.

2. Veber talabaligida ham, ilk akademik ishini olamizmi, huquqshunoslikdami, uning ilk ka'erasida ham tarixga bo'lgan qiziqishi ustunlik qilgan. Veber sotsiologiyani yangi yo'nalishga aloqador yo'nalishiga o'tishi bilan uni tarixning yo'nalishi bilan aloqadorligini ochish uchun ishladi. Veber har bir soha zarurligini bilishiga qaramay uning qarashi sotsiologiyani o'z vazifasi tarixga kerakli xizmatni ta'minlash, deb hisoblagan, kerakli sifat bilan ta'minlash. Veberning ta'kidlashicha, sotsiologiya faqatgina "dastlabki, juda sodda vazifani bajaradi". Veber tarix va sotsiologiya o'rtasidagi farqni tushuntiradi: sotsiologiyada empirik jarayonlarning tip va universal yaxlitligi tushunchalarini ishlab chiqish ustida izlanadi. Bu uni madaniy ahamiyatga ega shaxslar, individual harakatlar, strukturalarni sababiy tahlil qilish va tushuntirishga yo'naltirilgan tarixdan farqlaydi. Bu aniq differensiyalashga qaramay, Veber o'zining ishlarida bularning ikkisini birgalikda olib qaradi. Uning sotsiologiyasi tarixiy hodisalarning sababiy tahlilini bajarish uchun aniq tushunchalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan edi. Veber uning ideal muolajasini o'ziga xos nuqta nazarlardan kelib chiqib tanlab olingan, tarixan sabab bo'lganligi tadqiqotlar orqali empirik ma'lumotlarda aks etgan tarixiy voqeyelikda ro'y berayotgan individual konkret hodisalarni qat'iy shartli qayd etish sifatida aniqlagan. Biz Veberni tarix sotsiologi sifatida tasavvur qilamiz<sup>1</sup>.

Veberning sotsiologik fikrlari uning vaqtida Germaniyada juda kuchli intellektual bahs-munozaralarga (Methodenstreit) sabab bo'lgan. Ulardan eng ahamiyatlisi tarix va fan o'rtasidagi do'stlik bahslarini muhokamasi bo'lgan. Bu munozaralarning bir tomonida tarixni asosiy qonuniyatlar asosida shakllangan (nomothetic) deb hisoblovchilar (pozitivistlar) va ikkinchi tomonida tarixni va

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. - P. 113-115.

hodisalarni ideosinkratik (idiographic) tarzda tasavvur qiluvchilar (subyektivistlar) bo'lgan (pozitivistlar tarixni tabiiy fanga o'xshashi mumkinligi to'g'risida fikr bildirsa, subyektivistlar uning radikal teskarini tushungan). Veber fikriga ko'ra, tarix empirik darajada hech qanday umumlashtirib bo'lmaydigan, o'ziga xos unikal empirik hodisalardan tashkil topadi. Sotsiologlar o'zlari yaratayotgan konseptual olamning empirik dunyosini ajratib olishlari zarur. Tushunchalar hech qachon empirik dunyoni to'liq qamrab olmaydi, lekin ulardan voqeyelik to'g'risida eng yaxshi tushuncha olish uchun evristik instrumental vositalar sifatida foydalanish mumkin. Bu tushunchalar bilan sotsiologlar umumlashmalar ishlab chiqishi mumkin, lekin bu umumlashmalar tarix bo'la olmaydi va empiriklari bilan almashtirilmasligi lozim.

Veber umumlashmalar tomonida edi, shuningdek, u tarixni qonunlarning oddiy yig'indisi sifatida tushuntirishga harakat qiladigan tarixchilarga ham qarshi chiqadi: Tarixiy hodisalarni ularning konkretligida bilish kerak. umumiy qonunlar, ularning ichki mohiyati yo'qligi sababli, shuningdek qadr-qimmatsiz ham. Masalan, Veber insonlar tarixiy evolyutsiyasi qonunlarini topishni o'ziga vazifa qilib olgan, va barcha insonlar tipik ketma-ketlikdagi bosqichlarni bosib o'tganligiga ishongan bir tarixchiga (Wilhelm Roscher) qarshi chiqqan<sup>1</sup>.

Turli xildagi empirik voqeyeliklarni umumlashtirish vositasi sifatida Veber qarashlarida «ideal tip» tushunchasi qabul qilingan. Veber fikriga ko'ra, ideal tip – bu shunchaki haqiqiy empirik voqeyelik asosida kelib chiqmaydi, balki nazariy sxema sifatida ishlab chiqiladi va faqat shundan keyingina, empirik voqeyelikka e'tibor qaratiladi. Veberga ko'ra, «iqtisodiy almashinuv», «kapitalizm», «xristian dini», «hunarmandchilik» va boshqa shu kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati faqat tarixiy hosilalarning tasvirini ifodalash uchun vosita sifatida qo'llaniluvchi ideal-tipik konstruksiyalardan tashkil topadi. Veber tomonidan ushbu tafakkur konstruksiyalari tarixiy-madaniy haqiqiy mavjudlikning o'zidan ustun deb hisoblanishi mumkin emasligi ta'kidlanadi. Ular («ideal tiplar») tafakkurlash yo'li bilan hosil qilingan, ma'lum darajada utopiya shaklidagi tavsiflarni qamrab

<sup>1</sup> O'zha joyda. - B. 114-119.

oladi va haqiqiy mavjudlikning ma'lum bir aniq elementlarining ajratib ko'rsatilishidan tashkil topadi.

Shu bilan birgalikda, Veber qarashlarida «ideal tip» tushunchasi bir qator sabablarga ko'ra, tugallangan yakuniy ta'rifga ega emas. Ushbu sabablardan biri – bu ushbu tushunchaning bilish tamoyillari bo'yicha o'zaro farq qiluvchi tarix va sotsiologiyada ham qo'llanilishi bilan bog'liq hisoblanadi. «Individuallashtiruvchi» (tarix) va «generalizatsiyalovchi» (sotsiologiya) holatlar – bu bilish tendensiyalari bo'lib, ularning ham Veber qarashlarida ko'p vaziyatlarda tarix va sotsiologiyaning chambarchas bog'liqligi va o'zaro chalkashib ketganligi kabi o'zaro chalkashib ketishi kuzatiladi<sup>1</sup>.

Veber tomonidan sotsiologiya – bu tiplar tushunchalarini shakllantirishi va tarixning umumiy qoidalari va qarama-qarshi jihatlarini qidirishi ta'kidlanadi, jumladan, sotsiologiya harakatlarning muhim ahamiyatga ega hisoblangan ma'naviy munosabatlari jihatlarini, bilim olish, shaxsning kauzal tavsifida tahlil qilinishiga intiladi. Bu yerda ideal tip tarixiy hodisalar o'rtasida kelib chiqishga oid o'zaro bog'lanishlarni aniqlash vositasi, sifatida xizmat qiladi va Veber uni ushbu vaziyatda «genetik ideal tip» deb nomlaydi (masalan, «o'rta asrlar shahri», «kalvinizm», «kapitalizm madaniyati»).

Veberga ko'ra, tarix – bu makon va zamon bo'ylab joylashgan yakka tartibdagi hodisalarning kauzal jihatdan tahlil qilinishiga intilish hisoblansa, u holda sotsiologiyaning vazifasi esa – ushbu amalga oshiruvchi hodisalarning vaqt va makonga oid bo'lgan jihatlarini e'tiborga olmagan holda, umumiy tartibi va qoidalarini aniqlashdan tashkil topadi. Ushbu nuqtai nazardan, sotsiolog ish olib boruvchi ideal tiplar umumiy tavsifga ega bo'lishi talab qilinadi va genetik tiplardan farqli ravishda, sof holatdagi ideal tiplar deb nomlanadi.

Shunday qilib, masalan sotsiolog tomonidan hukmronlikning ideal modellari – xarizmatik, ratsional, patriarxal modellari konstruksiyalanishi davomida barcha tarixiy davrlar va yer sharining har qanday istalgan nuqtasi kuchga ega hisoblanadi. Ushbu ko'rinishda, ushbu tiplar («genetik» va «sof holatda») umumiylik darajasi nuqtayi nazaridan o'zaro farqlanadi. Bunda ko'rsatib o'tilgan birinchi holat makon va zamon bo'yicha joylashadi, ikkinchisi esa –

makon va zamonga tegishli emas, shuningdek birinchisi – o'zaro bog'liqliklarni aniqlash vositasi hisoblanadi va bir marta aniqlik kiritiladi, ikkinchisi esa – bog'liqliklarni aniqlash vositasi hisoblanib, har doim o'z o'rniga ega hisoblanadi.

3. Veber qarashlarida «ideal tip» tushunchasi qanday «ishlaydi» va uning evristik nuqtayi nazardan tavsiflari qanday, uning yordamida bilishga qanday erishiladi?, degan savolga javob berish uchun Veber sotsiologiyasidagi yana bitta fundamental tushunchani – «tushunish» kategoriyasini kiritish talab etiladi. Qayd qilib o'tish kerakki, aynan o'z tadqiqot predmetini tushunish zaruriyati Veber tomonidan qayd qilingan fikrlarga binoan, sotsiologiyaning tabiiy fanlardan farqlanishini belgilab beradi. Biroq, Veber tomonidan ilgari surilgan qarashlarga ko'ra, «tushunuvchi sotsiologiya» – bu ta'kidlab o'tilganidek, psixologiyaning shunchaki tarkibiy qismi hisoblanmaydi. Sotsiologiyada shaxs xulq-atvorining faqat o'z xatti-harakatlari bilan ma'lum bir aniqlikdagi mazmunga ega bog'liqliklariga qarab chiqiladi. Shunday qilib, sotsiologik nuqtai nazardan harakat tushunchasi uning mohiyati tushunchasi orqali kiritiladi. Veber tomonidan qayd qilinganidek, «harakat – bu harakatni amalga oshiruvchi individning tegishli vaziyat bilan bog'liqligi subyektiv mohiyatga ega bo'lishi holatidagi odamning xulq-atvori hisoblanadi»<sup>1</sup>. Ya'ni Veber tomonidan sotsiologiya individning harakatlari mazmunga ega bo'lishi darajasida «tushunuvchi» tavsifga ega bo'lishi kerak deb hisoblaniladi. Shunday qilib, sotsiologiya individlar yoki individlar guruhlari tomonidan amalga oshiriluvchi harakatlarga nisbatan mo'ljal olishi talab qilinadi. Bunda mohiyatga ega bo'lgan harakatlar nisbatan «tushunarli» hisoblanadi, ya'ni bunda harakatni amalga oshiruvchi individ tomonidan ma'lum bir maqsadga erishish uchun ongli ravishda aniq yo'naltirilgan harakat e'tiborga olinadi, bu holatda belgilangan maqsad va unga erishish vositalari o'zaro muvofiqligi harakatni amalga oshiruvchi individning o'zi tomonidan ongli ravishda tan olinishi talab qilinadi. M. Veber tomonidan ushbu ko'rinishda tavsiflangan harakat – maqsadli-ratsional (oqilona) harakat deb nomlanadi.

Ushbu holatga bog'liq ravishda, Veber tomonidan quyidagi fikrlar qayd etiladi: «Sotsiologiya (jumladan, bu holatda ushbu so'z juda ko'p

<sup>1</sup> Qaynag: Кравченко А.И. Социология. Классические теории через призму социологического воображения. – М.: Юрайт, 2014. – С. 266-267.

<sup>1</sup> Qaynag: Зборовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – СПб.: Лань, 2014. – С. 99.

ma'noga ega so'z sifatida qayd qilinadi) – bu sotsial harakatlarning tushunilishi, ta'riflanishiga intiluvchi fan sohasi bo'lib, jarayon va harakatlarning kauzal mohiyatini izohlovchi fandır»<sup>1</sup>. Shuningdek, quyidagi fikrlar keltiriladi: «Harakatni amalga oshiruvchi shaxs yoki shaxslar tomonidan boshqa odamlarning harakati bilan uyg'unlashtirilishi nazarda tutilgan mazmunga ega bo'lgan holda va unga yo'naltirilgan harakatni sotsial harakat, deb nomlaymiz»<sup>2</sup>.

Shu bilan birgalikda, qayd qilib o'tish kerakki, maqsadga yo'naltirilgan harakat – bu qandaydir umumiy tipga oid harakat hisoblanmasdan, balki aksincha u, hatto Veber tomonidan ta'kidlanganidek, empirik voqeyelikda ustuvor ahamiyat kasb etmaydi. Maqsadga yo'naltirilgan harakat – bu ideal tip bo'lib, empirik umumlashma hisoblanmaydi. Aynan, maqsadga yo'naltirilgan harakat nisbatan «ishchi» holatdagi ijtimoiy tip bo'lib, uning yordamida Veber sotsiologiyasining asosiy tadqiqotlari amalga oshiriladi.

Qayd qilib o'tish kerakki, ideal tavsifdagi tipik konstruksiyalar va empirik voqeyelikning o'zaro nisbati masalasi shunchaki oddiy masala hisoblanmaydi va bu masala Veberning o'zining qarashlarida ham to'liq hal qilinmagan.

Sotsiologiya uchun uslubiy asoslar sifatida maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni tanlash orqali M.Veber «xalq», «jamiyat», «davlat», «iqtisodiyot» va boshqa shu kabi ijtimoiy umumlashmalarni birlamchi voqeyelik sifatida olgan sotsiologik nazariyalardan ajralib chiqadi.

Ta'kidlab o'tilgan, «umumlashmalar»ga tegishli holatda, Veber tomonidan qarshi e'tiroz bildiriladi, ya'ni gap hatto ushbu tushunchalarning o'zida emas, balki noaniqlik holatiga tegishlidir, bunda Veber tomonidan ijtimoiy fanlarda nazariyotchilarning voqeyelikning o'zidan kelib chiqib fikrlarni ilgari surishga intilishi, ushbu holatlarning ichki qonuniyatlari asosida fikr bildirishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaniladi. Ushbu ko'rinishdagi tanqidiy fikrlar E.Dyurkgeymning jamiyatning haqiqiy mavjudlikning oliy darajasi sifatida namoyon bo'luvchi «jamoaviy sub'ekt» hisoblanishi haqidagi g'oyasiga nisbatan ham bildiriladi. Haqiqatdan ham, ushbu tanqidiy fikrlarda turli xildagi «umumlashmalar» (universalii) mavjud bo'lib,

<sup>1</sup> Qarang: Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990. – С. 602.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – В. 603.

ayrim tadqiqotchilar tomonidan uning asosiy obyekti, eng avvalo, K.Marks hisoblanishi qayd qilinadi<sup>1</sup>.

Boshqa tomondan, Veber ta'kidlariga, ayrim ushbu ko'rinishdagi mavhumliklar («umumlashma» ga nisbatan amaliy jihatdan munosabat bildirish vaziyatida sotsial fanlarda ijobiy rol o'ynashi mumkin. Ushbu holatdan kelib chiqib, Veberga ko'ra, ushbu holatlarni asl haqiqiy mavjudlikning ifodalanishi sifatida, «ontologik» nuqtai nazardan qarab chiqish kerak emas, balki turli xildagi haqiqiy mavjudlikning u yoki bu jihatlarning mohiyatiga ko'ra tartiblanishiga olib keluvchi uslubiy jihatdan nazariy konstruksiyalar sifatida qarab chiqish zarur.

Ya'ni, turli xildagi «umumlashma»ni ifodalovchi nazariy konstruksiyalar mavjud bo'lib, bu konstruksiyalar voqeyelikning o'zini va uning qonuniyatlarini aks ettirishi talab qilinmaydi, balki ideal-tipik tushunchalar sifatida o'rin tutishi qayd qilinadi. Veberga ko'ra esa – ideal tip – yuqorida ta'kidlanganidek, «bu utopiya», tasavvurdagi timsol hisoblanadi va sof empirik holatda hech qacda qayd etilmaydi.

Veber sotsiologiyasining zaruriy asosi sifatida «yaxlitlik» (jamiyat) emas, balki alohida ratsional (ongli ravishda) harakatni amalga oshiruvchi individ ko'rsatib o'tiladi. Veberga ko'ra, ijtimoiy institutlar – jumladan, huquq, davlat, din va boshqalar sotsiologiyani alohida individlar uchun ahamiyatga ega bo'lgan shaklda o'rganishi talab etiladi, bunda alohida individlar o'zi amalga oshiruvchi harakatlarda sotsiologiyaga nisbatan voqeyelik asosida aniq mo'ljal olishlari zarur. Veber jamiyatning o'z tarkibidagi individlarning «birlamchi» asosi hisoblanishi haqidagi g'oyaga e'tiroz bildiradi va sotsiologiyada alohida insonlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlardan kelib chiqib, «talablarni belgilash» zarurligi ta'kidlaydi. Bundan, Veberning uslubiy individualizmi haqida fikr bildirish mumkin bo'ladi.

Biroq, Veber o'ta yuqori darajadagi individualizmga to'xtalib o'tilmaydi. Ushbu o'rinda, Veber sotsial harakatning ajralmas jihati sifatida «harakatni amalga oshiruvchi shaxsning boshqa individga yoki uning atrofidagi boshqa individlarga nisbatan mo'ljal olishi»ni ko'rsatib o'tadi. Ushbu «boshqalarga nisbatan mo'ljal olish» jihati

<sup>1</sup> Вебер М. Основные социологические понятия // Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990. – С. 602-603.

«daviat», «huquq», «ittifoq» va boshqa shu kabilar «sotsial umumlashma» sifatida «e'tirof» etiladi. Ushbu holatdan kelib chiqib, «e'tirof» – «boshqalarga nisbatan mo'ljal olish» – bu Veber sotsiologiyasining markaziy uslubiy tamoyillaridan biri sifatida o'rin tutadi.

Subyektiv mohiyatning mavjudligi va boshqalarga nisbatan mo'ljal olish – bu «sotsial harakat»ning zaruriy ikkita belgisi hisoblanadi va uning sotsiologiya predmetini tushunilishini belgilab beradi.

Veber tomonidan omma, olomon tarkibidagi individning taqlidga oid harakatlarini sotsial harakat deb atash mumkin emasligini ta'kidlaydi. Veber ushbu tadqiqot predmetiga nisbatan sotsiologiya emas, balki «omma psixologiyasi» sifatida murojaat qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Garchi, Veber tarixchi va sotsiolog sifatida so'zsiz ravishda, ommaviy harakatlar sotsiologiyaning eng muhim masalalaridan biri bo'la olmasligini chuqur tushuna olgan. Bu hodisa haqida u o'ziga xos, spetsifik sotsiologik nuqtayi nazardan turib munosabat bildirgan. Veber tomonidan ta'kidlanilishicha, sotsiolog individni qanday sub'ektiv fikrlash asosidagi mazmun boshqalar bilan bog'lashi mumkinligini bilishi zarurligi va shuningdek, odamlarning qanday asosda omma sifatida birlashishlarini bilishi talab qilinishi qayd qilinadi. Agar, psixolog sifatida G.Lebon har qanday olomonga xos bo'lgan, qandaydir umumlashmalarni qidirib topishga intilgan bo'lsa («Rim askari», «xochlilar», «teatr tomoshabinlari» va boshqalar), Veber bir olomonning boshqasidan farqlanuvchi jihatlarini tavsiflashga harakat qilgan. Veber ta'kidlashicha, sotsiologiyaning asosiy predmeti – bu nafaqat bevosita xulq-atvor, balki uning mohiyatan nazarda tutilgan natijasidir. Zero ommaviy harakatlarning tavsifi sezilarli darajada ommani tashkil qiluvchi individlarning ularga qanday mazmun berganligi bilan belgilanadi.

Veber tomonidan sotsial harakatning quyidagi ehtimoliy turlari ko'rsatib o'tiladi:

- maqsadli-ratsional;
- qadriyatli-ratsional;
- affektiv;
- an'anaviy.

Veberga ko'ra, har qanday harakat quyidagi holatlar asosida aniqlanadi:

1) maqsadli-ratsional, ya'ni tashqi olam predmetlari va boshqa odamlarning ma'lum bir xulq-atvoridan kutilayotgan holatlar va shuningdek, ulardan oqilona yo'naltirilgan va boshqariluvchi maqsadlar yo'lida «shart-sharoit» yoki «vositalar» sifatida foydalanish (bunda ratsionallik muvaffaqiyatni belgilaydi);

2) qadriyatli-ratsional, ya'ni axloqiy, estetik, diniy e'tiqod yoki biron-bir boshqacha tarzda tushuniluvchi o'z shaxsiy qadriyatidan kelib chiqib, muvaffaqiyatdan qat'i nazar bajariladigan ma'lum bir xulq-atvor;

3) affektiv, ya'ni his-tuyg'u va emotsiyalar ustuvorlik qilgan harakat;

4) an'anaviy, ya'ni odatlar natijasida vujudga keladigan harakat<sup>1</sup>.

Keltirib o'tilgan oxirgi ikkita harakat turlari Veber fikriga ko'ra, o'z mohiyatiga ko'ra sotsial harakatlar hisoblanmaydi, chunki bu yerda ongli tarzda, ya'ni ratsional tarzda mazmun bilan boyitilgan harakatni ko'rmaymiz.

Veber fikriga ko'ra, faqat qadriyatli-ratsional va maqsadli-ratsional harakatlar o'z mohiyatiga ko'ra sotsial harakatlar hisoblanadi va bu yerda asosiy rolni maqsadli-ratsional harakatlar o'ynaydi. Veber tomonidan ta'kidlanganidek, tavsiflangan to'rtta ideal tiplar o'zaro odamning xulq-atvoriga oid turli xildagi mo'ljal olishlarining ahamiyatini yo'qqa chiqarmaydi. Biroq ularni eng xos bo'lgan holatlar sifatida hisoblash mumkin va Veber qarashlariga ko'ra, ulardan sotsiolog o'zining amaliy ishlarini bajarishda yetarlicha darajadagi ishonchli qurol sifatida foydalanishi mumkin.

Veberga ko'ra, sotsial harakatlarning tiplari – bu shunchaki tushuntirishlar uchun qulay bo'lgan metodologik amallar emas. Unga ko'ra, sotsial harakatlarning ratsionalizatsiyasi – tarixiy jarayon tendensiyasidir. Garchi, bu jarayon «to'siqlar» va «og'ishlar»siz amalga oshmasada, shunga qaramay, so'nggi yuz yillik davomidagi yevropa tarixi shundan dalolat beradiki, ya'ni ratsionalizatsiya – bu butun dunyoga xos tarixiy jarayondir. Harakatlar «ratsionalizatsiyasi»ning sezilarli darajada ahamiyatga molik komponentlaridan biri odatiy axloq va urf-odatlariga bo'lgan

<sup>1</sup> Qarang: Кравченко А.Н. Социология. Классические теории через призму социологического воображения. – М.: Юрайт, 2014. – С. 262-263.

sodiqlikni asta-sekinlik bilan manfaatli jihatlarini anglab yetib amalga oshirishga moslashib borishdir. Shuningdek, maqsadli-ratsional harakatning asta-sekin qadriyatli-ratsional harakatni siqib chiqarishi kuzatiladiki, bunda qadriyatga emas, balki muvafaqqiyatga ishonish kuchayadi. Shunday qilib, ratsionalizatsiya – G'arb sivilizatsiyasining taqdiridir.

Jamiyatning strukturasi nuqtai nazaridan maqsadli-ratsional harakatlar rolining ortib borishi avvalambor, uning barcha sohalarida, xususan, iqtisodiyot, siyosat, fan, madaniyat kabilarda xo'jalik yuritish, boshqaruv usullarining ratsionalizatsiyasini nazarda tutadi. Shuningdek, odamlarning tafakkur tarzi ratsionalizatsiyasi ular turmush tarzining o'zgarishini nazarda tutadi. Bunda ratsionallik tamoyilining sof ifodasi sifatida fanning rolining kuzatiladi. Fanning hayotning barcha tarmoqlariga kirib borishi – zamonaviy jamiyatning universal ratsionalizatsiyasi dalolatidir.

4. Veber tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, ratsionalizatsiya – bu o'z tarkibiga ratsional boshlang'ichni qamrab oluvchi bir nechta fenomenlarning ta'siri mahsulidir, bunda aynan: antik fan, ayniqsa Uyg'onish davrida tajriba bilan, eksperimental fan bilan, va oxir-oqibat texnika bilan to'ldirilgan matematikadir. Shuningdek, Veber ratsional Rim huquqi alohida ajratib ko'rsatib, ushbu huquq sohasining yevropadagi keyingi taraqqiyoti hamda ishchi kuchlarning ishlab chiqarish vositalaridan ajratilishi natijasida yuzaga kelgan xo'jalik yuritish usullarini ham ajratib ko'rsatadi. Bu elementlarni sintezlash omili sifatida protestantizm olingan bo'lib, u xo'jalik yuritishning ratsional usulini amalga oshirilishi uchun asos bo'lgan, Veberga ko'ra, zero aynan protestant axloqi iqtisodiy muvafaqqiyatlarni belgilab bergan.

An'anaviy jamiyatdan keskin farqlanuvchi zamonaviy industrial jamiyat shu tarzda yuzaga kelgan. An'anaviy jamiyatda biz rasmiy-ratsional negizlarni ko'rmaymiz. Rasmiy voqyelik – bu miqdoriy jihatdan qayd etilishi mumkin bo'lgan, to'la-to'kis miqdoriy tavsiflanishi mumkin bo'lgan holatdir. Veberga ko'ra, rasmiy voqyelik yo'nalishida amalga oshiriluvchi harakat – bu tarixiy jarayonning harakatidir.

Rasmiy voqyelik haqidagi ta'limot Veberning kapitalizm nazariyasi hisoblanadi. Mavjud sotsial (empirik) voqyelikni umumlashtirish imkonini beruvchi uning metodologiyasi ham ushbu

holat asosida ishlab chiqilgan. Shunday qilib, sotsial harakatning boshqa bir turlarini ishlab chiqishga asos bo'lgan maqsadli-ratsional turi ishlab chiqilgan. Veber individlarning iqtisodiy sohadagi harakatlarini maqsadli-ratsional harakatning nisbatan sof holati sifatida ajratib ko'rsatgan. Bu tasodifiy emas, chunki bu yerda biz tovar ayirboshlash, raqobat yoki birja o'yinlarini ko'rishimiz mumkin va h.k.

Kapitalizmni zamonaviylikning ortga qaytib bo'lmaydigan omili sifatida tushunish uning mazmuni, strukturaviy elementlarini tahlil etishni nazarda tutadi. Veberga ko'ra, zamonaviy kapitalizm – bu yevropada tarixiy taraqqiyotning chetlab o'tib bo'lmas oqibatidir, va patriarxal jamiyat tuzumiga va uning qadriyatlariga qaytish mumkin emas.

Kapitalizning kelib chiqishini tadqiq etib, Veber o'zi uchun markaziy muammo sifatida «burjua kapitalistik ishlab chiqarishning kelib chiqishini uning erkin mehnatni ratsional tashkillashtirilishi bilan birgalikda», yoki madaniyat tarixi tilida aytganda, «G'arbiy yevropada burjua sinfining uning o'ziga xosligi bilan shakllanishi»ni oldi. Zero o'ziga xos G'arbiy yevropa kapitalizmi shakllanishiga qadar burjuaziya allaqachon G'arbda o'ziga xos sinf sifatida mavjud bo'lgan.

Shu bilan birgalikda, Veber o'z oldiga hal qilish uchun belgilab olgan vazifalardan kelib chiqib, kapitalizmni tahlil qilish uchun uning tarkibida tarixiy «davrga oid madaniy» hodisa sifatida burjua – tadbirkorning qiyofasini ham o'rgangan.

Veber tarixiy-madaniy qadriyat sifatida G'arbiy yevropa kapitalizmining o'ziga xos fenomen sifatidagi jihatlarini ochib beruvchi diniy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa o'zaro aloqador strukturalarining kelib chiqishini tushuntirgan va chuqur tahlil qilgan. Veberga ko'ra, yevropa kapitalizmi – bu o'ziga xos axloqiy qadriyatlarga ega hayot tarzi, tafakkur tarzi, biroq bir vaqtning o'zida yevropada antik davrlarga borib taqaluvchi ildizlarga ega bo'lgan o'ziga xos mantiqdir.

Veber ta'kidlashicha, zamonaviy yevropa kapitalizmi asoslari aynan madaniyatda o'z ifodasini topadi.

Veber «Protestant axloqi...» asarida kapitalizmni talqin etishda tor doiradagi iqtisodiy yondoshuvlarni tanqid qiladi (bunda, ushbu tanqidiy munosabat nafaqat Marks qarashlariga qarshi, balki Zombart

va boshqalar fikrlariga ham qarshi e'tiroz sifatida qayd qilinadi). Veber tomonidan «kapitalistik taraqqiyotning umumiy madaniy ahamiyatini tarixiy va nazariy jihatdan anglab yetish» shunga olib kelganki, Veber o'z tadqiqotlarida asosiy e'tiborni dinga, ayniqsa, G'arbiy yevropada madaniyatining axloqiy asosi sifatida xristian dinini tahlil qilishga qaratadi.

Veberning iqtisodiy taraqqiyot jarayonini bevosita dinning ta'sirida amalga oshganligini uning Marks qarashlarini rad etishga intilishi sifatida tushunilishi mumkin. Aslida esa, Veber turli xil jamiyatlarda odamlar o'z mavjudligini faqat umumiy nazariy tasavvurlar doirasidagina tushunishi mumkinligi, bunda diniy talqin olamni anglashning bor yo'g'i bir qismi ekanligini isbotlamoqchi bo'lgan. Bundan kelib chiqib, garchi, Veber sotsiologiyasida olamni diniy dunyoqarash asosida tushunishga ko'proq ahamiyat berilganligi uchun turli insonlar, sotsial guruhlarga xos xulq-atvorni, xususan, ularning iqtisodiy xulq-atvorini tushunish uchun ham dinga murojaat qilish talab qilinadi.

Ushbu nuqtai nazardan, Veberning ijodini o'rgangan tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Veberning «Protestant axloqi...» asarida masalaga bevosita sabab-oqibat mazmunidagi yondoshuv mavjud emas, balki faqat diniy qoidalar va dunyoviy xulq-atvorning o'z-o'zini tartibga solish o'rtasidagi bog'liqliklar haqida fikrlar bildirilgan. Bu borada Veber fikri quyidagi: «Kapitalizm ruhi va protestantizm ruhi aniq ifodalangan tarzda o'zaro mos keladi»<sup>1</sup>. Bu fikrni quyidagicha talqin etish mumkin: protestantizm ruhiga, o'z navbatida kapitalizm ruhiga mos keluvchi iqtisodiy faoliyatga nisbatan bunday munosabat begona emas.

Kapitalizmni «foydaga ko'rishga intilish», ko'proq mablag'larga egalik qilishga urinish sifatida talqin etilishining kapitalizmga umuman aloqasi yo'q. Bu intilishni deyarli barcha davrlarda va ko'plab sotsial guruhlarda kuzatish mumkin. Kapitalizm tuzumida, so'zsiz ravishda rentabellikka intilishda ratsional harakat qiluvchi kapitalistik korxonalar doirasida foyda olishga intilish yaqqol ustuvorlik qiladi. Ya'ni, boshqacha aytganda, ko'proq foyda olishga intilmagan kapitalistik korxonalar inqirozga yuz tutishi tabiiy. Umuman olganda, xo'jalik faoliyati foyda va harajatni o'zaro sopostavlenie ga

<sup>1</sup> Qizilov, Zborovskiy G.E. *История социологии: современный этап: учеб. для вузов*. 2-е изд., испр. и доп. – Сургут (и др.): ИПО СурГУ, 2015. – С. 106.

yo'naltirilgan bo'ladi. Shunday qilib, qayd qilish mumkinki, sarmoyaning yetarlicha darajada ratsional hisob-kitobini nazarda tutgan «kapitalizm» va «kapitalistik ishlab chiqarish» yer sharining deyarli barcha madaniy mamlakatlarida mavjud bo'lgan.

Bu ma'noda, Veber uchun sof iqtisodiy jihatdan butun dunyo madaniyati tarixida asosiy masalalardan biri sifatida kapitalistik faoliyat emas, balki G'arb sivilizatsiyasida madaniy-tarixiy jihatdan erkin mehnatning ratsional tashkil qilinishini nazarda tutuvchi burjua ishlab chiqarish kapitalizmining vujudga kelishi muhim o'rin tutgan.

Bu yerda Marks va Veber tomonidan kapitalizm haqidagi bildirilgan ayrim fikrlarni parallel holatda qarab chiqish o'rinli hisoblanadi.

Veber Marksdan farqli ravishda zamonaviy jamiyat va kapitalizmning asosiy belgisi sifatida byurokratik ratsionalizatsiyani olgan, va buni ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar davom etmay qolmasligi mumkin emasligini ta'kidlagan. Veber sotsializm sharoitida ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiylashuvini nazarda tutganda, Marksdan farqli ravishda, hech qanday tub qayta o'zgarishlarni ko'rmagan. Uning fikriga ko'ra, davlatda ishlab chiqarish vositalariga nisbatan mulkchilik xarakterini belgilab beruvchi inqiloblarsiz ham nisbatan arzonroq mahsulot olishni ratsional tashkillashtirish zaruriyati mavjud bo'ladi. Veber (o'z davrida Sen-Simon va Kont singari) ishchilar va tadbirkorlar o'rtasidagi ziddiyatlarga hal qiluvchi ahamiyat bermagan va zamonaviy jamiyatning qaror topishida sinfty kurashlarning zarurligiga ishonmagan.


Veber, Marks kabi zamonaviy ishlab chiqarishning tipik tashkillashtirilishi haqida fikr bildirib, bu holat «G'arb olamidagi tashqari hech qayerda amalga oshirilmagan va amalga oshirilishi mumkin emas» deb ta'kidaydi, biroq u «sotsializm – kapitalizm»ning o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishida mazmun yo'q, deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Zamonaviy jamiyatning asosi sifatida – byurokratik ratsionalizatsiya har qanday mulkchilik rejimida mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, qadriyatlarining individualistik tizimidan kelib chiqib, Veber ishlab chiqarishning jamiyatda umumlashuvi taraqqiy

<sup>1</sup> Qizilov, Zborovskiy G.E. *История социологии: современный этап: учеб. для вузов*. 2-е изд., испр. и доп. – Сургут (и др.): ИПО СурГУ, 2015. – С. 106.

etishidan, uning ijtimoiylashuvidan qo'rqan, bu individ harakatlari erkinligi cheklanishiga olib kelishi mumkin, deb hisoblagan.

Veber va Marks qarashlari o'rtasida ahamiyatli farqlarni biz sotsial struktura tabiatini va jamiyatning sotsial stratifikatsiyasi shart-sharoitlarini tushunishida ham ko'rishimiz mumkin.

5. Veber boshqaruv va hokimiyat sotsiologiyalari rivojiga o'zining katta ulushini qo'shgan, va buni u avvalambor hukmronlik mazmuni va turlari haqidagi ta'limotni ishlab chiqish asosida amalga oshirgan. U hukmronlikni o'zaro istak-xohish (kutish, umid bog'lash) deb tushungan. Bunda buyruq beruvchilar o'z buyruqlarining bajarilishini, o'zlariga esa bo'ysunilishni istaydilar; ayni vaqtda esa bo'ysunuvchilar buyruqlarning o'z istaklariga mos kelishini nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, olimning hukmronlik haqidagi barcha mulohazalari – bu boshqaraladigan shaxslar tomonidan tan olinadigan legitim (qonuniylik asosidagi) hukmronlik haqidagi mulohazalardir.



Veber legitim hukmronlikning bo'ysunishning uch turdagi asosiy sabablariga (motivatsiya) mos uch turini farqlaydi. Birinchi sabab bo'ysunuvchilarning manfaatlari, ya'ni maqsadli-ratsional o'y-fikrlari hisoblanadi. Bu, Veberning ta'kidlashicha, «legal» hukmronlikning asosi bo'lib xizmat qiladi, va uni Angliya, Fransiya, AQSh kabi va boshqa rivojlangan burjua davlatlarida uchratsa bo'ladi. Bu davlatlarda, shaxslarga (masalan, prezident va boshqa amaldor shaxslarga) emas, balki hamma – boshqariluvchilardan tortib boshqaruvchilargacha qonunlarga bo'ysunadi. Bu yerda «rasmiy-qonuniy» asos hukmronlik qiladi.

Byurokratiya legal hukmronlikning eng toza turi hisoblanadi. Veber birinchilardan bo'lib bu tushunchani ilmiy adabiyotga kiritgan. U byurokratik boshqaruvni bilim orqali hukmronlik qilish deb bilgan va bilimda uning o'ziga xos ratsional xarakteri belgilanadi, deb hisoblagan. Shu bilan birga, u byurokratiyani ideallashtirgan, va uni arzon, hech qanday manfaatni ko'zlamaydigan, korrupsiyaga moyil

bo'lmagan mashina sifatida qabul qilgan. U bu haqda shunday yozgan: «Dunyoning hech bir mashinasi insonning bu mashinasi singari aniqlik bilan ishlay olmaydi, va shu bilan birga u juda arzondir!»<sup>1</sup>.

Sotsiologning fikricha, byurokratik hukmronlik hamma yoqda: xo'jalik hayotida, siyosiy harakatlarda, lekin eng asosiysi – jamiyat boshqaruvida amaldorlar hokimiyatini namoyon etadi. Veber byurokratiyani legitim hokimiyat apparati sifatida qabul qilar ekan, uning faoliyatiga muayyan talablar qo'yadi. Bu o'ziga xos byurokratiya buyruqlari edi. Quyida ularning ayrimlarini qarab o'tamiz. Amaldor shaxslar shaxsan mustaqil odamlar hisoblanib, ular faqatgina muayyan funksiyalarni bajaradilar. Ular professional sifatlar asosida tanlab olinadilar. Ular lavozimga saylanmaydilar, balki tayinlanadilar. Amaldor shaxslar pulda to'lanadigan maosh oladilar va pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Amaldor shaxs ma'muriyatning hech qanday vositasiga egalik qilmaydi va o'z mansabini umrining oxirigacha egallab turish huquqiga ega emas. U xizmatda qat'iy intizomga bo'ysunadi va uning xulq-atvori nazoratda bo'ladi. Xizmatda mansab pog'onasi bo'yicha ko'tarilishning professional tizimi nazarda tutiladi (karera). Ko'rinib turganidek, Veber legal hokimiyat turi misolida byurokratiya faoliyatning ko'p jihatlarini batafsil yoritib va tartibga solib bergan.

Legitim hukmronlikni ikkinchi turi bo'ysunishning faqat qonunchilikka emas, balki azal-azaldan mavjud bo'lgan tartib va hokimiyatning muqaddasligiga ishongan. U kundalik axloq, muayyan xulqqa yo'naltirilgan odatlarga asoslanadi. Veber buni an'anaviy hukmronlik deb ataydi. Patriarxal hukmronlik («janob» – «fuqarolar» – «xizmatkorlar») shunday hukmronlikning eng sof turi (ideal tipi) hisoblanadi. Patriarxal tur, xuddi oiladagi hukmronlik – bo'ysunish aloqalari strukturasi o'xshaydi. An'anaviy turdagi hukmronlik va oiladagi munosabatlar o'rtasidagi o'xshashlik ham shaxsiy vafodorlik va sadoqat orqali aniqlanadi. Gap shundaki, an'anaviy turdagi hukmronlikda hayotning har qanday faoliyatida biron-bir amalga tayinlashda munosabatlar xarakteri doimo faqatgina shaxsiy ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Эберсонский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – СПб.: Изд. СПбГУ, 2014. – С. 104.

Hukmronlikni uchinchi turi motivatsiyaning affektiv asosiga ega, Veber uni xarizmatik tur, deb ataydi. Veber xarizmaga juda keng ma'noda yondoshadi. U shunday deb yozadi: «"Xarizma" deganda, shaxsning noyob, g'ayritabiyy, g'ayriinsoniy iqtidor, yoki boshqalarda uchramaydigan o'ziga xos kuch va xislatlarga ega xususiyatlarini tushunish lozim»<sup>1</sup>. U xudo tomonidan yuborilgan in'om yoki xislat sifatida shaxsni boshqalardan ajratib, unga xudo va taqdir tuhfası sifatida qarashni nazarda tutadi. Xarizmatik xislatlar – bu, asosan, sehri xislatlar bo'lib, unga bashorat qila olish qobiliyati, so'z va fikr kuchini kiritish mumkin.

Odatda qahramonlar, harbiy yetakchilar, payg'ambarlar, sehrgarlar, mashhur siyosiy va davlat arboblari hamda jahon dinlarining asoschilari (Budda, Iso, Muhammad Payg'ambar) xarizmaga ega hisoblanadi. Veberga ko'ra, xarizma – bu ulug' revolyutsion kuch bo'lib, hukmronlik va boshqaruv unga tayanadi. U xarizmani unning ortida turgan mohiyatidan qat'iy nazar o'rganadi. Olimning fikricha, Perikl, Aleksandr Makedonskiy, Sezar, Chingizxon va Napoleonlar xarizmatik shaxs bo'lgan. Hukmronlik turini shakl mazmundan ustuvorlik qilgan holdagi bunday metodologik amorf tarzda o'rganish Veber pozitsiyasining siyosiy qarama-qarshiligiga olib keladi.

Veber legitim hukmronlikning xarizmatik va an'anaviy turlari o'rtasidagi umumiylik va farqni ko'ra bildi. Ular o'rtasidagi umumiylik shundaki, bu ikkala tur xo'jayin va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi shaxsiy aloqalarga tayanadi. Bu ma'noda, ikkala tip birinchi – rasmiy-ratsional tipga qarshi turadi, chunki u yerda shaxsiy bo'lmagan aloqalar hukmronlik qiladi. Yuqorida qayd etilgan ikkala hukmronlik turlari o'rtasidagi farq shundaki, an'anaviy tur insonni kundalik odatlari, doimiy deb olingan ko'nikmalariga asoslangan bo'lsa, xarizmatik tur biron-bir noyob, ilgari hych uchramagan xislatlarga asoslanadi. Xarizmatik hukmronlik turida oldindan o'rnatilgan qoidalar bo'lmaydi, va barcha masalalar bo'yicha yechimlar shaxsiy misol, ijod, ishlar asosida topiladi. Bu borada, legitim hukmronlikning xarizmatik turi avtoritar bo'lib, u xarizmatik inson kuchiga asoslanadi.

<sup>1</sup> Вебер М. Харизматическое господство // Социс. 1988. № 5. – С. 139.

Hukmronlikning uch turi to'rtta sotsil harakat turidan uchtagina to'g'ri keladi. Hukmronlikning legal turi maqsadli-ratsional harakatga, an'anaviy tur an'anaviy harakatga, xarizmatik tur esa affektiv harakatga mos keladi. Bu tasodifiy hol emas, chunki ularning har biri motivatsiyaga asoslanadi. Qadriyatli-ratsional harakatga to'xtalsak, bu tushuncha ayrim hollarda legitimlik asoslaridan biri (masalan, or-nomus) sifatida namoyon bo'ladi, lekin u hukmronlik turlari tipologiyasida mavjud emas, chunki u abstrakt tip emas.

Shunday qilib, Veberning ikki asosiy klassifikatsiyasining korrelyatsiyasi to'g'risida gapirishga asos bor. Bu yerda hukmronlik turlarining o'zi ham ideal tip sanalsada, uniserial emas, balki tarixiy, va ayniqsa, sotsiologik hisoblanadi. Hukmronlik turlari faqat siyosiy hokimiyat va boshqaruv sohasida qo'llaniladi, va shuning uchun ular yuqorida aytib o'tilgan ideal tiplar kabi bunchalik keng va universal bo'la olmaydi.

6. Kapitalistik jamiyat, undagi munosabatlar va xo'jalik faoliyati Veber tomonidan din bilan bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Agar Veberdan oldingi olimlar tomonidan dinga mutlaq ustuvor ahamiyat berilgan bo'lsa, Veber sotsiologiyasida din va ijtimoiy, ayniqsa kishilar hayotining iqtisodiy tashkillashtirilishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlarni ajratib olish muammosiga ilk marotaba e'tibor qaratildi. Veber tomonidan amalga oshirilgan dinning sotsiologik tahlili o'zining noodatiyligi, originalligi, sotsial g'oyalarning taraqqiyotiga chuqur ta'siri va eng asosiysi – o'zining dolzarbligini bugungi kungacha yo'qotmaganligi nuqtayi nazaridan maxsus o'rganishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "Protestant axloqi..." asarida Veber ilk marotaba din va iqtisod o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlagan. U aynan diniy ta'limotlar, diniy axloq kapitalistik iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy vosita ekanligini isbotlashga harakat qilgan va u mehnatsevarlik, tejamkorlik, hisob-kitoblilik, rostgo'ylik, faollikni shakllantirishiga olib kelishini ko'rsatib o'tganligi ham ma'lum. Hozirda G'arb sotsiologiyasi Veber ijodining shu tominiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda kapitalizm va diniy axloq ruhi o'zining rag'batlantiruvchi salohiyatini yo'qotayotganligi, va bu ruhni qayta jonlantirish retseptlarini topish uchun olimning merosiga murojaat qilmoqdalar.

Haqiqattan ham, Veberning din sotsiologiyasida kapitalizm ruhi va protestantizm ruhining o'zaro munosabati aniq ko'rsatib berilgan. Protestantizmning asosiy buyrug'i, bu osiy dunyoda e'tiqod egasi Xudo yo'lida mehnat qilishi lozimligidadir. Protestantizmning mehnat axloqi va kapitalistik jamiyatning taraqqiyoti o'z mohiyatiga ko'ra bir-biriga mos kelgan. Axloqiy va diniy mas'uliyat o'zaro yaqin tushunchalardir. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish va tahlil qilish Veberning din sotsiologiyasiga xosdir.

Veber protetantizmni katolitsizmga qarshi qo'yadi. Protestantizm individni Xudo bilan vositachilarsiz, sehrgarlik elementlarisiz bog'laydi. Protestantizm dini kishilarning iqtisodiyotdagi xulqini tushuntirishga yordam beradi va jamiyatda kishilar xulqiga singib ketadi. Veber protestantizmni ko'rib chiqish orqali dinni sotsiologik tahlil etish modelini yaratgan, deyish mumkin. Keyinchalik bu modeldan hinduizm, yahudiylik, konfutsiylik, buddizm, islom, xristianlikni o'rganishda foydalangan.

Sotsiologning butun ijodiy faoliyatida din va iqtisodiyot bog'liqligi o'z o'rmini saqlab qolgan, bundan tashqari ilk "Protetant axloqi va kapitalim ruhi" asaridan to so'nggi "Dunyo dinlarining xo'jalik axloqi" (1916-1919) asarigacha kuchaytirib boriladi<sup>1</sup>. Muallifni nafaqat xristianlikning turli shakllari, balki barcha rivojlangan jahon dinlari qiziqtirgan.

Ularda diniy-axloqiy tamoyillar turlicha bo'lishiga qaramay, ularni taqqoslash uchun asos topish muhim edi. Bu o'rinda u yoki bu diniy axloq bilan belgilanadigan iqtisodiy faoliyat ratsionallashuvi darajasi birinchi o'ringa chiqdi. Veber ratsionallashuv darajasi har bir dinda turli darajalarda mavjud bo'lgan sehrgarlik element kuchiga teskari proporsionalligini isbotlab berishga muvaffaq bo'ldi.

Veberning diniy ta'limoti uning tushunuvchi sotsiologiyasiga qandaydir bir amaliy qo'shimcha sifatida emas, balki uning sotsial harakat nazariyasiga yaqin tarkibiy qismidir. Olim aynan din sotsiologiyasi yordamida bu nazariyani ochib berishga harakat qildi, zero u yoki bu holatda ham kishilarning harakati va xulq-atvori subyektiv mohiyat kasb etsa-da, uning tushunilishini nazarda tutadi. Veberning umumiy konsepsiyasida individ xulq-atvorini tushunish muhim bo'lgan bo'lsa, dinni tadqiq etishda u alohida individni unga

<sup>1</sup> Шоррессай Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. - Сураб и [др.]: РИО СурабПУ, 2014. - С. 108.

xos kechinmalar, maqsad va tasavvurlarni o'rganish tamoyilidan kelib chiqqan.

U din va diniy axloqni nafaqat iqtisodiy va xo'jalik hayoti va faoliyati bilan, balki huquq, san'at, falsafa, fan, hokimiyat va b. nuqtai nazaridan ham baholaydi. Bu yerda sotsiolog uchun eng muhimi – individlar bajaradigan harakatlarning mohiyatini, ya'ni insonning xulq-atvorida diniy jihatlarni hisobga olgan holdagi asoslarni (motiv) tushunib yetish. Bunda Veberni faqatgina sotsial differentsiatsiyaning yuqori darajasini, insonlarning nisbatan intellektual taraqqiyotini taqazo etuvchi jahon dinlari qiziqtirgan.

Rivojlangan jamiyatlardagi dinlarda boshqa rivojlanmagan jamiyatlardagi dinlardagi kabi ko'plab marosim va urflarga qaramay, ularda aqida va axloqiy elementlar ahamiyati ortib boradi. Bu esa guruhiylikning kamayib individuallilikning oshayotganligini ko'rsatadi. Veber empirik tadqiqotlar asosida diniy hayotning taraqqiyoy etgan shakllarini chuqur qiyosiy tahlil etib, qaerda va qaysi sotsial va professional guruhlar ichida ritual, obryad, sig'inishga asoslangan yoki intellektual-aqidaviy mohiyat ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi. Shu tariqa, u sehrgarlik elementlari ayni qishloq xo'jaligiga asoslangan xalqlarga, dehqonchilikka xos, taqdirga ishonish zabt etuvchi va harbiy sinflarga, ratsional xususiyat esa tabiiy sharoitga nisbatan torroq darajada tobe bo'lgan hamda mehnat jarayonini tamomila ratsional tashkillashtirilishidan ko'proq manfaatdor bo'lgan shahar aholisi va hunarmandlarga xosligini isbotlagan.

Veber dunyo diniy-axloqiy tizimlarining individual qiyofasini tavsiflagan va bu tizimlarni asosiy ifodalovchi ijtimoiy qatlamlarga mos ravishda ularning klassifikatsiyasini bergan. Konfutsiylik tashuvchisi sifatida u olamni tashkillashtiruvchi byurokratni olgan, hinduizmni – olamni tartibga soluvchi sehrgar, buddizmni – dunyo kezuvcchi monax, islomni – dunyoni zabt etuvchi askar, xristianlikni – sayohatchi hunarmand ifodalaydi.

Veberni qiziqtirgan muammolardan biri – bu o'z jonini qutqarish muammosi. Veber diniy-axloqiy qurilmalarni ular jonini qutqarishning qanday yo'llarini taqdim etishiga qarab tahlil qilgan. Bu yerda ikki xil variant haqida so'z boradi: birinchisi – o'z shaxsiy harakati orqali qutqarish (masalan, buddizm), boshqasi – vositachi-qutqaruvchi yordamida (yahudiylik, islom, xristianlik). Birinchi

holatda ibodat, marosim, sotsial tashabbus (masalan, xayriya) usullaridan foydalaniladi. Ikkinchi holatda esa qutqarilishga e'tiqod (yahudiylik, lyuteranlik), taqdirni in'om etish (islom, kalvinizm), cherkovga mansublik (katolitsizm, pravoslavlik) asosida erishiladi. Nihoyat, qutqarish muammosi Veberni qutqarish yo'llariga e'tibor qaratishga majbur qildi. U asosan ikki yo'lni ajratgan: faol axloqiy harakat orqali yoki mistik tafakkur orqali.

Ko'rinib turibdiki, dinning sotsiologik tahlili olimga uning nafaqat ichki muammolarni ko'rib chiqishga, balki uning ijtimoiy institutlar bilan, ayniqsa iqtisodiyot va xo'jalik jarayonlari bilan keng sotsial aloqadorligi va o'zaro ta'sirlashuvi darajasiga chiqishga yordam berdi. Aynan shular orqali Veber o'z izlanishlarida dinni ijtimoiy hayotning boshqa shakllariga nisbatan ajratib oldi.

7. Veber ijodining ahamiyati haqida to'xtalar ekanmiz, avvalo, uning qarashlariga ta'sir ko'rsatgan manbalarni sanab o'tish lozim. Biz Veberning nazariyasining ko'plab manbalari sifatida nemis tarixchilari va faylasuflari, iqtisodchilari va siyosatchilarining nazariyalari bilan ham tanishib chiqishimiz mumkin. Veberga ta'sir ko'rsatganlar orasida Immanuel Kant (1724-1804) eng yuqori o'rin tutadi. Lekin biz Veberga asosiy ta'sir ko'rsatgan Fridrix Nitsche (1844-1900) va uning zamonaviy jamiyat tuzilmasidagi individual ta'sirini unutishimiz kerak degani emas.

Nemis sotsiologiyasi va Veberga Immanuel Kantning ko'rsatgan ta'siri shundaki, nemis sotsiologiyasi va marksizm turli xil falsafiy ildizlardan kelib chiqqan. Biz ko'rib chiqqanimizdek, marksizm nazariyasida Kantning emas, balki Gegelning ta'siri muhim hisoblanadi. Modomiki, Gegelning falsafasi Marks va marksizmning aloqalari, qarashlari va qarama-qarshiliklarini ko'rib chiqqan ekan, nemis sotsiologlaridan ko'pchiligi Kantning falsafasidagi o'zgarma qarashlarni ilgari surgan. Kant uchun dunyo to'g'ridan-to'g'ri anglab bo'lmaydigan chalkash voqyea-hodisalardan iborat. Dunyoni shu voqyea-hodisalarga xos fikrlar orqali ajratish mumkin. Haqiqiy dunyoning mohiyati Kant tomonidan aniqlanganidek, mazmun tushunilishi mumkin bo'lgan shakllardan anglashinishi mumkin. Shaklga bo'lgan bu ta'kid, nazariya Gegel an'anasidan ko'ra Kantning namoyondalariga ushbu falsafiy vazifalarni yukladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. - P. 28

Karl Marks asosan kapitalizm nazariyasini ilgari surgan. Veberning ishi ratsionilizatsiya jarayonining asos fundamenti hisoblanadi. Veber umumiy ma'noda G'arbiy dunyoning boshqa qismida rivojlanishdagi bir xillikdan qochilayotgan bir paytda institutlar ratsional yuksaklikka erishishi sabablariga katta qiziqish bildirdi.

Marksnikidan ko'ra Veber nazariyasi qabul qilinishining sabablaridan biri uning siyosiy jihatdan nisbatan maqbulligidir. Radikalizmni qo'llab-quvvatlagan marksizm o'rniga Veber ayrim masalalarda nisbatan liberal va boshqalarida konservator bo'lgan. U zamonaviy kapitalistik jamiyatning ko'plab jihatlarini jiddiy tanqid qilgan va Marksni kabi tanqidiy xulosalarga kelgan bo'lsada, muammolarning radikal yechimini taklif etishda u yagona emas edi. Aslida, u radikal islohotlar ko'plab marksistlar tomonidan taklif etilganligi va boshqa sotsialistlar yaxshidan ko'ra ko'proq zarar yetkazishi mumkinligini his qildi.

Keyingi sotsiologiya nazariyotchilari, ayniqsa, AQSh sotsiologlari, o'z jamiyatini marksizm nazariyasining hujumiga uchraganligini ko'rishdi. Asosan, konservativ yo'nalishdagilar marksizmga alternativ nazariyani taqdim etdilar. Bulardan biri Maks Veber edi (Dyurkgeym va Vilfredo Paretolar boshqalari edi). Oxir-oqibat, ratsionalizatsiya nafaqat kapitalistik, balki sotsialistik jamiyatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Aslida, Veberning nuqtai nazariga ko'ra, ratsionalizm kapitalistik jamiyatlardan ko'ra sotsialistik jamiyatlar uchun katta muammo edi.

Va nihoyat, Veber Marksga nisbatan jamiyat hayoti uchun keng ko'lamlı yondashuv taklif qila oldi. Marks iqtisodiy sohada deyarli yetakchilikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Veber ko'proq ijtimoiy hodisalarning xilma-xilligiga qiziqqan. 1960-yillargacha AQSh sotsiologik nazariyalariga Marks g'oyalari muhim ijobiy ta'sir ko'rsata olmagan bo'lsa, Veber 1930-yillar oxirlaridayoq katta ta'sir ko'rsata olgan edi<sup>1</sup>.

Maks Veber sotsiologiyada ehtimol eng taniqli va nufuzli arbob bo'lgan. Veberning ishlari turfa xil va ularni turlicha interpretatsiya qilish mumkinki, ular ko'plab sotsiologik nazariyalarga ta'sir ko'rsatgan. Uning so'zsiz strukturaviy funksionalizmga, ayniqsa

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. - P. 31.

Talkott Parsons ishlariga ta'siri bo'lgan. Shuningdek, u konflikt an'alarini nazariy jihatdan muhim asoslagan va tanqidiy nazariyaga Marks orientatsiyasi kabi Veberning fikrlari ham katta ta'sir o'tkazgan, shuningdek, tanqidiy nazariya an'alarining merosxo'ri Yurgen Xabermasga ham. Ramziy interaksionizm ham Veberning g'oyalari ta'siriga uchragan. Alfred Shyusga Veberning ahamiyat va motivlar to'g'risidagi ishlari kuchli ta'sir qiladi va etnometodologiyaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Yaqindagina ratsional tanlov nazariyalari Veber oldida o'zlarini qarzdor deb tan oldilar. Veber juda keng ta'sirli nazariyotchi sifatida tan olingan<sup>1</sup>.

Geydelberg universitetida 1964-yildagi M.Veberning 100 yilligiga bag'ishlab Nemis sotsiologiya jamiyatning Kongressi bo'lib o'tgan. Shuningdek, olimning yubileyi dunyo bo'ylab keng nishonlangan.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. M.Veber sotsiologiyasida "sotsial harakat" tushunchasining o'rmini izohlang.
2. M.Veber sotsial harakatning qanday turlarini ajratgan?
3. M.Veber sotsiologiyasining "tushunuvchi" deb nomlanishining sababi nimada?
4. "Ideal tip" tushunchasining mazmun-mohiyatini izohlang.
5. M.Veber hukmronlikning qanday turlarini ajratgan?
6. M.Veberning byurokratiya haqidagi qarashlari nimalardan iborat?
7. M.Veberning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi qarashlarini izohlang.
8. M.Veber kapitalizmni qay tarzda tahlil qilgan?
9. M.Veberning ratsionallik to'g'risidagi konsepsiyasini tushuntiring.
10. M.Veberning din to'g'risidagi qarashlarini izohlang.
11. M.Veber ijodining sotsiologiya tarixidagi ahamiyati nimalardan iborat?

<sup>1</sup> O'sha joyda. – B. 112.

#### GLOSSARIY

**Affektiv xatti-harakat** – **аффективное действие** – **affective action** – M.Veberga ko'ra, hissiyot va emotsiyalarga asoslangan xatti-harakat.

**An'anaviy hukmronlik** – **традиционное господство** – **traditional domination** – Veberga ko'ra, an'analarga, meros bo'lib o'tadigan hokimiyatning qonuniyligiga ishonitirishga asoslangan hukmronlik.

**An'anaviy xatti-harakat** – **традиционное общество** – **traditional action** – M.Veberga ko'ra, egallangan odatlar, an'alar asosida kelib chiqadigan xatti-harakat.

**Byurokratik hukmronlik** – **бюрократическое господство** – **bureaucratic domination** – Veberga ko'ra, professional ma'muriy apparat tomonidan amalga oshiriladigan hukmronlik turi.

**Byurokratiya** – **byurokratiya** – **bureaucracy** – Veberga ko'ra, davlat va ijtimoiy institutlarning funktsionallashuvi ish yurituvchi-professionallardan tarkib topgan o'ziga xos qatlam tomonidan amalga oshiriladigan tizim.

**Hukmronlik** – **господство** – **domination / dominance** – Veberga ko'ra, boshqariluvchilar tomonidan boshqaruvchilar buyruqlarining bajarilishi ehtimoli, u hokimiyatning institutsional shakllar asosida amalga oshirishga yordam beradi.

**Ideal tip** – **идеальный тип** – **ideal type** – Veberga ko'ra, individ yoki voqeyelikning real harakatlarini ma'lum bir qadriyatlar ustuvorlik qilgan konkret tarixiy davrga xos standart bilan taqqoslash asosida tahlil qilishga yordam beruvchi sof ideal metodologik usul.

**Legal hukmronlik** – **легальное господство** – **legal domination** – Veberga ko'ra, rasmiy va ratsional huquqqa asoslangan hukmronlik.

**Legitim hukmronlik** – **легитимное господство** – **legitimate domination** – Veberga ko'ra, hukumatning qonuniyligiga ishonitirishga tayanuvchi hukmronlik.

**Maqsadli oqilona xatti-harakat** – **целенаправленно-рациональное действие** – **goal-directed-rational action** – Veberga ko'ra, tashqi dunyo predmetlariv va boshqa odamlarga o'z maqsadiga

erishish yo'lidagi shart-sharoit yoki vosita sifatida qaraydigan, oqilona yo'naltirilgan xatti-harakat.

**Qadriyatli oqilona xatti-harakat** – *ценностно-рациональное действие* – *value-rational action* – M.Veberga ko'ra, insonning e'tiqodida belgilangan ma'lum bir xulq-atvor ko'rinishidan kelib chiqadigan xatti-harakat.

**Ratsionallik** – *рациональность* – *rationality* – Veberga ko'ra, «biron-bir intellektual-nazariy yoki amaliy-axloqiy pozitsiyaning mantiqiy yoki teleologik ketma-ketligi».

**Tushunish** – *понимание* – *understanding* – ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalar haqida tasavvur, tushuncha, hukmlar hosil qilish va ularni ongdagi mavjud bilimlar bilan bog'lashdan iborat aqliy jarayon.

**"Tushunuvchi" sotsiologiya** – *"Понимающая" социология* – *"Understanding" sociology* – Veberning "ideal tip" nazariyasi asosiga qurilgan sotsiologik konsepsiyasi.

**Xarizmatik hukmronlik** – *харизматическое господство* – *charismatic domination* – Veberga ko'ra, avtoritet, xarizmatik yetakchiga bo'ysunishni nazarda tutuvchi hukmronlik.

## V. PARETO SOTSIOLOGIK SISTEMASI

Reja:

1. Vilfredo Paretoning hayoti va ijodi
2. Pareto qarashlarining ilmiy va mafkuraviy asoslari
3. Jamiyat individlarning o'zaro munosabatlari tizimi sifatida
4. Sotsiologiya metodologiyasi
5. Psixologik reduksionizm
6. Elita nazariyasi

1. Vilfredo Federiko Pareto italiyalik muhandis, iqtisodchi va sotsiolog olim. U elita nazariyasining asoschisi sanaladi. Uning fikricha, jamiyat piramidaga o'xshash tuzilishga ega bo'lib, uning yuqorisida elita, jamiyat hayotini boshqaruvchi va yo'nalturuvchi sotsial qatlam joylashadi. Jamiyatning istiqbolli rivojlanishi elitaning o'z vaqtidagi almashinuvi natijasidir.

Italiyaning pozitivistik sotsiologiyasi eklektik hisoblangan. U o'zida mexanitsizm, evolyutsionizm, vulgar biologizm va boshqa oqimlarning elementlarini birlashtirgan. Chezare Lombrozo (1836-909), Enriko Ferri (1856-929) va boshqa olimlarning konsepsiyalari bunga misol bo'ladi. Italiyalik siyosiy sotsiologiya sohasida ijod qilgan mashhur olimlari Gaetano Moska (1858-941), Robert Mixels (1876-936) va boshqalarning qarashlari ham e'tiborga molikdir. Vilfredo Paretoning ko'p qarashlari ularnikiga monand hisoblanadi.

Biz ilk, dastavval konservativ bo'lgan yevropa sotsiologik nazariyasi to'g'risidagi bo'limni italiyalik sotsiolog Vilferdo Pareto (1848-1923) to'g'risidagi qisqacha izoh bilan yakunlaymiz. Pareto o'z davrining nufuzli kishisi edi, ammo uning bugungi kundagi roli minimal darajada. 1930-yillarda asosiy amerikalik nazariyotchi Talkott Parsons xuddi Veber va Dyurkgeymga bergandagidek e'tibor qaratib Paretoning ishlariga qiziqish borasida kichik bir portlash qildi. Shunday bo'lsada, oxirgi yillar ichida uning asosiy konsepsiyasining ayrim jihatlaridan tashqari Pareto yana o'z ahamiyatini va zamonaviy fikrga muvofiq o'rmini yo'qotdi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 39.

Vilfredo Pareto 1848-yil 15-iyulda Parijda italyalik markiz xonadonida tavallud topgan. Uning otasi Rafael Pareto asli Genuya shahridan bo'lib, liberal va respublikachilik qarashlari tufayli Parijga emigratsiya qilgan. Paretoning onasi Mariya Metene esa fransuz edi. Olim yoshligidan fransuz va italyan tillarini birday yaxshi bilgan. Ammo butun umr o'zini eng avvalo italyan deb his qilganini aytib o'tgan.

1858-yil Paretoning oilasi Italiyaga qaytishadi. U shu yerda yuqori darajada gumanitar va texnik ma'lumot oladi, ayniqsa matematikaga alohida e'tibor qaratadi. 1869-yilda esa Turindagi Politehnika maktabini tugatgach, «Qattiq jismlar muvozanatining fundamental tamoyillari» mavzusida dissertatsiya yoqlaydi. Muvozanat masalasi uning iqtisod va sotsiologiya sohalarida yozgan asarlarida ham asosiy o'rinni egallaydi. Ko'p yillar davomida Pareto temiryo'l boshqarmasi va metallurgiya kompaniyasida yuqori lavozimlarda ishladi.

1874-yilda Pareto Florensiyada «Adam Smit jamiyati»ning faol a'zosiga aylanadi. Bu jamiyatning maqsadi –iqtisodiy liberalizm doktrinasini ilgari surish, rivojlantirish, targ'ib qilish va himoyalashdan iborat edi. 1882-yilda Pareto Italiyada deputatlikka nomzodini qo'yadi, lekin omadsizlikka uchraydi.

XIX asrning 90-yillarda u siyosiy faoliyat bilan shug'ullanadi. Ammo bu urinishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Ayni vaqtda mumtoz asarlarni o'rganadi, ularni tarjima qilish bilan faol shug'ullanadi, ilmiy ommabop maqolalar chop etadi. 1891-yilda Leon Valras bilan tanishadi va bu tanishuv uning kareerasida muhim o'zgarishlarga sabab bo'ladi, chunki Valras uning Lozanna universitetiga taklif qiladi, hattoki o'zidan keyin kafedrani boshqarish taklifini ham beradi. 90-yillarning birinchi yarmida Pareto iqtisodiy nazariya va matematik iqtisodiyot sohalarida bir qator tadqiqotlar o'tkazib, ularni ommaga taqdim qiladi. Pareto 45 yoshdan pedagogik faoliyatini boshlab, umrining so'nggi yillariga qadar Shveysariyadagi Lozanna universitetida professor lavozimida ishlaydi, 1906-yilgacha faqat siyosiy iqtisoddan, 1897-1917-yillarda Bolonya universitetida sotsiologiyadan ham dars beradi.

Pareto hayotining so'nggi yillarida Italiyada fashistik rejim o'rnatilayotgan edi. Mazkur rejimning ba'zi ko'zga ko'ringan namoyondalari va, eng avvalo, Mussolini o'zi ham o'zlarini

Lozanna universiteti professorining shogirdlari, deb e'lon qiladilar. Shu tufayli Pareto 1923-yil Italiya senatori maqomini olishga sazovor bo'lgan. Olimning o'zi yangi rejimga nisbatan vazmin munosabatda bo'lgan va uni liberal bo'lishga, fanga erkinlik berishga chaqirgan.

Umuman olganda, pareto amakisidan qolgan meros hisobiga juda to'kis hayot kechirgan. Pareto 1923-yil 20-avgustda Selinyada (Shveysariya) vafot etdi. U umrining so'nggi yillarini shu shaharda o'tkazgan va shu yerda dafn qilingan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Paretoning birinchi ilmiy ishlari iqtisodga bag'ishlangan. Iqtisodchi sifatida, u ilm tarixida muhim o'rin tutadi. U daromad taqsimoti, monopolistik bozor, ekonometriyani shakllantirish va boshqa masalalarni o'rganishga katta hissa qo'shgan. Biroq, asta-sekin u inson haqida homo oeconomicus sifatidagi tasavvurlarning noto'g'ri va mos bo'lmaganligini tushunadi. O'z navbatida, bu Paretoning inson mohiyatini ratsionalistik tushunishni yetarli va to'g'ri emas, deb hisoblashi bilan bog'liq edi. Natijada Pareto insonning haqiqiy mohiyatini bilish uchun sotsiologiyaga murojaat qildi. U 1897-yildan sotsiologiya bo'yicha ma'ruzalar o'qiy boshladi. Va o'zining sotsiologik qarashlarini «Siyosiy iqtisod kursi» (1896-1897), "Sotsialistik tizimlar" (1902) va «Siyosiy iqtisod darsligi» (1906) kabi asarlarida bayon eta boshladi. Uning sotsiologik qarashlarini o'zida to'la aks ettirgan yirik asari "Umumiy sotsiologiya bo'yicha traktat" asari bo'lib, Pareto bu asarini 1907-1912-yillarda yaratdi. Bu asarning italyancha asl nusxasi birinchi marta 1916-yili, fransuzcha varianti esa 1917-1919-yillari chop etildi. Asar 2000 sahifa, 13 bob va 2612 paragrafdan iborat bo'lib, ilmiy uslubda yaratilgan. Bu asar 1935-yili AQShda qayta nashr etilganidan keyin muallifga katta shuhrat keltirdi<sup>1</sup>.

Seytin Pareto o'zining asosiy g'oyalarini Marks nazariyasini rad etish sifatida ishlab chiqqanligini isbotladi. Zero, Pareto nafaqat Marksni, balki Ma'rifatchilik falsafasining salmoqli qismini ham rad qilgandi. Misol uchun, Ma'rifatchilik faylafasi vakillari ratsionallikka urg'u bergan bo'lsa, irratsionallik ko'rsatkichlari, masalan inson instiktlarining ahamiyatini ta'kidlab. Bu urg'ular marksistik nazariyani rad etish bilan ham bog'liq edi. Ya'ni bu irratsional, instinktiv ko'rsatkichlar muhim va o'zgarishsiz bo'lganligi sababli,

<sup>1</sup> Борозовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – СПб.: ФИО СурГУ, 2014. – С. 128.

iqtisodiy inqilob bilan dramatik ijtimoiy o'zgarishlarga erishish uchun haqqoniy emas edi<sup>1</sup>.

2. Paretoning qarashlari shakllanishida muhandislik, matematika va iqtisod kabi fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy-gumanitar fanlar ham katta ta'sir ko'rsatgan. Iqtisodiy muvozanat nazariyasi asoschisi Leon Valras (umuman olganda ularning qarashlari bir-biriga zid bo'lgan) bilan bir qatorda, qisman bo'lsada, Nikkolo Makiavelli, shuningdek, sotsial darvinizm, instinktivizm, G.Lebon va G.Tard, Italiya kriminologik maktabi, fransuz faylasufi Jorj Sorelning zo'ravonlik va sotsial afsona to'g'risidagi nazariyalari, Italiya siyosiy mutafakkiri Gaetano Moskaning boshqaruvchi va boshqariluvchilar to'g'risidagi nazariyasi katta ta'sir o'tkazgan.

Marks nazariyasiga Pareto, odatda, salbiy munosabat bildirgan bo'lsada, u tarixiy materializm va sinfiy kurashning ilmiy ahamiyatini tan olgan. Bu kurash insoniyat tarixi davomida doimo bo'lgani va "mehnat va kapital o'rtasidagi" mojarolarga barham berilsada, uning yo'qolib ketmasligini ta'kidlaydi.

Pareto ilmiy ijodini tadqiq etuvchilar uning sotsiologik qarashlari shakllanishiga evolyutsiyaning katta ta'sir o'tkazganligini bir ovozdan ta'kidlaydilar. Dastlab, u otasi kabi demokratik, liberal va insonparvarlik qarashlarini qo'llab-quvvatlagan edi. Ammo keyin, taxminan 1900-yilga kelib, u zamonaviy Italiya siyosiy hayotidagi voqea-hodisalar Paretoning yoshlikdagi g'oyalarini chuqur umidsizlikka uchratdi. Bu umidsizlik o'zining takaburligi, aristokratik qarashlari, siyosiy martaba va shaxsiy hayotidagi muvaffaqiyatsizliklari tufayli yanada kuchaydi. Jiddiy g'oyaviy-psixologik inqirozni boshidan tez-tez o'tkazgan insonda bo'lgani kabi Paretoning dunyoqarashi va xarakterida ham asta-sekinlik bilan pessimizm va sinizm alomatlari sezila bordi.

Pareto doimo va shiddat bilan, tez-tez kinoyal tarzda siyosiy, axloqiy, metafizik ta'limotlarning "maskalarini" ocha boshlaydi, o'z davrining demokratiya (uni "plutodemokratiya" deb ataydi), erkinlik, insonparvarlik, birdamlik, taraqqiyot, tenglik, adolat va boshqa shu kabi ijtimoiy ideallarini "fosh" eta boshlaydi. Amerikalik iqtisodchi B.Seligmen uni hatto "tug'ma isyonchi" deb ataydi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. - P. 40.

<sup>2</sup> Qiziq: Профессор А.Б. Сельгемэн по истории социологии: Учительное пособие для вузов. - 5-е изд. - М.: Казанский дом «Университет», 2001.

Sotsiologiya Pareto uchun sotsial ideallarning "niqoblarini yechish"da unga qurol sifatida xizmat qiladi. Sotsiologiyani bu tarzda qabul qilinishi Marks, Gobino yoki Gumplovich kabilar bilan yaqinlashtiradi. Chunki ular ham aynan sotsiologiya siyosat negizida turgan manfaatlarni ochib berish uchun yaratilgan fan sifatida baholaydilar.

Bu munosabati bilan uning qarashlari Dyurkgeym qarashlariga zid edi, chunki u (Dyurkgeym) sotsiologiyani sotsial ideallarni asoslovchi fan sifatida olib qarash lozim, deb bilgan. Dyurkgeym barcha dinlarni o'z mohiyatiga ko'ra haq deb bilsa, Pareto aksincha ularning barchasini xurofot deb bilgan. Dyurkgeym fan o'zi o'rganayotgan obyektini yo'q qilishga intilishi kerak emas, desa, Pareto bu ob'ektini buzishga harakat qiladi.

Pareto, Dyurkgeym kabi, ideallarning haqiqiy amaliy kuchini tan oladi, undan farqli o'laroq, ularning hiech biriga ishonmaydi. Unga ko'ra, bu samarali ish beradigan afsonalar, ataydan aldanish natijasida yaratilgan "nazariyalar", yoki elita o'z hukmronligini amalga oshirishi uchun qo'llaydigan yolg'on vositalar hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Paretoning inson tabiati haqida ijobiy fikrga ega emasligi ajablanarli emas, chunki bu yerda biz unga N.Makiavellining "Hukmdor" asari ta'sirini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Paretoning falsafiy antropologiyasi insonning birinchi navbatda o'z xatti-harakatlarini hayolida rejalashtiradi, keyingina shu asosda harakat qiladi, degan ratsionalistik modelga qarshi qaratilgan. Paretoning fikriga ko'ra esa, aksincha, inson birinchi harakat qiladi, keyin esa amalga oshirgan harakati natijalarining asoslarini (ko'pincha soxta) izlab topishga harakat qiladi, ya'ni ratsionallashtiradi. Bu pozitsiya kutilmaganda 3.Freydning psixologik himoya mexanizmlaridan biri sifatida ishlab chiqqan ratsionalizatsiya konsepsiyasiga yaqin ekanligi ko'rinadi.

Freyd bilan solishtirishni davom etgan holda shuni ta'kidlash lozimki, Pareto psixoanaliz asoschisi singari insonni tuyg'ular instinktlar va mayllar bilan boshqariluvchi irratsional mavjudot deb hisoblaydi. Freyd singari u ham inson xulq-atvorining irratsional asoslarini ratsional tarzda tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, "traktat"ining asosiy va birdan-bir maqsadi - fizika, kimyo, astronomiya, biologiya va boshqa shunga o'xshash fanlarda o'zini

oqlagan metodlarni sotsial fanlarda qo'llagan holda eksperimental voqeyelikni tadqiq etishdan iborat.

Shunday qilib, inson ratsional modeliga qarshi Pareto mantiq va tajribaga asoslangan ultraratsional fan pozitsiyasida turadi. Paretoning bu ratsionalizmi insonning haqiqiy motivlarni yashirgan holda o'zi va boshqalarni aldab, o'z xulq-atvorini ratsionallashtirishga qaratgan yolg'on motivlar, illyuziyalar, "nazariyalar"ni ochib berish uchun mo'ljallangan. Paretoning umumiy nazariy-metodologik orientatsiyasini hisobga olgan holda, agarda uning fanga bo'lgan ishonch-e'tiqodi ham boshqa e'tiqodlari singari ssyoliy bo'lmaganida, uni ssientist, deyish mumkin bo'lar edi.

Pareto ta'kidlaydiki, ma'lum bir nazariyalarning eksperimental haqiqati va ularning sotsial jihatdan foydaliligi – bu tamomila ikki xil, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, hatto ko'pgina holatlarda bir-biriga zid narsalardir. Sotsial strukturaning haqiqiy asoslarini tushuntirish shu asoslarning o'zlari uchun xavfli hisoblanadi. Pareto quruq oliftagarchilik bilan o'zining "Traktat"i haqida: agar uni ko'pchilik kitobxonlar o'qishini oldindan bilganimda edi, uni umuman yozmagan bo'lar edim deb yozganligi zamirida shu sabab borligini tushunish mumkin<sup>1</sup>.

3. Paretoning fikricha, nazariyada axloqiy va umuman qadriyat elementlari doim faktlarni buzib ko'rsatishga olib keladi. Shuning uchun ulardan imkon qadar voz kechish talab etiladi.

Paretoning nazarida har bir nazariyani uch jihatdan ko'rib chiqish mumkin:

1) obyektiv – muallif va uni qabul qiluvchidan (retsipient) qat'iy nazar;

2) subyektiv – muallif va retsipientni e'tiborga olgan holda (odatda muallif nima sababdan o'z nazariyasini yaratgani va ma'lum individ uni qabul qilayotganini aniqlash kerak bo'lganida qo'llaniladi);

3) utilitar – uning ijtimoiy yoki individual foydaliligi nuqtai nazaridan<sup>2</sup>.

Foydalilik nazariyaning obyektiv yoki subyektivligiga bog'liq emas. Haqiqat neytral bo'lib, o'zining ijtimoiy sifatini ma'lum maqsad yo'lida ishlatilganida topadi. Natijalar jamiyat uchun foydali bo'lib

<sup>1</sup> Pareto V. *Traité de sociologie générale // Pareto V. Œuvres complètes. Genève, 1968. T. XII. § 843.*

<sup>2</sup> Фарафан Е.А., Нурмухамедов У.Н. Социология теории. Ученый и жизнь. – Ташкент, 2009. – С.

chiqsa, nazariya ham foydali sanaladi. Aks holatda esa nazariya zararli hisoblanadi. Shu bilan birga Pareto hamma nazariyalarni teng ravishda murakkab, cheklangan, deformirmatsiyaga uchragan deb hisoblaydi. Chunki unga qadar biror sotsiolog mantiqiy-eksperimental usuldan foydalanmagan.

Pareto «sotsial fakt» konsepsiyasini sharhlaganida obyektivlik va subyektivlik o'rtasidagi farq yaqqol ko'ringan. U gnoseologik, moddiy yoki g'oyaviy jihatdan, shuningdek, haqqoniyligi va murakkabligiga ko'ra faktlar o'rtasidagi farqni ko'rmagan.

Pareto monokauzallik (yagona sabab) tamoyiliga qarshi chiqqan. U sabab-oqibat munosabatlarining o'rniga o'zaro bog'liqlik va o'zaro aloqadorlikni (funktsionalizm) taklif qilgan. Chunki sotsial nazariya jamiyatda mavjud bo'lgan barcha omillarni e'tiborga olishi va ular o'rtasida doimiy bog'liqlik munosabatlarini o'rnatishi lozim. Shu asosga ko'ra, Pareto bir chiziqli evolyutsiya konsepsiyasini rad etgan. U evolyutsiya bitta uzluksiz chiziq bo'ylab rivojlanmasligini ta'kidlagan.

Pareto ilmiy terminologiyaning aniq bo'lishiga katta e'tibor qaratgan. Ammo o'zi qo'llagan tushunchalarga qat'iy ta'riflar bermagan.

Paretoning asosiy g'oyalaridan biri jamiyatning sekinlik bilan parchaladigan va qayta tiklanadigan muvoznat holatidagi tizim ekanidir. Muvoznat tushunchasini Pareto Valrasning iqtisodiy nazariyasidan olgan bo'lib, unga mexanistik xarakter baxsh etgan. Tizimning bir qismida sodir bo'lgan o'zgarish boshqa qismiga ham, albatta, o'tadi va «dinamik muvoznat» tiklangunga qadar butun tizim harakatga keladi. Pareto iqtisodni sotsial tizim ichidagi tag tizim sifatida ko'rgan. Uning fikricha, iqtisodiy tizim ehtiyojlari va ratsional manfaatlari tufayli harakatga kelgan insonlardan tashkil topadi. Sotsial tizim esa murakkabroq sanaladi. Sotsial harakatda his tuyg'uga ega bo'lgan individlar ishtirok etadi. Individlarning psixik tuzilishiga bog'liq bo'lgan hissiyotlari butun tizimni harakatga keltiruvchi asosiy muruvvat hisoblanadi. Hissiyotlarni boshqa ratsional kechinmalarga qaraganda tushunish qiyinroq bo'ladi.

4. Paretoning nazarida, uning sotsiologik tizimi XIX asr ijtimoiy-siyosiy qarashlarida asosiy o'rinni egallagan jamiyat to'g'risidagi metafizik va spekuliyativ qarashlarga chek qo'yishi kerak edi. U pozitivizm asoschilari Kont, Mill va Spenserning sotsiologik

nazariyalarini umuman olganda qo'llab-quvvatlagan. Ammo, olim ularni haqli ravishda bilimni amaliy asoslash tamoyilini tartibsiz qo'llaganini tanqid qilgan. Uning fikricha, sotsiologiya huquq, siyosiy iqtisodiyot, siyosiy tarix, din tarixi kabi har xil maxsus fanlarning sintezi bo'lib, asosiy maqsadi jamiyatni yaxlit holatda o'rganishdan iborat.

Jamiyatning tashkil topishi, faoliyati va o'zgarishlarining asosiy tamoyillarini ochib berishda Pareto yuqorida ta'kidlaganimizdek, mantiqiy-eksperimental usuldan foydalangan. U sotsiologiyani fizika, kimyo va astronomiya kabi aniq fanlar darajasiga ko'tarishni istab, faqatgina amaliy asoslangan fikrlarni bildirishni taklif qilgan. Kuzatishlar esa mantiqiy qoidalarga qat'iy rioya etilgan holda umumlashtirilishi zarur bo'lgan.

Mantiqiy-eksperimental metod narsalarning "mohiyati", ularning "zarur" aloqalari haqida ma'lumot bermaydi. Ushbu metod faqat ehtimoliy bilimlarni beradi; unda o'rnatilgan qonunlar bizga ma'lum bo'lgan makon va zamon chegaralari bilan chegaralangan bir nechta bir-biriga o'xshash aloqalarnigina ifodalaydi.

Hatto rasmiy mantiqning barcha qonunlari, qat'iy, shunga o'xshash tarzda talqin qilinishi kerak. Misol uchun, mashhur sillogizm: "Barcha odamlar o'limga mahkum; Suqrot – odam; demak Suqrot o'limga mahkumdur" – eksperimental nuqtai nazardan quyidagicha bo'lishi kerak: "Biz bilgan barcha odamlar o'lib ketishgan; biz bilgan Suqrot ham o'z belgilariga ko'ra o'sha odamlar toifasiga kiradi, shuning uchun Suqrotning ham o'lishi ehtimoli bor"<sup>1</sup>. Agar rasmiy mantiq qonunlari, xuddi shunday xarakterga ega bo'lsa, unda bu ayniqsa, sotsiologik qonunlarga to'g'ri keladi.

"Harakat" konsepsiyasi sotsiologik tahlilning bir bo'lagi sifatida XIX asr oxiri – XX asr boshlari sotsiologiyasiga juda xosdir. Biz uni psixologik sotsiologiya va Maks Veberda ko'rishimiz mumkin. U shu davrning fizikasida bo'lgani kabi, sotsiologlarning qiziqishlarini sotsial makrodunyodan sotsial mikroduyoga qarab o'zgartirishini namoyon etadi. Pareto makro-sotsial tizimlar, global jamiyatlar, katta sotsial guruhlar masalasini rad etmaydi, lekin uning sotsiologiyasining bashlang'ich nuqtasi sifatida inson harakatining turli ko'rinishlarini tahlili xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Pareto V. *Traité de sociologie générale // Pareto V. Œuvres complètes. Genève, 1968. T. XII. § 97.*

Pareto sotsial harakatning mantiqiy va mantiqiy bo'lmagan turlarini ko'rsatgan. Ular o'rtasidagi farqni anglash uchun esa olim sotsial harakatni tarkibiy elementlariga ajratgan. Bular:

- tashqi kuzatilgan harakat;
- uning ratsional asoslanishi;
- harakatlanuvchi shaxsning psixik holati.

Pareto individning psixik holatini sotsial fenomenning «ob'ektiv» asosi, deb bilgan. Uning sub'ektiv asosi esa harakatlanuvchi shaxsning ratsional tarzda keltirgan dalil-isbotlaridir.

Paretoning fikricha, sotsiologlarning asosiy xatosi ularning voqeyelikning obyektiv tomonidan ko'ra subyektiv tomonini o'rganishlaridir. «Obyektiv» sotsiologik tadqiqot esa shaxsning psixik ko'rsatmalarini va ular asosida kelib chiqqan «mantiqiy bo'lmagan» harakatlarni o'rganishi kerak. Aynan shunday harakat inson hayotida ko'p uchraydi.

Pareto ko'ra, «Mantiqiy bo'lmagan» harakat o'ziga xos tuyg'ular mantiqiga asoslanadi. Mantiqiy harakatdan farqli o'laroq ular insonning ongli mushohadasi va mulohazasi, balki hissiyotlari, ya'ni irratsional psixik jarayon mahsuli sanaladi. Misol uchun ilohlarning marhamatiga erishish uchun qilingan qurbonlik va boshqa diniy marosimlar orqali o'z maqsadiga yetishdir. Bu kabi vositalar maqsad bilan ob'ektiv tarzda bog'liq emas, shuning uchun unga yetishtira olmaydi.

«Mantiqiy» harakat esa, aksincha, aql va normalar bilan boshqariladi. His-tuyg'u va irratsional holatlar unga yotdir. Mantiqiy harakatlar maydoni asosan tabiiy fanlar, texnika, ayrim harbiy, siyosiy, huquqiy harakatlar va iqtisodiyotdir. Mazkur holatda vosita va maqsad o'zaro ob'ektiv mantiq bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham maqsadga yetishishni ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda vositalar maqsadga muvofiq (adekvat) sanaladi.

Boshqa harakatlar "mantiqsiz" deb ataladi, bu "mantiqqa qarama-qarshi" degani emas.

Umuman olganda, mantiqiy harakatlar juda kam uchraydi; ijtimoiy hayotda noaniq harakatlar hukmronlik qilmoqda. Mantiqiy harakatlar nizolarga asoslangan, mantiqiy bo'lmagan – tuyg'uga asoslangan. Ammo ikkinchisi insonning ichki instinkt harakatlaridan farqli o'laroq, aql-idrokni ham o'z ichiga oladi.

Pareto individning mantiqiy bo'lmagan va irratsional tabiatini inobatga olib, insonning xatti-harakati hech qachon mohiyatan ko'rinishiga muvofiq kelmaydi. Insonlar hissiyotli va ongli mavjudot bo'lgani uchun hissiyot va aql o'rtasidagi ziddiyat kelib chiqadi. Pareto hech ikkilanishsiz hislarni birinchi o'ringa qo'ygan. Chunki u insoniyat tarixini harakatga keltiruvchi asl kuch sifatida inson hissiyotlarini ko'rgandi.

Pareto inson faoliyatining emotsional sohasini sotsiologik tizimining asosiy bo'g'ini ekanini ta'kidlagan holda u faqatgina ma'lum harakatlarda namoyon bo'lgan va shu asosda tasniflanadigan emotsiyalarni e'tiborga molik deb aytgan. Ular o'zgarimas, doimiy va shuning uchun «sotsial muvozanatni aniqlovchi» elementlar hisoblanadi. Pareto bu elementlarni o'ziga xos tarzda nomlagan va ularni tarjima qilish yetarlicha mushkul – «rezidui» (ital. residuo, frans. «rtfeidu»). Bu so'z kimyo fanida «qoldiq» yoki «cho'kindi» ma'nolarini ifodalaydi.

5. Insonlarni o'zlarining mantiqiy bo'lmagan harakatlarini mantiqiy deya tasavvur qilishlari asosiga qurilgan nazariyalarda barqaror va beqaror elementlar mavjud. Barqaror elementlarni Pareto yuqorida ta'kidlaganimizdek, «qoldiq» deb nomlaydi, ikkinchisini esa «hosila» («derivatsiya») tushunchasi bilan ifodalaydi<sup>1</sup>.

Garchi Pareto qo'llanilayotgan atamalarning aniq ta'rifini talab qilsa-da, yuqoridagi terminlarni qo'llaganda boshqa fanlardagi asl mazmun-mohiyatiga juda katta e'tibor qaratish zarur emasligini ta'kidlaydi. «Qoldiq»lar mantiqiy bo'lmaganligi bois insonning asosiy hissiyot va instinktlarining namoyon bo'lishini ifodalaydi. Shu bilan birga, Pareto ularni o'zlariga mos keladigan his-tuyg'ular va instinktlar bilan qorishtirib qo'ymaslikni ta'kidlaydi. «Qoldiq»lar «nazariya»larning (eng barqaror, o'zgarimas va universal) elementlaridir. Xuddi termometrdagi simobning ko'tarilishi haroratning oshishini namoyon etganligi kabi, ular ham hissiyot va instinktlarning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Shu bilan birga, u o'z-o'zidan mos keladigan his-tuyg'ular va instinktlar bilan qorishtirishni shart emas deb ta'kidlaydi, chunki ular aniq elementlar (eng barqaror, o'zgarimas va universal) va "nazariya"lardir. «Qoldiq»lar ishtaha, qiziqish va hokazolar kabi sotsial muvozanatni yaratishda muhim rol

<sup>1</sup> Pareto V. Transformazioni demografiche // *Zaccato-sociologica sociologia XIX - prima XX secolo*. Torino - M., 1996. - C. 156.

o'ynaydi. Bunga misol tariqasida Pareto quyidagi iborani keltiradi: "Suv 100 gradus haroratda qaynaydi".

Demak, «qoldiq»lar his-tuyg'u, emotsiya, ehtiros, instinkt, psixik holatlar va moyilliklarning asosi sifatida tuyg'ma, tabiiy va tashqi omillar ta'siriga berilmaslik xarakteriga ega bo'ladi. Ular ichki biologik impulslar sanalib, inson sotsial harakatini aniqlab beradi. Bir qancha tag guruhlar bo'lingan olti asosiy «qoldiq» guruhlar asosida Pareto insonning turli-tuman harakatlarini tashriflab berishga intilgan. U tarixiy harakatlarni yanada tizimlashtirish oqibatida birinchi ikki «qoldiq»ning o'rini yuqori baholagan.

Birinchi guruh – «kombinatsiyalar instinkti». Paretoning fikricha, u barcha sotsial o'zgarishlarning asosida yaratadi. Bu insonning terish, joyini almashtirish, narsalarni kombinatsiyalashga bo'lgan ichki psixologik moyilligi bo'lib, mazkur harakatlarni inson birinchiidan, qoniqish olish, ikkinchidan, bundan keyinliq turilmagani uchun bajaradi.

Ikkinchi guruh – «agregatlarni saqlashda qat'iylik». Qachonlardir qaror topgan aloqalarni quvvatlash va saqlashda namoyon bo'ladi. Bu konservativ tuyg'u yangilikka qarshilik, istalgan o'zgarishlarni nisbatan dushmanlik kayfiyatida kulo olish kabilarda namoyon bo'ladi.

«Qoldiq»larning boshqa guruhlari Pareto insonning ijtimoiy harakatlarda o'z tuyg'ularini ko'rsatish ehtiyoji, ijtimoiylik bilan bog'liq «qoldiq»lar, individning o'ziga tegishli mulk bilan yaxlitligi va jinsiy «qoldiq»ni kiritgan.

Yuqoridagi tasniflashning juda toqulay va noaniq xarakteri juda ochiq-oydin ko'rinib turibdi. Buni uning o'zidan tashqari boshqa hyech kim tushunmasligi, sotsiologiya tarixida "qoldiq"lar va "hosila"lar tushunchalarini deyarli hech kim ishlatmagan ajablanarli emas.

Paretoning o'zi "qoldiq"ning tasniflashning dastlabki xususiyatini tan oldi. Shunga qaramay, tanlangan sinflarning har birini batafsil tahlil qiladi. U birinchi-ikki sinf uchun asosiy ahamiyatga ega. Ulardan birinchisi, "kombinatsiyalarning instinkti" ijtimoiy o'zgarish tendensiyasini aks ettiradi; ikkinchi, "agregatlarni saqlashda qat'iylik".

<sup>1</sup> Pareto V. *Trattato di sociologia generale* // Pareto V. *Opere complete*. Genova, 1968. T. XII. § 875.

u ijtimoiy shakllarning o'zgarimasligi tendensiyasini, konservatizmni anglatadi.

Bir jamiyatning "qoldiq"lari, odatda, boshqasining "qoldig'i"dan ancha farq qiladi. Ular muayyan jamiyatning bir qismi sifatida shu jamiyat doirasida biroz o'zgarishi mumkin. Ammo ularning har bir jamiyatdagi turli qatlamlardagi taqsimoti juda o'zgaruvchan.

"Qoldiq" – bu insonning mantiqiy bo'lmagan harakatlarini "mantiqiyashtiradigan" "nazariya"larning doimiy, barqaror elementidir. Ular "his-tuyg'u"larni bevosita namoyon etib, ularning mavjud qatlami tubida yotadi.

Paretoning ta'kidlashicha, "qoldiq"ning oltita sinfi G'arbnig ikki ming yillik tarixi davomida barqaror qolgan. Shu bilan birga, har bir sinf ichidagi quyi sinflar unchalik barqaror emas; ulardan ba'zilarining kuchayishi boshqalarining zaiflashuvi bilan qoplanishi mumkin.

Pareto g'oyalari mashhur bo'lishiga Amerika sotsiologi Talkott Parsons katta hissa qo'shgan<sup>1</sup>. U "qoldiq"larning ikki kategoriyasini ajratadi: instinktlar bilan, ya'ni biologik impulslar bog'liq "qoldiq"lar va normativ "qoldiq"lar, ya'ni boshqacha aytganda, qadriyatlar. Pareto esa "qoldiq"larning bu ikki toifasini farqlamaydi. Paretoning "qoldiq" instinktini (hissiyot va h.k.) namoyon qiladi, deganda "borligini bildiradi", degan ma'noni nazarda tutadi.

Qachonki u qadriyatni namoyon etganda bu: verbal yoki ritual xulq-atvorni ifodalaydi. Pareto'ga ko'ra, «hosila» yoki «derivatsiya» "nazariya"larning o'zgaruvchan va yuzaki qatlamini tashkil etadi. Ushbu konsepsiya Sorelinning afsona tushunchasiga yaqin. "Hosila"lar "qoldiq"larga asoslanadi, va ular orqali "tuyg'u"larga o'tib, o'z kuchini namoyon etadi.

Paretoning ta'kidlashicha, "hosila"lar o'zlari kelib chiqqan "qoldiq"larga qat'iy mos kelavermaydi. Mana bu yerda biz aynan sotsiologiyani yaratilishidagi muammoni ko'ramiz. Zero bizga o'zlarini yaratgan asosni ko'pincha yashiradigan "hosilalar"gina ma'lum.

«Hosila»lar insonning ehtiyojlarini mantiq yoki yolg'on mantiq orqali qondiradi. Yuzaki va o'zgaruvchan bo'lishiga qaramay «hosila»lar ham sotsial tizimda muhim rol o'ynaydi. Ular "qoldiq"ni u yoki bu tarzda intensivlashtirishi, kuchaytirishi yoki zaiflashishi

<sup>1</sup> Qiziq: Парсонс Т. О структуре социального действия. – М.: Академический проект, 2000.

mumkin. Ular "hissiyot"larga ta'sir o'tkazishi yoki ularga aylantirishi orqali sotsial muvozanatga samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Garchi «hosilalar» «hissiyot» va «qoldiq»larga qaram bo'lsada, ular avtonom mavjud bo'lish xususiyatiga ega va bir-birini keltirib chiqarishi, o'zaro tarzda turli xil kombinatsiyalar yaratishi va o'zlarining belgilab bergan «hissiyotli-qoldiqli» asosga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Pareto o'zining diqqatini "hosila"larning ishonitira olishdek sub'ektiv tomoniga qaratadi. Ularni sotsiologik tadqiq etish bir insonlar boshqa bir insonlarni o'zlarining ortlaridan ergashtirish uchun qanday mantiqiy va yolg'on mantiqiy vositalardan foydalanishlarini aniqlashga qaratilgan. Bundan kelib chiqqan holda, Pareto "hosila"larning to'rtta sinfini ajratadi:

Birinchi sinf – yoki "oddiy ishonitirishlar", buning formulasi quyidagicha: "bu shunday, chunki bu shunday", "kerak, chunki kerak". hisoblanadi. Ona o'z bolasidan gapiga kirishni talab qilganda shunday gapiradi. Shu sababli onasi bolasiga, suddan tinglashni talab qiladi.

"Hosila"larning ikkinchi sinfi mantiqiy qadr-qimmatidan qat'iy nazar ularni samarali qiladigan avtoritetga (shaxs, urf-odat, udum) tayanuvchi dalillarni va mulohazalarni o'z ichiga oladi.

"Hosila"larning, uchinchi sinfida, "dalil" u yoki bu hisga, individual yoki jamoaviy manfaatga, huquqiy asoslarga (Huquq, Adolat), metafizik mohiyatlarga (Birdamlik, Progress, Demokratiya, Insonparvarlik) yoki g'ayritabiyy mavjudotlarning irodasiga tayanadi.

"Hosila"larning to'rtinchi sinf "verbal isbotlar"dan kuch oladi, ya'ni "noaniq, shubhali, ikki xil ma'noda qo'llanuvchi terminlardan foydalanish va haqiqatni tan olmaslik"ka asoslanadi.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, Pareto talqinida "hosila"lar ma'lum bir "qoldiq"lar va ularga mos "his"larga nisbatan ikki xil bir-biriga zid funksiyalarni bajaradi: birinchidan, ular bu "qoldiq"lar va "his"larni namoyon etadilar, ikkinchidan esa, ularni yashiradilar, qolipga soladilar. Vaziyatdan kelib chiqib yoki birinchi, yoki ikkinchi funksiya bajariladi.

Paretoning "hosila"larga munosabati ikki xil. Bir tomondan, u doimo nuqtai mantiqiy-eksperimental nazaridan ularning nomutanosibligini tanqid qiladi va fosh etadi. Boshqa tomondan, boshqacha bo'lishi mumkin ham emasligini, chunki aynan mantiqiy bo'lmaganligi ularning sotsial samaradorligini belgilab beradi. Buday



O'z navbatida, elita vakillari «quyi»ga tushishadi. Bu yerda Paretoning fikrlari Tard, Lebon, Moskalarning jamiyatni ixtirochi va taqlidchilar, sardorlar va omma, hukmdorlar va bo'ysunuvchilarga ajratuvchi nazariyalariga o'xshashligi yaqqol ko'rinadi.

Elita sirkulyasiyasi – bu geterogen jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalar jarayoni bo'lib, Pareto buni piramida shaklida tasvirlagan. Bunda elita piramidaning yuqorisida joylashadi. Elita istalgan vaziyatda o'zini sovuqon tuta bilishi, hisob-kitob, boshqalarning nimjon va ta'sirlanuvchi tomonlarini ko'rish va o'z manfaati yo'lida ishlata olish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Oddiy omma esa odatda emotsiya va hissiyotga beriluvchan bo'ladi. Bu jamiyatning ikki qismga ajralishini asoslab beradi. Bilimga ega bo'lganlar hissiyotni birinchi o'ringa qo'yuvchilarni boshqarishadi. Chunki ularning harakatlari aql asosida bo'lgani uchun dono sanaladi<sup>1</sup>.

Pareto boshqaruvchilarning ikki asosiy sifatini ko'rsatadi: ishontirish, o'z fikriga og'dirish, inson emotsiyalarini manipulyasiya qilish va kerak bo'lgan vaziyatlarda kuch ishlata olishdir. Mazkur qobiliyatlar bir-birini inkor etadi. Hukmdorlar kuch yoki kelishuv, ishontirish orqali boshqarishadi. Kelishuv va kuch butun tarix davomida boshqaruv quroli sifatida namoyon bo'lgan.

Hukumat emotsiyalarni qanchalik yaxshi ishlata olsa, uning siyosati shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. Pareto bo'yicha, mazkur tamoyil istalgan siyosiy muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Kuch ishlata olmagan elita o'ziga nisbatan kuchliroq, jur'atli va zo'ravonlik ishlata oladigan elitaga o'rinini beradi.

Tinch davrda hukmron elitaning almashish mexanizmi sotsial mobillik sanaladi. Boshqaruvchi sinf qanchalik «ochiq» bo'lsa, uning «sog'ligi» kuchli bo'ladi va o'z hukmronligini saqlaydi.

Elita sirkulyasiyasi sekin kechsa, yuqori qatlamda kuchsizlik, nimjonlik, tanazzul va tushish elementlari ko'rinishda boshlanadi. Mazkur qatlamlar elitar holatni ta'minlovchi psixik xususiyatlarni yo'qota boshlaydi va zo'ravonlik qilishda ojizlik bildiradi. Quyi qatlam orasida jamiyatni boshqarishga qobiliyati bo'lgan individlar paydo bo'ladi. Ular zo'ravonlik vositasida hokimiyatni egallashi mumkin. Ammo yangi shakllangan sinf ham o'z navbatida kuchsiz,

<sup>1</sup> Антонин Г.А. Паретовская социология. – Мәрепәтләр, 2009. – С. 30.

nimjonlashadi va boshqarish xususiyatini yo'qotadi. Mazkur elita yo'qotgan qudratini quyi sinfdan qobiliyatlarini olish yoki keraksiz bo'lib qolgan a'zolarini jismonan yo'qotish orqali qayta tiklashi mumkin. Ammo bu amallar ham foyda bermasa, quyi qatlam vakillari orasida yuqori sinf maqomiga munosiblar paydo bo'ladi. Natijada inqilob davri boshlanadi. Uning asosiy maqsadi hukmron elita tarkibini o'zgartirishdan iborat. Elitaning ko'tarilish va tushish, yuksalish va pasayish davrlari muqarrar va ilojsiz holatdir. Elitaning almashinishi insoniyat jamiyati mavjudligining qonuniyati sanaladi. Paretoning mashhur «tarix – bu aristokratiya qabristoni», degan iborasi ham shundan kelib chiqqan<sup>1</sup>.

Garchi hozirgi ko'pgina zamonaviy sotsiologlar Paretoning ishini o'qimagan bo'lsada, uning Ma'rifatchilik va marksizmni rad etishi va marksizm istiqboliga qarshi turgan ijtimoiy o'zgarishlarning elita nazariyasini ilgari surganligini ko'rish mumkin bo'ladi<sup>2</sup>.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. V.Paretoning jamiyatni dinamik tizim sifatidagi talqinini tushuntiring.
2. V.Pareto sotsiologiyaning predmeti va vazifalarini qanday talqin etadi?
3. V.Paretoning mantiqiy bo'lmagan harakat to'g'risidagi qarashlarini izohlang.
4. V.Paretoning elita konsepsiyasi mazmun-mohiyatini izohlang.
5. V.Pareto elita nazariyasining bugungi kundagi ahamiyatini izohlang.
6. Fashizm namoyandalarining o'z harakatlarini asoslashda V.Paretoning oligarxik hukmronlik nazariyasiga tayanganligining sababi nimada, deb hisoblaysiz?
7. V.Pareto sotsiologik g'oyalarining ahamiyatini yoriting.

#### GLOSSARIY

**Elita** – элита – elite – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv, madaniyat va fanni rivojlantirish funksiyalarini amalga

<sup>1</sup> Pareto V. Trattato di sociologia generale // Pareto V. Opere complete. Genova, 1964. T. XII. § 053.

<sup>2</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 40.

oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlami. Paretoga ko'ra, aholining tanlangan qismi bo'lib, aholining qolgan qismi unga moslashib, uning rag'batiga intiladi.

**Elita nazariyasi** – теория элит – theory of elite – V.Pareto asos solgan, a'zolarining qobiliyati va iste'dodiga ko'ra jamiyatda yuqori pog'onani egallovchi guruh haqidagi nazariya.

**Elita sirkulyasiyasi** – циркуляция элит – circulation of elites – Paretoga ko'ra, geterogen jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro aloqalar jarayoni bo'lib, elitaning ko'tarilish va tushish, yuksalish va pasayish davrlari muqarrar va ilojsiz holatdir. Elitaning almashinishi insoniyat jamiyati mavjudligining qonuniyati sanaladi.

**Hukmron elita** – властвующая элита – power elite – Mills interpretatsiyasiga ko'ra, zamonaviy jamiyatlarda hokimiyatni konsentratsiyalovchi insonlarning kichik bir guruhi.

**Ijtimoiy o'zgarishlar** – социальные изменения – social change – ijtimoiy guruh yoki jamiyatning tayanch tuzilmalaridagi o'zgarishlar.

**Instinkt** – инстинкт – instinct – genetik darajada o'rnatilgan, har bir tur vakilida mavjud bo'ladigan belgi yoki xususiyat.

**Oliy sinf** – высший класс – upper class – jamiyatning boy a'zolaridan tashkil topgan, meros mulki, shaxsiy biznes yoki katta summadagi aksiyalarga ega sotsial sinf.

## II BO'LIM. XX ASR BOSHLARIDA SOTSILOGIYANING RIVOJLANISHI

### AQSH empirik sotsiologiyasi. Chikago maktabi

#### Reja:

1. AQShda sotsiologiyaning paydo bo'lishi
2. XX asr Amerika sotsiologiyasida empirizm
3. "Polshalik dehqon yevropa va Amerikada" asari
4. Chikago maktabining shakllanishi
5. Chikago maktabining ravnaqi
6. Chikago maktabining inqirozi va sotsiologiya uchun ahamiyati
7. Sotsiologiyaning soha yo'nalishlari rivoji

1. J.Ritserning ta'kidlashicha, AQShda sotsiologiya paydo bo'lishining aniq sanasini belgilash qiyin. 1858-yil boshida Berlinda ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan kursi o'qitilgan, 1854-yilda Kontning «sotsiologiya» terminidan Jorj Fitsxyu foydalangan, 1873-yilda Uilyam Grem Samner ijtimoiy fan kursini Yeylda boshlagan. XIX asrning 80-yillari davomida "Sotsiologiya" maxsus kurslari paydo bo'la boshlagan. Bu nom bilan atalgan birinchi bo'limga 1889-yilda Kanzas universitetida asos solingan. Sotsiologiya 1892-yilda Albion Smoll Chikago universitetiga o'tdi va u yerda yangi sotsiologiya bo'limini etdi. Chikago bo'limi umuman Amerika sotsiologiyasida va qisman sotsiologik nazariya doirasidagi birinchi muhim markaz bo'lgan<sup>1</sup>.

J.Ritser ilk amerikalik sotsiologlarni ilk yevropa nazariyotchilarining ko'pchiligi haqida aytish mumkin bo'lgan konservator emas, balki siyosiy liberallar sifatida ta'riflash o'rindir, deb ta'kidlaydi. Ilk Amerika sotsiologiyasiga xos liberalizm asosan ikkita elementdan tashkil topgan. Birinchidan, u ozodlikka ishonch va shaxs farovonligiga tayangan. Bu ma'noda unga guruh jamoalarga urg'u bergan Kontdan ko'ra, Spenserning qarashlari ko'proq ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchidan, bu yo'nalishda birlashgan ko'pgina sotsiologlar jamiyatdagi progressga evolyutsion qarashni

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 189.

o'zlashtirdilar. Ammo bu progressga erishishning eng yaxshi usuli to'g'risidagi turlicha nuqtai nazarlar paydo bo'ldi. Ayrimlar sotsial islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun hukumat bir necha qadamlarni qo'yishi kerakligini ta'kidladilar.

Liberalizm o'zining keskin shaklida konservatizmga juda yaqin. Sotsial progressga, islohotlar yoki *laissez-faire* doktrinasiga e'tiqod va shaxsning ahamiyatiga ishonch tizimni yaxlitligicha qo'llab-quvvatlashga olib keladi. Bu yerda sotsial tizimning ishlayotganligi yoki ishlashi uchun isloh qilinishi mumkinligiga e'tiqod asosiy jihat hisoblanadi. Tizim umuman olganda kam tanqid ostiga olinadi; Amerika masalasida bu qisman kapitalizmga ishonch-e'tiqodni anglatadi. Muqarrar bo'lgan sinfiy kurash o'rniga ilk sotsiologlar sinfiy garmoniya va hamkorlikni ko'rganlar. Bu shuni namoyon etganki, ilk Amerika sotsiologik nazariyasi ekspluatatsiya, ichki va xalqaro imperializm hamda sotsial tengsizlikni oqlashga yordam bergan. Oxir-oqibat, ilk sotsiologlarning siyosiy liberalizmi haddan tashqari konservativ oqibatlarga olib kelgan<sup>1</sup>.

Ilk Amerika sotsiologik nazariyasini tahlilida uning paydo bo'lishining bir necha asosiy shart-sharoitlarini belgiladilar. Fuqarolik urushidan so'ng Amerika jamiyatida sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar muhim ahamiyat kasb etgan. yevropa sotsiologiyasining rivojlanishiga turtki bo'lgan omillarning ayrimlari (sanoatlashuv va urbanizatsiya kabilari) Amerikada ham sotsiologik nazariyalar rivojlanishi bilan bog'liq. Shuningdek, Amerika sotsiologiyasi shakllanishiga xristian dini, ayniqsa, protestantizm ta'sirini ko'rsatuvchi muhim dalillarni keltirgan olimlar ham bor. Amerika sotsiologlari dunyoni saqlab qolishda protestant qiziqishini saqlab qoldilar, va bir tilni (fan) boshqa til (din) bilan almashtirdilar. «1854 yildan Qo'shma Shtatlarda sotsiologiya bo'yicha ilk ishlar paydo bo'ldi. Birinchi jahon urushi boshlangungacha sotsiologiya Amerika hayoti va fikri, tashkilotlari va qarashlarining muammolariga axloq-odobga xos va intellektual aks-sado bo'ldi»<sup>2</sup>. Ruhoniy inson hayotini diniy yo'l bilan yaxshilashga intilayotgan bir paytda sotsiologlar ijtimoiy muammolarni aniqlash, o'rganish va yechimini topishga harakat qildilar. O'zining diniy ildizlariga va diniy faoliyatiga tayanib,

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 190-192.

<sup>2</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 192.

sotsiologlarning ko'pchilik qismi jamiyat mavjudligining fundamental qonuniyligini shubha ostiga olmadilar.

Amerika sotsiologiyasi shakllanishining yana bir muhim omili XIX asrning oxirida Amerikada bir vaqtda paydo bo'lgan ilmiy kasblar (sotsiologiya ham) va zamonaviy universitet tizimidir. yevropada esa universitet tizimi sotsiologiyaning paydo bo'lishiga qadar shakllangan. Shuning uchun sotsiologiyaga yevropada o'z yo'lini topishi qiyin kechdi, endi shakllanish jarayonida turgan yangi Amerika universitet tizimiga kirib borish oson kechdi.

Ilk Amerika sotsiologiyasi (boshqa ijtimoiy fanlarning ham) yana bir xususiyati uning tarixiy nuqtai nazardan voz kechib, pozitiv yoki "ilmiy" yo'nalishni tutganidir. Uzoq muddatli tarixiy o'zgarishlarni tushuntirishdan ko'ra, sotsiologiya qisqa muddatli jarayonlarni ilmiy o'rganishga o'tdi.

Nufuzli yevropa nazariyasining Amerika sotsiologiyasiga ta'siri yana bir omil bo'ldi. yevropa nazariyotchilari ma'lum bir darajada sotsiologik nazariyaning asoschilari edilar, va amerikaliklar bu asosdan foydalanishlari mumkin edi. yevropa olimlaridan amerikaliklarga ko'proq Spenser va Kont ta'sir ko'rsatdi. Ilk davrda Zimmelning ijodi ham ma'lum bir ahamiyat kasb etdi, Veber va Marks esa bir necha yillar davomida muhim jiddiy ko'rsata olmadi<sup>1</sup>.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Spenserning ilk AQSh sotsiologiyasiga ta'siri kuchli bo'lgan, 1930-yillarga qadar uning kuchli ta'sirini ikki olim misolida ko'rsatib o'tishga harakat qilamiz.

Uilyam Grem Samner (1840-1910) yuqorida aytib o'tiganimizdek, AQShda ilk sotsiologiya deb atalishi mumkin bo'lgan o'quv kursidan dars bergan olim hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, u bu kursni dunyoning hech bir universitetida xali bunga jazm qilinmagan bir paytda o'qiy boshlagan. Qo'llanmaning pozitivistik-naturalistik maktablarga bag'ishlangan 4-mavzusida to'xtalib o'tiganimizdek, Samner AQShda sotsial darvinizmning asosiy va yetakchi vakili edi. Lekin hayotining so'nggi yillarida qarashlarini o'zgartirgan. Samner hukumat tomonidan omadsizlarga yordam berilishga intilishiga qarshi edi. Samnerning ta'kidlashicha, «agar bizga kuchlilarning yashab qolishi yoqmasa, bizda buning bor yo'g'i bitta muqobili bor – zaiflarning yashab qolishga o'rganishi».

<sup>1</sup> O'sha joyda. – B. 199.

Bugungi kunda Samner qarashlariga e'tibor kuchli emasligini ikki sabab bilan asoslash mumkin: Birinchidan, uning sotsial darvinizmi bor yo'g'i kapitalizm raqobatini qonuniylashtirishga intilish sifatida baholanadi. Ikkinchidan esa, Yeylda o'z shogirdlari bilan sotsiologik maktab ochishga mustahkam asos yarata olmadi.

Lester Frank Uord (1841-1913) 1906-yilda Amerika sotsiologiya assotsiatsiyasining birinchi prezidenti etib saylandi. Uord fikriga ko'ra, sof sotsiologiyaning asosiy vazifalaridan biri sotsial metamorfoza va jamiyat tuzilmasining asosiy qonunlarini o'rganishdan iborat. U sotsiologiyaning amaliy jihatiga ham e'tibor qaratib, amaliy sotsiologiyaning mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. U jamiyatni mukammaltirish maqsadida ilmiy bilimdan ongli tarzda foydalanishni nazarda tutadi. Shunday qilib, Uord u to'laqonli sotsial darvinist bo'lmaganligini ko'rish mumkin. U sotsial islohotlar tarafdori edi.

L.Uord g'oyalarining davomchisi, AQSh psixologik sotsiologiyasining yirik vakili Franklin Genri Giddins (1855-1931) ham empirik sotsiologiya rivojiga katta hissa qo'shdi, u sotsiologiyada empirik tadqiqotning statistik usulini ishlab chiqdi. Uning fikriga ko'ra, sotsiologiya individlarning xulq-atvorlarini ularning atrof-muhit ta'siriga reaksiyasi yig'indisi sifatida talqin etiluvchi "plyuralistik xulq-atvor"ni statistik usullar orqali o'rganishi lozim.

J.Ritserga ko'ra, yuqoridagi ikki olimning sotsiologik nazariya taraqqiyotiga ta'siri uzoqqa cho'zilmagan. Bu borada bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan Torsteyn Veblen haqida bunday deya olmaymiz. Ayniqsa uning J.Midning qarashlari, shuningdek, Chikago maktabiga ta'siri cheksiz bo'lgan.

Torsteyn Veblen (1857-1929) o'zi sotsiolog bo'lmada, iqtisodchi sifatida shunday sotsial nazariyani yaratdiki, u bir qator fanlar singari sotsiologiyaga ham sezilarli va muhim ta'sir o'tkazdi. Veblen uchun asosiy muammo «biznes» i «sanoatchilar» o'rtasidagi nizo edi. Biznes deganda, Veblen o'z kompaniyalari foyda haqida g'amxo'rlik qiluvchi sanoat egalari, rahbarlarini tushungan, lekin ular narx va foydani yuqori darajada ushlab turish maqsadida, ko'pincha ishlab chiqarish cheklashga harakat qiladilar.

Bu bilan ular sanoat tizimining ishlashiga to'sqinlik qiladilar va butun bir jamiyatga salbiy ta'sir (misol uchun, ishsizlikni keltirib chiqarish) ko'rsatadilar. Jamiyat uchun esa eng yaxshi yordam sanoat

ishlab chiqarish jarayoniga aralashmaslikdir. Shunday qilib, rahbarlar Veblenga ko'ra, jamiyatning ko'plab ichki muammolari sababchilari bo'lib qoladi. Aslida esa buni sanoat tizimini va uning qanday ishlashini tushunadigan (masalan, muhandislar), shuningdek umumiy farovonlik manfaatini ko'zlaydigan kishilar boshqarishi kerak.

Veblenning "Bo'sh vaqt sinf nazariyasi" (1899-1994) nomli kitobi uning bugungi kundagi muhim ahamiyatini belgilab beradi. Veblen bo'sh ishbilarmonlik sinfini (biznes bilan yaqindan bog'liq) isrofgarchilik iste'molini rag'batlantirishdagi roli uchun tanqid qiladi. Jamiyatning qolgan qismida taassurot qoldirish uchun bo'sh vaqt sinfi "namoyishkorona dam olish"ga (vaqtni bekorga sarflash) va "namoyishkorona iste'mol"ga (mahsulotlarga o'z narxlaridan ko'ra ko'proq pul harajat qilish) berilib ketadi. Bu boshqa sotsial sinf vakillariga ta'sir ko'rsatadi va ular bevosita yoki bilvosita bo'sh vaqt sinfiga taqlid qilishga harakat qila boshlaydilar. Natijada vaqt va pulni bekorga sarflaydigan jamiyat shakllanadi. Veblenning bu ishidagi juda muhim bo'lgan jihat ushbu davrdagi boshqa sotsiologik ishlardan farqli ravishda (shuningdek, Veblen boshqa asarlari kabi), "Bo'sh vaqt sinfi nazariyasi" sotsiologik vaqt asarlari farqli o'laroq, asosiy e'tiborni ishlab chiqarishga emas, balki iste'molga qaratadi. Shunday qilib, bu asar bugungi sotsial nazariyaning ishlab chiqarishdan iste'molga tomon burilishini oldindan ko'ra bilgan, deyish mumkin.

2. Sotsiologiya tarixida AQSh sotsiologiyasi va undagi empirizm haqida gapirishdan oldin empirik sotsiologiyaning mazmun-mohiyatiga oydinlik kiritish lozim bo'ladi. Shuningdek, nima uchun AQSh sotsiologiyasida empirizmga urg'u berilishining asosiy sabab va shart-sharoitlari nimalardan iborat ekanligini tahlil qilish lozim.

Birinchidan, empirik sotsiologiya deganda, maxsus empirik tadqiqotlarni o'tkazish natijasida faktografik bilimlarga ega bo'lish bilan bog'liq sotsiologiya fanining rivojlanish sohasini tushunamiz. Bugungi kunda empirik tadqiqot aniq ijtimoiy muammolarni o'rganishni anglatib, ham nazariy, ham amaliy vazifalarni hal etishga, guruhlararo va guruhlar ichidagi munosabatlar hamda ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga qaratiladi. Empirik tadqiqotni o'tkazishda maxsus miqdoriy va sifatiy usullardan foydalanishni nazarda tutadi, masalan: so'rov, kuzatish, tajriba, hujjatlarni o'rganish va h.k.

Empirik sotsiologiya sotsiologning professional faoliyatining muhim bir turi hisoblanib, usiz sotsiologiyani fan sifatida tasavvur

qilish mumkin emas. U nazariy sotsiologiya bilan chambarchas bog'liq. Nazariy sotsiologiya va empirik tadqiqotlar sotsiologiyaning o'zaro bir-birini taqazo etuvchi ikki jihati hisoblanadi. Zero, sotsiologik faoliyat nafaqat empirik tadqiqotlar o'tkazishni, balki boshqacha ish turlarini, birinchi navbatda ilmiy umumlashtirish va axborot tahlilini, turli darajadagi nazariyalarni yaratish va rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

XX asr boshida empirik sotsiologiyaning vujudga kelishi O. Kont tomonidan e'lon qilingan, lekin mantiqiy yakuniga yetkazilmagan pozitivistik sotsiologiya tamoyillarini o'zgartirishga intilish bilan bog'liq edi. Bundan oldin ham yevropada ma'lum darajada tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsada, XVII-XIX asrlarda ularni tayyorlash va o'tkazish uslubiyati yaxshi ishlab chiqilmagan edi. Sotsiologiya nazariyalari, bir tomondan, birmuncha mavhum tusga ega bo'lgani sababli aniq empirik tadqiqotlarni o'tkazish uchun sharoit yaratmagandi, chunki bu nazariyalarda avvalambor global tarixiy-evolyutsiya sxemalarini yaratish vazifasi qo'yilgan edi. Boshqa tomondan esa, bu nazariyalar yuqorida aytilgan xususiyati tufayli, tekshiruvga va aniq empirik dalillarga muhtoj emasdi. Shu bilan birga, yuqorida aytib o'tilgan empirik tadqiqotlarsiz, ayniqsa Tennis, Dyurkgeym, Veber kabi sotsiologlarning muhim nazariy xulosalari ham bo'lmasligi ta'kidlanardi.

Empirik sotsiologiya pozitiv ahamiyatga ega, chunki u ko'pgina juda muhim sotsial muammolar va ularni hal etish yo'llari haqida aniq, ilmiy asoslangan bilimlar beradi. Ular sotsiologiyaga nafaqat nazariy, balki sezilarli, foydali natija keltirishga qodir bo'lgan amaliy faoliyat sohasi xususiyatini baxsh etadi. Bu esa ko'pincha hatto iqtisodiy samara – mablag' tejallishi yoki ularni oqilona sarflash bilan ham o'lchanishi mumkin.

Shu o'rinda empirik sotsiologiyaning strukturasi e'tibor qaratib o'tsak. Empirik sotsiologiyaning ikki – amaliy va akademik – turini farqlanib, bunda amaliy sotsiologiya ijtimoiy muhandislik vazifasini bajaradi. Sotsiologik ijtimoiy-muhandislik faoliyati asosida esa, ikki asosiy tamoyil – empirizm va pragmatizm yotadi. Ular bu faoliyatning aniq, haqiqiy seziladigan natija olishga qaratilgan haqida dalolat beradi.

Amaliy sotsiologiya aniq dasturlar va tavsiyalarni, ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqadi. Aslini olganda, amaliy tadqiqotlar –

aniq buyurtmachi sifatida ish yuritadigan hamda sotsiolog o'tkazgan ish uchun bevosita pul to'laydigan odamlar uchun mo'ljallangan tadqiqotlardir deydi G.Zborovskiy<sup>1</sup>.

Akademik sotsiologiya esa universitetlarda rivojlanadi, va u buyurtmachidan nisbatan mustaqildir. Akademik tusdagi empirik tadqiqotlar shunday muammolarni ko'tarishi mumkinki, ularni hal etish bevosita iqtisodiy foyda keltirmaydi. Akademik sotsiologiya amaliy sotsiologiyadan farqli o'laroq, avvalambor, fan rivojlanishini, bilimlar kengayishini ko'zlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, empirik sotsiologiyaning yuqorida to'xtalib o'tgan ikki turidan dastavval ularning birinchisi paydo bo'lganligini ko'rish mumkin. Aynan AQShdagi universitet tadqiqotlaridan empirik sotsiologiya shakllana boshladi. Buni asoslash uchun bir necha sabablarni keltirib o'tamiz. Bular:

- shiddatli sanoatlashuv;
- ommaviy immigratsiya;
- jadal urbanizatsiya;
- sotsial differentsiatsiya.

Birinchi navbatda, XX asr boshida AQSh iqtisodiy taraqqiyotining shiddatli sur'atlarini aytib o'tish lozim. Bu sur'atlar bilan bironta yevropa mamlakati tenglasha olmadi. AQShda iqtisodiy va moddiy-texnika taraqqiyotiga turtki bergan ulkan kapital to'planib qolgan edi. Iqtisodiyotning yuksalishi bilan birga ishchilarning moddiy farovonligi ham ortib bordi. Yirik sanoatning rivojlanishi va kapitalning to'planishi ijtimoiy differentsiatsiyaning chuqurlashuviga, bu esa o'znavbatida bir qator sotsial muammolarga olib keldi: ijtimoiy adolatsizlik, poraxo'rlik va h.k.

Bu davrda Amerikada shaharlar ham sezilarli darajada kengaydi. Ko'plab mamlakatlardan, jumladan yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlaridan muhojirlar kelib, shaharlarga o'rnatishga qaror qildi. Bu esa shaharlar qiyofasini tamomila o'zgartirdi. Ishbilarmonlik markazi (daun-taun) bilan bir qatorda aholisi terisining rangi va millatlariga ko'ra turlicha rayonlar paydo bo'ldi, hatto gettolar<sup>2</sup>, shahar atrofida ham turarjoylar vujudga keldi.

<sup>1</sup> Жорновский Г.Е. История социологии: сопременный этап: учеб. для вузов. 3-е изд., пер. и доп. – СПб.: Юрид. ин-т СПбГУ, 2015. – С. 24.

<sup>2</sup> AQShda irqiy kamitilgan milliy oqchiliklar, birinchi navbatda qora tanlilar yashaydigan rayon.

Demak, XX asr boshida yuz bergan yuqorida sanab o'tilgan jarayonlar yutuqlar bilan bir qatorda o'ziga xos muammolarni keltirib chiqarganligi va ularning ilmiy asosdagi yechimi bo'lgan ehtiyoji AQShda empirik sotsiologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga asosiy turtki bo'ldi, deksak xato bo'lmaydi. Natijada sotsiologiyaning institutsiallashuviga ilk turtki berildi, u o'quv fani sifatida nafaqat oliy, balki o'rta o'quv yurtlari, kollejlarga ham kiritildi.

Sotsiologiyaning jadal rivojlanishiga va Amerika jamiyatiga oson moslashishiga asosiy sabab – bu pragmatizm va instrumentalizm mafkurasi va falsafasi edi. Shu o'rinda, neopozitivizm haqida to'xtalib o'tish zarur bo'ladi, chunki aynan uning ta'siri bu davrda AQSh sotsiologiyasida amaliy tadqiqotlarni mutlaqlashtirishga asbab bo'lgan.

Sotsiologiyada neopozitivizm – falsafaning mantiqiy pozitivizmga tayanuvchi nazariy-metodologik yo'nalishdir. O.Kont tomonidan taqdim etilgan pozitivizmning asosiy tamoyillar to'rtta bo'lgan bo'lsa, neopozitivistlar uni yana ikki tamoyil bilan boyitadilar. Neopozitivizmning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) ijtimoiy voqyea-hodisalar butun bir borliq uchun umumiy bo'lgan tabiiy va ijtimoiy-tarixiy qonunlarga bo'ysunadi (naturalizm);
- 2) sotsial tadqiqot usullari tabiatshunoslik fanlari usullari kabi aniq, qat'iy va ob'ektiv bo'lishi lozim (ssientizm);
- 3) inson xulq-atvorining "subyektiv jihatlarini" faqatgina ochiq xulq-atvor orqali tadqiq etilishi lozim (bixeviorizm);
- 4) barcha ilmiy tushunchalar operatsional tarzda aniqlanishi lozim (operatsionalizm);
- 5) barcha ijtimoiy voqyea-hodisalar miqdoriy jihatdan qayd etilishi va o'rganilishi lozim (kvantifikatsiya);
- 6) sotsiologiya fan sifatida qadriyatli hukmlardan va mafkuradan xoli bo'lmog'i lozim (metodologik obyektivizm).

Ushbu tamoyillar asosida neopozitivizm vakillari inson xulq-atvori motivlarini faqatgina konkret xatti-harakatlarni kuzatish orqaligina tadqiq etish mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bu xatti-harakatlarda faqatgina moddiy-texnik omillarning rolini aynanlashtiradilar. Quyidagi talablarga javob bergandagina sotsial voqyea-hodisalar tadqiqoti o'zining haqqoniyligini namoyon etadi:

- a) miqdoriy jihatdan, matematik usullar asosida qayd etish mumkin bo'lganda;

- b) hissiy ma'lumotlarga asoslanganda;
- d) empirik jihatdan tekshirish mumkin bo'lganda.

Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy hayotning barcha voqyea-hodisalarini ham (masalan, psixik jarayonlar) miqdoriy jihatdan qayd etish va o'rganish, ijtimoiy qonuniyatlarni ratsional tafakkur tushunchalarisiz tadqiq etish, ko'pgina nazariy mushohadalarning (masalan, jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti istiqbollari haqidagi) haqqoniyligini bevosita verifikatsiya orqali tekshirish mumkin emas.

Neopozitivizm o'zlarini "ilmiy sotsiologiya" vakillari yoki sotsiologiyada "tabiiy-ilmiy" yo'nalish vakillari, deb hisoblovchi umumiy bir g'oyada birlashgan alohida bir necha maktablardan tashkil topgan yo'nalishdir. Vena to'garagi tarkibida shakllangan bu oqim keyinchalik AQSh sotsiologiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib, XX asr boshlaridan empirik sotsiologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Natijada, bevosita amaliy ishlarga e'tiborning kuchayishi oqibatida, sotsiologiya ijtimoiy ish bilan tenglashtirildi. Nazariy va metodologik bazaning yetishmovchiligi – ushbu davr kamchiligi sifatida empirizm va pragmatizm kabi xususiyatlarni namoyon qildi. Buning natijasida empirik tadqiqotlarni sotsiologik nazariyalarga qarshi qo'yish hisobiga, ularning sotsiologik nazariyalarni ma'lum bir muddatda (15-20 yil) butun sotsiologiya sahnasidan surib chiqarishga imkoniyat berdi.

3. AQShda 1910-1920-yillarda sotsiologiya rivojlanishida katta rol o'ynagan va uning tamomila yangi davrini boshlab bergan tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bu tadqiqotlar yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, asosan universitet tadqiqotlari edi. AQShning Chikago, Kolumbiya, Garvard, Michigan kabi bir qator nufuzli universitetlarida yirik ilmiy maktablar shakllandi. XX asrning birinchi yarmida o'tkazilgan o'n minglab empirik tadqiqotlar ilmiy sotsiologiya uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi. Bu masalada avvalambor Chikago maktabining (Chikago universitetiga Rokfellerlar sulosasi asos solgan) AQSh va umuman jahon empirik sotsiologiyasi taraqqiyotidagi o'rni va roli kattadir.

Empirik sotsiologiya sohasidagi e'tiborli ishlardan birinchi navbatda Chikago maktabi vakili U.Tomas va F.Znanetskiyning «Polshalik dehqon yevropa va Amerikada» asari hamda R.Park va

E.Byorjess rahbarligida bajarilgan shaharning (ijtimoiy ekologiya muammolarining) sotsiologik tadqiqotlaridir.

Uilyam Ayzek Tomas (1863-1947) – Chikago universiteti sotsiologiya professori (1900-1918), sotsiologiyada psixologizm vakili, sotsiologiya fanining ilk ilmiy jurnali "American Journal of Sociology" ning redaktori (1895-1917), shuningdek, Chikago maktabining asoschisi hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, sotsiologiya keng doiradagi muammolarni, ya'ni individ va ijtimoiy guruh, individ va madaniy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklarni, ijtimoiy holatlarda individ xulq-atvorlari qonuniyatlarini, individning guruhga va bir ijtimoiy guruhning boshqa bir guruhlariga moslashuvi jarayonlarini o'rganish bilan shug'ullanishi lozim, bunda tabiiy fanlar usullariga tayanish zarur.

Ijtimoiy vaziyat (holat) tushunchasi – U.Tomas nazariyasining asosiy tushunchasi hisoblanib, u uchta elementdan tashkil topadi:

- A) obyektiv shart-sharoitlar (sotsial norma va qadriyatlar);
- B) individ va guruh maqsad va qadriyatlar;
- D) individ tomonidan vaziyatning aniqlanishi.

U.Tomasning F.Znanetskiy bilan birgalikda yozgan 5 jildlik "Polshalik dehqon yevropa va Amerikada" (1918-1920) nomli kitobida ikkinchi elementning tahliliga asosiy e'tibor qaratilgan. Individ tomonidan vaziyatning aniqlanishi guruh qadriyatlar bilan mos kelmasa, kapitalistik jamiyatni ko'pgina kasalliklarga duchor etuvchi ziddiyat va ijtimoiy dezintegratsiya yuzaga keladi. Bu asarda konkret hodisani tadqiq etish (case-study) usuli qo'llanilgan va to'liq bayon etilgan. U.Tomas tomonidan shakllantirilgan holatni aniqlash teoremasi quyidagicha: "Insonlar holatni real deb baholar ekan, ular o'z oqibatlariga ko'ra ham realdir"<sup>1</sup>.

Bu yerda insonlarning nimani o'ylayotganliklari va uning ular qilayotgan ishlariga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi muhimligiga urg'u berilgan. Bu mikroskopik, ijtimoiy-psixologik qarash Marks, Veber va Dyurkgeym kabi yevropa olimlarining makroskopik sotsial-strukturaviy va sotsial-madaniy qarashlariga zid edi. U Chikago maktabining nazariy mevasi – ramziy interaksionizmning asosiy hal qiluvchi belgilaridan biriga aylandi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 199-209.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

Ijtimoiy hayotning va insonning shaxsiy maqsad va qadriyatlarini asosida yotuvchi, sabablar va harakatlantiruvchi kuchlarni tahlil qilib, U.Tomas psixoanaliz ta'siri ostida insonning to'rtta asosiy xohish-istaklari haqidagi ta'limotni yaratadi: yangi tajriba, xavfsizlik, e'tirof va hokimiyat. Uning fikriga ko'ra, inson xohish-istaklarini temperament belgilab beradi.

U.Tomas ijtimoiy hayot va madaniyat taraqqiyotida ijod bilan shug'ullanuvchi insonlarning roliga hal qiluvchi ahamiyat berib, faqatgina ularning qobiliyati, yangilik va kashfiyotlari, shuningdek, psixologik xususiyatlari, belgilangan temperamenti ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydi, deb hisoblaydi.

Sotsiologik tadqiqotlar texnikasi rivojida U.Tomas tomonidan ilgari surilgan usul, ya'ni inson faktorini o'rganishda shaxsiy hujjatlar (xat, kundalik, avtobiografiya, xotiralar va h.)dan foydalanish usuli sotsiologiya va sotsial psixologiya fanlarida muhim ahamiyat kasb etdi.

Florian Znanetskiy (1882-1958) sotsiologiyani sotsial tashkilotlar to'g'risidagi fan sifatida baholaydi. Unga ko'ra, sotsiologiya nafaqat guruhning alohida a'zolari o'rtasidagi, balki uning har bir a'zosi va, umuman, butun bir guruh tarkibidagi o'zaro munosabatlarni ham belgilab beruvchi xulq-atvor qoidalarini o'rganishi zarur. Sotsial tashkilotning asosini sotsial institutlar tashkil etadi. Jamiyatning o'zgarishi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirlashuv natijasi sifatida talqin etiladi. Jamiyat muhitga moslashish natijasida o'zgaradi, insonlar esa – jamiyatga. F. Znanetskiy sotsial xatti-harakatni boshqa insonlarga ta'sir qilishga intiluvchi xulq-atvor sifatida talqin qiladi, uning ikkita asosiy tipini ajratadi – moslashuv va muholifat.

U.Tomas va F.Znanetskiyning «Polshalik dehqon yevropa va Amerikada» kitobi empirik sotsiologiyaga tamal toshini qo'ygan asar sifatida mutaxassislar tomonidan empirik sotsiologiyaning xrestomatik, klassik asari deb ta'riflanadi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Asar asosiga tadqiqot predmeti sifatida olingan aniq va lokal muammo qo'yilgan. Bu yerda, polshalik dehqonlarning XX asr boshida AQSh ga emigratsiyasi haqida, o'z mamlakatida qolgan va yangi yashash joyiga ko'chib o'tgan polshalik dehqonlarning qiyosiy tavsifi (tahlili) haqida gap bormoqda.

2. Empirik aniq-sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanishga asosiy urg'u berilgan. Ular orasida eng muhimi – shaxsiy hujjatlarni o'rganish usuli bo'lib chiqdi.

3. Asar mualliflarning vujudga keluvchi ijtimoiy jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan xulosa va yakunlarining amaliy tusda ekanligi bilan ajralib turadi: ayrim ijtimoiy umumiyliklarning yangi hayot sharoitlariga moslashuvi, ko'rsatib o'tilgan hodisalar munosabati bilan, nizolarni yengib o'tish (yoki ularga yo'l qo'ymaslik) shular jumlasidan.

Znanetskiy va Tomas tadqiqotining predmeti Amerikaga ko'chib o'tgan, turmushning yangi shakllari (adaptatsiya) oldida turib qolgan polyak dehqonlarining oilalari edi. Tadqiqotda 8 ta asosiy muammo ajratiladi:

- 1) sotsial tashkilot turi va individualizmni muvofiqlashtirish muammosi;
- 2) individual va sotsial faollik muammosi;
- 3) "anormallik" muammosi;
- 4) kasb muammosi;
- 5) jinslararo o'zaro munosabatlar muammosi;
- 6) sotsial baxt muammosi;
- 7) irq va madaniyatlar kurashi muammosi;
- 8) madaniy hayotni optimal tashkillashtirish muammosi.

Qo'yilgan barcha masalalar empirik jihatdan o'rganildi. Masalan, besh jildli kitobning ikki jildi hych qanday izohlarsiz 28 ta polyak oilasining yozishmalaridan iborat. Bu yozishmalarning birlamchi tahlili o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Masalan, bir guruhga er-xotinlarning yozishmalari, ikkinchisiga boshqa oilaga turmushga chiqib ketgan qizlarning yozishmalari ajratilgan. Shuningdek, urf-odatlar, axborotlar, his-tuyg'ular, adabiy, ishbilarmon va h.k. guruhlar ajratilgan. Tadqiqotda 8 mingta hujjatdan foydalaniladi.

Mualliflar tomonidan berilgan ikkinchi tadqiqot usuli – avtobiografiyalarni o'rganish metodidir. Uchinchi jild Amerikaga ko'chib ketgan Lyubotnik Vladik Vishnevskiy degan insonning avtobiografiyasi asosiga qurilgan. Florian Znanetskiy va Uilyam Tomaslar ijtimoiy hayot shart-sharoitlari o'zgarishining insonning qarashlari o'zgarishiga ta'sirini kuzatishga harakat qilganlar. Tadqiqotda keltirilgan shaxsiy hujjatlar konkret insonlarning motivatsiyasi dinamikasini ko'rishda ishonarlilikni oshiradi. Olingan

ma'lumotlar "sotsial xulq-atvorning barqaror namunasi" ning universal tipologiyasini qurishga yordam berdi.

Znanetskiy va Tomaslar sotsial xarakterning uchta turini ajratib ko'rsatdilar. Birinchisi – "filistayn" – barqarorlikka yo'nalgan, an'anaviy vaziyatlarni xush ko'ruvchi, konformist va tashqi muhitda o'zgarishlarga aktiv qarshilik ko'rsatuvchi insonlar turi. Ikkinchisi – "bogemian" – kutilmagan reaksiya vo xulq-atvorlarni namoyon etuvchi, yangi sharoitlarga tez vo oson moslanuvchi insonlar turi. Oxirgi tur – "kreativ" – aktiv faoliyat yurituvchi, xilma-xillikka moyil va maqsadga intiluvchan insonlar turi.

Bu asar XX asrning boshlari uchun yangilik edi. Konkret faktlarga asoslangan sifatli xarakter kasb etuvchi materiallardan qurilgani uchun u sotsiologiyada yangi so'z sifatida qabul qilindi.

Bu tadqiqot tendensiyasi Amerika sotsiologiyasida ancha vaqt barqarorlikni namoyon etdi, yevropa sotsiologiyasi vakillari E. Fromm va T. Adornolar tomonidan nazariy va metodologik jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Shunga o'xshash muammo yechimi sifatida F.Rismening "Yakka olomon. Amerika xarakterini tadqiq etish" (1950) asari namoyon bo'lgan.

"Polyak dehqoni yevropada va Amerikada" kitobida qadriyat va yo'l-yo'riqlar sotsiologik kategoriya va empirik instrumentariyalarga xos ma'noga ega bo'ladi. Znanetskiy nuqtai nazaricha, ijtimoiy hayotda qadriyatlar omili rolini hisobga olmasdan, sotsial nazariyalar empirizmga "bog'liq bo'lib qolishadi", bu esa o'z navbatida fikrlarni kengroq talqin etishga va yangi qarorlar taklif qilishga halaqit beradi. Sotsiologiyaning ustunligi yaqqol namoyon bo'lib tursada, sotsial harakatlarni amaga oshirishda uni orientir sifatida moddiy sharoitlardan foydalanish vositasi sifatida odamlarning o'ziga bog'liq bo'lgan holda allaqachon mavjud bo'lganda». Ikkala muallifning ta'kidlashlaricha, Italiyada spirtli ichimliklar sotish do'konlari ko'p bo'lgan, ammo u yerda ichkilikbozlik darajasi spirtli ichimliklar bilan savdo qilishga qat'iy chegaralar qo'yilgan AQSh dagiga nisbatan yuqori bo'lmagan; og'ir moddiy sharoitlarda kun ko'radigan oilalar polyak dehqonlari jamoasida ko'p uchragan, qulay moddiy va yashash sharoitlarida yashaydigan polyak aristokratiyasi orasida, aksincha, oilalarning barham topishi oddiy holga aylangandi.

Znanetskiy va Tomas tomonidan to'plangan hujjatli manbalarning ko'rsatishicha, polyak dehqonlarini iqtisodiy jihatdan rivojlangan

mamlakatga ko'chirilishi ular doirasida axloqiy muhitning yaxshilanishiga olib kelmadi. Moslashuv (adaptatsiya) davrida – aksincha, axloqning yomonlashuvi va oilaviy aloqalarini susayishi ko'zga tashlangan. «Polyak dehqonlari yevropada va Amerikada» kitobining mualliflari fikricha, kishilar hayotining moddiy sharoitlari bilan ular tomonidan axloqiy me'yorlarga amal qilish o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud emas.

Polshalik sotsiolog va uning amerikalik hamkasbi tomonidan AQSh da muhojirlikda yashagan polyak dehqonlari hayotidan olingan faktlarni tadqiq etilishi natijasida ma'lum bo'ldiki, tabiiy patriarxal muhitdagi mavjud sotsial guruhga xarakterli bo'lgan an'anaviy poydevorlar turmush sharoitlari o'zgarishlari sababli «o'pirilib keta boshladi». Ammo nafaqat yangi turmush sharoitlari va Amerika har doim mustahkam bo'lgan oilaviy aloqalarni, balki polyak dehqonlarining axloqiy negizlarini ham kuchsizlantirdi. Uilyam Tomas va Florian Znanetskiy bu negizlarning kuchsizlanishini kuchib kelgan polyak dehqonlarida yangi hayotiy stimullarning paydo bo'lishi, ularni jamoaviy birdamlikning eski yo'l-yo'riqlaridan voz kechish va shaxsiy daromadlarni katta miqdorda oshishiga imkon beradigan yangi yo'l-yo'riqlarga o'tishlari bilan bevosita tushuntirib berishadi. O'z Vatanlarida polyak dehqonlari qon-qarindoshlikka asoslanib yashashgan, ularning muhitida individualizmning namoyon bo'lishi jamoa tomonidan qattiq qoralangan. Polyak jamoasida diniy axloq qoidalari haddan tashqari talabchanligi bilan farqlanganligini, ularga amal qilish hozirda Polshada yuqori avtoritetga ega bo'lgan rim-katolik cherkovi tomonidan nazorat qilinganligini ta'kidlab o'tamiz.

Butun jamiyatga ta'alluqli bo'lgan alohida sotsial qatlamlardagi o'zgarishlarni bir yoki bir nechta omillarning (gap bu yerda turmushning moddiy sharoitlari haqida ketgandi) belgilovchi roli bilan tushuntirish mumkin emas, ular butun sotsial tizimning o'zgarishi bilan bog'langan. Muhojirlikda polyak dehqonlari sifat jihatdan boshqa sotsial tizimga tushib qolishgan. Biroq sotsial struktura transformatsiyasi ichki sabablar ("Polyak dehqoni yevropada va Amerikada" ko'rib chiqilgandek boshqa sotsial muhitga ommaviy ko'chish holatida, ko'ra, boshqacha tipda) natijasida amalga oshishi mumkin. Bu ko'pi ichki sabablar va jarayonlar sifatida inqiloblar, islohotlar (ham samarali, ham samarasiz), totalitar tuzumning hujumi

bilan siyosiy tizimning deformatsiyasi namoyon bo'lishi mumkin. Barcha bu holatlarda axloqiy-etik muhit o'zgaradi va qadriyatlar tizimi almashinuvi ro'y beradi.

Sotsial qadriyatni Uilyam Tomas va Florian Znanetskiy "sotsial guruh a'zolari uchun" empirik mazmun ega bo'lgan ma'lumot deb hisoblashadi, bu empirik mazmun (meaning) faoliyatning obekti bo'lib kelishi mumkin.<sup>1</sup> Qadriyat o'zi erishadigan ahamiyati orqali ijtimoiy guruh a'zolari faoliyati bilan har doim bog'langan.

Yo'l-yo'riq – bu "sotsial dunyoda individning real va mumkin bo'lgan faoliyatini belgilaydigan individual ong jarayoni. Shunday qilib, sotsial yo'l-yo'riq shaxsiy nuqtai nazarda (aspektida) sotsial qadriyatlarining o'ziga xos ikkinchi nusxasi hisoblanadi: bu faoliyat qanday shaklda amalga oshirilishidan qat'i-nazar, u har doim ular o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'indir".<sup>2</sup> Shunday qilib, Uilyam Tomas va Florian Znanetskiyning uqtirishicha, sotsial yo'l-yo'riq (attitude) orqali individlarning guruh (yoki jamiyat) a'zolari sifatida ma'lum xatti-harakatni sotsial jihatdan qabul qilish vositalarini belgilab beradigan u yoki bu qadriyatlarga nisbatan subyektiv orientatsiyalaridir. Polyak dehqonlarining birlamchi guruhlarini tadqiq etishning vazifalaridan biri sifatida Florian Znanetskiy kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir asosida yotgan elementar sotsial yo'l-yo'riqlarni aniqlashda deb bildi. U bu yo'l-yo'riqlarning o'zgarish sabablari va qonunlarini aniqlashga harakat qildi.<sup>3</sup>

Amerikalik sotsiolog J.Makkini Tomas va Znanetskiy ishining ahamiyatini baholay turib, shunday degan edi: «U klassik-qomusiy olimlarning spekulativ sotsiologiyadan uzilishidan va uning o'zining barcha uslubiy moslamalari bilan birga empirik taraqqiyot davriga qadam qo'yishidan darak beradi»<sup>4</sup>

4. Empirik sotsiologiya o'zining shiddatli rivojlanishi davriga qadam qo'yan edi. Bu esa tadqiqot uslubiyati, texnikasi va tartib-taomiliga qiziqish o'sishida ko'rindi. Sotsiologlar ob'ektiv haqiqiy bilimlarni olish uchun eng ishonchli qurollarga egamiz, deb o'ylay boshlashdi. 1920-yillarda o'tkazilgan sotsiologiya tadqiqotlari muammolari bu illyuziyaning keng tarqalishiga ko'maklashdi. U

<sup>1</sup> Ганза А.О., Зюков А.А. *Нечто о социологии*. – М., 2002. – С. 117.

<sup>2</sup> *О'zida joyida.*

<sup>3</sup> Ганза А.О., Зюков А.А. *Нечто о социологии*. – М., 2002. – С. 117.

<sup>4</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 199.

deviatsiyalar bilan bog'liq ijtimoiy guruhlar hayoti va xatti-harakatining eng o'tkir muammolariga taalluqli edi. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz: Ch.Jonsonning «Chikagodagi qora tanli» (1922); N.Andersonning «Daydi» (1923); U.Tomasning «Moslashmagan qiz» (1923); F.Tresherning «Shayka» (1927); E.Maurening «Oilaviy dezorganizatsiya» (1927); R.Kavanning «O'z joniga qasd qilish» (1928); E.Xillerning «Ish tashlash» (1928); L.Virtning «Getto» (1928); X.Zorboning «Oltin sohil va xarobalar» (1929); K.Shou, G.Makkey, X.Zorbo va L.Kotrellning «Delinkventlik areallari» (1929); J.Landeskning «Chikagoda uyushgan jinoyatchilik» (1929); K.Shouning «Delinkvent kareraning tabiiy tarixi» (1931); ye.F.Frezerning «Chikagoda qora tanlilar oilasi» (1931); P.Yangning «Rus posyolkasilik Pilgrimov» (1932); U.Reklessning «Chikagodagi gunohlar» (1933) va h.k. Bu tadqiqotlarning aksariyati muhojirlar hayotini qamrab olgan edi.

Sotsiologlarni shahar hayoti, aholining turli qatlamlari orasida ijtimoiy tengsizlik, boylar va kambag'allar o'rtasida kuchayib borayotgan tafovutlar, jinoyatchilik, turli xil deviant va delinkvent xatti-harakatlar masalalari o'ylantirar edi. Bu masalalar ko'pincha aynan ijtimoiy va milliy-etnik guruhlar bilan bog'liq edi. Ko'tarilgan muammolarni hal tish usullarini tahlil qilish va aniqlash maqsadida ham empirik tadqiqotlar o'tkazilardi. Davlat ma'lum vaqt davomida bunday izlanishlar uchun subsidiyalar ajratib turdi, biroq, sotsiologlarning fosh qiluvchi materiallarida ijtimoiy tuzum ustunlariga nisbatan muayyan tahdidni sezgach, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tezda bas qildi.

Ammo endi empirik sotsiologiyaning rivojlanishiga xalal berib bo'lmasdi. Deviant xatti-harakatlarni o'rganish sohasida cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lgan sotsiolog-empiriklar jamoaviy xatti-harakatlarni, shaharlardagi, sanoat korxonalaridagi, keyinchalik esa sotsial hayot sohasidagi ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarni o'rganishga otlandilar. 1920-1930-yillarda empirik sotsiologiya tez ommalashib ketadi. Bu sohalar sotsiologiyasining institutsionallashuviga zamin yaratadi.

Bu davrda sotsiologiyaning fan sifatida yetuklik darajasi umuman empirik sotsiologiyaning yetuklik darajasiga ko'proq bog'liq bo'lib qoladi. Shunday qilib, empirik tekshiruvdan o'tishi lozim bo'lgan taxminlarni o'z ichiga olgan yangi nazariyalar va ularga javob

tariqasida, tegishli empirik tadqiqotlar zarur edi. Ham jamiyat, ham sotsiologiyaning paydo bo'lgan ehtiyojlariga birinchi bo'lib Chikago maktabi o'z munosabatini bildirdi.

Chikago maktabi haqida gapirar ekanmiz albatta uning asoschisi bo'lmish Albion Smoll haqida biroz to'xtalib o'tish joiz. U Chikago Universitetida sotsiologiya bo'limiga 1892-yilda asos solgan. Smollning sotsiologiyaga qo'shgan asosiy hissasi ko'proq uning AQShda institutsionallashuvdagi shaxsiy roli bilan belgilanadi. 1894-yilda Smoll sotsiologiya bo'yicha ilk darslikni J.Vinsent bilan hammualliflikda nashr etgan. 1895-yilda u bugungi kungacha nufuzli sotsiologik nashr hisoblangan "Amerika sotsiologik jurnali"ga asos solgan. 1905-yilda Smoll bugungi kungacha Amerika sotsiologlarining yetakchi professional uyushmasi bo'lgan Amerika Sotsiologiya Jamiyati asoschilaridan biri bo'lgan (Amerika Sotsiologiya Jamiyati abbreviaturasi – *ASA* 1959-yilda Amerika Sotsiologiya Assotsiatsiyasiga o'zgartirilgan – *ASA*)<sup>1</sup> va uni 1912-1913-yillarda boshqargan.

Ilk Chikago sotsiologiya maktabi ko'pgina jihatlari bilan ajralib turgan. Birinchidan, u din bilan kuchli aloqada bo'lgan. Ba'zi o'qituvchilarning o'zlari cherkov ruhoniylari bo'lgan bo'lsa, boshqalari – ruhoniylarning o'g'illari bo'lgan. Misol uchun, Smoll "sotsiologiyaning eng oliy maqsadi xristianlikka xos bo'lishdir", deb hisoblardi<sup>2</sup>. Bundan sotsiologiyaning vazifasi – sotsial isohotlarni qo'llab-quvvatlash ekanligi kelib chiqadi, va bu yondoshuv ilmiy sotsiologiyaning zarurligiga ishonch bilan yonma-yon mavjud bo'lgan. Jamiyatni mukammallashtirish maqsadini ko'zlagan ilmiy sotsiologiya bilan o'zlarida urbanizatsiya va sanoatlashuvning ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlarini sezgan rivojlanayotgan Chikago olimlari shug'ullanishiga to'g'ri keldi.

Quyida Chikago maktabining asosiy vakillari va ularning ijodi bilan birma-bir tanishib chiqamiz. Chikago maktabi (1892-1935) faoliyatida odatda kamida ikki bosqich – tayyorgarlik va faol ishlash bosqichlarini ajratiladi.

Birinchi, tayyorgarlik bosqichi 1892-1915-yillarni, ya'ni Chikago universitetining sotsiologiya fakultetini tashkil etish vaqtidan boshlab to maktab yetakchilari R.Park va E.Byorjess tomonidan maktab

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 199.

<sup>2</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 199.

faoliyatining asosiy bosqichida empirik sotsiologiyaning markaziy g'oyalari shakllantirishgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Mazkur bosqichda yagona tadqiqot dasturi yaratilmaganiga qaramay, uni shakllantirishning boshqa muhim vazifalari hal etildi. Avvalambor, universitetning sotsiologiya kafedrasida va sotsiologiya fakulteti atrofida nazariy va empirik tadqiqotlarni birlashtirishning ko'plab tarafdorlarini to'plashga muvaffaq bo'lindi.

Maktab faoliyatining tayyorgarlik bosqichida A.Smoll, Ch.Xenderson, J.Vinsent, U.Tomas rahbarlik qilishdi. Bu to'rtlikning xizmati Amerika jamiyatining e'tiborini sotsiologiyaga jalb etishdan, uni empirik tadqiqotlar ma'lumotlarini qabul qilishga tayyorlashdan, sotsiologiya fanining imkoniyatlari va istiqbollari targ'ib etishdan iborat edi. Ular liberalizm va erkinlik tamoyillarini umuman sotsiologiyaning asosiy g'oyaviy doktrinasiga, qisman esa – Chikago universitetining sotsiologiya fakultetiga aylantirishga faol yordam berdi. Tayyorgarlik bosqichida AQSh da sotsiologiyani institutsionallashtirish muammosini hal etishga erishildi. Masalan, XX asrning eng boshidayoq sotsiologiya kursi mamlakatning 169 ta universiteti va kollejlari o'qitilgan edi. Empirik tadqiqotlarni faol o'tkazish va ularning natijalarini targ'ib etish boshlandi.

5. Chikago maktabining ikkinchi (asosiy) rivojlanish bosqichida (1916-1935) R.Park va E.Byorjess sotsiologiya va aniq empirik tadqiqotlar rivojlanishiga taalluqli markaziy, prinsipial qoidalarni ifodalashga urindilar. Mazkur bosqich ko'plab tadqiqotlar o'tkazilishini, o'nlab yirik ishlar chop etilishini, AQSh va yevropada sotsiologiya dunyosiga kengayib borayotgan ta'sirni o'z ichiga oladi. Bu vaqt ichida hamfikrlarning qudratli sotsiologiya hamjamiyati (norasmiy) tashkil etiladi (1920). Unga ular tomonidan e'tirof etilgan Park va Byorjess rahbarlik qiladi. Jamiyat Chikago universitetining o'zida va undan tashqarida intellektual sotsiologiya kuchlarini birlashtirish maqsadida tashkil etilgandi va mamlakatlarning boshqa shahar hamda shtatlarida ishlayotgan universitet o'qituvchilari, talabalar va bitiruvchilarini qamrab olgandi. U 15 yil davomida Parkning 1936-yili Chikagodan Neshvillga jo'nab ketishiga qadar norasmiy nazariy seminar va sotsiologiya ijodiyoti markazi bo'lib kelgan edi.

Quyida Chikago maktabining tan olingan yetakchilari Park va Byorjesslarning hayoti va ijod yo'liga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Chikago maktabining yetakchi vakili Robert Park (1864-1944) 1914-yil Chikagoda to'liq bo'lmagan stavkada o'qituvchilikka keladi va qisqa muddatda sotsiologiya bo'limida yetakchilik pog'onasiga ko'tariladi. Park ijodining sotsiologiya rivoji uchun muhimligini bir necha jihatlarda ko'rish mumkin. Birinchidan, u Chikago bo'limida XX asrning 30-yillarigacha ustunlik qilgan Chikago bo'limining yetkakchi vakiliga aylandi. Ikkinchidan, Park yevropada tahsil olgan va Chikago sotsiologlari diqqatini yevropalik mutaffakirlarning qarashlariga jalb qila olgan. Park Zimmeldan ta'lim olgan, va uning g'oyalari, ayniqsa uning harakat va o'zaro harakatga urg'u berishi, Chikago maktabining nazariy yo'nalishlari taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan. Uchinchidan, sotsiolog bo'lishidan oldin, Park reportyor bo'lgan, va bu malaka uning shahar hayoti muammolari va kuzatish yordamida empirik ma'lumotlarni yig'ish zarurligini anglab yetishiga sabab bo'ldi. Bundan Chikago maktabining shahar ekologiyasiga jiddiy qiziqishi kelib chiqdi. To'rtinchidan, Park aspirantlarga rahbarlik qilish borasida asosiy rol o'ynadi, ularga «aspirantlar tadqiqot ishlarining jamoaviy dasturini» ishlab chiqishga yordam berdi. Nihoyat, 1921-yil Park va Byorjess ilk haqiqatda sotsiologiya uchun eng muhim kitobni, "Sotsiologiya faniga kirish" kitobini chop ettirdi. U ko'p yillar mobaynida eng ahamiyatli kitob hisoblangan va o'zining ilmiy yondoshuvga, tadqiqotlarga va keng doiradagi sotsial hodisalarni o'rganishga sodiqligi bilan alohida e'tiborga molik edi. Kitob shunchalik fundamental ediki, talabalar unga "Yashil Bibliya" deb nom qo'yib olishgan edi (uning muqovasi yashil rangda bo'lganligi sababli).

"Sotsiologiya faniga kirish" asarida mualliflar ijtimoiy jarayonni musobaqa, ziddiyat, moslashuv va assimilyasiyadan tashkil topgan jarayon sifatida baholaydi. Musobaqa – insonning yashash uchun kurash shaklidir, u ongsiz ravishda amalga oshiriladi va ziddiyatga aylanadi. Ziddiyat esa o'z navbatida moslashuvga o'tadi va assimilyasiya – sotsial guruhlar munosabatlarining chuqurlashuviga va ular o'rtasidagi chuqur ziddiyatlarga olib keladi.

Park sotsiologiya fanining predmetini tanlashda ijtimoiy tizimni global ekotizimning bir elementi sifatida talqin etish zarurligini ta'kidlaydi. Sotsiologiya va ekologiya fanlari tizimlarni o'rganishda aynan bir tamoyilga tayanadi, ekologiya o'z vazifalari va tadqiqot usullari bilan sotsiologiyaga juda yaqin fan hisoblanadi. Jamiyatda

sodir bo'layotgan jarayonlar, R.Park fikriga ko'ra, yashash muhitidagi shart-sharoitlarga bo'ysunadi va undagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Bu tamoyil jamiyatga uning tabiat bilan birligi sifatidagi tizimli qarashning chuqurlashib borishiga olib keldi. Jamiyatning muhit bilan mutanosibligiga raqobat shakllari evolyutsiyasi vositasida erishiladi, hayvonlarga xos raqobat ijtimoiy raqobat bilan almashadi. R.Parkning bu g'oyasi tabiatdagi yashash uchun kurash va jamiyatdagi raqobatning beryoqlamaliligi haqidagi xulosaga olib keladi. Sotsiologiya jamiyatning organizm va "biologik fenomen" sifatidagi evolyutsiya davomida shakllanuvchi kollektiv xulq-atvor namunalari o'rganadi. Sotsial evolyutsiya to'rt bosqichda amalga oshadi, har qaysi ijtimoiy organizm shunga mos ravishdagi to'rt tartibotni boshdan kechiradi:

- ekologik (atrof-muhit bilan bog'liq, jismoniy ta'sirlashuv);
- iqtisodiy;
- siyosiy;
- madaniy.

R.Park jamiyatga ijtimoiy nazorat tashkiloti sifatida qaraydi. Ijtimoiy nazorat esa o'zaro ta'sirlashuvda kollektiv xulq-atvorni qayta shakllantiruvchi ramzlar, belgilar va ahamiyatlar jamiyatidir. Tartibotlar jamiyatdagi dinamik muvozanatni ushlab turadi, erkinlik darajasi kamayadi.

O'zining 1925-yilda nashr etilgan (Byorjess va Makkenzi bilan hammualliflikda) «Shahar: shahar muhitida inson tabiatini o'rganishga doir takliflar» monografiyasida R.Park ijtimoiy ekologiya muammolarini yoritib o'tadi: ijtimoiy ekologiya shaharni tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan, har bir alohida institut va guruhlarga ma'lum bir funksiyalarni birlashtirgan o'ziga xos organik birlik sifatida o'rganish imkonini beradi. Ushbu asarda yashash uchun kurash tamoyili asosidagi tarqalish tamoyili ko'rsatib o'tilgan. ("Eng yaxshi narsalar eng yaxshilar uchun").

Park sotsiologiyada marginal shaxs muammosini birinchi marta ilgari surgan olim sifatida ham tarixda qolgan. U birvarakayiga ikki dunyoda – o'zi tug'ilib o'sgan eski dunyoda va ta'lim oladigan, kasb egallaydigan va o'zgacha turmush tarziga ega bo'lgan yangi dunyoda yashaydigan inson tipi sifatida aniqlashtirishga imkon berdi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Парк Р.Э. Культурный типология и маргинальный человек // Социология и гуманитарные науки. Сер. 11. Социология. 1997. № 2. – С. 172-175.

1920-yillar oxiri – 1930-yillar boshlarida Park Chikagoda kam vaqt o'tkazdi. Nihoyat, uning butun umri davomida susaymagan irqchilik munosabatlariga qiziqishi (sotsiolog bo'lishidan oldin Buker Ti Vashingtonning xizmatida bo'lgan) uni Fiska universitetiga olib keldi («qora» universitet), bu yerda u 1934 yildan ishlay boshladi. Garchi Chikago maktabining so'nishi Parkning ketishi bilan umuman bog'liq bo'lmasada, 1930-yillarda bu markazning ta'siri so'na boshladi. Lekin Chikago maktabining so'nishi va boshqa sotsiologik maktab va nazariyalarning vujudga kelishi to'g'risida gapirishdan oldin, Chikago maktabining ilk davrlariga qaytish va ijodi muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikki olim: Charlz Xorton Kuli va ayniqsa Jorj Gerbert Midga murojaat qilish lozim<sup>1</sup>.

Charlz Xorton Kulining (1864-1929) Chikago maktabi bilan aloqadorligi o'ziga xos, chunki u Michigan universitetida ishlagan. Ammo Kulining nazariy qarashlari Chikago maktabining muhim mevasi hisoblangan ramziy interaksionizm bilan bir oqimda bo'lgan.

Kuli Michigan universitetida 1894-yilda falsafa doktori maqomini oldi. U sotsiologiya bilan jiddiy qiziqqa boshladi, lekin u paytda Michiganda sotsiologiya bo'limi yo'q edi. Natijada uning doktorlik ishi borasidagi savollar Kolumbiya universitetidan keldi, u yerda Franklin Giddings boshchiligida 1889-yildan buyon sotsiologiya o'qitilardi. Kuli Michiganda o'qtuvchilik karerasini 1892-yilda doktorlik darajasini olgunga qadar boshlagan.

Kulining qarashlari ko'p qirrali bo'lishiga qaramay, bugun u asosan ijtimoiy hayotning sotsial-psixologik jihatlarini tushunishga qo'shgan hissasi bilan esga olinadi. Uning bu sohadagi ijodi Jorj Gerbert Midning ijodi bilan bir xil yo'nalgan, lekin Mid Kuliga nisbatan sotsiologiyaga chuqur va uzoq ta'sir ko'rsatgan. Kulini ham Mid kabi ong qiziqtirardi, lekin u (Mid kabi) ongni sotsial kontekstdan ajratishni rad etgan. Buni ko'zgudagi "Men" konsepsiyasi juda yaxshi namoyon etadi. Bu konsepsiya insonlarning onga egaligi va u sotsial o'zaro harakat jarayonida shakllanadi, deya ta'kidlaydi.

Kulining ijtimoiy-psixologik qarashlarini namoyish etuvchi va bugungi kungacha muhimligini yo'qotmagan ikkinchi asosiy konsepsiya, — bu birlamchi guruh konsepsiyasidir. *Birlamchi guruhlar* – bu konkret insonning jamiyat bilan munosabatlarida asosiy

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 206-201.

rol o'ynovchi bevosita yaqin atrofidagi guruhlardir. Ayniqsa yoshlarning birlamchi guruhi, asosan oila va tengdoshlar guruhi ahamiyatli hisoblanadi. Bu guruhlarda individ sotsial mavjudotga aylanadi. Qoidaga ko'ra, aynan birlamchi guruh ichida ko'zgudagi "Men" paydo bo'ladi, egotsentrik bola boshqalarni ham hisobga olishni o'rganadi va shunday qilib, jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanadi.

Kuli ham, Mid ham insonlar ongsiz tarzda tashqi ta'sirlarga *bixevioristik* yondoshuvni rad etgan. Ular insonlar ongli mavjudot, o'z meniga ega va sotsiologning vazifasi – sotsial voqeyelikning ushbu jihatini o'rganishdan iborat, deb hisoblagan. Kuli sotsiologlarni o'zlarini tadqiq etilayotgan insonlar o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qilishlarini, va ongni tahlil qilishda *simpatik introspeksiya* usulidan foydalanishni taklif etdi. Ularning turli vaziyatlarda asosiy qahramonlar sifatida qanday yo'l tutishlarini tasavvur qilib, sotsiologlar sotsial xulq-atvor asosida turgan maqsad va motivlarni tushunishi mumkin. Simpatik introspeksiya usuli ko'pchilikka noilmiy bo'lib ko'rindi. Midning ijodi ushbu sohada ham Kulining izlanishlaridan ustun keldi. Shunday bo'lsada, ularning qarashlarida katta o'xshashliklar mavjud, ulardan biri — sotsiologiya ong, harakat va o'zaro harakat kabi sotsial-psixologik hodisalarni o'rganishi lozimligi to'g'risidagi nuqtai nazarlardir<sup>1</sup>.

Chikago maktabi va ramziy interaksionizmdagi eng ko'zga ko'ringan mutafakkir sotsiolog emas, balki faylasuf bo'lgan Jorj Gerbert Mid (1863-1931) hisoblanadi. Mid 1894-yildan Chikago Universitetida falsafadan dars bera boshlagan va 1931-yilda vafot etgungacha u yerda ishlagan. Uning sotsiologiya nazariyasi tarixdagi markaziy ahamiyatini hisobga olib, Mid ijodiga xos paradoksallikni e'tiborga olish zarur, birinchidan, sotsiologiyadan emas, falsafadan dars bergan, va ikkinchidan, o'z hayoti davomida nisbatan juda kam ishlar nashr etgan. Bu paradoksni ikkita fakt qisman yechib beradi. Birinchisi shundan iboratki, Mid falsafa bo'limida aspirant-sotsiologlarga ham sotsial psixologiya kursini o'qigan. Ularning ayrimlariga uning g'oyalari kuchli ta'sir o'tkazgan. Bu talabalar Marks qarashlari bilan ularga sotsiologiya bo'limida dars bergan Park va Tomas kabi olimlarning g'oyalari birlashtirganlar. O'sha paytda

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 201-202.

ramziy interaksionizm nomidagi nazariya mavjud bo'lmagan bo'lsa ham, uni bu turli elementlardan talabalarning o'zlari yaratganlar. Shunday qilib, Mid keyinchalik ramziy interaksionizm nazariyasini rivojlantirgan insonlarga o'zining chuqur shaxsiy ta'sirini o'tkazganlikidan, bu talabalar Midning ma'ruzalarini yozib olish asosida uning nomi bilan o'limidan keyin «Ong, o'zlik va jamiyat» nomida nashr ettirganlar, uning g'oyalari og'zaki sohadan yozma asosida o'tdi. Bugun keng kitobxonlar e'tiboridagi bu kitob, ramziy interaksionizmning intellektual asosini tashkil etadi<sup>1</sup>.

Chikago maktabining yana ikki taniqli vakillari U.Ogborn va L.Virt qarashlarini qisqacha bo'lsada qarab o'tish joiz. Uilyam Ogborn (1886-1959) Amerika sotsiologiyasida psixoanalizni etishda o'z hissasini qo'shgan. Z.Freydning nevrozlar va K.Parkinsonning industrial psixozlar nazariyalaridan foydalangan. Temozning determenizm konsepsiyasini yaratgan. Sotsiologiyada muammolar urbanizatsiya, tartibot va nazorat muammolarining ishlab chiqilishi ham uning nomi bilan bog'liq.

Ogbornning asosiy asarlaridan biri – «Ijtimoiy o'zgarish» hisoblanadi. 1920-yillarning oxiriga kelib, Ogbornning ta'siri bo'lgan, shuning uchun AQSh prezidenti E.Guver 1930-1933-yillarda Amerika jamiyati rivojlanishining ijtimoiy tendensiyalarini sotsiologik tadqiq etish vazifasini unga rahbar sifatida topshirgani bejiz emas.

Agar Ogborn nazariyasi shaharni o'rganish bilan bog'lanmagan bo'lsa, Virt konsepsiyasi haqiqiy urbanistik shahardagi turmush tarzi nazariyasini ishlab chiqishga taalluqli sotsiologiyada birinchi bo'lib "shahar turmush tarzi" tushunchasi va muomalaga kiritib, uni qishloq turmush tarziga qarshi U Bevosita Park va Byordjessning shogirdi bo'lgan Virt o'z shaharning maydoniy, ijtimoiy tashkil etilishi va shahar uslubi (tarzi) xususiyatlarining tahlilini birlashtirdi. Shahar maydoniy va ijtimoiy tashkil etilishining o'ziga xos jihatlarini kechira turib, sotsiolog aholining yuqori darajada to'planish katta soni, sezilarli ijtimoiy xilma-xillik, getto ko'rinishi manzilgohlarning mavjudligi kabi jihatlarni ta'riflaydi. Virtning yillar oxirida juda ommaboplashgan kitobi "Getto" uning tahliliga bag'ishlangan edi.

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 202-204.

6. Chikago maktabi XX asrning 20-yillarida o'z cho'qqisiga yetdi, lekin 30-yillarga kelib Midning o'limi va Parkning ketishi bilan maktabning Amerika sotsiologiyasida o'zining markaziy ahamiyatini asta-sekin yo'qotishni boshlaydi, tadqiqotlarni o'tkazish chog'ida qanday usullarni qo'llash borasida ilgari ko'zga tashlangan ziddiyatlar keskinlasha boshlaydi. E.Byorjess maktabning norasmiy yetakchisi lavozimida Parkning o'rmini bosa olmaydi, boz ustiga, bu vaqtda u juda jiddiy ish bilan shug'ullanardi (1936-1940-yillarda u «Amerika sotsiologiya jurnali»ning bosh muharriri bo'lgan edi).

Park ketishidan so'ng, tadqiqotlarni nazariy boshqarish sohasida unga teng keladigani yo'qligi ma'lum bo'ldi. Uning eng iste'dodli va nomi chiqqan shogirdlari — R. Makkenzi, L. Koprell, L. Virt — hatto birlashib ham birgina shu yo'qotishning o'rmini to'ldirolmasdi.

Sotsiologiyaga, xususan empirik sotsiologiyaga Chikago maktabining ta'siri, ayniqsa, 1930-1940-yillar davomida ko'zga tashlandi, shundan so'ng tashabbus Kolumbiya va Garvard universitetlariga o'tdi. Garvardda o'sha vaqtlarda P.Sorokin o'zi haqida baralla ma'lum qildi.

Kolumbiya universitetida ham muhim empirik izlanishlar o'tkazilar, bunda ularni tayyorlash va o'tkazishda P.Lazarsfeld va R.Merton muhim rol o'ynashardi. Amerika universitetlarining sotsiologiya sohasidagi shiddatli raqobati sharoitida ulardan biri — Chikago universitetining yuqori ish darajasini saqlab turish o'ta qiyin bo'lganligi tushunarli.

Nihoyat, asosiy sotsiologiya markazi va yangi g'oyalar generatori bo'lgan Chikago maktabining inqirozi va uning asta-sekin so'nishining yana bir favqulodda muhim sababi — iqtisodiy tushkunlik davrida mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlar ahamiyatining kamayishi va umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarning keskinlashuvidir. Chikago maktabi o'z shahri, shtatining muammolari bilan mashg'ul edi, Amerika jamiyatining sotsiologiya tadqiqotlariga ijtimoiy ehtiyoji esa umummilliy masalalarni o'rganish ehtiyoji sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lib bordi. Tabiiyki, 1930-yillarning o'rtasida Amerika jamiyatining yangicha hayot sharoitlarida sotsiologiya tadqiqotlaridagi urg'ular boshqa muammolar va orientatsiya tomoniga muqarrar siljishi kerak edi. Chikago maktabi vakillari esa bunga to'liq tayyor emasdi.

Fred Metyuz Chikago sotsiologiya maktabi vakillarining sabablarini ajratadi, ularning ikkita muhim ahamiyatga ega ko'rinadi.

Birinchi, ilmiylikka, ya'ni va statistik tahlilni qo'llash zarurligini Chikago maktabi ko'proq sub'tayanib (Tomasga ko'ra, ularning etnografik tadqiqotlarga urg'u berdi ko'rgani ko'zi yo'q edi (uni «kabina o'ziga xos va alohida sub'ektivlikni yordamida o'tkazilgan muhim ishga qilinardi).

Ikkinchidan, Chikagodan Chikagoning Amerika sotsiologiya sotsiologik jurnali"da ham hukmron ranjishlarni sezardi. 1930-yilda solindi, va Sharq sotsiologlari qisman Chikagoning hukmronligi to' 1935-yilga kelib Chikago maktabiga keldiki, assotsiatsiyaning yangi saylanmadi, va shuningdek, yangi rasmiy jurnaliga asos solindi. Uayl maktabi kuchli eman singari quladi». ayniqsa Garvard va umuman Pechak edi va shuning uchun, oxir-oqibat, strukturaviy funksionalizm kabi nazariy tizimlarga o'rinni bo'shatib berdi.

Ma'lum bir vaqt o'tib Chikago lekin bu safar sotsial antropologiya A.R.Redkliff-Braun va B.Malinovski tashkil etila boshlaydi, 1930-yillar sotsial antropologlari U.L.Uorner funksionalistik yondoshuv asosida tadqiqotlarni o'tkazishda yana e'tiborga tushadi, Britaniya olimlari etib ma'ruzalar kelib esa Chikago strukturaviy-tizimlashtirilgan boshlaydilar.

<sup>1</sup> "Pechak ligasi" - AQShning Shimoli-G'arbida 8 ta universitetda mavjud bo'lgan sotsiologiya maktabi.

<sup>2</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. New York: McGraw-Hill, 2004.

Ayrim sotsiologiya tarixchilari Park ketganidan keyingi Chikago universitetida sotsiologiyaning rivojlanishini qarab o'tib, unda «ikkinchi Chikagskuyu maktabi»ni (1945-1960) farqlaydilar, u Tomas, Park va Byorjesslarning shogirdlarini birlashtirgan edi; unda asosiy rolni E.Xyuz bajardi, unda o'zining «interpretativ institutsional ekologiya» nomli nazariy yondoshuvini belgilab oldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Chikago sotsiologiyasida «interaksionistik» mazmunga alohida e'tibor qaratila boshlandi, shuningdek G.Zimmel sotsiologik merosining ta'siri kuchaydi. Bu davrda Chikago universitetida A.Stross, G.Bekker, E.Goffman kabi taniqli olimlar tarbiyalandilar.

Natijada, bizda birmuncha o'zgacharoq davriylashtirish yuzaga keladi. Birinchi avlod A.Smoll, J.Vinsent, U.Tomas va Ch.Xandersenlarning nomlarini aks ettiradi. Ikkinchi avlod tarkibiga esa biz R.Park va E.Berjesslardan tashqari U.Obgorn va R.Ferislarning nomlarini kiritamiz. Uchinchi avlod quyidagi olimlarni o'z ichiga qamrab oladi: G.Blumer, R.Makkenzi, L.Virt, E.Xyuz, S.Stauffer, F.Fraze, P.Kressi, E.Shilz. To'rtinchi avlod tarkibiga esa biz I.Gofman, G.Bekker, A.Stross, M.Yanovits, J.Sattiz, U.Kornblum va A.Xanterlarni kiritamiz.

Umuman olganda, Chikago maktabi faoliyatiga yakun yasay turib, quyidagi nuqtai nazarlarni aytib o'tish lozim: a) yaxlit ijtimoiy organizm – jamiyat va uning ayrim strukturalariga, asosan shaharlarga nisbatan ijtimoiy-ekologik yondashuv Chikago maktabi uchun eng xos jihat edi; b) shahar va jamiyatning tizim sifatidagi tahlili sotsiologlar tomonidan ikki darajada – makrosotsiologik va mikrosotsiologik darajalarda amalga oshirilardi, holbuki ikkinchisi ba'zan birinchisidan ko'ra kuchliroq bo'lib chiqardi; v) Chikago universiteti sotsiologlari nafaqat son, balki sifat usullariga ham e'tibor qaratib, tadqiqot metodologiyasi va ayniqsa uslubiyatini chuqur ishlab chiqishardi. Ushbu sotsiologiya yutuqlarining barchasi jahon sotsiologiya tafakkuri mulkiga aylandi.

Chikago maktabining ham Amerika, ham jahon sotsiologiyasi uchun ahamiyati shundan iboratki, u fanni, u orqali esa – jamiyatni ijtimoiy-siyosiy islohotlarga yo'naltirdi. Ularni esa olimlar ishlab chiqqan ijtimoiy texnologiyalar asosida eng samarali tarzda amalga oshirish mumkin. Chikago maktabi vakillarining tadqiqotlari tufayli, sotsiologiya fanining obro'si sezilarli darajada oshdi.

Chikago maktabining roli uning ijtimoiy-ekologik muammolarga murojaat etishi bilan bog'liq. U esa Park va uning tarafdorlarining jamiyat va tabiat o'rtasidagi uzviy aloqani, inson joylashgan ekologiya tizimini muvozanatda ushlab turish zaruriyatini aniqlashga intilishini anglatdi. Ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi g'oyasi sotsiologiyada yangilik sifatida e'tirof etildi va fanning kelgusi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Sotsiologik bilimlarning ilk sohalaridan biri – shahar sotsiologiyasi shakllanishida Chikago maktabi o'ynagan katta rolni aytib o'tish joiz. Park, Byorjess, Virt, Makkenzining tadqiqotlari ta'sirida ham Amerika, ham yevropa sotsiologiyasida shaharlarni o'rganish bo'yicha ishlar olib borildi. Bu borada er-xotin Lindlarning «Midltaun» (1929-1937) qiyosiy tadqiqotini keltirish zarur. U Chikago maktabining kuchli ta'sirida yozilgan, o'zining asosiy xususiyatlari va shahar sotsiologiyasi uchun ahamiyati borasida esa Park va Byordjessning eng yaxshi ishlaridan qolishmaydi.

Chikago maktabi metodologiyasi doirasida bajarilgan sotsiolog-empiriklarning ishlarida odamlarning kundalik hayoti mazmunini tashkil etuvchi muammolarning ahamiyati ta'kidlab o'tilardi. Ularning tadqiqotlari umumiy, tizimli nazariyani yaratishda emas, balki odamlar hayotida muhim o'rin tutgan, ularni to'liqlantirgan va har kuni bo'lmasa-da, tez-tez va muntazam hal etish zarur bo'lgan muammolar doirasini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan edi. Shu orqali sotsiologiyaning insonning aniq ehtiyojlari, talablari va manfaatlarini o'rganishga tomon burilishi ta'minlandi. Shu bilan birga, sotsiologlarning Chikago maktabi doirasidagi hamkorligi jamiyat (shahar) ning ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganishga va ularni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratildi.

Chikago maktabining ahamiyati shunda ediki, empirik tadqiqotlarda nafaqat "sub'ektiv omilga", ya'ni odamlarning biror masala yuzasidan fikrlariga, balki shu fikrlarni uyg'otgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tuzdagi ob'ektiv vaziyatlarga asosiy e'tibor berildi. Shu tarzda, obyektiv va subyektiv, umumiy va juz'iyning birikuvini ta'minlangan edi.

Nihoyat, Chikago maktabining ahamiyatini baholay turib, uning tamomila yangi namunada professional sotsiologiya ta'limini tashkil etishga qo'shgan katta hissasi haqida aytib o'tish zarur. Maktab vakillari, birinchi navbatda, uning yetakchilari Park va Byorjess,

ularga qadar esa Tomas aniq empirik tadqiqotlarni tayyorlash va o'tkazishni o'quv jarayoni bilan uyg'un birlashtirishga muvaffaq bo'lishdi. O'quv jarayonida esa, o'qituvchilar va talabalar teng huquqli sub'ektlar sifatida qatnashadi. Mohiyatan nazariy o'qitish bevosita empirik tadqiqotni o'tkazish chog'ida amalga oshirildi. Universitetda professional sotsiologiya ta'limining yangi tipi tug'ildi.

7. AQShda faol rivojlangan empirik sotsiologiya Chikago maktabi vakillarining yirik shaharlardagi tadqiqotlari ijtimoiy hayotning boshqa sohalari, jumladan sanoat sohasida birinchilardan bo'lib qaror topa boshladi. Moddiy ishlab chiqarish sotsiologlarning jiddiy e'tiboriga tushdi. 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab industrial sotsiologiya shakllana boshladi, uning tasdiqlanishi va empirik sotsiologiyaning "old pozitsiyalarga" chiqishi esa Xotorn tajribasini o'tkazish bilan bog'liq edi. Bu tajriba «Vestern elektrik kompani» firmasining (Chikago tevaragida joylashgan) elektrotexnika uskunalarini ishlab chiqaradigan zavodlarida besh yil davomida o'tkazildi (1927-1932). Amerikalik sotsiolog va psixolog Elton Meyo (1880-1949) industrial sotsiologiya asoschilaridan va sanoatda ommaviy tadqiqotlarni boshlab bergan tajriba tahlilchilaridan biri edi.

U Avstraliyada tug'ildi, universitetda etika, falsafa va mantiqni o'rgandi, Shotlandiyada tibbiyot va psixopatologiyani o'rgandi, so'ng AQShga ko'chib o'tdi, u yerda 1920-yillarning boshidan Pensilvaniya universitetida, 1926-yildan boshlab esa Garvard universitetida saboq berdi va ishbiarmonlik ma'muriyati maktabi – oliy o'quv yurtining asosiy tarkibiy bo'linmalaridan birida sanoat izlanishlari bo'limiga rahbarlik qildi. Meyoning sotsiologiyadagi ilmiy va amaliy faoliyatining bosh g'oyalari uning uchta kichik ishlarida bayon etilgan: «Industrial tamaddunning insoniy muammolari» (1933-yilda, Xotorn tajribasidan so'ng darhol yozilgan), «Industrial tamaddunning ijtimoiy muammolari» (1945), «Industrial tamaddunning siyosiy muammolari» (1947).

Xotorn tajribasi asosida ishlab chiqarish jarayoni samaradorligiga va mehnat unumdorligi o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy shart – inson munosabatlari omilidir degan xulosaga kelindi. Bu munosabatlar esa guruh a'zolarining bir-birini tushunishga, o'zlarini shu guruhga qo'shilgan bo'lib his etishga va shu bilan birga, o'zlarini erkin sezishga intilishlariga asoslangan edi. Odanning muayyan ijtimoiy

umumiylikka qo'shilishga bu istagini E.Meyo "sotsiabilik" hissi deb atadi.

1930-yillarda amalga oshirilgan, nafaqat rasmiy, balki norasmiy munosabatlarga asoslangan jamoani shakllantirish jarayoni bo'yicha tadqiqotlar kichik guruhlarini empirik o'rganish darajasida ularga qiziqishning keskin ortishiga va shu maqsad uchun tegishli usul va uslubiyatlar yaratilishiga yordam berdi. Ular orasida tez ommalashgan sotsiometriya alohida o'rin egallardi. Sotsiometriya bir guruh odamlarning emotsional munosabatlarini va boshqa odamlarga ta'sirini o'lchash usuli, deb hisoblanardi.

Sotsiometriyani guruhlar ichidagi munosabatlarni o'rganish amaliyotiga faol tatbiq etish Jakob (Yakob) Moreno (1892-1974) ismi bilan bog'liq. Sotsiometriya, Morenoga ko'ra, kichik sotsial guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganishdir. Sotsiometriya 1930-1940-yillarda juda ommalashadi, keyinchalik Moreno psixodrama va sotsiodramani (sotsiometriyaning davomi) bo'lib, ishlab chiqadi. Sotsiodrama — bu turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish va o'ynash, psixodrama esa — shaxslararo muloqotning turli vaziyatlarini modellashtirish va o'ynashdir. Moreno va amerikalik sotsiolog E.Bogardus guruh ichidagi va guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni belgilab bergan "ijtimoiy masofa", "ijtimoiy distansiya" tushunchalarini kiritdilar. "Ijtimoiy distansiya"ning bosh xususiyati — shaxslar va sotsial guruhlar o'rtasida o'rnatiladigan o'zaro hamfikir munosabatlardir.

E.Meyo, F.Retlisberger, U.Dikson, N.Uaytxed sanoat ishlab chiqarish sohasida sotsial guruhlarini o'rganishga, 1940-yillarda va undan keyin esa sotsial guruhlar nazariyasini ishlab chiqishga R.Beylz, T.Nyukom, U.Uayt, L.Festinger, J.Xomans va boshqalar katta hissa qo'shdi.

1930-1940-yillarda AQShda sotsiologiya fanining mehnat sotsiologiyasi, menejment sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, ta'lim sotsiologiyasi, bilim sotsiologiyasi, harbiy sotsiologiya, hordiq sotsiologiyasi kabi bir qator sohalari tez rivojlandi. Industrial sotsiologiya va shahar sotsiologiyasi esa ancha ilgari ketgan edi. Bu nafaqat nazariyani taraqqiy ettirish ehtiyojlarining aksi, balki tadqiqotlarni o'tkazishga amaliy qiziqish ortishi natijasi edi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan so'ng va butun 1940-yillar davomida AQSh armiyasida jiddiy sotsiologiya tadqiqotlari o'tkazildi. Ularga 1940-1950-yillarda AQSh ning eng taniqli sotsiologlaridan biri, U.Ogbornning shogirdi S.Stauffer (1900-1960) boshchilik qilgan edi. Staufferni haqli ravishda harbiy sotsiologiya asoschisi deb hisoblashadi. Uning rahbarligida sotsiologiya bilimlarining bu sohasidagi eng jiddiy kitoblardan biri – ikki jildli «Amerika askari» (1949) asari yozilgan edi. U keyinchalik xrestomatiyaga aylanib qoldi. Bu asarda harbiy qismlardagi ahvolni o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlar bayon etiladi. Bu tadqiqotlar natijasida insonlarning harbiy harakatlar davridagi xulq-atvorlari qonuniyatlarini, askarlarning janglardagi xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etuvchi omillarini ochib berdi. Shuningdek, askarlarning harbiy tayyorgarligi darajasi bilan ijtimoiy maqsad va qadriyatlar o'rtasidagi aloqalar, qadriyat va maqsadlari bilan janglardagi affektiv xatti-harakatlari o'rtasidagi aloqalar o'rnatildi. S.Stauffer tomonidan taqdim etilgan yondashuv quyidagilar xususiyatlar bilan ifodalanadi:

- 1) intervyu o'rni anketali so'rovlarni o'tkazish;
- 2) respondentlarning subektiv fikrlari va baholariga asoslangan ma'lumotlarni statistik tekshirish;
- 3) ijtimoiy voqea-hodisalarni o'lchashda matematik usullarga alohida e'tibor qaratish;
- 4) shkalalar tahlili usuli taqdim etilgan;
- 5) omillar tahlili usulidan foydalanilgan.

XX asrning 40-yillarida P.Lazarsfeld S.Stauffer va sotsiologiyada hammaga ma'lum bo'lgan o'lchovlar shkalasi muallifi bo'lgan E.Gutmanlar bilan birgalikda Amerika askarlarining ijtimoiy maqsad va qadriyatlarining o'zgarishini tadqiq etgan. Ikkinchi jahon urushi davrida ular 200 ga yaqin tadqiqotlarda yarim million askarlarni qamrab olgan so'rovnomalar o'tkazadilar. Bu tadqiqotlar natijasida harbiy qismlarda boshqaruv prinsiplari va metodlariga bir qator o'zgarishlar kiritiladi. P.Lazarsfeld sotsiologik tadqiqotlar usullari va texnikasini tanqidiy tahlil qilishga va baholashga, foydalanilayotgan tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aniqlashga, sotsiologik nazariyalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratgan. U sotsiologik tadqiqotlarda panel usulni, ya'ni aynan bir sotsial ob'ektni ma'lum bir vaqt intervalida aynan bir dastur va uslubiyot bilan qayta tadqiq etish usulini ilk marotaba 1940-yil

AQShda saylov kampaniyasi natijalarini qayta ishlash jarayonida qo'llagan, shuningdek, latent tahlil usulini ham birinchi bo'lib taqdim etgan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 1930-1940-yillar sotsiologiya tadqiqotlarining metodologiyasi va uslubiyatini rivojlantirish borasida asosiy davr bo'ldi. Bu vaqtga kelib, materiallarni tashkil etish, tayyorlash, o'tkazish va qayta ishlash borasida katta tajriba to'plandi, sotsiologiyada matematika usullari faol qo'llana boshladi. Fanni aniq empirik tadqiqot metodologiyasi va uslubiyatining yangi yutuqlari bilan boyitishda Paul Feliks (Pol) Lazarsfeldning (1901-1976) xizmatlari katta.

U sotsiologiyada miqdoriy va sifatiy usullarni ishlab chiqqan olim hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, sotsiologlar umuman insonlarni o'rganadilar, uslubiyotchi esa sotsiologni ish jarayonida o'rganadi. Bunday uslubiyotga faqatgina sotsiologiya taraqqiy etgandagina erishish mumkin. P.Lazarsfeld nazariya bilan amaliyotni bir-biridan ajratmaslik uchun miqdoriy va sifatiy usullar birligini talab qilib chiqqan.

Lazarsfeld 1929-yilda Amaliy ijtimoiy tadqiqotlar institutiga asos soldi. Keyingi yillarda (1933-yilga qadar) u bir vaqtning o'zida Vena universitetida amaliy sotsiologiyadan dars o'tar va empirik tadqiqotlar uslubiyati va texnikasini ishlab chiqish bilan shug'ullanar edi. Aynan shu yillarda u Mariental nomli kichik shaharchadagi ishsizlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini tadqiq qilishda ishtirok etgandi. Tadqiqotlar natijalari keyinchalik juda mashhur bo'lib ketgan «Mariental» (1933) kitobida aks etdi, uning mualliflar jamoasida Lazarsfeld yetakchi rollardan birinchi o'ynagan edi. «Mariental» tadqiqotini o'tkazish chog'ida qo'llangan asosiy usullar quyidagilar edi: tarjimai hollarni tahlil qilish, qamrovli kuzatuv va ishsizlikning yashashi va rivojlanishi haqida bashoratlar berilgan holda, uning miqdoriy o'lchovlari.

Avstriyada 1935-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar materiallari asosida uning «"Nega" deb so'rash san'ati» sarlavhali yana bir ishi paydo bo'ldi. Unda iste'molchilik xatti-harakatlarini o'rganish masalalari qo'yilgan edi, aslida esa, shu mavzuga bag'ishlangan ilk uslubiyatlardan biri ishlab chiqilgan edi. Keyinchalik u nafaqat marketing tadqiqotlari sohasida, balki odamlarning maqsad-

vazifalarining o'zgarishini tahlil qilish bilan bog'liq boshqa muammolarni o'rganish borasida ko'p marta qo'llanildi.

Mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan Mariental tadqiqotlari natijalari esa, Lazarsfeldga ilmiy izlanishlarni o'tkazish uchun Rokfeller jam'armasining to'rt yillik grantini olishga va shu tariqa AQShga borishga imkon berdi. Bu mamlakatda u ko'p universitetlarda, xususan, Kolumbiya, Garvard, Chikago va boshqa universitetlarda ishlab, u yerda ilmiy loyihalarni doimiy muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi, bir qator juda yirik sotsiologlar bilan do'stlashdi va pirovard-natijada AQSh fuqaroligiga ega bo'lib, u yerda qoldi. Keyingi to'rt yil (1937-1940) olimning ijodiy tarjimai holida Radioni o'rganish byurosida ishlagan va shu tashkilotni boshqargan davri sifatida ma'lum. 1940-yildan so'ng to 1950-yilga qadar Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universitetida joylashgan Byuro ham tadqiqotlarni amalga oshirish, ham ularni o'tkazish uchun mutaxassislarni tayyorlash borasidagi o'z faoliyatini sezilarli faollashtiradi. Lazarsfeld R.Merton bilan birgalikda (ular qalin do'st bo'lgan) radio va matbuotning auditoriyaga ta'sirini o'rganadi (ularning ta'sirini bir qator parametrlar bo'yicha taqqoslaydi). So'ng ular bu mavzuda hammualliflikda «Ommaviy kommunikatsiya, ommabop qiziqishlar va uyushgan ijtimoiy harakat» (1948) kitobini yozishadi.

Radioni sotsiologik o'rganish haqida alohida gapirib o'tish lozim, chunki 1930-1940-yillarda u eng keng tarqalgan va samarali ommaviy axborot vositalaridan biri hisoblanardi. Bundan tashqari, radio siyosiy ta'sir o'tkazishning qudratli vositasi edi, undan foydalanish imkoniyatlari esa G'arb mamlakatlarining ko'pgina yetakchilarini to'liqlantirardi. Radioni o'rganish byurosi xodimlari Lazarsfeld boshchiligida ushbu OAV tinglovchilarini, ularning qiziqishlarini, radiodasturlarni tuzish tamoyillarini va hokazolarni tadqiq etishardi.

Shu bilan birga qayd etishimiz kerakki, 1930-1940-yillarda OAV muammolari ko'pgina yirik sotsiologlarni o'ylantirardi. Ulardan biri G.Lassuell (1902-1978) edi. U siyosiy qarorlar qabul qilish amaliyotida OAVdan foydalanish muammolarini tahlil etadi. U aslida OAV samaradorligini belgilab bergan quyidagi o'ta muhim savol orqali, o'z tadqiqotlariga katta qiziqish uyg'otdi: kim xabar qiladi, kimga xabar qiladi, qaysi kanal bo'ylab va qanday samaradorlik bilan? Bu savol va unga javob berishga urinishlar OAV sohasida empirik tadqiqotlarni o'tkazish xarakterini ko'p yillarga belgilab berdi.

Lazarsfeldning yutuqlari qatorida uning OAV faoliyati, elektoral xatti-harakatlar, shuningdek, yuqorida qayd etilgan AQSh armiyasidagi ijtimoiy-psixologik jarayonlar tadqiqotlari turadi.

Tadqiqotlar chog'ida Lazarsfeld ularni o'tkazish texnikasi va tartibini turli usullar yordamida boyitishga harakat qilardi. U birinchi bo'lib panelli usulni joriy etdi. Bu usul, xuddi o'sha bir ob'ektni ma'lum vaqt oralig'ida, xuddi o'sha dastur va uslubiyatga asoslanib takroriy o'rganishdan iborat edi. Shuningdek, olim sotsiologiyada latent-strukturaviy tahlilni keng qo'llash zaruriyatiga e'tibor qaratadi. Bu tahlil yordamida, respondentlarning ayrim savollarga bergan javoblariga qarab, ularning qandaydir yashirin (latent) belgi bo'yicha taqsimlanishini aniqlash mumkin edi. Mohiyatan, bu empirik tadqiqot ma'lumotlarini statistik tahlil etishning yangi usullaridan biri edi. Uni qo'llash keyinchalik Mertonga sotsiologiyada latent funksiyalarni talqin etish g'oyasini ko'rsatib berdi.

Lazarsfeld, uning hamkasblari va E.Kats, J.Koulmen kabi shogirdlari tanlanma kuzatuv tartib-taomilini birinchilardan bo'lib ishlab chiqishdi, sotsiologiyada u "qor uyumi" nomini oldi. Uning mohiyati shundan iborat ediki, turli muammolarni o'rganish munosabati bilan so'rab chiqilgan respondentlardan (1940-yilda AQShda prezident saylovlari kampaniyasini o'tkazish chog'ida, elektorat xatti-harakatlarini o'rganish amaliyotida ilk marta), ularning qaror qabul qilishiga kim muayyan tarzda ta'sir ko'rsatganini aytishlarini so'rashdi. Bu esa mazkur muammoni o'rganish chog'ida respondentlarning sonini oshirishga imkon berardi – xuddi dumalayotgan va tobora qor yopishib borayotgan qor uyumi kabi.

Lazarsfeld sotsiologiya tadqiqotining nafaqat uslubiyatiga, balki metodologiyasiga ham katta e'tibor ajratardi. Bunda ilmiy bilimlar haqiqiylikining asosiy mezon sifatida verifikatsiya tamoyilini qo'llardi. Bu tamoyil esa tadqiqot taxminlarini real faktlar bilan taqqoslashdan iborat edi. Aslini olganda, nazariy modelning haqiqiylikini uni sinab tekshirib ko'rish orqali aniqlash haqida gap borardi, bu esa real voqeyelik bilan empirik taqqosni anglatardi. Verifikatsiya tamoyili pozitivizm (neopozitivizm)ning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, Lazarsfeld uning paradigmasi ustida tinimsiz ishlar edi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, Lazarsfeld va uning boshchiligidagi Kolumbiya maktabi empirik sotsiologiya tadqiqotlari

metodologiyasi va uslubiyatini ishlab chiqishda muhim o'rin tutdi. Ular faoliyati tufayli, bu tadqiqotlar maydoni juda kengaydi. Sotsiologlarning kuch va imkoniyatlarini qaerda va qanday qilib ishlatish mumkinligi ancha tushunarli bo'lib qoldi. Bu fanning salohiyati ayniqsa amaliy tomondan yuksaldi.

AQSh empirik sotsiologiyasiga bag'ishlangan mavzuni yakunlar ekanmiz, avvalambor uning sotsiologiya fani uchun ahamiyati haqida biroz to'xtalib o'tish zarur. Shuni qayd etish lozimki, empirik tadqiqotlar akademik sotsiologiya doirasida o'tkaziladi, bunda biron-bir nazariy qoida tasdiqlanadi va aniqlashtiriladi, taxminlar ifodalanadi, uslubiy vositalar sayqallanadi, sotsiologik o'lchash usullari va vositalari tekshiriladi, yangi shkalalar, koeffitsientlar va hokazolar yaratiladi. Shu bilan birga, empirik tadqiqotlar amaliy va akademik sotsiologiyaning muhim va dolzarb muammolari bilan bir qatorda ijtimoiy nuqtai nazardan doim ham ahamiyatga ega bo'lmagan masalalarni ko'p muhokama etadi. Bu esa, jamoatchilikning ma'lum bir qismida sotsiologiyani kam bilim beruvchi, faqat empirizm bilan cheklangan ("sudraluvchi empirizm") fan, degan fikrni uyg'otadi.

Haqiqatan ham bu davrda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlarning hammasi ham jamiyat hayot uchun o'ta dolzarb muammolarni ko'tarib chiqqan, desak xato bo'ladi. Bu esa, empirik sotsiologiya eng o'tkir muammolardan chalg'ish, ikkilamchi savollarga urg'u qaratish vositasi bo'lib xizmat qildi, degan fikrga olib keldi. Ba'zi tadqiqotlarning nokerakligini tanqid qiluvchilar sotsiologiyadagi bu hodisalarning ikki sababini ko'rsatdilar: 1) keng ijtimoiy ahamiyatli muammolardan uzilganlik; 2) ikkinchi darajali masalalarni muhim deb ko'rsatishga intilish.

1940-1960-yillarda empirik sotsiologiya zaifligining va aytib o'tilgan kamchiliklarining (maydalashib ketish, ijtimoiy muammolardan uzilganlik, "sudraluvchi empirizm" va b.) asosiy sabablaridan biri – nazariya va empiriyaning nisbatan parallelizmida, ularni "bog'lash" mexanizmlarining mavjud emasligida edi. Ular o'rtasida uzviy aloqa o'rnatish yo'llarini izlash endigina boshlangan edi, va bu yo'nalishdagi ilk odimlar empirikdan ko'ra, ko'proq nazariy sotsiologiya vakillari tomonidan qo'yilgan edi.

Umuman olganda, ba'zi sust jihatlariga qaramay, empirik tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasi, uslubiyati va texnikasida erishilgan yangi yutuqlar sotsiologiya nazariyasiga o'zini qayta ko'rib

chiqish imkonini berdi. Bu imkoniyatning samarasi Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng AQShda bu P.Sorokin, T.Parsons, R.Merton, G'arbiy yevropada esa Frankfurt sotsiologiya maktabi nazariyalari misolida namoyon bo'ldi.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. XX asr boshlarida sotsiologiya taraqqiyotining o'ziga xosligi nimalardan iborat?
2. Empirik sotsiologiyaning AQShda rivojlanishining asosiy sababalari nimalardan iborat?
3. Empirik sotsiologiya pozitivizmning asosan qaysi tamoyillari va postulatlariga tayanadi?
4. U. Tomas va F.Znanetskiyning «Polyak dehqoni yevropada va Amerikada» asarining empirik sotsiologiya taraqqiyotidagi o'rnini tushuntiring.
5. Chikago maktabi shakllanishining tayyorgarlik bosqichi haqida ma'lumot bering.
6. Chikago maktabi faoliyati asosiy davrining o'ziga xos xususitlarini izohlang.
7. R.Park va E.Byorjessning Chikago maktabi yetakchilari sifatidagi faoliyatini izohlang.
8. Chikago maktabining yutuqlarini nimalardan iborat, deb hisoblaysiz?
9. Sotsial ekologiya deganda nimani tushunasiz?
10. U.Ogborn va L.Virtning qarashlarini izohlang.
11. Chikago maktabi inqirozining sabablarini tushuntiring.
12. Chikago maktabining sotsiologiya tarixidagi o'rnini izohlang.
13. Sanoat sotsiologiyasining shakllanishi tarixini tushuntiring.
14. Xotom tajribasining sotsiologiya uchun ahamiyatini izohlang.
15. 1930 – 1940-yillarda guruhlar faoliyatini tadqiq etishga bo'lgan qiziqishlarning kuchayishi sabablarini tushuntiring.
16. J.Moreno sotsiometriyasining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
17. Harbiy sotsiologiya rivojlanishining asosiy sabablarini tushuntiring.
18. Mehnat sotsiologiyasi rivojlanishining asosiy sabablarini tushuntiring.

19. P.Lazarsfeldning sotsiologik tadqiqotlar metodikasi va texnikasini rivojlantirishdagi o'rini izohlang.

### GLOSSARIY

**Atrof-muhit ekologiyasi** – экология окружающей среды – **environmental ecology** – zamonaviy sanoat va texnologiyalar tomonidan tahdid tufayli tabiiy muhit yaxlitligini saqlab qolish muammosi bilan bog'liq.

**Islahot** – реформа – **reform** – mavjud ijtimoiy tuzum asoslariga putur yetkazmasdan ijtimoiy hayotning biron-bir sohasini o'zgartirish, har qanday yangilikni joriy etish.

**Kolumbiya maktabi** – Колумбийская школа – **Columbian school** – sotsiologiyada miqdoriy va sifatiiy metodlarni ilgari surgan neopozitivizm maktabi.

**Neopozitivizm** – неопозитивизм – **neopositivism** – sotsiologiyaning asosiy vazifasini inson xulq-atvorini sotsial voqea-hodisa sifatida tabiiy fanlarda tan olingan metodlardan foydalangan xolda o'rganishdan iborat, deb qaraydigan yo'nalish.

**Ramziy interaksionizm** – символический интеракционизм – **symbolic interactionism** – sotsial xatti-harakatni faqatgina uni amalga oshiruvchi insonning nuqtayi-nazaridan kelib chiqib o'rganish g'oyasini ilgari suruvchi yo'nalish.

**Strukturaviy funksionalizm** – структурный функционализм – **structural functionalism** – T.Parsons va R.Mertonlar tomonidan asos solingan, madaniyatning turli shakllarini ular elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni topish asosida o'rganuvchi yo'nalish.

**Urbanizatsiya** – урбанизация – **urbanization** – kichik va katta shaharlar rivoji.

**Chikago maktabi** – Чикагская школа – **Chicago school** – U.Tomas tomonidan asos solingan, sotsiologiyaning vazifasini keng qamrovli muammolarni tabiiy fanlar metodlari asosida o'rganishdan iborat degan g'oyani ilgari suruvchi neopozitivizm maktabi.

### RAMZIY INTERAKSIONIZMNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

#### Reja:

1. Ramziy interaksionizmning paydo bo'lishi
2. J. Mid ramziy interaksionizm asoschisi sifatida
3. G. Blumerning sotsiologik konsepsiyasi
4. I. Goffman dramaturgiyasi

1. Sotsiologiyada kommunikatsiya muammosiga bo'lgan qiziqishning ortishi, xususan, nuqtayi-nazarlar har xilligida bir-birini tushunish, qarama-qarshi tomonga nisbatan o'z nuqtai-nazarini belgilash muammolarining dolzarb ekanligini isbotladi. Bu esa, psixologik jarayonlarni tadqiq etishga nigilistik munosabatda bo'lish va insonning butun hayotiy qiyofasini faqatgina chetdan kuzatiladigan xulq-atvoriga qiyoslash (hayvonlarning reaksiyasi) kabi xususiyatlar xos bo'lgan bixevioristik urf-odatlarini sustlashtirdi. Bixeviorist va freydistlardan farqli o'laroq «uchinchi kuch», ya'ni yaxlit insoniy «O'zlik» va mikrosotsial muhitda uning shaxsiy o'zligini belgilashga qaratilgan interaksionistik yo'nalish shakllandi.

Keng nazariya sifatida, ramziy interaksionizm XX asrning 20-yillarida Chikago maktabida vujudga kelgan. Uning asoschisi amerikalik sotsiolog Jorj Mid hisoblanadi. «Ramz» deganda bir-biri bilan interaksiya, ya'ni o'zaro aloqaga kirishganda individlar tomonidan tushuniladigan «ma'no» nazarda tutiladi, ushbu nazariyada jamiyat o'zaro interaksiyaga kirishgan individlarning harakati nuqtai-nazaridan qaraladi. Boshqa so'z bilan aytganda, jamiyatni insonlarning xulq-atvori tamoyillarini ko'rib chiqish yo'li bilan tushuntirish mumkin, chunki faqat shunday yo'sinda xulq-atvorni belgilovchi ramz o'zini namoyon qiladi.

Tashqi muhitdan kiruvchi ma'nolardan iborat ramzni aniqlash tafakkurda ro'y beradi. Ramziy interaksionizm ijtimoiy ayirboshlash jihatlarni tahlil qilishga asoslanadi. Individ o'zini o'zgalarning bahosi asosida ta'riflashi, ya'ni shaxs ijtimoiy dunyoda boshqalar uchun qanday qiyofada namoyon bo'lsa, o'zini shunday tasavvur qilishi, interaksionizmning asosiy tamoyili bo'lib hisoblanadi.

Ramziy interaksionistlarni qat'i nazariya birlashtirmaydi, ularga sotsial ma'nolarni ishlab chiqish va o'zgartirish, vaziyatlarni doimiy belgilash va qayta baholash jarayoni sifatida ta'riflanadigan ijtimoiy jarayonga bir xil yondoshuvning umumiylik xos hisoblanadi. Bunday qayta baholash davomida sotsial faoliyatning ob'ektiv muhiti (o'zaro aloqadagi individlar nuqtai nazaridan) ham o'zgaradi, chunki interaksionistlarning qarashlariga ko'ra dunyo tamoman ijtimoiy kelib chiqadi. Turli guruhlar turlicha dunyolarni ishlab chiqadi, ular ham ijtimoiy hamkorlik davomidagi ma'nolarning o'zgarishi natijasida o'zgaradi.

Ramziy interaksionizm uch asosiy g'oyaga asoslanadi:

birinchidan, insonlar o'z muhitlaridagi elementlarga o'zlari bergan baho asosida qaraydilar,

ikkinchidan, bunday ma'no (ko'rinish va ramzning o'zaro bog'lanish usuli) kundalik ijtimoiy shaxslararo hamkorlikning mahsuli – interaksiya – sifatida namoyon bo'ladi, va, nihoyat, uchinchidan, bunday sotsiomadaniy ma'nolar o'zaro hamkorlik oqibatida individual tasavvurning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

«Men» va «boshqalar» yaxlit hisoblanadi, chunki ishtirokchilarning xulq-atvori yig'indisini ifoda etadigan jamiyat individning xulq-atvoriga ijtimoiy cheklovlar qo'yadi. Biroq nazariy jihatdan, Men va jamiyat o'rtasida chegara o'tkazish mumkin bo'lsa ham, interaksionizm birinchisini to'liq anglash ikkinchisini xuddi shunday to'liq anglash bilan uzviy bog'liqdir, degan g'oyaga asoslanadi.

Ramziy interaksionizm muhim va qiziqarli g'oyalarning keng doirasini taklif etadi. Bir qator yirik mutafakkirlar, shu jumladan, Jorj Gerbert Mid, Charlz Xorton Kuli, U.A.Tomas, Gerbert Blumer va Irvin Goffman kabi olimlarning nomlari bu yo'nalish bilan bog'liq<sup>1</sup>.

G.ye.Zborovskiy sotsial o'zaro aloqa muammolarini ko'rib chiqishga katta e'tibor qaratgan, buning ustiga, uni sotsiologiya fanining asosiy predmeti sifatida ifodalagan olimlar haqli ravishda ramziy interaksionizm o'tmishdoshlari, deb e'tirof etilishi lozimligin, bunday tadqiqotchilar qatoriga esa, avvalambor, Ch.Kuli, G.Zimmel,

<sup>1</sup> George Ritzer, *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 351.

U.Tomasni kiritish lozimligini ta'kidlaydi<sup>1</sup> (bu olimlar ijodi o'tgan mavzularda to'liq qarab o'tilgan).

Ramziy interaksionizm ma'lum darajada strukturaviy funksionalizmga qarshi turadi. Agar strukturaviy funksionalizm vakillari sotsial jarayon strukturasi odamlarning harakatlariga tomon yo'nalgan bo'lsa, ramziy interaksionizm tarafdorlari esa harakatdagi shaxsdan sotsial struktura tomon yo'naladi. Shu tariqa, bu strukturaga sub'ektivistik qarash shakllanadi. Strukturaviy funksionalizmning nazariy yo'nalganligidan farqli o'laroq, ramziy interaksionizm asosan empirik yo'nalgandir. Uning muhim xususiyati – odamlar o'rtasidagi ramziy o'zaro aloqaning aniq kommunikatsiya shakllarini, ular orasidagi aloqa vositalarini, birinchi navbatda tilni o'rganishdan iborat.

Ramziy interaksionizm asoschisi J.G.Mid o'z konsepsiyasini "sotsial bixeviorizm" deb e'tirof etgan ("ramziy interaksionizm" tushunchasini uning shogirdi Blumer fanga kiritgan). U bilan parallel ravishda Moreno analogik g'oya tushunchasini kiritgan edi (hatto sotsiologiya tarixi adabiyotlarida uning g'oyalari kam yoritilgan, aksincha uning sotsiometriya g'oyasi ko'proq e'tirof etilgan). Ramziy interaksionizm odatda 2 ta maktab (yo'nalish) faoliyati alohida o'rganiladi:

1. Chikago maktabi (J.Mid, G.Blumer, T.Shibutani va boshq.).

2. Ayova maktabi (M.Kun, T.Partlend va boshq.)

M.Kun va uning izdoshlari ijtimoiylashuv jarayoni yo'nalishidan voz kechib, pozitiv-metodologik me'yorlarga o'tishni o'zlashtirdi. Shaxs ichki tuzilishi haqidagi qarashdan voz kechib, jamoaviy norma va qadriyatlarga alohida urg'u bergan holda, sotsial rol haqidagi nazariyalarni yoqlab chiqdi.

Ramziy interaksionizm mustaqil yo'nalish sifatida, Goffmanning sotsiodramatik qarashini e'tirof etish lozim (uning ko'p g'oyalari Morenoning sotsiodramatik konsepsiyasiga yaqin).

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ramziy interaksionizm juda turli-tuman ko'rinishlarga ega. J.G.Mid, G.Blumer, I.Goffman ta'limotlarida ko'tarilgan masalalar, o'z mazmun-mohiyati borasida bir-biridan jiddiy farq qiladi. Bu yo'nalish namoyandalari ko'pincha

<sup>1</sup> Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. – СПб.: [и др.]: РИО СПбГУ, 2015. – С. 119.

jamiyat faoliyati, uning strukturalari, institutlari va tashkilotlari masalalarini hal etishdan qochib, asosiy e'tiborni shaxsga, uning tevarak olamni, boshqa odamlar va ularning aloqasini his etishiga qaratadilar.

Ramziy interaksionizmning asosiy tamoyillarini sanab o'tish uchun bu nazariyani umumlashtirilgan ko'rinishda ifodalash talab etiladi. Bu esa oson ish emas. Ramziy interaksionizmning muhim tafovutlar borki, biz ularning bir qismi quyiroqda ko'rib chiqiladi.

Ba'zi ramziy interaksionistlar (masalan, Blumer) bu nazariyaning asosiy tamoyillarini sanab o'tishga harakat qilganlar:

1. Odamlar, tuban hayvonlardan farqli o'laroq, fikrlash qobiliyatiga (imkoniyat) ega.
2. Fikrlash qobiliyati sotsial o'zaro harakat orqali shakllantiriladi.
3. Sotsial o'zaro harakat chog'ida odamlar ma'nolar va ramzlarni o'zlashtiradi, ular insonga xos bo'lgan fikrlash qobiliyatini amalga oshirishga imkon beradi.
4. Ma'nolar va ramzlar insonga xos bo'lgan harakatlar va o'zaro harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi.
5. Odamlar vaziyatni o'zicha talqin etish asosida, harakat va o'zaro harakat paytida qo'llaydigan ma'nolar va ramzlarni yangilashga yoki o'zgartirishga qodir.
6. Odamlar qisman o'zi bilan o'zaro harakatga kirishish qobiliyati tufayli, bu yangilanish va o'zgartirishlarni amalga oshirishga qodir, bu esa ularga harakatning ehtimolli yo'nalishlarini tadqiq etishga, o'zlarining nisbiy ustunliklari va kamchiliklarini baholashga, so'ng esa yo'llardan birini tanlashga imkon beradi.
7. Harakat va o'zaro harakatning aralash misollari guruhlar va jamiyatlarni hosil qiladi<sup>1</sup>.

Ramziy interaksionizmni ko'rib chiqishni Mid ijodidan boshlaymiz. Umuman ramziy interaksionizmning va qisman Mid ijodining eng muhim intellektual manbalari – pragmatizm falsafasi va psixologik bixeviorizm<sup>2</sup>.

2. Jorj Gerbert Mid – ramziy interaksionizm tarixida eng taniqli mutafakkir, uning «Aql-idrok, o'zlik va jamiyat»<sup>3</sup> kitobi esa – mazkur

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 369.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 351.

<sup>3</sup> Mead. Mind, Self and Society. – Chicago, 1934.

an'ana doirasidagi eng muhim asardir. Falsafiy jihatdan Mid amerikalik olimlar U. Jeyms va J. Dyuning izdoshi edi.

«Aql-idrok, o'zlik va jamiyat» kitobiga yozgan sharhida Elsvot Feris ta'kidlagan ediki, «ehtimol, [Mid] aql-idrok va keyin jamiyat emas, balki birinchi navbatda jamiyat, undan keyin esa aql-idrok paydo bo'ladi, deb hisoblardi»<sup>1</sup>. Feris tomonidan kitob sarlavhasidagi so'zlarning o'rni almashtirilishi Midning o'zi anglab yetgan keng e'tirof etilgan bir faktni aks ettiradi: Midning tahlilida jamiyatga, yoki kengroq ma'noda butun sotsial tushunchalarga ustuvorlik beriladi.

Jorj Gerbert Mid (1863-1931) Massachusetts shtatida tug'ilgan. Garvard universitetini tugatgach va Germaniyada tajriba oshirgach, u Chikago universiteti professoriga ay lanadi va u yerda 1931-yilga qadar o'qituvchilik qiladi. Ko'p vaqt davomida Mid faqat ikkinchi o'rindagi ijtimoiy psixolog sifatida qabul qilindi; faqat 1950-yillarning oxiri – 1960-yillarning boshida u o'ziga xos falsafiy-sotsiologik konsepsiya muallifi, tez orada esa – sotsiologiya va falsafaning mumtoz namoyandasi sifatida tan olindi. Bu ham uning o'ziga xos ijodiy yondashuvi, ham asarlari taqdiri bilan izohlanadi. Mid hayotligida iste'dodli ma'ruzachi va turli nashrlarda bosilgan ko'plab maqolalar muallifi kabi tanilgan edi. U kitoblar chiqarmas va zamondoshlari aytganidek, o'z ijodini juda past baholardi. Hatto u o'zini haddan tashqari, patologik qobiliyatsiz, deb baholagani haqida gapirishadi<sup>2</sup>. Midning vafotidan so'ng uning sobiq talabalari o'z konspektlariga tayanib, maqolalar va ma'ruzalar matnlarini to'plashdi va 1930-yillar mobaynida ularni to'rt jildlik kitob ko'rinishida nashr etishdi, va aynan ular Midga shuhrat keltirdi.

Mid ta'limotining markaziy tushunchasi – shaxslararo o'zaro aloqalardir. Mid ijodida boshqa yana bir muhim tushuncha – sotsial harakat ana shu kategoriya bilan chambarchas bog'liq. U shaxslar o'rtasidagi muloqotni ular o'rtasidagi doimiy, beto'xtov harakatlar almashinuvi sifatida talqin etadi.

Mid harakatni o'z nazariyasining eng «oddiy birligi» sifatida ko'zdan kechiradi. O'zining harakat tahlilida Mid bixevioristik yondashuvga yaqin keladi va rag'bat hamda reaksiyaga diqqat qaratadi. Ammo hatto shu yerda ham rag'bat insonning ongsiz

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 355.

<sup>2</sup> Qarang: История интеллектуальной социологии / Отв. ред. Н.Ф. Давыдов. – М.: КАИРОН-ОН «Реабилитация», 2002. – С. 277.

avtomatik reaksiyasini qo'zg'atmaydi. Mid aytishicha, «Biz rag'batni majburlash yoki buyruq kabi emas, balki harakat uchun sabab yoki imkoniyat kabi tushunamiz»<sup>1</sup>.

Mid to'rtta asosiy o'zaro aloqa bosqichlarini ajratib ko'rsatdi: impuls, his etish (persepsiya), manipulyasiya va iste'mol (konsummatsiya). Ular uyg'un birlikni hosil qiladi. Tuban hayvonlar ham, odamlar ham harakat qiladi. Midni ular o'rtasidagi o'xshashliklar va ayniqsa farqlanishlar qiziqtiradi. Ularni birma-bir qarab chiqamiz:

Birinchi bosqich – impuls bosqichi bo'lib, u «bevosita hissiy rag'batni» va aktorning bu da'vatga reaksiyasini, bu borada biror ishni bajarish ehtiyojini o'z ichiga oladi.

Harakatning ikkinchi bosqichi – his etish, aktor uning yordamida impuls bilan bog'liq rag'batlarni izlaydi va ularga javob qaytaradi hamda uni qoniqtirishning qulay usullarini aniqlaydi.

Uchinchi bosqich – manipulyasiya. Impuls aniqlangan, obyekt esa his etilganidan keyingi qadam shundaki, aktor obyekt bilan manipulyasiya qiladi yoki kengroq ma'noda, unga nisbatan ma'lum harakatlar bajaradi.

Harakatning so'nggi bosqichi – iste'molni yoki boshlang'ich impulsni qanoatlantiradigan harakatni amalga oshirishni nazarda tutadi, ya'ni boshqacha qilib aytganda obyektidan foyda olish va uni baholash jarayonidir<sup>2</sup>.

Garchi harakatning to'rt bosqichi oson bo'lishi uchun ketma-ket tartibda ko'rib chiqilgan va bir-biridan ajratilgan bo'lsa-da, Mid ular o'rtasida dialektik aloqani ko'radi.

Sotsial harakatni o'zaro aloqa sifatida talqin eta turib, Mid uning ikki tipi – noramziy va ramziy o'zaro aloqani ajratadi. Birinchi tip odamlarning bir-birining xarakterlariga bevosita reaksiyasini anglatadi. Ikkinchi, asosiy o'zaro aloqa tipi – ramziyga kelsak, uni amalga oshirish jarayonida turli shakllardagi "ko'rsatmalar, ma'nolar va mohiyatlar", birinchi navbatda til almashinuvi yuz beradi. Til esa kommunikatsiyaning ishoraviy, yozma, og'zaki shakli ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Ishoralarning turli shakllarini ko'rib chiqa turib, Mid ovoz ishorasi tahliliga va uning o'zaro aloqaning muhim ramziga

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 356-358.*

<sup>2</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 358-359.*

aylanishiga alohida e'tibor qaratadi. Ovoz ishoralarining majmui va o'zaro bog'liqligini u nutq sifatida qabul qiladi.

Mid doim ta'kidlaganidek, inson va insoniyatning sotsial dunyosi sotsial o'zaro aloqalar jarayoni ta'sirida shakllanadi. Bunda "ramziy muhit" katta rol o'ynaydi. Midga ko'ra, odamlar o'rtasidagi muloqot maxsus vositalar – ramzlar yordamida amalga oshiriladi. Ishora va tilni u shu ramzlarga kiritadi. Insonni qurshagan ramziy muhit unga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, chunki shaxs ongi va inson Meni shakllanishiga yordam beradi. Ishora – bu inson harakatining boshlang'ich, tugallanmagan unsuridir. Ishora va unga javob go'yoki ishora va uni qabul qiluvchi odam o'rtasida "joylashadigan" mohiyat bilan ifodalanadi.

Ishoraning mazmuni instinktiv reaksiyani chaqiradi (agar u tushunarli bo'lsa). Mid "Ishoradan – ramzga" asarida shunday yozadi: "Ishora sotsial harakatning qandaydir bir yakunlovchi jihatini ifodalaydi. Bu jihatga sotsial harakatga jalb etilgan shaxslar muayyan javob qaytaradi, shu tariqa, mazmun javob atamalarida beriladi yoki ifodalanadi"<sup>1</sup>.

Ammo ishora sotsial mustahkamlangan mohiyatga ega emas. Holbuki, unga til ega. Sotsiolog bu asarida yana ko'rsatishicha, "tilning inson ongi rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyati shundaki, bu stimulyator gapirayotgan shaxsga, boshqasiga ta'sir etgandek ta'sir ko'rsatishga qodir bo'ladi"<sup>2</sup>. Ramzlarni translyasiya qilish jarayonida shaxs o'z sherigiga harakatga undovchi bir qator stimullarni ham beradi. Shu asosda shaxslararo o'zaro aloqa "rollarni taqlid qilib o'rganish" jarayonidan iborat bo'lib qoladi. Sotsial sherikning harakatlaridan o'ziga xos nusxa ko'chirish natijasida, muayyan sotsial ahamiyatga molik axborot uzatiladi.

Midning shaxslararo o'zaro aloqasi konsepsiyasi esa, o'zaro aloqaning sotsial omillar bilan bog'liqligi haqida qoidani o'z ichiga oladi. Shaxs tomonidan atrofdagi sotsial voqeyelikni his etish esa, uning boshqa odamlar bilan muloqot qilish tajribasi hamda dunyo va o'zini boshqalar ko'rgandek va ramzlar (ishora va til) bilan ifodalangandek his etish qobiliyati bilan belgilanadi.

<sup>1</sup> Мид Дж. *От жеста к символу // Американская социологическая мысль. Тексты. – М., 1996. – С.*

<sup>2</sup> *O'zga foyda. – B. 217.*

Mid fikricha, inson harakatlari dastavval muhim bo'lgan sotsial xususiyatga ega. Shaxs harakatini faqat sotsial guruhning uyushgan harakatlari atamalarida izohlash mumkin; agar shaxs harakatlariga bir butun yaxlitlikda qaralmasa, ularni izohlab bo'lmaydi.

Mid sotsial jarayon doirasida shaxslar harakatlarining bir-biriga moslashuvi muammosini batafsil tadqiq etadi. U o'zaro aloqa deb ta'riflagan moslashuv "kommunikatsiya vositasida yuz beradi: inson evolyutsiyasining ancha past darajalarida ishoralar orqali va inson evolyutsiyasining ancha yuqori darajalarida ma'noga ega bo'lgan ramzlar orqali"<sup>1</sup>. Mid fikricha, shaxslar harakatlari moslashuvining asosiy omili "mazkur inson organizmining ishorasi va shu organizmning keyingi harakati o'rtasidagi munosabatlar maydonida vujudga keladi va joylashadi"<sup>2</sup>. Istalgan sotsial harakat chog'ida bir organizmning boshqasining ishorasiga javobi esa ana shu ishoraning ma'nosi bo'ladi.

Midning qarashlariga ko'ra, o'zaro aloqa jarayonlari majmui jamiyatni va sotsial shaxsni yaratadi. Menning kelib chiqishi butkul sotsialdir, uning bosh xususiyati – o'zi uchun ob'ektga aylanish qobiliyati, demak, o'zini anglash qobiliyatidir. Bu esa uni jonsiz jismlar va tirik organizmlardan ajratib turadi.

Mid ijodida ramziy interaksionizm konsepsiyasi uning shaxs konsepsiyasi bilan uzviy bog'langan. Bu tabiiy hol, chunki ramziy interaksionizm asosiga aynan shaxs konsepsiyasi qo'yiladi. Bu konsepsiyada, olim "Men" tizimining strukturasi sifatida qabul qilgan shaxs strukturasi masalasi alohida o'rin egallaydi.

Mid "Men" tizimida ikkita kichik tizimni ajratib ko'rsatadi: "I" va "Me". "Me" – "boshqalarning" mazkur shaxsga xos ko'rsatmalari, hamjamiyatning qadriyatlarini va me'yorlari majmuidir; bu shaxslar o'zlarini boshqa shaxslarning ko'zi bilan qanday ko'rishi va ular o'zlari haqidagi bu umumlashtirilgan tasavvurlarni o'zlashtirishidir. Aksincha, "I" mustaqil xususiyatga ega, shaxsning o'zini o'zi tasavvur etishini anglatadi va uning o'zligi bo'lib xizmat qiladi. U kutilmagan harakat manbasi bo'lib, shaxsning sotsial stimullarga o'ziga xos reaksiyasini aks ettiradi.

<sup>1</sup> O'zga uyid. – B. 220.

<sup>2</sup> Mid Dk. *От жеста к символу // Американская социологическая мысль. Тексты.* – М., 1996. – С.

"I" sotsial jarayonga aynan o'xshaydi, u bilan uyg'unlashib ketgan. Aslini olganda, Mid "I"ni nafaqat sotsial jarayon, balki insonning mustaqilligi va erkinligi, uning sotsial rollarni tanlash va qayta tuzish imkoniyatlari va istiqbollari bilan tenglashtirishga intilar edi.

"I" kutilganidek chetga chiquvchi tarzda reaksiya ko'rsatib, o'zaro aloqalar strukturasi o'zgarishlar kiritadi. Bu o'zgarishlar esa jamlanib, sotsial jarayonning qat'iy sotsial tartibga aylanishiga yo'l qo'ymay, uning mazmunini o'zgartiradi.

Midning shaxs strukturasi nisbatan nuqtayi nazari esa, uning aslida shaxs strukturasi ikki yoqlama tabiatini e'tirof etishini anglatadi. Bu tabiat, bir tomondan, shaxsning o'zligi ta'rifi (kimningdir fikrlari va baholariga bog'liq bo'lmagan ichki o'zak) bilan, boshqa taraflama esa – boshqa odamlar tomonidan o'zi haqida tasavvurlarni aniqlash va his etish bilan bog'liqdir. Shaxsga berilgan ana shu talqindayoq shaxsning tabiatida va strukturasi mujassamlashgan sotsial o'zaro aloqa manbalarini tushunish yotadi.

Midning "I" va "Me"ning o'zaro nisbatiga qarashlarini ko'rib chiqq turib, biz "istiqbol" tushunchasini ishlatdik. U Midning ijodida juda katta o'rin egallaydi.

Olim nafaqat kelajakda kutilayotgan harakat mahsulini ko'rsatish uchun, balki har bir shaxsning o'z sotsial muhitiga o'ziga xos munosabatini aniqlash uchun istiqbolni tahlil qiladi. Bu sotsial muhit shaxs uchun "umumlashtirilgan boshqa" sifatida namoyon bo'ladi – bu esa Mid tomonidan fanga kiritilgan yana bir muhim tushuncha hisoblanadi. Sotsial o'zaro aloqalarning bir qatorida ular ishtirokchilarining kommunikatsiyasiga aynan shuning uchun ham yo'l qo'yiladiki, ular umumiy istiqbolda qatnashadilar va "umumlashtirilgan boshqa" rolini o'z zimmasiga oladilar. Bu tushunchada guruhning (aniq sotsial muhitning) umumiy o'zaro aloqa ob'ektiga nisbatan fikri aks etadi va umumlashtiriladi. "Aynan umumlashtirilgan boshqa shaklida, – deb yozadi Mid, – sotsial jarayon o'ziga jalb etilgan va uni qo'llab-quvvatlovchi shaxslarning harakatiga ta'sir qiladi. Ya'ni, hamjamiyat o'z shaxsiy a'zolarining harakatini nazorat qiladi, chunki aynan shu shaklda sotsial jarayon (hamjamiyat) belgilovchi omil sifatida shaxs tafakkuriga kirib boradi"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Mid Dk. *От жеста к символу // Американская социологическая мысль. Тексты.* – М., 1996. – С. 227.

Bu borada shu jihatni qayd etish kerakki, "umumlashtirilgan boshqa"ni o'zaro aloqa ishtirokchisining sotsial muhiti sifatida ko'zdan kechira turib, olim "umumlashtirilgan boshqa"ning dominantasi bo'lgan "ahamiyatli boshqa" tushunchasini ajratib ko'rsatadi. Bu tushuncha kelgusida sotsiologiyada referent guruh muammosini ishlab chiqishda muhim rol o'ynadi. Referent guruh esa shaxs uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan haqiqiy yoki tasavvurdagi sotsial guruh kabi talqin etiladi. Shaxs o'zining sotsial mavqeyini, harakati va ko'rsatmalarini ana shu etalonga qiyoslaydi.

Midni o'zlik genezisi juda qiziqtiradi. U o'zlikning asosi – ishoralar suhbatidir, deb hisoblaydi, ammo, agar odamlar bunday suhbat chog'ida o'zlarini ob'ekt deb hisoblashmasa, suhbatda o'zlik bo'lmaydi. Mid bola rivojlanishining ikki bosqichida o'zlik genezisini kuzatadi.

"Mazkur bosqichlarning birinchisida, - yozadi Mid, - shaxsning o'zligi o'ziga xos sotsial harakatlar doirasida uning o'ziga va bir-biriga nisbatan boshqa shaxslarning alohida ko'rsatmalarini shunchaki tashkil etish orqali ifodalanadi. Shaxs boshqa shaxslar bilan birgalikda ana shu sotsial harakatlarda ishtirok etadi. O'zlikning to'liq rivojlanishi jarayonining ikkinchi bosqichidagina, o'zlik nafaqat shu alohida ko'rsatmalarni, balki umumlashtirilgan boshqa yoki o'zi taalluqli bo'lgan sotsial guruhning ko'rsatmalarini tashkil etuvchisi sifatida belgilanadi"<sup>1</sup>.

Ikkala bosqich bolalar yoshidagi shaxslar faoliyatining asosiy shakli bo'lgan o'yinni o'rganish va ta'riflash bilan bog'liqdir. Birinchi bosqich – bu rolli o'yinlar. Bunda o'yin (play) bolaning o'ziga tegishli bo'lmagan rollarni ijro etishi bilan bog'liq. Bu ota-ona va boshqa qarindoshlar, doktorlar, sotuvchilar va hokazolarning rollaridir. Bolalar bu rollarni o'z-o'zi bilan "muloqot qilish" jarayonida o'ynaydi.

Agar inson o'zlikni to'laqonli rivojlantirsa, keyingi bosqichga – jamoaviy o'yinlarga o'tish talab qilinadi. Ammo bu o'yin (game) endi boshqacha tarzda namoyon bo'ladi. Rolli o'yinlar bosqichida bola boshqa alohida odamlar rolini qabul qilsa, jamoaviy o'yinlar bosqichida bola o'yinda ishtirok etayotgan har bir odamning rolini

<sup>1</sup> Mid D.J. *Азия // Американская социологическая мысль. Том 10. – М., 1996. – С. 230.*

qabul qilishi kerak. Boz ustiga, bu turli rollar muayyan tarzda bir-biriga aloqador bo'lishi lozim.

Bunda bola boshqa tengqurlari bilan musobaqalashadi. Bunday o'yinlarda bolalar o'zlarini nafaqat o'z ko'zlari, balki musobaqalarning boshqa ishtirokchilari ko'zlari bilan ko'radilar. Bu esa ularning ko'rsatmalari va harakatlariga, shuningdek, ular o'ynayotgan rollarga javob qaytarishga majbur qiladi. Shu tariqa, bola shunday uyushgan hamjamiyat a'zosiga aylanadiki, bunda ramziy o'zaro aloqa va kommunikatsiya tamoyillari sotsial harakatni belgilab beradi. "Musobaqa va o'yin o'rtasidagi tub farq, - deb ko'rsatadi Mid, - shundaki, birinchisida bola shu musobaqaga jalb etilgan boshqa barcha shaxslarning ko'rsatmasiga ega bo'lishi kerak. Musobaqa ishtirokchisi o'zlashtiradigan boshqa o'yinchilarning ko'rsatmalari o'ziga xos birlikka aylanadi va bu birlik mazkur shaxsning javobini nazorat qiladi"<sup>1</sup>.

Umuman olganda, Midga ko'ra, insonning harakatlari uning shaxsi strukturasi, uning sotsial roli va "umumlashtirilgan boshqa"ning ko'rsatmalarini his etishi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, Mid qarashlarining ma'lum ma'noda cheklanganligi haqida gapira turib, qayd etish kerakki, uning shaxslararo muloqot tahlili ko'pincha faqat shakliy tomonga qaratilgan, u shaxslarning predmetli faoliyatini va sotsial o'zaro aloqalarning boshqa omillarini ta'riflab bermaydi.

3. Gerbert Blumer (1900-1987) ramziy interaksionizmning ikkinchi taniqli vakili, Midning izdoshi. U Sent-Luis shahrida (Missuri shtati) tug'ilgan, Chikago universitetida sotsiologiyadan tahsil olgan. 1925-1952-yillarda Chikago universitetida, 1952-yildan boshlab esa Kaliforniya universitetida dars bergan. Bu yerda u avvaliga professor va kafedra rahbari, 1959-yildan boshlab esa Sotsial fanlar instituti direktori lavozimida ishlagan. 1942-1953-yillarda "American Journal of Sociology" jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Chikago maktabining vakili bo'lgan Blumer Ch.Kuli, J.Dyui, U.Tomasning asarlariga tayangan, J.Midning shogirdi va izdoshiga aylangan. Sotsiologiya fanida "ramziy interaksionizm" atamasining keng joriy etilishi uning nomi bilan bog'liqdir. U bu atamani 1937-yilda ilk marotaba fanga kiritgan.

<sup>1</sup> Mid D.J. *Азия // Американская социологическая мысль. Том 10. – М., 1996. – С. 226.*

Xuddi Mid kabi, Blumer ham o'zaro aloqaning ikki darajasi – noramziy va ramziy aloqalarni farqlaydi. Blumerga ko'ra, ular o'rtasidagi farq, avvalambor noramziy o'zaro aloqa jonli tabiatga xos, ramziy o'zaro aloqa esa faqat kishilik jamiyatiga xosdir.

Bu borada ramziy o'zaro aloqa fenomenining mohiyati inson integratsiyasining asosiy omili bo'lmish tilning ramziy tabiati bilan bog'liqdir. Muloqot jarayonida til turli odamlarning til konstruksiyalariga bir xil reaksiyasini hosil qiladi. Ayni damda, istalgan so'z (ramz sifatida) maxsus ma'noga ega bo'ladi. Bu ma'no esa, odamlar o'rtasida o'zaro aloqa qilish va ana shu ma'no to'g'risida kelishib olish natijasida paydo bo'ladi. Pragmatizmga tayangan holda, Blumer obyektning ahamiyati unga xos bo'lgan xususiyatlar bilan emas, balki uning harakatdagi roli bilan belgilanadi, deb xulosa qiladi. Obyekt – bu uning kutilayotgan va haqiqiy sotsial o'zaro aloqada anglatadigan mohiyatidir.

Mohiyatlar sotsial o'zaro aloqa jarayonlarida vujudga keladi. Sotsial o'zaro aloqa deganda esa, Blumer faqat mikrojarayonlarni tushungan. Mohiyatlarning o'zi esa ramziy o'zaro aloqa doirasida ham shaxslar o'rtasidagi, ham hodisalar (obyektlar) o'rtasidagi uzilmas aloqa usuli bo'lib xizmat qiladi. Odamlar ramzlarga ma'nolar beradi, ya'ni, ularni talqin qiladi, natijada ular o'zaro aloqa qiladigan obyektlar ma'noga ega bo'ladi. Shu bois olim interpretatsiya tahliliga katta e'tibor qaratadi. U tufayli shaxs ob'ekt bilan qay tarzda o'zaro aloqa qilishi ayon bo'ladi. Interpretatsiya asosida harakat vaziyatini qayta aniqlash (yangicha aniqlash) mumkin bo'ladi.

Bu yerda shu holatni ham e'tiborga olish zarurki, tasvirlangan jarayon (aynan jarayon, o'z holicha olingan qandaydir bir statik holat emas) nafaqat ayrim shaxsga, balki kamida (eng oddiy hodisa) ikki nafar o'zaro aloqa qiluvchi odamlarga taalluqli bo'ladi. Binobarin, o'zaro interpretatsiya jarayoni haqida gap ketmoqdaki, uning asosida o'zaro tushunish tug'iladi. Bu holda ramzlarning qo'shma, ikki tomonlama, o'zaro interpretatsiyasi jarayonida o'ziga xos "sotsial voqyelikni yaratish" yuz beradi. Bu yaratish ma'nolarni qabul qilish va ifodalashdan iborat bo'lib, ular shaxslarning hayoti, munosabatlari, o'zaro aloqalari, kommunikatsiyasi, muloqotining ramziy muhitini hosil qiladi.

Bosh asarlaridan biri – "Ramziy interaksionizm: istiqbol va uslub"ning (1969) birinchi bobida Blumer o'z nazariyasining asosiy

qoidalarini quyidagicha bayon etadi: a) insoy faoliyati, ob'ektlarga nisbatan shaxslar baxsh etadigan ma'nolarga asoslangan holda amalga oshiriladi; b) ma'nolarning o'zi odamlar kirishadigan sotsial o'zaro aloqadan kelib chiqadi, ya'ni ular shaxslar o'rtasidagi sotsial interaksiya mahsuli hisoblanadi; v) interpretatsiya, ya'ni har bir shaxs o'z atrofidagi belgilarga (ramzlar) nisbatan qo'llaydigan jarayon orqali ma'nolar o'zgaradi va ishlatiladi<sup>1</sup>.

Blumerning mulohazalarini quyidagi oddiy misolda aniqlashtirish mumkin: stolda turgan oq qog'oz inson o'z fikrini yoza oladigan narsa deb, olma esa – yeyish mumkin bo'lgan narsa, deb hisoblanadi. Boshqacha aytganda, odamlar narsalarga (ob'ektlar) nisbatan ularning ma'nolariga asoslangan holda ish ko'radi. Ammo ma'nolar o'z-o'zicha narsalarga xos emas va qandaydir bir shaxsiy tushuncha ham emas. Ular o'zaro aloqa jarayonida paydo bo'ladi va unga qo'shilib ketadi, shuning uchun ma'nolar o'z tabiatiga ko'ra sotsial fenomen hisoblanadi. Ammo shu bilan birga, bu ma'nolar ularning odamlar tomonidan interpretatsiya qilinishi tufayli o'zgaradi. Binobarin, sotsiologiyaning bosh vazifalaridan biri – o'zlarining kundalik sotsial hayoti doirasida odamlar tomonidan ob'ektlar ma'nosi interpretatsiya qilinishi usullarini o'rganishdir.

Shu tariqa, sotsiolog nazarida harakatdagi inson qandaydir tashqi talablarning oddiy ijrochisi bo'lishni bas qiladi. Aksincha, o'zaro aloqa sub'ektlari faoliyatining ijodiy natijalari asosiy bo'lib qoladi. Bu natijalar esa odamlar ob'ektlarning ramzlari, belgilari, ma'nolarini interpretatsiya qilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Mazkur qoidaning qabul qilinishi ramziy interaksionizmning mikrojarayonlarni tahlil qilish sohasiga sotsiologik kirib borishi va buning uchun empirik tadqiqot usullarini qo'llashiga yordam berdi. Chetga chiquvchi harakatning jinoiy shakllari, oila ichidagi interaksiya, turli submadaniyatlar shakllanishi jarayonlari shunday tadqiqotning eng qiziqarli sohalari bo'lib qolmokda.

Midning izdoshi bo'lganligi sababli, Blumer Midning sotsial o'zaro aloqa muammosini ramziy o'zaro aloqa sifatida ko'tarib chiqishini, uning sotsiologiyaga qo'shgan katta hissasi, deb hisoblar edi. Blumerga ko'ra, sotsiologik nuqtai nazardan jamiyat ramziy interaksiya hisoblanadi. Shunga ko'ra, sotsiologiyaning markaziy

<sup>1</sup> Qarang: Blumer H. *Symbolic Interactionism: Perspective and Method*. New Jersey, 1969. Ch. 1.

muammosi – sotsial o'zaro aloqa va jamoaviy harakatni, ularning sotsiolog tomonidan interpretatsiya qilinishi asosidagi ramziy nazariya sifatida o'rganish bo'lib qoladi.

Ramziy o'zaro aloqani interaktsiya jarayoni sifatida ko'zdan kechira turib, Blumer bu tushunchani ayrim shaxs faoliyatini (harakatlari) ta'riflash uchun qo'llash imkoniyati mavjudligini ta'kidlaydi. Bunga oddiy empirik kuzatish yordamida erishish mumkin. Bu fikrni Blumer o'zining "Ramziy interaksionizm: istiqbol va uslub" nomli asarining "Jamiyat ramziy interaktsiya sifatida" degan bobida quyidagicha ifodalaydi: "Har birimizga shunday harakatlar yaxshi tanish: inson o'zidan achchiqlanadi, o'zini o'ziga qarshi qo'yadi, o'zi bilan g'ururlanadi, o'zi bilan o'zi bahslashadi, o'z jasurligini saqlab qolishga urinadi, o'ziga o'zi biror ish qilishi zarurligini aytadi, o'z oldiga maqsadlar qo'yadi, o'zi bilan o'zi murosa qiladi va buning uchun nima ish qilishi kerakligini rejalashtiradi. Inson o'ziga nisbatan ana shunday yoki yuzlab boshqacha usullar orqali ish tutishi oddiy empirik kuzatuv yordamida tasdiqlanadi"<sup>1</sup>.

Blumer tomonidan uning nazariyasining markaziy kategoriyalardan biri sifatida taqdim etilgan "jamoaviy harakat" konsepsiyasiga ham to'xtalib o'tish zarur hisoblanadi. Uning ushbu mavzudagi asosiy asari ham analogik tarzda "Jamoaviy harakat" (1951) deb nomlanadi. Har qanday guruh faolligini u jamoaviy harakat, deb tushunadi. "Guruhning faolligi, - deb yozadi Blumer, - ular o'rtasida mehnat taqsimoti mavjudligini ko'rsatadi va individual xulq-atvorning turli yo'llari ma'lum tarzda o'zaro moslashganligi yaqqol ko'rinib turadi. Shu ma'noda guruh faolligi jamoaviy ish hisoblanadi"<sup>2</sup>.

Blumerning fikriga ko'ra, jamoaviy harakat asosi – umumiy mohiyatlar hamda shaxslar guruhi orasida taqsimlanadigan kutilgan natijalardir (ekspektatsiyalar). Ammo har doim ham shunday bo'lavermaydi. Jamoaviy harakatning ko'plab misollari va aniq holatlari borki, ular umumiy mohiyatlar va kutilgan natijalar ta'sirida aniqlanmaydi. Shaxslar guruhlarining jamoaviy harakatida ana

<sup>1</sup> Blumer H. *Symbolic Interactionism: Perspective and Method*. New Jersey, 1969. – P. 70.

<sup>2</sup> Блумер Г. Коллективное поведение // Американская социологическая мысль. Тексты. – М., 1996. – С. 166.

shunday farqlanishlarni yaxshiroq tushunish uchun, Blumer uning elementar va uyushgan shakllarini ajratib ko'rsatadi.

Elementar shaklga u biror-bir qoida ta'siri ostida amalga oshmaydigan jamoaviy harakatni kiritadi (jamoaviy harakatning elementar shakllariga misol tariqasida, Blumer junbushga kelgan olomonni, birjadagi sarosimani, harbiy vasvasani, sotsial tanglik holatini keltiradi).

Jamoaviy harakatning uyushgan shakllariga kelsak, ularga odatlar, diniy marosimlar, tashkilot, sotsial institutlar, ya'ni "noiniq va uyushmagan holatdan mustahkam va uyushgan maqomga o'tib, muayyan taraqqiyotga erishadigan" shakllar kiradi<sup>1</sup>.

Elementar jamoaviy harakatni batafsil tahlil qilib, Blumer uning mexanizmlarini ochib beradi. Tiqilinch, jamoaviy hayajon, sotsial infeksiya shular jumlasiga kiradi. Infeksiya deganda Blumer, biror-bir kayfiyatlar, intilishlar yoki harakat shakllarining nisbatan tez, ongsiz va noratsional tarqalishini tushunadi va misol tariqasida, harbiy vasvasa evolyutsiyasini yoki birja sarosimasi rivojlanishi jarayonini keltiradi. Blumer ularning harakati orqali elementar jamoaviy guruhlarining to'rt tipini ajratadi va batafsil ta'riflaydi:

- harakatdagi olomon;
- ekspressiv olomon;
- omma;
- jamoatchilik.

Bu yerda u asosan G.Lebon, E.Ross va katta guruhga birlashgan odamlarning sotsial-psixologik holatlarini tahlil etgan boshqa tadqiqotchilarga ergashadi.

Harakatdagi olomon deganda Blumer kutilmaganda shakllanadigan guruhni tushunadi. Bu guruh faqat bugungi kuni o'ylaydi, sotsial uyushqoqlikka, mehnat taqsimotiga, belgilangan rollar strukturasi, tan olingan yetakchilikka, umumiy mohiyatlar va ekspektatsiyalarga ega emas. Bunday olomonni sotsiolog "nomadaniy" va "noma'naviy" guruh deb ataydi. Unda shaxs o'z ustidan nazoratni va oddiy tanqidni yo'qotadi, boshqalarning harakatlariga javob qaytarishdan oldin, ularni tahlil va talqin qilishga qobiliyatsizligini namoyon etadi. Bu sharoitlarda shaxs o'z atrofidagi odamlarning gaplariga osongina ishonib qo'ya qoladi.

<sup>1</sup> Блумер Г. Коллективное поведение // Американская социологическая мысль. Тексты. – М., 1996. – С. 167.

Harakatdagi olomonning jamiyat uchun muayyan xavf solishini tushuna turib, Blumer unga qarshi kurashish borasida o'z tavsiyalarini keltiradi. U shunday yozadi: "Olmomon hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yoki uni tarqatib yuborish uchun, diqqatni shunday qayta yo'naltirish kerakki, u qaysidir bir obyektida jamoaviy mujassamlashmagan bo'lsin. Olomon uzra nazorat asosida turgan nazariy tamoyil ana shunday. Olomon a'zolarining diqqati turli ob'ektlarga qaratilgan vaqtda, ular uzviy aloqa bilan birlashgan olomoni emas, balki qandaydir shaxslar agregatini tashkil qiladi. Masalan, olomoni tarqatib yuborish mumkin bo'lgan usullar quyidagicha: odamlarni sarosimaga tushirish, ularda boshqa ob'ektlarga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularni munozaraga yoki asoslangan bahsga tortish"<sup>1</sup>.

Ekspressiv olomonning harakatdagi olomondan fundamental farqi shundaki, birinchisi aniq maqsad ishlab chiqmaydi va muayyan harakatlar rejasini tuzishda ishtirok etmaydi. U harakatlardagi ichki taranglikni yumshatadi. Bunday vaziyatda qo'zg'algan hissiyotlarning tashqi ifodasi yagona maqsadga aylanadi, shuning uchun jamoaviy harakat kulgi, yig'i, baqirish, sakrash va raqs shakllariga kirishi mumkin.

Omnia haqida so'zlay turib, sotsiolog uning quyidagi farqlovchi qirralarini aytib o'tadi: a) omnia ishtirokchilarining turli xil sotsial mavqeyi (kasbiy belgilarga, madaniy saviya va moddiy ta'minlanganlikka ko'ra); b) shaxslarning anonimligi; v) omnia a'zolarida o'zaro aloqa va kechinmalar almashinuvi yo'qligi; g) uyushqoqlik sustligi va olomoni farqlovchi hamjihatlik va birlik bilan harakat qilishga qobiliyatsizlik. Omnia yakkalangan, boshqalardan ajratib qo'yilgan shaxslarning qandaydir bir konglomeratidan tashkil topadi. Ularning harakati – ommaviy harakati – hеч qanday oldindan belgilangan qoidaga yoki ekspektatsiyaga bo'ysunmaydi va kutilmagan, o'ziga xos va elementar bo'ladi.

Ommaviy harakatga misollar tariqasida, Blumer Klondayk oltin vasvasasini va Oklaxoma yer tangligini keltiradi. Masalan, vasvasa davrida har bir shaxs o'z maqsadini ko'zlagan, boshqalardan o'zib ketishga uringan, har bir kishi faqat o'zi haqida qayg'urishga majbur bo'lgan, shu bois oltin izlovchilar o'rtasida sheriklik, sodiqlik va qonun-qoidaga rioya qilish juda kam kuzatilgan.

<sup>1</sup> Blumer Г. Коллективное поведение // Американская социологическая мысль. Тексты. – М., 1996. – С. 178.

Ommaviy harakatni ko'rib chiqish davomida Blumer ommaviy reklama ta'rifiga e'tibor qaratadi. Unda da'vat noma'lum shaxslarga qaratilishi kerak, ularning har biri esa o'z tanloviga asoslangan holda ish ko'radi. Xaridorlar jamiyatning turli qatlamlari vakillarini o'z ichiga olgan xilma-xil guruhni namoyon etadi; ammo reklama iste'molchilari ommasining a'zolari va xaridorlar sifatida ular bir xil va mohiyatan o'xshash bo'ladi.

Blumer elementar jamoaviy harakatni tahlil qilish chog'ida qarab o'tgan yana bir jamoaviy guruh – jamoatchilikdir. Blumerga ko'ra, u barqaror guruh sifatida mavjud bo'lmaydi va o'ylab qo'yilgan reja natijasida emas, balki muayyan vaziyat va muammoga tabiiy javob tariqasida paydo bo'ladi. Bu amorf guruh bo'lib, uning hajmi va a'zolari tarkibi muammo bilan birgalikda o'zgaradi. Jamoatchilik nimani qanday qilish kerakligi to'g'risidagi kelishmovchiliklar va munozaralari bilan ajralib turadi. Uning ichida tortishuv va nizolar vujudga keladi. Aynan shu holat jamoatchilikni olomondan sezilarli ajratib turadi, chunki olomon ishtirokchilari o'zaro qo'llab-quvvatlash va birdamlik kabi xislatlarga ega bo'ladi.

Blumer jamoaviy harakat subyektlari sifatida nafaqat kutilmagan jamoaviy guruhlarni, balki sotsial xulq-atvorning o'rnatilgan shakllarini ham qarab chiqadi. Bu shakllar orasida u umumiy, o'ziga xos va ekspressiv sotsial harakatlarni ajratadi.

Umumiy sotsial harakatlarga u ishchilar, yoshlar, xotin-qizlar va tinchlik harakatlarini kiritadi. Bu harakatlar asosida – inson kadriyatlarining izchil va keng qamrovli o'zgarishlari bo'lib, Blumer ularni madaniy oqimlar deb ataydi. Ular odamlar tafakkuridagi umumiy siljishlarni ifodalaydi. Umumiy sotsial harakatlarni belgilaydigan asosiy qadriyatlar qatorida salomatlikni, erkin ta'limni, xotin-qizlar emansipatsiyasini, ovoz berish huquqini kengaytirishni, bolalarga e'tibor kuchayishini va fanning o'sib borayotgan nufuzini qayd etish mumkin.

O'ziga xos sotsial harakatlar orasida Blumer, avvalambor, islohot va inqilob harakatlarini ajratib ko'rsatadi. Ular aniq belgilangan maqsadlarga, uyushqoqlikka, tarkibga, sodiq a'zolariga, shaxslarning muayyan maqomiy mavqelariga ega. Umumiy jihatlardan birga, har bir harakat boshqasidan bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi: qanday maqsadni ko'zlashi, vazifalari, xususiyati, taktikasi va h.k.

Ekspressiv sotsial harakatlarga kelsak, (Blumer ular qatoriga birinchi navbatda diniy harakatlar va modani (urf) kiritadi hamda ularni shu sifatda batafsil ko'zdan kechiradi), ular sotsial tuzum institutlari yoki ularning haqiqiy xususiyatini o'zgartirishga intilmaydi. 'Bu harakatlarning bosh ma'nosi – odamlarning shaxsiyatiga va sotsial tuzum xususiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ekspressiv sotsial xulq-atvorning keskinligini biror tarzda yumshatishdir.

4. Kanada-Amerika sotsiologi Irvin Goffmanni (1922-1982) ko'pincha ramziy interaksionizm vakili deb hisoblashadi. Chikago universitetining sotsiologiya maktabini "o'tab" (uning mahobati va ahamiyati susaygan davrda), J.Mid g'oyalari ta'sirida shakllanib va rivojlanib, u mazkur universitetda 1953-yili Shetland orollaridagi kommunikatsiya strukturalarini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. U avval Vashingtonda (Ruhiiy salomatlik milliy institutida) ishladi, so'ngra Berklida professor bo'ldi. Goffman 1981-yili Amerika sotsiologiya assotsiatsiyasining prezidenti etib saylandi. Bu esa AQSh ilmiy hamjamiyati uning katta xizmatlariga munosib baho berganini ko'rsatadi.

Uning asosiy asarlari: "Kundalik hayotda o'zini boshqalarga namoyon etish" (1959), "Aloqalar" (1961), "Boshpanalar" (1961), "Jamoat joylarida o'zini tutish" (1963), "Tamg'a" (1964), "O'zaro harakat taomili: yuzma-yuz harakat ocherklari" (1967), "Strategik o'zaro harakat" (1969), "Hadli tahlil" (1974), "Suhbat shakllari" (1981).

Ramziy interaksionizm doirasida «Men» tushunchasiga bag'ishlangan eng muhim tadqiqot — bu Irvin Goffmanning «Kundalik hayotda o'zini boshqalarga namoyon etish» asaridir (1959)<sup>1</sup>. Goffmanning «Men» konsepsiyasi Mid g'oyalaridan ko'p narsa olgan, xususan, I (spontan o'zlik) bilan Me (o'zlikning sotsial cheklovlari) o'rtasidagi nizoni ko'rib chiqish shu jumla ga kiradi. Mazkur ziddiyat Goffmanning u «bizning umuminsoniy «Men» va bizning ijtimoiylashgan «Men» tushunchalari o'rtasidagi muhim kelishmovchilik» deb atagan muammoga bag'ishlangan tadqiqotida aks etgan. Bu nizo odamlar harakatlarimizdan kutayotgan natija bilan biz ehtimol kutgan tartibsiz harakatlar o'rtasidagi tafovutlardan kelib

<sup>1</sup> Qarang: Goffman I. Представление себя другим в повседневной жизни. — М., 2000.

chiqadi. Biz, odamlar bizlardan kutilgan ishlarni bajarish talabiga duch kelamiz. Bundan tashqari, biz ikkilanmasligimiz lozim. Goffman shu xususda aytganidek, «biz u yoki bu tarafga og'ishga moyil bo'lmasligimiz lozim». O'z imijini barqaror saqlab turish uchun, odamlar o'zlarining sotsial ommasi oldida chiqadilar. Teatrallikka qiziqishi tufayli, Goffman dramaturgiyaga yoki sotsial hayotga qarashga e'tibor qaratdi.

Goffmanning «Men» tushunchasi uning dramaturgiyacha yondashuvi orqali shakllandi. Goffman uchun (Mid va boshqa ramziy interaksionistlarning aksariyati uchun ham) «Men» ma'lum bir vaziyatda joylashgan organik hodisa emas... Shuning uchun, «Men»ni tahlil eta turib, biz uning egasidan, insondan chalg'iyimiz. U esa «Men» tufayli hammadan ko'proq yutadi yoki yutqazadi, chunki bu inson va uning tanasi shunchaki tayanchni ta'minlaydi, ana shu tayanch ustida ma'lum vaqt davomida jamoaviy faoliyatning biror mahsuloti o'zini tutib turadi... «Men» tushunchalarini ishlab chiqarish va qaror toptirish vositalari bu tayanch ichida mavjud bo'lmaydi.

Goffman sotsial «Men»ni akorning mulki kabi emas, balki ko'proq ijrochi va tomoshabin o'rtasidagi sahnalashtirilgan o'zaro aloqa mahsuli sifatida tushunardi. O'zlik «teatr effekti bo'lib, ...ijro etilayotgan sahna tomonidan yaratiladi»<sup>1</sup>. O'zlik – sahnalashtirilgan o'zaro aloqa mahsuli bo'lgani sababli, u tomosha chog'ida nobud bo'lishi mumkin. O'z dramaturgiyasida Goffman bunday buzilishlarning oldi olinadigan yoki neytrallashtiriladigan jarayonlarni ko'zdan kechiradi. Garchi uning mulohazalarining katta qismi dramaturgiyaning ana shu ehtimolliklariga qaratilgan bo'lsa-da, Goffman ko'pgina sahnalar muvaffaqiyatli ijro etilayapti, deb uqtirardi. Natijada, odatdagi vaziyatlarda, ijrochilarga barqaror «Men» nisbati beriladi va u ijrochidan chiqayotgandek «ko'rinadi».

Goffman fikricha, individlar o'zaro aloqa qilgan chog'da, ular boshqalar qabul qiladigan shaxsiy «Men»ni muayyan tushunishni tasvirlashni xohlaydilar. Ammo, hatto bu «Men»ni taqdim eta turib ham, ijrochilar tomoshabinlarning bir qismi spektaklni buzishlari mumkinligini anglab yetadi. Shu sababli ijrochilar ommani, ayniqsa uning qo'poruvchi ta'sir ko'rsatadigan a'zolarini nazorat qilish zaruriyatiga moslashadilar. Ijrochilar umid qilishicha, ular ommaga

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. — P. 376.

taqdim etadigan «Men» tushunchasi ular ijrochilarni o'zlari istagandek aniqlash uchun yetarli bo'ladi, deb umid qiladilar. Shuningdek, ijrochilar bu ommani o'zlari xohlagandek harakat qilishga majbur etishini ko'zlaydilar. Goffman bu juda muhim vazifani «tasavvurni boshqarish» kabi ifodaladi. Bu boshqarish, ijrochilar duch keladigan muammolarga qaramay, muayyan tasavvurni saqlab turish qo'llaydigan usullarni hamda ular bu muammolarni hal etish uchun qo'llaydigan usullarni o'z ichiga oladi.

Teatr bilan shunday o'xshashlikka rioya qila turib, Goffman «sahnaning old tomoni» atamasidan foydalandi. Sahnaning old tomoni — bu tomoshani kuzatayotgan odamlar uchun vaziyatni odatda barqaror va umumlashgan holatda aniqlashtiradigan sahna joyidir. Keyin ana shu peshsahna doirasida Goffman sahna anjomlari va shaxsiy old tomonni ajratib ko'rsatadi. Sahna anjomlari odatda tomosha chog'ida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan jismoniy sahnaga taalluqli. Busiz ijrochilar o'ynay olishmaydi. Masalan, jarrohga operatsiya xonasi, taksichiga — mashina kerak va hokazo. Shaxsiy old tomon ekspressiv bezaklar elementlaridan iborat. Omma bu elementlarni ijrochilarga qiyoslaydi va ular ijrochilarga sahnada hamroh bo'lishini kutadi. Masalan, jarroh tibbiy xalat kiyishi, unda ma'lum anjomlar bo'lishi ko'zda tutiladi.

So'ngra Goffman shaxsiy old tomonni tashqi ko'rinish va uslublarga ajratdi. Tashqi ko'rinish bizga ijrochining sotsial maqomi haqida ma'lum qiladigan jihatlarni o'z ichiga oladi (masalan, jarrohning tibbiy xalati). Uslublar esa, ijrochi mazkur vaziyatda qanday rolni o'ynashini ma'lum qiladi (masalan, muayyan odatlarni qo'llash, tashqi harakatlar). Xususan, keskin va yumshoq harakatlar uslubi tamomila turli tomoshalar turlarini namoyish etadi. Umuman olganda, biz tashqi ko'rinish va uslublarning hamohangligini kutamiz.

Garchi Goffman old tomon va o'z tizimining boshqa jihatlarini ramziy interaksionist sifatida ko'zdan kechirgan bo'lsa-da, u ularning tarkibiy xususiyatini ham tadqiq etdi. Masalan, uning fikricha, old tomonlar institutsionallashtirishga moyil bo'ladi, chunki muayyan tomonda yuz beradigan hodisalar haqida «jamoaviy tasavvurlar» hosil bo'ladi. Juda ko'p hollarda, ijrochilar belgilangan rollarni o'ynashganida, ular bunday tomoshalar uchun ma'lum, belgilab bo'lingan old tomonlarni aniqlaydilar. Natijada, Goffman ta'kidlaganidek, old tomonlarni yaratish emas, balki tanlash

tendensiyasi mavjud. Bu g'oya biz odatda ko'pchilik ramziy interaksionistlardan kutganimizdan ko'ra ko'proq tarkiblashtirilgan obrazni ifodalaydi.

Shunday tarkibiy yondashuvga qaramay, Goffman eng qiziq yutuqlarga interaksiya sohasida erishgan. Uning ta'kidlashicha, odamlar peshsahnadagi tomoshada odatda o'zlarining ideallashtirilgan manzarasini taqdim etishga harakat qilganliklari sababli, ular o'z tomoshalarida nimanidir yashirishlari kerakligini tushunadilar.

Birinchidan, ijrochilar ehtimol, xufyona ko'ngilxushliklarni (masalan, alkohol iste'molini) yashirishni istashi mumkin. Ular bu tomoshadan avvalgi vaqtda yoki o'tmishda yuz bergan bo'lishi (masalan, narkomanlar kabi) va hozirgi sahna tomoshasiga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Ikkinchidan, ijrochilar ehtimol, tomoshani tayyorlash vaqtida yo'l qo'yilgan xatolarni hamda ularni tuzatish bo'yicha ko'rilgan choralarni yashirishni istashi mumkin. Masalan, taksichi ehtimol, avvaliga noto'g'ri yo'nalishda yurganini yashirishga harakat qilishi mumkin.

Uchinchidan, ijrochilar faqat yakuniy mahsulotlarni ko'rsatishi va ularni tayyorlash jarayonini yashirishi mumkin. Misol uchun, professorlar ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish uchun bir necha soat sarflashi mumkin, ammo ular ehtimol, o'zlarini materialni doim yaxshi bilganidek ko'rsatishi mumkin.

To'rtinchidan, ijrochilar yakuniy mahsulotni yaratish chog'ida qanday og'ir ishlar qilinganini ommadan yashirishlari mumkin. Og'ir ishlar esa, «jismonan nopok, yarimqonuniy, shafqatsiz va beadab» vazifalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Beshinchidan, ma'lum bir rolni o'ynay turib, ijrochilar ehtimol, boshqa biror bir me'yorlardan voz kechishi mumkin.

Nihoyat, ijrochilar ehtimol, tomosha davom etishi uchun amalga oshirilgan istalgan haqoratlar, kamsitish va kelishuvlarni yashirishi mumkin. Umuman olganda, ijrochilarning g'arazli manfaati o'z ommasidan bunday turdagi barcha faktlarni yashirishdan iborat<sup>1</sup>.

Dramaturgiyaning peshsahnadagi boshqa jihati shundaki, ijrochilar ko'pincha ommaga haqiqatdagidan ko'ra ko'proq yaqindek taassurotni uyg'otishga harakat qiladilar. Masalan, ijrochilar bu

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. — P. 377.

tomosha ular uchun yagona yoki hyech bo'lmasa eng muhim bo'lgandek taassurotni hosil qilishga urinishi mumkin. Buning uchun ijrochilar, ularning ommasi bir-biridan shu tarzda ajratib qo'yilganki, tomosha soxtaligini hech kim payqamasligiga amin bo'lishlari kerak. Agar, hatto soxtalik aniqlangan taqdirda ham, Goffman ta'kidlashicha, ommaning o'zi ehtimol, ijrochining ideallashtirilgan qiyofasini buzmaslik uchun, soxtalik tasavvurini yengib o'tishga harakat qilishi mumkin. Turmush haqida spektakllarning interaktsiya xususiyati ana shunda namoyon bo'ladi. Tomosha muvaffaqiyati barcha ishtirokchilarning jalb etilishiga bog'liq. Taassurotni shu tarzda boshqarishga yana bir misol – ijrochining omma bilan munosabatidagi qandaydir noyob jihatning mazkur tomoshada ham mavjudligi haqida g'oyani yetkazishga urinishidir. Omma ham, noyob tomoshani kuzatayotganiga ishongisi keladi.

Ijrochilar muayyan tomoshaning barcha elementlari bir-biri bilan bog'langaniga ishonch hosil qilishga intiladi. Ba'zi hollarda yagona ziddiyatli jihat spektaklni barbod etishi mumkin. Ammo tomoshalar talab qilingan muvofiqliklar soni bo'yicha farqlanadi. Agar ruhoniy ibodat chog'ida sirpanib yiqilsa, bu dahshatli xato bo'lardi, agar taksichi boshqa ko'chaga burilsa, bu tomoshaga jiddiy zarar yetkazishi dargumon.

Yanglishtirish – ijrochilar qo'llaydigan boshqa usul. Ko'pincha ijrochilar omma bilan aloqani cheklash orqali o'z chiqishlari bilan yanglishtirishga intiladi. O'zi va omma o'rtasidagi «sotsial masofani» yarata turib, ular ommada qandaydir e'zozli hayajon hissini uyg'otishga harakat qilishadi. Bu esa o'z navbatida, ommani tomoshaning haqiqiylikidan shubhalanishdan to'xtatib turadi. Goffman yana bir karra ko'rsatdiki, ijrochi bilan "masofani" saqlay turib, ijroning haqqoniyligi tasavvurini saqlab turishga ko'pincha ommaning o'zi yordam beradi<sup>1</sup>.

Bu esa bizni Goffmanning jamoalarga qarashlariga olib keladi. Goffman, ramziy interaksionist sifatida, ma'lum bir aktorlarga katta e'tibor berish o'zaro aloqa haqidagi muhim ma'lumotlarni yashiradi, deb hisoblardi. Tahlilning bazaviy birligi Goffman uchun jamoa emas, balki shaxs hisoblanar edi. Jamoa – bu istalgan individlar guruhi bo'lib, ular muayyan hayotiy o'zaro aloqalarni amalga oshirishda

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 378.

qatnashadi. Shu tariqa, ijrochi va omma o'rtasidagi munosabatlarning tasvirlangan muhokamasi aslida jamoalarga taalluqli. Jamoaning har bir a'zosi boshqalarga bog'lanib qolgan, chunki har bir a'zo tomoshani barbod etishi mumkin va har bir a'zo spektaklda mashg'ul ekanligini angelaydi. Goffman shunday xulosa qiladi: jamoa — bu o'ziga xos «yashirin jamiyat».

Goffman sahna ortidagi maydonni ham ko'zdan kechirgan. U yerda old tomonda yashirilayotgan dalillar yoki turli xil norasmiy harakatlar namoyon bo'lishi mumkin. Sahna orti maydoni odatda peshsahnaga tutash, ammo shu vaqtning o'zida undan ajratib ham qo'yilgan. Shubhasiz, ijrochilar omma a'zolari sahna ortida paydo bo'lmasligiga umid qilishlari mumkin. Bunga ishonch hosil qilish uchun, ular taassurotlarni boshqarishning turli usullarini qo'llaydilar. Agar ijrochilar tomoshabinlarning sahna ortida paydo bo'lishiga yo'l qo'ygudek bo'lsa, tomosha ko'rsatish ehtimol, qiyin kechishi mumkin. Shuningdek, uchinchi, qoldiq soha, tashqi hudud ham borki, u na peshsahna, na sahna orti emas.

Hyech qanday hayot sohasi barcha vaqt davomida ana shu uch sohadan biri bo'lolmaydi. Buning ustiga, muayyan soha turli vaqt davrlarida uch sohaning barchasini egallaydi. Professorning ofisi unga talaba tashrif buyurganda peshsahnaga, talaba chiqib ketganda sahna ortiga, professor universitet basketbol musobaqasiga ketganida tashqi hududga aylanadi.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ramziy interaksionizmning sotsiologik paradigma sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
2. Ramziy interaksionizmning Chikago va Ayova yo'nalishlari farholiyatidagi farqni tushuntiring.
3. Ramziy interaksionizmning asoschisi sifatida J.Midning konsepsiyasini tushuntiring.
4. J.Midning shaxs to'g'risidagi qarashlarini izohlang.
5. G.Blumerning ramziy o'zaro aloqalar to'g'risidagi qarashlarining J.Mid qarashlaridan farqi nimada?
6. G.Blumerning jamoaviy xulq-atvor to'g'risidagi qarashlarini izohlang.

7. I.Goffman sotsiologik ijodining asosiy xususiyatlarini izohlang.

8. Ramziy interaksionizmning sotsiologiya taraqqiyotida tutgan o'rini izohlang.

## GLOSSARIY

**Ahamiyatli boshqa** – значимый другой – significant other – Midga ko'ra, ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydigan insonlar, ularning fikrlari, harakatlari bizning shaxsiy fikr, hukm, xulq-atvorimiz shakllanishida namuna bo'lib xizmat qiladi.

**Birlamchi guruh** – первичная группа – primary group – «Biz» hissi bilan yuqori darajada birlashgan, birlamchi ijtimoiylashuvda muhim ahamiyat kasb etuvchi nisbatan kichikroq guruh.

**Dramaturgiya** – драматургия – dramaturgy – Goffman tomonidan ramziy interaksionizm doirasida ilgari surilgan "Men" ronsepsiyasi.

**Ekspressiv olomon** – экспрессивная толпа – expressive crowd – Blumerga ko'ra, emotsional jo'shqinlikni o'ziga qaratuvchi olomon (karnaval, diniy raqslar).

**Ekspressiv harakat** – экспрессивное движение – expressive movement – Blumerga ko'ra, diniy harakat yoki moda (urf). Bu harakatlarning o'ziga xos jihati shundaki, ular ijtimoiy tuzumni o'zgartirish maqsadini ko'zlamaydi.

**Harakatdagi olomon** – действующая толпа – acting crowd – Blumerga ko'ra, biron-bir dolzarb obyekt sari unga nisbatan to'liq anglanmagan maqsadsiz harakat qilayotgan olomon.

**Ishora** – жест – gest / gesture – Midga ko'ra sotsial harakatning va umuman sotsial jarayonning asosiy omili bo'lib, birinchi organizmning ikkinchi organizmning keyingi sotsial shartlangan javoblarining o'ziga xos stimuli sifatidagi harakatidir.

**Jamoatchilik** – общественность – public – Blumerga ko'ra, kutilmaganda paydo bo'lgan, lekin o'ziga xos bir yaxlitlikni namoyon qilayotgan, shuningdek, jamoaviy tarzda biron-bir qarorga kelishga yoki biron-bir jamoaviy fikrni ishlab chiqishga tayyor jamoaviy guruh.

**«Ko'zgudagi Men» nazariyasi** – теория «зеркального Я» – theory of looking-glass self – Kuli tomonidan ilgari surilgan nazariya bo'lib, individning o'zini anglashi va qadriyatlarini mo'ljali o'zini o'rab turgan insonlarning ularga reaksiyasini xuddi ko'zgudagi kabi aks ettirishini taqazo etadi.

**Men-konsepsiyasi** – Я-концепция – one's self-concept – insonning o'zi to'g'risidagi tasavvurlari tizimi.

**Mohiyatlar determenizmi** – детерминизм значений – determinism of meaning – Blumerga ko'ra, insonlar xulq-atvori xarakteri avvalambor ular bir-birlariga kommunikatsiya jarayonida beradigan aniq mohiyatlar bilan shartlanishini ilgari suruvchi yondoshuv.

**Omma** – масса – mass – Blumerga ko'ra, kutilmaganda bir joyda to'plangan, ko'pgina hollarda milliy masshtabdagi u yoki bu masala mohiyati bilan to'liqlangan insonlar guruhi.

**Pragmatizm** – прагматизм – pragmatism – 1) haqiqatni amaliy foyda bilan teng olib qarash; 2) Mid ramziy interaksionizmida aktor va olamning o'zaro aloqalarini hisobga olish, dinamik jarayonlar bo'lib, aktorning olamni tushunishi xususiyatlarini namoyon etadi.

**Ramz** – символ – symbol – Midga ko'ra, insonlarning o'zaro ta'sirlashuvi asosini tashkil etuvchi bir turdagi sotsial reaksiya belgisi.

**Ramziy interaksionizm** – символический интеракционизм – symbolic interactionism – bir necha variantlarda (J.Mid, Ch.Kuli, G.Blumer, I.Goffman va boshq.) namoyon bo'luvchi sotsiologik paradigmalardan biri bo'lib, jamiyatda insonlarning barcha o'zaro aloqalari shakllarini ma'lum bir ramzlarga (til, ishora, madaniy ramzlar va h.k.) asoslangan muloqot sifatida talqin etishga asoslanadi.

**Sotsial infeksiya** – социальная инфекция – social infection – Blumerga ko'ra, qabul qilingan me'yorlarga keskin qarshilik ko'rsatuvchi biron-bir xulq-atvor shaklining jadal va keng yoyilishi.

**Sotsial harakat** – социальное движение – social movement – Blumerga ko'ra, o'zlarining hayotidagi real holatlari bilan qoniqmagan insonlarning taqdiriga ta'sir ko'rsatuvchi yangi qadriyatlar tizimi ta'siri ostida amalga oshirilgan harakat.

**Umumlashtirilgan boshqa** – обобщенный другой – generalized other – Midga ko'ra, ijtimoiylashuv jarayonida qatnashayotgan va individning o'zining yagona "Men"ini ta'minlayotgan har qanday tartibli hamjamiyat yoki sotsial guruh.

Ushbu konsepsiya inson shaxsini boshqa insonlar va umuman hamjamiyat bilan uzviy aloqadorlikda shakllanishini kuzatish imkonini beradi.

**O'zini o'zi identifikatsiyalash – самоидентификация – self-identification** – individ tomonidan o'zini boshqa inson yoki ob'ekt bilan aynanlashtirish.

**O'zlik – самость – self** – Midga ko'ra, individning boshqa insonlar yoki narsalar bilan murakkab munosabatlar haqida xabardorligi, o'z shaxsiy hayolida o'zini ob'ekt sifatida tasavvur qila olish qobiliyati, bir vaqtning o'zida ham sub'ekt va ham ob'ekt bo'la olish.

**O'zlikni anglash – самосознание – self-consciousness** – 1) individ tomonidan o'zining avtonom mohiyatini anglab yetish, o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi identifikatsiyalash, o'zini o'zi aniqlashni o'z ichiga oladi; 2) individning atrofdagi insonlarning unga bo'lgan qarashlari, baholarini anglab yetishi; Menda individning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi Men-emasning mavjudligini ham tan olish.

## GARVARD UNIVERSITETI RAVNAQLI P. SOROKIN IJODI

Reja:

1. Garvard universitetining ravnaq topishi
2. Pitirim Sorokin hayoti va ijodi
3. Sorokin umumsotsiologik qarashlari asoslari
4. Sotsial o'zgarishlar konsepsiyasi
5. Madaniyat sotsiologiyasi
6. Integralizm, sotsial muhabbat va ijodiy altruizm

1. Garvardda sotsiologiyaning rivojlanishini 1930-yildan Pitirim Sorokin ish boshlashi davridan boshlab ko'rish mumkin. Sorokin Garvardga kelganda, u yerda sotsiologiya bo'limi yo'q edi, lekin yilning oxirida u tashkil etildi, va Sorokinni uning boshqarishga qo'yishdi. Sorokin sotsiologiya nazariyotchisi va 1960-yillargacha o'z asarlarini nashr ettirgan bo'lsada, uning ijodi bugungi kunda hayratlanarli tarzda kam esga olinadi. Uning nazariy qarashlari vaqt sinovlaridan yaxshi o'tmadi. Balki, Sorokin vaqtinchalik ahamiyati asosan uning Garvard universiteti sotsiologiya bo'limini ochganligi va unga Talkott Parsonsni (u Garvardda iqtisodiyotdan dars berardi) sotsiologiya bo'yicha o'qituvchilikka taklif etganligi bilan izohlanadi. Parsons amerikaliklarni yevropa nazariyotchilari bilan tanishtirib va keyinchalik yirik sotsiologlar sifatida yetishib chiqqan ko'plab talabalarni tarbiyalagan uchun Amerika sotsiologiyasida obro'-e'tiborli shaxsga aylandi<sup>1</sup>.

Sorokin eng keskin va uzoq muddatli kelishmovchiligi Talkott Parsons bilan bo'lgan. Parsons Sorokin sotsiologiya bo'limin boshqarayotgan paytda Garvardda sotsiologiyadan dars berishga tayinlanadi. Sorokin rahbarligida Garvardda Parsonsning karerasi juda sekinlik bilan rivojlanardi. Nihoyat, u o'zini Garvardda va umuman, Qo'shma Shtatlarda eng nufuzli sotsiolog sifatida namoyon etdi. Sorokin va Parsons o'rtasidagi nizo ularning nazariyalarining juda o'xshashligi natijasida kuchaygan edi. Ularning xususiyatlari o'xshashligiga qaramay, Parsonsning ijodi Sorokin ishlariga qaraganda ko'proq e'tiborga tushgan edi. Vaqt o'tishi bilan Sorokinda

<sup>1</sup> George Ritzer, *Sociological Theory*, Eighth Edition, Mc Graw-Hill, 2010. – P. 307.

Parsonsning ijodiga nisbatan o'ta qiziqqonlik munosabati shakllandi, bu uning bir necha kitoblarida aks etdi. Bir tomondan, u Parsonsni o'zining eng yaxshi g'oyalarini o'zlashtirishda ayblardi. Boshqa tomondan esa, u Parsonsning nazariyasini tanqid qilardi.

Ular o'rtasidagi munosabatlarning yana keskinlashuvi aspirantlar masalasida yuzaga kelgan. Garvarddagi yosh sotsiologiya maktabining eng buyuk yutuqlaridan biri iqtidorli talaba-aspirantlarni, shu jumladan, masalan, Robert Mertonni o'ziga jalb qila olganligidir. Talabalarga ikkala olim ham ta'sir ko'rsata olgan bo'lsa, Sorokinga nisbatan Parsonsning ta'siri nisbatan kuchliroq bo'lgan. Aspirant bo'la turib, Merton Sorokinning assistenti sifatida ishlardi, lekin Sorokinning nazariy yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlamagan. Merton unga dissertatsiyasiga izohlarni ko'rsatganda, Sorokin shunday javob beradi: «Hisobot ishi sifatida bu yaxshi. Siz taxminan minus besh olishingiz mumkin. Lekin, chuqur va yagona muhim nuqta nazardan, men ishingiz borasida bir qancha keskin tanqidiy fikrlarni bildirishim lozim».

Parsons Sorokinning o'rniga sotsiologiya bo'limi boshqaruvini qabul qiladi va uni "Sotsial munosabatlar bo'limi" deb qayta nomlaydi (*Department of Social Relations*). Bu borada Sorokin shunday deydi:

Shunday qilib, men «Sotsial munosabatlar bo'limi»ni tashkil etish uchun sotsial psixologiya va madaniy antropologiyani qo'shib yuborish davridan boshlab qilinayotgan ishlarga va sotsiologiyani bu turlicha fanlarning eklektik massasiga qo'shib yuborilishiga javobgan emasman... Sotsial munosabatlar bo'limi... mening rahbarligim ostidagi sotsiologiya bo'limi... singari bunchalik ko'p mashhur sotsiologlarni yetishtirib chiqarishi amri mahol.

Oxir-oqibat Sorokin Garvard maktabida yakkalanib qoldi. Unga «yakka tadqiqotchi» tamg'asi bosildi, va unga faqat «universitet eshiklari ostiga Parsonsning o'z g'oyalarini o'g'irlaganligi to'g'risidagi arizalarini tiqishtirish» dan boshqa iloji qolmaydi<sup>1</sup>.

Talkott Parsons (1902-1979). Bir nechta ocherklarning ilgarigi nashrlariga qaramay, Parsonsning asosiy hissasi uning karerasining boshlarida keyinchalik mashhur sotsiologiya nazariyotchilari bo'lib yetishgan aspirantlarga ta'siri bilan o'lchanadi. Ularning ichida eng mashhuri 1936-yilda falsafa doktori maqomini olgan va Kolumbiya

universitetida Parsons yo'nalishi taraqqiyotining yuragini tashkil etgan Robert Merton edi. O'sha yildayoq (1936) Kingsli Devis falsafa doktori darajasini oldi va Uilbert Mur (1940-yilda Garvardda daraja olgan) bilan hamkorlikda Parsons va uning izdoshlarining eng asosiy mevasi – strukturaviy funksionalizm nazariyasining markaziy asarlaridan birini yozgan. Lekin Parsonsning ta'siri 1930-yillar bilan cheklanmaydi. Shuni alohida e'tiborga olish joizki, u 1960-yillargacha keyinchalik sotsiologiyaning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan aspirantlarni nazoratga olgan.

Uchinchidan, uning nazariyasida taraqqiy etish borasida bir qator kamchiliklar paydo bo'ldi. Lekin Parsonsning Amerika sotsiologiyasidagi yuqori holatidan kelib chiqib tanqid uning avtoriteti bosimi ostida uzoq muddat jim turdi. Ancha keyin Parsonsning nazariyasi va umuman strukturaviy funksionalizmning kamchiliklari to'g'risida ochiqchasiga gapirila boshlandi.

Lekin biz ancha ilgarilab ketdik va XX asrning 30-yillari boshiga va Garvardda o'tkazilgan boshqa tadqiqotlarga qaytishimiz zarur. Bu ma'noda bizga Garvard maktabining e'tiborli sotsiologi – Jorj Xomansning (1910-1989) nazariyasini qarab o'tish yordam beradi.

Badavlat bo'lgan Bostonlik Jorj Xomans Garvardda 1932-yilda bakalavr darajasini oldi. Buyuk depressiya natijasida u ishsiz bo'lib qoldi, lekin, albatta, yashash uchun qurbi yetardi. 1932-yil kuzda psixolog L.J.Xenderson Vilfredo Pareto nazariyalari asosida kurs o'qirdi, Xomansni ushbu kurslarni tinglashga taklif etishadi, va u bu taklifni qabul qiladi (Parsons ham Pareto bo'yicha seminarlarda qatnashgan). O'z ijodida Xomans uzoq vaqt keng empirik kuzatishlarni to'pladi, lekin 1950-yillarda bu ma'lumotlarni tahlil etish uchun qoniqarli nazariy yondoshuvni tanladi. Bu uning Garvarddagi hamkasbi psixolog B.F.Skinning g'oyalarida o'zining yorqin ifodasini topgan psixologik bixeviorizm nazariyasi edi. Bu yondoshuv bazasida Xomans o'zining ayirboshlash nazariyasini ishlab chiqdi. Biz bu nazariy yo'nalish haqida keyin to'xtalamiz. Bu yerda shuni muhimki, Garvard va uning asosiy nazariy mevasi – strukturaviy funksionalizm – XX asrning 30-yillari oxirida sotsiologiyada Chikago maktabining va ramziy interaksionizmning o'rnini egallab hukmronlik qildi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 207.

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill 2010. – P. 210.

2. Pitirim Aleksandrovich Sorokin (1889-1968) – XX asming yirik olimlaridan biri, Petrograd universitetining professori, 1922-yilda Rossiyadan surgun qilingan. Sorokinning ijodiy faoliyatini ikki davrga – Rossiya (1910-1922 yy.) va AQSh davrlariga ajratiladi. 1960-yillarga kelib Pitirim Sorokin qirq yildan ortiq “dunyoning taniqli sotsiologlari o’ntaligining yuqori o’rinlaridan birida turgan amerikalik sotsiolog” sifatida tanilgan edi. Ko’pchilik amerikalik sotsiologlar uning shogirdlari bo’lib, o’zi nazariy sotsiologiyaning shakllanishiga ulkan hissa qo’shgan olim hisoblanadi. G’arbda Pitirim Sorokin XX asr sotsiologiya klassigi sifatida tan olinib, uning nomi O.Kont, G.Spenser, M.Veber bilan bir qatorda turadi.

Pitirim Aleksandrovich Sorokin 1889-yil 21-yanvarda Vologod guberniyasi Yarsensk uezdining Turya qishlog’ida tug’ilgan. Uning otasi Aleksandr Prokopevich hunarmand bo’lib, cherkovni ta’mirlash ishlari bilan shug’ullangan. Pitirimning onasi Pelageya Vasilevna dehqon bo’lgan. Pitirim akasi bilan birgalikda otasiga ustachilikda yordam qilib kun kechirgan. O’qish-yozishni o’zi o’rgangan. Palevitsadagi maktabda o’qigan. Pitirim oilada o’rtancha farzand edi. U o’n yoshida katta akasi Vasiliy bilan ichkilikbozlikka chalingan otasini tark etib, daydi ustalar hayotini kechirishgan. 1902-yilda Pitirim bu hayotini o’zgartirishga harakat qiladi va Gamskdagi ikki sinfli maktabga o’qishga kiradi.

Maktabda o’qishni tugatib cherkov-o’qituvchilik maktabiga o’qishga kiradi. Qishda o’qib, yozda qishloqdagi xolasiga dehqonchilikda yordam bergan.

O’n besh yoshligida 1905-yilda Pitirim Sorokin eserlar partiyasiga a’zo bo’ladi va aktiv inqilobchiga aylanadi. Keyinchalik o’zi eslaydi: «Men bir dunyo odamlar bilan tanishdim: dehqon, ishchi, mansabdor, din ulamolar, taniqli shaxslar, doktorlar, yozuvchilar... turli partiya oqimlari vakillari (bolsheviklar va mensheviklar), monarxistlar, anarxistlar, liberallar va konservatorlar. Ular bilan muloqotdan so’ng yangidan-yangi g’oyalar bilan tanishdim, yangi qadriyatlarni anglab yetdim va ijtimoiy shart-sharoitlarning farqiga boradigan bo’ldim. ...Menga ma’lum bo’lmagan kitoblarni, jurnal va gazetalarni intensiv ravishda o’qishim natijasida dunyoqarashim kengaydi va chuqurlashdi».

Maktabdagi ikki yil Pitirimning dunyoqarashini o’zgarishiga sabab bo’lgan. 1906-yilda Pitirim Sorokin birinchi marta Kineshma

posyolkasi qamog’iga tashlanadi. Yarim yilga yaqin, aniqrog’i to’rt oy qamoqda o’tirib chiqqandan so’ng u yerdan haydab yuboriladi. Ammo, qamoqda uning jadal intellektual mashg’ulotlar bilan shug’ullanish imkoni bor edi. Yosh inqilobchining inqilobiy fikr klassik namoyondalari (Marks, Lenin, Lavrov, Mixaylovskiy) va sotsial-falsafa vakillari (Darvin, Spenser, Kont) ishlari, fikrlari bilan tanishuvi Sorokinning fikrlari va g’oyalarining shakllanishiga muhim ta’sir ko’rsatgan. Povoljeda to’rt oy mobaynida targ’ibotchi-tashviqotchi sifatida ishlaydi. 1907-yilda Petrogradga yashirin tarzda boradi.

1909-yilning fevral oyida Velikiy Ustyugga ammasinikiga kelib, u yerdagi erkaklar gimnaziyasi attestati uchun (ekstern tarzda 8 yillik o’qish uchun) may oyida imtihon topshiradi. Barcha fanlarni “a’lo” bahoga topshirib, attestat oladi va yoz mobaynida ishlab, sentyabrda Sankt-Peterburg psixonevrologik institutiga o’qishga kiradi. Bu institutga V.M.Bexterev rahbarlik qilgan va uning obro’si universitetlardan ham yuqoriroq turar edi. Bu davrda mazkur ilm dargohida XX asr boshining mashhur olimlari – ye.V.De Roberti va M.M.Kovalevskiy 1908 yilda birinchi “Sotsiologiya” kafedrasini ochishgan edi. Sorokin M.M.Kovalevskiyning shaxsiy kotibi bo’lgan. Institutda bir yil tahsil olgandan so’ng Sorokinni harbiy xizmatdan olib qolish uchun V.M.Bexterev, ye.V.De Roberti va M.M.Kovalevskiy uni N.D. Kondratev bilan birga Peterburg universitetining huquqshunoslik fakultetiga o’qishini ko’chirishadi, chunki u davrda faqat davlat universiteti talabalarigina harbiy xizmatdan ozod bo’lishi mumkin edi.

1910-yildan boshlab «Bilim xabarnomasi», «Psixologiya, kriminal antropologiya va gipnotizm xabarnomasi» va boshqa yana bir qator shu kabi ilmiy jurnallarda maqolalarini nashr ettirishni boshlaydi. 1910-yilda Sorokinga Psixonevrologik institut va Lesgaft Institutida o’rindoshlik asosida sotsiologiya fanidan ma’ruzalar o’qishga taklif tushadi. Oliy maktab tarixida talabaning ma’ruza o’qishi amaliyoti bungacha kuzatilmagan edi.

1911-yilda hibsga olinishdan qochib Podoliyaga, keyinchalik xorijga o’tib ketadi. 1913-yilda yana qamoqqa olinadi. Lekin shu davrgacha 1912-1913-yillar qishida u diplom ishi va keyinchalik asar sifatidagi ishi besh yuz sahifalik «Jinoyat va jazo, jasorat va mukofot»ni yaratadi. M.M.Kovalevskiy kitobning so’z boshida

quyidagi so'zlarni yozgan: «Kelajakda rus sotsiologik kutubxonasida «Jinoiyat va jazo, jasorat va mukofot» asari muallifining qalamiga mansub bir qator asarlar bo'ladi»<sup>1</sup>. Bu asar keyinchalik ham Rossiya, ham yevropada mashhurlikka erishadi.

Sorokin universitetni tugatishi bilan professor unvonini olish uchun jinoiy huquq va sud kafedrasida qoldiriladi. 1915-yilda magistr imtihonlarini topshiradi. 1917-yil yanvar oyidan u Petrograd universitetining privat-dotsent unvonini oladi. 1916-yilda institut professorlari M.M.Kovalevskiy nomidagi Sotsiologik jamiyatni tashkil etishadi. U keyinchalik Petrograd universitetida sotsiologiya kafedrasining tashkil etilishiga asos bo'ladi.

1917-yil Sorokinning jadal siyosiy faoliyati uni yetuk sotsiolog sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Inqilob va fuqarolik urushi yillari olimni jamiyatning «normal», ya'ni nisbatan barqaror va «falokatli», ya'ni barqaror bo'lmagan (urush, ocharchilik, epidemiyalar, inqiloblar) davrlarini o'rganishiga turtki bo'ldi.

Fevral inqilobi davrida Sorokin o'z ilmiy faoliyatini butkul to'xtatib, siyosatchi sifatida namoyon bo'ldi. U Davlat Dumasi, Muvaqqat hukumat faoliyatida ishtirok etdi, «Xalq ishi» va «Xalq irodasi» gazetalarida muharrirlik qildi. Sorokin ma'lum muddat A.F.Kerenskiyning shaxsiy kotibi bo'ldi. Bu davr mobaynida u «Millatlar avtonomiyasi va davlat birligi», «Boshqaruv shakllari», «Sotsial tenglik muammosi», «Urush sabablari va tinchlik sari yo'l», «Sotsializm mohiyati» kabi bir qator siyosiy-sotsiologik asarlar yozdi.

1917-yil Sorokin uchun oilaviy hayotning ham boshlanishi davri bo'ladi. 1917-yilning 26-mayida u yelena Petrovna Baratinskayaga (1894-1975) uylanadi. U Bestujev kurslarining bitiruvchisi, Tavriya guberniyasining dvoryanlari oilasidan chiqqan edi. Ular 1912-yilda K.F.Jakov uyida o'tkaziladigan adabiy kechalardan birida tanishishgan edi. yelena Petrovna, ma'lumotiga ko'ra botanik-sitolog, keyinchalik AQShning Minnesota universitetida doktorlik ilmiy darajasiga (1925) ham erishadi, Amerikaning bir qator universitet va kollejlari ta'lim beradi.

1918-yil 2-yanvarda navbatdagi marta qamoqqa olindi. Ammo bu safar Leninga suiqasd qilishda ayblanib, bolsheviklar inqilobiy hukumati tomonidan hibsga olindi. Nihoyat, bevosita Leninning qarori

<sup>1</sup> Фурман Е.А., Нургузман В.Н. Социология теории. Ученый и гражданин. – Ташкент, 2009. – С.

bilan Sorokinni qamoqdan ozod qilinadi, unga universitetga qaytib borib dars berishga ruxsat beriladi<sup>1</sup>. Qamoqdan chiqqandan so'ng Moskvaga keladi, keyinchalik esa antibolshevistik missiya bilan Velikiy Ustyug, Vologda va Arxangelskka boradi. Severodvinsk o'rmonlarida ikki oy mobaynida berkinib yashashga majbur bo'ladi. Aynan shu davrda eserlar partiyasidan chiqishga ahd qiladi.

Sorokin o'zini hukumat qo'lga topshiradi. Otishga mahkum etilgan Sorokin 1918-yil dekabr oyining o'rtalarigacha qamoqda yotadi. 12-dekabrda u Moskva qamoqxonasiga olib kelinib, keyin ozod qilinadi. Siyosiy faoliyatiga chek qo'ygan Sorokin o'zini ilm va ilmiy faoliyatga baxsh etadi. U Petrograd universitetida dars berishni boshlaydi. 1919-yilda Sorokin Rossiyadagi birinchi sotsiologik fakultetni tashkil etadi va uning birinchi dekani bo'ladi. Shu yillarda u huquq va sotsiologiya bo'yicha darsliklar yozadi.

1920-yil oxiriga kelib Sorokinga ijtimoiy fanlar fakultetining maxsus yig'ilishida magistrlik dissertatsiyasi himoyasiz professor ilmiy unvoni beriladi. 1922-yilda Sorokin o'zining doktorlik dissertatsiyasi sifatidagi «Sotsiologiya tizimi» asarini muhokamaga qo'yadi. Bu asarda u sotsiologiya fanining strukturasi, uning asosiy yo'nalishlarini va bu yo'nalishlarning asosiy vazifalarini yoritib o'tadi.

1922-yil 22-aprelda ilmiy Kengash yashirin ovoz bilan Sorokinni sotsiologiya fanlari doktori ilmiy unvoniga loyiq deb topadi. U birinchi rus sotsiologiya fanlari doktori bo'lgan. Himoyagacha uning 126 ta ilmiy ishlari nashr qilingan. Ulardan ko'pchiligi sovet hukumatiga va marksistik nazariyaga qarshi qaratilgan edi.

1922-yil yozida mamlakatdagi vaziyat jadal o'zgaradi. Burjua professurasi o'qitish va ayniqsa, fanni boshqarish faoliyatidan chetlashtiriladi. 1922-yil avgustida Sorokin Moskvada safarda bo'ladi. Bu paytda Petrogradga bir qator olimlarni hibsga olishadi. FK xodimlari Sorokinning Petrogradga uyini ham «ziyorat» qilishadi. Olimning Moskvada bo'lgani uni qamoqdan asrab qoladi.

Mazkur yilning 23-sentyabrida Sorokin rafiqasi ye.P.Baratinskaya bilan mamlakatni butun umrga tark etadi. Berlinda qisqa muddat bo'lgach, u Chexoslovakiya prezidenti B.Masarikning taklifi bilan Pragaga keladi. Sorokin bu yerda yangi bir qator jurnallarni tashkil

<sup>1</sup> Петер Дж. Современная социологическая теория. 5-е изд. – СПб.: Питер, 2002. – С. 70.

etishda ishtirok etadi, ko'plab ma'ruzalar o'qiydi va nashr uchun beshta asarini tayyorlaydi. Bu yerda olim asosiy mehnati hisoblangan «Inqilob sotsiologiyasi» asrini yozishga kirishadi. 1923-yil kuzida Sorokin Amerika sotsiologlari E Xayes va E Rossning taklifi bilan bir umrga AQShga ko'chib o'tadi. Shu davrdan boshlab olim dunyoviy mashhurlikka erishadi.

Sorokinning tilni o'rganishiga bir yildan kam muddat kerak bo'ladi. 1924-yil yoz oylaridan Minnesota universitetida ma'ruzalar o'qishni boshlaydi. Tez orada unga doktorlik darajasini berishadi. Bu davrgacha Sorokin bir necha kitoblarini Rossiyada nashr ettirgan edi va ularni Qo'shma Shtatlarda juda katta miqdorlarda nashr qildirishni davom ettiradi. Minnesotada o'z ijodining sermazzmunligi haqida Sorokin shunday deydi: «Bilaman, bu o'rtamiyona sotsiologning butun umri davomida yaratadigan narsalaridan ham ko'p»<sup>1</sup>. Olti yil davomida Sorokin o'zining oltita asarini nashr ettiradi: «Rus kundaligi sahifalari» (1924), «Inqilob sotsiologiyasi» (1925), «Sotsial mobillik» (1927), «Zamonaviy sotsiologik nazariyalar» (1928), «Qishloq va shahar sotsiologiyasi tamoyillari» (K.Simmerman bilan hammualliflikda, 1929) va «Qishloq sotsiologiyasining tizimli xrestomatiyasi» ning birinchi uch jildi (K.Simmerman va Ch.Gelpin bilan hammualliflikda, 1929).

«Sotsial mobillik» va «Zamonaviy sotsiologik nazariyalar» kabi kitoblari unga mamlakat bo'ylab mashhurlik olib keladi, va 1929-yilga kelib Sorokinga Garvard universitetida sotsiologiya yo'nalishini boshqarish taklifi (uni qabul qiladi) beriladi. Garvardda xali sotsiologiya bo'limi ochilmaganligi sababli, bu joy iqtisodiyot bo'limida edi<sup>2</sup>.

Shu bilan birgalikda, u Illinoys va Viskonsindagi universitetlar bilan ham hamkorlik qiladi. Ch.Kuli, E.Ross, F.Giddings kabi o'z davrining taniqli sotsiologlarining e'tirofi bilan hamda Minnesota universitetida ishlab yurgan davrida nashr ettirgan asarlari bilan Sorokin Amerika sotsiologiyasining taniqli vakili sifatida tan olindi. Garvard universiteti prezidenti Ebbot Louell 1930-yilda u yerda tashkil etilayotgan «Sotsiologiya» bo'limiga rahbarlikka taklif etadi. 12 yillik dekanlik faoliyati davomida Sorokin rahbarlik qilgan fakultetni ko'plab taniqli olimlar bitirib chiqadi (R.Merton, U.Mur,

<sup>1</sup> Реттер Дж. Современные социологические теории. 5-е изд. – СПб.: Питер, 2002. – С. 70.

<sup>2</sup> Реттер Дж. Современные социологические теории. 5-е изд. – СПб.: Питер, 2002. – С. 70.

Ch.Lumis, E.Shiltz, R.Berber, Dj.Xomans, E.Tiriakyan va b.). Bu yerda Sorokin 1959-yilda pensiyaga ketguniga qadar ishlaydi. Pitirim Sorokin o'z g'oyalarini amalga oshirishi va rivojlantirishi uchun Garvard universiteti unga 10 ming dollarlik grant ajratadi. Olim bir qator rus emigrant olimlari va garvardlik talabalarini o'z ishiga jalb qiladi. Uning yozishicha, talabalari orasida Robert Merton eng iqtidorlisi bo'lgan. Natijada 1937-1941-yillar davomida Sorokinning to'rt tomlik «Sotsial va madaniy dinamika» asari chop etiladi. Bu asarga nisbatan akademik doiralarning munosabati Sorokinni qoniqtirmaydi, va natijada ushbu kitobning ommaviy kitobxonlar uchun mo'ljallangan variantini, «Zamonamiz inqirozi» (1941) asarini nashr ettiradi, bu asar Sorokinning eng ko'p o'qilgan asarlari qatoridan o'rin oladi. Shuningdek, Pitirim Sorokin o'zining yana ham taniqli asarlari: «Inson va jamiyat halokati», «SOS: inqirozimiz ahamiyati» kitoblarini (1951) nashr ettiradi.

Pitirim Sorokinni «bebo'sh bola va Amerika sotsiologiyasi shaytonining advokati» sifatida ta'riflaydilar. O'ziga yuqori darajada baho berib, Sorokin, har kimni va hamma narsani tanqid qilardi, go'yo. Natijada uning o'zi va ijodi tez-tez tanqidiy muzokaraning predmetiga aylandi. Bularning hammasini uning «Amerika sotsiologik jurnali» muharririga yozgan xatidan keltirilgan parchadan ayon bo'ladi:

Itifotsizlik bilan berilgan taqrizlar – mening kitoblarim uchun yaxshi belgi, chunki mening kitoblarimga berilgan la'natlar... va ularning keyingi muvaffaqiyati o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ularni qancha ko'p tanqid qilishgan bo'lsa (sizning sharhlovchilaringiz esa mening deyarli barcha kitoblarimni tanqid qilishgan), mening tanqid qilingan kitoblarim shunchalik darajada ahamiyatli va omadli bo'lgan<sup>1</sup>.

1950-yillarga kelib Pitirim Sorokinning ijodida altruistik muhabbat mavzusi o'rin topa boshlagandan T.Parsons boshchiligidagi Amerika sotsiologiyasi oqimi bilan munosabatlarida keskinliklar vujudga kelib o'zini yakkalanib qolganini his qila boshlaydi. Pitirim Sorokin kitob ortidan kitob yozaveradi: «Inqiroz asrida sotsial falsafa» (1950), «Altruistik muhabbat» (1950), «Altruistik muhabbat va xulq-atvor sohasida izlanishlar» (1950), «Muhabbat yo'llari va hokimiyati»

<sup>1</sup> Реттер Дж. Современные социологические теории. 5-е изд. – СПб.: Питер, 2002. – С. 70.

(1954), «Muhabbatning ko'rinishlari va uning kuchi» (1954), «Sotsiologiya va bir-biriga yaqin fanlarning injiqliklari va kamchiliklari» (1956), «Amerika shahvoniy inqilobi» (1957), «Hokimiyat va axloq-odob» (1959).

1959-yil oxirida Sorokin pensiyaga chiqadi va Garvard universitetining faxriy professori unvoniga ega bo'ladi, 60-yillarda esa «AQSh va SSSRning aralash sotsiomadaniy tip yo'nalishidagi o'zaro konvergentsiyasi» (1961) kitobida konvergentsiya nazariyasi asoslarini ishlab chiqadi, «Uzoq yo'l» avtobiografiyasini (1963), «Zamonamizning asosiy tendensiyalari» (1964) va «Bugungi sotsiologik nazariyalar» (1966) asarlarini yozadi, natijada ular kitobxonlar tomonidan iliq kutib olinadi. 1960-yillarda Sorokinning mumtoz asarlarini qayta nashr etilishi va unga bag'ishlangan ikkita maqolalar to'plamining chop etilishi uning shaxsiga e'tiborning yanada kuchayishiga sabab bo'ldi.

1963-yil aprelida Amerika sotsiologiyasining tarixida birinchi marta AQSh sotsiologlari hamjamiyati s'ezdining barcha qatnashchilari Pitirim Sorokinga o'z e'tiroflarini bildirib, uning nomi byulletenga kiritilmagan bo'lsa-da, Amerika sotsiologiya assotsiatsiyasining prezidenti etib saylandilar.

Olim hayotining so'nggi ikki yili og'ir xastalikda o'tadi. 1968-yilning 11-fevralida Pitirim Sorokin Vinchesterda Kliff-stritdagi uyida (Kembrij yaqinida) vafot etadi. Shu yilning o'zida Amerika sotsiologik assotsiatsiyasi har yili eng yaxshi sotsiologik kitob uchun beriladigan Pitirim Sorokin nomidagi mukofotni joriy etadi. Rafiqasi va ikki o'g'li (Sergey va Petr) Pitirim Sorokin arxivlarining bir qismini Saskachevan provinsiyasidagi Kanada universitetiga, bir qismini Garvard universitetiga topshiradilar.

2. Pitirim Sorokinning ijodida uning dunyoqarashi va nazariy asoslarini tashkil etuvchi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Sorokin nazariy qarashlarining shakllanishiga Mixaylovskiy, Lavrov, de Roberti, Petrajidskiy, Kovalevskiy, Rostovsev, Pavlov, Tolstoy, Dostoevskiy va Jakov, Chernov, Kropotkinlar kabi olimlarning nazariyalari ta'siri kuchli bo'lgan. Shuningdek, Kovalevskiyning shaxsiy kotibi bo'la turib Sorokin atoqli G'arb sotsiologlaridan Geksli, Tard, Dyurkgeym, Spenser, Bergson, Teylor, Fyustel de Kulanj, Vanderveld, Verxarn, Marks kabilarning g'oyalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, u Darvin,

Gegel, Kontning, keyinchalik esa Zimmelning asarlari bilan tanishib chiqqan. Shuningdek, o'sha davrdagi Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ham hisobga olish zarurki, birinchi rus inqilobi, jahon urushi va shu kabi jarayonlar ham Sorokin dunyoqarashi va nuqtai nazari shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan. Bu hamma shart-sharoitlari birgalikda Sorokinning rus ijodi davridagi ishlarining ham, shuningdek, Amerika davridagi ko'plab ishlari yo'nalishini ham belgilab bergan.

Bundan tashqari, A.Yu.Sogomonov, I.A.Golosenko, V.V.Kozlovskiy kabi olimlar ta'kidlashicha, Pitirim Sorokin ijodini Rossiya va Amerika davrlariga ajratishning o'zi maqsadga muvofiq emas, chunki «...uning ilmiy ijodi u boshidan o'tkazgan keskin o'zgarishlarga qaramay yagona, yaxlitdir».<sup>1</sup> Bunday pozitsiyaga Sorokin sotsiologik bilimlari strukturasi uzoq yillar davomida o'zgarmaganligini asos qilib olish mumkin.

Bu strukturani Sorokin o'zining «Sotsiologiya tizimi» asarining birinchi jildida «Sotsiologiya arxitektonikasi va uning asosiy bo'limlari» nomli ikkinchi bobida qayd etadi, shuningdek umumiyashtirilgan sxemasini chizadi.<sup>2</sup> Bu strukturani u sotsiologiyani o'qitishning o'ziga xos dasturida (1919-yilda tuzilgan) namoyon qiladiki, bu qadar mukammal, vositali va qisqa ta'rifni hech bir boshqa sotsiolog olimlarda ko'rish mumkin emas. Sorokinga ko'ra, sotsiologiya fanining tizimi quyidagicha: Sotsiologiya nazariy va amaliy qismlarga ajratiladi. Nazariy sotsiologiya uchta asosiy bo'limlarga ajratiladi:

1) «... aholining tuzilishini o'rganadigan sotsial analitika (yoki sotsial anatomiya va morfologiya)».<sup>3</sup> U, o'z navbatida yana bo'lim ostiga ajratiladi: oddiy sotsial voqyea-hodisalarni o'rganuchi sotsial analitika va oddiy sotsial voqyea-hodisalarning u yoki bu tarzda qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan murakkab sotsial voqyea-hodisalarni o'rganuvchi sotsial analitika. «Shunday qilib, sotsial analitika sotsial voqyea-hodisalarni birinchidan, statistik jihatdan, ikkinchidan esa tarkibiy jihatdan o'rganuvchi ta'limot hisoblanadi»<sup>4</sup>;

<sup>1</sup> Qiziq: Gulovskiy N.A., Kozlovskiy V.V. *Istoriya russkoy sotsiologii XIX-XX vv.* – M.: Olega, 1995. – S. 237.

<sup>2</sup> *Sistemya sotsiologii / Pitirim Aleksandrovich Sorokin.* – M.: Astreya, 2008. – S. 56.

<sup>3</sup> Qiziq: Sorokin P.A. *Chelovek. Tsivilizatsiya. Obshchestvo.* – M.: Polygizdat, 1992. – S. 531.

<sup>4</sup> *Sistemya sotsiologii / Pitirim Aleksandrovich Sorokin.* – M.: Astreya, 2008. – S. 56.

2) "...sotsial kuchlar va sotsial jarayonlarni o'rganuvchi sotsial mexanikaga". U ham uch qismga ajratiladi:

«...birinchi qism: inson xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchilar va sotsial jarayonlar omillari... ikkinchi qism... o'ziga kuchlarni emas, balki mazkur aholining muhitida amalga oshiriladigan jarayonlarni o'rganishni vazifa qilib oladi... bu yerda o'ta muhim «har qanday sotsial guruh muhitidagi fiziologik jarayonlar, ma'lumotlar o'rganiladi... uchinchi qism... shaxsning tug'ilishi paytidan tortib to o'limigacha bo'lgan taqdirining tahliliga asolanagan sotsial jarayonlar mexanikasini o'rganadi... «Sotsial mexanika» ning bu uch qismi «jamiyat fiziologiyasi»ni, ya'ni sotsial jarayonlar ta'limotini batamom yakunlaydi.<sup>1</sup>

3) "... sotsial genetika, yoki voqyea-hodisalar taraqqiyoti qonunlarini tadqiq etuvchi, ijtimoiy hayot va uning alohida tomonlari evolyutsiyasi nazariyasiga»<sup>2</sup> «... uni boshqacha qilib sotsial evolyutsiya nazariyasi deb atash mumkin (taraqqiyotni baholovchi nazariyadan farli o'laroq).

Amaliy sotsiologiya (yoki «sotsial siyosat»): «Sotsial siyosat, amaliy tibbiyot kabi, sotsial-psixik kasalliklar bilan kurashishda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ratsional islohotlar uchun, sotsial-psixik energiyadan to'g'ri foydalanish uchun to'g'ri vositalarni tanlashga yordam beradigan retseptlar tizimi bo'lishi lozim».

O'zining «Sotsiologiya tizimi» asarida Sorokin sotsiologiyani tashkil etish lozim bo'lgan asosiy tamoyillarni ilgari suradi. U sotsiologiyaning strukturasi, uning asosiy yo'nalishlarini va ularning har birining asosiy vazifalarini ishlab chiqadi. «Sotsiologiya o'ziga o'xshash insonlar doirasida yashovchi insonlarning hayoti va faoliyatini, shuningdek ushbu birgalikdagi faoliyat natijalarini o'rganuvchi fandir»<sup>3</sup>. «Sotsiologiya jamiyatni uch xil nuqtayi nazardan o'rganadi:

- 1) uning tuzilishi va tarkibi;
- 2) undagi jarayonlar yoki hayotiy faoliyati;
- 3) jamiyat va ijtimoiy hayotning kelib chiqishi va rivojlanishi – sotsiologiyani o'rganishning asosiy vazifalari shulardan iborat».

<sup>1</sup> Sorokin P.A. *Человек. Цивилизация. Общество*. – М.: Политиздат, 1992. – С. 532 – 533.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 531.

<sup>3</sup> Qiziq: Система социологии / Патрик Антонидисович Соркин. – М.: Астрель, 2008.

Sorokin yozadi: «Bizning sotsiologik bilimlarga ehtiyojimiz juda katta. Bizning kayfiyatimiz va yomon ijtimoiy hayotimiz sababchilaridan biri bizning sotsiologik bilimsizligimizdir... Ocharchilik va qahatchilik, axloqsizlik va jinoyat, adolatsizlik va ekspluatatsiya insoniy jamiyatning yo'ldoshi bo'lib qolmoqda. Qachonki biz ijtimoiy hayotimizni yaxshi o'rgansak, u amal qilayotgan qonunlarni anglab yetsak, shundagina ijtimoiy talofatlar bilan kurashishda muvaffaqiyatga erishishimiz mumkin bo'ladi... Faqatgina bilim bu yerda ... barcha to'q va baxtli bo'lishi uchun birgalikdagi hayotni qanday tashkil etish lozimligini ko'rsata oladi... Bu nuqtayi nazardan sotsiologiya o'ta muhim ahamiyat kasb etadi».

Jamiyat tuzilishini o'rganishda Sorokin yozishicha: «Aholi yoki jamiyat tuzilishini ular mavjud bo'lgan murakkab ko'rinishda qayd etishga o'tishdan oldin ularni oddiy holatda o'rganishimiz lozim». Unga ko'ra, sotsial hodisaning eng oddiy modeli ikki individning o'zaro ta'siridir. Har qanday o'zaro ta'siri hodisasida uchta element qatnashadi: individlar, ularning aktlari, o'zaro aloqalari o'tkazgichlari (yorug'lilik, tovushli, issikli, vositali, ximik va h.k.). Sotsial guruhlarining o'zaro ta'sirining asosiy shakllari quyidagilar:

- 1) ikki, bir va ko'pchilik, ko'pchilik va ko'pchilikning o'zaro ta'siri;
- 2) bir xil va turli xil insonlar o'zaro ta'siri;
- 3) bir tomonlama va ikki tomonlama, davomiy va qisqa muddatli, tashkillashtirilgan va tashkillashtirilmagan, birdamli va antagonistik, ongli va ongsiz o'zaro ta'sirlar.

Butun insoniyat bir kishining boshqasi bilan, bir kishining ko'pchilik bilan va bir guruhning boshqasi bilan o'zaro ta'sirlashuvi asosida bir qator jips guruhlariga bo'linib ketadi. Qanday bir sotsial guruhni olmaylik – u oila bo'ladimi, sinf, davlat, diniy sekta, partiya bo'ladimi – bularning barchasi bir kishining boshqasi bilan, bir kishining ko'pchilik bilan va bir guruhning boshqasi bilan o'zaro ta'sirlashuvini anglatadi».

Sorokin, shuningdek, jamoaviy birdamlikning paydo bo'lishi, saqlanishi va bo'linib ketishi shart-sharoitlarini ham puxta o'rganadi. Ularni uch guruhga taqsimlaydi: kosmik yoki fizikaviy-ximiyaviy; biologik; sotsial-psixik.

Keyin Sorokin guruhni tashkil etish va uni saqlab qolishning ikki asosiy usuliga (ongli va ongsiz) e'tibor qaratadi.

Shuningdek, aholining tuzilishi va qatlamlanishiga e'tibor qaratadi. «Aholining bo'linib ketgan ko'plab guruhlarida ichida muhim qatlamlari quyidagilar: oilaviy; davlatga oid; irqiy; kasbiy; mulkiy; diniy; huquqiy; partiyaviy».

Oddiy qatlamlanishlar qo'shilib murakkab guruhlarini tashkil etadi. Ular: a) ushbu aholi uchun tipik va tipik bo'lmagan. Tipiklardan sinf va millat muhim ahamiyatga ega; b) ichki antagonistik va ichki birdamli.

Sorokin insonlar faoliyati, xulq-atvori omillari va ijtimoiy jarayonlar mexanikasini ham o'rganadi. «Insonlar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan va ularning birgalikdagi hayotining xususiyatini belgilab beradigan kuchlarni uchta asosiy turkumga ajratish mumkin:

- 1) kosmik (fizikaviy-ximiyaviy) kuchlar turkumi;
- 2) biologik kuchlar turkumi;
- 3) sotsial-psixik kuchlar turkumi.

Kosmik kuchlar turkumiga Sorokin yorug'lik, tovush, harorat, rang, namlik va h.k. kabi oddiy qo'zg'atuvchilarni, va murakkab, mazkur joyning iqlimi, yerining tarkibi va xususiyati, yil fasllarining almashinuvi, kun va tunning almashinuvi kabilarni oladi.

Asosiy biologik kuchlarga (qo'zg'atuvchi) Sorokin quyidagilarni kiritadi: ovqatga ehtiyoj; jinsiy ehtiyoj; individual o'zini himoyalash ehtiyoji; guruhiy o'zini himoyalash ehtiyoji; ongsiz taqlid; harakat ehtiyoji; boshqa fiziologik ehtiyojlar (uyqu, o'yin va h.k.).

Sotsial-psixik omillar Sorokin tomonidan oddiy va murakkab turlarga ajratilgan. Oddiylariga quyidagilar kiradi: g'oyalar; hissiy-emotsiyalar; insonlar g'alayoni.

Murakkablariga esa quyidagilarni kiritadi: insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat; sotsial muhitning ma'naviy atmosferasi; guruhning ijtimoiy-siyosiy tashkiloti, hokimiyat hodisasi, boylik va pul, mehnat taqsimoti va h.k.

O'zining asarida Sorokin bu omillarning inson xulq-atvoriga va ijtimoiy hayotga ta'siri darajasini ko'rsatadi. «Inson, olamning boshqa hodisalari kabi zarurat qonunlari ta'siridan xoli emas, «absolyut mustaqil xohish-istak» mavjud emas... Tashqi (kosmik va biologik) sharoitlarga tobelik biz tomonimizdan erkinlikning mavjud emasligi sifatida qabul qilinadi va boshdan kechiriladi... Xulq-atvorimizning sotsial-psixik qo'zg'atuvchilarga tobeligi biz tomonimizdan tobelikning yo'qligi sifatida, «iroda erkinligi» va xulq-atvor erkinligi

sifatida qabul qilinadi!... Sotsial-psixik omillar ta'sirining o'sishi bizning erkinligimiz o'sishi, bizning «men»imizga begona va yot sharoitlarga tobeligimizning kamayishi sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun xulq-atvorimizning sotsial-psixologik qo'zg'atuvchilari bizga xuddi xalos etuvchidek tuyuladi. Bu subyektiv-muqarrar fakt «erkin iroda» nazariyalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

«Erkin iroda»ga mansub bo'lishi mumkin bo'lgan yagona mohiyat ob'ektiv tarzda bizning xulq-atvorimizning kosmik va biologik sharoitlardan xoli bo'lishi va sotsial-psixik sharoitlarga tobe bo'lishi, ya'ni sub'ektiv jihatdan biz tomonimizdan erkinlik sifatida qabul qilinadigan tobelikning o'sishini anglatadi...

Tarix davomida sotsial-psixik kuchlar ta'siri ortadi, shu asnda bizdagi «erkinlik» ham ortadi. Biz subyektiv tarzda shunday his qilamiz va biz «erkin iroda»ni faqatgina shunday tarzda tushunishimiz mumkin. «Har birimiz, dunyoga kelib, faqatgina biologik tashkilot, biologik impuls va bir qator irsiy xususiyatlarni o'zimiz bilan olib yuramiz. Yuk – kichik, shakl – aniq emas. Undan nima chiqadi, daho yoki manqurt... – bu sotsial muhitning ta'sirlari yig'indisi bilan aniqlanadi. U insonni sotsial-psixik individuallik sifatida shakllantiradi».

Sorokin sotsiologik bilimning bu strukturasi tasavvurini nafaqat uzoq muddat saqlab turadi, balki o'zining Amerikadagi ijodi davridagi ishlarida ham bu yerdagi faraz va iboralardan foydalanadi.

Tadqiqotchi V.V.Sapovning izohi bu borada o'ta qiziqish uyg'otadi: «Sotsiologiya tizimi» muallifning mo'ljaliga ko'ra «hech bo'lmaganda» sakkiz jilddan iborat bo'lishi lozim edi, ulardan faqatgina ikki jildi nashr etilgan».

Uning keyingi xulosalari ham qiziqish uyg'otadi: «Sotsiologiya tizimi» asarining uchinchi jildining asosiy g'oyalari Sorokin tomonidan «Sotsiologiyaning ommabop darsligi»da berib o'tilgan. Shuningdek, uchinchi jildning qismlari sifatida Sorokinning «Ocharchilik omil sifatida» (1921-yil sovet hukumati tomonidan yo'q qilingan asarning faqatgina 17 ta sahifasi saqlanib qolgan) va «Inqilob sotsiologiyasi» (1925) kabi asarlarini ham keltirish mumkin. Shuningdek, Sorokinning yana ikkita kitobini «Sotsiologiya tizimi» asarining davomi sifatida qilib qarash mumkin:

«Social Mobility» (1927), va «Contemporary Sociological Theory» (1928), va shunday bo'lsada, Sorokin tomonidan o'yab topilgan bu olamshumul «sintez» yakuniga yetmay qolgan. 20-yillar oxirida Sorokinning g'oyaviy qayta yo'nalishi amalga oshirilgan. O'zining ilgari qarashlarini u endi «rus bixeviorizmi»ning o'rtamiyona shakliga kiritdi. (Russian Sociology in 20 Century, 1927). «Sotsiologiya tizimi» tugallanmay qolishining sababi ham ana shunda.<sup>1</sup>

Shuningdek, materiallarni mavzularga bo'linishi to'g'risidagi gipoteza ham o'z isbotini topmoqda: «Sotsiologiyaning ommabop darsligi» asarida haqiqatan «Sotsial mexanika»ning birinchi qismi masalalari yoritilgan, «Sotsial mobillik» esa mazmuniga ko'ra «sotsial mexanika» ning ikkinchi qismiga yaqin, «Hozirgi zamon sotsiologik nazariyalari» kitobi esa «sotsial genetika» masalalariga bag'ishlangan jild sifatida olib qaralishi mumkin.

V.V.Sapov Sorokinning «Sotsiologiya tizimi» asari bilan uning ijodining Amerika davridagi asarlari o'rtasidagi «bog'lovchi rishta»larni qat'iy ko'rsatib bera olgan. Haqiqatan, ijodining rus davriga mansub bu asariga u o'zining keyingi tadqiqot faoliyati uchun minnatdor bo'lishi lozim. Lekin uning rus davrida yozgan barcha asarlariga ham shunday baho berish mumkin. Bunday fikrni biz Golosenkoda ham uchratishimiz mumkin.

U Sorokinning 1922-yilda Rossiyadan olib chiqib ketgan sakkizta qo'lyozmasi bilan keyingi ishlari o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rsatadi:

«To'rtinchi «Ocharchilik omil sifatida» ... qo'lyozma uning rafiqasi ye.Sorokina tomonidan tahrir qilingan va 1975-yilda nashr etilgan. Beshinchisi «Inqilobni sotsiologik tadqiq etish» – 1925-yilda «Inqilob sotsiologiyasi» nomi bilan nashr etildi. yettinchisi «Sotsiologiya tizimi. Sotsial kuchlar haqidagi ta'limot», shuningdek, oltinchi «Kommunik jamiyat, uning tarixdagi misollari, mohiyati, sabablari va oqibatlari. Tanqidiy bayon» va sakkizinchi «Proletariylar sinfi boshqa sotsial sinflar qatorida: proletariat antropologiyasi, psixologiyasi va sotsiologiyasi» qismlari 1927-yilda «Sotsial mobillik» nomi bilan nashr etildi, birinchi qo'lyozma materiallari «Urush sotsial fakt sifatida» bir qator maqolalarda o'z aksini topdi va

<sup>1</sup> Голосенко Н.А., Котлянский В.В. История русской социологии XIX-XX вв. – М.: Омега, 1995. – С. 257-258.

qisman «Sotsial va madaniy dinamika» asariga kiritildi (1937-1941 yy.).<sup>1</sup>

Shunday qilib, Sorokin ijodining ikki davri o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'rinadi. Alohida ta'kidlash lozimki, ijodining rus davri «amerikalik olim»ning shakllanishida ikki tomonlama rol o'ynagan: birinchi tomonlama, Sorokin o'zining mavzulari va farazlarini rivojlantirgan, boshqa tomondan esa, ko'plab eski qarashlarini u qayta ko'rib chiqqan va yengib o'tgan, hatto o'zining intellektual ijodiga tanqidiy ko'z bilan qarash evaziga bo'lsa ham, bu ma'noda unga ham inson sifatida, ham olim sifatida tan bermay ilojimiz yo'q.

Ammo, A.Yu.Sogomonov va L.A.Golosenko Sorokinning ilmiy ijodining yaxlitligiga nafaqat uning rus va Amerika davrlari vorisiyligi nuqtai nazaridan, sotsiologik bilimning strukturasiqa qarashi bilan, balki uning asarlarining barchasida integrallik mohiyatining o'zgarmay qolganligini ham sabab qilib ko'rsatadilar: «... uning butun dunyoqarashiga – ssientik dasturlariga ham, siyosiy qarashlariga ham, va hatto hayotiy falsafasiga ham integral sintez singib ketgan. Bu ma'noda, ilgari va keyingi Sorokin o'rtasidagi prinsipial farqlanish faqat uning nazariyasining globalizmiga borib taqaladi: agarda u asrlar kesishuvdagi ijtimoiy fikrlarga mos an'anaviy tarzda boshlagan bo'lsa, Garvarddagi davrida kuchli makrosotsiologga aylandi»<sup>2</sup>.

Ayniqsa Sorokinning integratsiya nazariyasi chuqur tahlil va o'rganishni talab etadi. Pitirim Sorokin integralizmining mazmun-mohiyati, integral aloqalar va integratsiya omillari haqidagi masalalarga bitiruv malakaviy ishining keyingi qismlarida alohida e'tibor qaratiladi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Sorokin ijodining integral mohiyatini rad etish mumkin emas, va V.V.Sapovning quyidagi fikrlariga unchalik qo'shilish mumkin emas: «...1927-1937 -yillarni Sorokin yangi «sotsiologiyaning integral tizimi» ni yaratishga bag'ishlaydi...», aslida esa, u faqatgina sotsiologik tahlilning sifatiy jihatdan yangi bosqichiga chiqdi, shuningdek, «integralizm» terminini o'zining ilmiy qarashlari tizimini alohida belgilash uchun mustahkamladi.

Umuman, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turli sotsiologlar tomonidan Sorokin ta'limotining yo'nalishlari, nazariya va

<sup>1</sup> Голосенко Н.А., Котлянский В.В. История русской социологии XIX-XX вв. – М.: Омега, 1995. – С. 257-258.

<sup>2</sup> Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – С. 18.

konsepsiyalari quyidagicha qayd etiladi: «sotsial buzilishlar konsepsiyasi», «inqilob sotsiologiyasi», «agrar sotsiologiya», «konvergensiya nazariyasi», «sotsiomadaniy dinamika nazariyasi», «sotsial stratifikatsiya va mobillik nazariyalari», «integralizm», «nazariy sotsiologiya tarixi konsepsiyasi», «siklik nazariya», «dunyoviy sivilizatsiyalar almashinuvi konsepsiyasi» va h.k. Bunday nomlanishlarni xali juda ko'p keltirish mumkin. Shuning uchun ular ichidan eng ahamiyatli va o'ziga xoslarini ajratib olish muhim hisoblanadi. V.P.Kultigin fikriga ko'ra, Pitirim Sorokin kamida to'rtta o'ziga xos ilmiy paradigmalarni yaratgan: ekstremal vaziyatlar sotsiologiyasi bo'yicha asarlar; sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasiga olib kelgan integrativ yondashuv; sotsial va madaniy dinamika; sotsial muhabbat va ijodiy altruizm nazariyasi<sup>1</sup>.

4. Sotsial buzilishlar mavzusi Sorokin ijodining Amerika davridagi asosiy mavzulardan biri bo'lgan. Bu qiziqishning ildizlari uning birinchi jiddiy asari bo'lmish «Jinoyat va jazo, jasorat va mukofot»ga borib taqaladi. Bundan tashqari, uning ham rus, ham Amerika davridagi asarlari bibliografiyasiga e'tibor qaratsa, «sotsial jism»da ro'y beradigan «sotsial tarix»larga bag'ishlangan ishlari juda ham ko'p. Sotsial buzilishlar konsepsiyasining asosini urushlar va inqiloblar tashkil etadi. Shunday qilib, biz yana bir marotaba Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat Sorokin ilmiy qiziqishlari doirasiga qanchalik ta'sir ko'rsatganligiga amin bo'lishimiz mumkin. Ushbu konsepsiyani qisqacha quyidagicha ta'riflash mumkin.

Birinchi navbatda Sorokin sotsial buzilishlarning klassifikatsiyasi va differentsiatsiyasini keltiradi. U «...buzilishlarning beshta sinfini ajratadi:

- 1) mavjud siyosiy rejim yoki tuzumni o'zgartirishga qodir bo'lgan siyosiy buzilishlar;
- 2) sotsial va iqtisodiy tartibotni modifikatsiya qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy buzilishlar;
- 3) milliy mustaqillik, astitonmiya yoki milliy asosga ega qandaydir bir imtiyozlarga ega bo'lish uchun yo'naltirilgan milliy va separatistik buzilishlar;
- 4) diniy buzilishlar – dezorganizatsiya, cherkov hayotining buzilishi, turli xil konfessiyalarda konfliktlar va h.k.;

<sup>1</sup> Qiziq: Kultigin V.P. Стратификация социологического знания: современность, традиции и инноваторство // Социал. 2000. – № 8. – С. 5-7.

5) hech qanday ilg'or sinfsiz, ularni ajoyib kombinatsiyalarga birlashtiradigan buzilishning «aralash tipi»<sup>1</sup>.

Buzilishlar differentsiatsiyasi quyidagicha namoyon bo'ladi:

Differentsiatsiyaning birinchi mezoni sifatida Sorokin sotsium darajasini oladi va bu ma'noda buzilishlarning personal darajada, guruh (institutsonal) darajada va supertizim darajasidagi turlarini ajratadi. Oxirgi ikki turi guruhdan guruhga o'tadi, guruh, institut, jamiyat va uning tizimlari hayotida bir-biriga qo'shib qatlamlanadi.

Ikkinchi mezon qilib Sorokin buzilishlarning ijtimoiy tartibotning yaxlitligiga xavfi darajasini oladi. Bu yerda unuman xavfi yo'q (masalan, haydovchilar tomonidan ko'cha qoidalariga amal qilmaslik) va tartibotni yo'q qilib yuborishga qodir (g'alayon, qo'zg'olon, inqilob va h.k.). Ikkinchi turdagi buzilishlar tarixiy xotirada uzoq muddat qoladi, ular «eng muhim» buzilishlar hisoblanadi.

Differentsiatsiyaning uchinchi mezoni sifatida Sorokin guruh va institutlar mavjud bo'lgan tarixiy davrni oladi. Unga bog'liq holdagi buzilishlarning ikki turini ajratadi: jo'shqin taraqqiy etayotgan yosh organizmning «o'sish kasalliklarini» yoki qari organizmning «darmonsizligini» eslatuvchi buzilishlar.

Sorokinni ko'proq «qari organizmning kasalligi va darmonsizligini», eslatuvchi institutsonal darajada yoki supertizim darajasida ro'y beradigan ijtimoiy tartibotni buzib yuborishga qodir buzilishlar qiziqirgan.

Ammo, Pitirim Sorokin nafaqat buzilishlar klassifikatsiyasini ishlab chiqish bilan cheklanadi, balki ko'plab tadqiqotchi va tarixchilarning sotsial buzilishlarga bergan xilma-xil ta'riflarini tanqid ostiga olib, «kayfiyatni so'z bilan ifodalash»dan ko'ra «sotsial bo'ronni o'lchash»ga harakat qilishni tavsiya etadi. U «sotsial buzilishlar indikatorlari»ga tayanadi, ularni e.o. 60-asrdan tortib to eramizning 20-asrigacha bo'lgan katta vaqt oralig'ida to'playdi, ya'ni antik sivilizatsiyani qamrab oladi.

Bu indikatorlar to'rtta sifatiiy-miqdoriy jihatlarining kombinatsiyasida o'rganiladi:

- 1) buzilishlar zonasi (sotsial makonda egallagan o'rniga qarab baholash);

<sup>1</sup> Головинко Н.А. Периодизм Соркина и внутрисистемные нарушения социального порядка // СОЦИС. 2000. №4. – С. 109.

2) buzilishda faol ishtirok etuvchi aholi proporsiyalari (tarafdorlar va qarshilar);

3) buzilishning jiddiyliги proporsiyalari (zo'ravonlik va shafqatsizlikning tebranishiga ko'ra);

4) buzilishlar davomiyligi.

Mana shu to'rt jihatli sxema asosida buzilishlar o'lcangan va umumiy ro'yxatlar, jadvallar, grafik va diagrammalar ko'rinishiga olib kelingan; ko'p jildli Britaniya ensiklopediyasida, tarixiy xronikalarda, ilmiy tarixiy asarlardan to'plangan faktik ma'lumotlardan foydalanilgan. Bu barcha ma'lumotlarni Sorokin qiziq tarzda rasmiylashtirgan: «gorizontal» chiziqni «milliy davlatlar qiyofasidagi tarixiy birliklar»ga ajratdi: Angliya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Rossiya va ikki juftlik Germaniya-Avstriya, Polsha-Litva.

«Vertikal» chiziqni

25 va 100 yillik vaqt birliklariga bo'lib tashladi. Shunday qilib, bu ma'lumotlar sotsial buzilishlarning «gorizontal bo'yicha» – mamlakatdan-mamlakatga, sivilizatsiyadan-sivilizatsiyaga, «vertikal bo'yicha» – davrdan-davrga ko'payishi va kamayishini («fluktuatsiya») ko'rsatib berardi. Buncha ko'p ma'lumotlar juda ko'plab odamlar tomonidan yig'ilardi va qayta ishlanardi: harbiy sotsiologiya mutaxassislari, huquq bo'yicha mutaxassislar, madaniyatshunoslar va b. So'zsiz, ma'lumotlar hajmiga ko'ra bu tahlilning tengi yo'q. Umuman, u yetarli darajada voqyelikni aks ettiradi. Lekin shu bilan birga, bu «qat'iy kvantifikatsiya tizimi»dagi ayrim kamchiliklarga ham to'xtalib o'tish lozim bo'ladi.

Besh yil mobaynida Sorokin ko'pchilik mehnati natijasida yig'ilgan ma'lumotlar o'rtasidagi sababiy va mantiqiy korrelyatsiyani o'rnatishga harakat qildi. Bu teran tadqiqot natijasida Sorokin, birinchi navbatda o'zining 1927 yildagi «Sotsial-tarixiy jarayonlar siklik konsepsiyalarining obzori» (jurnal «Social forces») deb nomlangan maqolasidagi farazini isbotlaydi.<sup>1</sup> Unga ko'ra, «doimiy takrorlanib turuvchi bir-biriga o'xshash sikllarning mavjudligi, u butun dunyo evolyutsiyasi yoki insoniyat evolyutsiyasi bo'ladimi, isbotlanmagan. Binobarin, bunday nazariyalar xato bo'lishi tayin»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Qiziq: Sorokin P.A. Обзор циклических концепций социально-исторического процесса // СОЦИС. 1998. №12. – С. 3-12.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 11.

Isbot quyidagicha amalga oshiriladi: «... ichki buzilishlar pulsatsiyasidagi davriylikni hech qanday yigirma yillik, yuz yillik vaqt oraliqlari bilan mexanik tarzda aniqlashning iloji yo'q».<sup>1</sup> «...sotsiomadaniy jarayonlarni mexanik tamoyillar asosida interpretatsiya qilishga va ularning aniq davriyligini tasvirlaydigan zamonaviy nazariyalar xato hisoblanadi». Ular tadqiqot maydonida ham, boshqa yo'nalishlarda o'zining isbotini topmadi.<sup>2</sup>

Sorokinning ikkinchi xulosasi buzilishlar fluktuatsiyasi (ko'payishi va kamayishi) sabablariga borib taqaladi. U shunday xulosaga keladi: ko'pchilik olimlar tomonidan ajratiladigan ijtimoiy shart-sharoit va munosabatlar (omadsiz urushlar, «yomon moddiy shart-sharoitlar», ocharchilik, boyish, siyosiy tuzum va h.k.) buzilishlarning kelib chiqishi, ko'payishi va kamayishida «ikkilamchi omillar» bo'lib xizmat qiladi, ular buzilishlarni kuchaytirishi va susaytirishi, kengaytirishi yoki konsentratsiyalashi mumkin.

Sotsial buzilishlarning kelib chiqishi sabablarini aniqlash maqsadida Sorokin «tranzit gipotezasi»ni ilgari suradi. Uning mazmun-mohiyati quyidagicha: «Tranzit gipotezasi» fluktuatsiyalarning kelib chiqishini va sotsial buzilishlarning o'sish cho'qqisini ochib beradi.

Ichki sotsial buzilishlar «integral», «nointegral» va «yarim integral» elementlarning jamiyat yoki madaniyatda navbatdagi yetakchilik uchun immanent kurashi shakllaridan biri sifatida qaraladi. Sotsial buzilishlarning markaziy sababi har qanday sotsiomadaniy tizimning yetakchi shakllari o'zining potentsial imkoniyatlari o'zining yuqori chegarasiga chiqqanda muqarrar immanent o'zgarishidir.

Sotsial buzilishlar «otib chiqilishi»ning boshlang'ich sharti sifatida Sorokin sotsial yoki madaniy yoki ikkala tizimlarning ham «tartibga solinmaganligi»ni oladi. Lekin, buzilishlar tuzilishida hal qiluvchi rolni qadriyatlar ahamiyati va tizimiga, ya'ni madaniy tizimga taalluqli deb biladi. «Tartibga solinmaganlik Sorokin tomonidan asosiy va ma'naviy qadriyatlarning ham, sotsial munosabatlarning ham zaifligi, bir-biriga mos kelmaganligi, kristallashmaganligi»da deb biladi. Qachonki biror-bir sotsiomadaniy tizim o'zining mustahkamligi chegarasini ishlab chiqsa, ravshanki u

<sup>1</sup> Галасов И.А. Петербург Соркина о внутренних нарушениях социального порядка // СОЦИС. 2000. №4. – С. 113.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 114.

o'zining dezintegratsiyasini namoyon qila boshlaydi va tranzit bosqichiga o'tadi, ya'ni sotsial buzilishlarning eng yuqori nuqtasiga olib boruvchi o'sishi holati kuzatiladi. Bu holat «tranzit»ni harakatlanishini qanday boshqarilishi va maqsadga muvofiqligiga qarab o'ta jiddiy yoki jiddiy bo'lmasligi mumkin. Yana shu xulosani alohida qayd etib o'tish lozimki, «...yaxshimi, yomonmi, sotsial buzilishlarni yuzaga keltirishga urinuvchi kuchlar turli mamlakatlarda xuddi ochilayotgan yelpig'ich kabi ishlaydilar».<sup>1</sup>

«Sotsial va madaniy dinamika»ning 3-jildining so'zsiz yutug'i muallifning kundalik ongda ham, fanda ham sotsial buzilishlar haqida mavjud bo'lgan ko'plab soxta fikrlarni topishga muvaffaq bo'lganligidir.

Birinchi xato fikr: sotsial buzilishlar normal bo'lmagan va tasodifiy jarayonlardir. Sorokin ta'kidlaydi: «buzilish sotsial guruhlar hayotiy faoliyati jarayonlarining normal namoyon bo'lishidir... sotsial buzilishlar, xuddi sotsial tartibot singari zarur hisoblanadi».<sup>2</sup>

Ikkinchi xato fikr ma'lum bir millatlarning tartibga, boshqa birlarining esa anarxiyaga oldindan mo'ljallanganligi, irsiy moyilligini ta'kidlaydi. Sorokin xulosalari qat'iy: «Barcha millatlar bir xil darajada zamonga mos holda tartibga va buzilishga moyildir. Bu ma'noda millatlar o'rtasidagi miqdoriy tafovutlar bor, lekin ular juda kam».<sup>3</sup>

Uchinchi xato fikr «XX asr sivilizatsiyasining «yorug' bashorati»ga aloqadordir. Sorokin bunga asossiz ravishda qarshi chiqadi: «Yigirmanchi asr G'arb sivilizatsiyasi tarixida va hatto, butun bir insoniyat tarixida eng qonli va turbulent, binobarin eng shafqatsiz va insonparvar bo'lmagan davr bo'ladi».<sup>4</sup>

Sotsial buzilishlar nazariyasining umumiy nazariy asoslari va xulosalarini aniqlab bo'lib, Sorokin ijodining markazini tashkil etgan ikki konkret shakliga qisqacha to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'q. Bu – inqilob va urush. Bu yerda bir jihatni alohida aniqlab olish muhimdir. Inqilob ichki tartibotning uning o'ziga xos xususiyatlari bilan

<sup>1</sup> Геласстено Н.А. Петрович Сорokin о внутренних нарушениях социального порядка // СОДБИС. 2000. №4. – С. 116.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 112.

<sup>3</sup> Геласстено Н.А. Петрович Сорokin о внутренних нарушениях социального порядка // СОДБИС. 2000. №4. – С. 113.

<sup>4</sup> O'sha joyda.

birgalikdagi sotsial buzilishidir. Urushni esa Sorokin tashqi sotsial buzilish sifatida olib qaraydi.

Inqilobni tadqiq etish bo'yicha Sorokin eng mashhur asari «Inqilob sotsiologiyasi» (1925, Filadelfiya) hisoblanadi. Shuningdek, rus inqilobi to'g'risidagi ma'lumotlar «Rus kundaligi sahifalari» (1924) asarida berib o'tilgan. Bu yerda u inqilobning «uch tipik fazalar»ini ajratadi: «birinchisi odatda qisqa muddatli. U zolimona hukmronlikdan qutulish va va'da berilgan islohotlar quvonchi bilan yo'g'rilgan. ... uning o'rniga ikkinchi faza keladi ... Va agarda ikkinchi faza tornadosi millatni tag-tubigacha yo'q qilib yuborishga ulgurmasa, u holda inqilob o'zining konstruktiv fazasiga o'tadi».<sup>1</sup>

«Inqilob sotsiologiyasi»da Sorokin inqilobning amalga oshishida ikki siklni ajratadi: «qutulish» davri va «jilovlanish» davri. Ushbu ishida Sorokin ta'kidlaydiki, har qanday inqilobiy harakatlar negizida ochlikni qondirish, shahvoniy, mulkka egalik, o'zini o'zi namoyon qilish, o'zini o'zi asrash va shu kabi instinktlarni qondirish yotadi.

Sorokin o'zining inqirozni tadqiq etishga bag'ishlangan ko'plab asarlarida inqiloblar muammosiga murojaat etadi. Bu, birinchi navbatda, «Sotsial va madaniy dinamika», shuningdek «Zamonamiz inqirozi» (1941), «Inson va jamiyat halokat yoqasida» (1942), «Urushning unutilgan omili» (1938), «Urush va tinchlik sabablari va omillari» (1942) va «Urushsiz tinch hayot istiqboli va shart-sharoitlari» (1944).

Sorokin «Urushning unutilgan omili» asari juda qiziqarli hisoblanadi. Unda muallif «ko'p miqdorli kauzatsiya» tamoyilini tanqid qila turib, amerikalik sotsiologlarning (Xaksl, Stemp, Ford, Solter va b.) urush sabablarini tushuntirish uchun ta'kidlaydiki, «...urush sabablarini tushuntiruvchi yuqorida keltirilgan kamdan-kam nazariyalar, yoki ulardan birortasi ham urushlar to'g'risidagi bu nazariyalarning ahamiyatini tekshirishda unga mos faktik ma'lumotlarga asoslanmagan».<sup>2</sup>

Sorokin turli sotsiologlarning urush sabablarini ko'p miqdorli tamoyillariga asoslanilgan nazariyalarining kelib chiqishi sabablarini ham tushuntirib o'tadi: «Agarda munosabatlar va madaniy tizimning ahvoli amorf va beqaror bo'lsa, bor yo'g'i kichik bir sabab ham harbiy

<sup>1</sup> Сорokin П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – С. 223.

<sup>2</sup> Сорokin П.А. Злейший фактор войны // СОДБИС. 1999. №11. – С. 7.

portlashga olib kelishi mumkin».<sup>1</sup> Shuningdek, «urushga qarshi dorilar»ni taqdim etadiki, ular «... sotsial munosabatlar va madaniy qadriyatlarning ishdan chiqqan zamonaviy tizimini restabilizatsiya va reintegratsiya qilishga qaratilgan barcha harakatlar va chora-tadbirlar hisoblanadi».<sup>2</sup>

Agarda o'zining urush va tinchlik istiqbollari bag'ishlangan oldingi asarlarida Sorokin uzoq muddatli tinch va osuda hayot bo'lishiga pessimistik munosabatda bo'lgan bo'lsa, o'zining nisbatan keyingi "The American Journal of Sociology" jurnalida 1944 yilda nashr etilgan «Urushsiz tinch hayot istiqboli va shart-sharoitlari» maqolasida quyidagi fikrlarni topish mumkin: «Bizning bugungi kundagi zamonaviy madaniyatimizga kelsak, biz shunday nuqtaga keldikki, oqilona kuchlar harakat qilishga tayyor turibdi. Ular yangi sotsiomadaniy chegaralarni yaratishi mumkin... Qachonki bu maqsadga erishilsa, mustahkam tinchlik utopiyasi voqyelikka aylanishi mumkin».<sup>3</sup>

Shunday qilib, urush va inqiloblar bir xil mazmun-mohiyatga ega, ular faqat turli darajalarda namoyon bo'ladilar: inqilob – u yoki bu jamiyatdagi umumiy qadriyatlar tizimi dezintegratsiyasi natijasi (ichki jarayon) bo'lsa, urush – ikki yoki undan ortiq jamiyatlardagi dezintegratsiya jarayonlari natijasidir (ularning har biri uchun tashqi jarayon). Bundan tashqari, «o'ziga xos tarzda urush inqilobni keltirib chiqaradi, va aksincha».<sup>4</sup>

5. Sorokin fikriga ko'ra har qanday madaniyat, madaniy davr asosida dunyoqarash turadi. Turli xil dunyoqarashlarga mos ravishda Sorokin sotsiomadaniy supertizimning uchta turini ajratadi:

• hissiyotli, dunyoni hissiy qabul qilishga asoslangan dunyoqarash;

• mushohadali, intuitsiyaga asoslangan;

• idealistik, ham hissiyot, ham intuitsiyani o'z ichiga oluvchi.

Dunyoqarashning har bir turiga uch turdagi haqiqat to'g'ri keladi: hissiyotli, ma'naviy (intuitsiya), ratsional. Madaniy tizimlarning nisbatan past darajalariga Sorokin til, etika, din, san'at, fanni kiritadi.

<sup>1</sup> O'sha joyda. – B. 10-11.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 12.

<sup>3</sup> Sorokin P.A. Условие и перспективы мира без войны // СОЦИС. 1999. – №5. – С. 11.

<sup>4</sup> Давыдов Б.В. Периоды Соркина и социокультурные тенденции нашего времени // СОЦИС. 1999. – №6. – С. 19.

Har bir dunyoqarashli supertizimga aniq bir madaniyat turi to'g'ri keladi. Sorokin fikriga ko'ra, madaniyatning ikkita asosiy va ikkita oraliq turlari mavjud. Madaniyatda insonning olamni his qilishiga yo'naltirilgan asosiy turlarining navbatma-navbat almashinuvi ro'y beradi: ideatsional va hissiy; va oraliq: idealistik va eklektik.

Ideatsional madaniyatda olamni his qilish Absolyutga yuqori hissiy va yuqori ongli tarzda erishishni nazarda tutadi, hukmron g'oyalarga asoslanadi. Madaniyatning bu turini yevropa o'rta asrlari misolida tahlil eta turib Sorokin quyidagicha yozadi: "O'rta asrlar arxitekturasi va haykaltaroshligi "Toshdagi Injil" edi. Adabiyoti ham to'la-to'kis din va Xristian dini bilan yo'g'rilgan edi. Tasviriy san'ati ham shu yo'nalishdagi mavzu va rangli chiziqlarni namoyon qilardi. Musiqasi tom ma'noda diniy xususiyatga ega edi... Falsafasi ham to'la-to'kis din va teologiya bilan yo'g'rilgan edi. Fani Xristian diniga xizmat qilardi. Etikasi va huquqi xristianlik farzu amallariga yanada ishlov berishni nazarda tutardi. Siyosiy tashkilot o'zining ma'naviy va dunyoviy sohalari bo'yicha tom ma'noda teokratik edi va Xudo va dinga asoslanardi. Oila, muqaddas diniy ittifoq sifatida xuddi shunday fundamental qadriyatni aks ettirardi. Hatto iqtisodni tashkil etishni ham din nazoratga olardi... Hukmron urf-odat va an'analar, turmush tarzi, tafakkur tarzi yagona va ulug'vor maqsad sifatida o'zining Xudo bilan yaxlitligini uqtirardi, hissiy dunyoga salbiy munosabatda bo'lib, uning boyligi, quvonchi va qadriyatlarini rad etardi".<sup>1</sup> Bunday qadriyatlar mo'ljalini biz Hindistonning Braxmanlik madaniyati, laostik va buddaviylik madaniyatlari, e.o. VIII-VI asrlar yunon madaniyatida kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Madaniyatning hissiy turiga sensorlik xususiyati xos: diqqat sezgi organlariga ta'sir etgan predmetlarga, empirik tajribaga, aristokratlarga xos nazokat va dunyoviy olamga qaratiladi. Ob'ektiv voqyeliq va uning mazmun-mohiyati sensor xususiyatga egaligini tan olishning o'zi "bizning zamonaviy madaniyatimiz tomonidan uning barcha asosiy koiponentlari orqali namoyon qilinadi: san'at va fanda, falsafa va psevdodinda, etika va huquqda; sotsial, iqtisodiy va siyosiy tashkilotlarda, turmush tarzi va aholi qiziqishlarida".<sup>2</sup>

Madaniyatning idealistik turi g'oyalar va hissiy qabul qilinadigan predmetlar ahamiyatini tenglashtiradi, natijada ikki turdagi

<sup>1</sup> Sorokin P.A. Главные тенденции нашего времени. – М., 1997. – С. 20.

<sup>2</sup> O'sha joyda. – B. 18.

dunyoqarashning garmonik tarzda bir yaxlitlikka qo'shilishi ro'y beradi (yevropa madaniyatida antik va Uyg'onish davri misol bo'lishi mumkin).

Va nihoyat, madaniyatning eklektik turi olamni qabul qilishda hissiy va ideatsional elementlarning bir-biriga qarshi bo'lib qolishini nazarda tutadi.<sup>1</sup>

Ideatsional madaniyatda san'at shartlilikka, ramziylikka intiladi, ma'lum bir qonun-qoidalarga asoslanib barpo etiladi va ko'pincha egasiz bo'ladi (biz Ajanta g'orlari ibodatxonalarini devorlariga ishlovlar bergan rassomlarning, musulmoncha ornamentdan go'zal arabeskalar egalarining ismlarini bilmaymiz). Hissiy madaniyatda san'at uslubi naturalistik xususiyatga ega bo'ladi. Ikki turdagi olamni his qilishning garmonik birlashishini yunon klassikasi va Uyg'onish davri yutuqlari asosida yotadi, badiiy obrazlarni tasvirlashda uslublar ham ramziy, ham realistlik bo'lgan.

Ideatsional madaniyatda olamni qabul qilish va bilish kutilmagan yangiliklar, intuitsiya, mistik tajriba orqali amalga oshiriladi. Ratsional bilish rad etiladi, inson o'zining aqliga ishonmaydi, narsalarning tabiiy tartibi va voqelikni o'zgartirish, qayta shakllantirish ehtimolidan ko'ra dunyoning oxiri haqida ko'proq o'ylaydi. Ideatsional madaniyat egalari tabiiy-ilmiy bilimga intilmaydilar, aksincha, ularning e'tibori boshqa bir dunyo mavjudligi sirlarini ochib beruvchi mistik tajribaga qaratiladi. Bunga yaqqol misol qilib IX-XII asrlarda yevropadagi holatni misol qilish mumkin, unda din hukmron bo'lib, inson hayotiy faoliyatining barcha sohalarini qamrab olgan.

Hissiy (sensor) madaniyatga dunyoni hissiy tajribalarga, ko'rish, eshitish, hidlash va ushlab ko'rishga asoslanib anglash xususiyati xosdir. Sensor madaniyat egasining ideali bo'lib shaxsiy baxt-saodat hisoblanadi, tarkidunyochilik unga begona. Bu madaniy tur yevropada Yangi davrda amalga oshirilgan, bunda dunyoni tajriba asosida bilishga asoslangan fan shakllangan. Tajriba haqiqatning yagona mezoni sifatida tan olinadi, ratsional bilish absolyutlashtiriladi. Shu davrdan boshlab texnik va tabiiy-ilmiy bilimlar tez rivojlandi, induktiv falsafa shakllandi.

<sup>1</sup> O'sha joyda. - B. 25-26.

Madaniyatning qayd etilgan bu ikki asosiy turlari o'rtasida, Pitirim Sorokin fikriga ko'ra, madaniyatning yoki idealistik, yoki eklektik turi yuzaga kelishi mumkin. Ularda madaniyatning bu ikki turi yoki garmonik yaxlitlikka birlashadi (idealistik tur), yoki bir-birini rad etadi (eklektik tur).

2) Sorokin tomonidan to'liqsimon sotsiomadaniy dinamika nazariyasi ishlab chiqilgan. Madaniyatlar o'zlarida mujassam bo'lgan kuchlar bilan harakatlanadi, bu ularning tabiiy xususiyati, - hisoblaydi Sorokin. Asosiy turlarda (ideatsional va hissiy) mujassam bo'lgan kuchlar taraqqiyoti cho'qqisigacha boradi, keyin "to'lqin"ning qaytishi ro'y beradi. Asosiy turlarning bir-biri bilan almashib turishi yoki idealistik, yoki eklektik turlardan o'tishni bildiradi.

Madaniyat o'zining asosiy olamni qabul qilish vadunyoqarash tamoyillarini o'zining barcha elementlarida amalga oshiradi (sistemax "quyi darajada"gi tizimlarda).

Bu san'at, din, siyosat, huquq, axloq-odobga taalluqli bo'lib, madaniyatning har bir fenomenida "yadro" va "periferiya" mavjud bo'ladi.

Har bir alohida fenomenning ustuvor xususiyatlari madaniyatning ushbu turining qadr-qimmati, asosiy tamoyilini tashkil etadi. Masalan, yevropa o'rta asrlari haqiqati, qadriyati - xudo. Integratsiyalashgan o'rta asrlar madaniyati shuning uchun ham turli qadriyatlarining konglomerati emas, balki bir butun yaxlitlik bo'lgan.

Sorokin tarixiy jarayonni optimistik tarzda ta'riflaydi: agarda madaniyat inqirozga uchrasa (uning fikriga ko'ra zamonaviy G'arb madaniyati kabi), bu shuni anglatadiki, ushbu dunyoqarash supertizimi batamom tugugunligini va boshqa bir madaniy tur shakllanishi uchun yangi asoslar shakllanayotganligini anglatadi.

Sorokin o'zining konsepsiyasini statistik ma'lumotlar bilan ifodalaydi. Masalan, o'rta asrlar yevropasining tasviriy san'ati va haykaltaroshligi (ideatsional tur) tom ma'noda diniy xususiyatga ega bo'lgan, XIX-XX asrlarga kelib ko'proq oqsuyaklarga xos ko'rinish olgan.

Fan sohasida ham analogik vaziyatni kuzatish mumkin. Sorokin tomonidan bu sohada amalga oshirilgan batafsil va puxta tahlil hissiy madaniyat kulminatsiyasi XIX asrga to'g'ri kelganligi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

### Kashfiyot va ixtirolar dinamikasi

Vaqt	Ilm kashfiyotlar umumiy soni	Texn. ixtirolar umumiy soni	Geogr. kashfiyotlar umumiy soni	Umumiy summa
1791-1800	149	113	7	269
1801-1810	228	128	6	362
1811-1820	286	157	13	456
1821-1830	388	227	16	631
1831-1840	441	313	9	763
1841-1850	534	356	9	899
1851-1860	584	423	13	1020
1861-1870	553	424	15	992
1871-1880	635	490	17	1142
1881-1890	663	477	13	1153
1891-1900	625	482	2	1109
1901-1910	552	309	1	862

Axloqiy ideallar va huquqiy me'yorlar umumlashgan holda etika va huquqning ideatsional, idealistik va hissiy tizimini shakllantiradi. Ideatsional qiziqishda (iudaizm, xristianlik, hinduizm, buddaviylik, zardushtiylilik, islom va h.k.) oliy axloqiy qadriyat sifatida Xudo yoki Absolyutning o'ta hissiy dunyosi tan olinadi. Hissiy dunyo kam ahamiyatli va ikkinchi darajali hisoblanadi. Buddaviylikda, masalan, barcha hissiy qadriyatlar (boylik, oltin, rohat, hokimiyat) qat'iy qoidalar darajasida tan olinmaydi. Etika va huquq me'yorlari Absolyutga asoslanadi va muqaddas matnlar bilan mustahkamlanadi. Hissiy lazzatlarga barcha ideatsional tizimlar salbiy munosabatda bo'ladi, chunki ular narigi dunyodan lazzat olishga yo'naltirilgan.

Hissiy axloqiy me'yorlar esa (oliy maqsad – lazzatlanish, hamma narsani qilish mumkin) dunyoviy lazzatlarga yaqin bo'ladi, chunki ular hayotdan lazzat olishga yo'naltirilgandir. Baxt tushunchasi bu yerda boshqacha ahamiyat kasb etadi. Agarda ideatsional madaniyatlarda baxt – Absolyutga yaqin bo'lish va u bilan qo'shilib ketish, hissiy etika esa komfort va maksimal qulaylikni nazarda tutadi.

Idealistik axloqiy me'yorlar ideatsionalistik va hissiylar sintezi hisoblanadi. Ular Absolyutni oliy qadriyat sifatida tan olishni ham, hissiy qadriyatlarining ijobiy bahosini ham o'z ichiga oladi.

O'rta asrlarda yevropa madaniyatida hissiy etika umuman mavjud bo'lmagan, lekin XV asrdan boshlab u ideatsional madaniyatni asta-sekinlik bilan siqib chiqara boshlagan, Uyg'onish davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishgan.

Huquqiy madaniyat dinamikasida ham shunday manzarani kuzatish mumkin. Ideatsional tizimda qonunlar majmuasi Absolyut (Yaxve, Budda, Olloh) tomonidan beriladi, ularning donoligiga shubha yo'q. "Sud ko'rsatmalari tizimi huquqiy ishlarda Absolyut aralashuvidagi e'tirofqa asoslanadi. Deyarli har bir huquqiy harakat, u mulkni ayirboshlash yoki sotib olish bo'ladimi, shartnoma tuzish yoki qarzni to'lash bo'ladimi bu muolajada biror narsani, hatto bitta harf yoki detalni o'zgartirish imkoniyatini qoldirmaydigan mayda detallargacha aniq bir muqaddas formulalar, harakatlarni e'lon qilish orqali qayd etiladi. Xuddi shunday, biror muhim diniy amalda hyech qanday o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi, huquqiy protseduralarda ham unda ishtirok etuvchi tomonlarning yoki boshqalarning manfaatlarini himoya qilgan holda o'zgartirishlarga yo'l qo'yilmaydi.

Hissiy madaniyatda huquqiy tizim inson tomonidan shakllantiriladi va bir guruhning ikkinchi bir guruhga bo'ysundirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Qonunlarga muntazam ravishda hukmron qatlam manfaati yuzasidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Huquqiy sanksiyaning maqsadi jinoyatchini qayta tarbiyalash, jamiyatning xavfsizligi va o'ch olishdan iborat. Hissiy madaniyatda barcha munosabatlar yoki shartnoma, tomonlar kelishuvi asosiga quriladi, yoki hukmron strukturalar tomonidan yuklatilgani uchun umummajburiy hisoblanadi. Bunday kodeksni o'tkazadigan hokimiyat – "teokratik emas, balki harbiy yoki jismoniy kuchga, boylik yoki qobiliyatga, yoki saylovchilar ishonchiga asoslanadi. Huquqiy avtoritetning qonuniyligi uchun hyech qanday ilohiy yoki yuqori darajada hissiy sanksiya talab etilmaganligi uchun nufuzli teokratik hokimiyat ehtimoli ham yo'q bo'ladi".

Shunday qilib, Sorokinning sotsiodinamik modeli dunyo haqidagi yetakchi tasavvurlar va uni qayd etish usullari asosida ajratib olinadigan ma'lum bir madaniyat turlarining ketma-ket tarzda almashinuvini nazarda tutadi. Bu jarayon yaxlit siklning uch fazasida namoyon bo'ladi: (arxitektura, haykaltaroshlik, tasviriy san'at; musiqa, adabiyot, teatr, san'atshunoslik; din, falsafa, fan; tabiiy-ilmiy va texnik-texnologik kashfiyotlar; axloq-odob va huquq; siyosat;

iqtisodiyot; siyosiy konfliktlar; diniy faoliyat; oila-nikoh munosabatlari; shaxsning tarixiy tipi; dunyoqarash; erkinlik shakllari; davlat boshqaruvi). Bu sohalarning har birining dinamikasida uch bosqich kuzatiladi, ular tugagandan keyin sikl yangilanadi. Sorokin quyidagilarni ajratadi:

- ideatsional bosqich (bilish jarayonlari ustunlik qiladigan);
- idealistik bosqich (mafkura ustuvor bo'ladigan);
- hissiy bosqich (sensor kechinmalar ustuvor bo'lgan).

Birinchi bosqichda olamni o'zlashtirish amalga oshiriladi, tashkiliy strukturalarni shakllantirishga ko'maklashuvchi xilma-xil shakllar (predmetli, lingvistik, bilishga oid, texnologik, me'yoriy) yaratiladi. Ikkinchi bosqichda bu shakllar inson faoliyatiga ma'lum bir cheklovlar qo'yuvchi madaniy me'yorlar sifatida mustahkamlanadi. Shunday yo'l bilan, masalan, san'atdagi uslub, qonunlar to'plami, diniy ta'limot va ilmiy paradigmatlar yaratiladi. Uchinchi bosqichda sotsiomadaniy me'yorlarning shakllangan va bardosh chegaralari egallangan innovatsion tajribalar uchun juda tor bo'lib qoladi, natijada insonlar o'z harakatlarini asoslash uchun hissiy kechinmalarga yana murojaat qiladilar.

Har bir bosqichga xos va mos keladigan o'zining shaxsiy tipi mavjud. Alohida ta'kidlash lozimki, Sorokinning konsepsiyasi chiziqchilikdan, evolyutsionizmdan va progress nazariyasidan xoli madaniyat makrojarayonlari oqimi modelini yasashga bo'lgan urinishi hisoblanadi. Bu model uni isbotlash uchun foydalanilgan ulkan empirik materialga qaramay, qandaydir idealizatsiya, ideal model sifatida namoyon bo'ladi, bunga Sorokin o'zi ham e'tibor qaratadi.

Shunday qilib, Sorokin madaniyatning sotsial fenomen sifatidagi rivojlanish, shakllanish va funkcionallashuv jarayonini original va o'ziga xos tarzda tushuntiradi, binobarin, sotsiologik tadqiqot ob'ekti masalasiga kelsak, Sorokin jahon sotsiologiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi, uning g'oyalari bir qator sotsiologik maktablar faoliyatining asosini tashkil etadi.

Sorokin fikriga ko'ra, jamiyat tizimlar tizimidir. U tabiiy-ekologik munosabatlarning mexanik evolyutsiyasi natijasi sifatida paydo bo'lmaydi. Sotsiomadaniy, tarixiy munosabatlar insoniy o'zaro harakatlarda «qadriyat, me'yor, ramzlar» ko'rinishidagi yangi momentlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Aynan shular ijtimoiy

hayot asosini tashkil etadi. Qadriyat va me'yorlarning xususiyatiga qarab jamiyatda turli xil guruhlar tashkil topadi, guruh a'zolarining huquqlari, funksiyalari, rollari, stratifikatsiya mexanizmi aniqlanadi. Umumiy sotsial struktura Sorokin tomonidan quyidagi ko'rinishda tasvirlanadi:

I. Tartiblashmagan yoki yarim tartiblashgan guruhlarining asosiy shakllari: «tashqi» tartiblashgan guruhlar (masalan, gazeta obunachilari va b.); olomon, notanish odamlar guruhi; insoniyat.

II. Bir qator qadriyatlarga qurilgan muhim «biryozlama» guruhlar:

A) biosotsial guruhlar: irqiy, jinsiy, yoshga doir;

B) sotsiomadaniy guruhlar: urug', hududiy jamoa, etnik jamoa, professional jamoa, iqtisodiy guruh, diniy, siyosiy, elita.

III. Muhim «ko'pyozlama» guruhlar: oila, obshina, qabila, millat, kasta, tabaqa, sotsial sinf.

Bu guruhlarining barchasi xususiyatlariga ko'ra farqlanib, bir-biri bilan murakkab o'zaro aloqalarga kirishib yaxlit bir jamiyatni tashkil etadi. Lekin o'zaro ta'sir asosida, demakki jamiyat asosida ham qadriyat va me'yorlar, ya'ni integrativ madaniy asos yotadi. Jamiyatga sotsiomadaniy tarzda qarab Sorokin o'zining jamiyat taraqqiyoti, uning sotsiomadaniy dinamikasi haqidagi tasavvurini taqdim etdi. Shunday qilib, tarix mobaynida hukmron sotsiomadaniy fenomenlar supertizimlari o'z imkoniyatlarini yo'qotib boradi va alternativ dunyoqarash bilan almashadi. Supertizimlarning bunday almashinuvi sotsial institutlarning va me'yoriy namunalarning radikal transformatsiyasi bilan birga kuzatiladi. Integrativ madaniy asosning buzilishi va yangi madaniy bazisning yaratilishi inqiroz, urush, halokatlar bilan birga kechadi. Sotsiomadaniy o'zgarishlar bilan birga individ xulq-atvori ham o'zgaradi. Bu nuqtai nazardan Sorokin birinchi jahon urushini ham, 1917-yil inqilobini ham baholagan.

Sorokin – sotsial stratifikatsiya, sotsial makon va sotsial mobillik nazariyalarining asoschilaridan biri. O'zining sotsial stratifikatsiya nazariyasida Sorokin har qanday jamiyat bir turli emasligini, uni tashkil etuvchi qatlamlar bir qator mezonlarga ko'ra aniqlanishini tushuntiradi: mulkiy tengsizlik, ma'lumotiga ko'ra tengsizlik. Sotsial mobillik nazariyasida u bir ijtimoiy qatlamdan boshqasiga o'tish jarayonini tushuntirib o'tadi. Unga bir qator g'oyalar tegishli: konvergensiya nazariyasi (yaqinlashish, bir xil xususiyatlarni egallash,

XX asrda barcha jamiyatlar bitta yo'nalish bo'yicha rivojlanmoqda va ular o'rtasida tafovutdan ko'ra umumiylik ko'proqdir, istiqbolda tafovutlar umuman juz'iy bo'lib qoladi).

Sorokin «sotsial makon» tushunchasini kiritadi va unga ilgariyidan ko'ra boshqacharoq mazmun-mohiyat kasb etadi – jamiyatning yaxlitlik sifatidagi barcha a'zolari yig'indisi. Insonlar teng bo'lmagan bu jamiyatda ular atrof-muhitdagilar fikri, tasavvurida turlicha o'rin egallaydilar. Ayrimlar sotsial muhitda yuqori, boshqalari esa quyiyoqda joylashadi. Sotsial makon Sorokinga ko'ra abstrakt, shartli makonni ifodalaydi, unda insonlar va insonlar guruhleri ijtimoiy tasavvurlargi ko'ra nisbiy makonni egallaydilar: karera qilgan inson haqida «ko'tarilibdi» degan fikrni bildiradilar. Sotsial makon deganda Sorokin nafaqat uch o'lchamli geometrik makonni, balki ko'p o'lchamli makonni tushunadi. U yozadi:

- 1) sotsial makon – bu yer aholisi;
- 2) sotsial holat – bu aholining barcha guruhleri bilan aloqalar, har bir guruh ichida, ya'ni uning a'zolari bilan aloqalar yig'indisidir;
- 3) insonning sotsial olamdagi holati bu aloqalarning yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlanadi;
- 4) bunday guruhlarining yig'indisi, shuningdek, ularning har biridagi holatlar yig'indisi har qanday individning sotsial holatini aniqlashga yordam beradigan sotsial koordinatlar tizimini tashkil etadi<sup>1</sup>.

Bundan kelib chiqadiki, bir xil sotsial guruhga mansub bo'lgan va ushbu guruhlar doirasida deyarli bir xil funksiyalarni bajaruvchi insonlar bir xil sotsial holatga ega bo'ladilar. U yozadiki, mezonlar sonini ikkitagacha qisqartirish mumkin, sotsial makonning asosiy mezonlari sifatida – vertikal va gorizontal ko'chishni oladi. Gorizontal bo'yicha insonlarning sotsial holati bir xil, vertikal bo'yicha esa farqlanadi. Sorokin uchun bu terminlar sotsial voqyea-hodisalarni tahlil qilish va tasvirlashda, sotsial mobillikni tushuntirishda qulay edi.

Sotsial mobillik – sotsial holatda harakatlanish demakdir, jamiyatda doimiy ro'y beradigan, insonlarning o'z mavqeyini o'zgartirishi. Sorokin insonlar ular yordamida o'zining maqomlarini o'zgartiradigan asosiy kanallarni (liflar) – ma'lumot, armiya, cherkov, biznes – ajratib ko'rsatadi. Sorokin jamiyat insonlar ham

<sup>1</sup> Sorokin P.A. *Chelovek. Tsivilizatsiya. Obshchestvo*. – M., 1992. – S. 297-299.

jismoniy jihatdan, real, ham shartli tarzda, atrof-muhitdagilar va o'zining fikriga ko'ra ko'chib yuradi, deya tadqiqotlarga o'zining katta hissasini qo'shadi. Ko'chishlarni mustahkamlash uchun u sotsial shkalalar bilan bog'liq tushunchalarni kiritadi:

- vertikal va gorizontal mobillik (gorizontal – maqomni o'zgartirmagan holda, vertikal – maqomni o'zgartirgan holda);

- individual va guruhiy mobillik (butun bir guruhning jamiyatdagi maqomining o'zgarishi, ya'ni jamiyat bahosining o'zgarishiga guruhiy mobillik deyiladi. Masalan, XX asrning 60-yillarida fiziklarning avtoriteti o'sgan);

- o'suvchi va pasayuvchi dinamika. Maqom ko'tarilganda o'suvchi, tushganda – pasayuvchi (1917-yil inqilobidan keyin dvoryanlarda pasayuvchi, ishchi va dehqonlarda o'suvchi dinamika kuzatilgan)<sup>1</sup>.

Sorokin sotsial mobillik ijobiy hodisa bo'lib demokratik, dinamik jamiyatlarga xos degan xulosaga keladi. Faqatgina butun bir jamiyat dinamik harakat, keskin mobillik holatiga tushib qolgan vaziyat bundan mustasno. Bu inqirozni anglatadi, beqrorlik, jamiyat uchun ma'qul bo'lmagan mobillik, ammo boshqa holat – zid vaziyat – totalitar jamiyatlarga xos hyech qanday mobillikning yo'qligi. Amerikalik sotsiologlar Amerika uchun eng optimal sotsial mobillik sifatida har bir tozalovchining millionerga aylanishi aksiomasini oladilar.

6. Oldingi sahifalarda qayd etib o'tganimizdek, Sorokin ilk asarlarida ham integralizm tamoyillarini ko'rib o'tishimiz mumkin bo'ladi, lekin integratsiya va integratsion jarayonlarni talqin qilishi davrlar o'tib o'zgargan va oxir-oqibat integralizm falsafasiga aylangan.

O'zining birinchi yirik asari bo'lmish «Sotsiologiya tizimi»da integratsiya ierarxiyasini sotsial statikaning turli darajalari bo'yicha tushuntirishga harakat qiladi. Bu bosqichda integratsiya Sorokin tomonidan integratsiya turli elementlarning o'zaro ta'sirlashuvi asosida sotsial yaxlitlikka birlashishiga ko'maklashuvchi mexanizm, jarayon va omillar yig'indisi sifatida talqin etilgan. Shu nuqtayi nazardan «Sotsiologiya tizimi» mazmunini talqin etilsa, Sorokin sotsial statika darajalarini (individlararo, elementar, kumulyativ

<sup>1</sup> Qiziq: Krasovets A.H. *Sotsiologiya* t. 2. st. *Klassicheskaya teoriya sotsialnoy dinamiki*. – M.: Юрайт, 2014. – S. 506-507.

guruhlar darajasi va jamiyat ularning yig'indisi sifatida) tasvirlashiga e'tibor qaratsak, individlar integratsiyalashuvini turlicha mexanizmlar bilan amalga oshiriladigan umumiy ta'sirlashuvning darajalari sifatida, shuningdek bu darajalarning integratsiyalashuvi mexanizmlari ularning bir-biriga bog'liq holda bo'lishi ma'lum bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bu yerda integratsiya tushunchasi Emil Dyurkgeymning «...me'yorlar, qadriyatlar, maslaklar taqsimlanishi asosida individuumning o'zini u yok bu sotsial guruhga yoki jamoaga mansubligini his qilishi darajasi» sifatidagi talqiniga yaqin hisoblanadi<sup>1</sup>.

Shuningdek, Sorokin asarlariga integralizmdan o'z pozitsiyasini, nazariy g'oyalari talqin etishda foydalanish xususiyati xos deyish mumkin. Bunday tushunish asosiga «oltin o'rtalik» tamoyilini qo'yish mumkin. Umumlashgan holda uni ikki bir-biriga zid yoki ko'plab turlicha tendensiyalar, tasavvurlar, nuqtai nazarlar, «polyuslar», attityudlarning optimal sintezini topish va taqdim etish sifatida ifodalash mumkin. Bu «oltin o'rtalik» ko'pchilikning barchasini «eklektik qorishma»sini emas, balki ko'pchilikning integratsiyalashayotgan elementlarining maksimal darajada pozitiv va minimal darajada negativ jihatlarini ifodalaydi.

Integralizmni shu tarzda tushunish mohiyati Sorokin barcha asarlarini qamrab oladi, o'zaro ta'sirlashuv shakllari, polyarizatsiya, konvergensiya nazariyalari, sotsiomadaniy tizimlar almashinuvi g'oyasini eslashning o'zi kifoya. Bundan tashqari ham ko'plab misollar keltirish mumkin.

Ammo, nisbatan to'liq, hajmli va ko'p qirrali integralizm konsepsiyasini Sorokin o'zining oxirgi asarlarida taqdim etadi va ta'kidlaydi: «Mening falsafam – integralizm»<sup>2</sup>.

Bu konsepsiya o'zida Integral Haqiqat (integral fanning asosini tashkil etuvchi), integral mavjudot sifatidagi Inson, integral superorganik olam va Oliy integral qadriyat tushunchasini qamrab olgan murakkab tizimni ifodalaydi. Bu falsafa «...butun borliqni cheksiz sifat va miqdorlarning cheksiz X: ma'naviy va moddiy, davriy va boqiy, o'zgaruvchan va o'zgarimas, shaxsiy va shaxsdan yuqori

<sup>1</sup> Джерс Д., Джерс Дв. Большой толковый социологический словарь. В 2-х томах. Т. 1. – М.: АСТ, Вече, 2000. – С. 249.

<sup>2</sup> Qo'shim: Sorokin P.A. Mox falsafasi – integralizm // SOIJSIC, 1992, №10.

turuvchi, zamonli va zamonsiz, makonli va makonsiz, yagona va kichikdan ko'ra kattaroq va kattadan ko'ra kattaroqlar. Bu ma'noda haqiqat qo'rqinchli sir-asrorni va qarama-qarshiliklar birligi sehr-jodusini ifodalaydi»<sup>1</sup>.

«Yangi integral nazariya bilan birga biz bir emas, balki kamida uchta bilish kanaliga ega bo'lamiz: hissiy, ratsional va hissiydan yuqori-ratsionaldan yuqori»<sup>2</sup>.

Sorokinga ko'ra, bilishning barcha uch kanalidan – sezgi, aql va intuitsiya – foydalangan holda erishilgan Haqiqat ulardan faqatgina bittasi orqali olingan haqiqatga nisbatan butunroq va qadrliroq haqiqatdir. «Inson bilimi tarixi – noto'g'ri empirik kuzatishlar, noto'g'ri talqinlar va yolg'on intuitsiyalar bilan to'ldirilgan qabrdir. Bu uch kanaldan integral tarzda foydalanilganda ular bir-birini to'ldiradi va nazorat qiladi»<sup>3</sup>.

Inson, Sorokinga ko'ra, «g'aroyib integral mavjudot» sifatida yetishib chiqadi: «u nafaqat hayvon organizmi, shuningdek ratsional fikrlovchi va faoliyatni amalga oshiruvchi ham ...»<sup>4</sup> «...u, shuningdek o'zining ongsiz va ongli kuchlarini nazorat qila oladigan va ulardan chetga chiqa oladigan, va uni o'zining intensiv ijodining eng yangi davrlarida «ilohiy ilhomlanish» paytida amalga oshira oladigan yuqori ongli ijodkordir»<sup>5</sup>. Sorokin, shuningdek, buyuk dinlarda ustavor bo'lgan insonning triada konsepsiyasi bilan parallel o'tkazadi. Shuningdek, Sorokin noorganik, organik va superorganik (yoki madaniy) hodisalardan iborat «voqyelikning yangi saltanati»ni aniqlaydi. «...madaniy dunyo hodisalari «mohiyat»ining (g'oya, qadriyat, axloq-odob me'yorlari) jismoniy va/yoki hayotiy komponentlarni qoplaydigan «nomoddiy» komponentiga ega»<sup>6</sup>.

Bundan tashqari, Sorokin ta'kidlaydiki, mohiyat komponenti noorganik va organik hodisalar tabiatini o'zgartiradi: «...o'zining mohiyatidan mahrum bo'lgan Venera Miloskaya marmarning oddiy bo'lagiga aylanadi»<sup>7</sup>. Superorganik dunyo madaniy dunyoning mafkuraviy (til, fan, texnika, din, falsafa, huquq, etika, turlicha

<sup>1</sup> O'ala joyda. – B. 134.

<sup>2</sup> Sorokin P.A. Glavnye tendentsii nashogo vremeni. – M., 1997. – С. 48.

<sup>3</sup> Sorokin P.A. Mox falsafasi – integralizm // SOIJSIC, 1992, №10. – С. 134.

<sup>4</sup> Sorokin P.A. Glavnye tendentsii nashogo vremeni. – M., 1997. – С. 51.

<sup>5</sup> Sorokin P.A. Mox falsafasi – integralizm // SOIJSIC, 1992, №10. – С. 135.

<sup>6</sup> O'ala joyda.

<sup>7</sup> O'ala joyda.

nazariyalar va h.k. tizimiga birlashgan mohiyatlar), moddiy (butun bir moddiy madaniyat), shaxsga oid (sotsiomadaniy shaxs va sotsiomadaniy guruh sifatidagi barcha individlar) va bixevioristik (individlarning barcha ochiq harakatlari, marosimlari, udumlari, xulq-atvorlari) hodisalarini o'z ichiga oladi. Va bu atrof-muhit «...har bir individni va guruhni o'rab oladi, shartlaydi va shakllantiradi».<sup>1</sup>

Superorganik olamning mohiyatli qadriyatlari orasida Sorokin oliy integral qadriyatni ajratib oladi – «ezgulikning haqqoniy cho'qqisi» – «Haqiqat, Ezgulik va Go'zallikning ko'rinmas yaxlit uchligi». «Va Yaxlit uchlikning har bir a'zosi o'ziga xos individuallikka ega bo'lsada, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas... Haqqoniy Haqiqat doim yaxshi va go'zal; haqqoniy Eezgulik doimo haq va go'zal; va sof Go'zallik doimo haq va yaxshi bo'ladi. Bu buyuk qadriyatlar nafaqat bir-biridan ajralmas, balki xuddi bir energiya shakli boshqasiga o'zgargani kabi ular ham bir-biriga aylanish xususiyatiga ham ega».<sup>2</sup> Muallif ta'kidlaydiki: «...yangi shakllanayotgan sotsiomadaniy tuzum din, falsafa, fan, etika, san'atning ixtiyoriy tarzda Haqiqat, Ezgulik va Go'zallikning oliy qadriyatlari integratsiyalashgan tizimiga birlashishini bildiradi».<sup>3</sup>

Yuqorida tasvirlangan murakkab tizim Integral jamiyatning asosiy xususiyatlarini ifodalaydi, buni Sorokin sotsiomadaniy tizimdagi inqirozni yengish uchun eng ma'qul tarixiy strategiya deb biladi. Sorokin Integralizmga bo'lajak ijtimoiy tuzumning paradigmal asosi sifatida qaraydi.

Lekin Sorokin nafaqat Integral jamiyatni tushuntiradi va uni qurish lozimligini asoslaydi, balki u yanada uzoqroqqa boradi va unga yordam berishi mumkin bo'lgan strategiyani chuqur tahlil qiladi. Uning asosiga – butun olamga altruistik muhabbat g'oyasini yoyishni qo'yadi, uni har tomonlama o'rganishga umrining qolgan so'nggi yillarini, o'zi tomonidan tashkil etilgan ijodiy altruizmni o'rganish bo'yicha Garvard markazida ishlarini bag'ishlaydi.

Pitirim Sorokin uchun jamiyat – millionlab individlarning uyg'unlashgan harakati hisoblanadi, agar jamiyat ijtimoiy yovuzlikni yo'q qilish va integral barqarorlikka erishishni xohlasa, insonlarni yaxshi qilishi, ya'ni «insonning barcha insonlarga, barcha tirik

jonzotlarga, butun olamga diniy-axloqiy yo'nalgan, sharllanmagan va doimiy muhabbati yo'liga turishi lozim bo'ladi».<sup>1</sup>

Ijodiy altruizm bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etishga Sorokin Amerikada mashhur filantrop, biznesmen va metsenat Eli Lilining moddiy qo'llab-quvvatlashi, ya'ni u tomonidan Markaz ehtiyojlari uchun ajratilgan 100 ming AQSh dollari tufayli erishadi, va qisqa muddatda Markaz 12 jilddan iborat ilmiy asarlarni nashr ettiradi, ularning har birida Sorokin o'zining ishlari muhim o'rin tutadi.

Sorokin ko'proq xatib va diniy ulamolar faoliyati maydoni bo'lgan etika sohasini ishlab chiqadi, u ayrim diniy tushunchalar va qadriyatlarni qan korpusiga assimiylashtirishga erishadi.

Uning konsepsiyasi asosini quyidagilar tashkil etadi. «Muhabbat rohati» – insonga ma'lum bo'lgan uchta yuqori enenrgiyadan biri, u pozitiv polyarizatsiyani mobilizatsiya qiluvchi kuchidir va tarixiy progressni yaratuvchi energiya sifatida xizmat qiladi. Sorokin uning funksiyalarini ajratadi: «... u shaxslararo va guruhlararo agressiyani to'xtata oladigan; adovatli munosabatlarni do'stona munosabatlarga aylantira oladigan real kuch bo'lib kelgan va bo'lib qoladi, ular [tadqiqotlar] yana shuni ko'rsatdiki: muhabbat muhabbatni keltirib chiqaradi, nafrat esa nafratni; muhabbat xalqaro siyosatga ta'sir ko'rsatishi mumkin va konfliktlarni tinchitadi; muhabbat – hayot baxsh etuvchi kuch bo'lib, ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lik uchun zarur; altruistlar xudbinlarga qaraganda ko'proq yashaydilar; muhabbatni his etmagan bolalarning ma'naviy va ijtimoiy defektlari bo'lish ehtimoli yuqori; muhabbat jinoiy, patologik va suitsidal tendensiyalarga, nafratga, qo'rquvga va psixonevrozlarga qarshi dori vazifasini o'taydi; muhabbat bilishga oid va estetik muhim funksiyalarni bajaradi; u insoniyatni ma'rifatli qilish va ma'naviy jihatdan yaxshilash uchun xizmat qiladigan eng yuqori va eng samarali tarbiyaviy kuchdir; u erkinlik va barcha asosiy ma'naviy hamda diniy qadriyatlarning yuragidir; har qanday jamiyatning hayotini uzaytirish uchun, uyg'un ijtimoiy tartibot va ijodiy progress uchun minimum muhabbat zarurdir; va nihoyat, hozirgi kundagi tarixning fojiali paytda rost «muhabbat-energiyani ishlab chiqarish, taqsimlash va sirkulyasiya qilish»ning o'sishi va individlar, institutlar va madaniyatning ma'lum ma'noda altruizatsiyasi yangi urushlarni

<sup>1</sup> Sorokin P.A. *Трансформация энергии жизни* // СОДЖС. 1991. №8. – С. 119.

<sup>1</sup> O'sha joyda. – B. 136.

<sup>2</sup> Sorokin P.A. *Моя философия – интегралы* // СОДЖС. 1992. №10. – С. 136.

<sup>3</sup> Sorokin P.A. *Глобальное возмездие нашего времени*. – М., 1997. – С. 86.

oldini olish va shaxslararo va guruhlararo nizolarni yumshatishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi».<sup>1</sup>

Bu holatlarning barchasi ming yillik tarixni va bir necha ming tarjimai hollarni, kollej talabalari, kasalxona bemorlari, 500 ga yaqin amerikaliklar – «rahmdil va yaxshi qo'shnilar»ni tahlil qilish asosidagi sotsiologik tadqiqotlar orqali isbotlanadi. Har qanday ijtimoiy hodisa singari muhabbat energiyasi miqdoriy jihatdan o'lchanishi mumkin.

Sorokin muhabbat kuchining beshta o'lchamini ajratadi – intensivlik, ekstensivlik, davomiylik, soflik va adekvatlilik. Altruistik maqsadlarning sub'ektivligi ham ularning ob'ektiv natijalari bilan birga altruistik muhabbat energiyasining jamlanma o'lchamini olishga harakat qiladi. «ishlab chiqarish, to'plash va taqsimlash kabi iqtisodiy terminlarning muhabbat energiyasiga nisbatan ishlatilishi paradoksal (mantiqqa to'g'ri kelmaydigan) bo'lib ko'rinadi. Lekin, haqiqatda u resurs va investitsiyalarni taqsimlash, siyosiy maqsad va ustuvorliklarni aniqlash, ijtimoiy institutlarning yaratilishi va funkcionallashuvi, ta'lim jarayonlarining – bolalar bog'chasidan tortib to kattalarni o'qitishgacha, teatr repertuarlarini, teledasturlarni, adabiyotlarni nashr etishni, vaqti matbuotning mohiyatini aniqlashda, va nihoyat, iqtisodiyotni va jamiyatni harbiylashtirishga ajratiladigan mablag'ni cheklash bilan bog'liq chuqur ma'noga ega».<sup>2</sup>

Markazning tadqiqot dasturi sotsial harakatning beshta darajasini jamlagan: individlarni tayyorlash, birlamchi guruhlar, ikkilamchi guruhlar, hamjamiyatlar, davlatlar. Aslida, u Sorokinning yangi asrga kirish proektini, jamiyatni rekonstruksiya qilish dasturini anglatardi, yangi Integral sivilizatsiya konturlarini yaratishni, shuningdek, altruizmi institutsionallashtirishni vazifa qilib olgan edi.

Pitirim Sorokin (1889-1968). Sorokin Parsonsnikidan ko'ra kengroq va murakkabroq nazariyani yaratgan. Uning nisbatan to'liq izohini 1937-va 1941-yillar oralig'ida nashr etilgan to'rt jildlik «Sotsial va madaniy dinamika» kitobida ko'rish mumkin. Bu asarida sotsial va madaniy o'zgarishlarning yaxlit nazariyasini ishlab chiqish maqsadida Sorokin keng ko'lamlı empirik ma'lumotlarni keltiradi. Sotsial o'zgarishlarning evolyutsion nazariyasini ishlab chiqqan olimlardan farqli ravishda, Sorokin siklik nazariyani ishlab chiqdi. U

<sup>1</sup> Косов Ю.В. Великие преобразования Питирима Соркина // СОЦИС. 1999. №6. – С. 9.

<sup>2</sup> Косов Ю.В. Великие преобразования Питирима Соркина // СОЦИС. 1999. №6. – С. 9.

jamiyatlar uchta turli xil mentalliklardan o'tadi, deb hisoblaydi: hissiy, mushohadaga asoslangan (mavhum) va idealistik. Hissiy tur hukmronlik qilgan jamiyatlar voqelikni anglashda hissiyotlarning roliga asosiy ahamiyat beradi; voqelikni transsendental va diniy tomonlama tushunish xos bo'lgan jamiyatlar – *mavhum*; *idealistik* jamiyatlar esa hissiylik va diniylikning o'rtasidagi turmi ifodalaydi.

Sotsial o'zgarishlarni amalga oshiruvchi kuch har bir tizimning ichki mantiq'iga borib taqaladi, ya'ni ichki bosim ostida tizim o'ziga xos bo'lgan tafakkur tarzini imkon darajasida kengaytiradi. Shunday qilib, hissiy jamiyatda oxir-oqibat his-tuyg'ularning roli shu qadar oshib ketadiki, u o'zining halok bo'lishi asos yaratadi. Hissiylik eng so'nggi mantiqiy nuqtaga yetib boradi, va insonlar mavhum (mushohadaga asoslangan) tizimdan chora izlaydilar. Tizim hal qiluvchi ta'sirga ega bo'lgan paytdan boshlab, u ham o'zining so'nggi nuqtasiga intiladi, natijada jamiyat ortiqcha darajada diniy bo'lib qoladi. Keyingi faza – idealistik madaniyatning rivojlanishni boshlashi, oxir-oqibat, sikl yana takrorlanadi. Sorokin nafaqat sotsial o'zgarishlar nazariyasini ishlab chiqdi, balki uning isboti uchun san'at, falsafa siyosat va boshqa sohalardan yorqin dalillilar ham keltirdi. Shubhasiz, bu juda buyuk ijod edi.

Sorokin nazariyasini maqsadi – kitobxonga uning ijodini his qilish imkonini berishdan iborat bo'lgan bu qadar qisqa sharh bilan tugallash mumkin emas. Nima uchun Sorokin sotsiologlarning g'azabiga uchraganligining sababini tushuntirish qiyin. Balki, bu Sorokinning tanqid qilishni yoqtirganligi va bu haqida «Zamonaviy sotsiologiya va u bilan aloqador fanlarning erkaliklari va kamchiliklari» (1956) asari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Balki, Sorokin sotsiologiya nazariyotchilarining keyingi avlodi bilan qayta kashf etilishi mumkin. Hozirgi paytda uning ijodi sotsiologiya nazariyasining hukmron tendensiyasi ortida qolmoqda<sup>1</sup>.

7. Sorokinning shaxs sifatida shakllanishi jarayonini qarab chiqib, shu ma'lum bo'ldiki, uning hayotida ikki davrni – rus va Amerika davrini ajratib olish kerak bo'ladi. Rus davrining ahamiyati o'zining qisqaligiga qaramasdan muhim, chunki shu davrda uning dunyoqarashi, olim sifatidagi ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi poydevori qo'yilgan. Emigratsiyada Sorokin o'zining Rossiyada tanishib chiqqan

<sup>1</sup> George Ritzer, *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 207.

g'oyalari rivojlantirgan va tadqiq qilgan. Aynan xorijda uning tarixiy, sotsiologik, falsafiy qarashlariga ehtiyoj bo'lgan va ular tan olingan. Garvardda Pitirim Sorokin o'zining g'oyalari hayotga tadbiiq qilish uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan. Jahon miqyosidagi tadqiqot markazlari, XX asrning buyuk ilmiy kashfiyotlari bilan tanishish uning ilmiy yo'nalishini shakllanishida muhim bir boslang'ich nuqta bo'ldi.

Sorokin ilmiy qarashlari shakllanishiga N.K.Mixaylovskiy, P.L.Lavrov, V.M.Chernov, P.A.Kropotkinlar nazariyalari ta'sir ko'rsatgan. Sorokin XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiyadagi sotsiologik fikr namoyandalari - M.M.Kovalevskiy, ye.V. de Roberti, L.I.Petrajitskiylar g'oyalari bilan tanishuvi olimning shaxsiy ilmiy pozitsiyasini shakllantirishiga, o'z tadqiqiy qiziqishlari doirasini aniqlashiga yordam berdi.

Jamiyatni o'zini anglashiga barcha ijtimoiy fanlarning birgalikdagi harakatlari bilan eirishish mumkinligini tushungan Sorokin umumiy va xususiy fanlar metodlarini, ayniqsa sotsiologiya va tarixni, sintezlash samarali bo'lishini ta'kidlaydi. Sotsiologiyaning «generalizatsiyalash» rovidan farqli ravishda tarixga u «individualizatsiyalash» - dunyoning organikdan yuqori xususiyatlarini o'rganishga asoslangan rolini beradi. Tarixning ob'ekti bo'lib, Sorokin fikriga ko'ra, insonlarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasini namoyon qiluvchi empirik faktlar o'rtaga chiqadi. Sorokin tarixni avlod-dan-avlodga o'tuvchi ijtimoiy malaka sifatida talqin qilgan, shuning uchun tarixiy tahlilning asosiy vazifasi kelajakni bashlrat qilish uchun hodisalar va ularning oqibatlari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'lishi lozim.

Shuningdek, Sorokin integral nazariyasida tarixiy o'zgarishlarning siklik xususiyati tarixiy jarayonni harakatga kelitruvchi kuchi, davriyligi to'g'risidagi qarashlari muhim o'rin egallagan. U madaniyatning tuzilishi, funksiyalari, siklik taraqqiyotini tizimli yondoshuv asosida tushunishga ko'maklashuvchi supertizimlar dinamikasi tizimini ishlab chiqdi. Bu sxemaga asosan madaniyat mohiyat tashkil etuvchi aloqalar asosida shakllanuvchi me'yoriy-semiotik tizimdir. Madaniyat turlari ular asosida qanday qadriyatlar turganligiga ko'ra farqlanadi. O'zining integralizm falsafasi bilan birga Sorokin qadriyatlarining uch tizimini, shunga mos ravishda madaniyatning uch turini farqlaydi. Har bir madaniyat turi ijtimoiy

lihatdan insonlarning harakatlari va munosabatlarining mustahkamligini, barqarorligini, oldindan bilish mumkinligini, murasalliligini ta'minlagan holda funkcionallashadi. Qachonki e'tiqodlar zaiflashsa, madaniy tizimning yaxlitligi buziladi, qadriyatlarining eski tizimi yangisi bilan almashadi, jamiyat esa nizolar va fojialarni boshdan o'tkazadi.

Tarixiy jarayonni uch sotsiomadaniy turlar almashinuvi sifatida qarab, Sorokin ularning har birining o'zigagina xos bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy va mental tashkiloti, qadriyatlarini tizimi va shaxs tipi mavjudligini qayd etadi.

Sorokin urush va tinchlik muammosiga qarashlari uning hayot davomida o'zgarib borgan. Ijodining ilk bosqichlarida bu masalalarni yoritishda neopozitivizm va bixeviorizm nutai nazaridan yondoshgan. Bunda urush va tinchlikni o'rganishda insonlarning reflektor xulq-atvori asos qilib olingan. Urushning asosiy sababi, Sorokin fikriga ko'ra, sotsium a'zolari katta qismining asosiy instinktlarini su'stemol qilinishi va siyosiy rejimning «eskirib ishdan chiqishi»; uning ijtimoiy ehtiyojlarga munosib tarzda javob qaytara olmay qolishi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, Sorokinga ko'ra, urushlar va inqiloblar bir xil tabiatga ega, ular sotsium zaiflashib qolgan va o'zining kuchi bilan muammolarni hal qila olmaydigan holatga tushib qolgan, asosan aholining asosiy ehtiyojlarini qondira olmay qolgan murakkab paytda amalga oshadi. Emigratsiyada bo'la turib, Sorokin o'zining urush haqidagi tasavvurlarini o'zgartirdi, ular hissiy sotsiomadaniy tartibotning dezintegratsiyasiga misol bo'ldi. Urushning oldini olishda asosiy vosita sifatida jamiyatdagi mavjud madaniyat turini o'zgartirish, yangi madaniyatni barpo etish olindi.

Dunyo tarixiy sahnasida yangi sotsiomadaniy integral siklning o'sishi va hukmronligini bashorat qilib, Sorokin uning inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'lishini tahlil qildi, u turlicha dunyoqarash yo'nalishlarining o'zaro singib ketishi va integratsiyasi xususiyatlarini ochib berdi. U Sharq va G'arb o'rtasidagi munosabatlarda izolyasionizm davrining tugashini, G'arb va Sharq qadriyatlarining bir-biriga tobeligi va o'zaro ta'sirlashuvining kuchayishini, kapitalistik va kommunistik tartibotlar va turmush tarzining integratsiyalashuvini oldindan ko'ra bildi. Sotsial davriylik nazariyasini qo'llab-quvvatlovchilardan farqli ravishda

Sorokin sivilizatsiyaning sifat jihatdan boshqacha bashoratini ilgari surdi: hissiy siklning halokati emas, balki tugashi, va yangi integral siklning boshlanishi.

Bugungi kunda Pitirim Sorokin ijodi kam o'rganilgan, shuning uchun uning merosi o'ziga xos diqqatli e'tiborni talab qiladi. Hozirda Sorokin ijodiga ham G'arb olimlarining, ham Rossiya olimlarining qiziqishi ortgan. Professor Garold Braun qayd etadi: «Pitirim Sorokinning jamiyatimiz qaysi yo'nalishda ketishi haqidagi bashorati yuz foizga isbotlandi». Lekin bu olimning fikrlarining haqqoniyligini bilish va uni tushunish hammaga ham nasib qilmagan. Shuning uchun sotsiologlar oldida turgan birdan-bir muhim vazifa – olimning asosiy asarlarini tarjima qilish va nashr etishdan iborat.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. P.Sorokinning hayoti va ijodining asosiy bosqichlari haqida so'zlab bering.
2. P.Sorokinning «Inqilob sotsiologiyasi» asarining mazmun-mohiyatini izohlang.
3. P.Sorokinning sotsial mobillik va sotsial stratifikatsiya konsepsiyalarining ahamiyatini tahlil eting.
4. P.Sorokinning sotsiomadaniy dinamika konsepsiyasining asosiy jihatlarini yoriting.
5. P.Sorokin integralizm g'oyalariining mazmun-mohiyati va ahamiyatini izohlang.
6. P.Sorokin merosining bugungi kundagi ahamiyatini tushuntiring.

#### GLOSSARIY

**Gorizontal mobillik – горизонтальная мобильность – gorizontal mobility** – Sorokinga ko'ra, individ yoki sotsial guruh mavqeining bir daraja doirasida o'zgarishi (bir oiladan boshqasiga, turar joyning o'zgarishi va h.k.).

**Ijtimoiy o'zgarishlar – социальные изменения – social changes** – ijtimoiy guruh yoki jamiyatning tayanch tuzilmalaridagi o'zgarishlar.

**Madaniyat – культура – culture** – jamiyat uchun xos bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va moddiy ishlab chiqarish.

**Sotsial integratsiya – социальная интеграция – social integration** – o'zaro ta'sirlashuvchi elementlarning yaxlit bir tizimga birlashishini ta'minlovchi jarayonlar yig'indisi.

**Sotsial mobillik – социальная мобильность – social mobility** – Sorokinga ko'ra, individ yoki sotsial guruhning jamiyat strukturasiida egallagan sotsial maqomining o'zgarishi, sotsial ko'chish, harakatchanlik.

**Sotsial stratifikatsiya – социальная стратификация – social stratification** – Sorokinga ko'ra, jamiyat strukturasiining ijtimoiy qatlamlarga, stratalarga bo'linishini, sotsial tengsizlikni ifodalovchi tushuncha.

**Strukturaviy funksionalizm – структурный функционализм – structural functionalism** – funksionalizmdan farqli ravishda u turli strukturalarning tahlilidan ular tomonidan bajariladigan funksiyalarni topishga e'tibor qaratadi. T.Parsons tomonidan kiritilgan.

**Stratalar – страты – stratum** – boylik, prestij, hokimiyat va ta'limga turlicha imkoniyatlari bilan farqlanuvchi katta sotsial guruhlar.

**Vertikal mobillik – вертикальная мобильность – vertical mobility** – Sorokinga ko'ra, individ yoki sotsial guruh mavqeining bir sotsial qatlamdan boshqa bir qatlamga, yuqoriga yoki quyiga qarab o'zgarishi.

## T. PARSONSNING STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL NAZARIYASI

### Reja:

1. Talkott Parsonsning hayoti va ijodi
2. Sotsial harakat nazariyasi
3. Sotsial harakat tizimi
4. Strukturaviy funksionalizm g'oyasi
5. Jamiyat va uning turlari
6. Jamiyat evolyutsiyasi bosqichlari

1. Talkott Parsons XX asrning yung yirik sotsiolog-nazariyotchilaridan biri. Ilmiy jurnal sahifalarida uning ilk ishlari nashr etilganda yevropada jahon urushi oqibatida barqarorsizlik hukm surgan va bundanda og'irroq voqyealar, sotsiologik nazariyaning buyuk namoyandalarining ilk avlodi sahnadan ketishi kuzatilayotgan edi (E.Dyurkgeym 1918-yil, M.Veber 1921-yil, V.Pareto 1923-yil vafot etgan edi; F.Tyonnis o'z ishlarini yozsada, ta'lim sohasidan ajratilgan, xalqaro ilmiy jamoatchilik bilan aloqalari uzilgan edi), AQSh esa ilmiy potensial kengayib borgan bo'lsada, xali veri ilmiy dunyoning bir chetida qolib ketaverdi. Parsons vafot etganda AQSh yirik ilmiy hokimiyatga aylandi. Parsonsning olim sifatidagi hissasi nafaqat bunda, balki sotsiologik nazariyalar taraqqiyotida vorisiyikni yo'lga qo'yganligi bilan belgilanadi. Klassik sotsiologlar ishlarini chuqur o'rganib (ayniqsa, yevropa olimlari), ularning g'oyalarini chuqur tahlil qilib, ularning boy tajribasini o'z konsepsiyalarida boyitdi. Parsonsning nazariy ishlariga e'tibor qilsak, ularda klassik sotsiologlarning bugungi kunimizgacha ham eskirmagan, boy me'rosini to'la holda saqlab qolingani ko'rishimiz mumkin.

Talkott Parsons (1902-1979) 1902-yil 13-dekabrda AQShda, Kolorado shtatining Kolorado-Springs shahrida tug'ilgan. U ziyoli oiladan kelib chiqqan, otasi kongregatsiya ruhoniysi, professor va oxir-oqibat uncha katta bo'lmagan kollejning prezidenti bo'lgan. Parsons noyob iste'dod egasi bo'lgan, shuningdek o'ziga xos sintetik tafakkurga ega bo'lib, u tabiatshunoslik, iqtisod, sotsiologiya fanlari sirlarini chuqur o'rgandi. Dastlabki ta'limni 1920-1924-yillarda Garvarddagi Amxerst kollejida tibbiyot bo'yicha olgan, uning

dunyoqarashi shakllanishiga ushbu davrning mashhur iqtisodchi olimi Uilton Xamilton katta ta'sir etdi – uning ijtimoiy fanlarga bo'lgan qiziqishi kuchaydi. Afsuski, Parsons kollejini bitirishiga bir yil qolganda bu olim kollejdani haydaladi. Parsons biologiya, falsafa, va ayniqsa I.Kantning «Sof aqlning tanqidi» asarini chuqur o'rgandi. U Angliya adabiyoti kurslarida qatnashmoqchi edi. Aspiranturada o'qishni juda orzu qilardi, hatto meditsina bo'yicha ham shuhrat qozonmoqchi bo'ldi.

Bobosining yordamida Londondagi iqtisod maktabida aspiranturada o'qishni davom ettirgan. Undan so'ng 1925-1926-yillarda Germaniyaning Geydelberg universitetida ta'lim olgan. Geydelbergda Maks Veber o'zining eng obro'-e'tibor qozongan davrlarini o'tkazgan Parsonsning bu yerga kelishidan besh yil oldin vafot etgan edi. Veberning bevasi o'z uyida uchrashuvlar tashkil etar edi, Parsons ham ularga tashrif buyurar edi. Veberning ijodidan kuchli ta'sirlangan Parsons uning «Protestant etikasi va kapitalizm ruhi» asarini ingliz tiliga tarjima qilgan. Geydelbergda u Edgar Zamin rahbaligida «Yangi nemis adabiyotida kapitalizm tushunchasi» mavzusida dissertatsiya yozishga kirishadi, asosiy e'tiborini Verner Zombartning «Hozirgi zamon kapitalizmi» nomli yirik asari va Maks Veber ta'limotiga qaratadi. Parsons ilmiy tadqiqotining ikki asosiy yo'nalishi quyidagilar bo'lgan:

1. Kapitalizmning ijtimoiy iqtisodiy tizim sifatidagi tabiati;
2. Maks Veber sotsiologiyaning yirik nazariyotchisi.

Amxrestda o'qituvchilikning birinchi tili hamda dissertatsiya ustida nutq bilan ishlash jarayonida iqtisod va siyosat o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasini o'rganishga kirishish zarurligini sezdi.

Nomzodlik darajasini olganidan so'ng Parsons fakultet dekani bo'lib kelgan Richard Merdiam bilan uchrashadi. U Parsonsga katta yordam beradi. Merdiam Parsonsning Geydelbergda olgan iqtisodiy bilimlarini yanada chuqurlashtirishga turtki beradi va yordam qiladi. Natijada Parsons Germaniyaning falsafa doktori unvonini oladi. Merdiam Parsonsni Garvardga o'qituvchilikka tavsiya beradi va joylashishga yordam beradi. 1927-yildan boshlab Garvard universitetida iqtisodiyotdan dars berishni boshlaydi. Garvardlik iqtisodchilar T.Parsons dunyoqarashiga katta ta'sir etdi. Ayniqsa, tarixchi va iqtisodchi Edving Gey unga juda samimiy munosabatda bo'ladi va yordam qiladi. Iqtisod nazariyasi asta-sekin Parsons uchun

“ichki nazariy matritsa bo‘lib bordi”. Bunga yana sotsiologiya nazariyasi ham qo‘shila boradi. Parsonsni, ayniqsa, Alfrejd Marshall iqtisodiy nazariyasi juda qiziqirdi. Marshall o‘sha davr «ortdoksal» yoki «neoklassik» iqtisodiy nazariyasi bo‘yicha dunyoda juda mashhur edi.

Marshallning iqtisodiy sotsiologiyasi, ya‘ni iqtisod bilan sotsiologiyani birga qo‘shilishi Parsons uchun kelgusida shuhrat qozonishga va to‘g‘ri nazariy yo‘l olishga imkon berdi. Shu yerning o‘zida 1931-yilda sotsiologiya fakultetida ishga o‘tadi va shu yerda P.Sorokin bilan tanishadi. Bu universitetda u 42 yil davomida ishlagan va 1973-yilda nafaqaga chiqqan. 1944-yilda u Garvard universitetining sotsiologiya fakultetiga dekan bo‘lgan. 1949-yilda AQShning sharqiy shtatlari sotsiologiya assotsiatsiyasining prezidenti etib saylangan. Parsons Amerika Fanlar Akademiyasiga prezident bo‘lgan, u bunday yuqori martabaga erishgan birinchi jamiyatshunos bo‘lgan.

Talkott Parsons 1979-yil 8-mayda Myunxenda olamdan o‘tgan.

Parsons o‘z faoliyatini iqtisodchi sifatida boshlagan. Angliyada bo‘la turib A.Marshall, Germaniyada o‘qiyotgan paytida esa qarashlari o‘ziga yaxshi ta‘sir ko‘rsatgan F.Tyonnis, G.Zimmel, M.Veber faoliyati bilan tanishib chiqqan. Darvoqye, uning birinchi va eng asosiy kitobi hisoblangan “Sotsial harakat tizimi”ni (1937) “Zimmeln hozir kim o‘qimoqda?”, degan savol bilan boshlagan<sup>1</sup>. Bu kitob XX asrning eng yaxshi nazariy sotsiologik izlanishlardan biri hisoblanadi. Parsonsning o‘zi ushbu kitobni professional faoliyatidagi katta burilish nuqtasi, deb hisoblagan.

Yuqoridagidan tashqari quyidagi asosiy kitoblari mavjud: “Sotsial tizim” (1951), “Harakatning umumqamrovli nazariyasiga” (E.Shilz bilan hammualliflikda, 1951), “Jamiyat: evolyutsion va qiyosiy istiqbollari” (1966), “Sotsiologik nazariya va zamonaviy jamiyat” (1967), “Sotsial struktura va shaxs” (1970), “Sotsial tizim va harakat nazariyasi evolyutsiyasi” (1977), “Harakat nazariyasi va inson tuzilishi” (1978) kabi asarlarni yozgan. Rus tiliga Parsonsning 2 ta yirik asari tarjima qilingan. Uning asarlari tushunish uchun qiyin bo‘lib hisblanadi.

<sup>1</sup> Qiziq: Parsons T. O struktura sotsialnogo deystva. – M.: Akademicheskii progress, 2002.

Parsons o‘zining tashqi dunyodan uzilgan hayoti davomida (deyarli butun ijodiy hayotini Garvard universitetida o‘tkazgan) sotsiologiya doirasida yirik asarlar bo‘lmagan bir paytda mashhurlik cho‘qqisiga ko‘tarilgan paytlari ham bo‘lgan, shuningdek, 1970-yillarda uning faoliyati qattiq tanqid ostiga olingan va asarlarining qadr-qimmatini yerga urilgan paytlarni ham boshidan o‘tkazgan. Shunday bo‘lsa ham u o‘ziga hamda fikr va g‘oyalarining kelajakda sotsiologiya fani va umuman jamiyatga katta foyda keltirishiga ishongan.

Parsons yaratgan asosiy konsepsiyalarga quyidagilar kiradi: sotsial harakat, sotsial tizim va strukturaviy funksionalizm nazariyalari. Uslubiy jihatdan ular bir-biri bilan bog‘liq va ularning asosida birinchisi, ya‘ni sotsial harakat nazariyasi turadi. Bu nazariyalarning har birining mazmun-mohiyatini qolgan ikkisining u yoki bu jihatiga to‘xtalib o‘tmasdan tushuntirishning iloji yo‘q. Bundan tashqari, ushbu nazariyalar Parsons ijodida mana shu ketma-ketlikda taqdim etilgan.

Umumiy qilib aytganda, Parsonsning jamiyatga va uning evolyutsion taraqqiyoti tahliliga bag‘ishlangan sotsiologiyasi undagi barqarorlik, integratsiya, tartib va muvozanatni asoslashga qaratilgan deyish mumkin. Uning ijodi mavhum xususiyatga ega bo‘lgan sof nazariya taraqqiyotining namunasi hisoblanadi. Parsonsdan nega bunday umumiy va mavhum nazariya bilan shug‘ullanayotganligini so‘rashganda u: “Men jamiyatni o‘rganishga kirishayotganimda sotsiologik nazariyaning barcha xususiy sohalari allaqachon tanlab bo‘lingan edi, shu sababli ham umumqamrovli nazariyani tanlashdan boshqa choram qolmagan edi”, deb yarim hazil tarzda javob bergan ekan<sup>1</sup>.

Parsonsning mavhum tabiatga ega bo‘lgan nazariyasi bir necha bor kulguga ham olingan. Bir misolni keltiradigan bo‘lsak, u R.Mertonning mashhur sotsiolog va sotsial psixolog olim G.M.Andreevaning savoliga javobi bilan bog‘liq.

Merton 1960-yillarda Sovet Ittifoqiga bo‘lgan tashrif buyurib Fanlari Akademiyasi Falsafa institutida zamonaviy sotsiologik nazariyalar holati haqida ma‘ruza qilgan edi. Hisobotdan so‘ng unga

<sup>1</sup> Qiziq: Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. – СПб.: Изд-во СПбГУПУ, 2015. – С. 61.

bir necha savollar bilan murojaat qilishgan. Usha savollardan biri Andreevaga tegishli edi va u Parsonsning mavhum nazariyalarini tushunish qiyinligi bilan bog'liq bo'lgan. Savol quyidagicha edi: "Janob Merton! Parsonsning nazariyalari mazmun-mohiyatini qanday qilib tushunasiz? Men ularni o'qiganimda ko'pi bilan 10% ini tushunaman". Merton hazilomuz tabassum qilib, darhol javob berdi: "Bilasizmi, men ham uni o'qiganimda 20% dan ortig'ini tushunmayman, lekin o'ylashimcha, Parsons ham o'z asarlarini o'qiganida 30% dan ko'pini tushunmagan bo'lsa kerak"<sup>1</sup>.

Ko'pgina nazariyotchi olimlar Parsonsning qarashlari shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ular orasida birinchi navbatda E.Dyurkgeym va M.Veber nomlarini tilga olmay ilojimiz yo'q. Parsons E.Dyurkgeymni tushunish uchun uning «Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida» (1893) asarini o'rgandi. Natijada u Dyurkgeym qarashlari Veberning kapitalizm rivojlanishi va Marshallning erkin tadbirkorlik konsepsiyasi bilan bog'langanligini ko'rsatdi. Dyurkgeym va Veberning asosan sotsial harakat va strukturaviy funksional tahlil nazariyalariga ta'sirini e'tirof etish lozim.

Bundan tashqari, jamiyat va uning tarkibiga tizimli yondashuv borasidagi fikrlar haqida gapirganda V.Pareto va A.Marshallarni ham eslab o'tish joiz. Parsonsning jamiyatning sotsiomadaniy taraqqiyoti borasidagi qarashlariga Britaniya sotsial antropologiyasi va uning eng ko'zga ko'ringan ikki vakillari hisoblangan B.Malinovskiy va A.Radkliff-Braunlarning faoliyati jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Parsonsning o'zi sotsiologik nazariyasini uch yo'nalish sintezi sifatida talqin etgan: Dyurkgeymning strukturaviy funksional tahlili, Veberning sotsial harakat nazariyasi, Malinovskiy va Radkliff-Braunning sotsial antropologiyasi.

Parsons nazariyasining g'oyaviy asoslarini qidirishda shuni inobatga olish zarurki, Amerika sotsiologik nazariyasi yevropa sotsiologiyasining Dyurkgeym, Veber, Pareto va shu kabi yirik vakillari tomonidan asos solingan nazariy an'analari negizida paydo bo'lgan.

Parsons ishlarining asosiy qismi ularning g'oyalariga xos bo'lgan xususiyatlar bilan yo'g'rilgan. Parsons olamni qadriyat, me'yor, ahamiyat kabi g'oyaviy tushunchalari asosida ko'rgan. U asosiy

<sup>1</sup> Эбровский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр. и доп. - Сургут (и др.): РИО СУрГУТУ, 2015. - С. 41.

e'tiborni harakatlar tizimida inson harakatini tashkil etishga qaratgan. Bunda u tizimni qismlarning oddiygina yig'indisi emas, balki bir-biriga uzviy bog'liq qismlar yig'indisi sifatida tasavvur qilgan. Bu ma'noda u jamiyatni tirik organizm tizimi sifatida olib qaragan. Parsons «tizim» i «funksiya» tushunchalarini fanga kiritib, T.Gobbsning "Sotsial tartibga qanday erishiladi?", degan savoliga javob izlagan. Uning asosiy javobi shundan iborat bo'lgan edi: tizim muvozanatga, qismlarni muvofiqlashtirishga, o'z mustaqilligini saqlab qolishga intiladi.

2. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Parsons o'zining nazariyasini shakllantirishda A.Marshall, V.Pareto, E.Dyurkgeym va M.Veberlar tomonidan taqdim etilgan nazariyalarning eng ilg'or jihatlarini umumlashtirishga harakat qilgan. Bu nazariyalar individ o'z harakatlarini ongli va ratsional tarzda amalga oshirishi g'oyasini ilgari suradi. Shuningdek, aynan onglilik va ratsionallik individlarning bir-biriga nisbatan amalga oshiradigan harakatlarining asosini tashkil etadi. Lekin, individlar xulq-atvoridagi bu "egoizm" amalda ijtimoiy tartibga erishish mumkin emasligini taqazo etadi. Bu muammodan chiqib ketishning ikki yo'li bor edi: ijtimoiy tartibni individlarning ko'ngilli va ongli tarzdagi kelishuvi natijasi sifatida olib qarash, yoki individlardan tashqarida - ularni o'z harakatlarini bir-birlariga moslashtirishga majbur qiladigan "tashqi" omillarning mavjudligini tan olish.

Parsonsning sotsial harakat nazariyasi bu ikki yo'lni murosaga olib kelishi lozim edi, ya'ni individlar xulq-atvorining ongliligi va ratsionalligi rad etmagan holda ijtimoiy tartibning shart-sharoitlari va unga erishish mumkinligini ko'rsatishi lozim edi. Parsons bunday nazariyani yaratish uchun sotsial harakatga "utilitar" qarashga asoslangan mavhum muholifatni yaratishdan boshlaydi. Bu "utilitar konsepsiya"ning mazmun-mohiyati individning harakatlari uning ichki motivlariga asoslanganligi va o'ta samarali usullar bilan o'zining egoistik maqsadlariga erishishga yo'naltirilganligi to'g'risidagi tasavvurni qamrab oladi. Sotsial harakatga bunday "pragmatik" qarash - barchani barchaga qarshi qo'yish - sotsial tartibsizlikka olib keladi, kelishuv va barqarorlikka erishuv ehtimolini yo'qqa chiqaradi.

Sotsiologik nazariya mumtozlarining asarlarini ko'rib chiqib, Parsons ularda individual harakat turli xil maqsadlar va ularga erishishning turli usullaridan birining vaziyat bilan chegaralangan

ongli va ratsional tanlovi sifatida talqin etilgan, degan xulosaga keladi. Parsons vaziyatning ikki turini farqlaydi: o'zgaruvchan va o'zgarmaydigan. Birinchisi inson tomonidan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan omillarni o'z ichiga oladi, ular maqsadga erishish vositalari sifatida taqdim etilishi mumkin; ikkinchisi esa o'zgarmaydi, ya'ni harakatni aniqlaydigan shart-sharoitlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, har bir harakat ramziy darajada qayd etilishi zarur. Shunday qilib, harakat tarkib va jarayonlardan tashkil topadi, ular yordamida individ ahamiyatli ("belgilangan", ramzli tarzda taqdim etilgan) intensiyalarni shakllantiradi va konkret vaziyatlarda ulardan u yoki bu tarzda foydalanadi. Intensiya va uni qo'llash harakat tizimining vaziyatdan kelib chiqib munosabatlarni maqsadli tarzda o'zgartirishga yo'nalganligini (individual yoki jamoaviy) nazarda tutadi.

Parsons xulq-atvor tushunchasidan ko'ra, harakat tushunchasini afzal ko'radi, chunki nazariyotchi sifatida uni xulq-atvorning ko'rinishlari emas, balki xulq-atvor ko'rinishlarining barqaror yig'indisi shakllanishi jarayoni, bu jarayonni boshqaruvchi uning natijalari va mexanizmlari qiziqtirar edi.

Faoliyat – insonning dunyo va ongni maqsadli o'zgartirishi va qayta shakllantirishida namoyon bo'luvchi, maqsad, vositalar va natijadan tashkil topgan jarayon.

Xulq-atvor – sub'ekt tomonidan ma'lum bir funksiyani realizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirlashuvini taqozo etadigan, bir-biri bilan o'zaro aloqador xatti-harakatlar tizimi. Xulq-atvorda inson shaxsi, uning xarakterining, temperamentining o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari, did-farosati namoyon bo'ladi, uning predmetlarga bo'lgan munosabati ko'rinadi.

Sotsial harakat konsepsiyasi va harakatning umumqamrovli nazariyasini Parsons o'zining urushdan keyingi davrdagi ijodiy ishlarida ham davom ettiradi. Bulardan "Sotsial tizim" va "Harakatning umumqamrovli nazariyasiga" asarlarini misol qilib keltirish mumkin. U tomonidan taqdim etilgan harakatning umumiy modeli (Parsons uni «yagona (unit) harakat» deb nomlaydi) insonning har qanday harakatining umulashgan modeli sifatida tahliliy abstraksiyani namoyon etadi. Bu model o'z ichiga quyidagilarni oladi: birinchidan, harakat qiluvchi shaxs (aktor) – harakatga qilishga intilayotgan, ma'lum bir maqsadlarga ega va ularga erishish usullarini

talqin etishga qodir inson; ikkinchidan, vaziyat – harakat yo'naltirilgan va uni shartlab qo'yadigan o'zgaruvchan va o'zgarmas omillar

Vaziyat bir necha ijtimoiy, madaniy, moddiy omillardan tashkil topadi, ular harakatning mavjud bo'lishi ehtimolini belgilaydi va uni tanlash makonini chegaralaydi. Individual harakat sifatida xulq-atvor namunalari ma'lum bir belgilar tizimi bilan talqin etiladigan ongli xohish-istaklar asosida u yoki bu maqsadlarga erishish sifatida tushuntirilishi mumkin. Lekin inson harakatni amalga oshirishi uchun organizm va ramziy tizim (qayd etish tili) zarur, ularni individual darajada tushunib yetish mumkin emas.

Vaziyatni belgilab beruvchi birinchi omil – bu *biologik organizm*. Bu Parsons tomonidan alohida insonning anatomik tuzilishi sifatida emas, balki uning homo sapiens sifatida ajratib turuvchi biologik xususiyatlari yig'indisi sifatida olib qaraladi. Tabiiyki, bu xususiyatlar o'zicha mavjud bo'la olmaydi, balki har bir tur vakilining o'ziga xos va takrorlanmas moslashuvida namoyon bo'ladi. Ular insonning alohida, mavhum biologik modeli sifatida namoyon bo'ladi. Lekin individual biologik xususiyatlar konkret vaziyatda konkret individning harakatiga ta'sir o'tkazsa, u holda harakatning umumqamrovli modeli sifatida u yoki bu turning xususiyatlari olinadi. Masalan, fundamental biologik jihatdan ikki jinsga bo'linish insonning umuman barcha harakatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi bir muhim omil sifatida Parsons *madaniy tizim*larni olib qaraydi. U madaniy tizimlarni insonning gapira olish va genetik bo'lmagan holda malaka uzatish qobiliyatiga asoslangan ramziy tashkil etilgan namunalar sifatida tushunadi. Albatta, bu qobiliyatlarni insonning biologik tuzilishi belgilab beradi, lekin biologik daraja inson tomonidan yaratiladigan, foydalaniladigan va uzatiladigan o'ziga xos ramziy tizimlarning mavjudligini emas, balki faqatgina nutqning mavjud bo'lishini belgilab beradi. Parsons ta'kidlashicha, madaniy tizimlarning o'ziga xosligi shundaki, ular birgina inson tomonidan yaratilmaydi va ularni individual darajada tushunish mumkin emas. Madaniy tizimlarning asosiy namunalar (turg'un namunalar) bir necha avlodlar hayoti davomida o'zgarishi mumkin va ulardan juda ko'plab insonlar foydalanadi. Parsonsga ko'ra, yirik madaniy namunalar strukturaviy jihatdan turg'un harakatlar tizimini ta'minlaydiki, hatto bu turg'unlikni biologik turning genetik kodiga ham o'xshatish mumkin bo'ladi

Yuqorida qayd etilgan bu ikki omil harakatning umumiy tizimiga barqarorlik xususiyatini baxsh etadi va uni chegaralaydi. Ularning birgalikdagi mavjudligi yana ikki omilning paydo bo'lishini taqazo etadi. Bular: individ va sotsial tizim. Bir tomondan genetik kod bilan, boshqa tomondan esa madaniy namunalar bilan chegaralanish doirasida individ yoki guruh o'zining ulardan strukturaviy jihatdan mustaqil shaxsiy xulq-atvor tizimini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har bir individ o'ziga xos biologik organizmdir, har bir individ boshqa individlar bilan umumiy muhitning u yoki bu jihatini o'zlashtiradi. Biologik tuzilishi va atrof-muhitining o'ziga xosligi uning o'zining ham harakatning umumiy tizimida o'ziga xosligini taqazo etadi. Shunday qilib, individning (shaxsning) genetik bo'lmagan tarzda qabul qilingan xulq-atvori tizimi o'z mohiyatiga ko'ra, na biologik organizmga, va na madaniy tizimga aynan bo'lmaydi. Parsons ta'kidlashicha, shaxs «yagona harakat»ning tahliliy mustaqil omilidir.

Parsons tomonidan sotsial harakatga ta'sir ko'rsatuvchi to'rtinchi omilning ajratilishi individni o'rab turuvchi vaziyatlar qatorida moddiy yoki madaniy tizimlardan tashqari boshqa individlarning ham mavjud ekanligini taqazo etadi. Bu – sotsial tizim omilidir. U ham yuqoridagilari singari tahliliy mustaqil hisoblanadi. Uning nisbiy mutaqilligi sotsial tizimning potentsial jihatdan nizo va ixtiloflarga moyil sotsial munosabatlar integratsiyasi ehtiyojlariga javob berishi lozimligidan kelib chiqadi.

Parsons tomonidan ajratilgan bu to'rtta omil harakatga kutilmaganda ta'sir o'tkazmaydi. Ularning har biri tsukturaviy tashkillashgan va nisbatan mustaqildir. Ularning barchasi «yagona harakat»ga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlar tizimini aks ettiradi: biologik, madaniy, shaxsiy, sotsial.

Shuningdek, ularning barchasi «yagona harakat»ning rivojlanishi natijasi sifatida uning institutsionallasuvi jarayonida namoyon bo'ladi, deyish mumkin, tizimlarning har biri tizim sharoitlaridan birini qanoatlantiradi.

Demak, yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, Parsonsning sotsial harakat konsepsiyasida u o'zini o'zi tashkil etuvchi tizim sifatida olib qaralganligini ko'rish mumkin. Bunda u ikki ramziy mexanizm bilan boshqariladi, deyish mumkin: me'yoriylik (jamiyatda o'rnatilgan me'yorlarga tobelik) va mustaqillik

(muhit sharoitlariga tobe bo'lmagan). Harakat quyidagilardag tashkil topadi: konkret maqsad, konkret vositalar, konkret shart-sharoitlar hamda vosita va maqsadlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqaruvchi konkret me'yorlar. Bularni o'zaro bog'liqlikda olib qarash sotsial harakatni tizim sifatida olib qarashni taqazo etadi.

3. Parsonsning tizim konsepsiyasi tizimning umumiy nazariyasidan, xususan tizimli yondoshuvning ilk namoyandasi bo'lgan L.Bertalanfi va kibernetika asoschisi N.Vinerning asarlaridan kelib chiqadi. Tizimli yondoshuvni rivojlantirish tizimlardagi muvozanat holatini tushuntirish uchun kerak edi. Bu muammoni hal etishga ochiq tizim tushunchasini kiritish bilan erishildi. U tashqi muhit bilan ayirboshlash munosabatlariga kirishib, murakkab tartibot holatini ushlab turuvchi tizim hisoblanadi. Parsonsga ko'ra, harakatlar tizimi ochiq tizimlardir. Shuning uchun ular o'z yashovchanligini (tartibotga erishish) ta'minlash uchun to'rtta tizimga xos ehtiyojlarni yoki funksional jihatdan zarur sharoitlarni qondirishi lozim (prerekvizit – old shart): adaptatsiya, maqsadga intilish, integratsiya va latentlik. Shunday qilib, har bir tizim quyi darajada to'rt quyi tizim orqali namoyon bo'ladi. Ular esa, o'z navbatida tizimning yashovchanligini ta'minlash maqsadida unga xos to'rt ehtiyojni qondirish uchun tashkil topadi.

Buni Parsons barcha tizimlarga xos bo'lgan to'rtta funksionaning invariant jamlanmasi sifatida ifodalaydi: adaptatsiya (A), maqsadga erishish (G), integratsiya (I) va latentlik (L) yoki qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash. Bu to'rt funksiya birlashib AGIL tizimini tashkil etadi. Demak, tizim yashab qolishi uchun quyidagi to'rt funksiyani bajarishi shart:

1. *Adaptatsiya*: tizim tashqi muhitning kutilmagan vaziyatda paydo bo'ladigan talablariga javob bera olishi kerak. U tashqi muhitga moslasha olishi va muhitni o'z ehtiyojlariga moslashtirishi lozim.

2. *Maqsadga erishish*: tizim o'zining birlamchi maqsadlarini aniqlay olishi va unga erishishi shart.

3. *Integratsiya*: tizim o'z elementlarining o'zaro munosabatlarini koordinatsiyalashi zarur. U shuningdek, qolgan uch funksional imperativlarning munosabatlarini boshqarishi zarur (A, G, L).

4. *Latent funksiyasi* (qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash): tizim individlarning motivatsiyasini ham, motivatsiyani keltirib

chiqaruvchi va qo'llab-quvvatlovchi madaniy namunalarni ham oziqlantirishi, qo'llab-quvvatlashi va yangilab turishi zarur<sup>1</sup>.

Parsons AGIL sxemasini o'z nazariy tizimining barcha darajalarida foydalanish uchun yaratdi.

Institutsionallashuv jarayoni har biri o'ziga xos ehtiyojlarni qondirish funksiyasini namoyon etuvchi quyi tizimlarning tashkil topishini nazarda tutadi. Parsons o'zining asarlarida tizimli ierarxiyaning o'ziga barcha biologik organizmlarni qamrab olgan "tirik tizim"dan tortib to sotsialgacha bo'lgan darajalarini ajratadi:

1. "Tirik tizim" quyidagi quyi tizimlarga ega:

A) fizikaviy-kimyoviy tizim – tirik tizimning noorganik muhitga moslashuvi funksiyasini bajaruvchi fizikaviy va kimyoviy jarayonlardan tashkil topadi;

B) organik tizim – tirik tizimning maqsadga erishishga intilishi funksiyasini bajaradi;

D) transsendental tizim – tirik tizimning mavjud bo'lishi transsendental sharoitlarini o'z ichiga oladi va "namunaviy mavjud bo'lishni qo'llab-quvvatlash" va tirik tizim ichidagi "zo'riqishlarni yumshatish" funksiyasini bajaradi;

E) harakatlar tizimi – biz tomonimizdan «yagona harakat» sifatida qarab o'tilgan – tirik tizimning integratsiya funksiyasini bajaruvchi, shart-sharoitlar ta'siri ostida qabul qilinadigan hukmlar (ahamiyat) bilan nazoratga olingan harakat.

2. Sanab o'tilgan tizimlarning quyi tizimlari. Parsons harakat tizimining to'rt quyi tizimlarini oldingi qismda birma-bir qarab o'tilgan omillar asosida ajratadi.

To'rtta harakat tizimi bilan tanishishda o'quvchi ular real olamda mavjud emasligi, balki bu olamning tahlil qilish uchun tahlil qurollari bo'lib hisoblanishini yodda tutishi lozim.

Sotsial harakatning quyi tizimlari:

A) biologik tizim (xulq-atvor organizmi) – insonning harakatlari olamini tashkil etuvchi moddiy (instinkt va biologik ehtiyojlari) va g'oyaviy olami (me'yorlar, qadriyatlar) o'rtasida bog'lovchi zveno sifatida xizmat qiluvchi tizim (adaptatsiya);

B) shaxs tizimi («Ego») – individning motivatsion strukturasi; organizm va shaxs tizimi "bazis strukturasi"ni hosil qiladi va


<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 242.

individual ehtiyoj va dispozitsiyalar (maqsadga erishish ehtiyojlarni qondirish sifatida) yig'indisini tashkil etadi;

D) sotsial tizim – xulq-atvor namunalari yig'indisi, o'zaro sotsial harakat (interaksiya) va sotsial rollar (integratsiya);

E) madaniyat tizimi – jamiyatning barqaror funkcionallashuvi uchun zarur bo'lgan madaniy qadriyatlar va sotsial me'yorlar.

Rasmda AGIL sxemasi terminlari bilan umumlashgan holda ifodalangan harakat tizimi strukturasi taqdim etilgan.



Harakatning umumiy tizimi strukturasi<sup>1</sup>

3. Sotsial tizimning quyi tizimlari esa quyidagilar:

A) iqtisodiy tizim (adaptatsiya);

B) siyosiy tizim (maqsadga erishish);

D) sotsial hamjamiyat tizimi (integratsiya);

E) ijtimoiylashuv tizimi (qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash).

Shu tarzda davom ettirilsa, konkret sotsial hodisani izohlash mumkin bo'ladi. Parsons ham shu joyda to'xtab, ikkinchi va uchinchi darajalar bilan kifoyalangan.

Shunday qilib, «yagona harakat» o'zida institutsionallashuv davomida rivojlanib boradigan to'rt quyi tizimni birlashtiradi. Ularning har biri shu tariqa o'zining quyi tizimini yaratadi va h.k. Har bir darajaning quyi tizimlari tizimning yashovchanligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan funksional sharoitlarni qondirish uchun rivojlanadi.

Tizimli yondoshuv doirasida ochiq tizimlar nazariyasini ishlab chiqishga asoslangan yana bir g'oya sifatida Parsonsning kibernetik ierarxiya va o'zaro aloqadagi tizim va quyi tizimlarning axborot almashinuvi konsepsiyasi namoyon bo'ladi. Uning nazariyasi – ahamiyatlar – qadriyatlar, me'yorlar va h.k. kommunikatsiyasi nazariyasi ekanligi ma'lum. Ular ichida tizimlar va quyi tizimlar

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. – P. 241-242.

o'rtasidagi munosabatlar ham axborot almashinuvi sifatida, ya'ni qabul qilayotgan va uzatayotgan tizimlarda strukturaviy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi ramzlar yig'indisi sifatida olib qaraladi. Ramzlar axboroti bilan almashinuv vositasida tizim, bir tomondan integratsiyani qo'llab-quvvatlaydi, boshqa tomondan esa o'zining shaxsiy daxlsizligini ta'minlaydi, chegaralarni qo'llab-quvvatlaydi.

Keyingi o'rinda Parsons har qanday tizim katta axborot kuchiga ega bo'lgan va kamroq energiya talab etadigan quyi tizim bilan nazoratga olinishi tezisini asoslaydi; qanchalik kam energiya talab etib, ko'proq axborot kuchiga ega bo'lgan tizim tizimlar ierarxiyasida shunchalik yuqori joyni egallaydi va boshqa quyi tizimlar xulq-atvoriga ko'proq ta'sir o'tkazadi. Harakat tizimlari ichida biologik organizm eng ko'p energetik kuchga ega hisoblanadi. U harakatni amalga oshirish sharoitlarini yaratadi, va shu bilan bir vaqtda unga eng kam boshqaruv ta'sirini o'tkazadi. Eng kam energetik kuchga ega bo'lgan madaniy tizim esa, aksincha, ko'proq nazorat qilish mavqeiga ega bo'ladi. Tizimlarning bunday ierarxiyasi va ularning muvozanat holatiga intilishi qonuni real olamga o'tishga va uni natijali tashkil etishga o'tishga to'sqinlik qiladi.

Parsonsdan harakat strukturasi bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin bir-birini taqazo etmaydigan "tahliliy jihatdan farqlanuvchi" tizimlarning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning hammasi harakatga bir xil ta'sir o'tkazadi. U yoki bu tizimning ustun kelishi vaziyatga bog'liq. Har bir tizim boshqa tizimlar bilan axborot almasha turib, o'z chegaralarini ushlab turishga va integratsiyaga intiladi. Tizimlar ierarxiyasiga muvofiq, nisbatan yuqoriroq axborot darajasidagi tizim boshqalarining xulq-atvori ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Sotsial tizim konsepsiyasini qarab chiqishdan oldin Parsons tomonidan kiritilgan yana bir tushuncha – «tipik o'zgaruvchilar» tushunchasiga to'xtalib o'tish zarur bo'ladi. Avvaliga uni Parsons "sotsial tizimda rollarning turlarini tasniflash" uchun qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik "sotsial harakat va sotsial tizimlarni tahlil qilish uchun koordinatlarining asosiy nazariy tizimi" sifatida talqin etildi.

Ko'rib o'tganimizdek, harakat ongli-ratsional, maqsadga yo'naltirilgan va tanlash xususiyatiga ega. Har biri aniq bir funksiyani bajaruvchi nisbatan mustaqil bo'lgan to'rtta harakat tizimlari unga ta'sir ko'rsatadi. Lekin bunday yondoshuvda tanlov imkoniyati juda

kengayib ketadi. Parsons harakatlanuvchi insonning tanlovi doirasini toraytiruvchi koordinatlar o'qini tortadi, har bir o'q eng quyi va eng yuqori darajadagi juft o'zgaruvchilarni bildiradi. Real voqeyelikda ham u yoki bu tarafga og'ish darajasi haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Tipik o'zgaruvchilar – sotsial harakat va sotsial tizimni birlashtiruvchi tushuncha; sotsial harakat aktori duch keladigan fundamental dilemmalar.

1. Partikulyarizm — universalizm – aktorlar insonni umumiy kriteriyalar bilan (universalizm) yoki konkret insoningagina qo'llash mumkin bo'lgan unikal kriteriyalar bilan baholash kerakligini hal qilishlari lozim (partikulyarizm).

2. Affektivlik – affektiv neytrallik – aktorlar hissiyotlariga ta'sir qilmaydigan instrumental sabablar (affektiv neytrallik) yoki emotsional sabablarga (affektivlik) ko'ra ma'lum bir munosabatlarga kirishishi mumkin.

3. Diffuzlik – o'zga xoslik – individlar har qanday vaziyatda boshqa individlar bilan bir qatorda amalga oshiriladigan keng doiradagi sotsial faoliyatga kirishish (diffuzlik) yoki birgina o'ziga xos, strukturallashtirilgan maqsadlarga erishishga e'tibor qaratish orasida birini tanlashi lozim (spetsializatsiya).

4. Askripsiya (ko'rsatma berish) — muvaffaqiyatga erishish – individning ochiq va yopiq tanlovini aks ettirib, uning xatti-harakatlarini tabiat va jamiyat tomonidan berilgan sifatlariga qarab baholash kerakmi yoki yutuqlari asosida baholash lozimligini hal qilish lozim. Vaziyatga qarab me'yorlar, ehtiyojlar sifatga yoki yutuqlarga yo'naltirilishi mumkin.

5. Guruhga yo'nalish – o'ziga yo'nalish – sotsial guruh (jamiyat) oldidagi majburiyatlarni bajarish (altruistik) yoki o'z manfaatlariga qarab yo'nalish olish (egoistik)<sup>1</sup>.

Shunday qilib, «yagona harakat» harakat qiluvchi inson, vositalar, maqsadlar, jismoniy, sotsial va madaniy ob'ektlar: me'yor va qadriyatlardan iborat. Barcha harakatlarni bu tarzda abstrakt tushuntirish Parsonsning keyingi nazariyalari uchun asos bo'lab xizmat qiladi. Tizim g'oyasi individual harakatdan sotsial tizimga o'tish imkonini beradi.

<sup>1</sup> Qarang: Кравченко А.И. Социология в 2 тт. Классическая теория через призму социологического воображения. – М.: Юрайт, 2014. – С. 541-542.

4. Sotsial tizimlar – inson xulq-atvorini boshqaruvchi va uni rol va statuslar tizimiga o'zgartiruvchi qoidalar, me'yorlar, o'rnamalarning barqaror komplekslari sifatida talqin etiluvchi institutsional tizimlardir.

Sotsial tizim o'zaro bog'liq bo'lgan darajalardan tarkib topgan strukturaga ega: individ – guruh (jamoalar) – institutlar – yaxlit jamiyat. Yuqorida keltirilgan har bir darajaga o'z ierarxiya turi to'g'ri keladi: texnik, "menejerial", institutsional va sotsietal.

Sotsietal darajada sotsial tizim to'rtta quyi tizimning birlashuvi natijasi sifatida shakllanadi: iqtisodiy (adaptatsiya funksiyasi), siyosiy (maqsadga erishish funksiyasi), "sotsietal birlik" (integratsiya funksiyasi) va "fidutsiar" (latentlik funksiyasi).

Sotsietal birlik – butun bir sotsial tizimning yadrosi – yagona me'yoriy namunalar asosida tashkillashtirilgan va tartibga solingan jamoalar tizimi yoki yig'indisi, me'yorlar, qadriyatlar va me'yoriy namunalarni o'z ichiga oladi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro ayirboshlashning umumlashma vositasi sifatida pul, hokimiyat yoki qadriyatli xususiyatlar emas, balki "ta'sirlashuv" va "birdamlik" tan olinadi.

Parsons sotsial tizimlar haqida gapirar ekan, ularning har biri uchun qolgan uchtasi muhit bo'lib xizmat qilishini nazarda tutadi, ya'ni sotsial tizim uchun madaniyat, shaxs, organizm bo'lib xizmat qilsa, shaxs uchun – sotsial tizim, madaniyat, organizm, madaniyat uchun – sotsial tizim, shaxs, organizm, biologik organizm uchun – sotsial tizim, madaniyat, shaxs. Parsons bu to'rtlikda asosiy o'rinni sotsial tizimga beradi, chunki aynan sotsial tizim "harakatni real empirik tashkil etish va nazariy tahlilning mustaqil markazi" hisoblanadi.

Sotsial tizimning quyi tizimlari quyidagilar:

A) iqtisodiy tizim – sotsial tashkilot va tabiiy muhit o'rtasida bog'lovchi zveno (adaptatsiya);

B) siyosiy tizim – maqsadga erishish funksiyasini bajarib, hukm chiqarish shakllarini, maqsadlarni standartlashtirish va ularga erishish yo'lida resurslarni yo'naltirishni o'z ichiga oladi;

D) sotsietal hamjamiyat tizimi (sotsial nazorat) – integratsiya funksiyasini bajarib, sotsial nazoratning barcha institutlarini – qonunlardan tortib norasmiy qoidalargacha – o'z ichiga oladi;

E) fidutsiar tizimi (ijtimoiylashuv) – namunani qo'llab-quvvatlash funksiyasini bajarib, insonni mavjud madaniy tizimlarga jalb etadi<sup>1</sup>.

Har qanday tizimning muhim xususiyati – unda strukturaning mavjudligi. Struktura, deganda Parsons "elementlar o'rtasidagi nisbatan barqaror standartlashtirilgan munosabatlar yig'indisi"ni tushunadi.

Istalgan tizim muvozanatga intiladi, chunki u elementlarning bir-biriga moslashuviga asoslanadi; u doimo chetga og'ishlarga ta'sir ko'rsatib, ularni to'g'irlash va teng muvozanatli holatga qaytarishga harakat qiladi; tizim har qanday disfunktsiyani yengib o'tadi, uning har bir elementi esa barqarorlikni ta'minlashda u yoki bu vazifani bajaradi.

Parsonsdan qismlarning o'zaro ta'sirlashuvini tartibga solib turuvchi element sifatida struktura (doimiy harakatda bo'lgan sotsial xatti-harakatlarning harakatsiz yaxlitligi). Struktura deganda sotsial me'yor va statuslar tizimi (yoki me'yoriy tartib) tushuniladi.

Me'yoriy tartib o'z ichiga quyidagilarni oladi: sotsial tartib va sotsial me'yorlar (qonuniy status berilganligi uchun ko'pchilik insonlar tomonidan amal qilinadigan o'zgarish qoidalar).

Sotsial tartib ikki jarayonning ta'sirida yuzaga keladi.

– sotsial tizimning o'zini o'zi saqlab qolishga qaratilgan tendensiyalari;

– ma'lum bir chegaralarni va muhitga nisbatan doimiylikni saqlab qolishga qaratilgan tendensiyalar (homeostatik muvozanat).

Parsons ijodining yadrosi to'rtta harakat tizimlarida namoyon bo'ladi.

Harakat tizimlari tahlili vaqtida Parsons tomonidan qilingan taxminlarda biz tartib muammosi bilan to'qnash kelamiz. So'nggisi Parsonsning ustun keladigan qiziqishi bo'lgan va uning ijodi tanqidining muhim manbai bo'lib qolgan/

Ilk faylasuflarning hamma hammaga qarshi ijtimoiy urushiga to'sqinlik qiluvchi Gobbs tartiboti muammosiga javoblari Parsonsni qanoatlantirmas edi<sup>2</sup>. Parsons bu muammoga javobni uning fikricha,

<sup>1</sup> Qarang: Кравченко А.И. Социология в 2-е в. Классическая теория через призму социологического воображения. – М.: Юристъ, 2014. – С. 544-545.

<sup>2</sup> Tartib muammosi Parsons uchun hammasidan ham ko'p nima uchun harakat benetib yoki tuzilmali degan savol bilan bog'liq. Muvozanat masalasi Parsonsga ko'proq empirik bo'lib tuyulgan. Shunga qaramay, Parsonsning o'zi ko'pincha tartib va muvozanat muammosini birlashtirgan.

quyidagi taxminlar to'plami doirasida amal qiluvchi strukturaviy funksionalizmdan topdi:

1. Tizimlar tarkibiy qismlarning tartiblili va mustaqilligi xususiyatlariga ega.

2. Tizimlar o'zini quvvatlovchi tartib yoki muvozanatga moyillikka ega.

3. Tizim statik bo'lishi yoki tartibga solingan o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishi mumkin.

4. Tizimning bir qismi xarakteri boshqa qismlar olishi mumkin bo'lgan shaklga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

5. Tizimlar o'zining tashqi muhiti bilan chegarani ushlab turadi.

6. Taqsimot va integratsiya — berilgan tizimning muvozanat holati uchun zarur bo'lgan ikkita fundamental jarayondir.

7. Tizimlar o'zini quvvatlovchi tartibga moyil bo'lib, bu qismlarning chegarasi va butunlik bilan o'zaro munosabatlarini saqlab qolish, tashqi muhit modifikatsiyasi nazorati va tizimning ichki o'zgarishga moyilligi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi.

Bu taxminlar Parsonsni shunga olib keldiki, jamiyatning tartibga solingan tuzilmasi tahlili uning uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

Shunday qilib, u ijtimoiy o'zgarishlar masalasiga kam, hech bo'lmaganda, o'z ijodidagi balog'at davriga qadar murojaat qilardi.

"Biz, o'zgaruvchanlik tizimidagi o'zgarishlarni to o'zgaruvchilarning o'zi qismlarga bo'linishi va ifodalanishiga qadar ifodalash tejamsiz deb hisoblaymiz, shuning uchun biz alohida o'zgaruvchanlik kombinatsiyalarini o'rganishdan boshlash va bunga mustahkam asos solingandan so'nggina ushbu kombinatsiyalar o'zgarishlarini ifodalashga o'tishga qaror qildik"<sup>1</sup>.

Parsonsni uning nazariyasi statik yo'naltirilganligi uchun shu darajada tanqid qilishardiki, bundan u o'zgarishlarga ko'proq e'tibor qaratadigan bo'lib qoldi.

Aslida, biz ko'rayotganimizdek, u, oxir-oqibat, ijtimoiy evolyutsiyaga diqqat-e'tiborini jamladi. Biroq, aksariyat tahlilchilarning fikricha, xatto uning ijtimoiy o'zgarishlarga bag'ishlangan ijodi yuqori statiklik va tuzilmaviylikka moyil bo'lgan.

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill. 2010. — P. 244.

## Sotsial tizim modeli

Funksiyalar	Quy tizimlar	Sotsial institutlar	Aktorlar
Adaptatsiya	Iqtisod	Zavod, banklar	Tadbirkor-ishchi
Maqsadga erishish	Siyosat	Partiya, harakatlar	Funksioner-oddiy a'zo
Integratsiya	Sotsial nazorat	Davlat apparati	Amaldor-fuqaro
Qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash	Ijtimoiylashuv	Oila, maktab, din	O'qituvchi-o'quvchi

Strukturaviy funksionalizm:

• Sotsial voqyelikni universal jihatdan tushuntirishga qaratilgan yuqori darajada abstraktlashgan, qat'iy kodlashtirilgan nazariy qurilma;

• Sotsiologiya sotsial institutlarning funksiyalarini va jamiyat sotsial strukturasi ma'lum bir o'rin (status) egallovchi hamda ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar tomonidan belgilangan sotsial rollarni bajaruvchi individlarning sotsial harakatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi;

• Sotsial statika va sotsial dinamika, sotsial tizim va sotsial struktura o'rtasida uzviy bog'liqlik.

Strukturaviy funksionalizm jamiyat — jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nuqtai nazaridan olib qaraluvchi har qanday voqea-hodisa, muassasa yoki institut.

Jamiyatga qo'yiladigan talablar:

- jamiyat muhitga moslashgan bo'lishi shart;
- jamiyat o'z oldiga maqsadlar qo'ygan bo'lishi lozim;
- jamiyatning barcha elementlari koordinatlashgan bo'lishi lozim;
- jamiyatda qadriyatlar saqlanishi lozim.

Strukturaviy-funksional tahlil — sotsial voqea-hodisa va jarayonlarni tizim sifatida tadqiq etish prinsipi. Bunda strukturaning har bir elementi ma'lum bir funksiyani bajaradi. Sotsiologiyada funksiya — ma'lum bir sotsial institut bajaradigan rol yoki yaxlitlikka (davlatning, oilaning va h.k. jamiyatdagi funksiyasi) nisbatan amalga oshiriladigan jarayon.

5. Parsonsning sotsial tizimlari konsepsiyasini ko'zdan kechira turib, uning jamiyatni qanday tushunishi xususida to'xtalib o'tish lozim. Sotsiolog sotsial tizim va jamiyat tushunchalarini bir-biriga bog'lasa-da, ularni birlashtirmaydi. Uning fikricha, jamiyat sotsial tizimning o'ziga xos tipi hisoblanadi, ya'ni u mustaqillikka, o'z doirasida "o'z muvozanati"ga erishgan. «Jamiyat, — deb yozgan edi Parsons, — bu istalgan sotsial tizimlar universumi ichidagi shunday sotsial tizim tipiki, u o'z doirasiga nisbatan eng yuqori mustaqillikka erishadi»<sup>1</sup>.

Jamiyatning «mustaqilligi» nima? Jamiyatning uni qurshab olgan muhitga munosabati ko'zdan kechirilganda, sotsiologda bu tushuncha "ish beradi". U ko'rsatadiki, «muhitga nisbatan mustaqillik o'zaro almashuv munosabatlarining barqarorligini va o'z faoliyatini ko'zlab o'zaro almashuvni nazorat qilish qobiliyatini anglatadi». Bu ma'noda sotsiolog muhitga avvalambor jismoniy muhit sifatida qaraydi. Muhit moddiy resurslar manbai ekanligi ma'nosida jamiyat uchun adaptiv ahamiyatga ega. Bu resurslardan jamiyat ishlab chiqarish, texnologik va iqtisodiy mexanizmlar orqali foydalanadi. Jismoniy muhitning jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'lgan ikkinchi jihati ham bor. Unga muvofiq, «samarali ijtimoiy maqsadga erishish ma'lum hudud chegarasida harakatlar uzra nazoratga muhtojdir. Shuning uchun biz jamiyat mustaqilligining ikki ko'rinishi bilan ish ko'ramiz. Ular jismoniy muhit bilan munosabatlarda tegishli ravishda iqtisodiy va siyosiy faoliyatga taalluqli bo'ladi. Harbiy va politsiya faoliyatini amalga oshirish chog'ida esa, bu texnologiya va kuchdan uyushqoqlik bilan foydalanishni anglatadi».

Parsonsning umumiy harakat nazariyasi nuqtayi nazaridan, jamiyat — individlarning yig'indisi emas. Odamlarning tanalari va shaxsiyatlari sotsial tizimlarning tashqi doirasi kabi namoyon bo'ladi va shu sababli jamiyat tushunchasiga kirishi mumkin emas. Sotsial tizimning yadrosi esa, Parsonsga ko'ra, me'yoriy namunalar tizimi («strukturalangan me'yoriy tartib»)dir. Ular vositasida individlarning o'zaro hayot faoliyati tartiblashtiriladi va tashkil etiladi. Parson qarashlariga binoan, bu tizimning bosh jihatlari — odamlar o'rtasidagi

<sup>1</sup> Парсонс Т. Понятие общества: компоненты и их взаимоотношения // Американская социологическая мысль: Тексты. — М., 1996. — С. 499.

munosabatlarning tartibliliigi va ular hayotining jamoaviyligi hisoblanadi.

Jamiyat tipologiyasini esa Parsons ijtimoiy harakatlar tipologiyasiga muvofiq ko'zdan kechiradi. Ularning mezonlari bo'lib, o'zgaruvchan mohiyatlarning to'rt juftligi xizmat qiladi: universalizm — partikulyarizm, muvaffaqiyatga erishish — ko'rsatma berish, affektivlik — affektiv neytrallik, diffuzlik — o'ziga xoslik. Ilk ikki juftlik chorrahasida jamiyatning to'rt tipi paydo bo'ladi: universalistik muvaffaqiyatga erishish namunasi jamiyat, universalistik ko'rsatma berish namunasi jamiyat, partikulyaristik muvaffaqiyatga erishish namunasi jamiyat, partikulyaristik ko'rsatma berish namunasi jamiyat.

Birinchi tipga universalistik muvaffaqiyatga erishish namunasi jamiyatlar kirib, ular bu tipdagi mamlakatlardagi ko'pchilik aholining maqsadga erishishi va muvaffaqiyatga intilishi bilan ifodalanadi. Aslida, bu ikki maqsad o'z tevaragida butun jamiyatni birlashtiruvchi ijtimoiy taraqqiyotning yagona maqsadiga aylanadi. Bunday tipdagi jamiyat faoliyatining xarakteri avvalambor aniq foyda olishni ko'zlagan odamlarning instrumental (vositaviy) qadriyatlari va harakatlari bilan belgilanadi. Undagi mavjud ijtimoiy stratifikatsiya tizimi, ijtimoiy qatlamlarning bir-biriga nisbatan "joylashuvi" avvalambor ular faoliyatining natijalari, real yutuqlari va muvaffaqiyatlari bilan bog'liqdir. Instrumental qadriyatlar va harakatlar shuningdek odamlarning maqomiy va rol xususiyatlarini, ularning ko'tarilish va karera imkoniyatlarini belgilaydi. Bunday mamlakat namunasi sifatida Parsons, avvalo, AQSh ni hisoblashini payqash qiyin emas.

Ikkinchi tip universalistik ko'rsatma berish namunasi jamiyatlarni qamrab oladi. Bunday jamiyatlar tegishli mamlakatlarning totalitar va avtoritar rejimlarni o'rnatishga intilishi bilan ifodalanadi. Bu rejimlar aholiga barcha hayot faoliyati sohalarida me'yorlar va qadriyatlarni buyuradi (ko'rsatadi) va qattiq ijtimoiy nazorat tizimiga asoslanadi. Bu tipdagi jamiyatning maqomiy-rol xususiyatlari shaxsiy xizmatlar va muvaffaqiyatlarni e'tirof etishga emas, balki ayrim odamlarning o'z jamoalari bilan olib borgan faoliyati natijalarini bir-biriga bog'lashga asoslanadi. Buning oqibatida qattiq ijtimoiy va g'oyaviy dixotomiya, ya'ni, "biz bilan birga bo'lganlar" va "bizga qarshi bo'lganlar" ga bo'linish kelib

chiqadi. Odamlarni biror guruhga kiritish birmuncha ixtiyoriy xususiyatga ega bo'lishi mumkin, bu esa bunday tipdagi jamiyatlarda huquqiy va ma'naviy me'yorlar tizimini muntazam buzish va hatto noto'g'ri talqin etish ehtimolini nazarda tutadi. Parsons uchun bu tipdagi jamiyatlarga taalluqli mamlakatlarga eng yorqin namunalar – Sovet Ittifoqi va fashistlar Germaniyasi bo'lib, olim ularni ko'p jihatlardan bir qatorga qo'yardi.

Partikulyaristik muvaffaqiyatga erishish namunasidagi jamiyatlar uchinchi tipga kiradi. Agar o'tgan ikki tipdagi jamiyatlarda maqsadga erishishlar (birinchi holda) va ko'rsatmalar (ikkinchi holda) umumiy, universal xususiyatga ega bo'lsa, uchinchi tipdagi mamlakatlarda hayotning qandaydir cheklangan sohalarida erishilgan yutuqlar haqida gapirish o'rinlidir. Shuningdek, bu iqtisodiyoti monokultura xususiyatiga ega bo'lgan jamiyatlar ham bo'lishi mumkin. Bunday tipdagi jamiyatga tarixiy misol qilib, sotsiolog qadimgi Xitoyni keltirgan edi. Bu mamlakatda oilaviy va jamoaviy aloqalar butun mamlakat hayoti uchun muhim ahamiyatga ega edi, chunki ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning butun strukturasi va ierarxiasiga singib ketgan edi (imperator hokimiyatiga qadar). Shuningdek, ayrim odamlarning muayyan faoliyat turlarida yutuq va muvaffaqiyatga erishish istagini hisobga olmagan munosabatlarning qat'iy subordinatsiyasi hukm surgan edi.

Nihoyat, Parsons partikulyaristik ko'rsatma berish namunasidagi jamiyatlarni to'rtinchi tipga kiritgan. Bu tipdagi mamlakatlarda odamlar yutuqlarni rejalamaydi, ko'rsatmalar esa cheklangan xususiyatga ega. Aholisi esa mehnatga nisbatan sust va hatto salbiy munosabatda. Turmush tarzi an'alarining uzoq saqlanishi va hatto konservatsiyasi sotsial strukturaning yetarli ifodalanmasligiga va uning sekin-asta, noizchil o'zgarishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda, sotsiolog fikricha, hokimiyatni tortib olish va alohida rejimlar diktaturasini o'rnatish mumkin. Ular keng ijtimoiy negizga va aholining ommaviy qo'llab-quvvatlashiga ega emasligi va buning ustiga, o'z mohiyatiga ko'ra poraxo'rlikka berilgani sababli, qisqa vaqt o'tgach boshqa o'xshash diktatorlik rejimlari ularning o'rnini egallashi mumkin. Bunday tipdagi jamiyatlarga xos misol tariqasida, Parsons Lotin Amerikasi mamlakatlarini keltiradi.

Parsons tomonidan taklif etilgan, juft holdagi "tipik o'zgaruvchilari"ni (universalizm — partikulyarizm, maqsadga erishish

— ko'rsatma berish) qo'llashga asoslangan jamiyatlar tasnifi ancha keng va mavhum tusga ega. Shu bilan birga, u bir qator mamlakatlar uchun xos bo'lgan ba'zi umumiy, o'ziga xos yashash va rivojlanish tamoyillarini tushunishga imkon beradi. Bu tamoyillar ularning ham iqtisodiy, ham siyosiy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Parsons nazariy mulohazalarining murakkabligiga qaramay, ularda sotsiologiyaning bosh vazifasi — jamiyatning sotsial tizim sifatida barqarorligini ta'minlay oladigan strukturalar va mexanizmlarni o'rganish yotadi. Jamiyat to'rtta o'zaro bog'langan asosiy elementlar strukturasi: qadriyatlar, me'yorlar, rollar va jamoaviy tashkilotlar sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlarni Parsons ijtimoiy va madaniy tizimlarning bosh bog'lovchi elementi sifatida ko'zdan kechiradi. Me'yorlarni esa, qadriyatlardan farqli ravishda, asosan sotsial tizimelementlari sifatida ta'riflaydi. Rollar shaxsni jamiyat bilan bog'laydigan element bo'lib xizmat qiladi, jamoaviy tashkilot esa ichki sotsial strukturani mustahkamlaydi.

Bu elementlarning har birini, Parsons konsepsiyasiga ko'ra, asosiy funksional kategoriyalar bilan solishtirish mumkin. Masalan, me'yorlar, asosan, integratsiya funksiyasini bajaradi, qadriyatlar sotsial tizimfaoliyati namunalarini saqlaydi, jamoaviy tashkilotlar bu tizim manfaati yo'lida maqsadlarga chindan-da erishish bilan bog'langan, rollar esa shaxs adaptatsiyasi samaradorligiga yo'naltirilgan.

Strukturaviy funksional tahlilda uning birinchi qismi — strukturaviylikka urg'u berib, (ikkinchi qismni, ya'ni sotsial tizim funksiyalarining ahamiyatini ta'kidlagan Mertondan farqli o'laroq), Parsons strukturaning sotsial tizimlarga nisbatan barqarorligini isbotlashga e'tibor qaratgan edi. Tizimning struktura bilan o'zaro bog'langan holdagi barqarorligi tushunchasiga ta'rif berib, Parsons shunday yozgan: «Agar tizim strukturasi va uning ichida yuz beradigan jarayonlar, u va uning doirasi o'rtasidagi nisbat, biz struktura deb atagan xususiyatlar va munosabatlar o'zgarimas bo'lsa, u holda tizim barqaror va nisbatan muvozanatda bo'ladi»<sup>1</sup>.

Strukturaviy funksional tahlil tizimning barqarorligini asoslash vazifasini hal etishga qaratilgan edi. Unga ko'ra, jamiyat va uning kichik tizimlari muayyan funksiyalarni bajarishlari nuqtai nazaridan

<sup>1</sup> Парсонс Т. Система координат действия и общая теория систем действия: культура, личность и много культурных систем // Американская социологическая мысль. Тексты. — М., 1996. — С. 464.

o'z strukturalari orqali ko'zdan kechiriladi. Bunda sotsial hodisalar tahlilining strukturaviy va funksional jihatlari turlicha birikuvda uchraydi. Strukturaviy yondashuvda ob'ekt bir qator o'zaro bog'langan elementlarga differentsiyalash orqali muhokama etiladi, funksional yondashuvda esa, umuman, elementlar o'rtasidagi aloqalar aniqlanadi.

1960-yillarda shu narsa ayon bo'ldiki, ijtimoiy jarayonlar Parsons kabi tahlil etilgudek bo'lsa, ziddiyatlar, beqarorlashuv, nizolar, ko'p anomal hodisalarni tushuntirish qiyin bo'lar ekan. Shu bois, strukturaviy-funksional tahlilni chuqurlashtirish zaruriyati tug'ildi. Merton bu ishni disfunktsiyalar (noqulay oqibatlar), yaqqol va latent funktsiyalar (anglanadigan va anglanmaydigan oqibatlar) tushunchalarini keng qo'llash hisobiga bajardi. Parsons esa o'z konsepsiyasini kuchaytirishning boshqa yo'llarini izladi.

6. Shu tarzda Parsonsning neoevolutsionizmi vujudga keldi, u jamiyatning strukturaviy differentsiyasi tahlili bilan bog'liq edi. Evolyutsion xarakteristika nuqtai nazaridan, u bosqichma-bosqich – jamiyatning primitiv holatidan (birinchi bosqich) zamonaviy holatiga (uchinchi bosqich) tomonga qarab sotsial strukturaning murakkablashuvini anglatar edi. Bu esa jamiyat va uning kichik tizimlari barqarorligini zaiflashtirardi. Agar primitiv jamiyatda differentsiyasi mavjud bo'lmasa, oraliq tipdagi jamiyatda u asta-sekin o'zini namoyon etishni boshlab, zamonaviy jamiyatda o'zini ro'y-rost ko'rsatadi. «Ibtidoiy jamiyatdan oraliq jamiyatga o'tish chog'ida, — yozgan edi Parsons, avvalambor, madaniy tizimning bir qismi bo'lmish til muhim rol o'ynaydi. Oraliq jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish chog'ida esa, sotsial strukturaga xos bo'lgan va u bilan huquq tizimi orqali bog'langan me'yoriy tartibdagi kodlarning institutsionallashuvi xuddi shunday rolni o'ynaydi»<sup>1</sup>.

Ibtidoiy jamiyatdan oraliq jamiyatga o'tish chog'ida yozuv muhim o'rin egallaydi, chunki u «madaniy tizimning jamiyatning yanada o'tkinchi ehtiyojlaridan mustaqil bo'lishiga yordamlashadi»; qonun esa, zamonaviy jamiyatga o'tish chog'ida zarur darajaga qadar rivojlangach, «sotsial struktura me'yoriy komponentlarining siyosiy va iqtisodiy manfaatlar majburiyatidan ozod bo'lishiga yordamlashadi»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Qiziq: Система вознаграждения действия и общая теория систем действия. Функциональная теория институтов. Понятие общества // Американская социологическая мысль. — М., 1996. — 462-523.

<sup>2</sup> O'zini yozib.

Parsons zamonaviy jamiyatning evolyutsiyasiga alohida e'tibor ajratadi, u kengayish va bir bosqichdan boshqasiga o'tish jarayonida inqiloblarning izchil almashinuvini boshidan kechiradi. Albatta, bu yerda gap ijtimoiy inqilobni Markscha tushunishda emas. Parsons zamonaviy jamiyatning uch inqilobi — sanoat, demokratiya va ta'lim inqiloblari haqida so'z yuritmoqda. Sanoat inqilobi jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimlarini bir-biridan "ajratadi", differentsiyalaydi. Demokratik inqilob esa siyosiy va sotsial tizimlarni ajratadi. Ta'lim inqilobi esa madaniyatni sotsial tizimdan ajralgan holda tiklashni ko'zlaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida evolyutsiya va inqilob nisbati muammosini nazariy jihatdan ilgari surish o'ziga e'tibor qaratadi. Nazariy sotsiologiyada Parsons bunday muammoga nafaqat e'tibor bergan, balki evolyutsiya va inqilobning haqiqiy bir-biriga ta'sir etish mexanizmlarini ochib bergan va ularni qanday o'rganish mumkinligini ko'rsata olgan Parsonslardan biri edi.

Sanoat inqilobini u fabrika ishlab chiqarishi tizimining, bozor va kredit-moliya munosabatlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'laydi. Aynan ular sotsial strukturaning differentsiyasiga, yangi professional rollarning paydo bo'lishiga, millatlarning vujudga kelishiga olib keldi. Sanoat inqilobi negizida demokratik inqilob amalga oshirildi, u esa, inson erkinligi, jamiyatning mansabdor shaxslar ustidan nazorati (saylovlar mexanizmi) sezilarli o'sishini, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning paydo bo'lishini anglatdi. Nihoyat, ikkala inqilob (sanoat va demokratik inqiloblar) har bir odamga ma'lumotli bo'lish borasida teng imkoniyatlarni taqdim etgan ta'lim inqilobiga olib keldi. Parsonsga ko'ra, bu inqilob natijasida ijtimoiy tabaqalanish negizi o'zgardi, chunki endilikda boylik va hokimiyat emas, balki qobiliyatlar, bilim, ma'lumot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan edi. Xronologiya nuqtai nazaridan, sanoat inqilobi kapitalizm taraqqiyotining boshlang'ich bosqichini, uning tug'ilishi va shakllanishini, demokratik inqilob esa — rivojlangan kapitalizm bosqichini qamrab oldi; ta'lim inqilobi esa, Parsons fikricha, XX asrning ikkinchi yarmi uchun xos bo'lib qoldi.

Parsons hayotligidayoq uning butun sotsiologik konsepsiyasi — buni strukturaviy funksionalizm paradigmasi deb ataymiz — o'zining konservativligi, jamiyatdagi ziddiyatlar va tangliklarni tahlil etishdan

qochishi tufayli, bir necha bor tanqidga uchradi. Ammo, keng tizimli orientatsiyasi bilan ajralib turuvchi strukturaviy funksionalizmning o'ziga xosligi ana shundadir. U Parsons shunday fikr yuritganligi uchun emas, balki o'z tabiatiga ko'ra, ya'ni, konseptual jihatdan konservativdir. Uni yanada rivojlantirish va ba'zi qarashlarni o'zgartirish yo'lida qanday urinishlar qilinmasin, u ijtimoiy hamjihatlikni hamda jamiyatdagi tartib va birlikka intilishni ta'kidlovchi konsepsiya bo'lib qolaveradi.

#### Mavzuni mustabkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. T.Parsons hayoti va ijodining asosiy xususiyatlarini izohlang.
2. T.Parsonsning sotsial harakat nazariyasini tushuntiring.
3. T.Parsonsning sotsial tizim to'g'risidagi konsepsiyasini tushuntiring.
4. T.Parsons ijodida strukturaviy funksionalistik yondoshuvni asoslang.
5. T.Parsons sotsial tizimlarning yashovchanligini ta'minlovchi qanday shart-sharoitlarni ajratgan?
6. T.Parsonsning jamiyat va uning turlari to'g'risidagi qarashlari nimalardan iborat?
7. T.Parsonsning sotsial evolyutsiya to'g'risidagi qarashlarini tushuntiring.

#### GLOSSARIY

**AGIL sxemasi – схема АГІЛІ – scheme AGIL** – Parsonsga ko'ra, barcha sotsial tizimlarning muvozanati, yashovchanligi va samaradorligini ta'minlovchi to'rtta funksiyasining invariant jamlanmasi mavjud: adaptatsiya (A), maqsadga erishish (G), integratsiya (I) va latentlik (L) yoki qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash.

**Adaptatsiya – адаптация – adaptation** – Parsonsga ko'ra, sotsial tizimning muvozanati, yashovchanligi va samaradorligini ta'minlovchi to'rtta funksional shart-sharoitlardan biri, tizimning tashqi muhitning kutilmagan vaziyatda paydo bo'ladigan talablariga javob bera olishi, tashqi muhitga moslasha olishi va muhitni o'z ehtiyojlariga moslashtirishi funksiyasi.

**Aktor – актор – actor** – Parsonsga ko'ra, harakat qiluvchi shaxs, motivatsiya, kutinma, qadriyat va me'yorlarni namoyon etuvchi sotsial harakat jarayoni sub'ekti.

**Fidutsiar (quyi) tizim – фидуциарная (под)система – fiduciary (sub)system** – Parsonsga ko'ra, qadriyatlarni umumlashtirish (oila, o'quv muassasalari) institutlari bo'lib, ularning asosiy funksiyasi – jamiyatda madaniy namunalarni qo'llab-quvvatlash va qayta ishlab chiqarishdan iborat (ijtimoiylashuv).

**Integratsiya – интеграция – integration** – Parsonsga ko'ra, sotsial tizimning muvozanati, yashovchanligi va samaradorligini ta'minlovchi to'rtta funksional shart-sharoitlardan biri, uning o'z elementlari o'zaro munosabatlarini koordinatsiyalashi funksiyasi. Bunda u qolgan uch funksional imperativlarning munosabatlarini boshqarishi zarur (A, G, L).

**Latent funksiyasi (qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash) – латентная функция (воспроизводство образца) – latency** – Parsonsga ko'ra, tizimning individlarning motivatsiyasini ham, motivatsiyani keltirib chiqaruvchi va qo'llab-quvvatlovchi madaniy namunalarni ham oziqlantirishi, qo'llab-quvvatlashi va yangilab turishi funksiyasi.

**Madaniyat (quyi) tizimi – культурная (под)система – cultural (sub)system** – Parsonsga ko'ra, agentlarni ularni harakatga yo'naltiruvchi me'yor va qadriyatlar bilan qurollantirib, qadriyat modelini qo'llab-quvvatlash funksiyasini bajaradi.

**Maqsadga erishish – seledostijenie – goal attainment** – Parsonsga ko'ra, sotsial tizimning muvozanati, yashovchanligi va samaradorligini ta'minlovchi to'rtta funksional shart-sharoitlardan biri, tizimning o'z birlamchi maqsadlarini aniqlay olishi va unga erishishi funksiyasi.

**Sotsial (quyi) tizim – культурная (под)система – social (sub)system** – Parsonsga ko'ra, tizim elementlarini nazoratga olib, status va rollar orqali individlarning o'zaro aloqalarini ta'minlab, integratsiya funksiyasini bajaradi.

**Sotsietal hamjamiyat – социетальное сообщество – societal community** – Parsonsga ko'ra, aniq bir me'yorlarga ega jamoalar (davlat organlari, huquqiy institutlar va h.k.) bo'lib, individlarning xulq-atvorlarini tartibga soladi (sotsial nazorat).

**Xulq-atvor organizmi** – поведенческий организм – behavioral organism – Parsonsga ko'ra, moslasha turib va tashqi olamni o'zgartirib adaptatsiya funksiyasini bajaruvchi harakat tizimidir.

**Shaxs (quyi) tizimi** – личностная (под)система – personality (sub)system – Parsonsga ko'ra, tizimiy maqsadlarni aniqlab va resurslardan ularga erishish yo'lida foydalangan holda maqsadga erishish funksiyasini bajaradi.

**Yagona harakat** – единичный акт (элементарное действие) – unit act – Parsonsga ko'ra, to'rtta komponentdan iborat tizim: aktyor – harakat qiluvchi organizm; aktyorning harakati yo'naltirilgan maqsadning mavjudligi, narsalarning kelajakdagi taxminiy holati; harakat amalga oshayotgan vaziyat holati; me'yoriy yo'nalishning (orientatsiya) mavjudligi, ya'ni xulq-atvor standartlarining o'zlashtirilganligi.

**O'zini o'zi ta'minlash** – самодостаточность – self-sufficiency / self-maintenance – Parsonsga ko'ar, murakkab sotsial tizimga xos xususiyat bo'lib, nafaqat uning ichki jarayonlarini, balki boshqa tizimlar bilan o'zaro munosabatlarini ham nazorat qila olish imkoniyatini anglatadi.

## R. MERTON VA UNING STRUKTURAVIY FUNKSIONALIZMI

### Reja:

1. Robert Merton hayoti va ijodi
2. Merton ta'limotida strukturalizm va funksionalizm
3. O'rta darajadagi nazariya
4. Sotsial anomiya nazariyasi
5. Strukturaviy funksionalizm tanqidi

“Strukturaviy funksionalizm” tushunchasi XX asrda paydo bo'lgan, nazariy paradigma sifatida esa uning 2-yarmida shakllangan bo'lsa ham, bu tushunchaning ildizlari sotsiologik nazariya asoschilari O.Kont, G.Spenser va E.Dyurkgeym nomi bilan bog'liq. Masala shundaki, strukturaviy funksionalizm jamiyat haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, sotsiologiyaning shakllanishi va mustaqil fan sifatida aniqlanishi bilan chambarchas bog'liq. Ular jamiyatni bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bir-birini o'zaro taqazo etadigan qismlardan tarkib topgan ob'ektiv voqeyelik sifatida olib qaraydi, uning rivojlanishi va funkcionallashuvi faqatgina “ichkari”dan tushuntirilishi mumkin. Strukturaviy funksionalizm usuli mumtoz sotsiologiyaning tarixiy-qiyosiy usuli hisoblanadi.

Shu sababli, bu yondoshuvning tarafdorlari ham unga gohida nazariya sifatida emas, balki sotsiologik muammolar yechimi uchun zarur, lekin ularning barchasini yechishga qodir bo'lmagan tahlil usuli sifatida qarashni afzal biladilar. Ushbu paradigmanning yorqin vakili R.Merton haqida T.Parsons shunday yozgan edi: “U ayniqsa o'zining yondoshuviga “izm” qo'shib ishlatishni yoqtirmasdi va uni oddiy “funktional tahlil” tushunchasini ishlatish qulayroq, deb hisoblardi”.<sup>1</sup>

Biroq, shunga qaramay, strukturaviy funksionalizm tarafdorlari va ayniqsa uning raqiblari tomonidan o'z an'ana va tahlil yo'nalishiga ega yagona nazariy paradigma sifatida qabul qilindi. Biz quyida ushbu paradigmanning yirik vakili R.Mertonning konsepsiyasini ko'rib chiqamiz. U strukturaviy funksional yondoshuvni shakllantirishga

<sup>1</sup> Parsons T. Structural-Functional Analysis in Sociology // The Idea of Social Structure. — N.Y.: Harcourt, Brace, Jovanovich, 1972. — P. 67.

ulkan hissa qo'shdi, uning ilmiy va metodologik imkoniyatlarini isbotlab berdi.

R.Mertonni XX asr sotsiologiyasida strukturaviy funksionalizmning eng yorqin vakili, desak ham bo'ladi. Uning ulkan zakovati, sotsiologiya mumtozlarining ishlarini chuqur bilganligi va o'zining noyob tadqiqotchiligi XX asr 60-70- yillarda funksional tahlil paradigmasini keskin tanqid ostiga olingan sharoitida himoyalashga yordam berdi. U funksionalizmni jamiyatning ob'ektivligini isbotlovchi nazariy qarashlarning asosiy shakli sifatida olib qarar edi. Va shu ma'noda, funksionalizm sotsiologiyaga mustaqil fan sifatida eng qulay asosiy, hatto yagona deyish mumkin bo'lgan tafakkur tarzi hisoblanadi.

Robert King Merton (Meyer R. Schkolnick) 1910-yil 4-iyulda Filadelfiyada Rossiyalik yahudiy ishchi emigrantlar oilasida dunyoga kelgan. U 1927-1931-yillarda Tempelsk Universitetida, 1931-1936-yillarda esa Garvardda tahsil oladi. O'sha davrda sotsiologiya fakultetining dekani Pitirim Sorokin edi va ushbu fakultetda T.Parsons ham faoliyat yuritgan. Aynan Garvard Universitetida Robert Merton doktorlik dissertatsiyasini yozish uchun stipendiya olib, 1936-yilda "XVII asrda Angliyada fan, texnika va jamiyat" mavzusidagi dissertatsiya ishini yoqladi, va 1938 yilda ushbu dissertatsiya ishi alohida kitob shaklida nashr etildi. Ushbu asar M.Veber qarashlarining Mertonga kuchli ta'siri bo'lganligini ko'rsatadi.

Robert Merton dissertatsiya ishini yoqlayotgan bir paytda Pitirim Sorokin, Talkott Parsons, Karl Simmerman, Jorj Sartonlar dissertatsiya qo'mitasining a'zolari bo'lishgan.

Garvard universitetida uch yil (u yerda uning o'qituvchilari II.Sorokin va T.Parsons edi) va Tulan universitetida (Nyu-Orlean shtati) ikki yil o'qigach, 1941-yildan Nyu-Yorkdagi Kolumbiya Universitetida dars bera boshlaydi. 1979-yilgacha u Kolumbiya Universitetining professori sifatida faoliyat yuritadi.

Kolumbiya universitetida ishlay turib, R.Merton P.Lazarsfeld bilan birgalikda Amaliy tadqiqotlar byurosining asoschisi va direktori bo'ldi. 1930-yillarning oxiri - 1940-yillarda u ommaviy axborot vositalari, shaxslararo munosabatlar, fan sotsiologiyasi, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi, tibbiyot sotsiologiyasi va hokazolarni o'rganish sohasida aniq tadqiqotlarni o'tkazishda faol ishtirok etdi. Masalan,

Garvard universitetida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagach, chetga og'uvchi xulq-atvor nazariyasini ishlab chiqdi.

Do'sti Lazarsfeld bilan ko'pgina empirik tadqiqotlarda ishtirok etishi esa, kelgusida nazariy va empirik izlanishlarni birlashtirish zaruriyatini anglashda muhim o'rin tutdi. Agar Lazarsfeldning roli Mertonni aniq loyihalarni amalga oshirishga jalb etishdan iborat bo'lsa, Merton esa o'z do'sti va hamkasbini sotsiologiya nazariyalarini tuzish vositasi sifatida aniq sotsiologik tadqiqot usullarini ishlab chiqishga undadi.

1957-yildan Amerika Sotsiologiya Assotsiatsiyasining prezidenti lavozimida ishlaydi. 1968-yilda u Milliy fanlar akademiyasining a'zosiga aylandi. 1971-1979-yillarda J.S.Gugenxeym jamg'armasining Ta'lim bo'yicha maslahat kengashining raisi bo'ldi. Jahon bo'yicha turli xil mamlakatlar tomonidan 21 ta faxrli darajalar bilan taqdirlangan.

R.Merton bir so'z bilan aytganda, XX asrning klassik sotsiologlaridan hisoblanadi. Uning davrida u bilan tenglashtirish mumkin bo'lgan atigi ikkita sotsiolog T.Parsons hamda I.Goffman bo'lgan.

R.Merton 2003-yilning 23-fevralida Nyu-Yorkda 92 yoshida vafot etgan.

R.Merton o'ndan ortiq kitoblar muallifi, xuddi shuncha kitoblarga muharrilik qilgan.

Asosiy asarlari:

"Sotsial nazariya va sotsial struktura"(1949);

«Daholar merosi» (1965);

"Nazariy sotsiologiya haqida" (1967);

«Sotsial nazariya va funksional tahlil» (1969);

"Fan sotsiologiyasi"(1973);

"Sotsial ambivalentlik"(1976);

«Sifatiy va miqdoriy sotsiologik tadqiqotlar» (R.Merton P.F.Lazarsfeld ijodiga bag'ishlangan ushbu kitobning muharriri bo'lgan).

Uning ishlari umumiy sotsiologiya nazariyasi, fan sotsiologiyasi, chetga og'uvchi xulq-atvor sotsiologiyasi, kasblar sotsiologiyasi va boshqa sohalarni qamrab oladi. Merton tahriri ostidagi jamoaviy fundamental asar hisoblangan «Sotsial nazariya va sotsial struktura»da (1949) umumiy sotsiologiya nazariyasi va empirik tadqiqotlar

o'rtasidagi o'zaro aloqa muammosi muhokama etilgan bo'lib, unda o'rta darajadagi nazariyalarining shakllari belgilangan, shuningdek ilk marotaba yaqqol va latent funksiyalar va disfunktsiyalar tushunchalari ishlab chiqilgan.

R.Merton 1942-yildayoq sotsial institutlar ichida fanning o'ziga yarasha qirralarini ochib berishga intildi. Fan me'yorlarini identifikatsiyalashtirib, "fan etosi"ni («universalizm», «jamoaviylik», «beg'arazlik» va «uyushgan skeptitsizm») yoritib berishga harakat qildi. Bu konsepsiya keyinchalik keng tarqaldi.

Umuman olganda, asosan "XVII asrda Angliyada fan, texnika va jamiyat" va "Fan sotsiologiyasi" kabi asarlari Mertonni dunyoviy mashhurlikka yetakladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

R.Merton qarashlariga ta'sir ko'rsatgan olimlar, shuningdek, ijodi bosqichlari haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun uning avtobiografisidan parcha keltirishni lozim, deb topdik:

Querda bo'lishidan qat'iy nazar, menga yaqin bo'lgan, menga hammadan ko'p narsa bergan asosiy ustozlarimni belgilash juda oddiydir. Mening aspiranturadagi o'qish davrimda bular: meni yevropacha sotsiologik fikrga keng tarzda yo'naltirgan va men u bilan, o'sha vaqtning boshqa talabalaridan farqli o'laroq, garchi u 1930-yillarning oxiridan buyon izdosh bo'lib kelayotgan tadqiqotlarning bu yo'nalishida ishlay olmagan bo'lsam ham, hych qachon aloqalarni uzmagani P.A.Sorokin; o'sha vaqtda deyarli yosh bo'lgan, ilk bor o'zining «Sotsial harakat strukturasi» magistrlik dissertatsiyasida ancha to'liq ifodalangan g'oyalarni yoygan Talkott Parsons; bioximik va qisman sotsiolog bo'lgan, menga dastlab shunchaki qiziq fikr, deb ta'riflangan narsaning intizomli tadqiqotini qaysidir darajada o'rgatgan L.J.Genderson; iqtisodiyot tarixchisi, menga arxiv manbalari bo'yicha tiklanadigan iqtisodiy taraqqiyot tadqiqotini o'rgatgan E.F.Gey; va eng muhimi, o'sha vaqtdagi tarix fakulteti dekani, menga bir necha yillar davomida o'z rahbarligi ostida uning Garvarddagi mashhur (muqaddas deb aytmalik uchun) Vaydner kutubxonasida ishlash imkonini yaratgan Jorj Sarton bo'lishgan. Men bevosita bilim olgan ushbu ustozlardan tashqari, ikkita sotsiologdan hammadan ham ko'p narsalarni bilib oldim: avvalambor, meni faqat o'zlaridan qolgan kuchli ishlari yordamida o'qitgan Emil Dyurkgeym va Georg Zimmel; shuningdek sotsiologiyaga zehni o'tkir bo'lgan gumanist Gilbert Marrey. Hayotimning yaqin davrida men o'z

hamkasbim Pol F.Lazarsfelddan ko'p narsalarni bilib oldim, bizning asrning uchdan bir qismidan ortiq vaqt davom etgan hisobsiz suhbatlarimiz va hamkorligimiz davomida qanchalik ko'p narsa o'rgatganligini u tasavvur ham qila olmasligi mumkin.

O'zimning ko'p yillik ishimga nazar tashlasam, men u yerda o'zim faraz qilganimdan ham ortiq bama'nilikni ko'raman. Gap shundaki, o'qishning aspirantlik yillaridan keyingi shaxsiy ishimning boshidanoq men oldindan belgilangan hayotiy rejaga amal qilib emas, balki ularning rivojlanishi darajasida o'z zakovatli qiziqishlarim izidan borishga qat'iy qaror qildim. Men yaqindagi ustozim Sarton kabi emas, balki uzoqdagi ustozim Dyurkgeym kabi yo'l tutishga qaror qildim. Dyurkgeym ko'p marotaba o'z tadqiqotlari predmetini o'zgartirgan. Ijtimoiy mehnat taqsimotini o'rganishdan boshlab, u sotsiologik tadqiqot usullarini ko'rib chiqqan, so'ngra, uning nazarida jamiyatdagi hayotning turli jihatlari bilan shug'ullanib, samarali ravishda rivojlantirish mumkin bo'lgan nazariy yo'nalishni ishlab chiqishni davom ettirgan holda muvaffaqiyat bilan O'z joniga qasd qilish, din, axloqiy tarbiya va sotsializmga aloqador bo'lmagan predmetlarga murojaat qilgan. Sarton esa umuman boshqacha ish tutgan: o'z ilmiy martabasining boshlarida u o'zining besh jildli monumental «Fan tarixiga kirish [sic]» (XIV asrning oxirigacha bo'lgan tarixni kuzatgan) asarida to'laqonli aksini topgan fan tarixidagi tadqiqot dasturini ishlab chiqqan.

Birinchi misol menga ko'proq qulay tuyuldi. Men sotsiologik nazariya va sotsial strukturalar hamda bizga nega sotsial institutlar va jamiyatdagi hayot xarakteri aynan shunday ekanligini tushunishga yordam beradigan madaniy o'zgarishlarni kuchaytirishni niyat qilganman va hozirga qadar shuning istagidaman. Nazariy sotsiologiyaga bo'lgan bu qiziqish sotsiologiya va boshqa rivojlanayotgan fanlarda keng tarqalgan holat bo'lib qolgan (va, nazarimda, ko'p jihatdan to'g'ri kelgan) predmetli ixtisoslashtirishdan qochishimga yordam bergan. Mening maqsadlarim uchun turli sotsiologik fanlarni o'rganish muhim edi.

Bu predmetli xilma-xillikda faqat bitta maxsus soha — fan sotsiologiyasi — o'jarlik bilan mening qiziqishimni o'ziga jalb qilgan. 1930-yillarda men deyarli to'liq ravishda o'zimni fan va texnologiya taraqqiyotining, ayniqsa Angliyada XVII asrdagi, ijtimoiy sharoitlarini o'rganishga bag'ishladim va diqqatimni maqsadga yo'naltirilgan

ijtimoiy harakatning kutilmagan oqibatlariga jamladim. Nazariy qiziqishlarim kengayishiga qarab, 1940-yillarda va keyinroq men nonkonformistik va deviant xulqning ijtimoiy manbalari, zamonaviy murakkab jamiyatda byurokratiya, ommaviy e'tiqod, kommunikatsiyaning amal qilishi, shuningdek intellektualning byurokratiya ichidagi va undan tashqaridagi rolini o'rganishga murojaat qildim. 1950-yillarda men sotsiologik nazariya va sotsial strukturaning asosiy birliklarini ishlab chiqishga berilib ketdim: roli va maqomli to'plam va roli andazalar odamlar tomonidan nafaqat musobaqa uchun, balki o'ziga baho berish asosi deb qabul qilinadigan qadriyatlar sifatida ham tanlanadi (so'nggi holatda «referent guruhlar nazariyasi» ko'zda tutilmoqda). Bundan tashqari, Iorj Rider va Patrisiya Kendallar bilan birgalikda men, asosiy maqsadimdan tashqari, shifokorlarning turli tiplari bitta va o'sha tibbiyot maktablarida sotsializatsiya jarayonidan o'tishini aniqlash maqsadida o'zimning ilk yirik ko'lamli tibbiy ta'limning sotsiologik tadqiqotini boshladim, va holanki bu professional faoliyat turi sifatida mutaxassisliklarning ajralib turuvchi xususiyatlari bilan bog'liq. 1960- va 1970-yillarda men fanning sotsial strukturalari va uning kognitiv struktura bilan o'zaro munosabatini jadal ravishda o'rganishga qaytdim, zero bu ikki o'n yillik fan sotsiologiyasi, nihoyat, o'tmish faqat uning debochasi bo'lgan yetuklik davriga yetgan davr bo'ldi. Bu ish davomida asosiy e'tiborni men sotsiologik nazariya, tadqiqot usullari va asosli empirik (tajribaga asoslangan) tadqiqotlar o'rtasidagi aloqalarga qaratdim.

Men faqat qulaylik uchun o'z qiziqishlarim rivojlanishini o'n yilliklar bo'yicha guruhlariga ajrataman. Ular, albatta, rasm bo'lib qolgan kalendar davrlariga uncha muvofiq bo'lmagan ravishda paydo bo'lardi va zaiflashardi. Ularning hammasi ham mazkur yo'nalishdagi jadal ishlashning ilk davri o'tishi bilan zaiflashmagan. Hozirda men maqsadga yo'naltirilgan sotsial harakatning kutilmagan oqibatlariga bag'ishlangan ish ustida ishlayapman, shu tarzda deyarli yarim asr ilgari ilk bor chop etilgan va o'shandan beri davriy ravishda taraqqiy etayotgan ishni davom ettirmoqdaman. Boshqa chop etilgan, «O'zini o'zi yaratadigan bashorat» deb nomlangan ishim ijtimoiy hayotning oltita sohasida kamida o'ttiz yil ilgari mening xuddi shu nomdagi ishimda ilk bor eslatib o'tilgan andozani ishlab chiqishni mantiqiy yakuniga yetkazadi. Agarda vaqt, bardosh va kuch imkon bersa,

asosiy e'tiborni maqomli va roli to'plamlarga, shuningdek strukturalar nuqtai nazaridan strukturaviy shart-sharoitlarga va yaqqol hamda latent (yashirin) funksiyalarga, disfunktsiyalarga, funksional muqobilliklarga va vazifalar nuqtai nazaridan ijtimoiy mexanizmlarga qaratgan holda tahlil u sotsial strukturaning tahlili bo'yicha ishni yakunlash qoladi, xolos.

Biz hammamiz o'limga mahkumligimizni, mening yozuvchiligim esa odatda juda past darajali ekanligini inobatga olgan holda, bu ishlarning ro'yxati kelgusida davom ettirilmasa kerak.<sup>1</sup>

2. Agarda Talkott Parsons — strukturaviy funksionalizmning eng nufuzli nazariyotchisi bo'lsa, uning talabasi Robert Merton sotsiologiyada strukturaviy funksionalizmning eng muhim iboralari muallifi bo'lgan. Merton strukturaviy funksionalizmning ayrim keskin va isbotlab bo'lmaydigan jihatlarini tanqid qilgan. Lekin, shunisi ham muhimki, Merton tomonidan ilgari surilgan yangi konseptual qarashlar strukturaviy funksionalizm dolzarbligini saqlab qolishga yordam bergan.

Mertonning ijodi ham, Parsonsniki kabi strukturaviy funksionalizm bilan bog'liq bo'lsada, ular o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Birinchidan, agar Parsons yirik keng qamrovli nazariyalarni yaratishni yoqlab chiqqan bo'lsa, Merton ko'proq chegaralangan, o'rtacha darajadagi nazariyani afzal ko'rgan. Bundan tashqari, Merton Parsonsga nisbatan ortiqroq darajada marksistik nazariyani quvvatlagan. Haqiqatda esa, Merton va uning ayrim talabalari (ayniqsa Alvin Gouldner) siyosiy ma'noda strukturaviy funksionalizmga ko'proq so'l tus baxsh etishgan deb hisoblash mumkin.<sup>2</sup>

Merton antropolog Malinovskiy va Radklyff-Braunlar tomonidan ilgari surilgan funksional tahlilning uchta asosiy postulatlarini deb hisoblangan qoidalarni tanqid ostiga olgan va ularga boshqacha ko'z bilan qarash lozimligini ta'kidlagan.

Birinchi postulat jamiyatning funksional yaxlitligi hisoblanib, unga ko'ra, barcha standartlashtirilgan sotsial hamda madaniy e'tiqod va udumlar jamiyat uchun yaxlit tarzda va individlar uchun xususiy tarzda funksional ahamiyatga egadir, ya'ni sotsial tizimning har bir qismi umuiy tizim uchun funksionaldir. Bu sotsial tizimning turli

<sup>1</sup> Qarang: George Ritzer, *Sociological Theory*, Eighth Edition, Mc Graw-Hill, 2010. — P. 254-255.

<sup>2</sup> George Ritzer, *Sociological Theory*, Eighth Edition, Mc Graw-Hill, 2010. — P. 252.

elementlari (unsurlari) yuqori darajadagi integratsiyaga ega bo'lishlari lozimligini bildiradi. Biroq Merton, garchi bu uncha katta bo'lmagan, ibtidoiy jamiyatlarga nisbatan to'g'ri bo'lsa ham, ancha yirik va murakkab jamiyatlarga nisbatan umumlashtirish mumkin emasligini ta'kidlagan.

Ikkinchi postulat universal funksionalizm hisoblanib, unga ko'ra barcha standartlashtirilgan sotsial hamda madaniy shakl va strukturalarning barchasi ijobiy funksiyalarni bajaradi, ya'ni har qanday amaliyot ijobiy ahamiyat kasb etadi. Merton voqelikda ko'rayotganlarimiz unga zid ekanligini isbotladi. Aniqki, har qanday struktura, udum, g'oya, e'tiqod kabilar ham ijobiy funksiyani bajaravermaydi. U funksional, disfunktsional va nofunktsional ham bo'lishi mumkin. Masalan, jazavadagi millatchilik tez tarqalayotgan yadroviy qurol olamida nihoyatda disfunktsional bo'lishi mumkin.

Yana bir misol tariqasida qimor biznesini ham olish mumkin. U alohida struktura sifatida funksiya bajaradi, lekin boshqa sohalarining yoki umuman butun bir tizimning (madaniy-ko'ngilochar) disfunktsiyasiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun Merton bu postulatni boshqa bir mezon bilan almashtirish taklifini beradi, unga ko'ra mavjud madaniy shakllar funksional oqibatlarining tarmoqli balansi mavjud hisoblanadi. Mertonning ta'kidlashicha, u yoki bu madaniy hodisaning funktsionalligi faqat tadqiqot jarayonida hal etiladi.

Uchinchi postulat – zaruriyat postulati bo'lib, unga ko'ra, jamiyatda shunday "universal" sotsial va madaniy shakllar mavjudki, ular almashtirib bo'lmaydigan, umum jamiyat mavjudligi uchun o'ta zarur komponentlar hisoblanadi. Ushbu postulat barcha strukturalar va funksiyalar jamiyat uchun funktsional ravishda zarur, degan g'oyaga olib keladi.

- Odatda, «sotsial universal»larning uch guruhi ajratiladi edi:
- obyektiv qator: olam, o'zgarish, sabab, yaxlitlik, vaqt va h.k.;
  - subyektiv qator: inson, baxt, adolat va h.k.;
  - subyekt-obyekt qatori: faoliyat, bilish, haqiqat va h.k.

Parsons sotsiomadaniy taraqqiyotning umumiy omillari sifatida «madaniy universal»larning o'nta turini ajratgan: kommunikatsiya tizimi; qon-qarindoshlik tizimi; din; ilg'or texnologiyalar; sotsial stratifikatsiya; sotsiumning o'zini o'zi identifikatsiyalashi; boshqaruvchi qatlamlarning shakllanishi; pul va bozorning paydo

bo'lishi; umumlashgan me'yorlar; demokratik strukturalar<sup>1</sup>. Merton esa oila, din, sotsial stratifikatsiya kabi institutlar har qanday jamiyatda ham mavjud bo'lavermaydi, deb o'ylaydi.

Parsons shuningdek, «evolyutsion universal»ni ham ajratib, ular sotsial tizimlarning evolyutsiyasi davomida paydo bo'ladigan xususiyatlarni aks ettirib, moslashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi deb hisoblaydi.

Merton bularning barchasini tanqid ostiga olib, bu yerda gap aynan "funktsional universal" haqida borayotganligini ta'kidlaydi. Hech qanday boshqa strukturalar va funksiyalar ayni vaqtda jamiyatda namoyon bo'layotgan funksiyalarchalik samarali ishlaydi. Parsonsni tanqid qila turib, Merton biz, hech bo'lmaganda, jamiyatda strukturaviy va funktsional muqobillar mavjud ekanligini tan olishga tayyor bo'lishimiz zarurligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, Merton bu postulatni funktsional muqobillar bilan almashtirish taklifini beradi.

Umuman, Mertonning fikricha, bu funktsional postulatlarining hammasi mavhum nazariy tizimlarga asoslangan noempirik da'volarga tayanadi. Sotsiologning vazifasi – kamida ularning har birini empirik (tajriba asosida) tarzda o'rganishdir. Nazariy fikrlar emas, balki empirik tekshirish funktsional tahlil uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga bo'lgan ishonchi Mertonni nazariya va tajribalarni birlashtiruvchi funktsional tahlil «paradigma»sini ishlab chiqishga yetakladi.

Merton boshdanoq, strukturaviy funktsional tahlil guruhlar, tashkilotlar, jamiyatlar va madaniyatlarni ko'rib chiqadi. U shuni ta'kidlaydiki, «strukturaviy funktsional tahlil qilinishi mumkin bo'lgan har qanday ob'ekt standartlashtirilgan (ya'ni, qoliqli va takrorlanuvchi ko'rinish) ifoda etishi lozim». U hissiyot madaniyati, sotsial me'yorlar, guruhli tashkilotchilik, sotsial nazorat vositasining sotsial strukturasiga asoslangan sotsial rollar, institutsional andozalar, sotsial jarayonlar, madaniy namunalar va h.k.ni nazarda tutgan.

Ilk strukturaviy funktsionalistlar, umuman olganda, o'zlarini deyarli butunlay bir sotsial struktura yoki institutning boshqasiga nisbatan vazifalarini ko'rib chiqishga bag'ishlagan. Bunda, Mertonning hisoblashicha, ular ko'pincha individlarning sub'yektiv

<sup>1</sup> Parsons, T. *Evolutionary Universals in Society // American Sociological Review.* – 1964. – V. 29. – 26

sabablarini strukturalar yoki institutlarning vazifalari bilan aralashtirgan. Strukturaviy funksionalist o'z diqqat-e'tibori markaziga, avvalambor yakka sabablarni emas, balki sotsial funksiyalarni joylashtirishi zarur. Funksiyalar, Mertonga ko'ra, «kuzatilayotgan, mazkur tizimning moslashuvi yoki muvofiqlashuviga yordam beruvchi oqibatlar» deb ta'riflanadi<sup>1</sup>. Biroq, kimdir diqqatini faqat moslashuv yoki muvofiqlashuvga jalb qilsa, unda yaqqol mafkuraviy og'machilik mavjud, zero doimo ijobiy oqibatlar mavjud bo'ladi. Shuni ta'kidlash muhimki, bir ijtimoiy holat boshqasi uchun salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin.

Bu dastlabki strukturaviy funksionalizm da yo'l qo'yilgan jiddiy xatolarni to'g'irlash uchun, Merton, yuqorida ta'kidlaganimizdek, *disfunksiya* tushunchasini ishlab chiqadi. «Disfunksiyalar – tizimning moslashuvi yoki muvofiqlashuvini kamaytiradigan kuzatiladigan natijalardir»<sup>2</sup>. Xuddi strukturalar yoki institutlar sotsial tizimning boshqa qismlarini saqlab qolishga yordam bergani kabi, ular ham uning uchun salbiy oqibatlar olib kelishi mumkin. Masalan, Qo'shma Shtatlarning janubidagi qullik Janubning oq tanli qatlarni uchun ijobiy oqibatlarga, masalan, arzon ishchi kuchi bilan ta'minlash, paxta iqtisodiyotini va ijtimoiy maqomni qo'llab-quvvatlashga olib keldi. U, shuningdek, disfunksiyaga ega edi, xususan, janubliklarning qishloq ho'jaligi iqtisodiyotiga haddan ortiq bog'liqligiga va buning oqibatida sanoatlashtirishga tayyor emasliklariga olib keldi. Shimol va Janub o'rtasidagi ilgarigi sanoat tengsizligini, hech bo'lmaganda, ma'lum darajada Janubdagi qullik instituti disfunksiyalariga kiritish mumkin.

Merton, shuningdek, *nonfunksiyalar* tushunchasini ilgari surib, ularni ko'rib chiqilayotgan tizimga taalluqli bo'lmagan oqibatlar sifatida ta'riflagan. Ularga ilk tarixiy davrlardan «omon qolgan» ijtimoiy shakllarni kiritish mumkin. Garchi o'tmishda ular ijobiy yoki salbiy oqibatlarga ega bo'lgan bo'lsa, zamonaviy jamiyatga ular sezilarli ta'sir ko'rsatmaydilar. Ba'zilar bundan norozi bo'lsalarda, «Ayollar nasroniy bardosh harakati» bunga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin (Women's Christian Temperance Movement)<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Merton R. *Язык и латентные функции // Американская социологическая мысль. Тексты.* – М., 1996. – С. 414.

<sup>2</sup> Merton R. *Язык и латентные функции // Американская социологическая мысль. Тексты.* – М., 1996. – С. 414.

<sup>3</sup> George Ritzer. *Sociological Theory. Eighth Edition.* Mc Graw-Hill, 2010. – P. 253.

javob berish oson bo'lishi uchun, Merton *sof balans* (muvozanat) konsepsiyasini ishlab chiqdi. To'g'ri, biz hych qachon disfunksiyaning ijobiy vazifalarini shunchaki terib va nima og'ir bosayotganini obyektiv tarzda aniqlay olmaymiz, zero, bu masalalar shunchalik murakkab va shu darajada subyektiv fikrlarga asoslanganki, ularni osongina hisoblab va o'lchab bo'lmaydi. Merton konsepsiyasining foydasi shundan iboratki, u sotsiologlarning diqqat-e'tiborini nisbiy ahamiyat masalasiga qaratadi. Agar qullik misoliga qaytadigan bo'lsak, Janub uchun qullik nisbatan ko'proq funksional yoki disfunksional xarakterga ega bo'ldimi yoki yo'qmi, degan savol yuzaga keladi. Shunga qaramay, mazkur masala nihoyatda umumiydir va bir qator muammolarni (masalan, qullik oq tanli quldorlar kabi guruhlar uchun funksional xarakterga ega) hisobga olmaydi.

Bunga o'xshash savollarni aniqlab olish uchun Merton *funksional tahlil darajalari* mavjudligi g'oyasini ilgari surdi<sup>1</sup>. Funksionalistlar, qoidaga ko'ra, yaxlit jamiyat tahlili bilan chegaralanganlar, Merton esa, shuningdek, tashkilot, institut yoki guruhni ham tahlil qilish mumkinligini bayon qiladi. Qullik bajarib kelgan vazifalar muammosiga qaytgan holda, tahlilning bir nechta darajasini farqlash va qora tanli oilalar, oq tanli oilalar, qora siyosiy tashkilotlar, oq siyosiy tashkilotlar uchun va h.k. uchun qullikning funksiya va disfunksiyasini o'rganish zarur bo'ladi. Sof balans (muvozanat) nuqtayi nazaridan, qullik, ehtimol, ma'lum ijtimoiy birliklar uchun nihoyatda funksional, boshqalari uchun esa o'ta disfunksional bo'lishi mumkin. Ushbu muammoni ko'rib chiqishni ushbu g'oyat aniq darajaga ko'chirish Janub uchun qullik funksionalligi tahlilini umuman osonlashtiradi.

Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, Merton *yaqqol va latent (yashirin)* funksiyalar tushunchalarini ham fanga kiritgan. Bu ikki atama shuningdek funksional tahlilning muhim hissasi bo'ldi. *Yaqqol funksiyalar* obyektiv va oldindan mo'ljallangan, *latent funksiyalar esa* – oldindan mo'ljallanmagan va anglanmaganlik xususiyatiga ega. Qullikning yaqqol funksiyasi, masalan, Janubning iqtisodiy unumdorligini oshirish bo'lgan bo'lib, lekin u ham boy, ham qashshoq oq tanli janubliklarning sotsial maqomini oshirish uchun

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory. Eighth Edition.* Mc Graw-Hill, 2010. – P. 256.

xizmat qilgan ko'p sonli past tabaqalarni jalb qilish latent funksiyasiga ega bo'lgan.

Merton qayd etishicha, «sotsial harakatning ongli motivatsiyasini uning obyektiv natijalari bilan aralashtirishga (bu esa sotsiologiya adabiyotida ko'p uchraydigan hol) yo'l qo'ymaslik maqsadida, yaqqol va latent funksiyalar o'rtasidagi tafovut kiritilgan»<sup>1</sup>. Amerikalik sotsiolog motivlar va funksiyalarni bir-biriga tenglashtirish xato ekanligi haqida ogohlantiradi, chunki motivlar subyektiv kategoriyalar bo'lgani kabi, funksiyalar obyektiv kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Motivlar va funksiyalar bir-biridan mustaqil holda o'zgarib boradi.

Olim yaqqol va latent funksiyalar ahamiyatini ko'rsatish uchun Xotom tajribasini misol qilib keltiradi. Sotsiologlar faqat yaqqol funksiyani hisobga olib, latent funksiyaga e'tibor qaratmagan. Ular tajriba boshlanganda, uning nazorat va tajriba guruhlarini a'zolari o'rtasidagi munosabatlar uchun ehtimolli sotsial oqibatlariga ahamiyat bermadi. Oxir-oqibat vujudga kelgan vaziyat sotsiologlarni odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq yashirin, yaqqol ko'rinmay turgan narsalar haqida o'ylashga majbur etdi. Shu tariqa Merton, sotsiologiyaning bosh vazifasi – yaqqoldan ko'ra yashirin, latent funksiyalarni o'rganishdan iborat bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Bunday yondashuv sotsiologik bilim ufqlarini sezilarli darajada kengaytiradi. «Shuning uchun deb hisoblaydi Merton – yashirin funksiyalar sohasidagi ixtirolar yaqqol funksiyalar sohasidagi ixtirolardan ko'ra, sotsiologik bilimlarning yanada ko'payishiga olib keldi. Binobarin, yaqqol funksiyalar ijtimoiy hayot haqida sog'lom fikrga asoslangan bilimlardan kuchli og'ishni anglatadi»<sup>2</sup>.

Bu fikr Mertonning boshqa konsepsiyasi – *kutilmagan oqibatlar* konsepsiyasi bilan bog'liq. Harakatlar, xuddi kutilgan kabi, kutilmagan oqibatlarga ham ega. Garchi hamma kutilgan oqibatlarni anglab tursa ham, kutilmagan oqibatlarni aniqlash uchun sotsiologik tahlil talab qilinadi. Haqiqatdan, ba'zilar uchun bu sotsiologiya mohiyatining o'zi bo'lib hisoblanadi. Piter Berger buni

<sup>1</sup> Merton P. *Latent va funksional funksiyalar* // *Amerikalik sotsiologik fikr. Textlar*. – M., 1996. – S. 414.

<sup>2</sup> Merton P. *Latent va funksional funksiyalar* // *Amerikalik sotsiologik fikr. Textlar*. – M., 1996. – S. 447.

«obro'sizlanish», yoki aniq natijalarga qilingan maqsadlardan tashqari nigoh deb ataydi<sup>1</sup>.

Merton kutilmagan oqibatlar va latent funksiyalar aynan emasligini bayon qiladi. Latent funksiya kutilmagan oqibatlarining ma'lum tizim uchun funksional xarakterga ega bo'lgan turidir. Biroq, kutilmagan oqibatlarining boshqa ikki turi: «ma'lum tizim uchun latent disfunktsional va latent disfunktsiyani o'z ichiga olgan oqibatlar» va «o'zlari na funksional, na disfunktsional tarzda ta'sir ko'rsatmaydigan tizimga kirmaydigan nonfunktsional oqibatlar» ham mavjud<sup>2</sup>.

Funksional nazariyani yanada oydinlashtirish sifatida Merton, struktura tizimga nisbatan umumiy disfunktsional xarakterga ega bo'lishi va shunga qaramay mavjudlikni davom ettirishi mumkinligini ta'kidlaydi. yetarli darajadagi asoslar bilan aytish mumkinki, qora tanlilar, ayollar va boshqa ozchiliklarni kamsitish Amerika jamiyati uchun disfunktsionaldir, bunda u mavjudlikda davom etadi, zero ijtimoiy tizimning bir qismi uchun funksionaldir; masalan, ayollarni kamsitish, odatda, erkaklar uchun funksionaldir. Lekin kamsitishning bu shakllari, hatto o'zlari funksional bo'lgan guruh uchun ham disfunktsionaldir xoli emas. Erkaklar o'zlarining ayollarni kamsitishlaridan qiynaladilar; xuddi shunday oq tanlilarga ham qora tanlilarga nisbatan kamsituvchi xulq zararlidir. Ta'kidlash mumkinki, kamsitishning bu shakllari kamsituvchi tarafga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'p sonli kishilar o'z mavqeyidan qoniqmay qoladilar, buning oqibatida ijtimoiy ziddiyat ehtimoli kuchayadi.

Merton sotsial tizim yashovchanligi uchun hamma strukturalar ham zarur emas, deb hisoblagan. Sotsial tizimning ayrim elementlarini istisno qilish mumkin. Bu funksional nazariyaga uning mutaassib (konservativ) og'ishlaridan yana birini yengishga yordam beradi. Ayrim strukturalarni tugatish mumkinligini tan olgan holda, funksionalizm muhim ahamiyatli ijtimoiy o'zgarishlar uchun yo'l ochadi. Masalan, turli ozchiliklar kamsitilishini bartaraf etish bilan jamiyatimiz yashovchanligi davom etishi (hatto yaxshilanishi) mumkin.

Ko'rinib turganidek, Mertonning izohlari strukturaviy funksional tahlil o'tkazishni istovchi sotsiologlar uchun nihoyatda foydalidir. Zero, uning bu tahlili Prasons taqdim etgan sub'yektiv «falsafiy»

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 256.

<sup>2</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 256.

nazariyadan ko'ra ko'proq obyektiv bo'lib, amaliy ahamiyat kasb etadi.

3. Merton o'z asarlarida nazariy va empirik, makro- va mikrosotsiologiya bilim darajalarini birlashtirish g'oyasini ilgari surgan edi. 1950-yillarning o'rtalaridayoq, Merton ular birligining "oltin asri" boshlandi, deb hisoblagan edi. Ammo u vaqtlarda Merton orzuni ro'yo deb qabul qilardi. Empirik va nazariy sotsiologiyaning parallel tarzda rivojlanishiga hali ancha vaqt bor edi. Olimning o'zi bu parallelizmni, vujudga kelgan bu o'ziga xos sotsiologik dixotomiyani yengib o'tishga katta hissa qo'shdi va u bu ishni, avvalambor, o'zining o'rta darajadagi, yoki o'rta rang nazariyasi (The theory of the middle range) yordamida bajardi. Bu nazariya uning funksional tahlil konsepsiyasiga asoslangan edi.

Funksional tahlil konsepsiyasi Merton ijodida «yarim empirik» xususiyatga ega edi: u mazkur tahlilni avval operatsional tomonga, keyin esa – aniq sotsiologik tadqiqot tomoniga o'tkazish imkonini berardi. Funksional tahlilning konsepsiya sifatidagi muhim xususiyati shundaki, u empirik ma'lumotlarni interpretatsiya qilishga, ularni umumlashtiruvchi nazariyalarni yaratish uchun qo'llashga imkon berardi. Bu xususiyatni Merton o'rta darajadagi nazariyasini ishlab chiqish chog'ida juda yaxshi angladi va qo'lladi. Uning shakllari Mertonning 1940—1950-yillarda yozgan ishlarida ko'zga tashlandi, ammo bu xususiyatni yaratish tamoyillari «O'rta darajadagi sotsiologik nazariyalar haqida» nomli tadqiqotida batafsil yoritildi va tartibga solindi. Bu tadqiqot amerikalik sotsiologning «Nazariy sotsiologiya» kitobida chop etildi.

Mertonning o'rta darajadagi nazariyalari ustida ishlashi ikki yoqlama xususiyatga ega edi. Bir tomondan, u nazariyalarning o'ziga xos turi, maxsus tahliliy faoliyat zaruriyatini asoslashni o'z ichiga olgan edi. U esa, boshqa nazariyotchilik turlaridan (birinchi navbatda o'ta mavhum nazariyotchilikdan) sezilarli farq qilishi kerak edi. Bu metodologik ish edi, chunki umumiy nazariy orientatsiyaga, tushunchalar tahliliga, ularni tuzish mantig'iga, olinadigan empirik ma'lumotlarning interpretatsiyasi bilan bog'liqligiga taalluqli edi. Boshqa tomondan esa, Merton sotsiologiya fanining turli sohalarida, aniqrog'i, tarmoqlarida aniq o'rta darajadagi nazariyalarni yaratish ustida mehnat qilardi.

Mertonning tahlil etiluvchi nazariyasiga muvofiq, sotsiologiya bilimlarining uch darajasi mavjud:

- keng sotsiologik nazariyalar;
- o'rta darajadagi nazariyalar;
- kundalik tadqiqotlarda talay uchraydigan kichik ishchi taxminlar.

O'rta darajadagi nazariyalar birinchi va uchinchi darajalar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in, ko'prikcha vazifasini o'taydi. Shu nazariyalarga tayangan holda, Merton voqeyelikning empirik tadqiqotlari va sotsial xulq-atvor qonuniyatlarini nazariy umumlashtirmalari o'rtasida "vositachi" zarur, degan xulosaga keladi. O'rta darajadagi nazariyalar esa, ham sotsial faktlarning katta guruhini umumlashtirish natijasi, ham sotsiologiyaning alohida sohalarini aniqlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Merton bu nazariyalarni haqiqatdan mavjud va e'tiborga loyiq deb hisoblardi. Mertonga ko'ra, sotsiologiya nazariyasi oddiy ma'noda aynan o'rta darajadagi nazariyadir. Aynan shunday nazariya empirik tadqiqot tilini "yaratishga" imkon beradi. Hamma narsani qamrab oluvchi "yuqori daraja" tizimli nazariyalari Mertonga birmuncha mavhum, "quyi daraja" ishchi taxminlari esa – haqiqiy sotsiologik ahamiyatga ega bo'lmagan ikkinchi darajali bo'lib ko'rinardi. O'rta darajadagi nazariyalarda tahlilning dastlabki kategoriyasi sifatida Merton sotsial guruhlarini olgan, chunki aynan ular orqali individ va sotsial strukturalar o'rtasida aloqa amalga oshiriladi.

Merton sotsiologiyada, boshqa istalgan fandagi kabi turli darajadagi nazariyalar mavjud bo'lishini kerakligini yaxshi tushunardi. Bir nazariyalar keng ijtimoiy jarayonlarni izohlash uchun qo'llanadi, boshqalari birmuncha lokal, aniq jarayonlarga "xizmat ko'rsatadi". Merton tomonidan 1960-1970-yillarda turli nazariyalarning batafsil tavsiflanishi va tahlil etilishi sharofati bilan, sotsiologiya bilimlarining uch darajali konsepsiyasi eng mukammal ishlab chiqilgan, deb hisoblanardi. Bu konsepsiya rivojlangani sayin, avvalambor sotsiologiya bilimlarining ikkinchi darajasi haqidagi tasavvur boyirdi. U esa, o'z navbatida, umumiy sotsiologiya nazariyalarni ishlab chiqishni va aniq sotsiologik tadqiqotlarni rivojlantirishni tezlashtirdi. O'rta darajadagi nazariyalar umumiy sotsiologiya nazariyasi bilan qiyoslaganda tor sohalarida qo'llaniladi. Ularning har biri o'z predmeti sohasida jamiyat hayotining nisbatan

avtonom sohalarini, ular rivojlanishining tendensiyalarini, harakat mexanizmlarini o'rganish bilan cheklangan.

Shu bilan birga, olim sotsiologiya bilimlarining barcha uch darajasi o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Boz ustiga, biridan boshqasiga o'tish sotsiolog qarshisida har safar yangi imkoniyatlar ochadi. Umumnazariy darajadan operatsional darajaga o'tish alohida ahamiyatga ega, uning natijasi empirik tadqiqotda aniqlashtiriladi. Darajalarning nisbatan mustaqilligi va ularning muhimligi esa, sotsiologiya rivojlangani sari ulardan har birini ishlab chiqadigan sotsiologlarning o'zaro faoliyati kuchayishidan Mertonga umidvor bo'lish uchun asos beradi.

U sotsiologiya bilimlarining eng turi sohalarida: ommaviy kommunikatsiyalar va fan sotsiologiyasi, harbiy sotsiologiya va tibbiyot sotsiologiyasi, hokimiyat sotsiologiyasi va siyosat sotsiologiyasi yo'nalishlarida o'rta darajadagi nazariyalarini ishlab chiqdi. Ammo, aftidan, uning chetga og'uvchi xulq-atvorni o'rganish sohasidagi o'rta darajadagi nazariyasi eng chuqur iz qoldirdi. Bunda unga anomiya, o'z joniga qasd qilish, deviant xulq-atvorning boshqa shakllarini o'rgangan E.Dyurkgeymning qarashlari katta ta'sir o'tkazdi.

4. Mertonning strukturaviy funksionalizm va sotsiologiyaga qo'shgan eng mashhur umumiy hissalaridan biri – madaniyat, struktura va anomiya o'rtasidagi munosabatlar tahliliga murojaat qilish joiz.

Merton sotsial strukturaning holatini tahlil qilishda ikki o'zgaruvchiga murojaat qilishni lozim deb topadi:

- madaniyat tomonidan tasdiqlangan qanday maqsadlar mavjud;
- ushbu maqsadlarga erishishning qanday institutsional vositalari mavjud.

Merton *madaniyatni* «ma'lum jamiyat yoki guruh a'zolari uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvorni boshqaruvchi me'yoriy qadriyatlar yig'indisi», *sotsial strukturani* esa «jamiyat yoki guruh a'zolari turlicha ishtirok etadigan *ijtimoiy munosabatlar yig'indisi*» deb ta'riflaydi<sup>1</sup>. Anomiyani «madaniyat me'yorlari va maqsadlari hamda guruh a'zolarining ijtimoiy shakllangan ular bilan muvofiq ravishda harakat qilish layoqatlari o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda» yuzaga keladi<sup>2</sup>. Ya'ni, o'zining jamiyat sotsial

<sup>1</sup> Мертон Р. Социальная теория и социальная структура // Социол., 1992. – № 2. – С. 118-119.

<sup>2</sup> Мертон Р. Социальная теория и социальная структура // Социол., 1992. – № 2. – С. 118-119.

strukturasiidagi o'rni tufayli ba'zi odamlar me'yoriy qadriyatlarga muvofiq harakat qilish layoqatiga ega emaslar. Madaniyat sotsial struktura to'sqinlik qiladigan ma'lum xulq-atvor turini talab etadi.

Masalan, Amerika jamiyatida madaniyat moddiy yutuqqa katta ahamiyat beradi. Biroq, sotsial strukturadagi mavqeyi tufayli ko'plar bunday yutuqqa erishish imkoniyatiga ega emaslar.

Agarda inson tug'ilganidan past ijtimoiy-iqtisodiy tabaqaga mansub bo'lsa, buning oqibatiga ko'ra, eng yaxshi holatda oliy o'quv yurti bitiruvchisi darajasinigina olishi mumkin bo'lsa, uning rasm bo'lib qolgan usullar bilan (masalan, odatiy ish kasbi bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa) iqtisodiy yutuqlarga erishish imkoni juda kam bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi.

Bunday holatlarda, (ular esa zamonaviy Amerika jamiyatida keng tarqalgan) oqibati deviant xulq an'anasi bo'ladigan anomiya mavjudligi haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Ushbu kontekstda deviant xulq ko'pincha iqtisodiy yutuqqa erishishning muqobil, jamiyatda qabul qilinmagan va ba'zan, noqonuniy vositalari shaklini oladi. Shunday qilib, iqtisodiy yutuq uchun narkotik savdosi yoki fohishalik bilan shug'ullanish madaniy qadriyatlar va ularga erishishning ijtimoiy-strukturaviy usullari o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladigan deviant xulqqa misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu strukturaviy funksionalizm nuqtai nazaridan jinoyatchilik va deviant xulqni tushuntirish usullaridan biridir.

Shunday qilib, mazkur misolda Merton sotsial (va madaniy) strukturalarni ko'rib chiqadi, lekin uni bu strukturalarning funksiyalari unchalik kuchli qiziqirmaydi.

U mazkur holatda o'zining funksional paradigmasiga muvofiq, anomiyani tadqiqotida disfunktsiyaga e'tibor qaratadi. Aniqrog'i, Merton, anomiyani deviant xulq bilan bog'laydi va buning yordamida, madaniyat va struktura o'rtasidagi kelishmovchiliklar disfunktsional oqibatlarga ega ekanligini, xususan, jamiyatdagi deviant xulqqa olib kelishini ta'kidlaydi.

Destruktiv adaptatsiya haqida gapirib, Merton ta'kidlaydiki, shaxs ko'z o'ngida sotsial voqyelik total anomiyani sifatida namoyon bo'lishi mumkin, bunda qandaydir kuch ishlatishning hojati yo'q, chunki baribir u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Bu pozitsiya quyidagi subyektiv omillar bilan mustahkamlanadi:

1) hokimiyat tepasidagi insonlar oddiy xalq talablariga befarqligiga ishonish;

2) o'z maqsadlariga erishish va o'z hayotiy masalalarini yechish imkoni yo'qligiga ishonish;

3) taqdim etilgan ijobiy usullarning yuzakiligiga ishonish;

4) davlat institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishni kutish kerak emasligiga ishonish.

Natijada samarali, lekin axloq va huquqiy me'yorlar bilan taqiqlangan vositalarni qidirish vazifasi yuzaga keladi. Natijada amoral xulqning huquqiy me'yorlardan ustuvorligi – Al Kapone singari kriminal gangsterlarning kumirga aylanishini kuzatish mumkin bo'lib qoladi.

Jamoatchilik fikri yutuqlar alohida modelini yuqori ko'tarsa, sotsial tashkilot esa unga yetishish qonuniy vositalariga erishish imkonini keskin chegaralaydi. Bunda ko'pchilik ko'z oldida "maqsad vositani oqlaydi" shiori faoliyat tamoyiliga aylanadi. Insonlar ongida maqsad va vositalar orasida destruktiv emas, konstruktiv xarakterdagi bog' hosil bo'lsa, u individual psixikaga anomiya, frustratsiya holatlarini chetlab o'tish imkonini yaratadi.

E'tibor berish lozimki, Mertonning anomiyaga bag'ishlangan ijodida sotsial stratifikatsiyaga bo'lgan tanqidiy munosabat (masalan, ba'zi sotsial maqsadlarga erishish uchun vositalarning to'sib qo'yilishi tufayli) ko'zga tashlanadi.

Shunday qilib, agar Devis va Mur stratifikatsiyalashgan jamiyatni ma'qul ko'rgan bo'lsalar, Mertonning ijodi strukturaviy funksionalistlar sotsial stratifikatsiyaga tanqidiy munosabat bo'lishlari mumkinligini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Deviatsiyaning sotsial va madaniy omillarini o'rgana turib, Merton jamiyatning sotsial strukturasi turli statuslar egalarning madaniy maqsadlar va institutsional vositalarga (me'yorlar) moslashuvi turlariga e'tibor qaratdi. Natijada u besh turdagi moslashuvni taklif etadi.

Ular quyidagi jadvalda sxematik tarzda ifodalangan («+» qabul qilishni, «-» rad etishni, «+-» esa hukmron qadriyatlarini rad etishni va ularni yangilari bilan almashtirishni anglatadi)<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> George Ritzer, *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 258.

<sup>2</sup> Qarag. Merton P. *Stratifikatsion teoriya i strukturalnaya teoriya* // *Conte*, 1992. – № 3. – С. 105.

### Individual adaptatsiya usullari tipologiyasi

Moslashuv usullari	Jamiyat taqdim etgan maqsadlar	Jamiyat taqdim etgan vositalar
Konformizm	+	+
Innovatsiya	+	-
Ritualizm	-	+
Retritizm	-	-
Isyon	+-	+-

Keltirilgan tipologiya ba'zi adabiyotlarda "Mertonning deviatatsiya turlari tasnifi" deb ham ta'riflanadi. Ammo Mertonning o'zi uni biroz boshqacharoq – "individual adaptatsiya usullari tipologiyasi", deb ataydi.

Konformizm shaxsning ham sotsial maqsadlar hamda ularga erishishning sotsial tasdiqlangan vositalari bilan to'liq birdamligini anglatadi. Shaxs xulq-atvorining bu tipi deviant xulq-atvorga qarama-qarshidir. U insonning o'z jonini, xavfsizligini saqlab qolish maqsadida hukmron standartlar, fikrlar, stereotiplar va ko'rsatmalarga bog'liqligiga asoslangan. Konformistik xulq-atvorsiz jamiyat taraqqiyotida barqarorlik, sotsial tartib va vorisiylikka erishib bo'lmas edi. Konformistik moslashuv turi qanchalik keng tarqalgan bo'lsa, sotsial tartib ham shunchalik barqaror va tinch (ishonchli) bo'ladi.

Barcha qolgan xulq-atvor turlari u yoki bu darajada deviant deb qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga, ularning barchasi, shu jumladan, konformistik xulq-atvor mazkur jamiyat uchun xos bo'lgan ularga erishish maqsad va vositalariga moslashuv usullari bo'lib xizmat qiladi. Merton ularni bir-biriga qarshi qo'ymaydi, xuddi shu tariqa u deviatatsiyani favqulodda salbiy hodisa, deb hisoblamaydi (ammo ko'pchilik shunday fikrda).

Innovatsion adaptatsiya usuli jamiyat ma'qullaydigan maqsadlar bilan birdamlikni va ayni damda ularga erishishning yangi vositalarini izlashni nazarda tutadi. Rossiya sotsiologiyasiga xos bo'lgan innovatsion xulq-atvor turining favqulodda ijobiy ta'riflanishidan farqli o'laroq, G'arbning chetga og'uvchi xulq-atvor nazariyalari va tipologiyalarida u maqsadga erishishning yaqqol ifodalangan salbiy vositalarini ham o'z ichiga olgan holda, ancha keng va turli-tuman talqin etiladi.

Merton, masalan, boyib ketish uchun (jamiyat ma'qullaydigan maqsad) firibgarlik, reket, shantajdan foydalanish kabi salbiy vositalar haqida yozadi. O'zining chetga og'uvchi xulq-atvorning innovatsion usuli tahlilini u quyidagi fikr bilan yakunlaydi: «Biznikiga o'xshash jamiyatlarda (rivojlangan kapitalistik mamlakatlar, birinchi navbatda, AQSh nazarda tutilmoqda), barcha uchun pul muvaffaqiyatiga madaniy e'tibor berish va ma'qullanadigan vositalarning ko'pchilik tomonidan judayam kuchli cheklanadigan amaliy qo'llanilishi institutsional me'yorlardan chetga chiquvchi innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish istagini uyg'otadi. Ammo bunday moslashuv shakli faqat individlarning sotsializatsiyasi nomukammalligida mavjud bo'lishi mumkin, bu esa individlarga muvaffaqiyatga erishish maqsadini saqlab qolgan holda, institutsional vositalarni pisand qilmaslikka imkon beradi»<sup>1</sup>.

Adaptatsiyaning keyingi usuli – ritualizm. U maqsadlarga erishishning jamiyat ma'qullaydigan, institutsional vositalarini qabul qilish, ammo ba'zi maqsadlardan voz kechish bilan ifodalanadi. Xususan, bu muvaffaqiyat tomon tiyiqsiz intilishga taalluqli. Ko'pchilik «ritualistlar» uchun «Baland uchsang – yomon qulaysan» iborasi xos, shu tufayli, Merton fikricha, «Men burnimni har ishga tiqmaslikka harakat qilaman», «Bizning ishimiz emas», «Men ehtiyotkorman» va hokazo mulohazalar ularga xosdir. Merton qayd etishicha, «bu individning shunday moslashuv turiki, individ asosiy madaniy maqsadlardan voz kechish hamda xavfsizlikni va'da qiluvchi istalgan eskicha tartib va institutsional me'yorlarga berilish orqali, xavf-xatar va omadsizliklardan shaxsan qochishga intiladi»<sup>2</sup>.

Retritizm adaptatsiya usuli sifatida ikki xil voz kechish – ham jamiyat ma'qullaydigan maqsadlardan, ham ularga erishishning institutsional vositalaridan voz kechish bilan ifodalanadi. Bu adaptatsiyaning shunday usuli va birvarakayiga chetga og'uvchi xulq-atvor turiki, u hayot voqyeligidan uzoqlashish yoki hatto qochish bilan bog'liq («retritizm» atamasi inglizcha retreat – qochish so'zidan olingan). Bu, avvalambor, quyidagilarga xos: marginallar – daydilar, giyohvandlar, boshpanasizlar, ruhiy kasallar, ichkilikbozlar va h.k. Ular o'zlarining yopiq submadaniyatini yaratadilar, u o'z tabiatiga ko'ra o'ta sust va jamiyatga qarshi ochiq qaratilmagan. Holbuki

jamiyat odatda retritizmni qat'iy qabul qilmaydi va davlatdan ularga qarshi murosasiz kurashishni talab etadi. Retritizmdan, bu adaptatsiya usuli va chetga og'uvchi xulq-atvor turiga kiruvchi odamlar, hayotning bosh maqsadi sifatida omadga erishishga intilishdan va jamiyatda qabul qilingan institutsional vositalardan bosh tortganligi uchun nafratlanishga sazovor bo'ladi, deyiladi. O'z mohiyatiga ko'ra, retritizm jamiyatdan o'zini olib qochish, yakkalanish, u bilan aloqa qilishdan voz kechish usulini anglatadi.

Nihoyat, adaptatsiyaning va shu bilan birga, devitsiyaning beshinchi usuli – isyon. U jamiyatda hukmron maqsad va vositalarni inkor etishni va ularni yangilariga almashtirishni anglatadi. Jamiyatda qabul qilingan maqsad va vositalarni, xuddi shunday inkor etuvchi retritizm bilan qiyoslaganda, isyon chetga og'uvchi xulq-atvor usuli sifatida jamiyatni, hatto inqilob yo'li bilan bo'lsa ham tubdan o'zgartirishga tayyor – bu eng radikal adaptatsiya usuli bo'lib, u ham maqsadlar nuqtai nazaridan, ham unda qabul qilingan jamiyatni o'zgartirish vositalari nuqtai nazaridan, mavjud jamiyat hayotining qaysidir muhim jihatlari poyoniga yetganida vujudga keladi.

Ko'rib chiqilgan chetga og'uvchi xulq-atvor tipologiyasi va individual adaptatsiya usullari shuni ko'rsatadiki, shaxs muayyan moslashuv reaksiyalarini ishlab chiqib, anomiyaga qarshi turishga harakat qiladi. Merton ifodalab bergan adaptatsiyaning aynan shu besh usuli shaxs va jamiyat o'rtasida muvozanatni izlashning asosiy yo'llari hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, bu yo'llarni avvalo jamiyat emas, balki individ izlaydi. O'zining jamiyatda tutgan o'rni haqida birinchi navbatda uning o'zi qayg'uradi. Zamonaviy rivojlangan sotsial tizimlarning vazifasi – unga yordam qo'lini cho'zish, hamfikrlilikni, o'ziga xos "murosa"ni izlashni yengillashtirish, qulay faoliyat sharoitlarini yaratishdir, bu esa xulq-atvordagi sotsial buzilishlar imkoniyatini kamaytirgan bo'lar edi.

5. T.Parsons, R.Merton timsolidagi strukturaviy funksionalizm mavzusiga yakun yasab, shuni alohida qayd etish lozimki, ular tomonidan yaratilgan konsepsiya va nazariyalar yangi paradigmalar, yo'nalishlar, oqimlar va maktablarning vujudga kelish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatib, bu fanning ko'p yillar va o'n yilliklarda rivojlanishini belgilab berdi. Fan tarixidagi hечch bir sotsiologik nazariya strukturaviy funksionalizm kabi qiziqish uyg'otmagan. 1930-

<sup>1</sup> Мертон Р. Социальная теория и социальная структура // Совет, 1992. – № 3. – С. 110.

<sup>2</sup> O'nda joyda.

sotsiologik nazariya sifatida umuman rad etib bo'lmaydigan maqomga ega edi. Biroq, 1960-yillarga kelib bu nazariya jiddiy tanqidlarga uchray boshlagan, va nihoyat, tanqid maqtovdan ustun kelgan. Mark Abraxamson vaziyatni o'ta jonli tarzda tasvirlagan: «Shunday qilib, majozan aytganda, funksionalizm chivin chaqqanini ham sezmasdan, hatto yopirilayotganlar galasi unga og'ir ziyon yetkazayotganda ham, ulkan fil singari qadam bosgan»<sup>1</sup>.

Strukturaviy funksionalizmning ko'pgina g'oyalari 1980-1990-yillarda neofunksionalizm tomonidan qo'llandi. Integral nazariyalar esa sotsiologiyaning so'nggi 15 yil davomidagi rivojlanish tendensiyalarini belgiladi. O'rta darajadagi nazariya esa, xuddi avvalgidek, bir tomondan, aniq tadqiqotlar ma'lumotlarini ortiqcha mavhumlashtirishdan, boshqa tomondan esa, "sudraluvchi empirizm"dan, ishchi taxminlar darajasida nazariy anglamay turib, aniq ma'lumotlarni yig'ishga berilib ketishdan saqlovchi yaxshi vosita bo'lib qolmoqda.

Shunday bo'lsada, ushbu paradigমাga otilgan toshlarni qarab o'tib, ularning qanchalik asosli ekanligini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish ma'qul hisoblanadi.

Asosiy tanqidlardan biri shundan iboratki, strukturaviy funksionalizm tarixni yetarli darajada inobatga olmaydi, ya'ni o'z mohiyatiga ko'ra, tarixga ziddir. Aslida, strukturaviy funksionalizm, oz bo'lsa-da, ma'lum darajada tanilgan antropologlarning tarixiy evolyutsion yondashuvlaridan ta'sirlanish natijasida rivojlangan. Aslida, Parsonsning sotsial o'zgarishlarga bag'ishlangan ijodi, ko'rib o'tganimizdek, strukturaviy funksionalistlarning istasalar o'zgarishlarni ham ko'rib chiqish qobiliyatlarini aks ettiradi.

Strukturaviy funksionalistlar, shuningdek, sotsial o'zgarishlar jarayonini samarali tarzda o'rganishga layoqatsizlikda ayblanadilar. Strukturaviy funksionalizm, umuman olganda, o'zgarishlar jarayonini emas, balki statik strukturalarni ko'rib chiqadi. Ayrim mualliflar kamchilikni strukturaviy funksional nazariyada yotadi, deb hisoblasa, qolganlari muammo nazariya bilan emas, balki sotsiologlar bilan bog'liq, deb hisoblaydi.

<sup>1</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 258.

Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, strukturaviy funksionalistlar ko'pincha o'zgarish masalalariga murojaat qilmaydilar, agarda murojaat qilsalar ham, revolyutsion nuqtayi nazardan emas, balki evolyutsion nuqtayi nazardan murojaat qiladilar. Shunga qaramay, ular strukturaviy funksionalistlar sotsial o'zgarishlarni tahlil qila oladilar, deb ta'kidlash uchun asos yo'q, deb hisoblaydilar. Muammo nazariya bilan bog'liqlik yoki nazariyotchilar bilanmi, ammo strukturaviy funksionalistlarning asosiy hissasi statik, o'zgarimas sotsial strukturalarni o'rganishdan iborat<sup>1</sup>.

Ehtimol, strukturaviy funksionalizmning eng ko'p yangraydigan tanqidi – bu uning ziddiyatni samarali tahlil qilishga layoqatsizligini ta'kidlashdir<sup>2</sup>. Bu tanqid turli shakllarda namoyon bo'ladi. Alvin Gouldner ta'kidlashicha, Parsons strukturaviy funksionalizmning bosh vakili sifatida uyg'un munosabatlarning rolini bo'rttirishga moyil bo'lgan. Irving Luis Gorovits strukturaviy funksionalistlar ziddiyatga muqarrar vayron qiluvchi va jamiyat doirasidan tashqarida sodir bo'ladigan hodisa, deb qarashga moyildirlar, deydi<sup>3</sup>. Abraxamson esa strukturaviy funksionalizm jamiyatdagi hamjihatlik, barqarorlik va integratsiyani bo'rttirib ko'rsatadi va, aksincha, ziddiyat, kelishmovchilik va o'zgarishlarni inobatga olmaslikka moyildir, deb hisoblaydi. Yana savol tug'iladi, bu nazariyaga xosmi yoki interpretatsiya – sotsiologlar tomonidan qo'llanish usuligami. Fikrlar bir-biridan qanchalik farq qilmasin, shunisi aniqki, strukturaviy funksionalizm sotsial ziddiyat muammosi bo'yicha nisbatan kam narsa taklif qila oldi.

Strukturaviy funksionalizmni tarix, o'zgarishlar va ziddiyatni ko'rib chiqishga layoqatsizligi haqidagi ommaviy ayblovlar shunga olib keldiki, ko'pchilik strukturaviy funksionalizmning konservativ og'machiligi to'g'risida gapira boshladilar. Bu haqda Gouldner hammadan ko'ra yaxshi fikr bildirdi: «Parsons yarmigacha suv bilan to'ldirilgan stakanni tirishqoqlik bilan *yarmi bo'sh* deb emas, *yarmi to'la*, deb hisoblaydi»<sup>4</sup>. Stakanni yarmi bo'sh deb hisoblagan kishi uning salbiy jihatlariga diqqat qaratsa, uni yarmi to'la deb hisoblaydigan kishi vaziyatning ijobiy jihatlarini belgilaydi. Ijtimoiy

<sup>1</sup> Biroq, strukturaviy funksionalistlar tomonidan yaratilgan sotsial o'zgarishlarga bag'ishlangan bir qancha muhim ishlar mavjud (C. Johnson, 1966; Smelser, 1959, 1967).

<sup>2</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 258.

<sup>3</sup> George Ritzer. *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 259.

<sup>4</sup> O'sha joyda.

atamalarini qo'llay turib, aytish mumkinki, konservativ strukturaviy funksionalistlar jamiyatimizdagi hayotning kamchiliklarini emas, balki uning iqtisodiy afzalliklarini alohida ta'kidlaydilar.

Ehtimol, strukturaviy funksionalizm haqiqatda faqat u inobatga olmaydigan holatlarga (o'zgarishlar, tarix, ziddiyatlar) emas, balki u o'z tahlili markaziga joylashtirishni afzal bilgan narsalarga nisbat bergan konservativ og'ishga ega bo'lishi mumkin. Birinchidan, strukturaviy funksionalistlar madaniyat, me'yoriy va qadriyatlariga diqqatni jamlashga moyil bo'lganlar.

Devid Lokvud, masalan, Parsonsni jamiyatdagi me'yoriy tartibga ortiqcha e'tibori uchun tanqid qiladi. Yanada umumiyroq jihatdan, Persi Koen ta'kidlaydiki, strukturaviy funksionalistlar bunday yondashuv nazariyaning o'ziga xos bo'lmasada, me'yoriy elementlarga diqqatni jamlaydilar. Passiv deb talqin qilinayotgan aniq omilning roli strukturaviy funksionalizmning madaniy va sotsial omillarga bo'lgan qiziqishiga javob beradi va uni konservativ moslashuvga olib keladi. Insonlarni madaniy va sotsial kuchlar tiyib turadi, deb hisoblanadi. Strukturaviy funksionalistlar (masalan, Parsonsga) insonni dinamik, ijodiy tushunish yetishmaydi. Gouldner aytganidek, strukturaviy funksionalizmga o'z tanqidiy munosabatini uqtirish uchun, «insoniy mavjudotlar sotsial tizimlardan o'zlari ular tomonidan foydalanilayotgan darajada foydalanadilar»<sup>1</sup>.

Strukturaviy funksionalistlarning jamiyatning sara namoyandalari qonunlashtirgan me'yorlarni yanglish tarzda sotsial voqyelik deb qabul qilishlari an'anasi ularning madaniyatga bo'lgan qiziqishi bilan bog'liq. Me'yoriy tizim aslida u tezroq jamiyatning sara namoyandalari tomonidan deklaratsiya qilinadigan va uning a'zolari uchun mavjud bo'lgan mafkuraviy tizim ko'rinishida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan vaqtda, butun jamiyatning aksi, deb talqin qilinadi.

Bayon etilgan mazmunga xos tanqid ikkita asosiy yo'nalishga bo'linadi. Birinchidan, shubhasiz tuyuladiki, strukturaviy funksionalizm uchun ijtimoiy olamning bir qator muhim muammolari va jihatlariga murojaat qilish imkonini bermaydigan yetarli darajada tor nuqtai nazar xarakterlidir. Ikkinchidan, bu nuqtai nazar o'ta konservativ hisoblanadi; o'tmish amaliyotida, va qaysidir darajada

<sup>1</sup> George Ritzer, *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 259.

hozirgi kunga qadar, strukturaviy funksionalizm mavjud narsalar va hukmron sara namoyandalarni quvvatlashga harakat qilgan.

Eng ko'p bildiriladigan tanqidiy dalillardan biri – strukturaviy funksionalizm ko'proq xira, noaniq va ikki ma'noli xarakterga ega ekanligini ta'kidlashdir. Masalan: strukturani qanday qilib aniq belgilash mumkin? Funksiya nima? Sotsial tizim? Sotsial tizim elementlari bir-biri bilan va yirikroq sotsial tizim bilan qanday bog'lanishda bo'ladi? Qisman ikki ma'nolilik shu bilan bog'liq, o'z predmeti sifatida strukturaviy funksionalizm real jamiyatlar o'rniga mavhum sotsial tizimlarni tanlaydi.

Bu bilan navbatdagi tanqidiy dalil bog'liq: tarix davomida biron-bir yirik sxema barcha jamiyatlarning tahlili uchun hyech qachon qo'llanilmagan bo'lishiga qaramay, strukturaviy funksionalistlarni shu maqsadda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bitta nazariya yoki, hyech bo'lmaganda konseptual toifalar to'plami mavjud, degan e'tiqod ilhomlantirgan. Ko'pgina tanqidchilar, sotsiologiya umid qilishi mumkin bo'lgan narsalardan eng yaxshisi – bu «o'rta darajadagi» eng tarixiy aniq nazariyalar deb bilgan holda, bu «katta» nazariyani ham xayol deb hisoblashadi.

Boshqa metodologik tanqidlar orasida strukturaviy funksionalistlar taalluqli muammolarni o'rganishning adekvat (o'xshash) usullari mavjudmi, degan savol mavjud. Persi Koenni, masalan, tizim bir qismining butun tizimdagi hissasini o'rganish uchun qanday qurollarni qo'llash mumkinligi qiziqtiradi. Metodologik rejaning yana bir tanqidiy dalili shundan iboratki, strukturaviy funksionalizm solishtirma tahlilni qiyinlashtiradi. Agar tizim elementi faqat o'zi mavjud bo'lgan sotsial tizim kontekstidagina ma'noga ega bo'lishini faraz qilsak, qanday qilib biz uni boshqa tizimning shunga o'xshash elementi bilan taqqoslashimiz mumkin? Masalan, Koen savol beradi: agar ingliz oilasi faqat ingliz jamiyati sharoitlaridagina ma'noga ega bo'lsa, qanday qilib biz uni fransuz oilasi bilan taqqoslashimiz mumkin?<sup>1</sup>

*Teleologiya va tavitologiya.* Persi Koen hamda Terner va Marianski teleologiya va tavitologiya — strukturaviy funksionalizm to'qnash keladigan eng muhim mantiqiy muammolardir, deb hisoblashadi. Ba'zilar teleologiyani nazariyaning ichki xos muammosi

<sup>1</sup> Qurang: George Ritzer, *Sociological Theory*. Eighth Edition. Mc Graw-Hill, 2010. – P. 259-260.

sifatida ko'rib chiqadi. Lekin Turner va Marianski strukturaviy funksionalizm muammosi – bu oddiy teleologiya emas, balki g'ayriqonuniy teleologiya deb hisoblashda haqdirlar. Mazkur kontekstda teleologiya jamiyat (yoki boshqa sotsial strukturalar) maqsad yoki yo'nalishga ega ekanligidan iborat bo'lgan nuqtai nazar deb belgilanadi. Bu maqsadlarga erishish uchun jamiyat ma'lum sotsial strukturalar va sotsial institutlarni yaratadi yoki yaratishga yordam beradi. Turner va Marianski bunday qarashni, albatta, g'ayriqonuniy deb hisoblamaydilar; aslida, ular sotsial nazariya jamiyat va uning elementlari o'rtasidagi teleologik munosabatlarni e'tiborga olishi lozim, deb ta'kidlaydilar<sup>1</sup>.

Muammo, Turner va Marianski fikriga ko'ra, teleologiyaning nomuvofiq kengayishidan iborat. G'ayriqonuniy teleologiya «maqsad yoki yakuniy holat, garchi aslida u sabab bo'lmasada, inson ishlarini boshqarishini» nazarda tutadi. Masalan, jamiyatning takror ishlab chiqarish va sotsiallashtirishga bo'lgan ehtiyoji tufayli u oila institutini yaratishi to'g'risidagi faraz g'ayriqonuniydir. Bu ehtiyojlar turli muqobil strukturalarni qoniqtirishi mumkin; jamiyat oila yaratishga «ehtiyojmand» emas. Strukturaviy funksionalist aslida maqsadlar aniq kichik strukturalarni yaratishga olib kelishini belgilashi va isbotlashi lozim. Agar u nima uchun aynan o'sha ehtiyojlar boshqa kichik strukturalarni qoniqtira olmaganligini ko'rsata olganda shuningdek foydali bo'lardi. Qonuniy teleologiya empirik (tajriba yo'li bilan) va nazariy jihatdan jamiyat maqsadlari va jamiyatda mavjud turli kichik strukturalar o'rtasidagi aloqalarni belgilagan va namoyish qila olgan bo'lardi. G'ayriqonuniy teleologiya ijtimoiy maqsad va aniq kichik struktura o'rtasidagi aloqa mavjud bo'lishi lozim degan so'qir da'vo bilan qanoatlangan bo'lardi. Turner va Marianski funksionalizm ko'pincha: «Biz xulosa qilishimiz mumkinki, funksional tushuntirishlar ko'pincha g'ayriqonuniy teleologiyani ifoda etadi, bu esa inson tashkiloti anadozalarini tushunishda funksionalizm foydasiga jiddiy xalal beradi», degan g'ayriqonuniy teleologiyani taqdim qilishini e'tirof etishadi<sup>2</sup>.

Strukturaviy funksionalizm mantiqiga nisbatan boshqa jiddiy tanqidiy vaj uning tautologikligini tasdiqlashdan iborat. Tautologik

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory, Eighth Edition, Mc Graw-Hill, 2010. – P. 259-260/

<sup>2</sup> Kapser. O'sha joyda. – B. 260.

argument (dalil) – bu xulosa shunchaki asosda nazarda tutilgan narsani o'z ichiga olgan yoki shunchaki, bu asosni qayta aniq hosil qiladigan dalildir. Strukturaviy funksionalizm bunday doiraviy qarajlar ko'pincha qismlar jihatidan yaxlitlikni belgilash, so'ngra yaxlitlik nuqtayi nazaridan qismlarni belgilash shaklini oladi. Shunday qilib, sotsial tizim uning elementlari o'rtasidagi munosabatlar bilan belgilanishi, tizim elementlari esa ularning yanada yirik sotsial tizimdagi o'rni bilan belgilanishini rad qilish mumkin. Modomiki biri ikkinchisi orqali belgilanar ekan, na sotsial tizim, na uning qismlari aslida, umuman, belgilanmaydi. Biz aslini olganda tizim yoki uning qismlari to'g'risida hech narsa bila olmaymiz. Strukturaviy funksionalizm, garchi «Mazkur moyillik nazariyaga xosmi yoki shunchaki undan foydalanish, yoki aksariyat strukturaviy funksionalistlar tomonidan nazariyadan noto'g'ri foydalanish usuli uchungina xarakterlimi?» degan savol tug'lsa ham, ayniqsa, tautologiyaga moyil bo'lgan, deb hisoblaydi J.Ritser<sup>1</sup>.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. R.Mertonning hayoti va faoliyatining umumiy xususiyatlarini so'zlab bering.
2. R.Merton strukturaviy funksionalistik qarashlarining T.Parsons qarashlaridan farqi nimada?
3. R.Mertonning funksiya, disfunktsiya, yaqqol va latent funksiyalar to'g'risidagi qarashlarini tushuntiring.
4. R.Mertonning o'rta darajadagi nazariyasini tushuntiring.
5. R.Mertonning deviant xulq-atvor va individning moslashuvi turlari to'g'risidagi qarashlarini izohlang.
6. R.Merton ijodining sotsiologiya taraqqiyotidagi ahamiyatini izohlang.

#### GLOSSARIY

**Аномия – аномия – anomie** – Mertonga ko'ra, «madaniyat me'yori va maqsadlari hamda guruh a'zolarining ijtimoiy

<sup>1</sup> George Ritzer. Sociological Theory, Eighth Edition, Mc Graw-Hill, 2010. – P. 260.

shakllangan ular bilan muvofiq ravishda harakat qilish layoqatlari o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda» yuzaga keladi.

**Innovatsiya** – **инновация** – **innovation** – Mertonga ko'ra, individning moslashuvi turi bo'lib, boylik va hokimiyatga erishishning institutsional jihatdan foydalanishi man etilgan, lekin ko'pincha samarali bo'lgan vositalaridan foydalanishni ifodalaydi.

**Isyon** – **мятеж** – **rebellion** – Mertonga ko'ra, Mertonga ko'ra, individning moslashuvi turi bo'lib, jamiyat maqsadlarini ham, ularga erishishning institutsional vositalarini ham rad etishni nazarda tutadi, shu bilan birga yangi qadriyatlar mo'ljali, va shunga mos tarzda, ularga erishishning yangi vositalarini ham taqdim etadi.

**Konformlik** – **конформность** – **conformity** – Mertonga ko'ra, individning moslashuvi turi bo'lib, jamiyat maqsadlarini va ularga erishishning institutsional vositalarini qabul qilinishini ifodalaydi.

**Kutilmagan oqibatlar konsepsiyasi** – **непредвиденные последствия** – **unanticipated consequences** – Mertonga ko'ra, latent funksiyalarning, aniq bir tizimlar uchun institutlarning disfunktsionalligi oqibatlari, shuningdek, nofunktsional oqibatlar.

**Latent funksiya** – **латентная функция** – **latent function** – yaqqol namoyon bo'lmaydigan funksiya, shuningdek, Mertonga ko'ra, kutilmagan oqibatlar yoki anglab yetilmagan ob'ektiv oqibatlar.

**Madaniyat** – **культура** – **culture** – Mertonga ko'ra, ma'lum jamiyat yoki guruh a'zolari uchun xarakterli bo'lgan xulq-atvorni boshqaruvchi me'yoriy qadriyatlar yig'indisi.

**Nofunksionallik** – **нефункциональность** – **nonfunction** – Mertonga ko'ra, ko'rib chiqilayotgan tizimga taalluqli bo'lmagan oqibatlardir.

**Retritizm** – **ретритизм** – **retreatism** – Mertonga ko'ra, deviant xulq-atvor turi bo'lib, madaniy maqsadlardan ham, ularga erishishning institutsional vositalaridan ham voz kechishni nazarda tutadi.

**Referent guruh** – **референтная группа** – **reference group** – Mertonga ko'ra, sotsiomadaniy tizimga xos, individlar uchun etalon sifatida namoyon bo'ladigan guruh.

**Ritualizm** – **ритуализм** – **ritualism** – Mertonga ko'ra, individning yangi sotsiomadaniy voqeyeliklarga moslashuvi turi bo'lib, madaniy maqsadlarni rad etish yoki obro'sizlantirish bilan bog'liq bo'lib, ularga erishishning institutsional vositalariga amal qilishni nazarda tutadi.

**Sotsial struktura** – **социальная структура** – **social structure** – Mertonga ko'ra, jamiyat yoki guruh a'zolari turlicha ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlarning uyushqoq yig'indisi.

**Tashkillashtirilgan skeptitsizm** – **организованный скептицизм** – **organized scepticism** – Mertonga ko'ra, fanning amal qilish shakli bo'lib, har qanday nazariyani tanqidiy tekshirishni nazarda tutadi; sotsiologiya shakllanishining muhim omillaridan biri bo'lib, hokimiyat asoslariga, tadqiqot amaliyotiga va umuman "muqaddas narsalar"ga shubha bilan qarashni nazarda tutadi.

**Yaqqol funksiya** – **явная функция** – **manifest function** – Mertonga ko'ra, tizimni tartibga solish va moslashtirishga o'z hissasini qo'shadigan ob'ektiv hamda tizim ishtirokchilari tomonidan kutilgan va anglangan oqibatlar.

**O'rta darajadagi nazariya** – **теория среднего уровня** – **middle-range theory** – Merton tomonidan asos solingan metodologik vositalarga asoslangan nazariya bo'lib, ijtimoiy hayotning alohida sohalarini tadqiq etishda empirik va nazariy darajalar o'rtasida moslashuvchan aloqa o'rnatishni nazarda tutadi.

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Asosiy adabiyotlar

1. George Ritzer. *Sociological Theory*. 8- Ed. – Boston: McGraw-Hill, 2010.
2. Michele Dillon. *Introduction to Sociological Theory. Theorists, Concepts, and Their Applicability to the Twenty-First Century*. 2-Ed. Blackwell Publishing, 2014.
3. Зборовский Г.Е. История социологии: классический этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: РИО СурГПУ, 2014.
4. Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учебник для вузов. 2-е изд. испр. и доп. – Сургут и [др.]: РИО СурГПУ, 2015.
5. Кравченко А.И. Социология. Классические теории через призму социологического воображения: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014.
6. Кравченко А.И. Социология в 2 ТТ. Том 2. Новые и новейшие социологические теории через призму социологического воображения: учебник для бакалавров. – М.: Юрайт, 2014.

### Qo'shimcha adabiyotlar

7. Anthony Elliott, Charles Lemert. *Introduction to Contemporary Social Theory*. Routledge, 2014.
8. Craig Calhoun. *Classical and Contemporary Sociological Theory Readers*. Wiley-Blackwell, 2012.
9. Craig Calhoun. *Sociology in America: A History*. The University of Chicago Press, 2007.
10. G. Duncan Mitchel. *A Hundred Years of Sociology*. New Brunswick and London, 2009.
11. George Ritzer, Jeff Stepnisky. *Contemporary Sociological Theory And Its Classical Roots: The Basics*: 4- Ed. McGraw-Hill Higher Education, 2012.
12. Joas H., Knobl W. *Sozial theorie*. Frankfurt/M: Suhrkamp, 2004.

13. Kon Igor. *A History of Classical Sociology*. Progress Publishers, Moscow, 1989.

14. Lewis A. Coser. *Masters of Sociological Thought: Ideas in Historical and Social Context* 2nd Ed. Waveland Press, Inc.; 2003.

15. Scott Appelrouth, Laura Desfor Edles. *Classical and Contemporary Sociological Theory: Text and Readings*. 2-Ed. – Los Angeles: Pine Forge Press, 2011.

16. Turner S. *American Sociology: From Pre-Disciplinary to Post-Normal*. New York: Palgrave Pivot, 2013.

17. Turner H. *Theoretical Sociology*. SAGE Publications, Inc. 2013.

18. Абельс Х. Интеракция, идентификация, презентация. Введение в интерпретативную социологию. – СПб., 1999.

19. Американская социологическая мысль: тексты. Под ред. В.И. Добренкова. – М., 1994.

20. Арон Р. Этапы развития социологической мысли. – М., 1992.

21. Батурина Т.В., Ивлев С.В. История социологии. – Кемерово, 2002.

22. Батыгин Г.С., Подвойский Д.Г. История социологии. Учебник. – М.: Высшее Образование и Наука, 2007.

23. Бачинин В.А., Сандулов Ю.А. История западной социологии: Учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2002.

24. Бутле С. Социологическая наука в современной Германии. – М.: Изд. дом «Либроком», 2011.

25. Вебер М. Аграрная история древнего мира / Пер. с нем. – М., 1999.

26. Вебер М. История хозяйства. Город / Пер. с нем. – М., 1999.

27. Вебер М. Избранное. Образ общества. – М., 1994.

28. Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990

29. Волков Ю.Г., Нечипуренко В.Н., Самыгин С.И. Социология: история и современность. – Р.н/Д., 1999.

30. Гайденок П.П., Давыдов Ю.Н. История и рациональность: социология М. Вебера и веберовский ренессанс. – М., 1991.

31. Гидденс Э. Социология. – М., 1997.

32. Гоббс Т. Левнафан, или Материя, форма и власть государства, церковного и гражданского // Гоббс Т. Соч.: В двух томах. – М., 1991.

33. Голенкова З.Т., Нарбут Н.П. История социологической мысли в странах Центральной и Восточной Европы. – М.: Издательство РУДН, 2010.

34. Голосенко И.А. Социология Питирима Сорокина: русский период деятельности. – Самара, 1992.

35. Гофман А.Б. Семь лекций по истории социологии: учебное пособие. – М.: КДУ, 2008.

36. Громов И.А., Мацкевич А.Ю., Семенов В.А. Западная теоретическая социология. – Спб., 1996.

37. Дюркгейм Э. Метод социологии. – М., 1991.

38. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – М., 1991.

39. Дюркгейм Э. Самоубийство: социологический этюд. – М., 1994.

40. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. – М., 1995.

41. Завражин В.Н., Сорокин С.И., Харченко Л.Н. История западной социологии. – СПб., 2009.

42. Зборовский Г.Е. История социологии: Учебник. – М.: Гардарики, 2004.

43. Здравомыслов А.Г. Поле социологии в современном мире. – М.: Логос, 2010.

44. Зиммель Г. Избранное в 2-х томах. – М., 1996.

45. Ионин Л.Г. Понимающая социология. – М., 1979.

46. Ионин А.Г. Социология Георга Зиммеля. – М., 1993.

47. История социологии / под общ. ред. А.В.Воронцова. – М.: Издательство Юрайт, 2013.

48. История социологии (XIX – первая половина XX века): Учебник / под общ. ред. проф. В.И.Добренькова. – М.: ИНФРА-М, 2004.

49. История социологии в Западной Европе и США. Учебник для вузов. Отв. ред. Г.В.Осипов. – М.: Издательство НОРМА, 2001.

50. История теоретической социологии. В 4-х т. Т.1,2,3,4. / Отв. ред. и сост. Ю.Н.Давыдов. – М.: Издательство «Канон+» ОИ «Реабилитация», 2002.

51. История теоретической социологии. Социология XIX века: от появления новой науки до предвестников ее первого кризиса: уч. пособие для вузов. – М.: Академический проспект; Гаудеамус, 2010.

52. История теоретической социологии. Стабилизационное сознание и социологическая теория в век кризиса: уч. пособие для вузов. – М.: Академический проспект; Гаудеамус, 2010.

53. Йоас Х., Книбль В. Социальная теория. Двадцать вводных лекций. Пер.с.нем. – СПб.: Алетейя, 2011.

54. Капитонов Э.А. История и теория социологии. Учебное пособие для вузов. – М.: Издательство ПРИОР, 2000.

55. Ковалевский М.М. Современные социологи. – М.: Изд. дом «Либроком», 2011.

56. Козер Льюис А. Мастера социологической мысли. Идеи в историческом и социальном контексте. – М.: Норма, 2006.

57. Коллиз Р. Четыре социологических традиции. – М.: Изд-во «Территория будущего», 2009.

58. Кукушкина Е.И. История социологии: Учебник. – М.: НИЦ Инфра-М, 2013.

59. Култыгин В.П. Современные зарубежные социологические концепции. – М.: Союз, 2000.

60. Лавров П.Л. Из истории социальных учений. – М.: «ЛКИ», 2011.

61. Лебон Г. Психология народов и масс. – Спб., 1995.

62. Маршалл Т.Х. Избранные очерки по социологии. – М.: ИНИОН РАН, 2006.

63. Мягкова А.Ю. Социология: Основы общей теории: учебное пособие. – М.: ФЛИНТА; МПСИ, 2011.

64. Немировский В.Г. История социологии. – М.: ВЛАДОС, 2005.

65. Новая постиндустриальная волна на Западе. Антология / Под ред. В.Л. Иноземцева, – М., 1999.

66. Осипова Е.В. Социология Эмиля Дюркгейма. – М., 1979.

67. Парсонс Т. О структуре социального действия. – М., 2000.

68. Парсонс Т. Система современных обществ. – М., 1997.

69. Полякова Н.Л. XX век в социологических теориях общества. – М., 2004.
70. Радугин А.А., Радугин К.А. Социология. Курс лекций. Учеб. пособ. для вузов. – М., 1996.
71. Симонова О.А. История социологии XX века: избранные темы: учебное пособие. – М.: Издательство: Логос, 2008.
72. Современная американская социология. Под ред. В.И. Добренъкова. – М., 1994.
73. Сорокин П.А. Главные тенденции нашего времени. – М., 1997.
74. Сорокин П.А. Общедоступный учебник социологии. Статьи разных лет. – М., 1994.
75. Сорокин П.А. Система социологии. Т.1-2. – М., 1993.
76. Сорокин П.А. Социальная и культурная динамика. – Спб., 2000.
77. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М., 1992.
78. Социология: Основы общей теории: учебное пособие / Под ред. А.Ю.Мягкова. – М.: ФЛИНТА; МПСИ, 2011.
79. Социология на пороге XXI века: Основные направления исследований / Под ред. С.И.Григорьева, Ж.Кознен-Хуттера. – М., 1999.
80. Спенсер Г. Опыты научные, политические и философские. – Мн., 1998.
81. Спенсер Г. Синтетическая философия. – К., 1997.
82. Тард Г. Социальная логика. – Спб., 1996.
83. Тексты по истории социологии XIX-XX в.в. Хрестоматия / Сост. и отв. ред. В.И.Добренъков, Л.П.Беленкова. – М., 1994.
84. Теннис Ф. Общность и общество / Пер. с нем. А.Н. Малинкина // Социологический журнал. 1998. № 3/4.
85. Токвиль А. Демократия в Америке. – М., 1992.
86. Трошкин Е.И. История социологии. – Челябинск: Издательство ЮУрГУ, 2006.
87. Фарфиев Б.А. Социология тарихи. Маърузалар матни. – Тошкент: Университет, 1999.
88. Фарфиев Б.А. Нуруллаева У. Социология тарихи. Услубий қўлланма. – Тошкент: Университет, 2009.

89. Франция глазами французских социологов. – М., 1990.
90. Фрейд З. Лекции по психоанализу. – М., 1989.
91. Фромм Э. Пути из большого общества. – М., 1988.
92. Хвостов В.М. Социология: исторический очерк учений об обществе. – М.: Книжный дом «Либроком», 2011.

#### Internet saytlari:

93. <http://www.ziyonet.uz/>
94. <http://www.isras.ru/>
95. <http://www.lib.socio.msu.ru/>
96. <http://www.socioline.ru/>
97. <http://www.socio.rin.ru/>
98. <http://www.sociologos.narod.ru/>
99. <http://www.socionet.narod.ru/>
100. <http://www.sociograd.ru/>

MUNDARLIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I SOTSILOGIYA FANI SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTINING MUMTOZ BOSQICHI</b> .....	5
1. G'arb sotsiologiyasi vujudga kelishining g'oyaviy-nazariy va ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari.....	5
2. O. Kont va pozitiv sotsiologiyaning paydo bo'lishi.....	37
3. G. Spenser va uning tarixiy evolyutsion sotsiologik sistemasi.....	58
4. Sotsiologiyada pozitivistik-naturalistik maktablar.....	82
5. Psixologik (ruhiyat) sotsiologiya.....	119
6. Z. Freyd va uning psixoanalitik (ruhiy tahlil) sotsiologiyasi.....	141
7. F. Tyonnis – nemis mumtoz sotsiologiyasi vakili.....	171
8. G. Zimmel va uning formal sotsiologiyasi.....	194
9. E. Dyurkgeym sotsiologik sistemasi.....	222
10. M. Veber sotsiologik ta'limoti.....	253
11. V. Pareto sotsiologik sistemasi.....	279
<b>II XX ASR BOSHLARIDA SOTSILOGIYANING RIVOJLANISHI</b> .....	297
12. AQSH empirik sotsiologiyasi. Chikago maktabi .....	297
13. Ramziy interaksionizmning vujudga kelishi va rivojlanishi	333
14. Garvard universiteti ravnaqi. P. Sorokin ijodi.....	359
15. T. Parsonsning strukturaviy-funksional nazariyasi.....	402
16. R. Merton va uning strukturaviy funksionalizmi.....	429
<b>TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	458

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna

# SOTSILOGIYA TARIXI

*darslik*

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020

Muharrir: F. Xolsaidov  
Texnik muharrir: Q. Mamiraliyev

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
"Times New Roman" garniturasida.  
Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 30. Nashr bosma tabog'i 29,12.  
Adadi 100 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko'chasi, 6-uy.

ISBN 978-9943-6433-1-4



9 789943 643314